

Ernest  
Xeminguey

# Chol va dengiz



«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI





Ernest  
Xeminguey

---

# Chol va dengiz

---

Qissa

# Alvido, qurol!

---

Roman



  
YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2017

**UO‘K: 821.512.133-3**

**KBK: 84. (7 AQSh)**

**X - 40**

**Xeminguey, Ernest**

Chol va dengiz: qissa. «Alvido, qurol». Roman. Ernest Xeminguey/ Ruschadan Ibrohim G‘afurov tarjimasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2017. – 448 bet.

ISBN 978-9943-27-718-2

Ushbu kitobga dunyo miqyosida mashhur adib, «Nobel» mukofoti sovrindori E.Xemingueyning eng sara asarlari kiritilgan. «Chol va dengiz» qissasida insonning ulug‘ligi, undagi iroda va matonat, oqillik va azm-u qaroridan og‘ishmaslik o‘zgacha talqinda aks etgan.

«Alvido, qurol» romani esa qahramonlarning fikr-xayollari, kechmishlari, urushning insoniyat boshiga solgan mudhish kulfatlari haqida o‘ylashga, tinchlikning qadriga yetishga chorlaydi.

Serqirra ijodkorning millionlab nusxalarda chop etilgan asarlarini mutolaa qilishga shoshiling, aziz kitobxon.

**UO‘K: 821.512.133-3**

**KBK: 84. (7 AQSh)**

**Ruschadan  
Ibrohim G‘AFUROV  
tarjimasi**

ISBN 978-9943-27-718-2

© Ernest Xeminguey, «Chol va dengiz». «Yangi asr avlodi»,  
2017 yil.



## CHOL VA DENGIZ

### Qissa

Chol qayiqda yolg'iz o'zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to'rt kun ham to'ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo'q. U bilan bola qirq kun birga bo'ldi. Hadeganda qo'li quruq qaytaver-gach, ota-onasi unga endi cholning o'taket-gan Salao, ya'ni «o'lguday omadi yurishmagan odam» ekanini aytib, bundan buyon boshqa qayiqda dengizga chiqish kerakligini qulog'iga quydilar. Haqiqatan ham, birinchi haftaning o'zidayoq bu qayiqda baliq desa ar-ziguday uchta baliq tutib kelishdi. Deyarli har kuni cholning dengizdan quruq qaytayotganligini ko'rib bola ich-ichidan ezilar edi. U cholning uskunalari, chan-gak, garpun va machtaga o'ralgan yelkanlarini tashib olishgani qirg'oqqa kelardi. Dag'al matodan to'qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo'lib ketgan, o'rog'liq holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o'xshardi.

Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigarrang dog'lari bilan qoplangan edi.

Dog'lar cho'zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiq izlari ko'rinardi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna edi. Cholda nimayiki bor bo'lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarni-kiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi.

– Santyago, – dedi bola bogʻloqliq qayiq turgan qirgʻoqdan yuqorilab ketgan yoʻl osha koʻtarilisharkan, – endi yana sen bilan dengizga chiqishim mumkin. Hozir biroz pul ishlab qoʻydik.

Chol bolani baliq oviga oʻrgatgan, shuning uchun ham bola uni yaxshi koʻrardi.

– Yoʻq, – dedi chol, – sen baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan. Oʻshanda qolganing maʼqul.

– Esingda bormi, bir vaqtlar rosa sakson yetti kun dengizga chiqib, qup-quruq qaytuvding, keyin ikkalamiz ketma-ket uch hafta kuniga katta-katta baliq ushlab keltirganmiz.

– Esimda, – dedi chol, – sen menga ishonmaganingdan ketganing yoʻq, bilaman.

– Otam majbur qildi. Oʻzim boʻlsam, hali kichkinaman, shuning uchun ularning aytganini qilishim kerak.

– Bilaman, – dedi chol. – Oʻzi ham shunday boʻlishi kerak.

– Otam boʻlsa, uncha ishonqiramaydi.

– Ha, – dedi chol. – Biz esa ishonamiz. Toʻgʻrimi?

– Boʻlmasa-chi. Istasang, yur, seni Terrasda pivo bilan mehmon qilaman. Keyin asboblarni olib ketamiz.

– Hay, mayli, – dedi chol. – Baliqchi baliqchini siylamoqchi ekan, demak...

Ular Terrasga kelib oʻtirishdi. Koʻpgina baliqchilar cholni mazax qilishar, ammo u buni koʻngliga ogʻir olmas edi. Yoshi ulgʻayibroq qolgan baliqchilar esa unga qarab xafa boʻlib ketishar, biroq sir boy bermas va oqim haqida, qarmoqni qancha chuqurlikka tashlashlari, ob-havo, nihoyat, dengizda nimalar koʻrishgani toʻgʻrisida beozor gurunlashib oʻtirishardi. Bugun ishi oʻngidan kelganlar ovdan allaqachon qaytishgan va oʻlja marlinlarini tozalab, bir juft taxta ustiga koʻndalang qoʻyishgancha toʻrtovlashib ularni baliq omboriga eltib topshirishgan edi. Bu yerdan baliqlarni refrijeratorda Gavana bozoriga keltirib sotardilar.

**Akula** ovlab kelgan baliqchilar esa, ularni ko'rfazning narigi qirg'og'idagi zavodga topshirishardi. U yerda akulalarni bloklarga osib qo'yib, jigarlarini sug'urib olishar, qanotlarini kesib, terisini shilishgandan so'ng, go'shtini tuzlash uchun parrak-parrak qilib kesishardi.

Shamol sharqdan esdi deguncha, o'zi bilan akula korxonasining qo'lansa hidini olib kelardi; ammo bugun hid deyarli sezilmas, chunki shamol shimoldan esa boshlab, ko'p o'tmay butunlay tingan edi. Shuning uchun ham Terras serquyosh va so'lim edi.

– Santiago, – dedi bola.

– Xo'sh? – javob berdi chol. U stakanidagi pivoga tikilib o'tirarkan, uzoq o'tgan kunlarni eslardi.

– Ertaga senga sardin tutib keltirsam, maylimi?

– Ovora bo'lma. Yaxshisi borib beysbol o'yna. Hali eshkak urishga kuchim yetadi. Rodjelio bor – to'r tashlab turadi.

– Yo'q, xo'p deya qolgin. Rost, sen bilan birga baliq ovlashim mumkin emas ekan, ul-bulingga yordamim tegsa deymen.

– Axir, sen meni pivo bilan siylab yubording-ku, – dedi chol. – Endi katta yigit bo'lib qolding.

– Birinchi marta meni dengizga olib chiqqaningda yoshim nechada edi?

– Beshda. Qayiqqa tirik baliqni tortib olganimda, u sag'al bo'lmasa hamma narsani chilparchin qilib yuborayozgan va sen ham bazo'r jon saqlab qolgan eding, esingdami?

– Esimda. U quyrug'i bilan urib bankani sindirgan, sen bo'lsang, uni to'qmog'ing bilan rosa do'pposlagan eding. Meni qayiqning mayda-chuydalar yotgan burniga itqitib yuborgansan. Qayiq zirillab qaltirovdi, xuddi o'tin chopganday to'qmog'ingni to'q-to'q ovozi eshitilib turuvdi. Hamma yoqni chuchmal qon hidi bosib ketgan edi. Bularning bari esimda.

– Rostdan ham bularning hammasi esingdami yoki keyin senga aytib berganmidim?

– Meni o‘zing bilan dengizga olib chiqqan kuningdan tortib, hammasi esimda.

Chol oftobda qizarib ketgan, inonuvchan va mehribon ko‘zlari bilan unga qaradi.

– Agar o‘z o‘g‘lim bo‘lganingda, hozir ham seni o‘ylab-netib o‘tirmay dengizga olib chiqardim. Ammo o‘z ota-onang bor, boz ustiga baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan.

– Kel endi, senga sardin tutib keltiray, yo‘q demagin. Innaykeyin, to‘rt dona xo‘rak topib kelaman. Qayerdan topishni o‘zim bilaman.

– Menda hali bugungilari shundoq turibdi. Ularni tuzli qutiga solib qo‘ydim.

– Senga to‘rtta yangisini tutib kelaman.

– Bittasi ham yetadi, – e‘tiroz bildirdi chol.

U, shunday ham kelajakka na ishonchini va na orzu-a‘molini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, hozir bu hislar uning qalbida, go‘yo dengizdan kishining qulfi-dilini ochadigan shabboda esgandagidek, mustahkamlanib borardi.

– Ikkita, – dedi bola.

– Mayli, ikkita, – taslim bo‘ldi chol. – Mabodo, sen ularni o‘g‘irlab olmaganmisan?

– Kerak bo‘lsa, o‘g‘irlardim ham. Ammo ularni sotib olganman.

– Rahmat, – dedi chol.

Itoatkorlik ruhi qachondan boshlab o‘z qalbida qo‘nim topgani ustida bosh qotirib o‘tirmoqlik uchun chol benihoya soddadil edi. Ammo u o‘zining itoatgo‘y bo‘lib qolganini va bu itoatdan u o‘z nomusi, insonlik qadr-qimmatini yo‘qotmaganligini bilar edi.

– Agar oqim o‘zgarmasa, ertaga kun yaxshi bo‘ladi, – dedi chol.

– Qayerda ov qilmoqchisan?

– Qirg‘oqdan uzoqroq joyda. Shamol o‘zgarganda qaytaman. Tong otmasdan chiqaman.

– Sherigimni ham uzoqroqda ov qilishga ko'ndirish kerak bo'ladi. Agar qarmog'ingga juda katta baliq ilinib qolsa, biz yordamlashib yuboramiz.

– Uning qirg'oqdan ko'proq uzoqlashishga tobi-nobi yo'q.

– Shunaqa, – dedi bola. – Ammo men uning ko'zi o'tmaydigan biron narsani topishga harakat qilaman. Juda bo'lmasa, chaykalar bor-ku. O'shanda uni tilla makrel tutamiz deb uzoqroqqa borishga ko'ndirish mumkin.

– Nahotki, uning ko'zlari shu qadar ojiz bo'lib qolgan bo'lsa?

– Nimasini aytasan, ko'r desa ham bo'ladi.

– Qiziq. U, axir, hech vaqt toshbaqa ovlamas edi, shekilli. O'zi shu toshbaqa ovi hammadan ham ko'zni o'tmas qilib qo'yadi.

– Lekin sen shuncha yil toshbaqa deb, Moskit qirg'og'iga borsang ham, ko'zlaring baribir, joyida-ku.

– Menmi? Mening zuvalam o'zi boshqacha uzilgan.

– Agar juda ham kattakon baliq duch kelib qolsa, kuching yetarmikin?

– Yetsa kerak, deb o'ylayman. Hamma gap – epchilikda.

– Asboblarni uyga eltib qo'yaylik-a. Keyin men to'rni olib, sardin tutishga boraman.

Ular asboblarni qayiqdan tushirishdi. Chol yelkasiga machtani oldi, bola esa jigarrang kalava ipdan chambarchas to'qilgan qarmoq chilvirlari solingan yashik, changak va dastali garpunni ko'tardi. Qayiqda xo'raklar solingan yashik hamda yirik baliqlarni suv betiga tortib chiqarilganda, ularni garang qilish uchun ishlatiladigan to'qmoq qoldi. Cholning asbob-uskunalarini o'g'irlab ketish hech kimning xayoliga ham kelmasa kerak edi, ammo yelkan va og'ir anjomlar tun shabnamidan nam tortib qolmasligi uchun ularni uyga olib borib qo'ygan ma'qul edi. Garchi chol o'z narsalariga



shu yerlik odamlardan birontasi ham ko'z olaytirmasligiga amin bo'lsa-da, harqalay, changak va garpunini yomon ko'zdan holiroq tutishga harakat qilardi.

Ular yo'ldan cholning kulbasiga ko'tarildilar va lang ochiq eshikdan ichkariga kirishdi. Chol machta va unga o'ralgan yelkanini devorga suyadi, bola esa qo'lidagi narsalarni uning yoniga qo'ydi. Machtaning uzunligi bu yerda auguo deb ataladigan qirol palmalarining yaproqlaridan qurilgan kulbaning bo'yiga teng edi. Kulbada karavot, stol, stul va quruq sahnga pistako'mir bilan obi yovg'on tayyorlash uchun o'yilgan o'choq bor edi. Uning tekislab quritilgan tolasimon yaproqlardan bo'lgan jigarrang devorlarini Tangri qalbi va Santa Maria del Cobrening rangdor oleagrafiya bilan ishlangan tasviri bezab turar edi. Bular unga marhum xotinidan qolgan edi. Qachonlardir devorda xotining rangdor surati ham osig'liq turardi, ammo keyin chol uni bekitib qo'ydi, chunki ko'zi tushsa, juda-juda ezilib ketardi. Endi surat burchakdagi tokchada, toza ko'ylak ostida yotardi.

– Kechki ovqatga nimang bor? – so'radi bola.

– Bir tovoq sariq guruch bilan baliq. Yeysanmi?

– Yo'q, men uyda ovqatlanaman. Senga o't yoqib beraymi?

– Kerakmas. Keyinroq o'zim yoqaman. Balki, guruchni sovuqligicha yerman.

– To'zni olsam maylimi?

– Bemalol.

To'r-po'r degan narsadan allaqachonoq nom-nishon qolmagan – uni qay mahal pullab yuborishgani bolaning yodida edi. Shunday bo'lsa ham, har ikkovlari buni bilmaganga solishar va o'zlarini go'yo cholda to'r borday tutishar edi. Mis tovoqda sariq guruch bilan baliq ham yo'q edi, bola buni ham bilardi.

– Sakson besh – baxt keltiruvchi raqam, – dedi chol.

– Qalay, ertaga ming qadoqli baliq tutishimga ko'zing yetadimi?

– Men to‘r topib sardin tutgani boraman. Hozircha ostonada o‘tirib tur, bu yerga oftob tushib turibdi.

– Mayli. Menda kechagi gazeta bor. Beysbol haqida o‘qib turaman.

Cholda haqiqatan ham gazeta bormidi yoki bu ham yolg‘on gapmidi, bola bilmasdi. Lekin chol karavot tagidan chini bilan ham gazeta oldi.

– Menga buni vino do‘konida Periko berdi, – deb tushuntirdi chol.

– Men sardin tutaman-u, qaytaman. O‘zimnikini ham, senikini ham birga muzga qo‘yaman, ertalab bo‘lishib olamiz. Qaytib kelganimda, beysbol haqida gapirib berasan.

– «Yanki»ning yutqazishi mumkin emas.

– Klivlend «Hindilar»i ularni boplab qo‘ymasa deb qo‘rqaman.

– Qo‘rqma, o‘g‘lim. Ulug‘ Di Madjioni bir eslagin-a.

– Men faqat «Hindilar»dangina emas, Detroyt «yo‘lbarzlari»dan ham qo‘rqaman.

– Xudo ko‘rsatmasin, sen hali sintsinatilik «Qiziltanlilar»dan ham, Chikago «Oq paypoqlar»idan ham qo‘rqib o‘tirarsan.

– Gazetani o‘qib tur, men qaytgach, gapirib berasan.

– Menga qara, sakson besh raqamli lotereya biletini sotib olsak-chi, nima deysan? Axir, ertaga sakson beshinchi kun-ku!

– Olsak, olaveramiz-da, – dedi bola. – Balki sakson yetti raqamligi yaxshidir? Axir, o‘tgan gal sakson yetti kun bo‘lgan edi-ku.

– Bir narsa ikki marta hech qachon qaytarilmaydi. Sen sakson besh raqamli biletini topa olasanmi?

– Qidirib ko‘raman.

– Bir dona. Ikki dollar-u ellik sentligidan. Buni qayerdan qarz olsak ekan?

– Bundan osoni yo‘q. Men ikki dollar-u ellik sentni xohlagan vaqtimda qarz olishim mumkin.

– Olaman desam, men ham ilojini qilardim-u, biroq men qarz olmaslikka harakat qilaman. Oldin qarz olasan, keyin sadaqa soʻraysan.

– Ehtiyot boʻl, qariya, tagʻin shamollab qolmagin. Sentyabr ekanligini unutma.

– Sentyabrda yirik baliq koʻpayadi. May oyida baliq ovlash har kimning ham qoʻlidan keladi.

– Xoʻp, boʻlmasa, men sardinni toʻgʻrilab kelay, – dedi bola.

Bola qaytib kelganda, kun botgan, chol esa kursida oʻtirganicha, uyquga ketgan edi. Bola karavotdan eski soldat koʻrpasini olib, kursi suyanchigʻi aralash cholning yelkasini yopib qoʻydi. Bu yelkalar cholning kek-sayib qolganiga qaramasdan zabardast, boʻyni ham, undan qolishmaydigan darajada baquvvat va hozir, chol boshini koʻkragiga solintirib uxlagan tobda, ajinlari ham u qadar koʻzga tashlanmas edi. Uning koʻylagi ham xuddi yelkaniday qirq yamoq boʻlib ketgan, yamoqlar quyosh taftidan ola-bula tusga kirgan edi. Ammo cholning yuzi, harqalay, ancha qarimsiq boʻlib qolgan va hozir koʻzlari yumilib uyquga ketganda, xuddi jonsizga oʻxshab koʻrinardi. Cholning tizzasida, uchib ketmasin deb, tirsak bilan bosib olingan gazeta yotardi. U oyoq yalang edi.

Bola uni uygʻotib oʻtirmay chiqib ketdi, qaytib kelganda, chol hamon uyquda edi.

– Tur! – uygʻotdi uni bola va qoʻlini cholning tizzasiga qoʻydi.

Chol koʻzini ochdi va bir muddat qayerdandir, juda uzoqlardan qaytayotganday boʻlib turdi. Keyin u jilmaydi.

– Nima olib kelding?

– Yegulik keltirdim. Hozir ovqatlanamiz.

– Hali uncha ochiqqanim ham yoʻq.

– Kelsang-chi endi, och qoringa baliq ovlab boʻlar-mishmi?

– Baʼzan shunday ham boʻlgan, – dedi chol oʻrnidan qoʻzgʻalarkan, gazetani taxlay turib, soʻng u koʻrpasini yigʻishtira boshladi.

– Koʻrpani yigʻishtirma, – dedi bola. – Men tirik ekanman, ovqatlanmasingdan turib, seni baliq ovlashga qoʻymayman.

– Unday boʻlsa, dard koʻrmagin, umring uzoq boʻlsin, – dedi chol. – Qani, nima yeymiz?

– Qora loviya bilan guruch, qovurilgan banan va yaxna goʻsht.

Bola ovqatni Terras restoranidan metall idishda olib kelgan edi. U sanchqi, pichoq va qoshiqlarni choʻntagiga solib olgan, bularning har biri alohida-alohida qogʻoz salfetkalariga oʻralgan edi.

– Shuncha narsani senga kim berdi?

– Restoran xoʻjayini, Martin.

– Unga rahmat deb qoʻyish kerak.

– Xotirjam boʻl, men uni rozi qildim, – dedi bola.

– Men unga katta baliqning eng sergoʻsht joyidan beraman, – dedi chol. – Axir, bu uning bizga qilayotgan birinchi yordami emas-ku.

– Yoʻq, birinchi emas.

– Unday boʻlsa, bir boʻlak goʻsht ozlik qiladi. U bizga koʻp yaxshilik qilgan.

– Bugun-chi, pivo ham berdi.

– Men hammadan ham konservalangan pivoni yaxshi koʻraman.

– Bilaman. Lekin bugun u shishada pivo berdi. Shishasini qaytarib beraman.

– Xoʻp, rahmat senga, – dedi chol, – kel, ovqatlanaylik.

– Men senga qachondan beri ovqatlanaylik, deyapman, – dedi mehribonlik bilan bola. – Ovqat sovub qolmasin deb, idishning ogʻzini ochmay, kutib turibman.

– Hay mayli, yuvinib olsam boʻlardida.

«Qayerda ham yuvinarding?» – oʻyladi bola. Bu yerdan kolonkagacha ikki kvartal bor edi. «Unga sovun

va yaxshi sochiq olib berish zarur, suvning ham ketini uzmaslik kerak. Bu to'g'rida nega avval o'ylab ko'rma-gan ekanman. Unga yangi ko'ylak, qishki kurtka, bi-ron etik-petik va yana bir ko'rpa ham lozim».

– Lazzatli go'sht ekan, – maqtadi chol.

– Beysbol haqida gapirib ber, – so'radi undan bola.

– Amerika ligasida, men aytganimdek «Yanki» yutyapti, – mamnuniyat bilan so'zlay boshladi chol.

– Shundayku-ya, lekin bugun ularning tozayam tit-pitini chiqarib yuborishdi.

– Bu hech gap emas. Yana ulug' Di Madjio o'yinning payxovasini olgan.

– Guruhda uning bir o'zi emas-da.

– To'g'ri. Lekin hamon o'yinning natijasi unga bog'liq. Bruklinliklar bilan filadelfiyaliklar o'ynaydigan ikkinchi ligada esa yutishga faqat bruklinliklarda im-koniyat bor. Dik Sayzler qanday o'ynaganligini sen har holda eslasang kerak? Eski parkda bo'lgan o'yindagi uning zarbalarini aytmay-sanmi? Bay-bay.

– Juda zo'r-e, qurg'ur! U hammadan uzoqqa otadi.

– Uning Terrasga kelgani esingdami? Men uni o'zim bilan birga baliq oviga taklif qilmoqchi bo'ldim-u, lekin iymandim. Senga taklif qil desam, sen ham uyalding.

– Esimda. Men qo'rqib tentaklik qildim. Kim biladi, balki, rozi bo'larmidi? O'la-o'lguncha esdan chiqmay-digan ish bo'lardi-da.

– Qani endi ulug' Di Madjioni o'zimiz bilan birga dengizga olib chiqolsak, a? – dedi chol. – Otasi baliqchi bo'lgan, deyishadi. Kim biladi, balki uning o'zi ham bir vaqtlar bizga o'xshagan kambag'al bo'lgandir. Aytgani-mizda kelishga or qilib o'tirmasdimi, balki.

– Ulug' Sayzlarning otasi hech qachon kambag'al bo'lgan emas, mening yoshimda u chinakam guruhda o'ynar ekan.

– Men bo'lsam sening yoshingda yelkanli kemada yunga bo'lib, Afrika qirg'oqlariga suzib borganman.

**Kechqurunlari yo'lbarslarning qirg'oqqa chiqishini ko'rganman.**

– Bir gapirib beruvding.

– Xo'sh, biz nima haqda gaplashmoqchimiz o'zi – Afrika to'g'risidami yoki beysbol haqidami?

– Yaxshisi beysbol haqida. Menga buyuk Djon Mak Grou haqida gapirib ber.

– U ham avvallari bizning Terrasimizga kelib turardi. Ammo ichib olsa, tamom, unga hech ham bas kelib bo'lmasdi. U faqat beysbolgina emas, ot jinnisi ham edi. Har doim cho'ntagida musobaqa dasturini olib yurar va telefon orqali otlarning nomini atab, ularga pul tikardi.

– U ulug' murabbiy edi, – dedi bola. – Otam, u butun dunyoda eng ulug' murabbiy bo'lgan, deydi.

– Uni boshqalardan ko'proq ko'rgani uchun shunday deydi. Agar Dyuroshe ham biz tomonlarga har yili kelib turganda, otang uni ham dunyoda eng ulug' murabbiy, deb maqtagan bo'lardi.

– Seningcha, eng ulug' murabbiy kim? Lyukmi yoki Mayk Gonsalesmi?

– Menimcha, ular bir-birlaridan qolishmaydi.

– Dunyoda eng chapdast baliqchi esa – sensan.

– Unday emas. Mendan ham zo'r baliqchilarni ko'rganman.

– Que Val<sup>1</sup> – dedi bola. – Dunyoda yaxshi baliqchilar kam emas, juda ajoyiblari ham bor. Lekin sening ol-dingga tushadigani yo'q.

– Rahmat. Sen shunday deb o'ylasang, xursandman. Menga judayam katta baliq tushmaydi, deb umid qilaman, aks holda, ishni do'ndirolmay qolib hafsalangni pir qilib qo'ymasam, deb qo'rqaman.

– Haqiqatan ham avvalgi kuching bo'lsa, dunyoda sen eplolmaydigan baliq topilmasa kerak.

---

<sup>1</sup> Qo'ysang-chi.

– Balki, ilgari kuchim qolmagandir. Lekin menda g'ayrat bor, chidamim ham yetarli.

– Endi sen yotib uxla, ertalab tetik bo'lib turishing kerak. Men bo'lsam idishlarni olib borib beraman.

– Mayli. Xayrli kech. Ertalab men seni uyg'otaman.

– Sen men uchun naq qo'ng'iroq soatning o'zisan, – dedi bola.

– Men uchun qarilikning o'zi qo'ng'iroq soat. Chollar nega juda barvaqt turisharkin-a? Nahotki, buni qolgan umrlaridan bir kunini bo'lsa ham, cho'zish niyatida qilishsa?

– Bilmadim. Faqat shuni bilamanki, yoshlar qattiq va ko'p uxlashadi.

– Boshimdan o'tgan, bilaman, – dedi chol. – Men seni vaqtida uyg'otaman.

– Negadir meni anavi uyg'otganini yoqtirmayman. Xuddi men undan qolishadigandek.

– Tushundim.

– Xayrli kech, Santyago.

Bola ketdi. Ular chiroq yoqmasdan ovqatlanishganidan, chol qorong'ida yechinib yotdi. U kiyimlariga gazetani ham qo'shib o'rab, yostiq o'rniga boshiga qo'ydi. Chol ko'rpasiga burkanib, karavotning quruq prujinalariga tashlab qo'yilgan eski gazetalar ustiga cho'zildi.

U yotdi-yu, uxlab qoldi. Uyqusida yoshlik chog'lari o'tgan Afrika, uning uzun, oltin qirg'oqlari va ko'zni qamashtirgudek oppoq sayozliklar, yuksak qoya va haybatli qo'ng'ir tog'lar tushiga kirdi. Endi u yana har kecha uyqusida shu qirg'oqlarga qo'nar, uvvos bilan otilgan to'lqinlarning shovqinini eshitar va yerlilar tushgan qayiqni to'lqin qirg'oqqa qanday surib borayotganini ko'rib turardi. Tushida u hamon palubadan chiqayotgan los va smola isini tuyar, dimog'iga ertalabki shamol qirg'oqdan olib kelgan Afrika nafasi urilardi.

Odatda shu bo'ý dimog'iga kirdi deguncha, chol uyg'onib ketar va kiyinib, bolani uyg'otgani jo'nardi. Ammo bugun o'sha qirg'oq hidi juda erta dimog'iga urildi va bu tushida bo'layotganini bilgach, dengizdan turtib chiqqan qoyalarning oq cho'qqilarini, Kanar orollarining gavan va ko'rfazlarini yana bir bor ko'rish uchun uyqusidan bosh ko'targisi kelmadi.

So'nggi paytlarda uning tushiga na to'fonlar, na xotinlar va na buyuk voqealar, na ulkan baliqlar va na janjal-suronlar, na kuch sinash musobaqalari va na o'z xotini kirardi. Endi tushida uzoq o'lkalar va qirg'oqqa chiqayotgan sher bolalarinigina ko'ardi, xolos. Ular xuddi mushukchalar singari g'ira-shira tun qo'ynida g'ujg'on o'ynashar va chol bolaga qanchalik muhabbat qo'ygan bo'lsa, bularni ham shunchalik sevar edi. Ammo bola hech qachon tushiga kirmasdi.

Chol uyg'onib ketdi, ochiq qolgan eshikdan oyga nazar tashladi va kiyinib tashqariga chiqdi, yozildi, bolani uyg'otish uchun yo'ldan yuqoriga qarab ketdi. Tonggi salqindan junjikdi. Ammo bu vaqtincha ekani va tezda qayiqqa o'tirib, eshkak esha boshlashi bilan isib ketajagini chol bilar edi.

Bola yashaydigan uyning eshigi ochiq edi, chol oyoq uchida ichkari kirdi. Bola old xonadagi karavotda uxlab yotar, oyning siniq nurida chol uni tanib ola bilardi. U bolaning oyog'idan ohista ushladi va u to uyg'onib, yelkasiga ag'darilib o'ziga qaramaguncha, kutib turdi. Chol unga imo qildi; bola karavot yonidagi kursidan shalvarini olib, o'tirganicha, kiyib oldi.

Chol uydan chiqdi, bola ham unga ergashdi. U hamon chala uyquda edi va chol uning yelkasidan quchib, dedi:

– Meni kechir.

– QV ue a! – dedi bola. – Biz erkaklarning qismatimiz shunaqa o'zi. Nima ham qilib bo'lardi.



Ular cholning kulbasiga tushib borishdi. Butun yo'l bo'ylab, qorong'ida, o'z qayiqlarining machtalarini ko'tarib olgan oyoq yalang kishilar borishardi.

Kulbaga kelishgach, bola qarmoq kalavalari so-lingan savat, changak va garpunni ko'tardi, chol esa machta va unga o'ralgan yelkanni yelkasiga ortdi.

– Qahva ichasanmi? – so'radi bola.

– Avval mana bularni qayiqqa eltib qo'yaylik, keyin qahva ichamiz.

Ular baliqchilar uchun juda erta ochiladigan tamad-dixonada konserva bankada qahva ichishdi.

– Yaxshi uxlab turdingmi, qariya? – so'radi bola; uning issiq o'rnini sahar-u mardon bo'lmasdan tark qilganidan qiynalayotgani ko'rinib tursa ham, har-qalay, u, boyagiga qaraganda ancha tetik tortgan edi.

– Juda yaxshi, Manolin. Bugun omadimiz kelishiga ishonaman.

– Men ham, – dedi bola. – Endi men sardinlarimizni va sening xo'raqlaringni keltiray. Mening sherigim mayda-chuydasini o'zi tashiydi. Narsalariga bosh-qalarning qo'l urishini yoqtirmaydi.

– Sen bilan biz bo'lsak, unday emasmiz. Yoshing beshlarda ekanligidayoq, senga u-buni tashitib o'rgat-ganman.

– Bilaman, – dedi bola. – To'xtab tur, hozir qayta-man. Qahva ichib o'tir. Bu yerda bizga qarz berishadi.

U marjon riflari ustidan yalang oyoqlari bilan shilp-shilp odim tashlab, xo'raqlar saqlanadigan sovuqxona tomonga ketdi.

Chol maydalab ohista qahva ho'pladi. Hozir qonib qahva ichib olish kerakligi, chunki shu bilan endi uzzukun tuz totmasligi cholga ayon edi. Ovqatlanish-ning o'zi allaqachonoq uning joniga tekkan va chol hech mahal dengizga o'zi bilan yegulik olib chiqmas edi. Qayiqning burnida suv to'ldirilgan shisha saqla-nar – cholga kechgacha shuning o'zi kifoya edi.

Bola sardinlar va gazetaga o'ralgan xo'raqlarni ko'tarib qaytib keldi.

Baliqchilar so'qmoq bo'ylab mayda toshlarni shovdirata-shovdirata suv bo'yiga tushib kelishdi. Ular qayiqning tagidan ko'tarib, suvga siljitishdi.

- Ishing o'ngidan kelsin, qariya.


- Seniki ham.

Chol eshkaklarning arqondan qilingan halqasini qayiqning ikki chetidagi qoziqlarga o'rnatib, mahkam-ladi-da, oldinga enkayib, qayiqni qorong'ida gavandan olib chiqa boshladi. Boshqa yerlardagi qayiqlar ham dengizga qarab yo'l olgan, oy tepaliklar ortiga o'tib ketganidan, chol ularni ko'rmas, ammo eshkaklarning suvga urilgan ovozini baralla eshitardi.

O'qtin-o'qtin quloqqa kishilarning goh u qayiqdan, goh bu qayiqdan chiqayotgan tovushi chalinardi. Ammo aksar qayiqlarda sukunat hukm surar va o'sha yoqdan faqat eshkaklarning cho'pillagani eshitalardi. Ko'rfazdan chiqqach, qayiqlar turli tomonga tarqalib ketdi, qaysi baliqchi qayerdan baliq topishga umid bog'lagan bo'lsa, o'sha yoqqa yo'l tutdi.

Chol qirg'oqdan ancha olisga ketishni avvaldanoq o'ylab qo'ygan edi; u yerning anvoyi bo'yini ortda qoldirib, to'g'ri salqin tonggi okean quchog'i sari eshkak ura boshladi. Okeanning baliqchilar «buyuk quduq» deb atashgan yeridan o'tib keta turib, chol okean qa'rida yaltirab turgan suv o'simliklarini ko'rdi. Bu yerda chuqurlik deyarli yetti yuz dengiz sarjini<sup>1</sup> miqdorida tikkasiga tushib borar va bunday oqim okean tubining o'tkir do'nglariga urilib, aylana hosil qilganidan turli-tuman baliqlar to'planishar, xususan, krivetka va mayda baliqlarning beqiyos to'dalari yig'ilib qolar-di, juda katta chuqurliklarda esa, goho ko'pdan-ko'p karakatitsalar g'ujg'on o'ynashadi: ular tunda okean yuziga chiqishadi va daydi baliqlarga yem bo'lishadi.

<sup>1</sup> Sajon - sarjin - 2,13 m ga teng uzunlik o'lchovi (tax.).



Chol qorong'ida tong yaqinlashayotganini sezdi, eshkak urarkan, qulog'iga titroq tovush chalindi – uchar baliqlar suvdan chiqar va temirdek qanotlari bilan havoni kesib allaqayoqlarga g'oyib bo'lardi. Chol uchar baliqlarga mehr qo'yan, ular bu yerda, okeanda unga eng yaxshi hamroh bo'lib qolgan edilar. Chol qushlar va, ayniqsa, betinim oziq axtarib uchgan, ammo deyarli hech qachon uni topolmaydigan jimit va nozik dengiz qaldirg'ochlariga achinib ketar va: «Qushlar turmushi, qironqora va katta, kuchli qushlarni hisobga olmaganida, bizning kun kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir. Okean gohida shu qadar berahm bo'lar ekan, nima uchun qushlarni mana bu dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va shikasta qilib yaratganlar. Okean saxiy va go'zal, ammo u goho to'satdan shunday shafqatsiz bo'lib ketadiki, uning ustida oziq ilinjida charx urib sho'ng'ib, ojiz va mungli ovoz bilan bir-birlariga jo'r bo'lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo'rt ko'rinadi», deb o'ylardi.

U har doim dengizni, unga muhabbat qo'yan hamma kishilar kabi xayolidan ispanchasiga la mar deb atardi. Ayrim paytlarda dengizga mehr qo'yan odamlar, u haqda badhazm gaplar aytishadi, ammo doimo bu gaplar dengiz emas, go'yo ayol ustida borayotganiga o'xshaydi. Akula jigarining narxi oshgan kunlarda sotib olingan motorli qayiqlarda yurib, qarmoqlariga po'kak o'rniga buy<sup>1</sup> ishlatadiganlar xilidan bo'lgan yoshroq baliqchilar esa dengizni Vel mar deb ataydilar va unga er kishiga qaraganday qaraydilar. Ularning nazdida dengiz go'yo, hududsiz bir sayhon, go'yo bir raqib, gohida esa, hatto bir dushman bo'lib ko'rinadi.

Chol bo'lsa, doimo dengiz deyilganda, goh tengi yo'q saxovatlar in'om etib, goh tumtayib turib oluvchi xotin kishini ko'z o'ngiga keltirardi. Agar u yengiltak yoki xunuk ishlar qilib qo'ysa, nima ham qilib bo'lardi, ta-

---

<sup>3</sup> B u y – baken (tarj.).

biati o'zi shunaqa demoqlikdan boshqa iloji yo'q. «Oy xotin kishining qitig'iga tegib, jo'shtirib yuborganday, dengizni ham javlon urdiradi», deb o'ylardi chol.

U kuchanmasdan, bir me'yorda eshkak urar, chunki oqim girdob hosil qilmagan joylardan tashqari, okean sirti tep-tekis, silliq edi. Chol o'zi bajarishi kerak bo'lgan ishning uchdan bir qismini oqimga qo'yib bergan va kun yorishganda, u xuddi shu mahalda yetishni mo'ljallagan yerdan ham ancha olisga kelib qolganini ko'rdi.

«Juda chuqur joylarda butun bir hafta ov qilib, hech narsa tutganim yo'q, – deb o'yladi chol, – bugun men bonito va albakore to'dalari qayerda bo'lsa, o'sha yerda baxtimni sinab ko'raman. Xudodan bo'lib, yirik baliq uchrab qolsa-ya?»

Hali tong oqarmasdan, xo'rak qistirilgan qarmoqlarini suvga tashladi va qayiqni oqimda ohista boshqarib bordi. Xo'raklardan biri qirq dengiz sarjinicha chuqurlikda edi, boshqasi yetmish besh sarjin pastga tushdi, uchinchi va to'rtinchilari esa yuz va yuz yigirma besh sarjin chuqurlikka cho'mdi. Xo'raklarning bosh qismi pastga osilib turar, qarmoqning o'qi xo'rak-baliq ichidan o'tkazilib, mustahkam qilib qo'yilgan, qarmoqning o'zi – buklamasi va suyrisi yangi sardinlar bilan qoplangan edi. Sardinlar qarmoqqa ikkala ko'zidan o'tkazilgan va ular po'lat buklamada marjondek tizilib turardi. Yirik baliq qarmoqqa yaqinlashganda, uning har bir luqmasi nechog'li totli va ishtaha qo'zg'aydigan darajada mazali ekanligini sezardi-qo'yardi.

Chol, bola berib yuborgan ikkita yangi tutilgan yirtqich baliq – tunetsni eng uzun chilvirlarga xo'rak qildi, qolgan ikki chilvirga esa, kattakon zangori makrel bilan sariq umbritsani ildi. Bulardan avvalgi ovda foydalanган bo'lsa-da, ular hali ham yangidek turar, ajoyib sardinlar esa, ularni xushta'm qilar, baliqlarning nafsini qitiqlardi. Yo'g'onligi katta qalamday bo'lgan har

bir chilvir pishiq, egiluvchan chiviqqa tortilgan ediki, baliqning yemga sal bo'lsa ham tegib o'tishidan chiviq suvga egilardi. Bundan tashqari, chilvirlar har biri qirq sarjin uzunlikda bo'lgan navbatdagi kalava uchlariga ulangan, bu kalavalar yana boshqa ehtiyot shart kalavalariga ulanishi mumkin edi. Kerak bo'lganda, ilingan baliqni uch yuz sarjin uzoqlikka qo'yib yuborilsa ham bo'laveradi.

Endi chol ko'k chiviqlar bortga egilmasmikin deb kuzatib o'tirar va chilvirning suvga tik hamda lozim bo'lgan chuqurlikka tushishiga e'tibor berib, ohista suzardi. Hamma yoq yorishib ketdi, quyosh mana-mana chiqaman derdi.

Quyosh dengizdan bilinar-bilinmas ko'tarildi va boshqa qayiqlar ham cholning ko'ziga tashlandi, ular qirg'oqqa ancha yaqin bo'lib, butunlay oqim bag'rida suvga past cho'kkan holda turar edilar. Keyin oftob shu'lasini o'tkirlashdi, suvda uning yolqini aks etdi, quyosh ufqdan batamom ko'tarilganda, dengizning sip-silliqlik sirti yolqin nurlarini to'g'ri ko'zga keltirib urdi-yu, qattiq azob bera boshladi: chol suvga qaramasdan, eshkak tortishga harakat qildi. U o'z chilvirlari cho'zilib ketgan sim-siyoh dengiz tubiga tikilib o'tirardi. Uning chilvirlari suvga boshqa baliqchilarnikiga qaraganda tikroq tushar va yemishlar har xil chuqurliklarning tayin bir o'rnida o'z o'ljasini kutardi. Boshqa baliqchilar o'z qarmoqlarini oqimga beparvo qo'yib berishar, natijada yuz sarjingga tashladim deb o'ylagan qarmoqlari ayrim paytlarda oltin sarjin chuqurlikka zo'rg'a yetgan bo'lardi.

«Men qarmoqlarimni doimo bexato tashlayman, – deb o'yladi chol. – O'zi ishim o'ngidan kelmayapti. Yana kim biladi? Ehtimol, baxt bugun menga ham kulib boqar. Har kunning o'z taomili bor. Albatta, kishining ishi yurishib turganiga nima yetsin. Ammo men o'z ishimning puxta bo'lishini ma'qul ko'raman. Baxt kelgan chog'da, uni kutib olmoqqa tayyor turaman».

Quyosh ko'tarilgandan beri ikki soat atrofida vaqt o'tdi, endi sharq tomonga bemaolroq qarash mumkin edi. Uzoqda hozir faqat uchtagina qayiq ko'zga tashlanardi. Bu yerdan qaraganda, ular suvdan zo'rg'a ko'tarilib turganday tuyular, qirg'oqdan hech bir uzoqlashmaganga o'xshardi.

«Ko'zlarimni bir umr tong yog'dusi qamashtirib keladi, – deb o'yladi chol. – Ammo ular hali ham o'tkir. Kunbotarda quyoshga bemaol qaray olaman, biroq shunda ham ko'zim jimirlashib ketmaydi. Kechqurun bo'lsa, quyosh kuchliroq nur sochadi. Ammo ertalablari u menga azob beradi».

Shu payt u qarshisida uzun qora qanotlarini yozib, ko'kda charx urgan dumdor qush – fregatni ko'rdi. Qush qanotlarini yig'ib, o'zini o'qdek suvga urdi, keyin yana gir aylanib ucha boshladi.

– O'lja sezganga o'xshaydi, – dedi chol o'ziga o'zi. – Bekorga aylanmayapti.

Chol qayiqni qush kezayotgan tomonga qarab ohista va bir me'yorda boshqarib borardi. U chilvir-lar suvga tikkasiga tushib borsin deb, shoshmasdan ularni kuzatib kelardi. Shunday bo'lsa ham qayiq, harqalay oqimdan ko'ra picha tezroq borar va chol hamon rasamadi bilan ov qilayotganiga qaramasdan xatti-harakatlari qush ko'ringanga qadar bo'lgandan ko'ra, birmuncha tezlashgan edi.

Fregat balandroqqa ko'tarildi va qanotlarini muallaq tashlab, yana chir aylana boshladi. Birdan u sho'ng'idi va chol uchar baliqning suvdan otilib chiqqanini, dengiz sirti bo'ylab jon-jahdi bilan qanot shopirib ucha ketganini ko'rib qoldi.

– Makrel, – dedi chol baland ovoz bilan. – Yirik tilla makrel.

U eshkaklarni suvdan ko'tarib qo'ydi va qayiq burnidagi taxta kat ostidan chilvir oldi. Chilvir uchiga ingichka sim bilan mahkamlangan maydaroq qarmoqqa

u sardinlardan birini ildi. Chol chilvirni suvga tashlab, bir uchini qayiqning quyrug'iga burab o'rnatilgan halqaga bog'lab qo'ydi. Keyin u boshqa chilvirga ham xo'rak o'rnatdi-da, kalavani yoymasdan katning soyasiga tashladi. Eshkakni qo'lga oldi va suv ustida endi past uchib ov qilayotgan uzun qanot, qora qushni kuzatishda davom etdi. Qush qanotlarini yig'ib yana suvga sho'ng'idi. So'ng uchar baliq ortidan quvarkan, ojiz va uquvsiz qanot qoqdi. Chol suv sal-pal to'zgiyotganini ko'rди – tilla makrel o'zidan qochayotgan baliqni ta'qib etardi. Baliq suvga tushadigan onda, xuddi uning ostida paydo bo'lmoqlik uchun, makrel shiddat bilan suzib, baliq qarshisidan kesib chiqishga intilardi.

«U yerda juda katta makrel to'dasi borga o'xshaydi, – o'yladi chol. – Ular bir-birlaridan ancha narida suzishadi, baliqning qochib qutulishi amrimahol. Qushning bo'lsa, uni changalga olishga hech qanday umidi yo'q. Uchar baliq fregatga haddan tashqari yiriklik qiladi. U qushni o'ziga yetkazib bo'пти».

Chol uchar baliqning suvdan qayta-qayta otilib chiqayotganini, qush esa uni tutish uchun noshud va o'ng'aysiz harakatlar qilayotganini kuzatib borardi. «Makrel qo'ldan chiqdi, – deb o'yladi chol. – U juda ham uzoqqa, juda ham tez suzib ketadi. Ammo, balki, menga to'dasidan ayrilib qolgan makrel duch kelib qolar, ajab emas, yana uning yaqinida menga atalgan katta baliq ham suzayotgan bo'lsa! U qayerdadir bo'lishi kerak-ku, axir».

Yer ustida bulutlar endi xuddi tog' tizmalari kabi yuksalib ko'rinar, qirg'oq esa uzun yashil qiyqaga o'xshar, uning ortida och zangori tepalar cho'zilib ketgan edi. Suv to'q ko'kimtir, deyarli binafsha rang tusga kirdi. Chol suvga qaragan kezlarda, u zim-ziyo okean qa'rida planktonlarning qizg'imtir jilvalari hamda quyosh nurlarining ajib tovlanishlarini ko'rardi. U chilvirlar suvga tik kirib borayotibdimi, yo'qmi deb kuza-

tib turar va atrofida planktonning ko'pligidan, bu esa baliq inoyat qilishi mumkinligidan shodlanar edi. Hozir shu tobda, kun ko'tarilib qolganda, nurning suvdan akslanib chiqayotgan ajib tovlanishlari ham xuddi qirg'oq tarafda osilib turgan bulut avzoyi kabi yaxshi havo bo'lishidan darak berardi. Aytganday, qush allaqachon uzoqlab ketgan, suv betida esa oftobda kuyib ketgan sargass suv yo'sinlarining sap-sariq tutamlari hamda qayiqdan picha narida suzib yurgan nofarmon, jilvago'y shilimshiq xubob – portugal fizaliyasidan boshqa hech vaqo ko'rinmas edi. Fizaliya yon tomoniga ag'darildi, keyin yana o'zining avvalgi holatini tikladi va o'z ortidan deyarli bir metrcha masofada ajal tashuvchi uzun siyohrang panjalarini sudrab kelaverdi.

– Voy, qanjig'-ey! – dedi chol.

Yengilgina eshkak esha turib, u dengiz tubiga qaradi va u yerda juda ham mayda, suvda sudralib yurgan mana shu qisqich-panjalar qanday rangda bo'lsa, shunday tus olgan baliqlarni ko'rdi; ular panjalar orasida va suv oqizayotgan xubob soyasida suzib yurishardi. Bularga panjalardar chiqadigan zahar ta'sir qilmas edi. Odamlarga bo'lsa, boshqa gap: xuddi mana shunga o'xshagan shilimshiq va nofarmon panjalar chilvirga yopishib olgan mahallarda, chol baliqni chiqarib olguncha, qo'llari to tirsagigacha, xuddi zaharli chirmovuqday hosil bo'lgan jarohatlar singari yaralar bilan qoplanardi. Zaharlanish juda tez ro'y berar va xuddi qamchi bilan urgandek badanda qattiq sirqiroq og'riq uyg'otardi.

Anvoyi jilolar bilan tovlanuvchi xuboblar beqiyos rangin ko'rinadi. Biroq ular dengiz maxluqlari orasida eng ashaddiysi hisoblanar ediki, chol ulkan dengiz toshbaqalarning ularni yamlab yutishidan zavqlanar edi. Fizaliyalar ko'ringan zamonog, toshbaqalar ko'zlarini yumib, har qanday xavf-xatardan holi bo'lgan hol-



da, ularga qarshidan yaqinlab borishar va zum o'tmay, fizaliyalarni changal-pangallari bilan qo'shib yutib yuborar edilar. Toshbaqalarning fizaliyalarni g'ipillatib tushirishlarini tomosha qilish cholga juda yoqar edi. Uning o'zi ham to'fondan so'ng, qirg'oqda ular ustidan yurib, qadoq tovonlari bilan mijig'lab o'tarkan, pu-faklarning yorilishiga quloq solishni yaxshi ko'rardi.

U yashil toshbaqalarni ko'rkam va epchil bo'lgani, qolaversa, savdoda qadrga ega ekanligi boisidan yoqtirar va sap-sariq qalqon kosasiga burkanib olgan, ishqiy mojaralarda injiq, portugali fizaliyalarini ko'z yumib yutadigan lanj va landovur, qalbaki karettlarga bir qadar nafrat bilan qarardi.

Juda ko'p yillar davomida toshbaqa ovlovchilar bilan birga eshkak tortishgan bo'lsa-da, o'zida bu jonivorlarga nisbatan xurofiy bir qo'rqinch sezmas edi. Chol ularga achinar va hatto, terisi qalin, uzunligi qayiq bo'yicha keladigan, bir tonna chamasi og'irlikdagi lut deb ataluvchi ulkan toshbaqalarga ham rahmi kelar edi.

Ko'pchilik odamlar toshbaqalarga berahm munosabatda bo'ladilar. Axir, bu jonivorni o'ldirib, nimta-nimta qilganlaridan keyin ham, uning yuragi anchagacha urishdan to'xtamay turadi-ku. «Ammo lekin, – deb o'yladi chol, – yuragim yuragidan farq qilmaydi, qo'l-oyoqlarim bo'lsa, uning panjalariga juda ham o'xshab ketadi». U o'ziga quvvat bo'lsin deb, oppoq toshbaqa tuxumidan yerdı. Haqiqiy yirik baliqlar ko'payadigan sentyabr va oktyabr oylarida bardam bo'lish uchun butun may oyi shuni iste'mol qilardi.

Chol har kuni ko'pchilik baliqchilar o'z asbob-uskunalarini asrab qo'yadigan saroydagi kattakon bochkada saqlanuvchi akulaning jigar moyidan ham keragicha ichib olar edi. Moydan kimligidan qat'i nazar, istagan baliqchi foydalanishi mumkin edi. Aksar baliqchilar bu moyning ta'mini o'lguday qo'lansa

deb topishar, biroq uni ichish kallayi saharlab turishga qaraganda yoqimsiz emasdi, ustiga-ustak u shamolab qolinganda qo'l kelar, ko'zga ham foydali edi.

Chol ko'kka qaradi va yana dengiz ustida fregat aylanib uchayotganini ko'rdi.

– Baliq topibdi, – dedi u ovoz chiqarib.

Na biron uchar baliq sokin suv betini bezovta qilgan va na atrofda mayda chavaqlar ko'rinar edi. Ammo chol shu onda uncha katta bo'lmagan tunets havo-ga sapchib ko'tarilib, bir umbaloq oshgancha, yana dengizga kalla urib g'oyib bo'lganini ko'rdi.

Tunets oftobda kumushday yarqirab ketdi, uning ketidan mayda baliqlarga sapchib-sapchib otilib, boshqa tunetslar ham chor atrofda suvni mavjlantirib dikirlasha boshladilar. Ular mayda baliqlar yonida chir aylanishar, oldilariga solib quvlashar edi.

Tunetslarning suvni ko'piklantirib charx urishi-yu, fregatning tunetslar dahshati yuzaga chiqishga majbur qilgan baliqchalarni tuta turib, sho'ng'iganini kuzatar ekan: «Agar ular juda tez suzib ketishmasa, men butun to'dani quvib yetaman», – deb dilidan o'tkazdi.

– Qush – baliqchining sadoqatli ko'makchisi, – dedi chol.

Shu payt quyruqdan tushirilgan bir o'rami oyog'i ostida bo'lgan kalta chilvir tarang tortildi. Chol eshkaklarni tashladi va kalavaning uchidan mahkam ushlab oldi-da, jon achchig'ida qarmoqni tortqilayotgan o'rtamiyona tunetsning zalvorini his qilgan holda, uni yig'ishtira boshladi. Chilvir qo'lida borgan sari kuchliroq yulqinardi. U o'ljani qayiqqa chiqarib olib, bordan oshirib tashlamasidanoq, baliqning zangori sirti va oltinsimon jilva qilgan biqinlarini ko'rdi.

Miqtidan kelgan, xuddi quyib qo'yilgan o'qdek tunets qayiqning kungay sahnida yotar va ma'nisiz katta ko'zlarini ola-kula qilib, sip-silliq, serharakat quyrug'ini jon holatda bilanglata-bilanglata hayot

bilan vidolashardi. Rahmi kelib ketgan chol uning boshiga urib o'ldirdi va hali joni tamom chiqib ulgurmagan baliqni katning tagiga, soyaga oyog'i bilan itqitib yubordi.

– Albakore, – dedi u ovoz chiqarib, – undan ajoyib xo'rak chiqadi. O'ziyam o'ldim deganda, o'n qadoqdan kam emas.

Chol qachondan boshlab o'z-o'zi bilan ovoz chiqarib so'zlashadigan bo'lib qolganini endi eslolmas edi. Avvallari tanho qolganda, u xirgoyi qilardi. Katta yelkanli kemalarda suzib, vaxtada turgan yo toshbaqa oviga borgan kezlari goho-goho u kechalari ham qo'shiq aytardi. Ehtimol, bola undan ketgandan keyin, yolg'iz o'zi qolgach, o'zi bilan o'zi gaplasha boshlagandir. Hozir buni eslay olmaydi. Ammo bola bilan birga ov qilgan mahallarida ham, bunga zarurat tug'ilgan chog'dagina gaplashar edilar. Gaplashganda ham ko'pincha kechalari yoki buzuq ob-havo tufayli majburan bo'sh qolganlaridagina gaplashar edilar. Dengizda huda-behudaga gapiravermaslik odat tusiga kirgan. Nurli-nursiz gaplarni cholning o'zi ham yoqtirmas va shu odatni hurmat qilardi. Mana endi bo'lsa, u, o'z o'ylarini juda ko'p marta ovoz chiqarib takrorlar, nafsilamrga buning birovga ayil botadigan o'rni ham qolmagan edi.

– Agar o'zim bilan o'zim gaplashayotganimni bita-yarimta eshitib qolganda, u meni jinni-pinniga chiqarib qo'yardi, – dedi chol. – Ammo men esdan og'magan ekanman, kimning bu bilan qanchalik ishi bor? Davlatmandlarning xo'p ham oshig'i olchi-da: qayiqlarida radiolari bor, ularga har turli voqealarni so'zlab beradi, beysbol yangiliklarini eshittirib turadi.

«Hozir beysbol haqida o'ylashning vaqti emas, – dedi chol o'ziga. – Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug'ilganim ustida boradi. Ehtimol, qayerdadir, mana bu tunets

galalari bilan yonma-yon bo'lib mening ulkan balig'im ham daydiyotgandir. Axir, men bor-yo'g'i birgina albakore ushladim, u ham to'dasidan ayrilib qolgani. Ular bo'lsa sohildan ancha yiroqda ov qilishadi, yana juda ham tez suzishlarini aytmaysizmi. Bugun dengizda nima uchrayotgan bo'lsa, hammasi ham juda tez suzib, shimoli sharqqa qarab boryapti. Yoki kunning mana shu paytida doimo shunday bo'larmikin? Balki, bu havoning o'zgarishidandir va men uning belgisini bilmasman».

Ko'm-ko'k sohil sathi cholga allaqachon ko'rinmay qolgan edi; uzoqda bu yerdan xuddi qor bilan qoplangandek oppoq bo'lib ko'rinuvchi zangori tepaliklarning boshlarigina ko'zga tashlanar edi. Ularning ustida turgan bulutlar ham yuksak qorli tog'larga o'xshab ko'rinardi. Dengiz qop-qora tusga kirib, quyosh nurlari suvda so'na boshladi. Endi planktonning son-sanoqsiz jilvalari tikkaga kelgan quyosh tufayli so'nib qolgan, chol hozir faqat qoramtir suvda sinib qaytayotgan quyosh nurlaridan hosil bo'lgan yirik va rangin dog'lar-u, pastga qarab tippa-tik ketgan chilvirlarigina ko'rardi. Chuqurlik esa bu yerda bir milga yetib qolardi.

Tunetslar (baliqchilar bu turkumga kiruvchi hamma baliqlarni tunets deb atashar va ularning asl nomlarini bozorga sotish uchun olib borgan yoki xo'rak o'rnida pullagan paytlaridagina farq qila boshlardilar) yana dengiz tubiga tushib ketishdi. Qizdirgandan qizdirib borayotgan quyosh ensasini kuydirib o'tayotganini chol sezib turardi. U eshkak tortayotganda, ter yelkasidan duvillab oqardi.

«Qayiqni oqimga qo'yib berishim, vaqtida uyg'onish uchun esa chilvirni oyog'imning boshmaldog'iga bog'lab qo'yib, mizg'ib olishim mumkin edi, – deb o'yladi chol. – Ammo bugun – sakson beshinchi kun, shuning uchun ham hushyor bo'lish kerak».

Shu payt u yashil qarmoqlardan birining qimirlab ketib, suvga egilib tushganini payqab qoldi.

– Ana xolos, – dedi u. – Aytmovdimmi! – va qayiqni bezovta qilmaslikka harakat qilib, eshkaklarni suvdan tortib oldi.

Chol chilvirga tomon enkayib, uni o'ng qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan avaylab tutdi. U baliqning zo'r berib kuchanmayotganini sezib turar, shundan bo'lsa kerak, chilvirni siqimlamay, yengilgina ushlab olgan edi. Biroq chilvir mana yana qaltirab ketdi. Bu safargi siltov oldingisiga qaraganda ehtiyotkorona va zaifroq ediki, chol buning nima ma'no anglatishini aniq bilar edi. Ya'ni yuz dengiz sarjinicha tubanda marlin qarmoq ilgagining uchi bilan buklimasiga tizilgan sardinlarni yamlamay tushirar, qo'lbo-la qilib yasalgan qarmoq ilgagining o'zi esa maydaroq tunets kallasidan teshib o'tkazilgan edi.

Chol kalavani yengilgina tutib turib, chap qo'li bilan uni qarmoq dastasidan yechib oldi. Endi kalava barmoqlari orasidan baliqni seskantirmay sirg'alib chiqa olar edi.

«Qirg'oqdan shunchalik olisda, yana yilning mana bu faslida, baliq juda ham katta bo'lsa kerak. Yeyaver. Yegin endi, ol, yegin. Sardinlar biram mazali, sen bo'lsang juda sovqotgansan, olti yuz fut chuqurlikda suv juda ham sovuq va qop-qorong'i bo'ladi. Qorong'ida yana bir marta aylanib kel, orqangga qayt va ol, ye, yeyaver!»

U yengil, sergak siltov sezdi, sal o'tmay bu kuchliroq bo'lib takrorlandi – bitta-yarimta sardinni qarmoqdan yulib olish mushkulroq bo'layotgani ko'rinib turardi. Keyin jimjit bo'lib qoldi.

– Bo'la qolsang-chi, – dedi chol ovoz chiqarib, – yana bir burilib kel. Hidini qara, hidini. Qanday ajoyib-a, to'g'ri emasmi? To'yib-to'yib yeb ol! Keyin qarabsanki, tunetsni totib ko'rish gali keladi! Axir u shunday ham

so'qillagan, muzdakkina, bir shirinki, qo'yaverasan. Qisinib-qimtinib o'tirma, baliq. Yegin, ol, yesang-chi, o'tinaman sendan.

U bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan kalavani tutib, baliqning joydan-joyga suzib o'tish ehtimoli borligidan bir paytning o'zida boshqa chilvirlardan ham ko'z uzmay kutardi. Birdan u yana qarmoq ipining yengil, bilinar-bilinmas tortqilanganini payqadi.

– Cho'qiydi, – dedi chol ovoz chiqarib. – Cho'qiydi, xudoyo dard ko'rmagur!

Ammo u cho'qigani yo'q. Ketib qoldi. Chilvir ham qimir etmasdi.

– Uning butunlay ketishi mumkin emas, – dedi chol. – Xudo shohid, uning ketishi mumkin emas. U bor-yo'g'i qayrilib kelyapti. Ehtimol, u biron marta qarmoqqa tushib chiqqan va bu hali xayolidan ko'tarilmagandir.

Shunda u yana qarmoq ipining ohista tortqilanganini sezdi va dili taskin topdi.

– Aytmovdimmi, u faqat qayrilib kelyapti deb... – dedi chol. – Mana endi cho'qiydi!

U baliqning hurkib-hurkib chilvir tortqilashidan o'zini qo'yarga joy topmasdi. To'sindan, chol qandaydir, favqulodda bir zil-u zambil og'irlik sezdi. Sezdi-yu, chilvirni bo'shatib, ehtiyotdagi kalavalardan birini chuvatgancha, uning borgan sari quyi, quyi, quyiga tushib borishi uchun imkon berdi. Chilvir barmoqlardan osongina sirg'alib chiqib pastga ketib borar, uni ushlar-ushlamas tutib turganiga qaramasdan, chol o'ramni yamlab ketayotgan g'oyat zo'r og'irlikni his qilib turardi.

– Asti qanday balo baliq bo'ldi o'zi! – dedi u ovoz chiqarib. – Qarmoqni yamlab olib, endi uzoqroqqa juftakni urmoqchi.

«U baribir orqasiga qayriladi, qarmoqni ham yutib yuboradi», – deb o'yladi chol. Biroq bir kori hol bo'lib

o'tirmasin, deb cho'chidi, shekilli, ovoz chiqarmadi. Chol bu baliqning qanchalik totli ekanini bilar, xayolan uning lunjida ko'ndalang tiqilgan tunets bilan qorong'ida borgan sari uzoqroqqa ketayotganini ko'z o'ngiga keltirardi. Qandaydir bir muddat ichida harakat to'xtadi, ammo chol hali ham baliq vaznini his qilib turardi. Keyin tortish avjga chiqdi, chol yana o'ramni bo'shatdi. U bir nafas chilvirni to'xtatib ko'rdi, tortim birdan kuchayib ketdi va o'ram tikkasiga pastga yulqindi.

– Cho'qidi, – dedi chol. – Endi bir burnidan chiqquncha to'yib yeb olsin-chi.

U chilvirni o'z holiga qo'yib berdi-da, chap qo'li bilan ikki ehtiyot kalavaning bo'sh uchini, boshqa qarmoqning ikki ehtiyot kalavasiga uladi. Shu bilan hammasi taxt bo'ldi. Hozir qo'lidagidan tashqari, unda yana har birining uzunligi qirq sarjindan keladigan uchta ehtiyot shart kalava ipi ham bor edi.

– Yana picha yesang-chi, – dedi u. – Yeyaver, uyalma. «Shunday yeginki, toki qarmoq ilgagi naq yuringga borib yetsin-u, til tortqizmay gumdon qilsin seni, – deb o'yladi u. – O'zing yonimga chiqqin, bu yog'iga garpun sanchishni menga qo'yib ber. Shundoq bo'lsin. Qalay, tayyormisan? Rosa to'yib oldingmi?»

– Boshladik! – dedi u ovoz chiqarib va chilvirni qattiq yulqib, bir yardcha<sup>1</sup> tortib chiqardi, keyin esa qayta-qayta yulqib, har yulqishda qo'llari va jismining bor quvvat-madorini ishga solib, o'ramni sigir soqqanday, goh u qo'li, goh bu qo'li bilan tortib chiqara boshladi.

Hamma urinishlari zoye ketdi. Baliq erinmaygina ilgari lab borar, chol uni o'ziga bir dyuym ham yaqin keltira olmasdi. Uning chilviri katta baliqlarga mo'ljallangan, pishiq edi. Chol uni yelkasiga olib, shunday ham tarang tortdiki, hatto suv zarralari sachrab-sakrashib ketdi. Keyin chilvir suvda zaif vishilladi, chol bo'lsa

---

<sup>1</sup> Ya r d – (uzunlik o'lchovi) – 0,95 m ga barobar.

o'rindiqqa tiranib, hamon uni bo'shatmas edi. Qayiq birmuncha shimoli-g'arb tomonga og'a boshladi. Baliq suzgandan suzib borar, ular zilol suv bo'ylab ohista uzoqlab ketishardi. Boshqa xo'raklar dengizga qanday tashlangan bo'lsa, hamon shundayligicha turar, chol ularni nima qilishni bilmasdi.

– Qani endi, yonginamda bola bo'lsa! – dedi u.  
– Baliq meni shatakka oldi, o'zim-ku buksir bit-yenggiga<sup>1</sup> o'xshab qolyapman. O'ramni asli qayiqqa bog'lab qo'yaversa ham bo'laverardi. Ammo bunaqada baliq, xudo ko'rsatmasin, uzib qochishi mumkin. Men uni mahkam ushlashim va keragicha bo'shatib turishim kerak. Xudoyimdan o'rgilayki, u chuqurlikka ketmaygina suzib yuribdi. Mabodo u chuqurroq tushishni xohlab qolsa, men nima qildim? Agar u tosh bo'lib dengiz qa'riga ketsa, o'sha yerda o'lib qolsa, nima qilaman? Bilmayman. O'shanda ma'lum bo'lar. Nimalar qilmasligim mumkin mening!

U o'ramga yelkasi bilan tirkalib turarkan uning suvga qanday og'ayotgani-yu, qayiqning shimoli-g'arbgaga tomon ohista jilib borishini kuzatar edi.

«U ko'p o'tmay o'ladi, – o'ylardi chol. – Doimo suzib yuraverish mumkin emas».

Biroq to'rt soat o'tsa hamki, baliq hamon qayiqni o'z ortidan sudragancha, tinim bilmay, ochiq dengizga ketib borardi, chol esa o'sha-o'sha, yelkasida sirtilgan chilvir, oyog'i bankaga tirog'liq o'tirardi.

– Uni ushlaganimda, ayni peshin edi, – dedi chol. – Shu paytga dovur ham o'zini ko'rganimcha yo'q.

Baliqni ushlash oldidan peshonasiga bostirib kiyib olgan somon shlyapasi manglayini qiyib yuborganidan, og'riq turgan edi. Chol tashna bo'lgan, suv ichkisi kelardi. U o'ramni tortqilab yubormaslik uchun, ohista tizzalab, qayiq burniga iloji boricha yaqin bordi

---

<sup>1</sup> B i t y e n g — kemanding old qismiga o'rnatilgan po'lat yoki cho'yan g'ola. Kema shatakka olinganda arqon shunga bog'lanadi.



va bir qo'li bilan shishani oldi. Uning og'zini ochib, bir necha qultum yutdi. So'ng shu yerga yonboshlab, nafas rosladi. U yelkan o'ralgan machtaga o'tirib, hech narsani o'ylamaslikka va huda-behuda kuch sarf qilmaslikka harakat qilib dam olardi.

Keyin chol kelgan yo'liga nazar tashladi va yer alqachon ko'rinmay ketganini ko'rdi. «Hechqisi yo'q, – deb o'yladi u. – Men o'zim istagan mahalda, Gavana chiroqlarini qora qilib, orqaga qaytishim mumkin. Kun botishiga ikki soat qoldi, u shu payt ichida suzib chiqsa, ajab emas. Agar chiqmasa, oydinda yuqoriga ko'tarilar! Bu ham bo'lmasa, balkim, tong bilan chiqar. Qo'lim ham ayilib ketayotgani yo'q, bardam-baquvvatman. Qarmoqni men emas, u yutgan-ku. Ammo tortishi shunchalik bo'lsa, o'zi qanday baliq bo'ldiykin! Af-tidan, chilvirni ham mahkam qisib olganga o'xshaydi. Unga shunday bir qarab ololsam edi, o'shanda u bilan qanday muomala qilishni o'zim bilardim».

Cholning yulduzlarga qarab qilgan taxminiga ko'ra baliq o'z yo'lini o'zgartirmasdan tun bo'yi suzib chiqdi. Quyosh botgandan so'ng sovuq turdi, butun orqasi yelkalari, keksalik asar qilgan oyoqlarida ter qotib qoldi, u sovqotdi. Kunduzi chol xo'rakli yashik ustiga tashlab qo'yilgan qopni olib, quritish uchun oftobga yoyib qo'ygani edi. Kun botgach, u qopni bo'yni atrofini o'radi-da, o'ram ipi ostidan ohista o'tkazib, orqasiga tushirdi. Endi o'ram zalvoridan yelkasi avvalgidek qiyilib-qirchilmas, qayiq burniga yonboshlaganicha, qulaygina o'rnashib olganidan, anchayin yengillik tug'ilgan edi. To'g'risini aytganda, bu yengillik nomigagina edi. Ammo u o'zini bularning bari go'yo shohona bir qulaylik deb ishontirardi.

«Men uni bir yoqli qilolmayman, – lekin u ham meni bir yoqli qilolmaydi, – dedi chol o'ziga. – U boshqacha biron lo'ttibozlik o'ylab chiqarmaguncha, shunday bo'ladi».

U bir marta o'rnidan turdi, bort osha yozildi, yulduzlarga qarab, qayiqning qayoqqa yo'l tutayotganligini belgiladi. Chilvir uning yelkasidan to'ppa-to'g'ri suvga tushib turgan nozikkina nur bo'lib ko'rinardi. Qayiqning harakati endi sekinlashgan, Gavana chiroqlari ham pilpillab xira ko'rinar edi, oqim ularni sharq tomonga surib ketayotganga o'xshardi. «Gavana chiroqlari ko'rinmay ketyaptimi, bas, demak biz borgan sari sharqqa qarab boryapmiz, – deb o'yladi chol. – Agar baliq yo'lini o'zgartirmagan bo'lganda, men ularning hali yana bir necha soat ko'rib turgan bo'lardim. Qiziq, bugungi o'yinlarning natijasi qanday bo'ldiykin? Qani endi qayig'ingda radio bo'lsa!» Ammo o'z o'yini o'zi bo'ldi: «Hadeb alahsiyverma! Qilayotgan ishingni o'yla. Qovun tushirib qo'ymaslik uchun, o'yla».

Keyin ovoz chiqarib dedi:

– Bolaning yonimda yo'qligi yomon bo'ldi. Harna madad edi. Ham bularning barini o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lardi.

«Keksayganda, kishi yolg'iz o'zi kimsasiz qolmasin ekan, – deb o'ylardi u. – Ammo bu ko'rgilikdan qochib qutulib bo'larmidi. Tunets hidlanib qolmasdan burun yeb olishni unutmamam bo'lgani, axir, men kuchdan qolmasligim kerak. Unchalik ochiqmagan taqdirimda ham, uni erta bilan yeb olish xotiramdan ko'tarilmasa bas. Ishqilib, nima bo'lganda ham unutmam-da, unutmam», – deb takrorlardi u.

Tunda qayiq yoniga ikki dengiz cho'chqasi suzib keldi. Chol nar cho'chqaning pishqirganini, modasining go'yo homuza tortganday, eshitilar-eshitilmas, pishillayotganini eshitdi.

– Qurg'urlar-e, – dedi chol. – O'ynashadi, sho'xlik qilishadi va bir-birlarini yaxshi ko'rishadi. Ular bizga xuddi uchar baliqlar singari yaqin.

Keyin u qarmog'iga tushgan katta baliqqa juda ham achinib ketdi. «Turgan-bitgani mo'jiza-ku bu baliqning.

Uning dunyoda necha yil umr surganini xudoyimning o'zi biladi. Mening qo'linga hech qachon bunaqangi kuchli baliq tushmagan. O'zini tutishini qarang, aqlbovar qilmaydi-ya bunga. Ehtimol, uning sakrab chiqmayotgani ham benihoya aqlli bo'lganidandir. Agarda u bor kuchi bilan oldinga intilsa yoki sapchiy qolsa bormi, tirik qo'ymasdi meni, axir. Ammo, balki bu uning qarmoqqa birinchi marta tushishi emasdir va u jonini saqlash uchun mana shu alfozda kurashmoqni afzal bilar. O'z muxolifi yolg'iz bir kishi, u ham bo'lsa, chol ekanini qayerdan bilsin. Lekin bu baloyi azim baliq ekan, agar uning go'shti mazali bo'lsa, qanchadan-qancha pul keltiradi! U xo'rakka ham norday tashlandi, norday sudrayapti, buning ustiga men bilan qo'rquv nima bilmasdan olishyapti. Qiziq, u o'zining nima qilishi kerakligini bilarmikin yoki xuddi menga o'xshab, bosh-ketiga qaramay suzyaptimi?»

U, bir safar qarmoqda moda marlin tutganini esladi. Nor baliq doimo modasini yemishga birinchi bo'lib qo'yadi. Qarmoqqa tushgan moda dahshat ichida jon-jahdi bilan zo'r berib olisha boshladi, bu uni hash-pash deguncha holdan toydirib qo'ydi, nor baliq bo'lsa, undan bir qadam ham orqada qolmasdan, dengiz yuzida yonma-yon suzar, charx aylanar edi. U shunday yaqin kelib suzardiki, chol, baliq xuddi o'roq kabi o'tkir, ko'rinishi ham deyarli o'roqnikidan qolishmaydigan dumi bilan chilvirni qirqib yuboradimi, deb qo'rqardi. Chol moda baliqni changak bilan sanchib olib, xuddi qilich singari keskir, g'adir-budur og'zidan ushlab turib, to'qmoq bilan miyasiga tushirgan paytida ham, to uning rangi o'zgarib, ko'zgular toshiga surtiladigan amalgama tusiga kirmaguncha savalagan chog'larida ham va nihoyat, bola yordamida uni qayiqqa tortib chiqargan kezlarida ham nor baliq shu yerda edi. Keyin, chol chilvirni o'rab, garpun tayyorlayotganda, nor baliq o'z yo'ldoshiga nima bo'lganini

ko'rish uchun qayiq yonida havoga baland sakrab ko'tarildi, shundan so'ng, tiniq safsarrang ko'krak qanotlarini yoyib, umurtqasi uzra cho'zilib ketgan keng och pushti, yo'l-yo'l tasmalari ravshan ko'ringanicha, dengizga chuqur sho'ng'ib ketdi. U qanday fusunkor bo'lganini chol sira unutilmasdi. Buning ustiga o'z yo'ldoshini to so'nggi damgacha tashlab ketmagan edi.

«Dengizda men bunchalik qayg'uli bo'lgan boshqa hech narsani ko'rmaganman, – deb o'yladi chol. – Bola ham ma'yus bo'lib qolgandi va biz moda baliqdan kechirim so'rab, ko'z ochib yumguncha saragini sarakka, puchagini puchakka ajratgan edik».

– Afsuski, yonimda bola yo'q, – dedi u ovoz chiqarib va yelkalarini bosib tushgan o'ram orqali o'zining qandaydir nuqtasi sari og'ishmay borayotgan ulkan baliqning qudratli kuchini muttasil his qilgan holda, qayiq burnining dumaloq taxtalariga qulayroq o'rtnashib oldi.

– Mening hiylam tufayli u o'z fikrini o'zgartishga majbur bo'ldi, aql ham bovar qilmaydi bunga!

«Uning peshonasiga turli-tuman tuzoqlar, to'rlar va inson hiyla-nayranglaridan uzoqroqda, zim-ziyo okean tubida yashamoqlik yozilgan edi. Menga esa yolg'iz boshim bilan uning ketidan tushib, hali hech kim kelib yetmagan joyda topish nasib bo'ldi. Ha, hech zot kelib yetmagan joyda. Endi bo'lsa har ikkovimiz tushdan beri bir-birimizga bog'lanib qoldik. Shunday. Na unga va na menga hech kim yordam qo'lini cho'za olmaydi».

«Ehtimol, men baliqchi bo'lmasligim kerak edi, – deb o'ylardi u. – Lekin xuddi shu kasb uchun tug'ilganman-ku, axir. Tong otishi bilan tunetsni yeb olish yodimdan chiqmasa bo'lgani».

Quyosh ko'tarilmasdan sal burun orqa tomondagi qarmoqlardan biriga baliq ilindi. U qarmoq dastasining singan tovushini va chilvirning qayiq ziyi osha sirg'a-

lib tushayotganini eshitdi. Qorong'i ichida u pichog'ini g'ilofidan sug'urib oldi va baliqning butun og'irligini chap yelkasiga tushirgan holda, orqasiga enkaydi-yu, ziydagi chilvirni kesib yubordi. Keyin u yonidagi chilvirni qirqdi va ehtiyot kalavalarining uchlarini tusmollab topib, bir-biriga mahkam bog'lab qo'ydi. Chol tulgularni yechib bo'lmaydigan qilish uchun kalavalarini oyoqlari bilan tutib turgancha, bir qo'llab chaqqon ishlardi. Endi uning ixtiyorida olti ehtiyot chilvir o'rami bor edi, har bir kesilgan chilvirdan ikkitadan to'rtta va baliq ilinganidan ikkita, har bir o'ram bir-biriga ulanib ketar edi.

«Tong yorisha boshlashi bilan, – deb o'ylardi chol, – qirq sarjinchacha tashlangan chilvirni olishga harakat qilaman-da, uni ham kesib, ehtiyot kalavalariga ulab qo'yaman. To'g'ri, bunday qilganda, ikki yuz sarjinchacha pishiq katalon arqonidan mahrum bo'laman. Ilmoqlar-u, cho'ktirgichlarni hisoblab o'tirmasa ham bo'ladi. Hechqisi yo'q, bu narsalarni qayta topish mumkin. Ammo agarda qarmoqqa boshqa qandaydir baliq ilinib, mana bunisidan benasib qilsa, kim menga yana xuddi shunaqasini topib bera olardi? Hozir cho'qigani qanday baliq ekan, bilmayman. Balki, marlindir, balki nayza baliq yoki akuladir. Nima bo'lganini hatto payqamay qoldim. Undan tezroq qutulish kerak edi».

Ovoz chiqarib dedi:

– Eh, yonginamda bola bo'lsaydi!

«Ammo yoningda bola yo'q, – deb o'ylardi u. – Sen faqat o'zinggagina ishonishing mumkin. Shunday ekan, hozirning o'zidayoq qorong'i bo'lsa ham, anavi oxirgi chilvirni olib, kesishing kerak-da, ikki ehtiyot o'ramini ulab qo'yganing ma'qul».

U shunday ham qildi. Qorong'ida ishlash og'ir edi, Bir gal baliq shunday siltaladiki, u yuztuban yiqilib tushdi va ko'z ostini yorib oldi. Qon yonog'idan oqib tusha boshladi, ammo hali iyagiga yetib ulgurmas-

dan quyulib to'xtadi va qotib qoldi. O'zi bo'lsa, nafas rostlamoq uchun qayiq burniga qarab surgaldi va yetib kelib yonboshlab oldi. Chol qopni o'rnashtiribroq qo'ydi, chilvirni ehtiyot bilan yelkasining hali lat yemagan qismiga o'tkazib, butun og'irlikni yelkasiga tushirdi-yu, baliqning qanchalik kuch bilan tortayotganini aniqlashga urindi, so'ngra, qo'lini suvga tushirib, qayiq tezligini bilishga harakat qildi.

«Nega u bunchalik siltandiykin, qiziq, – deb o'yladi u. – Har nechuk chilvir yelkasidagi katta o'rkachdan sirg'alib tushgan bo'lsa ajab emas. Uning yelkasi menikichalik og'rimaydi, albatta. Ammo u qanchalik yirik bo'lmasin, qayiqni bir umr tortib yurolmaydi-ku, axir. Endi xalaqit berishi mumkin bo'lgan narsalarning baridan qutuldim. Bundan tashqari, chilvirni ham keragicha g'amlab qo'ydim, kishiga shundan boshqa yana nima kerak o'zi?»

– Baliq, – deb chaqirdi u sekingina, – o'lsam o'lamanki, sendan ajralmayman.

«U ham, har holda mendan ayrilmasa kerak», – deb o'yladi chol va tong yorishishini kuta boshladi. Bu azon pallasini havo sovuq edi va u sal bo'lsa ham isinish uchun qayiq taxtalariga bag'rini berib qattiqroq yopishdi. «U chidayaptimi, men ham chidayman».

Ko'p o'tmay tong shafagi dengiz qa'riga ketgan tarang chilvirni yoritdi. Qayiq to'xtovsiz ilgari siljirdi: quyosh ham ufq betida tirnog'ini ko'rsatdi-da, choling o'ng yelkasiga nur to'kdi.

– Shimolga qarab suzyapti, – dedi chol. – Oqim-ku, bizni ancha sharq tomonga surib ketganga o'xshaydi. U oqimga qarab burilsa, qaniydi. Uning holdan toyganini shundan bilsa bo'ladi.

Ammo quyosh yana ham yuqori ko'tarilganda, baliq charchashni hatto xayoliga ham keltirmayotganligi cholga ayon bo'ldi. Ko'ngliga faqat bir narsa taskin berib turar, u ham bo'lsa, baliqning endi anchagi-

na yuzada suzayotganligi edi, buni chilvirning suvga qanday qiyalikda ketayotgani aniq ko'rsatib turardi. Ammo bu – baliq, albatta, suv yuziga qalqib chiqadi, degan gap emas edi. Biroq, har qalay u chiqib qolishi ham mumkin.

– Ey xudo, o'zing uni bu yoqqa chiqishga majbur qil! – dedi chol. – Surobini to'g'rilash uchun esa, xudoga shukr, yetarli kalavam bor.

«Yoki chilvirni andak tarangroq tortsammikin, og'riq jonidan o'tsa, otilib chiqib qolarmidi, deyman-da, – deb o'yladi chol. – Mabodo chiqadigan bo'lsa, kun yorug'ligida chiqib qo'ya qolsin. O'shanda umurtqasi yoqalab ketgan pufaklari havo bilan to'lib qoladi. Keyin u dengiz ostida o'lish uchun hech qachon u yerga tusholmaydigan bo'ladi».

U chilvirni yana ham tarangroq tortishga urinib ko'rdi, ammo chilvir busiz ham avval boshdan shunday taranglashgan ediki, hozir uni tortay deb, o'zini orqaga tashlashi bilan yelkasini chunonam o'yib yubordiki, bunaqada chol hech vaqo chiqara olmasligini bildi. «Siltab tortish mumkin bo'lmasa, bu falokatni, – deb o'yladi chol. – Har siltovda qarmoq tishlashgan joy kengayib bo'shshaveradi, mabodo baliq yuzaga chiqib qolsa, qarmoq ham ayrilib ketishi mumkin. Har holda o'zimni hozir, quyosh chiqib turganda, yaxshi his qilyapman. Bu safar oftob ham ko'zimga tushmayapti».

Chilvirlarni sariq suv o'tlari chirmab oldi. Ammo chol shunga ham xursand edi, chunki ular qayiq harakatini sekinlashtirib turishardi. Bu o'sha, tunda yaltirab ko'rinadigan sariq suv o'tlarining o'zginasi edi.

– Baliq, – dedi u, – seni juda ham yaxshi ko'raman va hurmat qilaman. Ammo bilib qo'y, kun botmasdan seni gumdon qilaman.

«Har holda, men buning uddasidan chiqsam kerak», – deb o'yladi u.

Tirnoqdekkina qush shimol tomondan qayiqqa yaqinlashdi. U suv betida pasayib uchardi. Chol uning nihoyatda holdan toyganini ko'rdi.

Qush nafas rostlash uchun qayiqning quyruq'iga qo'ndi. Keyin u cholning boshi ustida aylanib uchdi-da, o'zi uchun qulayroq bo'lgan chilvir ustiga qo'nib oldi.

– Yoshing nechada? – deb undan so'radi chol. – Hoynahoy, bu sening birinchi sayohatingdir?

Qush javob o'rniga cholga qaradi. U juda ham charchagan edi, hatto chilvir o'zini ko'taradimi, yo'qmi, shunga ham qarab o'tirmadi, murg'ak panjalari bilan uni changallab olgancha, chayqalibgina turardi, xolos.

– Qo'rqma, kalava mahkam tortilgan, – deb uni yupatdi chol. – Hatto haddan ziyod mahkam. Sokin tunda sen bu qadar holdan toymasliging kerak edi. Eh, endigi qushlar, endigi qushlar!

«Lochinlar bo'lsa-chi, – deb o'yladi u, – dengizning har qarichida sizlarning tumshug'ingiz tagidan chiqib qolishi mumkin». Ammo buni qushga aytib o'tirmadi, aytganda ham, u baribir tushunib yetarmidi. Hechqisi yo'q, o'zi tezda lochinning nimaligini bilib oladi.

– Yaxshilab dam olgin, mitti qush, – dedi u. – Keyin sohilga qarab uchgin, har bir odam, qush va baliq singari sen ham chinakamiga hayot uchun qattiq turib kurashgin.

Qush bilan bo'lgan bu suhbat o'ziga andak madad berganday bo'ldi. Chunki tuni bilan yelkasining akashagi chiqqan va u endi rosmana zirqirab og'rib turardi.

– Agar xohishing bo'lsa, qush, men bilan yana picha birga bo'l, – dedi u. – Nima qilayki, shabada g'imirlab qolgan bo'lsa ham, yelkan o'rnatib, seni qirg'oqqa olib borib qo'yolmayman. Bu yerda esa do'stim ham bor. Uni tashlab ketolmayman.

Xuddi shu onda baliq to'satdan qattiq yulqindi va cholni qayiq quyruq'iga yumalatdi; agar u qo'li bilan



bortga tayanib qolmaganda, chilvirni bo'shatmaganda baliq uni ilashtirib ketishi ham hech gap emas edi.

Chilvir yulqingan paytda qush uchib ketgan edi. Uning qanday g'oyib bo'lganini chol hatto payqamay qoldi. U kalavani o'ng qo'li bilan paypaslab ko'rganida, qo'lidan qon oqayotganini ko'rdi.

– Baliqning ham joni rosa qiynalgandir, – dedi u o'ziga o'zi va baliqni boshqa tomonga burib bo'lmas-mikin degan niyatda, chilvirni aldab tortdi. Oxirigacha tortib bo'lgach, avvalgi holatida tek qotdi.

– Mazang qochyaptimi, baliq? – deb so'radi u. – Xudoyim ko'rib turibdi, menga ham oson emas.

Kim bilan bo'lmasin juda ham gaplashgisi keldi. Atrofga alanglab qushni izladi. Ammo undan nom-nishon ham qolmagan edi.

«Darrov ketib ham qolibsana, – deb o'yladi chol. – Ammo sen ketgan yoqda shamol xiylagina kuchliroq va u to sohilga dovur esib boradi. Bir siltashda baliqqa o'zimni yarador qilishga yo'l qo'yib berganimni qara-ya? Rostdan ham, juda merov bo'lib qopman. Yoki bo'lmasa, shunday o'zim, qushga mahliyo bo'lib, faqat u to'g'rida o'ylab qolgandirman? Endi men mana bu haqda o'ylayman va mador bo'lsin deb, tunetsni tamaddi qilib olaman».

– Afsus, yonimda bola ham yo'q, tuz ham yo'q, – dedi u o'ziga o'zi.

U baliqning og'irligini chap yelkasiga olib, ohista cho'kkaladi-da, qo'lini yuvdi, uni bir muddat suv ichida tutib turarkan, yoyilib borayotgan qon izi hamda o'tkinchi oqimning qo'lni yalab, aylanib o'tishini kuzatdi.

– Baliq boyagidan xiyla sekin suzyapti, – dedi u. Chol sho'r suvda qo'lini uzoqroq tutib turishni istardi-yu, ammo baliq yana tortqilab qoladimi, deb qo'rqdi: shuning uchun ham u o'rnidan turib, chilvirni yelkasi bilan tortibroq qo'ydi va qo'lini oftobga tutdi.

Chilvir qo'lining bor-yo'g'i birgina, ammo xuddi ishga eng asqatadigan yumshoq joyini tilib ketgan edi. Ish dolzarbga kelganda qo'li hali toza holda ham kerak bo'lishini chol tushunar, kelib-kelib, boshdanoq uning dardisar bo'lib qolganligidan g'ijinardi.

– Endi, – dedi u qo'li qurigach, – tunetsni yeb olishim kerak. – Uni bu yoqqa changak bilan tortib ololaman, kiftini keltirib qorin to'ydirish ham qo'limdan keladi.

Chol yana cho'kka tushdi va quyruq tagini changak bilan timirskilab, tunetsni topdi. Chilvir o'ramini avaylab tutgancha, tunetsni o'ziga tomon surdi. Baliqning butun og'irligini yana chap yelkasiga olib, so'l qo'li bilan qayiq chetiga tayandi-da, tunetsni qarmoqdan ajratib oldi va changakni o'z o'rniga qo'ydi. Baliqni tizzasiga siqib oldi va uning qoramtir qizil tusli go'shtini bo'ynidan tortib to dumigacha uzunasiga tilimlab chiqdi. Tilim-tilim qilib olti bo'lak kesib olgach, ularni qayiq burnining taxtalariga terib qo'ydi, pichoqni pochasiga surtdi, tunets skeletini dumidan ushlab olib dengizga itqitdi.

– Hoynahoy, butun bir bo'lakni yeya olmasman, – dedi u va bo'laklardan birini ikkiga bo'ldi.

Chol ulkan baliqning tin olmasdan, kuchdan qolmay tortib borayotganini, chap qo'li esa tamomila ayilib ketayotganini sezib turardi. Bu qo'li og'ir arqonni titrab-qaqshab tutamlar edi. Chol unga ijirg'anish bilan sarasof soldi.

– Xudo haqi, shu ham qo'l bo'ldi-yu! – dedi u. – Ko'ngling sust ketayotgan bo'lsa mayli, ayilib tushaver! Menga desa, qush panjasiday bo'lib qolmaysanmi, baribir buning senga nafi tegmaydi.

«Biroz totinib ol, – deb o'yladi u qop-qora suv va unga qiyalab ketgan o'ramga nazar solar ekan, – bilaging baquvvatroq bo'ladi. Bu qo'lda nima gunoh bor? Axir, sen qatorasiga necha soatdan beri baliqni ushlab

turibsan o'zing. Ammo baribir oxirigacha undan ayrilmaysan. Hozircha totinib ol».

U baliqning bir bo'lagini olib, og'ziga soldi va ohista chaynay boshladi. Mazasi u qadar ko'ngil aynitar darajada emas edi.

«Hatto uvog'ini ham ta'mini yo'qotmaslik uchun yaxshilab chayna, – deb o'ylardi u. – Qani endi buni limon yoki juda bo'lmasa, tuz bilan qo'shib tushirsang, dodiga kim yetsin».

– Xo'sh, qalay, o'zingni yaxshi sezyapsanmi? – deb so'radi u xuddi murdaniki singari tarashaga aylanib ketgan qo'lidan. – Seni deb, yana bir bo'lakni yeyman.

Chol boya o'rtasidan bo'lingan tilimning ikkinchi bo'lagini og'ziga soldi. Erinmay chaynab, keyin po'stini tupurib tashladi.

– Xo'sh, nechuk, yengil tortdingmi? Yoki hali ham hech nima sezmayapsanmi?

U yana bir bo'lakni olib, uni ham yeb oldi.

«Ajoyib, etli baliq ekan, – deb o'yladi u. – Yaxshiyamki, qo'limga makrel emas, tunets tushdi. Makrel o'lgunday chuchmal bo'ladi. Bu baliqda bo'lsa, shira deyarli yo'q va buning ustiga taom sifatida baquvvat. Aytganday, bekorchi xayollar bilan miya chalg'itishning nima hojati bor, – deb o'yladi u. – Qittakkina bo'lsa ham tuzning bo'lmagani chatoq bo'ldi-da. Bu qolgan bo'laklar oftobda nima balo bo'ladi – qoqlanadimi yoki hidlanib qoladimi, bilmayman. Shuning uchun, och bo'lmasam ham, yaxshisi uni yeb qo'ya qolay. Ulkanvoy ham o'zini muloyim va mo'min tutyapti. Men tunetsni oxirigacha yeb tugataman-u, so'ng boshga tushganini ko'rishga hozir bo'laman».

– Sabr qil, qo'l, – dedi u. – Ko'ryapsanmi seni deb, o'lar-tirilarimga qaramay harakat qilyapman.

«Katta baliqni ham mehmon qilishim kerak edi aslida, – deb o'yladi u. – Axir, u menga yo'ldosh bo'lib qoldi. Ammo men uni o'ldirishim kerak. Buning uchun esa kuch-quvvat lozim bo'ladi».

Chol tunetsning hamma tilimlarini ohista va pok-pokiza yeb bitirdi. Qo'lini ishtoniga surta-surta, qaddini rostladi.

– Xo'sh, endi, qo'l, – dedi u, – sen chilvirni qo'yib yuborsang ham bo'lar. Maynavozchiliging tugamaguncha, o'ng qo'lim bilan evini qilib turaman.

Oldin so'l qo'li bilan ushlab turgan yo'g'on o'ramni, endi chol chap oyog'i bilan qisib oldi va baliqning og'irligini yelkasiga olarkan, o'zini orqaga tashladi.

– Xudoyo, ishqilib, bu tomir tortish o'tib ketsa bo'lgani! – dedi u. – Kim biladi, hali bu baliqning boshiga nima xayollar kelmaydi.

«Ko'rinishdan hozircha ipakday, – deb o'yladi u, – barmaylixotir harakat qilyapti. Ammo xayolida nima bor? Va men nima qilishim kerak? U shunchalik ulkanki, men o'z rejamni uning rejasiga muvofiqlashtirmasam bo'lmaydi, axir. Agar u suzib chiqsa, men uni o'ldira olaman. Mabodo u butunlay chiqmay qolsa-chi? Unda men ham u bilan birga qolaman».

U tomir tortishishdan changak bo'lib qolgan qo'lini ishtoniga surtib, barmoqlarini yozishga urindi. Ammo qo'l ochilmas edi. «Ehtimol, u oftobdan yozilib ketar, – deb o'yladi chol. – Ehtimol, xom tunets hazm bo'lgandan keyin yozilib ketar. Agar u menga kerak bo'lib qolsa, qanday bo'lmasin uni ishga solaman, vassalom. Biroq, hozir men bunga kuch sarf qilib o'tirishni istamayman. Mayli, u o'zi ochilsin, o'z ixtiyori bilan jonlanib ketsin. Nima bo'lganda ham, kechasi jamiki kalavalarni kesib, bir-biriga ulash kerak bo'lganda, u sho'rlik mendan ko'p aziyat chekdi».

Chol olis-olislarga boqib, endi o'zining naqadar yolg'iz ekanligini tushundi. Ammo bu tubsiz zim-ziyoda sinib akslangan rangin quyosh nurlari, pastga ketgan tarang chilvir va dengiz sathining ajabtovur to'lg'oqlarini ko'rib turardi. Passat bo'lishidan xabar berib bulutlar to'dalanardi. Chol oldinga qarab, os-

mon betida yaqqol ko'zga tashlanib uchgan yovvoyi o'rdaklar to'dasini ko'rdi; ana to'da xiralanib yoyildi, keyin yana avvalgidan ham tiniq bo'lib ko'zga tashlandi va chol dengizda kishi hech qachon yolg'iz o'zigina qolmasligini tushundi.

Ba'zi odamlarga kichkina qayiq bilan ochiq dengizda qolish juda ham qo'rqinchli ko'rinadi. Chol shu haqda o'ylar ekan, ularning bu qo'rqinchlari havo to'satdan aynib qoladigan oylardagina asosli degan fikrga keldi. Ammo, hozir dovullar uvvos tortadigan fasl kirgan-u, dovulning o'zidan darak yo'q ekan, demak, yilning eng sara vaqti ham xuddi shuning o'zi bo'ladi.

Dovul yaqinlashganda, uning havodagi belgilari dengizda turib har doim bir necha kun oldindan ko'rish mumkin. Quruqlikda esa uni payqamay qoladilar, deb o'ylardi chol, chunki nimaga qarash kerakligini o'zlari ham bilishmaydi. Bundan tashqari quruqlikdagi bulutning ko'rinishi ham tamomila boshqacha. Nima bo'lganda ham hozir dovul turib qoladi, deb kutishga hojat yo'q.

Osmonga qarab, u oppoq tubsiz sentyabr ko'kida o'zi suyib yeydigan muzqaymoqqa o'xshash ukpar bulutlarning harir pardalarini ko'rdi.

– Tezda yengil epkin turadi, – dedi chol. – U bo'lsa, baliq, senga qaraganda, menga ko'proq qulaylik tug'diradi.

Uning chap qo'li hali-hamon tarashaday qotganча turar, ammo endi sal-pal qimirlatsa bo'ladigan edi.

«Qo'limning tomir tortishini shunday yomon ko'ramanki, – deb o'yladi chol. – Tana o'zingniki bo'lsa-da, yana mana bunday dard ustiga chipqon bo'lib tursa! Baliq yeb zaharlansang-da, odamlar ichida hadeb burning oqib ketaversa yo qayt qilging kelaversa, qanchalik sharmanda bo'lasan kishi. Ammo tomir tortishi (buni u xayolida calambre deb atardi) undan ham yomon sharmanda qiladi va yana, ayniqsa, bir o'zing bo'lsang».

«Agar yonimda bola bo'lganda, – deb o'yladi chol, – qo'limni tirsakdan boshlab uqalab qo'yan bo'lardi. Mayli, hechqisi yo'q, shunday ham yaxshi bo'lib ketadi».

Qo'qqisidan chol hali suvga tushgan chilvirning qiyaligi o'zgarib qolganini payqab ulgurmasdan, uning o'ng qo'li tortish kuchi susayganini sezdi. U o'zini orqaga tashladi, kuchi boricha chap qo'li bilan soniga tushira boshladi va shunda chilvirning asta-sekin yuqoriga ko'tarila boshlaganini ko'rdi.

– Ko'tariyapti, – dedi u. – Qani, qo'l, bo'la qol, qimir-la! O'tinaman sendan!

Chilvir uzunasiga borgan sari cho'zilgandan cho'zilib borar va nihoyat, qayiq qarshisidagi dengiz sathi bo'rtib ketdi, baliq suvdan chiqdi. U chiqqandan chiqib borar, chiqqandan chiqib borar, go'yoki bosh-keti yo'qqa o'xshar, suv esa uning yonlaridan duv-duv oqib tushardi, baliq butun borlig'i bilan quyoshda tovlanib yonar, boshi va usti to'q binafsha rangda, enli yon tasmalari esa, tiniq shu'lalarda mayin safsar rangda ko'rinar edi. Uning tumshug'i o'rnida xuddi beysbol chavgoniday uzun va uchi rapira singari o'tkir tig' turar edi. U suvdan bor bo'yi bilan ko'tarildi, keyin xuddi mohir suzuvchidek jim sho'ng'idi, uning o'roq tig'iga o'xshash haybatli quyrug'i suvga botib ulgurmasdan, kalava shitob bilan bo'shala boshladi.

– U mening qayig'imga qaraganda, ikki futcha uzunroq, – dedi chol.

Chilvir dengizga tez, ammo bir me'yorda ketib borar, baliqning hech bir narsadan cho'chimaganligi yaqqol ko'rinib turardi. Chol chilvirni ikki qo'llab oxirigacha tortishga urinar edi. Agar baliqning harakati-ni bir me'yordagi qarshilik bilan sekinlatishga muvaffaq bo'lmasa, u holda baliq bor-yo'q kalavasini tortib, uzib-yulqib ketajagini chol bilardi.

«O'zi ham baliqmisan baliq ekan. Endi men uning o'zida qanday kuch yashiringanini bilib olishiga yo'l

qo'ymayman, – deb o'ylardi u. – Agar juftakni rostlab qoladigan bo'lsa, meni nima ko'ylarga solishi mumkinligini unga bildirish kerak emas. Uning o'rnida men bo'lganimda, yo o'lish, yo qolish deb, to o'pka tushguncha olg'a siljigan bo'lardim. Ammo, ming qatla shukrki, baliqlar o'zlarini qiruvchi odamlar singari aqlli emaslar; vaholanki, ular bizga qaraganda ham epchil, ham oliyjanobroqdirlar».

Chol o'z umrida juda ko'p katta baliqlarga duch kelgan edi. Vazni ming qadoqdan ham og'irroq kelgan baliqlardan talayini ko'rgan, o'zi ham bir mahal shunday xilidan ikkisini tutgan, ammo hech qachon bunday ishni bir o'zi qilishiga to'g'ri kelmagan edi. Mana endi umrida ko'zi bilan ko'rmagan, qulog'i bilan eshitmagan bu qadar katta baliqqa ochiq dengizda, yolg'iz o'zi chambarchas bog'lanib o'tiribdi, chap qo'li esa boyagi-boyagi, akashak. Go'yo burgutning yumuq panjalariga o'xshaydi.

«Be, qo'lim yozilib ketadi hali, – deb o'yladi u. – Jil-la qursa, o'ng qo'limga ko'maklashish uchun, albatta, yozilib ketadi. Bor ekanda, yo'q ekan, ko'k dengizdan narida uch og'a-ini: bir baliq va mening ikki qo'lim bo'lgan ekan... Albatta, yozilib ketadi. Lo'q bo'lib turi-shi sharmandalik-ku, axir».

Baliq sekinlashdi, endi u avvalgi tezlikda borardi.

«Qiziq, nima sababdan u kutilmaganda yuqoriga chiqib qoldi, – fikrlay boshladi chol. – Yo o'zini qanday ekanligini menga ko'rsatgani chiqdimi? Hay, bu ham yomon emas, endi uni bilaman. Attang, unga men o'zimning qanday odam ekanligimni ko'rsata olmayman. Aytaylik, bunda u mening mana bu rasvoyi olam bo'lgan qo'limni ko'rgan bo'lardi. U men haqimda aslida o'zim arzimasam ham yaxshiroq fikrda bo'lishini istayman. O'shanda men chindan ham yaxshi bo'la-man. Men baliq bo'lishni, uning ixtiyorida nimayiki

bo'lsa, menda ham bo'lishini, yolg'iz chidam va kalla bilan cheklanib qolmaslikni xohlardim».

Qayiqning taxta qoplamasiga suyanib, chol o'zini beto'xtov qiynagan og'riqqa g'ing demay dosh berib, jimgina, xotirjam o'tirib oldi, baliq bo'lsa, boyagi-boyagi, hech to'xtamay olg'a suzib borar, qayiq ham qoramtir suvda asta harakat qilardi. Sharqdan esgan shamol picha yirik to'lqin ko'tardi.

Tushga kelib cholning chap qo'li asl holiga qaytdi.

– Sho'ring quridi endi, baliq, – dedi u va yelkasidagi chilvirni biroz surib qo'ydi.

Og'riq o'sha-o'sha, jondan o'tib turganiga qaramay, chol o'zini yaxshi his qilardi; faqat og'riqdan qanchalik aziyat chekayotganligini xayoliga keltirmas, tan olmasdi.

– Men xudoga ishonmayman, – dedi u. – Ammo bu baliqni tutish uchun o'n qayta «yo padar»ni va yana shuncha marotaba «Bibi Maryam» duosini tilovat qilishga tayyorman. Agar uni chini bilan tutsam, ont ichamanki, bir ko'p tabarruk joylarga topinmoqqa boraman. So'z beraman.

Chol duo o'qiy boshladi. Ayrim o'rinlarda u o'zini shunday ham horg'in sezar ediki, aytiladigan so'zlarni unutib qo'yar, shunda ular o'z-o'zidan, qiroat ichida aytilib ketsin uchun, iloji boricha tez o'qishga harakat qilardi. «Yo padar»ga qaraganda «Bibi Maryam»ni qaytarish osonroq, – deb o'yladi u.

– Mufarrax o'l, yo tangri onasi bibi Maryam, tangri senga yor bo'lsin. O'zing iffatli zavjayi muhtarama, zurriyoding boshimizga xaloskor o'zing yaratgansan, o'zing posbon bo'lgaysan. Omin. – Keyin qo'shib qo'ydi: – Yo mukarram Bibi Maryam ona, duo qil, baliq o'lsin. Tengi yo'q, topilmas bo'lsa ham duo qil, o'lsin.

Duodan chol o'zini bir qadar yaxshi seza boshladi, biroq og'riq qittakkina bo'lsin pasaymadi, balki



battarroq azob bera boshladi. U quyruq qoplamasiga suyanib oldi-da, chap qo'lining barmoqlarini beixtiyor mashq qilib uqalay boshladi. Quyosh qizdirgandan qizdirar, shabada asta-sekin kuchayib borardi.

– Xo'p, endi mayda qarmoqqa xo'rak joylab qo'ysak ham bo'lar, – dedi chol. – Baliq bu kecha ham yuzaga chiqmasa, men yana totinib olishim kerak bo'ladi. Suv bo'lsa-ku, shishaning tagidagina qolgan. Bu yerda makreldan boshqa biron narsani tutib bo'lmasa ham kerak deyman. Ammo uni darrov yeyilsa, unchalik yoqimsiz tuyulmaydi. Qani endi tunda uchar baliq tushib qolsa. Ammo uni jalb qilishga menda chiroq yo'q. Ajoyib taom-da bu uchar balig'i, uni tozalab o'tirishning ham hojati yo'q. Men bo'lsam, kuch asrashim kerak. Yo xudovando, axir men uning bunaqa kattakon bo'lishini qaydan bilay!.. Ammo baribir men uni yengaman, – dedi u. – Nechog'li ulkan, nechog'li buyuk bo'lmasin, baribir.

«Garchi adolatdan bo'lmasa-da, – fikran davom etdi u, – men odam bolasining nimalarga qodir ekanligi va nimalarga dosh berib, chidashi mumkinligini ko'rsatib qo'yaman».

– Mening zuvalam boshqacha uzilgan deb bolaga aytmovdimmi, axir, – dedi u. – Buni amalda isbot qilishning payti keldi.

U allaqachon buni yuz karra, ming karra amalda isbot qilgan edi. Nima bo'libdi endi? Yana qaytadan isbot qilish kerak bo'lsa, isbot qilaveradi. Buning sanog'i har safar yangidan boshlanadi: shu sababdan ham u biron narsani qilayotganda, hech qachon o'tib ketgan narsalarni eslab o'tirmas edi.

«Qani endi uyquga keta qolsa, keyin men ham mizg'ib olardim va tushimda sherlarni ko'rgan bo'lardim, – deb o'yladi u. – Nima uchun sherlar mening hayotimda qolgan narsalarning eng yaxshisiykin?»

– Xayol surmaslik kerak, qariya, – dedi u o'ziga. – Taxtalarga suyangin-da, osoyishta bo'l, dam ol, hech

narsa to'g'risida o'ylama. U hozir urinib yotibdi. SENCHI, sen iloji boricha kamroq uringin.

Quyosh ufqqa og'ib qolgan, qayiq bo'lsa, sekin, ammo beto'xtov suzgandan suzib borar, suzgandan suzib borardi. Uni sharqdan esayotgan shamol ohista haydamoqda, chol yelkasini o'yib tushgan arqon yetkazayotgan og'riqni yengilgina, bilintirmay o'tkazib beozor to'lqinlarda asta-asta chayqalib borardi.

Nima bo'ldi-yu, tushdan keyin chilvir yana ko'tarila boshladi. Biroq aytarli hech narsa yuz bermadi. Baliq sal yuzaroqda suza boshlagan edi. Quyosh cholning orqasi, chap qo'li va yelkasini qizdirar edi. U bundan baliqning shimoli-sharqqa tomon burilganini bildi. Endi u, baliqqa bir nazar solgandan keyin uning suv ostida binafsha rang ko'krak qanotlarini charx urgan qushdek keng yoyib, qudratli quyrug'i bilan qorong'ilikni tila-tila suzib borishini ko'z o'ngiga keltira olardi. «Qiziq, bunaqangi chuqurlikda u nimani ham ko'ra olardi? – deb o'yladi chol. – Ko'zlari juda yirik-yirik, lekin otning ko'zi, unikidan necha hissa kichig-u, ammo qorong'ida ko'radi. Men ham qachonlardir kechasi yaxshi ko'rardim. To'g'ri, zim-ziyo tun bo'lsa, unda boshqa gap, ammo bir hisobga ko'zimning o'tkirligi mushuknikidan qolishmas edi».

Changak bo'lib qolgan chap qo'l to'xtovsiz mashq ham quyosh tufayli o'z holiga qayta boshladi, chol arqondan tortayotgan azobini birozgina bo'lsa ham yengillatish uchun yelka mushaklarini ishga solib, butun og'irlikni asta-sekin so'l qo'lga o'tkazishga kirishdi.

– Agar sen hali ham charchamagan bo'lsang, – dedi u ovoz chiqarib, – gapning o'g'il bolasi shuki, mislsiz baliq ekansan.

Endi u o'zini benihoya horg'in sezar, buning ustiga tezda qorong'i tushajagi yuragini timdalar, shu sababdan boshqa bir chet narsalar ustida o'ylashga harakat qilar edi. U o'zi uchun Gran Ligas bo'lib qolgan mash-

hur beysbol ligalari hamda Nyu-York «Yanki»si bilan Detroyt «Yo'lbars»i o'rtasida bo'ladigan bugungi o'yin ustida o'ylardi.

«Juegos<sup>1</sup> natijalari haqida mana ikki kundan beri hali hech narsani bilmayman, – deb o'yladi u. – Ammo men o'z kuch-quvvatinga ishonishim va nima ishga qo'l urmayin, barini qotirib tashlaydigan, bunda hatto tovonidagi suyak qadog'i beradigan azobga ham qarab o'tirmaydigan buyuk Di Madjioga loyiq bo'lishim kerak. Suyak qadog'ining o'zi nima? Un espuela de hueso.

Biz, baliqchilarda bu narsa bo'lmaydi. Nahotki, buning og'rig'i urishqoq xo'roz pixi bilan tovonga tepganchalik bo'lsa? Men, ehtimol, na bu kabi tepkiga va na bir yoki har ikki ko'zdan ayrilishga tobi toqat qilgan va na urishqoq xo'rozlar singari jangni davom ettira olgan bo'lardim. Kishini benihoya hayratga soladigan ajoyib qushlar va hayvonlar oldida odam bolasi – nima degan gap o'zi. Men hozir shu tobda, huv o'sha dengiz tubida suzayotgan maxluq bo'lib qolishni istar edim».

– Ha, faqat akulalar bosqin yasamasagina, bu yaxshi, – dedi u ovoz chiqarib. – Akulalar hujum qilib qol-sa-chi, unda menga ham, unga ham o'zing rahm qil, xudo!

«Nahotki, buyuk Di Madjio baliqni hozir sen ushlab turganchalik matonat bilan ushlab tura olardi, deb o'ylaysan? – deb so'radi u o'zidan. – Ha, aminmanki, u ham xuddi shunday qilgan bo'lardi va, ehtimol, menga qaraganda navqiron ham zabardast bo'lganligi uchun, yaxshiroq qilishi ham mumkin edi. Ustiga-ustak otasi baliqchi o'tgan... Suyak qadog'i juda ko'p azob berarmikin unga?»

– Qaydam, – dedi u o'ziga o'zi. – Men umrim bino bo'lib, suyak qadog'ining nimaligini bilmayman.

Quyosh botgandan keyin chol o'ziga dalda berish uchun bir mahallari Kasablanka tavernasida butun

---

<sup>1</sup> Sport o'yinlari (*isp.*).

portda eng kuchli odam hisoblangan senfuegoslik barzangi negr bilan kuch sinashganligini eslay boshladi. Ular stol ustiga boʻr bilan chizilgan chiziqqa tirsaklarini tiraganlaricha, bilaklarini egmay, panjalarini chambarchas siqqan holda bir sutka qimir etmay, oʻtirib chiqqan edilar. Har ikkovi ham bir-birlarining qoʻllarini stolga yotqizishga urinar edi. Atrofdagi odamlar garov oʻynashar, kerosin lampa gʻira-shira yoritgan xonaga kirib chiqishar, u boʻlsa negrning qoʻli, tirsagi, basharasidan koʻz uzmas edi. Sakkiz soat oʻtgandan keyin, sudyalar uxlab olish maqsadida, har toʻrt soatda almashadigan boʻldi. Har ikki raqibning ham tirnogʻi ostidan qon siljiy boshladi, oʻzlari boʻlsa, hamon bir-birovlarining koʻzlari, qoʻllari va tirsaklaridan koʻz olmas edilar. Bahs boylashganlar xonaga kirishar, chiqishardi; ular devor yoqalab qoʻyilgan baland stullarga oʻtirib olib, musobaqaning nima natija bilan tamom boʻlishini kutishardi. Yogʻoch devorlar toʻq zangori boʻyoq bilan boʻyalgan, lampalardan ularga soyalar tashlanardi. Negrning soyasi juda ham bahaybat boʻlib, shamol lampalarni tebratgan paytlarda devorda lopillar edi.

Butun kecha davomida goh uning, goh buning qoʻli baland kelib turdi, negrga rom quyib tutishar va sigaretalarini tutatib berishardi. Romni ichib olgandan soʻng negr shunday ham zoʻr berardiki, hatto bir safar cholning qoʻlini (chol u paytlarda chol emasdi, uni Santyago EL Campeon<sup>1</sup> deb atashar edi) deyarli uch dyuymga bukib ham qoʻydi. Ammo chol bilagini qayta toʻgʻrilab oldi. Shundan keyin u oʻzi yaxshigina yigit va obroʻli polvonlardan boʻlgan bu negrni yengishiga shubha qilmadi. Nihoyat, tongda odamlar sudyadan durang talab qila boshlagan, sudya esa nima qilarini bilmay, faqat yelka qisganda, chol butun kuchini bir yerga toʻpladi va to negrning qoʻli stolga qapishmaguncha bukib tushaverdi.

---

<sup>1</sup> Chempion (*isp.*).

Olishuv dam olish kuni ertalab boshlanib, dushanba kuni saharda tamom bo'ldi. Bahs boylashganlardan ko'pchiligi durang bo'lsin, deb talab qila boshladilar, chunki ularning portga ishga chiqish vaqtlari bo'lib, bu yerda Gavana ko'mir kompaniyasi uchun ko'mir yoki qoplangan shakar yuklashardi. Shu bo'lmasa, hammasi ham musobaqani oxiriga yetkazishning tarafdori edi. Ammo chol yengdi, yengganda ham yuk tashuvchilarning ish vaqti boshlanmasdan burun yengdi.

Keyin uni uzoq vaqt Chempion deb atab yurishdi, bahor chiqqanda esa u negr bilan yana olishdi. Biroq bu safar garovlar oz pulga o'ynaldi va chol ikkinchi marta ham oson g'alaba qozondi, chunki senfuegoslik negrning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi birinchi o'yinda yoq shikast topgan edi. Keyin Santyago yana bir qancha musobaqalarda qatnashdi, ammo ko'p o'tmay bu ishni tashladi. Chunki astoydil xohlasa, har qanday odamni ham yengishiga amin bo'ldi va endi bunday musobaqalar baliq ovlash uchun kerak bo'ladigan, o'ng qo'liga zarar keltirishi mumkinligini angladi. Bir necha marotaba u chap qo'li bilan kuch sinashmoqqa harakat qilib ko'rdi. Ammo bu qo'li uni doimo uyaltirib qo'yar, egasiga bo'ysunishni istamas va chol ham unga ishonmas edi.

«Endi uni quyosh yaxshilab qizdiradi, – deb o'yladi chol. – Agar kechasi juda ham sovuq bo'lmasa, bundan keyin jo'rttaga, menga achchiq qilib uvushib o'tirgani jur'at qilmaydi. Qani, ko'raylik-chi, bu tun bizga nimalarni ravo ko'rarkin?»

Uning tepasidan Mayamiga uchgan samolyot o'tib ketdi, chol samolyotning soyasi hurkitib uchirgan uchar baliqlarning to'dasini ko'rdi.

– Bu yerda uchar baliq shunchalik ko'p ekan, demak, shu yaqin o'rtada makrel ham bo'lishi kerak, – dedi u va baliqni salgina bo'lsa-da, yaqinroq silji-

tishning iloji yo'qmikin deb, yelkasi bilan chilvirga qat-tiqroq tirkaldi. Ammo buning mumkin emasligi tezda anglashildi, chunki chilvir xuddi tor kabi uzilib ketay deb, yana zirillab qaltilladi, undan suv zarralari sak-rab otila boshladi. Qayiq oldinga ohista suzib borardi. Chol to samolyot ko'zdan yo'qolguncha, uni kuzatib turdi.

«Samolyotdan hamma narsa juda g'alati bo'lib ko'rinisa kerak, – deb o'yladi u. – Qiziq, shuncha ba-landlikdan dengiz qanday ko'rinarkin? Agar ular bun-chalik yuqorida uchmaganlarida o'sha yerdan mening balig'imni aniq ko'rgan bo'lishardi. O'z balig'imga yuqoridan bir nazar tashlash uchun ikki yuz sarjin balandlikda sekin-sekin uchib o'tishni xohlardim. Bir paytlar toshbaqa oviga chiqqan kezlarim, mach-ta uchiga chiqib, o'sha yerdan ham juda ko'p nar-salarni bir-biridan ajrata olardim! Makrel yuqoridan ko'kimtirroq bo'lib ko'rinadi va hatto uning binafsha rang yo'l-yo'l chiziqlari-yu, dog'larini ajratib olish, bu-tun to'da qay yo'sinda suzayotganligini ham ko'rish mumkin. Qorong'i chuqurliklarda suzuvchi barcha uchqur baliqlarning usti, ko'pincha, yo'l-yo'l tasma-lari ola-bula dog'lari ham nima sababdandir, binafsha rangida bo'ladi. Nega endi shunaqa bo'larkin? Makrel ko'rinishdan ko'kimtir bo'lsa ham, aslida rangi tilla-ga o'xshaydi. Ammo u rosa ham ochiqib biron narsa-ni ketidan quvganda, biqinlarida xuddi marlinniki singari binafsha rang yo'l-yo'l chiziqlar paydo bo'ladi. Nahotki, bu qahrdan bo'lsa? Balki, odatdagidan tez harakat qilganidandir?»

Qorong'i tushmasdan sal oldin, yengil to'lqinlar qo'ynida go'yo sariq ko'rpa ostida okean kim bilandir quchoqlashayotgandek chayqalgan va to'lg'ongan sar-gass suv o'simliklarining kattagina oroli yonidan o'tib ketayotganlarida, kichik qarmoqqa makrel ilindi. Baliq quyoshning so'nggi nurlarida musaffo oltin jilolar bilan

turlanib, qoʻrquvdan yarim bukilgan holda, qanotlarini havoda jon holatda silkita-silkita yuqoriga sapchiganda, chol uni koʻrib qoldi. Makrel shovvoz akrobatdek qayta-qayta sapchib koʻtarilardi. Chol boʻlsa quyruqqa oʻtib oldi, choʻnqaydi, yirik chilvirni oʻng qoʻli va tirsagi bilan tutganicha, baliq tushgan dastani yalang soʻl oyogʻida bosib turib, makrelni chap qoʻli bilan chiqarib oldi. Makrel qayiqning shundoq yonginasiga kelib, jon achchiq talvasa ichida oʻzini har tomonga urganda, chol quyruq osha engashdi va qayiqqa misli oltindek lov-lov yongan, binafsharang tasmali baliqni koʻtarib oldi. Makrel iztirob ichida ogʻzini ochib yopar, jon holatda qarmoqni tishlardi. Uning uzunchoq yassi tanasi, boshi ham dumini to chol tillarang tusda tovlanib turgan kallasiga urib tinchitmaguncha, qayiq tubiga urilib turdi, keyin biroz titrab-qaqshadi-da, qimir etmay qoldi.

Chol baliqni qarmoqdan chiqarib oldi, unga yana qaytadan xoʻrak ildi-da, dengizga tashladi. Keyin u ohista quyruqqa oʻtib oldi. Chap qoʻlini chayib, ishtoniga surtdi, chilvirni oʻng yelkasidan chap yelkasiga oʻtkazdi va quyoshning okeanga botib borishi bilan chilvirning suvga qanday qiyalikda ketayotganini kuzatgan holda, oʻng qoʻlini yuvdi.

– Hammasi boyagi-boyagicha, – dedi u.

Ammo suvga qoʻl tiqib, chol qayiqning harakati ancha susayib qolganini sezdi.

– Kechasi harakatni picha susaytirish uchun har ikkala eshkakni bir-biriga bogʻlab, qayiqqa koʻndalang qilib mahkamlayman, – dedi u. – Bu baliqning kuchi hali butun kechaga yetib ortadi. Men ham undan qolishmayman, albatta.

«Makrelni yana biroz turib, keyin tozalasam, maʼqul boʻladiganga oʻxshab qoldi, – deb oʻyladi u, – shunda hamma qoni oqib ketmaydi, men buni saldan keyin qilaman va birvarakay eshkaklarni ham bogʻlab

qo'yaman. Ungacha, yana ayniqsa kun botar chog'ida baliqni bezovta qilmaganim durust. Quyoshning botishi har qanday baliqqa ham yomon ta'sir qiladi».

U qo'lini shamolda quritib oldi, keyin chilvirni tutdi-da, baliqqa birmuncha erk berdi. Baliq uni taxta qoplama tomon yaqinroq surib keldi va chol shu bilan og'irlikni o'z gavdasidan qayiqqa ko'chirdi.

«Qo'limdan uncha-muncha ish keladigan bo'lib qolibdi, – deb o'yladi u. – Hozircha men baliqni uddalayman. Buning ustiga u xo'rakni yutib yuborganidan beri hali hech narsa totimaganini ham unutish kerak emas, o'zi kattakon bo'lsa, unga juda ko'p oziq kerak. Men-ku, butun boshli bir tunetsni yeb oldim-a. Ertaga makrelni yeyman. – Chol makrelni dorado deb atardi. – Ehtimol, uni tozalayotganimda, bir bo'lakchasini yeb olarman. Makrelni yeyish tunetsni yeyishdan og'irroq. Ammo dunyoda osonlik bilan bitadigan ishning o'zi yo'q».

– Ahvollaring qalay endi, baliq? – baland ovoz bilan so'radi u.

– Men o'zimni juda yaxshi his qilyapman. So'qo'limning og'rig'i pasaydi, oziq ham butun bir kecha-yu, yana bir kunga yetadi. Mayli, baliq, qayiqni tortaver.

Chol o'zini, aytganiday, juda yaxshi his qilayotgani yo'q edi. Chunki yelkasiga arqon berayotgan azob endi shunchaki og'riqdan o'tib, zirq-zirq lo'qillashga aylangan, bu esa cholni xavotirga solayotgan edi. «Bundan battarroq narsalarni ham ko'rganmiz, – deb yupatardi u o'zini. – Bir qo'lim sal-pal shikastlangan, ikkinchisi bo'lsa, endi tomiri tortishayotgani yo'q. Oyoqlarim bardam. Oziq-poziq masalasida ham men baliqqa qaraganda o'zimni poshsho deb his qilsam bo'ladi».

Qorong'i tushdi, sentyabr oyida tun doimo birdan, quyosh botishi bilanoq kiradi. U, tuzdan yeyilib ketgan taxtalarga yonboshlab yotar va bor kuchi bilan



dam olishga harakat qilardi. Osmonda ilk yulduzlar ko'indi. U Rajul yulduzining nomini bilmasdi, ammo unga ko'zi tushishi bilanoq tezda barcha qolganlari ham chiqishini va shunda, bu olis hamrohlar yana o'ziga esh bo'lishini tushundi.

– Baliq ham menga oshna, – dedi u. – Men bunday baliqni hech qachon ko'rgan emasman, shundaylari bo'lishini eshitmaganman ham. Ammo men uni gumdon qilishim kerak. Yaxshiyamki, yulduzlarni ham gumdon qilishga zarurat yo'q!

«Tasavvur qilib ko'rgan-a, odam uzzukun oyni bo'g'izlashga harakat qilib yursa! Oy bo'lsa, undan qochib ketadi. Bu ham mayli-ya, agar odamga har kuni quyoshni ovlashga to'g'ri kelib qolganda, nima bo'lardi? Yo'q, nima desang ham bizning toleyimiz bor», deb o'yladi u.

Keyin u totinib olishga imkoni bo'lmagan katta baliqqa achinib ketdi. Ammo bu qayg'urish, uning baliqni o'ldirish haqidagi qat'iy qaroriga hech qanday monelik qilmas edi. Qanchadan-qancha odamlarni to'ydiradi u! Biroq kishilar u bilan qorin qappaytirishga arzisharmikin? Yo'q, albatta. Dunyoda hech kim uni og'ziga olishga loyiq emas; axir, unga bir qarang, o'zini qanday tutyapti, qanday sharofat ko'rsatyapti.

«Men juda ko'p narsalarni tushunmayman, – deb o'yladi u. – Ammo bizga quyosh, oy va yulduzlarni o'ldirishga to'g'ri kelmaganligi qanday yaxshi. Dengizdan bor-yo'q rizqi ro'zimizni qoqishtirib olayotganimiz va yana o'z birodarlarimizni o'ldirayotganimiz ham yetib ortadi.

Endi men eshkaklardan bo'ladigan tormoz haqida o'ylab ko'rishim zarur. Buning ham yaxshi, ham yomon tomoni bor. Men ancha-muncha kalavadan ayrilib qolishim mumkin, keyin, baliq siltanib qolsa, tamom, uni ham qo'ldan chiqarib qo'yaman, tormoz bo'lsa, qayiqni tez harakat qilishdan mahrum qilib

qo'yadi! Qayiqning yengilligi esa ham baliqning, ham o'zimning azob-uqubatlarimni oshiradi, ammo bu uqubattan xalos bo'lishimning garovi ham shunda. Axir, bu baliq, agar istaguday bo'lsa, bundan ham tez suzishi mumkin. Hay, nima bo'lsa bo'lar, hozir, hidlanib qolmasdan burun makrelni tozalab qo'yish va picha totinish kerak. Quvvat bo'ladi.

Endi yana biror soat dam olaman, keyin agar baliq o'zini tinch tutadigan bo'lsa, quyruq tomonga o'tib, lozim bo'lgan ishlarni qilaman va eshkaklar to'g'risida bir fikrga kelaman. Ungacha baliqning o'zini qanday tutishini kuzatib boraman. Eshkak bilan bo'ladigan hangoma yaxshi o'ylab topildi, biroq hozir bo'lsa-bo'lmasa ishga qat'iy kirishish kerak. Baliq hali kuchga to'liq. Men qarmoq baliq lunjining xuddi o'zginasida sanchilib turganini, og'zi esa mahkam qisib olinganini payqagan edim. Qarmoqning unga berayotgan azobini azob demasa ham bo'ladi. Uni ko'proq ochlik va o'zi nimaligini aniq bilib yetmaydigan xavf-xatar sezgisi qiynaydi. Hordiq olaver-chi, chol. Senga navbat kelguncha, baliq zahmat tortaversin».

Uning nazarida, o'zi ikki soatga yaqin dam olgan edi. Oy endi kech ko'tarila boshlaganidan, u vaqtni aniq belgilay olmadi. To'g'risini aytganda, uning dam olishi shunchaki, xo'jako'rsinga bo'lgan dam olish edi. U baliqning og'irligini o'z yelkasida boyagi-boyagi his qilar, shunday bo'lsa ham chap qo'li bilan quyruq planshiriga tayangan holda og'irlikni imkoni boricha qayiqqa solishga urinardi.

«Chilvirni qayiqqa bog'lab qo'yishim mumkin bo'lganida, hamma narsa oppa-oson hal bo'lgan bo'lardi-qo'yardi, – deb o'yladi u. – Ammo u salgina siltana qolsa bormi, tamom, chilvir chirt uziladi-ketadi. Men chilvirga tushadigan kuchni o'z gavdam bilan beto'xtov qirqib, har daqiqada kalavani ikki qo'llab bo'shatishga tayyor turishim kerak».

– Ammo sen, axir, hali uxlaganing yo‘q-ku chol, – dedi u ovoz chiqarib. – Yarim kun va bir kecha, keyin yana bir kunduz o‘tsa hamki, sen hamon uxlaganingcha yo‘q, ha. U to‘polon ko‘tarmay, xotirjam turgan mahalda, sen nima qilib bo‘lsa ham, ozgina uxlab olishning g‘amini ye. Bo‘lmasa, kalovlanib qolasan.

«Hozir miyam juda yaxshi ishlayapti, – deb o‘yladi u. – Hatto juda ham ravshan. Shunchalik ravshanki, go‘yo hamshiralarim bo‘lgan yulduzlarga o‘xshaydi. Ammo nima bo‘lganda ham, men uxlab olishim kerak. Yulduzlar ham uxlaydi, oy ham uxlaydi, quyosh ham uxlaydi va hatto oqim bo‘lmagan, jimjit sukunat cho‘kkan kezlari okean ham uxlaydi.

– Uxlab olishni yodingdan chiqarma, – deb uqtiradi o‘ziga o‘zi chol. – Uxlashga o‘zingni majbur qil. Kalavadan bir amallab holi bo‘lishning oson va to‘g‘ri yo‘lini axtar. Endi quyruqqa o‘tib, makrelni tozalab qo‘y. Eshkakdan qilingan tormoz esa, xudo ko‘rsatmasin uxlab qolguday bo‘lsang, nihoyatda xatarli bo‘ladi.

– Ammo men uyqudan voz kechishim ham mumkin, – dedi u o‘ziga. – Ha, mumkin, biroq bu ham o‘lguday xavfli.

U baliqni bezovta qilmaslikka harakat qilib, emaklab quyruq tomonga siljiy boshladi. «U ham, ehtimol, pinakka ketayotgan bo‘lsa ajabmas, – deb o‘yladi u. – Ammo men uning nafas rostlab olishini istamayman. U to jon berguncha qayiqni tortib borishi kerak».

Quyruqqa yetib olgach, u aylanib baliqning butun og‘irligini chap qo‘liga o‘tkazdi, o‘ng qo‘li bilan esa pichoqni g‘ilofdan sug‘urib oldi. Yulduzlar bodrab-bodrab nurlanar, makrel ularning shu‘lasida yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Chol uning kallasiga pichoq sanchib, quyruqning taxta kati ostidan tortib oldi-da, oyog‘i bilan bosib turib, dumidan to ostki jag‘ining tagigacha chaqqon tilib chiqdi. So‘ng pichoqni qo‘ydi. O‘ng qo‘li bilan baliqning ichak-

chavog'i-yu, jabrasini sug'urib oldi. Uning qorin qopchig'i og'ir va shilimshiq edi. Tilinganda, ichidan ikki uchar baliq chiqdi. Ular hali buzilmagan, qattiqqina edi, chol har ikkovini ham qayiq tubiga yonma-yon qo'ydi, ichak-chavoqlarni esa dengizga uloqtirdi. Ular cho'kkan joyda yaltillagan iz qoldi. Yulduzlar-ning rangsiz shu'lasida makrel iflos bo'z tusiga kirgan edi. Chol baliq boshini oyog'i bilan bosib turib, uning bir yonidan terisini shilib oldi. Keyin makrelni ag'darib qo'ydi va ikkinchi yonining terisini shildi. Go'shtini boshidan to dumigacha tilib chiqdi.

Makrel skeletini dengizga uloqtirgach, suvda doiralar paydo bo'ladimi, yo'qmi deb, qarab turdi, ammo sekin-sekin cho'kib borayotgan baliq ashqol-dashqolining yaltiroq izidan boshqa hech vaqo ko'rinmadi. Chol o'girilib oldi, har ikkala uchar baliqni makrel bo'laklari orasiga qo'ydi va pichoqni g'ilofiga solib, yana qayta qayiq burniga tomon ohista o'tib oldi. Uning yelkasi chilvir zalvoridan egilgan, o'ng qo'li bilan esa baliqni tutib borardi.

Joyiga qaytib kelgach, makrel bo'laklarini taxtalar ustiga terdi, bularning qatoriga uchar baliqlarni qo'ydi. Shundan keyin chilvirni yelkasining hali lat yemagan joyiga surib oldi va yana og'irlikni planshirga tayangan chap qo'lga o'tkazdi. Bort osha engashib, uchar baliqni dengizda chayib oldi. Bu orada qo'li ostida suvning qanday oqayotganiga ham e'tibor berdi. U makrel po'stini shilganida, yaltirab qolgan qo'li atrofida suvning doira yasab o'tishiga mahliyo bo'lib turdi. Hozir u avvalgidan sekinroq oqardi. Chol kaftining chetini qayiq ziyiga ishqab turib, quyruq tarafga ohista suzib ketayotgan fosfor zarralarini ko'rdi.

– U yo toldi, yo nafas rostlayapti, – dedi chol. – Tezroq ovqatlanib, ozgina uxlab olish kerak.

U go'sht bo'laklaridan birining yarmini va yulduzlar yorug'ida tozalab qo'yilgan uchar baliqlardan birini

yeb oldi. Ovqatlanar ekan, chol tun havosi borgan sari sovuqlashayotganini seza boshladi.

– Agar qovurib yeyilsa bormi, makreldan ko'ra laz-zatliroq narsa yo'q, – dedi u. – Ammo xomligida naqa-dar bemaza bu. Dengizga baniy tuzsiz va limonsiz chiqmaganim bo'lsin.

«Menda kalla degan narsa bo'lganda, – deb o'yladi u, – kun bo'yi qayiq burniga suv quyib, selgitib tur-masmidim, – kech kirganda, qo'limda tuzim bo'lardi. Aytmoqchi, makrelni kun botish oldidangina tutgan edim-a. Shunday bo'lsa ham, men juda ko'p narsa-larni nazardan qochirib qo'yibman. Qarang-a, butun bir bo'lakni chaynab bo'libman-ku, ammo ko'nglimni aynitayotgani yo'q».

Sharq tomonda osmon beti bulutlarga burkanmoq-da edi va tanish yulduzlar birin-sirin o'cha boshladi. U go'yo bulutlar darasiga kirib borayotganday ko'rinar edi. Shamol tindi.

– Uch yoki to'rt kundan keyin havo ayniydi, – dedi u. – Ammo bu hali na bugun bo'ladi, na ertaga. Baliq o'zini osoyishta tutayotgan ekan, mizg'ib ol, qariya.

U chilvirni o'ng qo'lga oldi va bor gavdasi bilan bortga yonboshlagan holda, qo'lini dumg'azasi bilan bosib tushdi. Keyin yelkasidagi chilvirni sal quyiroqqa siljitti va uni chap qo'li bilan ushlab oldi.

«Barmoqlarim bo'shashib ketmaguncha, o'ng qo'lim chilvirni qo'yib yubormaydi. Mabodo uyquda barmoq-lar chilvirni qo'yib yuborsa, uning dengizga qarab sil-jishini chap qo'lim sezadi-da, meni uyg'otadi. Albat-ta, o'ng qo'lga oson bo'lmaydi. Ammo u qiyinchilikka bardosh beraverib, o'rganib qolgan. Juda bo'lmaganda yigirma daqiqa yoki yarim soat uxlab olsam, shu ham katta gap».

U bortga yonboshladi, baliqning og'irligini o'ng qo'li-ga o'tkazdi va uxlab qoldi.

Bu safar tushiga arslonlar emas, sakkiz yoki o'n milga cho'zilib ketgan dengiz cho'chqalarining hudud-

siz toʻdalari kirib chiqdi. Hozir hirs fasliga kirganlaridan, ular havoga baland sakrashar, keyin oʻzlari chiqib kelgan suv oʻyigʻiga shoʻngʻishar edi.

Keyin tushida koʻrsa, qishloqda oʻz karavotida yotibdi. Kulbasida shimoldan esgan shamol gʻuvillar emish. Chol juda sovqotibdi. Boshiga yostiq oʻrniga qoʻygan oʻng qoʻli boʻlsa, uvushib qolibdi.

Va nihoyat, uning tushiga choʻziq zardobrang sohil kirdi va gʻira-shirada bu yerga chiqqan birinchi arslonni koʻrdi, uning ketidan boshqalari ham chiqib kelardi. Chol langar tashlab turgan kemaning bortiga iyagini tirab qararmish, qirgʻoqdan esgan kechki shamol uni yelpib oʻtarmish, oʻzi boshqa arslonlar paydo boʻlmas-mikin deb kutayotganmish va baxtiyor emish.

Oy boʻlsa allaqachon chiqqan, u esa hamon uyqudan bosh koʻtarmas, uxlar, baliq boʻlsa qayiqni bulutlar darasi tomon sokin sudrab borardi.

U siltovdan uygʻonib ketdi, oʻng qoʻli musht boʻlib yuziga kelib urildi, chilvir qoʻlni qizdirgandan qizdirib, shitob bilan dengizga ketib borardi. Chap qoʻli hech narsani his qilmaganidan, u chilvirni oʻng qoʻli bilan toʻxtatishga urindi, ammo chilvir allaqanday kuchli bir surʼat bilan dengizga ketib borardi. Nihoyat chap qoʻl ham chilvirni seza boshladi, chol chilvirga yelkasi bilan tirkaldi, endi chilvir orqasi bilan baliqning butun ogʻirligini oʻziga olgan chap qoʻlini jizillatib oʻta boshladi. Chol ehtiyot kalavalarga oʻgirilib qaradi va ularning juda tez boʻshalayotganini koʻrdi. Shu on baliq okean sirtini oʻpirib, otilib chiqdi va yana dengizga zalvor bilan tushib ketdi. Keyin bu yana takrorlandi, undan soʻng yana va yana. Chilvirning dengizga toʻxtovsiz ketib borishiga qaramay, qayiq olgʻa bosardi, chol chilvirni bor kuchi bilan tortishga harakat qilar, goh bir zumgina boʻsh qoʻyib berar, goh yana uzilib ketadimi deb qoʻrqa-qoʻrqa oʻziga tortardi. Uning oʻzi ham qayiq burniga yopishtirib tashlangan edi. Yuzi bir boʻlak

makrel go'shtiga tirkalgancha yotar, cholning qimir-lashga imkoni yo'q edi.

«Bizga xuddi mana shu narsa kerak edi, – deb o'yladi u. – Endi mahkam bo'l... Chilvirni qanday sug'urib ketishni ko'rsatib qo'yaman unga! Ha, ko'rsatib qo'yaman hali!»

Unga baliqning irg'ib chiqishlari ko'rinmas edi. U okean bag'rining shov-shuv suron bilan qo'porilgan-yu, baliq qaytib suvga tushayotganda, quloqni batang qilib shaloplaganini eshitardi, xolos. Bordan oshib borayotgan chilvir qo'lni ayovsiz tilib o'tar, ammo chol shunday bo'lishini avvaldan bilar va kafti yo panjalari yaralanmasin uchun chilvir yo'lga qo'lining qadoqli yerini to'g'rilashga harakat qilardi.

«Bola yonimda bo'lganda, – deb o'yladi chol, – chilvirni ho'llab bergan bo'lardi. Eh, bola yonimda bo'lganda-ya! Qaniydi, u shu yerda bo'lsa! Qaniydi!»

Chilvir ketgandan ketib borar, ketgandan ketib borar, ammo boyagiga qaraganda sur'ati susayinqirab qolgan va chol baliqni chilvirning har tutamini mashaqqat bilan yulib olishga majbur qilardi. U boshini ko'tarib, yuzini parchinlanib ketgan makrel go'shtidan chetga olishga muvaffaq bo'ldi. U avval tizzasiga tur-di, so'ng ohista oyoqqa bosdi. Chol chilvirni hamon bo'shatib turar, lekin borgan sari o'larmonlik bilan oz-ozdan bo'shatardi. U kalava o'ramlari turishi kerak bo'lgan joyga surildi-da, oyog'i bilan paypaslab hali o'ramda chilvirning ko'pligiga qanoat hosil qildi. Suv-ga esa, shunchalik ko'p chilvir ketgan ediki, hali baliq shuning o'zini eplab ulgursa ham xo'p gap edi.

«Mana endi, – deb o'yladi u. – Baliq o'n marotabadan ham ko'p irg'ishlab chiqib pufaklarini havo bilan to'ldirdi. Endi uning borsa kelmasga qochib qutulishi va u yerda o'lib ketishi mumkin emas. U tezda doira yasab, chir aylana boshlaydi, ana o'shanda qo'l-qo'lga tegmay ishlashga to'g'ri keladi. Qiziq, nima

sababdan u bunchalik bezovta bo'ldiykin? Ochlik joni-  
dan o'tdimi yoki qorong'ida biron narsa hurkitdimi?  
Balki, u to'sindan dahshatga tushgandir. Ammo bu  
vazmin va kuchli baliq edi-ku. U menga juda dov va  
o'ziga amin bo'lib ko'ringan edi. Tavba!»

– Menga qara, chol, yaxshisi qo'rqib-po'rqib o'tirish-  
ni bir yoqqa yig'ishtirib qo'y-da, ko'proq o'z kuching-  
ga ishon, – dedi u. – Sen uni qo'lingda ushlab turgan  
bo'lsang ham, bir qarichgina chilvirni o'zingga tortib  
ololmaysan. Ammo u tezda aylana boshlaydi.

Chol endi chilvirni chap qo'li va yelkaları bilan  
to'xtatib turardi; yuzidan makrel go'shtining parcha-  
larini yuvib tashlash uchun egilib o'ng qo'lida suv  
oldi. U ko'ngli behuzur bo'lib, qayt qilishdan, natija-  
da, madorsizlanib qolishdan qo'rqardi. Yuzini yuvib  
bo'lgach, chol subhi sodiq uyg'onib kelayotgan ko'kka  
termilganча, o'ng qo'lini bordan oshirib, sho'r suvda  
tutib turdi. «Hozir u aytarli og'ishmay, to'g'ri sharqqa  
qarab suzyapti, – deb o'yladi u. – Bu uning charchab  
qolib, oqim bo'ylab borayotganini ko'rsatadi. Unga hali  
zamon doira qilishga to'g'ri kelib qoladi. O'lib-tiriladi-  
gan payt ana o'shanda boshlanadi».

Qo'lini sho'r suvda bir necha muddat tutib turgach,  
chol uni ko'zdan kechirdi.

– Unchayam xavfli emas ekan, – dedi u. – Og'riq  
bo'lsa er kishi uchun bir gapi, xolos.

Chol chilvirni qo'lining yangi qirqilib ketgan yerla-  
riga teggizib yubormaslikka harakat qilib, avaylabgina  
ushladi va chap qo'lini ham ikkinchi bordan oshirib  
suvga solish uchun gavdasini qulay o'rnashtirib oldi.

– O'lguday tirik notavon bo'la turib ham, har holda,  
o'zingni yomon tutganing yo'q, – dedi u chap qo'luga. –  
Ammo meni chuv tushirib qo'yay degan payting ham  
bo'ldi.

«Nimaga ham men tog'ni ursa talqon qiladigan ikki  
zabardast qo'l bilan tug'ilmadim? – deb o'ylardi u. –



Balki, chap qo'limning mana shu ko'ygga tushishiga o'zim aybdordirman? Uni achchiq-chuchukka bardosh berishga o'z vaqtida o'rgatish kerak edi. Ammo bandasi bo'lmasa, xudoyimning o'zi ko'rib turgandir, bu narsalarni uning o'zi ham o'rganib olsa bo'lardi. Rostini aytganda, bugun kechasi u menga yomon xizmat qilmadi; bor-yo'g'i bir marta tomir tortishdi, xolos. Lekin, mabodo, bu yana qaytariladigan bo'lsa, yaxshisi chilvir uni cho'rt qirqib keta qolsin!»

Shuni o'ylagandan so'ng, chol boshi aylanib keta-yotganligini sezib qoldi. Aslida yana bir bo'lak makrel go'shtini yeb olish kerak edi-ya. «Yo'q, yeya olmayman, – dedi u o'ziga. – Ko'ngil ozib, behol bo'lgandan ko'ra, bosh aylanib turgani ma'qul. Bundan tashqari, yuzi mijig'lagan go'shtni og'zinga sololmayman. Bu go'shtni to buzilmaguncha, har ehtimolga qarshi saqlab qo'yaman. Baribir hozir u-bu tatib olishning vaqti o'tdi. Kallavaram chol! – deb koyindi u. – Axir, qolgan bir uchar baliqni yeyishing mumkin-ku».

– Mana, u meni ye deb, tozalab qo'yilgancha yotibdi, – chol uni chap qo'lga oldi-da, suyaklarigacha qo'ymay paqqos yeb bitirdi.

«U boshqa har qanday baliqqa qaraganda ham to'q tutadi, – deb o'yladi u. – Harqalay unda menga kerakli bo'lgan narsa bor... Mana endi qo'limdan nima kelsa, shuni qilib bo'ldim. Qani, u aylanaversin-chi, bellashib ko'ramiz hali».

U dengizga chiqqandan beri quyosh mana uchinchi marta bosh ko'tarib chiqyapti, xuddi shuni kutib turganday baliq ham doira chizishni boshlab yubordi.

Chilvirning dengizga qanday qiyalikda tushib borishiga qarab baliq aylanayotibdimi yoki yo'qmi, chol bilolmasdi. Bilishning hali fursati ham yetmagan edi. U chilvirning picha bo'shashganligini sezdi, xolos va o'ng qo'li bilan uni ohista o'ziga torta boshladi. Chilvir boyagi-boyagi yana qattiq tortildi, ammo ol, ana endi

uzilib ketadi deb turganda, u to'sindan bo'shshib qoldi. Shunda chol enkayib yelkalarini ezib turgan chilvirdan bo'shatdi va shoshmasdan, maromi bilan uni o'ziga tortmoqqa kirishdi.

U butun erkini qo'llariga berib ishlardi. Yoshlik kuch-quvvatini yo'qotgan oyoqlari bilan yelkalari ularga ko'mak berib turardi.

– U juda ham olislab aylanyapti, ammo nima bo'lsa ham, ishqilib aylanyapti-ku.

To'satdan chilvir siljishdan to'xtab qoldi. Ammo chol chilvirni to undan quyoshda tovlanib porlagan suv kukunlari sachrab chiqmaguncha o'ziga tortaverdi. Keyin chilvir orqaga tortilib keta boshladi. Chol cho'kkalab olgancha, xushlamaygina, asta-sekin yana sim-siyo suvga bo'shatmoqqa kirdi.

– Endi baliq o'z doirasining eng olis qismini o'tayapti, – dedi u.

«Uni iloji boricha qattiq ushlash kerak. Tarang tortilgan chilvir doirani har safar toraytiraveradi. Ehtimol, biror soatdan keyin u ko'rinib ham qolar. Men uni avval o'z kuchimga ishontirishim kerak, keyin tushovlab olaman».

Biroq ikki soat o'tibdi hamki, baliq hamon qayiq atrofida imillab aylangani aylangan edi. Chol qora terga botgan, charchaganidan burni yerga tekkuday bo'lgan edi. To'g'ri, baliq aylanayotgan doira anchayin qisqarib qolgan, bundan tashqari, chilvirning suvga tushib borishidan baliqning borgan sari yuqoriga ko'tarilib kelayotganligi ko'rinib turardi.

Bir soatdan beri cholning ko'z o'ngi qorong'ilashib borar, sel bo'lib oqqan ter ko'zini ham, ko'zi us-tidagi jarohatni ham, va yana manglayidagi boshqa bir yarani ham achishtirgandan achishtirardi. Ko'z o'ngining qorong'ilashib borayotgani uni qo'rqitmas edi. Chilvirni shunchalik zo'riqish bilan tortayotgani oldida bu unchalik hayron qolarli ish emasdi. Lekin

ikki safar unga jismi go'yo sochilib ketayotganday bo'lib tuyuldi, bu esa uni hazilakam tashvishga solmay qo'ymadi.

«Nahotki, men povilg'onilik qilib qo'ysam va xudo bexabar bir baliq deb o'lib ketsam? – o'z-o'ziga savol berardi u. – Kelib-kelib, hozir – hamma narsa ko'ngildagiday bo'layotgan mahalda-ya. Yo rabbiy, o'zing menga chidam ber! Men yuz bor, «yo padar» bilan yana yuz bor «Bibi Maryam»ni o'qiganim bo'lsin. Faqat hozir emas. Hozir o'qiy olmayman».

«Hozircha ularni go'yo o'qiganday bo'la qolay, – deb o'yladi u. – Keyinroq o'qib qo'yaman».

Shu dam u ikki qo'llab ushlab turgani chilvirga zarb tushayotgani, hamda siltanish ro'y berganini sezib qoldi. Siltov juda ham keskin va benihoya kuchli edi.

«U qarmoq ulangan simga qilich tumshug'i bilan uryapti, – deb o'yladi chol. – Xuddi o'zi. Uning shunday qilishi ham kerak edi. Biroq bu uni sakrab chiqishga majbur qilib qo'yishi mumkin, men bo'lsam uning hozir aylana turgani ma'qul deb bilardim. Boya unga havo olish uchun yuzaga sakrab chiqish kerak bo'lgan edi, ammo endi har bir yangi sakrash qarmoq ilinib turgan joyni kengaytirib qo'yishi, oqibat natijada baliq qo'ldan chiqishi mumkin».

– Baliq, sakramagin, – iltimos qilardi u. – O'tinaman, sakrama!

Baliq qayta-qayta simga zarb urar va har gal chol bosh chayqab, chilvir bo'shatar edi.

«Men unga quyushqondan tashqari azob bermasligim kerak, – deb o'ylardi u. – Mening dardim – o'zimda. Uni yengib o'tishim mumkin. Ammo baliq og'riqdan esini yo'qotib qo'yishi hech gapmas».

Birmuncha muddatdan so'ng baliq simga urishdan to'xtadi va yana ohista aylana boshladi. Chol maromi bilan chilvirni o'ziga tortib yig'ishtirardi. Ammo u yana o'zini lohas seza boshladi. Chol dengiz suvidan ho-

vuchlab olib boshidan quydi. Keyin yana biroz suv olib boshiga quygach, ensasini uqalab qo'ydi.

– Shukrki, hartugul tomir tortishmayapti, – dedi u. – Baliq tezda yuzaga chiqadi, men bo'lsam hali turib beraman. Sen turib berishing kerak, chol. Chidamim yetmaydi deb, hatto xayolingga ham keltira ko'rma.

U tizzalab o'tirib oldi va omonatgina bo'lsa ham chilvirni yana yelkasiga oldi. «Baliq aylanib turguncha, men nafas rostlab olaman, keyin o'rnimdan tura-man-da, u yaqinlab kelishi bilan chilvirni o'zimga torta boshlayman».

Chol qayiq burnida turib ko'proq dam olgisi, chilvirni o'z holiga tashlab, ortiqcha bir aylanib chiqish uchun baliqqa yo'l qo'yib bergisi kelardi. Ammo tortish maromidan baliqning burilib, yana qayiq tomonga qaytayotganligi ma'lum bo'lgan zamon chol o'rnidan turdi va qo'lga iloji boricha ko'proq chilvir kiritay deb, gavdasini dam u tomonga, dam bu tomonga o'girgan-cha qulochlab chilvir torta boshladi.

«Shunday charchabmanki, umrim bino bo'lib bu-naqangi ahvolga tushmaganman, – deb o'yladi chol, – mana shamol ham kuchayib boryapti. Nafsilamrga baliqni uyga olib borayotganimda, bu shamol asqatadi. Ha, juda, juda asqatadi bu shamol».

– U yangidan aylana boshlashi bilan men dam olaman, – dedi u. – O'zimni ham boyagidan ko'ra ancha yaxshi his qilyapman. O'ldim deganda, yana ikki-uch aylanishdan keyin baliq meniki bo'ladi-qo'yadi.

Uning poxol shlyapasi ensasiga surilib tushgan edi. Baliq oldinga qarab yana sudrab keta boshlashi bilan chol butunlay holdan toyib, o'zini qayiq burniga tashladi.

«Mana endi sen chigilingni yoz, baliq, – deb o'yladi u. – Sen orqaga qaytding deguncha, men ishimni boshlayman».

Dengiz bo'ylab yirik dolg'a sirpana boshladi. Ammo suvni ochiq havoning yo'ldoshi bo'lgan xayrli shamol

haydab kelmoqda edi. U cholning uyga yetib olishida hali ham mador, ham madad bo'ldi.

– Qayiqni janub va g'arbga tomon boshqarib bora-man, – dedi u. – Vassalom. Dengizda ham adashib bo'larmishmi? Orolimiz-ku, kichkina emas, cho'zil-gandan cho'zilib ketgan.

Chol baliqni uchinchi aylanish vaqtida ko'rdi.

Nazari avvalo, qayig'i ostidan bosh-keti ko'rinmay cho'zilib o'tgan tim qora soyaga tushdi. O'z ko'zlari-ning ko'rganiga o'zi ishonmay qoldi.

– Yo'q, – dedi u. – Uning bunaqangi botmondaxsar bo'lishi mutlaqo mumkin emas.

Ammo baliq chindan ham ulkan edi. Uchinchi aylani-sh oxirlab qolganida, u qayiqdan o'ttiz yardcha na-rida yuzaga suzib chiqdi. Uning quyrug'i dengizdan qanchalik ko'tarilib chiqqanini chol o'z ko'zlari bi-lan ko'rdi. U eng katta o'roqdan ham kattaroq bo'lib, qoramtir-moviy suv betidan nim safsar tusga kirgan-dek ko'rinardi. Baliq yana boshqatdan sho'ng'ib ketdi, ammo bu gal u qadar chuqur tushmadi. Uning bu-tun alp siyosat gavdasini chirmab olgan binafsharang tasmalari cholga yaqqol ko'rinib turardi. Baliqning umurtqa qanoti shalpayib tushgan, juda ham ulkan ko'krak suzg'ichlari bo'lsa keng yoyilgan edi.

Baliq aylanar ekan, chol uning ko'zlarini, shu ko'zlar atrofida suzib yurgan ikki kulrang yelim baliqni ko'rdi. O'qtin-o'qtin ular baliqning badani-ga zulukdek yopishar, keyin jon holatda ura qochi-shardi. Gohida esa yirik baliqning soyasida o'ynoq-lab suzishardi. Yelim baliqlardan har birining bo'yi uch futdan oshiqroq kelar edi. Ular suzayotganla-rida xuddi ilon baliqqa o'xshab, bor bo'ylari bilan bilanglab ketishardi.

Cholning yuzidan endi faqat quyosh taftidangi-na emas, azbaroyi zo'riqqanlikdan ham ter reza-reza bo'lib oqardi. Ko'rinishdan juda sokin va bamaylixotir

doira yasayotgan baliqning har yangi aylanishida chol borgan sari ko'proq chilvir yig'ib olar, yana ikki aylanishdan keyin baliq ko'ksiga garpun urishiga endi u amin bo'lib qolgan edi.

«Ammo men uni bundan ham yaqinroq olib kelishim kerak, ha, yaqinroq, – deb o'ylardi u. – Mo'ljalga ham boshini olmasdan, naq yuragiga urish kerak».

«O'zingni bos, bardam bo'l, chol», – dedi u o'ziga o'zi.

Keyingi aylanish vaqtida baliqning sirti suv yuzasida ko'rindi, ammo u hali ham qayiqdan ancha narida suzib borardi. Baliq yana bir marta aylanib chiqdi, biroq suv betiga boyagidan ko'ra sezilarliroq chiqib qolgan bo'lsa-da, hamon o'sha-o'sha qayiqdan ancha olisda edi. Chol chilvirni yana biroz tortqilab olganida, hozir baliqni naq bortning yonginasiga keltirib qo'yan bo'lishini bilardi.

U garpunni allaqachon shay qilib qo'yan edi; ingichka tros o'rami kajava savatda yotar, uning bir uchi qayiq burnidagi ilgakka mahkamlangan edi.

Beqiyos vazmin va suluv bo'lgan bu baliq doirasini yasab, ulkan quyrug'ini bilinar-bilinmas qimirlatib, yaqinlashib kelardi. Chol uni qayiqqa mumkin qadar yaqinroq olib kelish uchun kuyib-pishib chilvir tortardi. Bir muddat baliq yonboshiga ag'darilib qoldi. Keyin u o'zini rostlab oldi va yangidan aylanishga o'tdi.

– Men uni o'rnidan jildirdim, – dedi chol. – Nima bo'lganda ham men uni ag'darilishga majbur qildim.

Uning yana boshi aylanib ketdi, shunga qaramasdan chilvirni o'lib-tirilib tortishdan to'xtamadi. «Axir, bo'lsa-bo'lmasa, uni yoniga to'ntarib qo'yish qo'limdan keladi-ku, – deb o'yladi u. – Ajab emas, uni bu safar chalqanchasiga ag'darib olsam. Tort xo-o-o, tort! – O'z qo'llariga buyurdi u. – Qani, ha-ha, oyoqlar, bardam-bardam! Kalla, bo'la qol, anqayma! Ish ko'rsat! Axir, sen hech qachon meni yerga qaratmagansan-ku. Bu safar men uni charxpalak qilib tashlayman!»

Hali baliq qayiqqa yaqin kelib ulgurmasdanoq, u bor kuchini yig'ib, o'lar-tirilariga qaramay, torta boshladi. Biroq baliq yonboshiga ag'darildi, xolos. Keyin yana o'zini o'nglab oldi-yu, olislab ketdi.

– Menga qaragin, baliq! – dedi chol unga. – Sen baribir o'lasan. – Shunday bo'lgach, meni ham o'zingga qo'shmozor qilishdan bir ma'no bormi?

«Bunaqada ikki qo'limni burnimga tiqib qolave-rishim ham hech gap emas», – ko'nglidan o'tkazdi u. Og'zi shunday ham qaqrab ketgan ediki, hatto labini labiga qovushtirishga majoli yetmas, suv solingan shishani cho'zilib olish uchun esa madori yo'q edi. «Bu gal men endi uni qayiqqa sudrab keltirmasam bo'lmaydi, – deb o'yladi u. – Kuning bitib qolganga o'xshaydi, chol». «Yo'q, – deb cho'rt kesdi u o'zini, – bitib qolgani yo'q. Umring hali yuz yillarga yetadi, chol».

Keyingi aylanish paytida chol sal bo'lmasa baliqni qo'lga kiritay dedi-yu, biroq u yana o'zini rostlab olib, ohista uzoqlab ketdi.

«Meni xarob qilyapsan, baliq, – o'ylardi chol. – Bu, albatta, sening ishing. Umrim bino bo'lib hali biron mar-taba senchalik ulkan, senchalik suluv, osuda va oliy-janob maxluqni ko'rmaganman. Mayli, istasang meni o'ldir. Kim-kimni halok qiladi – endi menga baribir».

«Yana miyang ayniyapti, qariya! O'zing bilasan-ku, boshing ravshan bo'lishi shart. Esingni yig'ib ol. Uqubatni insonlarcha... yo bo'lmasa, xuddi mana bu baliqchalik yengib o'tishga harakat qil», – deb xayolan qo'shib qo'ydi u.

So'ng o'z-o'ziga:

– Qani, bo'l-chi, kallani ishlat, – dedi. Ovozi shunday ojiz chiqdiki, uni hatto o'zi bazo'r eshitdi. – Ishlat, deyapman senga.

Yana ikki aylanish davomida ham hech narsa o'zgarmadi.

«Nima qilsam bo'larkin? – o'ylab o'ygiga yetolmasdi chol. Har gal baliq olislay boshlashi bilan unga go'yo o'zi hushdan ketayotganday bo'lib tuyulardi. – Nima qilish kerak? Yana bir urinib ko'raman».

U yana bir urinib ko'rib, hushdan ajralayotganini sezdi. Ammo shunday bo'lsa ham, baliqni chalqancha ag'darishga muvaffaq bo'ldi. Keyin baliq qaytadan o'zini rostlab oldi va bahaybat dumini havoda bilanglata-bilanglata yiroqlab ketdi.

Qo'llari jonsizday bo'lib qolgani va ko'z oldi xiralashib, tuman bosganiga qaramay chol: «Yana bir urinib ko'raman», – deb ahd qildi.

Shunday qildi ham, biroq baliq yana chap berib ketdi. «E, hali shundaymi? – deb o'yladi u. O'yladi-yu, o'zini muzlab ketayotgandek his qildi. – Men yana bir urinib ko'raman».

U o'zining butun azob-uqubati, qolgan-qutgan kuch-quvvati va allaqachonlardan buyon yo'qolib ketgan g'urur, oriyatini bir yerga to'pladi-yu, ularni baliq chekayotgan abgorliklar bilan yakkama-yakka olishuvga tashladi. Shunda baliq yonboshiga ag'darilib tushdi va shu ko'yicha ohista, qayiq qoplamasiga qilich tumshug'i bilan tegay-tegay deb suzib o'ta boshladi; uzun degandan uzun, enli degandan enli, kumushdayin tovlangan, binafsharang tasmalardan kamar bog'lagan, boshi ho'atta, keti ho'batta bo'lib tuyulgan bu baliq sal bo'lmasa qayiq yonidan qilpillab o'tib ketay dedi.

Chol chilvirni tashlab, uni oyog'i bilan bosib oldi, garpunni qurbi yetgancha baland ko'tarib, shu onda yiqqan bor kuchi bilan baliqning dengiz sirtidan odam ko'kragicha ko'tarilib turgan to'sh qanotlarining xuddi orqasiga urdi. U temirning yumshoq go'shtga qanday kirib borayotganini tuydi va butun og'irligini garpunga solib, uni borgan sari chuqur suqa bordi.



Shunda baliq o'lim bilan hamnashin bo'lib qolganiga qaramay harakatga kirdi, go'yo o'zining tengi yo'q bo'y-basti, bor go'zalligi va qudratini namoyish qilganday dengizdan baland ko'tarilib chiqdi. Go'yo u chol bilan qayiq ustida muallaq osilib qoldi. Keyin u chol va cholning butun qayig'iga ko'lob-ko'lob suv yog'dirib dengizga gumburlab tushdi.

Cholni behollik va behuzurlik o'z komiga oldi, ko'zlari deyarli hech narsani ilg'amay qo'ydi. Biroq garpun arqonini bo'sh qo'yib, uni tilimlanib ketgan qo'llarida ohista tutamlay boshladi. Ko'zlari yana ravshan tortganda esa, u baliqning kumushrang qornini osmonga qaratib to'ntarilib yotganini ko'rdi. Orqasidan garpun dastasi qiyalab chiqib turar, dengiz tegrasi esa uning qora qoniga bo'yalgan edi. Boshda go'yo butun bir chaqirim keladigan moviy suvni g'ij-g'ij baliqlar to'dasi qoplab yuborganday qora dog' bosdi. Keyin bu dog' yoyilib ketdi va pag'a-pag'a bulutga o'xshab qoldi. Kumushsimon baliq to'lqinlarda ohista tebranib turardi.

Chol to ko'zi yana tinib ketmaguncha, baliqdan ko'z uzmay turdi. So'ngra u garpun arqonini bitengga ustma-ust ikki marta o'rab bog'ladi va qo'llari bilan ikki chakkasini ushlab munkaydi.

«Nima balo bo'la qoldi-ya, bu boshimga o'zi? – dedi u yuzini quyruq qoplamasiga bosarkan. – Men keksayib qolgan odamman. Qattiq charchadim. Ammo men nima bo'lganda ham mana bu baliqni o'ldirdim. U menga tug'ishgan birodarimdan ham ortiqroq. Endi bo'lsa, mayda-chuyda ishni bir yoqlik qilishgina qoldi.

Hozir baliqni qayiqqa qantarib olishim uchun arqonni taxt tutib, uni sirtmoq-sirtmoq qilib qo'yishim kerak. Mabodo biz ikkovlashib baliqni qayiqqa orthsag-u, uni suvga liq to'ldirib qo'ysag-u, boringki, keyin chelaklab bo'shatsag-u, baribir, qayiq bunaqangi yukka dosh berolmaydi. Men nima lozim bo'lsa hammasini tappa-taxt qilib qo'yishim kerak. Keyin baliqni

bortga tortib keltirishim-u, chandib tashlashim, yelkanni ko'tarib, kuch-ko'ron bilan juftakni rostlashim kerak bo'ladi».

Chol arqonni baliq jabrasi va jag'laridan o'tkazib, boshini quyruqqa tirband qilish maqsadida uni bortga tortib keltira boshladi.

«Uni ko'rgim kelyapti, – deb o'yladi u, – o'z qo'llarim bilan ushlagim, qanday baliq ekanligini bir bilib qo'ygim kelyapti. Axir u – mening boyligim. Lekin, faqat shuning o'zi uchungina uni ushlab ko'rgim kelayotgani yo'q. Men allaqachon, ho' o'shanda, garpunni sopiga dovur urganimda, uning yuragiga qo'l teggizib ko'rganday bo'ldim, – deb o'ylardi u. – Hay, mayli, endi uni yaqinroq olib kel, boyla, dumiga sirtmoq tashla, qayiqqa yopishib tursin desang, tanasini ham sirtmoqlab ol».

– Qani, qariya, harakatingni qil, – dedi u o'ziga va bir qultum suv yutindi. – Endi jang tamom bo'ldi, ammo hali mayda-chuyda ish boshdan oshib yotibdi.

Chol avval zilol osmonga, keyin ulkan baliqqa nazar soldi. Ayricha diqqat bilan quyoshga qaradi. «Hozir kun peshindan sal og'ibdi. Passat bo'lsa, avjiga minyapti. Shu tobda chilvirni ulab-chatib qo'yay desam, bundan naf yo'q. Buni bola bilan uyda do'ndirib qo'yamiz».

– Qani, beri kel-chi, baliq!

Ammo baliq beri kelishni hatto xayoliga ham keltirmas, to'lqinlar og'ushida sokin chayqalar edi. Cholning o'ziga qayiqni unga tomon olib borishga to'g'ri keldi.

Chol unga shundoq yonma-yon kelib, baliqning boshi qayiq quyruq'iga uchma-uch kelganda, yana bir karra uning azim haybatidan dong qoldi. Keyin garpun arqonini bitengdan yechib olib, uni baliq jabralaridan o'tkazdi, bir uchini jag'idan tortib chiqardi, baliqning qilich tumshug'iga aylantirib o'radi, keyin arqonni yana jabralardan o'tkazdi, yana baliq tumshug'iga o'radi va ustma-ust bitengga chandib tashladi. Qolgan arqonni kesib olib, baliq dumini sirt-

moqlash uchun quyruqqa o'tdi. Baliqning tusi zarrin binafsha rangdan sof kumush rangga o'tdi, tasmalari bo'lsa, xuddi quyrug'i kabi siniq safsar tusini oldi. Bu tasmalar erkak kishining kerilgan qo'llaridan enliroq edi, baliqning ko'zlari esa, xuddi periskop oynaklari singari lo'q bo'lib qolgan, ayni chog'da salb chopqinlari vaqtidagi avliyolarning qiyofasini eslatib turardi.

– Men uni bundan boshqacha qilib o'ldirolmas edim, – dedi chol.

U suv ichib, o'zini ancha tetik his qildi. Endi u o'zining bundan keyin hushdan ketmasligini bilardi, miyasi ham ravshan tortgan edi. «Bu baliq yarim tonna kelsa keladiki, kam emas, – deb o'yladi u. – Balki, undan ham ko'proqdir». Agar bunaqangi baytalmorning uchdan ikki qismi go'sht bo'lsa, har funti o'ttiz sentdan turganda, qo'lga qancha pul kirarkin?

– Qalam-qog'oz bo'lmasa, hisobiga yetib ham bo'lmaydi buni, – dedi chol. – Hisobini chiqarish uchun bosh tiniq bo'lishi kerak. Ammo, fahmimcha, ulug' Di Madjio bugun men bilan faxrlansa arziydi. To'g'ri, menda suyak qadog'i bo'lgan emas. Lekin qo'llarim va yelkam bebiliska og'ridi-e. Darvoqe, suyak qadog'ining o'zi nima? Ehtimol, u bizda ham bo'lsa bordir, faqat borligini xayolimizga keltirmasak kerak, xolos.

Chol baliqni qayiq burni, quyrug'i va o'rindiqlariga bog'lab qo'ydi. Baliq shunchalik ham azim ediki, cholga go'yo u qayig'ini yirik kemanding bortiga tirkab qo'yganday tuyular edi. Chilvirdan bir bo'lak kesib oldi-da, baliqning og'zi ochilib qolib, suzishni qiyinlashtirmasin uchun uning pastki jag'ini tig'iga ko'tarib bog'lab qo'ydi. Keyin u machtani o'rnatdi, tayoqdan gafel o'rnida foydalandi, shkotni tortib qo'ydi. Olaquroq yelkan g'o'ppaydi, qayiq olg'a jildi, chol quyruqqa yarim yonboshlab, janubi-g'arbga suzib ketdi.

Janubi-g'arb tomonni aniqlash uchun cholga kompasning keragi yo'q edi. Buning uchun unga passat-

ning qayga esayotgani-yu, yelkanning qay tarafdano shamolga to'layotganini bilish kifoya edi. «Harqalay qarmoqni suvga tashlab qo'ysam, yomon bo'lmasdi – yolg'ondakam xo'rakka baliq-maliq ilinib qolar-midi deyman, bo'lmasa ochdan o'laman-ku». Ammo u yolg'ondakam xo'rakni axtarib topolmadi, sardinlar esa hidlanib qolibdi. Shunda u sariq suv o'simliklari yonidan suzib o'ta turib, ulardan bir tutamini changuk bilan ilib olib, silkitdi. Qayiqqa mayda qisqichbaqalar to'kilib tushdi. Deyarli bir dyujinadan oshiqroq bo'lgan bu maxluqlar xuddi burgalar singari dikirlab sakrashar, o'rmalashardi. Chol ularning boshini ikki barmog'i orasiga olib uzib tashladi va hech narsasini qo'ymay obdan chaynab yeb yubordi. Qisqichbaqalar nihoyati mayda edi. Ammo chol ularning kishini juda ham to'q tutishi, buning ustiga behad lazzatli ekanligidan xabardor edi.

Chol ularni batamom yeb bitirgandan so'ng, shishada qolgan ozginagina suvning chorak qismini ichdi.

Bortiga zil-zambil baliq tirkalganiga qaramay, qayiq rasamadi bilan borar, chol rumpelni tirsagi bilan tutganicha, uni boshqarar edi. Baliq unga muttasil ko'rinib turar, o'z qo'llariga ko'zi tushib qolsa yoki yelkasi qayiq chetiga tegib ketgan hamon – bularning bari tushida emas, o'ngida sodir bo'lganini butun vujudi bilan his qilar edi. Huv bir payt, hamma narsa hal bo'lishga kelib, qo'qqisdan mazasi qochib qolganda, bularning bari cholga roppa-rosa tush kabi ko'rinib ketgan edi. Nimasini aytasiz, undan keyin ham baliq suvdan chiqib, qayta tushib ketish oldidan havoda muallaq osilib qolganda, unga bularning hammasida qandaydir antiqa bir g'aroyibot bordek tuyuldi va chol o'z ko'zlariga ishonmay qoldi. To'g'ri, u paytda ko'zlari ham nafsilamrga yaxshi ilg'amay qolgan edi, endi bo'lsa ular yana ravshan tortdi.

Mana endi baliqning haqiqatan ham mavjudligi, qo'llari va yelkalaridagi og'riqning ham tushida bo'lmayotganligi unga ayon. «Qo'llarimning yarasi tez bitib ketadi, – deb o'yladi u. – Yaralar ifloslanib zo'rayib ketmasin deb, ozmuncha qon oqizdimmi, sho'rgina suv bo'lsa, hoynahoy ularga malham bo'ladi. Ko'rfazning qoramtir suvi – dunyoda tengi yo'q davo. Faqat xayolim chalg'ib ketmasa bo'lgani! Qo'llar o'z vazifasini ado etib bo'ldi, qayiq ham joyida ketyapti. Baliqning og'zi bekik, quyrug'i bo'lsa tig'dek tik, o'zimiz ham yonma-yon xuddi birodarlardek suzib boryapmiz». Uning boshi yana biroz gangib ketdi. «Kim kimni uyga eltaypti o'zi – men unimi yo u menimi? Agar men uni shatakka olib borayotgan bo'lganimda, boshqa gap edi. Yoinki, u o'zining turgan-bitgan savlatini boy berib, qayiq ichida yotganda edi, bunda ham hamma narsa boshqacha, ochiq-oydin bo'la qolardi. Ammo biz yonma-yon, bir-birimizga zanjirband bo'lib suzib ketayapmiz. Bor-e, menga nima, meni yetaklab ketayotgan bo'lsa ketavermaydimi. Unga shu ma'qul bo'lsa, biz rozi. Nafsilamrga, men ustomonlik ishlatibgina undan ustun chiqdim; baharhol, u menga hech qanday yomonlik ko'zlagani yo'q».

Ular suzgandan suzib borishar, chol o'qtin-o'qtin qo'lini dengiz suviga chayqab olar, kalovlanib qolmaslikka harakat qilib borardi. To'p-to'p bulutlar balandda imillar, ulardan ham yuksakda ukpar bulutlar suzishar edi; chol, shamol tuni bilan esib chiqishini bilardi. U haqiqatan ham, baliqni tushida emas, o'ngida ko'rib turganiga amin bo'lish uchun, dam-badam unga qarab qo'yardi. Birinchi akula uni quvib yetguncha, bir soat chamasi vaqt o'tdi.

Akula uni tasodifan quvib yetgani yo'q. Baliq qonining qoramtir bulutlari avval quyuqlashib, keyin suv bo'ylab butun bir chaqirim chuqurlikka yoyilib ketishi bilanoq, u dengiz qa'ridan bosh ko'tarib, hech bir

**hadik** bilmasdan, oynaday moviy dengiz sirtini shitob bilan tilib, yorug' dunyoga suzib chiqqan edi. Keyin yana ortiga qaytdi, yana qon hidini tuydi va nihoyat baliq ham qayiq qoldirgan izdan ketma-ket ta'qib eta boshladi.

Gohida u izni yo'qotib qo'yardi. Biroq, yoxud yana izga tushib olar, yoinki bilinar-bilinmas anqib turgan is dimog'iga urilardi-da, yangidan tinimsiz ta'qib eta boshlardi. Bu - dengizning eng uchqur baliqi qanchalik tez suza bilsa, shunchalik tez suza olish uchun dunyoga kelgan, mako jinsidan bo'lgan juda ham yirik akula edi. Uning komi deyilmasa, butun sumbati bilan mana men deb turar edi. Usti xuddi qilich baliqniki kabi moviy, qorni kumush rang, sirti silliq va chiroyli, hozir mahkam qisib olingan jahannam darvozasiday jag'larini hisobga olmaganda, turgan-bitgani qilich baliqqa o'xshardi. U cho'qqayib chiqqan tepa qanoti bilan suvni yengil yorib, dengiz yuzidan tez suzib kelardi. Og'zining mahkam yumib olingan qo'sh tabaqa lablari ortida sakkiz qator bo'lib o'roq tishlari tizilib ketar edi. Ular ko'pchilik akulalarning aksar qirrador tishlariga o'xshamas, balki yirtqich chovuti singari qayrilgan odam barmoqlarini eslatardi. Uzunligi ham cholning barmoqlaridan qolishmas, ziylari bo'lsa ustaraday o'tkir edi. Akula jamiki dengiz baliqlarini jig'ildoniga urish uchun yaratilgan, bundan hatto boshqa hech qanday dushmanidan tap tortmaydigan, benihoya epchil, kuchli hamda yaxshi muhofaza qilingan baliqlar ham holi emas edi. Shu tobda u o'ljaning yaqinligini sezib, shoshilar, shu sababdan ham moviy tepa qanoti suvni shiddat bilan tiliklab borardi.

Chol akulani ko'rishini bilan uning hech narsadan qaytmasligini, xohlagan noma'qulchiligini qilishini tushundi. U akulaning yaqinroq kelishini kutarkan, garpunni shaylab, arqonning oxirini mahkamlab

qoʻydi. Baliqni bogʻlab olayotganida, uning bir boʻlagini kesib ishlatganidan, arqon kalta boʻlib qolgan edi.

Cholning boshi hozir batamom tiniqqan, oʻzini hech narsadan umidvor tutmasa-da, harqalay, qatʼiyat bilan belni mahkam bogʻlagan edi.

«Hamma ish xamirdan qil sugʻurganday borayotgan ediki, oxirigacha shunday davom etishi mumkin emasdi ham», – deb oʻylardi u.

Akulaning yaqinlab kelishidan koʻzini uzmay, chol azim baliqqa nazar tashladi. «Bularning bari, nafsilamrga, tush boʻlib qolsa ham yomon boʻlmasdi. Men uning oʻzimga hujum qilishining oldini ololmayman, ammo, balki, uni gumdon qilish qoʻlimdan kelar? Dentuso<sup>1</sup>, – xayolidan oʻtkazdi u. – Padaringga ming laʼnat!»

Akula naq quyruqning oʻziga yaqinlashib kelib, baliqqa tashlanishi bilan chol uning oʻpqondek ochilgan ogʻzini va favqulodda doʻlaygan koʻzlarini koʻrdi, baliq dumidan sal yuqoriga sanchilgan tishlarining kartillab, qisirlaganini eshitdi. Akulaning boshi suvdan chiqib turar, uning ketidan koʻp oʻtmay yelkasi ham koʻrinib qolgan edi. Chol akula jagʻlari ulkan baliqning tanasini xunuk tovush chiqarib, nimta-nimta qilayotganini eshitarkan, uning boshiga, koʻzlarini qoʻshib turgan chiziq tumshugʻidan yuqoriga ketgan chiziq bilan kesishgan joyning oʻzginasiga garpun urdi. Haqiqatda esa, bunday chiziqlar yoʻq edi. Ogʻir, tigʻsimon zangori kallasi-yu, loʻq ochilgan koʻzlar va gʻijirlagan, turtib chiqqan, nima toʻgʻri kelsa, shuni gʻajib tashlashga tayyor turgan jagʻlargina bor edi. Ammo oʻsha yerda akulaning miyasi joylashganidan chol uni nishonga olib nayza urgan edi. Qiyilib-qirchilib ketgan, qonga boʻyalgan qoʻllarida mahkam qisilgan garpunni urdi, urganda ham jon-jahdi bilan urdi. Urarkan, zarbidan hech bir umidvor boʻlgani yoʻq, ammo qatʼiyat va alamjon qahr-u gʻazab bilan urdi.

---

<sup>1</sup> Akulaning tishli bir turi (*isp.*).

Akula to'ntarilib tushdi, chol uning ko'zlari so'n-ganini ko'rdi, keyin akula arqonni taniga ikki qayta o'ralashtirib, yana bir ag'darildi. Chol akulaning jon berganini, ammo hamon o'lim bilan kelishishni istamayotganini tushundi. To'ntarilib yotarkan, u dumi bilan urar, jag'larini g'ijirlatar, suvni poyga qayig'iday ko'pirtirar edi. Dengizning u dumi bilan savalagan joyi oppoq bo'lib ketgan edi. Akula gavdasining to'rt-dan uch qismi suvdan ko'tarilib chiqdi, arqon tarang tortildi, qiltillab-qaltiradi va oxiri cho'rt uzilib ketdi. Akula bir muddat suv betida qalqib turarkan, chol hamon undan ko'z uzmay, qaragani qaragan edi. Keyin u imillabgina suv qa'riga kirib yo'qoldi.

– U o'zi bilan qirq qadoqcha baliq go'shtini gumdon qildi, – dedi chol ovoz chiqarib.

«Ustiga-ustak, garpun bilan qolgan-qutgan arqonni ham olib ketdi, – xayolan qo'shib qo'ydi u, – baliqdan bo'lsa yana qon oqyapti, demak, bu akula ketidan hali zamon boshqalari ham kelib qoladi».

Dabdalasi chiqqan baliqqa endi uning boshqa qaragisi ham kelmasdi. Akula baliqqa tashlangan chog'da, cholda u go'yo baliqqa emas, o'ziga tashlaganday bo'lib ko'rindi.

«Ammo, harqalay, men balig'imga ko'z olaytirgan akulani o'ldirdim, – deb o'yladi u. – Bu umrim bino bo'lib ko'rganlarim ichida eng baloyi azim dentuso edi. Men bo'lsam, xudo haqqi, ulkan akulalarning ko'pini ko'rganman.

Ishlarim haddan ziyod silliq ketayotuvdi. Buning uzoq davom etishi mumkin emasdi. Mendan hozir tila tilagingni deyishsa, bularning bari-bari tush bo'lib qolishini tilardim: baliq-maliq tutdingmi – yo'q, gaze-talar to'shalgan karavotingda yallo qilib yotibsanni – yotibsanni, tamom, vassalom edi».

– Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan, – dedi u. – Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi.



«Harqalay, baliqni o'ldirganim uvol bo'ldi, – deb o'yladi u. – Endi menga juda og'ir tushadi, hatto garpundan ham mosuvo bo'ldim. Dentuso — chaqqon va yovuz, aqlli va kuchli maxluq. Ammo men undan ko'ra ham aqlliroq bo'lib chiqdim. Balki, aqlliroq ham emasdirman. Ehtimol, hammasi durustroq qurollangan bo'lganligimdandir».

– Xayol surish kerak emas, chol, – dedi u ovoz chiqarib. – Shamol bo'ylab suzaver va falokat ro'y beradigan bo'lsa, qarshi olishga tayyor tur.

«Yo'q, men o'ylashim kerak, – fikran o'z-o'ziga e'tiroz bildirdi u. – Shundan boshqa yana nima ham qoldi menda, axir. Shu-yu, beysbol, xolos. Darvoqe, akulaning qoq miyasiga tushirganim ulug' Di Madjioga yoqarmidi yo yoqmasmidi? Umuman, maqtasa arziydigan bir ish ham bo'lgani yo'q, har kimsa ham shunday qila olardi. Aytmoqchi, menga qara, qariya, nima deb o'ylaysan: qo'llaring suyak qadog'iga qaraganda, ko'p xalaqit berdimi yo yo'q? Qayoqdan bilay? Tovonimga yo'liga bo'lsin biron marta ham hech balo urgan emas, faqat bir safar cho'milayotib elektr skatini bilmay bosib olganimda, uni ilon chaqqanday bo'lgan edi; o'shanda oyog'im tizzamgacha akashak bo'lib qolgan, og'rig'i ham chidab bo'lmaydigan og'riq edi».

– Qo'y, buni. Yaxshisi, boshqa biron yurakni xun qilmaydigan narsa haqida o'ylagin, qariya, – dedi u ovoz chiqarib. – Dam o'tgan sayin uyga yaqinlashib qolyapsan. Nimasini aytasan, qirq qadoq go'shtdan ayrilib qolganingdan beri suzish ham ancha osonlashib qoldi.

Oqimning qoq o'rtasiga kirganidan keyin u o'zining nimaga giriftor bo'lishini juda ham yaxshi bilardi. Ammo endi buning oldini olib bo'lmasdi. Boshqa iloj qolmagan edi.

– Bekor aytibsan, hali buning iloji bor, – dedi u. – Pichog'ingni eshkaklardan birining dastasiga bog'lab qo'yishing mumkin.

U rumpelni qoʻltigʻida qisib turib, yelkan arqonini oyogʻi bilan bosib olgancha, aytgan ishini qildi.

– Ana boʻlmasa, – dedi u. – Men chol boʻlsam-da, odamning xoʻrligini keltirar darajada ojiz va yaroqsiz emasman.

Sarin shamol esar, qayiq ham shitob bilan olgʻa borardi. Chol baliqning faqat old tomonigagina qarar, qaragan sari koʻnglida umid uchqunlari uygʻona borardi.

«Umidsizlik – halokat, – deb oʻylardi u. – Buning ustiga, fahmimcha, umidsizlik hatto – gunoh. Nima gunoh-u, nima gunoh emas, deb bosh qotirib oʻtirishning hojati yoʻq. Busiz ham dunyoda boshni qotiradigan narsalar toʻlib-toshib yotibdi. Toʻgʻrisini aytganda, men gunoh boʻlgan narsalarni yaxshi tushunmayman.

Tushunmayman ham va, ehtimol, ularga ishonmayman ham. Balki baliqni oʻldirishim gunoh boʻlgandir. Men uni ochdan oʻlmaslik va yana talay odamlarning qornini toʻydirish uchun oʻldirgan boʻlsam ham, fahmimcha, ha, gunoh boʻldi. Unda, sen nima qilayotgan boʻlsang, bari gunoh-ku. Nima gunoh-u, nima nogunoh – buni oʻylab oʻtirishdan hojat yoʻq. Boz ustiga vaqti ham oʻtdi, bundan tashqari, gunohlar bilan shu toʻgʻrida bosh qotirib, bosh qotirganliklari uchun haq oladiganlar shugʻullanaversin. Ha, xuddi oʻshalar gunohning nimaligi ustida bosh qotiraversin. Xuddi baliq – baliq boʻlish uchun tugʻilganidek, sen ham baliqchilikka tugʻilgansan. Avliyo Pyotr ham baliqchi edi, ulugʻ Di Madjioning otasi ham shu kasb sohib adosi boʻlgan».

Biroq chol oʻzini qurshagan narsalar haqida mulohaza yuritishni yaxshi koʻrar, oʻqiydigan kitobi, eshitadigan radiosi boʻlmagandan keyin, juda koʻp oʻylar, shu jumladan, gunoh ustida ham bosh qotirar edi. «Sen baliqni boshqalarga sotib, shu bilan bir kuningni koʻrish uchungina oʻldirganing yoʻq, – deb oʻylardi u. – Sen uni bir sirasi oriyat tufayli va qolaversa, baliq-

chi bo'lganing uchun ham o'ldirding. Bu baliq tirikligida sen unga ko'ngil qo'yding, hozir ham uni yaxshi ko'rasan. Kimnidir sevsang, uni o'ldirish ham gunoh emas. Balki, aksinchadir, og'irroq gunohdir?»

– Sen haddan tashqari ko'p o'ylayapsan, qariya, – dedi u ovoz chiqarib.

«Biroq sen dentusoni jon-jon deb asfalasofilinga jo'natding-ku, – o'yladi chol. – U bo'lsa xuddi senga o'xshab, baliq o'ldirib bir kunini ko'radi. Harom-xarishni ham jig'ildoniga shunchaki bir qorin to'ydirish uchun urib qo'ya qolmaydi va xuddi boshqa akulalarga o'xshab, nomigagina yeb to'ymas palid emas. U qo'rqinch nima bilmaydigan chiroyli va oliyjanob maxluqdir».

– Men uni o'z jonimni himoya qila turib, o'ldirdim, – dedi chol ovoz chiqarib. – O'ldirganda ham, boplab o'ldirdim.

«Yana deng, – deb o'yladi u, – hamma ham nima bo'lmasin, kimnidir yoki nimanidir o'ldiradi. Baliq ovi meni ham go'rga tiqyapti, ham go'r og'zidan qaytarib olib kelyapti. Qo'y, suyilma, chol. Baliq ovi emas, bola seni go'r og'zidan qaytaryapti».

U bordan egilib, baliqning akula g'ajigan yeridan bir luqma go'sht uzib oldi. Go'shtni chaynar ekan, uning sifati va ta'miga o'zicha baho berdi. U rangsiz bo'lsa-da, xuddi so'qim go'shti kabi lahm va barra edi. Bunday chandirsiz go'shtning bozori chaqqon ekanligini chol bilardi. Ammo dengiz uning mazasini olib qochar va chol buning oldini olishdan ojiz edi. U o'ziga hali oson bo'lmasligini, oldida zahmat va mashaqqat yo'li turganini tushunardi.

Shamol hali-veri susayadiganga o'xshamasdi. U o'z yo'lini shimoli-sharqqa tomon birmuncha o'zgartirgan, shunday bo'lgach, to'xtashini kutmasa ham, bo'laverardi. Chol olis-olislarga qarar, biroq na bironta kemanding yelkanini, na tutuni va na korpusini ko'rar

edi. Faqat uchar baliqlargina dengizdan ko'tarilib chiqishar va qayiq burnidan ikki tomonga sapchib, g'oyib bo'lishardi, yana suv o'simliklarining bo'ltaklari sarg'ayib ko'zga tashlanar edi. Hatto qushlar ham ko'rinmasdi.

U ikki soatdan beri quyruqqa yonboshlab olib, baliq go'shtini og'zidan qo'ymay chaynab, tezroq hordiq chiqarib, kuch yig'ishga harakat qilganicha, suzib borarkan, ikki akuladan birini ko'rdi.

– Ix! – kaftini mix teshib o'tib, yog'ochga kirib borayotganda, odam tilidan beixtiyor otilib chiqadigan, ma'nosi yo'q so'z, to'g'rirog'i, un berdi chol.

– Galanos<sup>1</sup>, – dedi u ovoz chiqarib.

Chol, birinchi suzg'ich ortidan ikkinchisining ham paydo bo'lganini ko'rdi va shu uch qirrali jigarrang suzg'ichlardan, hamda dumining shitob bilan bilanglashidan, bular kerik burun akulalar ekanini bildi. Ular baliq hidini tuyib, o'zlarini qo'yarga joy topolmay qolishgan va ochlikdan tamomila o'lar holatga kelib, ishtahani karnay qiluvchi bu hidni goh yo'qotib, goh yana topib kelishardi. Ular daqiqa sayin tobora yaqinlashar edilar.

Chol yelkanni musti-metin qilib mahkamlab tashladi, rulni ham chuv qoqib qo'ydi. Keyin u pichoq bog'langan eshkakni ko'tardi. Qo'llari chidab bo'lmas darajada og'rib turganidan, uni avaylab, bir amallab ko'tardi. Qo'llarim jilla qursa birozgina yozilsin deb, barmoqlarini beto'xtov chaqachum qilar edi. So'ng qo'llar butun og'riqqa bira to'la bardosh beradigan bo'lib ko'nixsin, keyin yana ishdan bo'yin tovlab yurmasin uchun eshkakni bor kuchi bilan changallab oldi va akulalarning yaqinlab kelishini kuzata boshladi. Chol ularning kerik burun, yapasqi boshlari-yu, oq hoshiyali ko'krak suzg'ichlarini ko'rib turardi. Bular – akulalar ichida eng palid, eng yaramas va eng

---

<sup>1</sup> Akulaning olachipor bir turi (*isp.*).

sassiq baloxo'rlari hisoblanardi: nafs tug'yon urgan mahallarda ular, hatto qayiqning eshkagi bilan ruli-ga ham tashlanishdan toymas edilar. Agar toshbaqa dengiz yuzida mabodo pinakka keta qolsa, bunday akulalar uning oyoqlarini cho'rt uzib ketishadi, juda ham ochiqqan mahallarida esa, hatto baliq qoni yoki shilimshig'ining hidi kelmayotgan odamga ham suvda hujum qilishaveradi.

– Ix! – dedi chol. – Hay, mayli endi kela qolinglar.

Ha, ular suzib kelishdi. Ammo ular makoga o'xshab kelishgani yo'q. Ulardan biri yalt-yult qildi-yu, o'zini qayiq ostiga urdi. U baliqqa tashlanganda, qayiqning qanchalik qaltirab ketgani cholga, ayniqsa, bilindi. Boshqa biri bo'lsa o'zining qisiq sarg'ish ko'zlari bilan cholga shingrayib turdi, keyin og'zini tarvaqay ochib, baliqning mako g'ajigan yeriga o'zini urdi. Cholga uning jigarrang boshi ustidan yelka tomoniga cho'zilib o'tgan, miya bilan umurtqa bir-biriga ulanib ketadigan joydagi chiziq aniq ko'rinib turardi, u eshkakka mahkamlangan pichoqni xuddi shu yerga sanchdi. Keyin pichoqni sug'urib olib, uni yana akulaning mushuknikiga o'xshash sariq ko'zlariga urdi. Akula jon talvasasida baliqdan ayrildi va og'zida qolgan go'shtni yo'l-yo'lakay qo'ymay yutarkan dengiz qa'riga sirg'alib ketdi.

Qayiq hamon ikkinchi akulaning baliqqa bo'lgan hujumidan qaltirab turardi. Chol akulani qayiq ostidan chiqarish uchun yelkanni yoyib, qayiqni ko'ndalang aylantirib qo'ydi. Akulani ko'rgan hamono, u bort osha enkaydi va pichoq urdi. Pichoq akulaning laqqa go'sht yeriga to'g'ri keldi-yu, ammo qattiq teri uning chuqur-roq kirib borishiga yo'l qo'ymadi. Zarbdan cholning qo'llarigina emas, yelkalari ham zirqirab ketdi. Biroq akula komini suvdan chiqarib, yana baliqqa tashlandi, ana shunda chol uning yapasqi boshining qoq o'rtasiga urdi. Tig'ni sug'urib oldi. Yana o'sha yerga urdi.

**Akula hamon jag'larini mahkam qisgancha, baliqqa osilib turardi. Shundan keyin chol, uning chap ko'ziga pichoq sanchdi. Akula boyagi-boyagicha baliqni qo'yib yubormasdi.**

– E, voy, hali shunaqami? – dedi chol va pichoqni miya bilan umurtqalar orasiga urdi.

Hozir buning qiyin joyi qolmagan edi. Chol kemirtakni cho'rt kesib yuborganini payqadi. Akulaning jag'larini bo'shatish uchun chol eshkakning boshqa tomonini aylantirib, uning og'ziga tiqdi. U eshkakni burab-burab oldi va akula baliqdan ajralib ketgandan so'ng dedi:

– Jo'nab qol, galanos. Menga desa, dengiz qa'riga gumdon bo'l. U yerda chiqoning bilan yuz ko'rishgin. Kim biladi, balki u sening onang edimi?

Chol pichoq damini artdi va eshkakni qayiq ichiga qo'ydi. Keyin yelkanni yoydi, shamol uni to'ldirgach, qayiqni avvalgi yo'liga qarab burdi.

– Ular baliqning, harqalay, chorak bo'lagini olib ketishdi, bunisi ham mayliga-ya, yana go'shtning sarasini olib ketganiga o'lasizmi, – dedi u ovoz chiqarib. – O'lay agar, bularning baribir ro'yo bo'lib qolishini, baliq ham qo'linga tushmagan bo'lishini xohlardim. Mana shunday bo'lib chiqqani juda yomon bo'ldi-da, baliq, juda yomon bo'ldi.

Chol jimib qoldi, endi uning baliqqa qaragisi kelmasdi. Tanasida qondan asar qolmagan, bo'kkan, shabbi-shalabbo bo'lgan bu baliq ko'zguna ortiga surtiladigan sir-amalgama tusiga kirgan, ammo yo'l-yo'l tasmalari hali-hamon o'z izini yo'qotmagan edi.

– Men dengizda bunchalik olisga ketib qolmasligim kerak edi, – dedi u. – Shunaqa bo'lib qolgani juda-juda yomon bo'ldi, baliq, juda-juda yomon bo'ldi. Senga ham, menga ham.

«Qani, bo'l, anqayma! – dedi u o'ziga o'zi. – Pichoq bog'langan arqon qirqilib ketmadimikin, qarab qo'y.

Qo'lingni ham qayg'usini qil, chunki ish hali tamom bo'lganicha yo'q».

– Qurib ketsin, qayroqning bo'lmagani chatoq bo'ldi, – dedi chol eshkak dastasidagi arqonni ko'zdan kechirib turib. – O'zim bilan qayroq olib kelishim kerak edi.

«O'zing bilan bu yerga ola kelishing kerak bo'lgan narsalar son ming edi, qariya, – deb o'yladi u. – Nima qilasan endi, olganing yo'qmi, olganing yo'q. Hozir nima bor, nima yo'q deb o'y o'ylashning vaqti emas. Qo'lingdagi narsalarning o'zi bilan ish bitirishning payida bo'l».

– Obbo-ey, maslahat qilaverib jonga tegding! – dedi u ovoz chiqarib.

Chol rumpelni qo'ltig'iga qistirdi va ikkala qo'lini suvga soldi.

Qayiq olg'a ketib borardi.

– O'sha, keyingi akula go'shtning qanchasini urib ketdi, xudoyimning o'zi biladi, – dedi u. – Ammo ketganda baliqning toshi ketdi.

Baliqning rasvoyi olam qilingan qorni to'g'risida cholning o'ylagisi kelmasdi. U akulaning qayiqqa ko'rsatgan har bir turtkisi yulqilab olingan bir bo'lak go'shtni bildirishini, baliq bo'lsa, dengiz bo'ylab xuddi katta karvon yo'liday keng, dunyodagi barcha akulalar uchun ochiq yo'l qoldirayotganini bilardi.

«Bunaqa baliq odamni butun qish bo'yi boqib chiqishi mumkin edi... Qo'y, buni o'ylama, chol! Dam olgin, qo'lingni epaqaga keltirishga harakat qil, chunki hali bor bud-shudingdan ayrilganingcha yo'q, qolgan-qutgan narsalarni saqlab qolishning payida bo'lishing kerak. Qo'llarimdan kelayotgan qon hidi – anavi baliqning suvdan anqiyotgan hidi oldida ip esholmaydi. Bundoq desam, qo'llarimdan qon ham oqayotgani yo'q. Nafsilamrga, chuqur tilingan emas-da. Ko'p emas, ozgina qon oqizilgan bo'lsa, chap qo'lni tomir tortishish balosidan asraydi.

Nimaning o'yini sursam ekan hozir? Nimani bo'lar-di? Hech narsani. Yaxshisi, hech vaqoni o'ylamaganim ma'qul. Akulalarni kutishim kerak, vassalom. Qaniydi, bularning bari tush bo'lib qolsa. Darvoqe, kim bilsin, hali ishning dovi yurishi mumkindir. Bilib bo'larmidi buni?»

Keyingi akula yolg'iz o'zi suzib keldi, bunisi ham kerik burunlar sirasidan edi.

Kelganda ham, tosini qo'msagan to'ng'izday bo'lib keldi, zotan, odam boshini bir yo'la, paqqos yamlab yutish uchun cho'chqada bunday yalmog'iz og'iz yo'q, xolos.

Chol uning baliqqa tashlanishiga qo'yib berdi, shundan keyingina eshkakka mahkamlangan pichoq bilan boshiga tushirdi. Ammo baliq yelkasiga dumalarkan, o'zini orqaga otdi. Pichoq tig'i sindi.

Chol rulga o'tirdi. U hatto akulaning dam o'tgan sayin kichrayib, nihoyat zig'irdakkina bo'lib ko'ringan-cha, cho'kib borishiga ham qaramay qo'ydi. Avvallari bunday manzaradan u ko'z uzolmasdi. Biroq hozir uning qayrilib qaragisi ham kelmadi.

– Qo'limda endi changakkina qoldi, – dedi u. – Ammo uning nima nafi ham tegardi? Menda yana ikki eshkak, rumpel va to'qmoq bor.

«Mana endi ular aloha meni munkitib qo'yishdi, – deb o'yladi u. – Akulalarni to'qmoq bilan urib o'ldirish uchun men endi qarib qolganman. Shunday bo'lsa ham, qo'limda eshkak, to'qmoq, qolaversa, rumpel bor ekan, men ular bilan olishaveraman».

U qo'lini yana sho'r suvga soldi.

Kech kira boshlagan, atrofda dengiz-u osmondan bo'lak hech vaqo ko'rinmas edi. Shamol boyagiga qaraganda kuchliroq esar, bundan chol ko'p o'tmay yer-ni ko'rishiga umid bog'lar edi.

– Charchabsan, chol, – dedi u. – Ruhing charchabdi. Unga akulalar yana govjum mahalda bosqin yasashdi.



Chol endi baliq hech shak-shubhasiz o'z ortidan dengiz bo'ylab qoldirayotgan keng yo'lni qoralab suzgan jigarrang suzg'ichlarni ko'rdi. Ular hatto bu izni topish uchun o'zlarini to'rt tomonga urishmas, balki yonma-yon bo'lib to'g'ri qayiqqa qarab kelishardi.

Chol rumpelni mahkamlab qo'ydi, yelkanni qayta bog'ladi va quyruq ostidan to'qmoqni oldi. Bu – uzunligi ikki yarim futcha keladigan siniq eshkakning aralab olingan bo'lagi edi. Chol uning dastak bo'lgan joyidan faqat bir qo'llabgina tuzukroq ushlay olar edi. U akulani kutib, to'qmoqni o'ng qo'lga mahkam siqib ushlab oldi, panjasida aylantirib ham ko'rdi. Ular ikkita edi, ikkisi ham galanos edi.

«Birinchisi baliqqa qattiq yopishib olguncha, sabr qilishim kerak, – deb o'yladi u, – o'shanda, men uning yo burni uchiga, yo xuddi miyasining o'ziga tushiraman».

Har ikki akula ham birgalashib, suzib kelishdi. Ulardan sal oldinroqda bo'lgani jag'larini kerib baliqning kumush rang biqiniga tishlarini qadagan zamon, chol to'qmoqni baland ko'tardi va zalvor bilan akulaning yapasqi boshiga tushirdi. Go'yo ichi to'q rezinka toshga urganday qo'li zirilladi, qalqon kabi suyaklarning musti-metin qattiqligi bilinib ketdi va chol akulaning burni uchiga yana jon-jahdi bilan aylantirib urdi. Akula suvga sirg'ilib ketdi.

Boshqa akula bo'lsa zindonasiga uradiganini urib bo'lib, o'zini chetga olishga ulgurgan, endi esa, u yana og'zini o'pqonday qirib yaqinlashgan edi. Akula baliqqa tashlanib, unga yopishib olmasdan burun, chol uning jag'larida qolgan oppoq go'sht parchalarini ko'rdi. Chol aylantirib urdi, ammo zarb kallaga tushdi-yu, akula unga bir qarab qo'yib, baliqdan bir parcha go'sht yulib oldi. U o'ljasini yutish uchun o'zini chetga olarkan, chol yana aylantirib qo'yib yubordi, ammo zarb yana akula boshining qayishqoq va qattiq yeriga to'g'ri keldi.

– Qani, beriroq kel-chi, galanos, – dedi chol. – Yana bir marta beri kelgin!

Akula baliqqa balo-qazoday tashlandi, u jag'larini kartillatib yopgan onda, chol to'qmoq tushirdi. Tushirganda ham, to'qmog'ini iloji boricha baland ko'tarib, bor kuchi bilan tushirdi. Bu safar zarb akula bosh suyagining negiziga to'g'ri keldi, chol xuddi shu yerning o'ziga yana qaytadan urdi. Akula baliqdan bir luqma go'shtni tishlar-tishlamas uzib oldi-yu, dengiz qa'riga ketdi.

Chol akulalar yana paydo bo'lmasmikin deb, kutdi, ammo ulardan darak bo'lmadi. Keyin u, ulardan birining qayiq yonida o'ralashayotganini payqab qoldi. Boshqa akulaning bo'lsa, o'zi tugul suzg'ichi ham ko'rinmay ketgan edi.

«Men ularni gumdon qilarman deb hatto xayolimga ham keltirmagan edim, – deb o'yladi chol. – Avvallari, rost, bu qo'lindan kelardi. Darhaqiqat, men ularning har ikkovini ham o'lasi qilib mayib qildim, o'ldimi endi, shunda ham o'zini hech balo urmaganay tutsa. Agar-da to'qmoqni ikki qo'llab ushlay olganimda edi, unda men birinchisini turgan gap – o'ldirardim: hatto hozir ham, shu yoshimga qaramay, o'ldirgan bo'lardim».

Cholning baliq betiga aylanib qaragisi kelmasdi. Chunki uning yarmi talon-toroj bo'lganligini bilardi. U akulalar bilan olisharkan, quyosh ham botib, govjum kirgan edi.

– Hademay qosh qorayadi, – dedi u. – O'shanda men, ehtimol, Gavana chiroqlarining yolqinini ko'rraman. Mabodo sharqqa qarab haddan tashqari og'ib ketgan bo'lsam, unda men yangi kurortlardan birining chiroqlarini ko'raman.

«Men sohildan juda ham yiroqda bo'lmasam kerak, – deb o'yladi chol. – Fahmimcha, u yoqda bekor-dan-bekorga qayg'urishmayotgan bo'lsa kerak. Darvoqe, qayg'urganda ham faqat bola qayg'urishi mumkin.

Ammo, axir xuddi uning o'zi menga juda ishonadi-ku! Kattaroq baliqchilar-ku, hoynahoy, xavotir olisha-yotgandir. Nimasini aytasan, yoshlar ham shunday deyaver, – deb o'ylardi u. – Axir men yaxshi odamlar orasida yashayman».

Endi u baliq bilan boshqa o'rtoqlasholmasdi. Baliq boshdan-oyoq tig'iparron qilingan edi. Lekin birdan uning xayolida yangi bir fikr tug'ildi.

– Hoy, yarimta baliq! – chaqirdi u. – Nomigagina qolgan baliq! Dengizda mana shunchalik yiroqlab ketganimga achinaman. Men har ikkimizni ham xonavayron qildim. Ammo biz sen bilan birga ko'p akulalarni borsa kelmasga gumdon qildik va yana qanchasining belini sindirdik. O', qari baliq, hoynahoy, sen o'zing ham umring bino bo'lib, ularning qanchadan-qanchasini dengiz qa'riga jo qilganiykinsan? Axir, boshingdagi tig'ning turishi bejiz emas-ku.

Chol baliq haqida va agar u dengizda erkin suzib yursa, akula boshiga ne kunlarni solgan bo'lishi haqida o'ylashdan orom olar edi.

«Men akulalar bilan olishish uchun uning tig'ini chopib olishim kerak edi-ya, asli», deb o'yladi u. Ammo, uning boshdanoq boltasi yo'q edi, endi bo'lsa, hatto pichoqdan ham ayrilib qolgandi.

«Lekiniga uning tig'i menda bo'lganda, ol, deb eshakk dastasiga bog'lab qo'yardim-u – qurolmisan qurol bo'lardi-da, o'ziyam! Ana o'shanda, biz u bilan chinakamiga yonma-yon turib olishgan bo'lardik! To'xtachi, agar anavilar mabodo kechasi kelib qolishsa, unda nima qilasan?»

– Olishaman, – dedi u, – o'lgunimcha olishaman.

Ammo qorong'ida na chiroq va na shu'la ko'rinardi, yelkan va uni to'ldirgan shamoldan o'zga hech narsa yo'q edi, shunda to'sindan cholga o'zi o'lib qolganday bo'lib tuyuldi. U panjalarini panjalariga qo'yib ko'rdiyu, o'z kaftini sezdi. Kaftlari jonsiz emasdi, ularni

chaqachum qilib, chol og'riq va issiq jonini uyg'otishi mumkin edi. U quyruqqa suyanib ko'rib, tirik ekanligini bildi. Tiriklikdan unga xabar bergan narsa – yelkaları edi.

«Men agar baliqni ushlasam, o'qiyman deb ahd qilganim – o'sha hamma duolarni o'qib qo'yishim kerak, – deb o'yladi u. – Biroq hozir o'lguday charchaganman. Yaxshisi, qopni olay-da, yelkamga yopinib ola qolay».

U quyruqda yotgancha, qayiqni boshqarib borar va osmonda Gavana chiroqlarining yolqini qachon ko'rinarkin deb kutardi. «Menda uning yarmigina qoldi, – deb o'ylardi u. – Balki, omadim kelib, uyga juda bo'lmaganda, uning bosh qismini olib borarman. Ishim hech o'ngidan kelishi kerakmi, yo'qmi o'zi!.. Yo'q, – dedi u o'zicha. – Sen dengizga shunchalik uzoq kirib borishing bilan o'z omading, o'z baxtingni poymol qilding».

«Bemaza gaplarni qo'y, qariya! – o'zini o'zi koyidi u. – Pinakka ketmay, ruldán ogoh bo'lib tur. Ishing hali baroridan kelishi mumkin».

– Agar biron-bir joyda pullashayotgan bo'lsa, o'zimga qittakkina tole sotib olishni istardim, – dedi chol.

«Xo'sh, qani, qaysi oshib-toshib yotgan joyingga sotib olasan? – so'radi u o'zidan. – Hech zamonda uni boy berilgan garpun, singan pichog'-u, ishdan chiqqan qo'llarga sotib olib bo'ladimi?»

Kim bilsin? Axir, sen dengizda o'tkazgan sakson to'rt kunning badaliga baxt sotib olishni ko'zlagan eding. Ha-ya, darvoqe, oz bo'lmasa, uni senga sotib qo'yay ham dedilar...

Bo'lar-bo'lmas narsalarni o'ylayverma. Baxt degan narsa odam bolasiga turlanib keladi, uni bilib bo'lamidi? Boringki, men qanday bo'lib kelmasin, o'zimga jindakkina baxt olgan bo'lardim va uning evaziga nima so'ramasinlar, ikki qo'llab baxsh qilardim. Qaniydi, endi Gavana shu'lalarini ko'rsam, – deb o'ylardi u. – Sen besh qo'lingni baravar og'zingga tiqyapsan chol.

Biroq, men shu tobda Gavana chiroqlarini ko'rishdan boshqa hech narsani istamasdim».

U rul yonida qulayroq o'rnashib olishga urinib ko'rdi, shunda og'riqning zo'rayganidan, o'zining haqiqatan ham o'lmaganligini bildi.

Shahar chiroqlarining shu'lasini u kechki soat o'nlarga yaqin ko'rdi. Shu'la avval oy osmonga chiqishi oldidan paydo bo'ladigan och pushti yog'du kabi ko'rindi. Keyin tobora zo'rayib borayotgan shamol sarbaland to'liqinni quvayotgan okean bo'lagi ortidan chiroqlar yaqqol ko'zga tashlana boshladi. U qayiqni shu chiroqlarga qarab boshqarar va endi ko'p o'tmay, tezda Golfstrimga kirib olaman, deb o'ylardi.

«Xo'-o'sh, shu ekan endi, – deb o'ylardi u. – Albatta, ular menga yana hujum qilishadi. Ammo odam quruq qo'l bilan qorong'ida ularga qarshi nima ham qilishi mumkin o'zi?»

Uning butun a'zoyi badani qaqshab, lo'qillab og'rir, tungi ayoz bo'lsa, jarohatlar va zahmat chekkan oyoq-qo'llarining og'rig'ini zo'raytirar edi. «Menga yana olishib o'tirishga to'g'ri kelmas, deb umid qilaman, – deb o'yladi u. – Faqat boshqa jang qilmasam bo'lgani!»

Biroq yarim kechada u akulalar bilan yana olishdi. Olishardi-yu, bundan endi hech qanday umid yo'qligini bilardi. Ular cholga bir gala bo'lib hujum qilishdi, u bo'lsa, faqat akula suzg'ichlari suvda qoldirayotgan yo'l-yo'l izlarni-yu, baliqni yulib-yulqish uchun tashlangan chog'larida o'zlaridan chiqarayotgan shu'lalarnigina ko'rardi, xolos. U to'qmog'i bilan akula kallalariga tushirar ekan, qulog'iga jag'larning g'ajir-g'ujuri chalinar, baliq pastdan turib yulqilgan paytlarda esa qayiqning alg'ov-dalg'ov bo'lib, qarsilagani eshitilardi. U faqat eshinishi va tasmollab bilishi mumkin bo'lgan qandaydir ko'zga ko'rinmas joylarga jon-jahdi bilan to'qmoq urardi. Keyin to'satdan to'qmog'i g'oyib bo'lib qolganini sezdi.

U rumpelni joyidan sugʻurib oldi va uni ikki qoʻllab tutganicha, ustma-ust zarb urib, savalay ketdi. Biroq akulalar endi tamomila qayiq burniga dovur kelib boʻlishgan, goh birin-ketin, goh butun toʻda bir boʻlib baliqqa yopirilishar, dengizda oqarib koʻringan goʻshtlarni shilib olishardi; keyin yana oʻz oʻljalariga tashlanish uchun orqaga qaytishar edi.

Alohida akulalardan biri baliqning naq boshi oldiga suzib keldi va shunda chol endi hamma-hammasi tamom boʻlganini tushundi. U baliq boshining metin suyaklariga taqalib qolgan tishlarni moʻljallab, akula tumshugʻiga rumpel bilan tushirdi. Bir urdi, ikki urdi, keyin yana, yana urdi. Rumpelning qarsillab, sinib tushganini koʻrgach, u akulani majagi chiqqan sop bilan soldi. Chol dastaning goʻshtga sanchilib kirganini sezdi-yu, uning qirrasini oʻtkir ekanligini bilib, yana akulani qulochkashlab urdi. Akula baliqni qoʻyib yuborib, oʻzini chetga oldi. Bu – hujumga kelgan akula galasidan qolgan eng soʻnggi akula edi. Endi ularning yeydigan narsasi qolmagan edi.

Chol bazoʻr nafas olar, ogʻzida allaqanday notanish maza sezardi. Maza chuchmalgina boʻlib, mis taʼmini berar, shuning uchunmi bir muddat chol qoʻrqib ketdi. Ammo tezda hammasi oʻtib ketdi. U okeanga tupurib, dedi:

– Yeb qollaring, galanos, teshib chiqsin-u toʻngʻiz qoʻplaring, ishqilib! Tushlaringga odam oʻldirganlaring kirib chiqsin.

Chol endi oʻzining uzil-kesil va batamom yengilganini bilardi. U quyruqqa qaytib kelib, rumpelning singan bir boʻlagi rul teshigiga kirib turganini koʻrdi va boshqa iloj qolmagandan soʻng qayiqni u bilan ham boshqarish mumkinligini bildi.

Yelkalariga qopni yopib olgach, u qayiqni manzilga tomon toʻgʻrilab burdi. Endi qayiq yengilgina yelib borar, chol boʻlsa hech narsani oʻylamas, hech narsani

sezmas, his qilmas edi. Endi unga hamma narsa bari-bir bo'lib qolgan, faqat qayiqni jonajon sohilga tezroq ham omon-eson yetkizsa bo'lgani edi.

Tunda akulalar go'yo stol ustida qolgan-qutgan salqit ovqatga o'zini urgan ochofatlarday baliqning g'ajib tashlangan gavda suyagiga tashlanishdi. Chol ularga e'tibor bermadi. Uning endi o'z qayig'idan bo'lak hech narsaga qayrilib qaragisi kelmasdi. Chol faqat zil-zambil og'irlikdan bo'shagan qayiqning erkin qushday yelib, suzayotganini his qilib borardi, xolos.

«Yaxshi qayiq, – deb o'yladi u, – rumpeli demasa, o'zi bus-butun. Nima, yangi rumpel qo'yish qiyinmidi?»

Chol iliq oqimga kirganini sezib turar, shunday ko'z o'ngida qirg'oq bo'yi posyolkalarning chiroqlari miltillar edi. U o'zining hozir qayerda turganligini bilardi; endi uyga yetib olish ham hech gap emas edi.

«Shamol – bu, so'zsiz, bizga birodarku-ya, – deb o'yladi u va keyin qo'shib qo'ydi: – darvoqe, har doim ham shunday emas. Ko'z ilg'amas dengizni olsak – u ham do'st-u dushmanlarimizga to'la. To'shak-chi... – o'ylardi u, – to'shak – birodarim. Ha-ha, xuddi shunday, oddiy to'shak. O'ringa oyoq cho'zish ayni hikmatning o'zi. Yengilib bo'lganingdan keyin yelkangdan tosh ag'darilganday yengil tortasan-qo'yasan! – xayol qildi u. – Men buning shunchalik oson bo'lishini bilmasdim... Kim ham seni yenga qoldi o'zi, chol? – so'radi u o'zidan. – Hech kim, – javob berdi u. – Aybim shuki, men dengizda haddan tashqari uzoq ketib qoldim».

U kichik ko'rfazga kirgan mahalda, Terras chiroqlari o'chgan ediki, bundan chol hamma uyquga ketganini tushundi. Shamol to'xtovsiz zo'rayib borar, shu tobda bo'lsa, ayniqsa, kuchli esa boshlagan edi. Lekin gavan osoyishta edi. Chol qoyalar ostidagi toshloqda to'xtadi. O'ziga yordam beruvchi hech kim bo'lmaganidan, u qayiqni sohilga imkoni boricha yaqinroq olib keldi. Keyin qayiqdan chiqib, uni qoyaga qantarib bog'lab qo'ydi.

Machtani sug'urib oldi-da, unga yelkanni o'rab bog'ladi. So'ng machtani yelkasiga ortib, tepalikka ko'tarila boshladi. Mana xuddi shunda u o'zining qanchalik holdan toyganini bildi. Bir zum to'xtadi-da, orqasiga o'girilib qarab, ko'cha chirog'ining yorug'ida haybatli baliq dumining qayiq quyrug'i orqasidan nechog'lik yuksalib turganini ko'rdi. Ko'zi baliq umurtqasining oppoq yalang'och chizig'i bilan tig'i oldinga turtib chiqqan boshining quyuyq soyasiga tushdi.

Chol yana yuqoriga chiqishda davom etdi. Tepalikdan o'tgach, behol yiqildi va shu ko'yi yelkasida machta bilan bir muddat cho'zilib yotdi. Keyin oyoqqa turishga urindi, ammo bu oson emas edi va u shu holiha yo'lga termilganча, o'tirib qoldi. O'z kori bilan chopib mushuk o'tdi, chol uning orqasidan uzoq qarab turdi, so'ng bo'm-bo'sh yo'lga ko'z tikdi.

Nihoyat, u machtani yerga uloqtirib tashlab, o'rni-dan turdi. Uni yana yelkasiga olib, yo'l bo'ylab yuqoriga qadam bosdi. To kulbasiga yetguncha yo'l-yo'lakay besh marta dam olishga to'g'ri keldi.

Uyga kirgach, u machtani devorga suyab qo'ydi. Qorong'ida suvli shishani topib, to'yib ichdi. So'ng karavotga cho'zildi. U ko'rpani yelkasiga tortib orqasini va oyoqlarini yopdi-da, yuzi bilan gazetaga muk tushib, kaftlari yuqoriga qaragan qo'llarini uzatganча u xlab ketdi.

Erta bilan bola kulbaga ko'z tashlagani kirganda, u u xlab yotardi. Shamol shunday ham kuchaygan ediki, bundan qayiq-lar dengizga chiqolmay qolgan, shundan bo'lsa kerak, bola qonib u xlab, keyin odati bo'yicha kanda qilmay, chol kulbasiga kelgan edi. Cholning nafas olayotganiga o'z ko'zi bilan ko'rib ishonch hosil qildi-yu, ammo nazari uning qo'llariga tushgandan keyin yig'lab yubordi. U qahva keltirish uchun kulbadan ohista qadam tashlab chiqdi va butun yo'l bo'yi yig'lab bordi.



Qayiq tevaragiga juda ko'p baliqchilar to'plangan, ularning bari qayiqqa bog'log'liq narsani tomosha qilishardi; baliqchilardan biri pochasinini shimarib qo'rganicha suvda turar va chizimcha bilan baliq suyagini o'lchar edi.

Bola ularning yoniga tushib o'tirmadi; u bu yerda bo'lishga boya ulgurgan va baliqchilardan biri qayiqqa qarab turishga va'da bergan edi.

– Qalay, ahvoli tuzukmi? – qichqirdi baliqchilardan biri bolaga.

– Uxlayapti, – javob berdi bola. O'zining yig'layotganini ko'rayotganlari ham endi baribir edi. – Uni bezovta qilmaslik kerak.

– Buning tumshug'idan dumigacha o'n sakkiz fut chiqar ekan! – qichqirdi o'lchayotgan baliqchi.

– Chiqmay ham ko'rsin, – dedi bola.

U Terrasga kelib, bir qahva so'radi:

– Menga qaynoq qahva bering, suti va shakari ko'proq bo'lsin.

– Yana biron narsa olgin.

– Kerak emas. Uning nima yeyishi mumkinligini keyin qarab ko'raman.

– Oh, ana balig'-u, mana baliq! – dedi xo'jayin. – Teng'i yo'g'-a, tengi. Ammo sen ham kecha ikki zo'r baliq tutding.

– E, qo'ysang-chi, mening balig'imni! – dedi bola va yana yig'lab yubordi.

– Biron narsa ichib olmay-sanmi? – so'radi undan xo'jayin.

– Kerakmas, – dedi bola. – Ularga aytib qo'y, Santyagoning me'dasiga tegishmasin. Men yana kelaman.

– Shunday bo'lib chiqqaniga mening ham juda achi-nayotganligimni aytib qo'y unga.

– Rahmat, – dedi bola.

Bola kulbaga qaynoq qahvani keltirib qo'ydi va to'chol uyg'onmaguncha uning yonida o'tirdi. Bir sa-

far bolaga go'yo u uyg'onayotganday bo'lib ko'rindi, ammo chol yana og'ir uyquga cho'mdi, shundan so'ng bola qahvani isitish uchun qarzga biroz o'tin olgani qo'shnilarnikiga ketdi.

• Nihoyat, chol uyg'ondi.

– Yotaver, turma, – dedi unga bola. – Mana buni ichib ol! – stakanga qahva quyib uzatdi u.

Chol undan stakanni olib, qahvani ichdi.

– Ular meni yengib qo'yishdi, Manolin, – dedi u. – Ular meni yengishdi.

– Ammo uning o'zi seni yengolmabdi-ku, axir. Axir baliq seni yengmabdi-ku!

– Yo'q yengmadi. To'g'ri gapdan qochib qutulib bu-larmidi. Bu voqea keyin bo'ldi.

• – Qayiq bilan asbob-uskunalarga Pedriko qarab tu-radigan bo'ldi. Baliqning boshini nima qilmoqchisan?

– Uni Pedriko to'rlarga xo'rak qilib maydalay qolsin.

– Tig'ini-chi?

• – Xohlasang, uni esdalik uchun o'zingga olib qo'ya qol.

• – Xohlamay-chi, – dedi bola. – Kel endi, bundan ke-yin nima qilishimiz haqida gaplashib olamiz.

– Meni qidirishdimi?

• – Bo'lmasa-chi. Qirg'oq soqchilari ham, samolyotlar ham qidirishdi.

• – Okean poyonsiz, qayiq bo'lsa zig'irdakkina, uni topib bo'larmidi, – dedi chol. U, o'z-o'zing va yana dengizdan tashqari ham gaplashadigan biron oda-ming bo'lsa, qanday ajoyib bo'lishini hozir ich-ichidan sezdi. – Men seni rosa qo'msadim, – dedi u. – Sen biron narsa ushladingmi?

• – Birinchi kuni bitta. Ikkinchi kuni yana bitta, uchinchi kuni bo'lsa, ikkita katta baliq ushladik.

– Qoyil!

– Endi biz yana birgalashib ov qilamiz.

– Sirayam. Menda tole yo'q. Ishim teskari ketyapti.

– E, qo'ysang-chi, shu teskari-peskaringni! – dedi bola. – Men senga tole keltiraman.

– Ota-onang-chi, ular nima deyishadi?

– Ahamiyati yo'q. Kecha men ikkita baliq ushlab berdim-ku. Ammo endi biz ikkovlashib baliqchilik qilamiz, chunki, men hali juda ko'p narsani o'rganishim kerak.

– Zo'r bir sanchqi topishga va dengizga doimo uni olib chiqishga to'g'ri keladi. Tig'ini eski «ford»ning res-soridan qilsa ham bo'ladi. Guanabakoada charxlatib olamiz. U juda o'tkir bo'lishi kerak, ammo sinib ketmasligi uchun toblanmagan bo'lishi shart. Pichog'im butunlay sinib ketdi.

– Men senga yangi pichoq topib beraman, ressonni ham o'zim charxlataman. Yana necha kun kuchli brisa<sup>1</sup> esib turadi?

– Ehtimol, uch kundir. Balki, undan ham ko'proqdir.

– U paytgacha hamma narsa joyida bo'ladi, – dedi bola. – Sen hozircha qo'llaringni davosini qilgin.

– Men ularni nima qilish kerakligini bilaman. Kechasi allaqanday g'alati bir narsa tupurdim, shundan menga, xuddi ko'kragimda bir narsa yorilib ketganday bo'lib tuyuldi.

– Buning ham davosini qil, – dedi bola. – Dam ol, qariya, men senga toza ko'ylak keltiraman. Yana ovqat-povqat deganday.

– Men yo'qligimda chiqqan gazetalardan birontasini o'zing bilan ola kelgin, xo'pmi? – iltimos qildi chol.

– Sen tezroq tuzalishing kerak, chunki men hali sendan juda ko'p narsalarni o'rganib olishim zarur, sen bo'lsang meni dunyodagi yetmish ikki hunarga o'rgatishing mumkin. Senga juda ham og'ir bo'ldimi?

– Juda, – dedi chol.

---

<sup>1</sup> Sohil shamoli (*isp.*).

– Men ovqat va gazeta keltiraman. Sen dam ol, qariya. Dorixonaga ham kirib o'taman, qo'llaringga biron dori-darmon ola kelaman.

– Pedriko baliq boshini o'ziga olsin, aytib qo'y, yodindan chiqmasin.

– Esimdan chiqmaydi, aytaman.

Bola kulbadan chiqib, eski toshloq yo'ldan pastga tushib borayotganida yana yig'ladi.

Shu kuni Terrasga bir guruh turistlar kelgan edi, ulardan biri sharqdan esayotgan shamol ko'rfazning dahanasida haybatli to'lqin shopirayotganiga qarab turib, pivodan bo'shagan idishlar va o'lib yotgan meduzalar orasida sohilga urilayotgan to'lqinlarda chayqala-chayqala yuksalib turgan, ulkan dumli uzun oq umurtqani ko'rib qoldi.

U hozir, endi yo'lovchi to'lqin surib ketuvchi axlatgina bo'lib qolgan ulkan baliqning uzundan-uzun umurtqasini ko'rsata turib, ofitsiantdan so'radi:

– Nima balo ekan bu o'zi?

– T iburon, – dedi ofitsiant. – Akulalar. – U so'ragan ayolga bo'lgan voqeani batafsil tushuntirib berish niyatida edi.

– Ana xolos, shu paytgacha akulalarning mana bundaqa chiroyli, nafis qayrilgan dumlari bo'lishini bilmagan ekanman-a!

– Nimasini aytasan, men ham bilmasdim, – qo'shildi unga hamrohi.

Chol o'z kulbasida hamon uxlab yotardi. U yana muk tushib uxlar, bola esa yonida o'tirib, uning uyqusini ardoqlardi. Cholning tushiga arslonlar kirar edi.

1952.

## ALVIDO, QUROL!

*Roman*

### MUALLIF SO'Z BOSHISI<sup>1</sup>

Bu kitob Parijda, Ki-Uestda, Floridada, Piggota, Arkanzas, Kanzas-Siti, Missuri, Sheridan, Vayomingda yozildi; 1929-yil ko'klamida Parijda so'nggi tahrirdan chiqarildi.

Birinchi variantni yozayotganimda Kanzas-Sitida o'g'lim Patrik tug'ildi, uni onasining qornidan kesib oldilar. Men Ouk-Parkda, Illinoysda, so'nggi variant ustida ishlayotganimda otam o'zini otib qo'ydi. Bu kitobni tugatganimda hali o'ttizga kirmagandim, u birjada buhron ro'y bergan kun dunyo yuzini ko'rdi. Men doim, otam shoshdi, deb o'ylayman, biroq, balki uning sabr kosasi to'lib ketgandir. Otamni nihoyatda sevardim, shuning uchun u haqda bir narsa deb mulohaza yuritishim lozimmas.

Men barcha ushbu voqealarni va o'zimiz yashagan joylarni, o'sha yili bo'lgan yaxshi-yomon gaplarning hammasini eslayman. Lekin hammasidan ham kitobda yashagan hayotimni, o'zim kunma-kun to'qib chiqargan hayotni yaxshiroq xotirlayman. Shu mamlakat, shu odamlar va ularning boshdan kechirganlarini to'qir ekanman, dunyoda mendan ham baxtliroq odam yo'q edi. Har kuni men yozilganlarni bir boshdan o'qib chiqar va shundan so'ng davom ettirar va har kuni yaxshi yozib turganimda, bundan bu yog'iga nima yozishim ma'lum bo'lgan bir paytda ishni to'xtatar edim.

Kitob fojia bilan tugayotgani meni ranjitmasdi, chunki men umuman hayot – fojiadan iborat, uning hamma ko'chalari bir joyga olib boradi, deb

---

<sup>1</sup> So'z boshi 1948-yilda chiqqan bezakli nashrga yozilgan.

bilardim. Biroq yoza olishingdan, yozganda ham haqqoniy qilib, keyin o'zing o'qiganda ham lazzatlanadigan qilib yoza olishingdan va har kuningni mana shu yoqimli ish bilan boshlashdan quvonchliroq narsa yo'q bo'lsa kerak. Buning oldida boshqa hamma narsa arzimas gaplardir.

1926-yilda bir romanim chiqqan edi. Lekin uni yozgan paytlarim hali roman ustida qanday ishlash kerakligini mutlaqo bilmasdim: men juda ham tez yozar va aytadigan gapim qolmagandagina to'xtardim. Shuning uchun birinchi varianti juda ham yomon chiqdi. Men uni yarim yilda yozib tugatdim, keyin mutlaqo qaytadan ko'chirib chiqdim. Lekin qayta ishlayotganda men juda ko'p narsalarni o'rgandim.

Noshirim, Charlz Skribner otlarning yaxshi-yomonini ajratishga usta, nashriyot ishlari haqida nima bilish kerak bo'lsa, barini, ehtimol, bilsa ham kerak, o'rganmagan quloqqa garchi g'alati eshitilsa-da, kitoblarni ham uncha-muncha tushunadi, mendan bezaklarga qanday qaraysiz, kitobingizni bezakli qilib chiqarsak, rozimisiz, deb so'rab qoldi. Agar rassom yozuvchiday o'z ishining ustasi bo'lmasa, bunga javob berish oson bo'ladi, chunki yozuvchi o'zi jonli guvoh bo'lib ko'rgan-bilgan hodisalarni, mamlakatlarni, narsalarni bulardan bexabar bir kimsa tomonidan bilib-bilmas aks ettirilishiga sira rozi bo'lolmaydi.

Agar men voqeasi Bagam orollarida kechadigan roman yozganimda edi, men uning bezaklarini Uinslou Xomer ishlashini istagan bo'lardim, biroq shundayam undan biron narsani bezashni emas, Bagam orollarini va u yerda ko'rganlarini chizishni so'ragan bo'lardim. Agar men Mopassan bo'lganimda (qani edi, unday bo'lish o'liklarga ham, tiriklarga ham nasib bo'lsa) men o'z kitoblarimga bezak sifatida Tuluz-Lotrekning rasm va suratlarini, Renuar umrining o'rtasida chizgan ayrim plenerlarini olgan bo'lardim, Normand tabiati

manzaralariga esa hech kimning qo'lini urdirmagan bo'lardim, chunki hech bir rassom bunda u bilan tenglasholmasdi.

Agar falon yo piston yozuvchi bo'lganimda deyiladigan bo'lsa, ularga munosib rassomlarni topsa bo'lardi. Lekin u yozuvchilar hozir bo'lmaganlariday, u rassomlar ham hozir o'lib ketishgan, Maks Perkins va yana boshqa ko'plar ham o'tgan yili o'lib ketishdi. Bu yilning shunisi yaxshiki, oldinda bizni qanday ayriliqlar kutayotgan bo'lmasin, u o'tgan yildan ko'ra yomonroq bo'lmaydi, yoki 1944-yil, yoki 1945-yilning erta qish va ko'klam chog'larichalik yomon bo'lmas. Bular ayriliqlarning mo'l hosillari ko'tarilgan yillar edi.

Biz ushbu yilni o'rtada pul yig'ib shampan sotib olib San-Vellida, Aydaxoda kutib olganimizda, kimdir bir o'yin taklif qildi: tortilgan arqon yoki yog'och kaltak tagidan yelkada sudralib o'tish kerak edi, o'tayotganda hech qayeringiz arqon yoki tayoqqa tegib ketmasligi shart qilingandi. Men bir burchakda Ingrid Bergman bilan xalfana shampanni ichib o'tirardim, unga dedim: «Qizim, bu yil yillarning eng xudo urgani bo'ladi» (Sifatlar tushirib qoldiriladi).

Miss Bergman, nega unday deb o'ylaysiz, dedi. Unga hozircha hamma yillar bir-biridan yaxshi bo'lib kelgan, shuning uchun mening fikrimga qo'shilishi qiyin edi. Men so'zga boy emasman, so'zning kiftini keltirib gapirolmayman, shuning uchun buning sabablarini sizga batafsil tushuntirib berolmayman, lekin qator, bir-biriga bog'lanmagan alomatlariga qaraganda, yaxshilik bo'lishini kutish qiyin, tayoqningmi, arqonningmi tagidan o'rmalab o'tayotgan boyvachchalarning ko'rinishi ham yaxshilikdan darak bermaydi, dedim. Shu bilan gapni tugatdik.

Shunday qilib, bu kitob birinchi marta 1929-yilda, Nyu-York birjasida talafot yuz bergan kuni maydonga chiqdi. Bezakli nashri bu yil kuzda chiqishi kerak.

Bu vaqt ichida Skott Fitsjerald o'ldi, Tom Vulf o'ldi, Jim Joys o'ldi (u biograflari tomonidan o'ylab yozilgan Joysga sira o'xshamaydi, antiqa o'rtog'imiz edi. Bir kuni u ichib o'tirganimizda, mening kitoblarim sizga juda ham ibtidoiy bo'lib ko'rinmaydimi, deb so'ragandi); Jon Bishop o'ldi, Maks Perkins o'ldi. O'lishi kerak bo'lgan yana bir qancha odamlar o'lib ketishdi; bir xillari Milan benzen shoxobchalarida oyoqlaridan osildilar, boshqalari yaxshimi, yomonmi bombardimon qilingan nemis shaharlarida osib qo'yildi. Qanchadan-qancha noma'lum, nomsiz, nishonsiz, biroq hayotni juda ham sevgan kishilar yo'q bo'lib ketishdi.

Bu kitob «Alvido, quroll!» deb ataladi, u yozilgandan keyingi uch yildan bu yog'iga yer yuzining qayeridadir to'xtovsiz urush bo'lyapti. Ko'plar o'shanda nega bu odam muncha urush bilan band bo'lib ketdi, deb hayron bo'lib yurishgandi, lekin 1933-yildan keyin endilikda hattoki ularga ham yozuvchi odam surbetlaricha qilinayotgan muttasil qirg'inlarga, razil jinoyatlar bilan to'la urushlarga hech qachon befarq qarab turolmasligi ravshan bo'lib qoldi. Men ko'p urushlarda qatnashdim, shuning uchun bu masalada g'arazim qattiq, hatto juda ham qattiq. Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki; urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir. Men urushda boyluk orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog'i zarur, deb hisoblayman.

Bu kitobning muallifi, agar jangga ketayotganlar unga lutfan topshirsalar, bunaqangi otib tashlash



bo'ladigan bo'lsa, uni tashkil etishni o'z zimmasiga jon-jon deb olgan bo'lur edi va bu ishning hammasi imkoni boricha odamiylik va axloq-odob doirasidan chiqmay ado etilishiga (axir otilayotganlar orasida har xil odamlar bo'lishi mumkin-da) hamda ularning jasadlari, shubhasiz, dafn etilishiga rioya qilgan bo'lurdi. Hattoki, ularni sellofanda yoki shunga o'xshash biror zamonaviy sintetik narsada o'rab ko'milishiga ham qarshilik qilmasdi. Mabodo, oxiri borib boshlangan urushda mening ham hissam borligi aniqlanguday bo'lsa, qanchalik qayg'uli bo'lmasin, mayli, meni ham o'sha o'qchilar vzvodi otib tashlasin. Keyin meni ham istasalar sellofanga o'rab yoki o'ramasdan ko'msinlar, yoxud mening uryon tanimni tog' yonbag'ridan uloqtirib yubora qolsinlar. Roziman.

Shunday qilib, oradan yigirma yilcha o'tdi, bino-barin, mana sizga kitob va mana unga so'z boshi.

*Finka-Vijiya,  
San-Fransisko-de-Paula, Kuba  
30-iyun 1948-yil.*

## BIRINCHI KITOB

### Birinchi bob

O'sha yili yoz oxirlarida biz qishloqda, kulbada turardik. Kulbadan narida daryo bilan vodiy, ulardan ham olisroqda tog'lar yastanib yotardi. Daryoning o'zani oftobda oqargan, quruq qayrag'ochlar va mayda shag'al bilan qoplangan, daryo shoxobchalarida esa suv tip-tiniq va ko'm-ko'k bo'lib, sho'x shaldirab oqib borardi. Kulba oldidagi yo'ldan qo'shinlar o'tib borar, ularning oyog'idan ko'tarilgan to'zon og'ochlarning barglariga o'tirardi. Og'ochlarning shoxlari ham changga burkangandi, o'sha yili yaproqlar erta to'kila boshlagandi, biz bo'lsak, yo'ldan qo'shinlarning o'tib borishini, chang-to'zonning ko'kka o'rlashini, shamol yaproqlarni yulqib-sulqib uchirib ketayotganini, soldatlarning odimlarini, so'ngra esa kimsasiz, bo'm-bo'sh tuproq yo'lda yolg'iz yaproqlargina to'kilib yotishini tomosha qilardik.

Vodiy yerlari hosildor edi, unda bog'zorlar serob edi, vodiy etagidagi tog'lar esa taqir qo'ng'ir tog'lar edi. Tog'larda jang ketmoqdaydi, kechalari portlashlardan yolqinlar ko'tarilardi. Qorong'ida ular shafaqqa o'xshab ko'rinardi: faqat tunlari etni junjiktirib sovuq turar, havo quruq edi.

Ba'zan qorong'ida derazadan qo'shinlarning o'tib borishini, to'p-to'pxonalar tortib kelayotganini eshitib qolardik. Tunda yo'lda qatnov zo'rayar, ikkala tomoniga yashik-yashik o'q-dori ortgan xachirlar, ustiga soldatlar tushgan, yuklariga brezent tashlagan kulrang mashinalar shoshilmay to'xtovsiz o'tib turardi. Kunduzlari ham shatak mashinalar og'ir to'plarni sudrab borar, to'plarning og'ir stvollariga ko'm-ko'k shox-shabbalar tashlab qo'yilgan, shatakchilar ham quyuyq yashil shoxlar va tok zanglari bilan berkitil-

gan edi. Bizdan shimol yoqda vodiy, vodiyan narida kashtanzor, kashtanzordan ham narida – daryoning bu betida baland tepalik bor edi. Shu tepalikni egalashga bir necha marta urinib koʻrildi, lekin bundan hech narsa chiqmadi. Kuz kirib, yomgʻir ketidan yomgʻir quyib bergach, kashtanlarning yaproqlari duv toʻkildilar-da, shoxlari qip-yalangʻoch boʻlib qoldilar, daraxtlarning tepalari yomgʻirdan qorayib ketdi. Tokzorlarning ham orasi ochilib, quruq navdalargina qoldi, tevarak-atrof qoʻngʻir tusga kirdi, hamma yoq rutubat, kuzgi soʻlgʻinlikka choʻmdi. Daryo usti tuman bilan qoplangan, togʻlar tepasida bulutlar suzib yurardi; yuk mashinalari yoʻllardan loy sachratib borar, yomgʻirpoʻsh kiygan soldatlar ham loyga belangan, ivigan holda borardilar: ularning miltiqlari ham hoʻl edi; qayishlaridagi ikkita kulrang charm patron sumka 6,5 millimetrli ingichka patronlar joylangan oboymalardan zil tortib, yomgʻirpoʻsh tagidan koʻtarilib turar va goʻyo yoʻldan borayotgan soldatlarni olti oylik homiladorday qilib koʻrsatardi.

Kichkina och tusli yengil mashinalar ham oʻtar, ularni tez haydab borishardi; koʻpincha haydovchining yonida ofitser oʻtirar, orqa tomonda ham ofitserlar boʻlardi. Bular yuk mashinalarga qaraganda koʻproq loy sachratib ketardi. Agar ofitserlardan biri juda ham pakana boʻlib, orqa oʻrindiqa ikki general oʻrtasida oʻtirgan boʻlsa-yu, azbaroyi boʻyi kaltaligidan yuzi koʻrinmay, faqat shapkasining tepasi-yu, torgina yelkasigina koʻrinib tursa va buning ustiga mashina gʻoyat tez ketayotgan boʻlsa – ajabmaski, shu kishi qirol edi. Uning qarorgohi Udinada boʻlib, deyarli har kuni shu yoʻldan ahvolni bilish uchun oʻtib turar, ahvol esa juda yomon edi.

Qish boshlanishi bilan surunkasiga yomgʻir quyib berdi, yomgʻir bilan birga vabo tarqaldi. Lekin uning oldi olindi, vabo davomida qoʻshinda faqat yetti ming kishigina oʻldi, xolos.

## **Ikkinchi bob**

Yangi kirgan yilda ancha g'alaba qozonildi. Vodiy etagidagi balandlik va kashtanzorlar ishg'ol qilindi, vodiyning janub tomonidagi yerlarda ham g'alaba qozonildi va biz avgust oyida daryodan o'tib, Goritsiyada joylashdik; biz turgan uyning devorlariga arg'uvon vistariya chirmashib ketgan, baland chetan bilan to'silgan bog'da favvora otilib turar, qalin, sersoya daraxtlar ko'p edi. Endi janglar shu atrofdagi tog'larda, bizdan bir chaqirim ham kelmaydigan joylarda borardi. Shahar juda ajoyib, biz turgan uy esa juda chiroyli edi. Daryo bizning ortimizda oqardi, shaharni ham osongina qo'lga kiritdik, lekin nariroqdagi tog'larni ishg'ol qila olmadik; men shunisiga xursand edimki, avstriyaliklar qachonlardir urush tugasa, qaytib boramiz-ku, degan o'y bilan bo'lsa kerak, shaharni aytarli bombardimon qilishmas, yo'lga po'pisa qilib qo'yardilar, xolos. Aholi ketmay, shaharda qolgan edi, bu yerda gospitallar ham, qahvaxonalar ham, muyulishlarda artilleriya ham, biri soldatlarga, ikkinchisi ofitserlarga mo'ljallangan islovatxona ham bor edi; yoz oxirlab, tunlar sovuq bo'lib qoldi, yaqin tog'lardagi janglar, snaryadlar mayishtirib, pachaqlangan ko'priklarning temiri, jang bo'lib o'tgan daryo bo'yidagi buzilgan tunnel, maydon atrofidagi daraxtlar va maydonga chiqadigan ko'chani ikki betidagi qo'sha-qo'sha og'ochlar – bularning bari va yana shaharda oyimtillalarning borligi, qirol o'zining och rangli mashinasida o'tib-ketib turganligi, endi uning basharasini va dutor bo'yin kichkina gavadasini, echkinikiga o'xshash bir tutam oppoq soqolini ko'rish mumkin bo'lib qolgani – bularning bari va yana devorlari o'pirilgan, ichi ko'rinib yotgan uylar, bog'larda, ba'zan esa ko'chalarda uyulib yotgan singan g'isht uyumlari, taxta-yog'ochlar, Karsoda ishlar jo'nashib ketganligi bu yilgi mavsum biz qishloqda turgan pay-

timizdagi bulturgi kuzakdan butunlay boshqacha ekanligini ko'rsatib turardi. Urush ham boshqacharoq bo'lib qolgandi.

Shaharning narigi tomonidagi tog'dagi emanzor o'rmon xarob bo'ldi. Biz shaharga kirgan mahalda yozda bu o'rmon ko'm-ko'k ko'karib turgandi, endilikda esa o'rmondan faqat to'nkalar-u, majaqlangan uryon tanalarigina qoldi; yer ham butunlay ag'dar-to'ntar qilib yuborilgandi: kuz oxirlagan kezlar edi, bir kuni men ilgari emanzor o'rmon xarobasida turib, tog' ortidan bostirib kelayotgan bulutni ko'rdim. Bulut shitob bilan keldi-yu, bir zumda oftob xiralashib, sarg'ayib qoldi, keyin hamma yoqdan nur o'chdi, ko'k yuzi qorong'i tortdi, tog' ustini bulut o'radi va hash-pash deguncha ustimizga yopirildi, qor kelmoqda edi. U shamol bilan bo'ralab urdi, yalang'och yer uning tagida g'oyib bo'ldi, faqat to'ngaklargina serrayib qoldilar, to'plarning usti ham qor bilan qoplandi. Xandaqlarning orqa tomonidagi hojat joylariga izlar tushdi.

Kechqurun shaharga tushib, men ofitserlar kiradigan islovatxonaning derazasi oldida o'rtog'im bilan bir shisha asti ichib o'tirardim. Tashqarida qor yog'ar va biz uning og'ir va shoshilmay yog'ayotganiga termilib o'tirib, qor bu yilgi ishlarga ham yog'ayotganligini anglardik. Daryoning yuqori qismidagi tog'lar qo'lga kiritilmadi; daryo orqasidagi tog'larning ham biron-tasi egallanmadi. Bularning bari kelasi yilga qoladi. Og'aynim ko'chada balchiqlardan ohista o'tib borayotgan polkimizning ruhoniysini ko'rib qoldi-da, derazani chertib uni chaqira boshladi. Ruhoniy boshini ko'tardi. U bizni ko'rgach, jilmaydi. Og'aynim uni barmog'i bilan imladi. Ruhoniy boshini liqillatib, o'tib ketdi. Kechqurun ofitserlar oshxonasida spagetti yeb bo'lingach, spagettini hamma jiddiy qiyofada o'tirib, vilkaga osiltirib ilib olardi-da, shosha-pisha damini chiqarmay ichiga tortar, keyin esa kajava idishga solingan

vinodan ho'plardi. Vino solingan ko'za metall tokcha ustida chayqalib turar, kimga kerak bo'lsa, ko'rsatkich barmog'i bilan uning bo'g'zini engashtirar, shunda stakan tip-tiniq, o'tkir va yoqimli arg'uvoniy may bilan to'lib chiqardi, spagetti yeb bo'lingach, kapitan kashishning jig'iga tega boshladi.

Kashish yosh edi va sal narsaga darrov qizarib ketardi, u hammamiz qatori forma kiygan, faqat kulrang frenchining so'l ko'krak cho'ntagi ustida to'q qizil duxobadan salb qadalgan edi. Kapitan meni nazarda tutib, italyanchani buzib-netib gapirar, chamasi, shunday qilsam, gapimni yaxshi ang'laydi, deb o'ylardi.

– Ruhoniy bugun oyimchaga bordi, – dedi kapitan dam kashishga, dam menga qarab. Kashish jilmaydi va qizarib ketdi, boshini chayqab qo'ydi. Kapitan u bilan hazil-mazah qilishni yaxshi ko'rardi.

– Yo'q, deng-chi? – dedi kapitan. – Men ruhoniyni oyimchada ko'rdim.

– Yo'q, – dedi kashish. Boshqa ofitserlar kapitaning maynabozchiligiga qo'shilib o'tirishardi.

– Ruhoniy oyimchaga yo'q, – unamasdi kapitan. – Ruhoniy oyimcha bilan hech qachon, – tushuntirdi u menga. U stakanimni olib mendan ko'z uzmay, ayni chog'da kashishga ham qarab-qarab qo'yib, to'ldirib berdi.

– Ruhoniy har kechasi o'zini o'zi... – hamma kulib yubordi. – Siz tushundingizmi? Ruhoniy har kechasi o'zini o'zi... – kapitan qo'li bilan qilib ko'rsatdi-da, xaxolab kuldi. Kashish buni hazilga yo'yib o'tirardi.

– Papa urushda avstrislar yutib chiqishini xohlaydi, – dedi mayor. – U Frans-Iosifni yaxshi ko'radi. Avstrislar pulni kimdan olayotganliklari endi ravshandir. Men – xudosizman.

– Siz «Qora to'ng'iz»ni o'qimaganmisiz? – so'radi leytenant. – Sizga topib beraman. Shu kitobni o'qib, dinga ishonqiramay qo'ydim.

– U iflos va rasvo kitob, – dedi kashish. – U sizga chindan yoqqan bo‘lishi mumkin emas.

– Juda foydali kitob, – dedi leytenant. – Unda nuqul ruhoniylar haqida yozilgan. Sizga ma’qul bo‘ladi, – dedi u menga.

Men kashishga qarab jilmaydim, u ham sham ortidan menga kulimsiradi.

– O‘qimang uni, – dedi u.

– Sizga topib beraman, – dedi leytenant.

– Kallasi bor odamlarning hammasi ateist bo‘ladi, – dedi mayor. – Men hatto masonlikni<sup>1</sup> ham tan olmayman.

– Men esa masonlikni tan olaman, – dedi leytenant.

– U juda oliyjanob tashkilot.

Allakim ichkariga kirdi, eshik ochilganida tashqarida hamon qor yog‘ayotganini ko‘rdim.

– Endi hujumga o‘tmasak kerak, qor tushdi, – dedim men.

– Albatta-da, – dedi mayor. – Endi ta‘til olsangiz, soz bo‘lardi. Rimga borsangiz, Neapolga, Sitsiliyaga...

– Qo‘yinglar, u Amalfiga boradi, – dedi leytenant.

– Men sizga Amalfida turuvchi ota-onamga xat yozib beraman. Ular sizni o‘z o‘g‘illariday qarshi olishadi.

– U Palermoga bora qolsin.

– Kapri undan ham yaxshi.

– Siz Abrutssaga borib, Kaprakottada mening qarindoshlarimnikida qo‘noq bo‘lsangiz deb edim, – dedi kashish.

– Abrustsaga boraman deb, ko‘zi uchib turibdi. U yoqda qor bu yerdagidan ham qalin. Dehqonlarga anqayib o‘tiradimi u yerda? Yaxshisi, fan va madaniyat markazlariga borsin.

– Chiroyli qizlar bor yerlarga demoqchisiz-da. Men sizga Neapoldagi manzillarni beraman. Shundoq hur-

---

<sup>1</sup> Cherkovga erkin munosabatda bo‘luvchilar (*tarj.*).

liqo qizlar – yana hammalari onalari bilan birga. Va-  
**xa-xo-xo!**

» Kapitan panjasini ochdi-da, bosh barmogʻini koʻta-  
**rib**, qolganlarini devorga soya tushadigan qilib yirdi.  
Uning panja soyasi devorga tushdi. U yana buzuq ta-  
**laffuzda** soʻzlay boshladi:

– Siz ketganda mana bunday boʻlib ketasiz, – u  
bosh barmogʻini koʻrsatdi, – qaytganda esa mundaq  
boʻlib qaytasiz, – u jimjilogʻini ushlab qoʻydi. Hamma-  
lari kulishdi.

– Qaranglar, – dedi kapitan. U yana panjalarini yir-  
di. Yana sham alangasi panjaning soyasini devorga  
tushirdi. U bosh barmoqdan boshlab, hamma bar-  
moqlarga birma-bir nom berib chiqdi: – sotto-tenete<sup>1</sup>  
(bosh barmoq), tenete<sup>2</sup> (koʻrsatkich), capitano<sup>3</sup> (oʻrta  
barmoq), maggiore<sup>4</sup> (kichik barmoq), tenente-colonel-  
lo<sup>5</sup> (jimjiloq). – Siz sotto-tenente boʻlib ketasiz! Siz  
tente-colonello boʻlib qaytasiz!

Hammalari kulib yuborishdi. Kapitanning soya  
oʻyini hammaga maʼqul tushdi. U kashishga qarab  
qichqirdi:

– Ruhoniy har kechada oʻzini oʻzi! – hamma kuldi.

– Dam olishni bir kunga ham kechiktirmang, – dedi  
mayor.

– Afsus, siz bilan birga borolmayman, hammasini  
oʻzim koʻrsatgan boʻlardim, – dedi leytenant.

– Qaytib kelayotganingizda grammafon ola keling.

– Yaxshi opera plastinkalaridan opkeling.

– Karuzoni opkeling.

– Karuzo kerak emas, uvullaydi.

– Oʻzingiz oʻshanaqa uvullab koʻring-chi!

---

<sup>1</sup> Kichik leytenant (*ital.*).

<sup>2</sup> Leytenant (*ital.*).

<sup>3</sup> Kapitan (*ital.*).

<sup>4</sup> Mayor (*ital.*).

<sup>5</sup> Podpolkovnik (*ital.*).



– Uvullaydi. Uvullaydi deyapman sizga.

– Abrutssaga borsangiz degan edim, – dedi kashish. Boshqalar o‘z gaplari bilan ovora edi. – U yerda mazza qilib ov qilish mumkin. Odamlari juda ham ajoyib, qishi sovuq bo‘lsayam, lekin havo quruq va ochiq bo‘ladi. Siz mening ota-onamnikida turishingiz mumkin. Otam ovga mukkasidan ketganlardan.

– Qani ketdik, – dedi kapitan. – Xarobatxonaga boraylik, yana yopib qo‘yishmasin.

– Xayrli tun, – dedim kashishga.

– Xayrli tun, – dedi u.

### **Uchinchi bob**

Men dam olib qaytganimda, biz hamon o‘sha-o‘sha shaharda turardik. Tevarak-atrofdagi to‘plar ancha ko‘payib qolgandi, ilk bahor kirgandi. Dalalar ko‘m-ko‘k maysa bilan qoplangan, uzum novdalari naycha-kurtak otgandi; yo‘l yoqasidagi daraxtlar yaproqchalar chiqargan, dengiz tomondan shabada esib qolgandi. Men shaharni, tepalikni, tepalikdagi qal‘ani, ulardan ham narida tog‘larni, yon bag‘irlari olachalpoq ko‘kargan qo‘ng‘ir tog‘larni ko‘rdim. Shahar ichida to‘plar oldingidan ko‘proq edi, bir qancha yangi gospitallar ochilgan, ko‘chalarda inglizlar, ahyon-ahyonda ingliz xotinlar ham uchrab qolardi; to‘p otishmasidan yana birmuncha uylar vayron bo‘lgandi. Kun iliq edi, ko‘klam hidi esardi, men devorga quyosh nuri tushib turgan, oftobda isigan qator daraxtzor ko‘chadan o‘tib bordim va biz hamon o‘sha o‘zimizning uyda turganligimizni, shuncha vaqt o‘tsa-da, hamma narsa qanday bo‘lsa shunday qolganligini ko‘rdim. Eshik ochiq edi, devor oldidagi «eshik»da o‘zini oftobga solib bir soldat o‘tiribdi, sanitar mashina uyning biqinidagi eshikda mahtal turardi, eshikdan ichkariga qadam qo‘yishim bilan dimog‘imga nam g‘isht bilan kasalxona hidi uril-

di. Faqat hozir bahor kirgan, boshqa hamma narsa o'z eski holicha qolgandi. Men katta uyning eshigidan qarab, stol yonida mayor o'tirganini, deraza ochilib, uy ichiga oftob tushib turganini ko'rdim. U meni ko'rmasdi, men esa avval unga ko'rinishimni ham yoki oldin yuqoriga chiqib, yuvinib-taranib olishimni ham bilmasdim. Men avval yuqoriga chiqa qolay deb o'yladim.

Men leytenant Rinaldi bilan turadigan uy hovliga qaragan edi. Deraza lang ochib yuborilgan, mening karavotimga ko'rpa to'shab qo'yilgan, yumush-yaroqlarim esa devorda osig'liq turardi, gazga qarshi kiyiladigan moslama uzunchoq tunuka g'ilofda, po'lat qalpoq o'sha ilgakda ilig'ligicha qolgandi. Karavotning oyoq tomonida sandiqcham, sandiqcha ustida esa yiltiratib moylab qo'yilgan qishlik etigim turardi. Mening sakkiz qirrali, stvoli tim qora va qulay, qo'ndog'i qoramtir yong'oqdan chiroyli ishlangan avstris miltig'im ikkita karavotning o'rtasiga osib qo'yilgandi. Men uning nishonga oluvchi teleskopini sandiqchaga berkitib qo'yganimni esladim. Rinaldi, leytenant, ikkinchi karavotda uxlab yotardi. Mening qadam tovushimni eshitib, u yostiqdan boshini ko'tardi.

– Ciao<sup>1</sup>, – dedi u. – Qalay, yaxshi o'ynab keldingizmi?

– Zo'r.

Qo'l olishib ko'rishdik, keyin u meni bo'ynimdan quchoqlab, o'pdi.

– Ufl – dedim men.

– Kirlab ketibsiz, – dedi u, – yuvinib oling. Qayerlarga bordingiz, nimalar qildingiz? Bir boshdan aytib bering.

– Bormagan joyim qolmadi. Milan, Florensiya, Rim, Neapol, Villa-San-Jovanni, Messina, Taormina...

– Naq temir yo'l ma'lumotnomasining o'zi-ya. Qiziq sarguzashtlar ham bo'ldimi?

---

<sup>1</sup> Italyanча salom.

– Boʻldi.

– Qayda?

– Milano, Florenze, Koma, Napoli...

– Boʻldi-e. Eng zoʻri qaysi birida boʻldi?

– Milanda.

– Chunki birinchi uchratganingiz shu-da. Uni qayerda uchratdingiz? «Kova»dami? Qayoqqa bordinglar? Qanday boʻldi? Oqizmay-tomizmay ayting. Uxladinglarmi?

– Ha.

– Ol-a. Hozir bu yerda ham onasi oʻpmagan oyimtilalar bor. Popukdekkina, frontni shu yerga kelib koʻrib turgan qizlar.

– Qoʻying-e?

– Ishonmaysizmi? Bugun boraylik, oʻzingiz koʻrasiz. Shaharda boʻlsa olmadekkina, yosh ingliz qizlar ham bor. Men hozir miss Barkliga oshiq boʻlib yuribman. Sizni tanishtirib qoʻyaman. Men, ehtimol, miss Barkliga uylansam kerak.

– Men yuvinib, mayorga koʻrinish berishim kerak. Nima, ish yoʻqmi deyman?

– Siz ketgandan beri boshimiz sovuq urganlardan, sariqqa chalinganlardan, soʻzak boʻlganlar, atay oʻzini mayib qilganlar, oʻpkasi shamollaganlar, har turli chakmazakka yoʻliqqanlardan chiqmay qoldi. Unda-munda bitta-yarimtani qoyadan tosh uchib yiqitmasa. Bir nechta rosmana yaradorlar bor. Kelasi haftadan yana urush boshlanadi. Yaʼni, demoqchimanki, boshlanib qolsa ajabmas. Shunaqa mish-mishlar bor. Nima deysiz, miss Barkliga uylanaversammikin, albatta, urush tugagach?

– Shubha boʻlishi mumkinmas, – dedim men tosga suv toʻldirarkanman.

– Kechqurun menga oqizmay-tomizmay hikoya qilib berasiz, – dedi Rinaldi. – Hozir men miss Barklining huzuriga charaqlab chiroyli boʻlib borish uchun uxlab olishim kerak.

Men french va ko'ylagimni yechib, tosdagi muzdek suvga yuvindim. Sochiq bilan artinarkanman, atrofga razm solib chiqdim, derazaga, o'rinda ko'zlarini yumib yotgan Rinaldiga qaradim. U Amalfida tug'ilgan, men bilan tengdosh, kelishgan yigit edi. Jarroh edi, kasbiga mehr qo'ygandi, ikkovimiz qalin do'st tutingandik. Mening qarab turganimni sezib, u ko'zini ochdi.

– Pulingiz bormi?

– Bor.

– Menga ellik lir berib turing.

Men qo'limni artib, devorda ilig'lik turgan frenchimning yon cho'ntagidan hamyonni chiqardim. Rinaldi pulni olib, bukladi-da, o'rnidan qo'zg'almay shi-mining cho'ntagiga soldi. U kulimsirab qo'ydi.

– Miss Barkli meni davlatmand odam ekan deb o'ylashini xohlayman. Siz mening mehribon, sadoqatli do'stim, moliyaviy homiyimsiz.

– Olib qochdingiz-ku, – dedim men.

Kechqurun ofitserlar oshxonasida men kashish bilan yonma-yon o'tirdim, u kutilmaganda, Abrutssaga bormaganim uchun, mendan qattiq xafa bo'lib qoldi. U men to'g'rimda otasiga yozib yuborgan, borishimga hozirlik ko'rib qo'yishgan ekan. O'zim ham bormaganimdan qattiq pushaymon edim, nega bormaganim o'zimga ham qorong'i edi. Men borishga qat'iy ahd qilganim, lekin bir narsa ketidan boshqasi chiqib, o'ralashib qolganimni tushuntirishga urindim, u ham oxirida mening chindan ham boraman, deb otlanganimga ishonganday bo'lib, ko'ngli birmuncha taskin topdi. Men juda ko'p vino ichdim, undan keyin qahva ichdim, kayfim taraq, odam qanday qilib o'zi ko'ngliga tugib qo'yan ishni ko'ngildagiday qila olmay qolishini gapirdim; haqiqatan hech omading kelmaydi.

Boshqalar g'ovur-g'uvur qilib, talashib-tortishish bilan ovora ekan, biz u bilan undan-bundan so'zlashib o'tirdik. Men Abrutssaga bormoqchi edim. Lekin

men yo'llari xuddi temirday qattiq, qatqaloq, sovug'i quruq va achchiq, qori quruq va mayda, quyonlar qorda iz qoldirib ketadigan, dehqonlari qalpoqlarini qo'lga olib, sizni «don» deb ataydigan, ov baroridan keladigan yerlarga borolmadim. Shundoq joylarga bormadim-u, tutunga to'lgan qahvaxonalar, tunlari uy ichi ko'z o'ngingda chir aylanadigan, aylanishini to'xtatish uchun ko'zni devorga qadab turish kerak bo'ladigan yerlarga bordim; bunday uchib qolingan kechalarda, dunyoda shundan boshqa hech narsa yo'q deb bilasan, uyg'onishing ham juda g'alati bo'ladi, yoningda kim borligini ham bilmaysan va g'ira-shira qorong'ida dunyo ko'zingga ro'yo bo'lib ko'rinadi, ro'yo ichra o'tkir hayajonlari borday tuyuladiki, shu kechani o'zidayoq o'ylab-netib o'tirmay barini yana boshdan boshlaging keladi, shundan boshqa hech narsa yo'q deysan, hech narsa yo'q, yo'q, buni o'ylab o'tirishning hojati ham yo'q. Shunda daf'atan chuqur o'ylarga tolasan, so'ng uyqu eltadi, ba'zan ertalab uyg'onganingda, kechagi narsalar bugun yo'qolgan bo'ladi va hammasi yurakda sirqiroq og'riq uyg'otadi, barchasi aniq, ravshan bo'ladi, ba'zan palatada tortishib qolasan. Goho harqalay o'zingni yaxshi his qilasan, mehriboning, qadrdoaning borday, nonushtang va tushliging tayyorday ko'rinadi. Ba'zan hammasi ko'ngilga urib ketadi, tezroq ko'chaga chiqa qolsam deysan, ammo ertasi kuni yana shu takrorlanadi, kechang ham shunday o'tadi. Men kechalar haqida, kechasi bilan kunduzning farqi haqida, nima uchun kechasi yaxshirog'-u, kunduz kuni faqat sovuq va hamma narsa ravshan ekanligi haqida aytib bermoqchi bo'ldim, ammo uddalay olmadim, hozir ham aytib berolmayman. Buni boshingizdan kechirgan bo'lsangiz, bilasiz. U bunday ahvolga tushmagan ekan, men chindan ham Abrutssaga bormoqchi bo'lib, nega borolmay qolganligimni tushundi va biz yana do'stlashib ketdik. Biz bir-birimizga juda o'xshardik,

shunga qaramasdan butunlay boshqa-boshqa olam edik. U doimo men bilmagan narsani bilar, bilganlarini esa unutilib ham yuboraverar edi. Lekin men bu narsani o'shanda emas, ancha keyin angladim. Oshxonada uzoq o'tirib qoldik. Hamma yeguligini yeb bo'lgan, endi tortishib o'tirardilar. Biz kashish bilan jimib qoldik, shunda kapitan qichqirdi:

– Ruhoniy zerikib qoldi. Ruhoniy oyimtillalar bo'lmasa o'tirolmaydi.

– Zerikkanim yo'q, – dedi kashish.

– Ruhoniy zerikyapti. Ruhoniy urushda avstrislar yutib chiqishiga tarafdor, – dedi kapitan. Boshqalar uning og'ziga qarashdi. Ruhoniy boshini chayqab qo'ydi.

– Yo'q, – dedi u.

– Ruhoniy hujum qilishimizni istamaydi. Hujum qilishimizni istamaysiz, a, to'g'rimi?

– Yo'q, urush bo'lgandan keyin, menimcha, hujum qilishimiz kerakka o'xshaydi.

– Hujum qilishimiz kerak. Hujum qilamiz.

Ruhoniy bosh irg'adi.

– Uni tinch qo'ying, – dedi mayor. – U alomat yigit.

– Har holda bu yerda ikki qo'lini burniga tiqib o'ltirishdan boshqa chorasi yo'q, – dedi kapitan.

Hammamiz o'rnimizdan turib, tarqaldik.

### **To'rtinchi bob**

Ertalab meni qo'shni bog'dagi batareya uyg'otib yubordi. Derazadan quyosh charaqlab tushib turardi, o'rnimdan turdim. Derazadan tashqariga ko'z yugurtirdim. Yo'lkalardagi mayda shag'al ho'l, o't-o'lanlarni shudring bosgandi. Batareya ikki marotaba o'q uzdi. Har o'q uzilganda havo zirillab ketar, deraza oynalari zing'illab, pidjagimning etaklari lap-lap ko'tarilib, tushardi. To'plarning o'zi ko'rinmasdi, lekin, aftidan,

snaryadlar bizning ustimizdan uchib o'tardi. Biqiningda batareya joylashgan bo'lsa, tinchingdan, rohatingdan ayrilasan, ishqilib, eng katta va og'ir to'plar emas ekan-ku, deb o'zingga tasalli ham berib qo'lasan. Derazadan qarab turib, yo'lga chiqib borayotgan yuk mashinasining shovqinini eshitdim. Kiyinib pastga tushdim-da, oshxonada qahva ichib, so'ng garajga o'tdim.

Uzun tim tagida o'nta mashina qator tizilib turardi. Bular oldi to'mtoq, kuzovlari bahaybat, och rangga bo'yalgan, mebel tashiydigan furgonlarga o'xshash sanitar mashinalar edi. Hovlida mana shunday mashinalardan birining yonida mexaniklar o'ralashishardi. Yana uchta mashina tog'lardagi tez yordam punktlarida edi.

– Anov batareyaga ham snaryad otishyaptimi? – deb so'radim mexaniklarning biridan.

– Yo'q, signor tenente<sup>1</sup>. Uni tepalik to'sib turibdi.

– Ishlar ketyaptimi?

– Bir navi. Manavi mashina butunlay ishdan chiqqan, qolganlari hammasi yaroqli. – U ishini qo'yib jilmaydi. – Siz dam olib qaytdingizmi?

– Ha.

U qo'lini to'r ko'ylagiga artib, iljaydi.

– Dimog'ni chog' qilgandirsiz?

Uning sheriklari ham iljayishdi.

– Shundayroq, – dedim men. – U mashinaga nima bo'libdi?

– Hech narsaga yaramaydi. Sog' joyi yo'q. Hali u, hali bu.

– Hozir qayeri buzilgan?

– Porshen halqalarini almashtirish kerak.

Men ularni motori ochilgan, qismlari olinib zinachaga terib qo'yilganidan talon-torojga uchraganday o'ksik ko'ringan mashina oldida qoldirib, o'zim timga o'tib,

---

<sup>1</sup> Janob leytenant.

barcha mashinalarni birma-bir qarab chiqdim. Ular bir navi, artib, tozalab qo'yilgandi, ba'zilari hozirgina yuvilgan, boshqa birlarini bilinar-bilinmas chang bosgan edi. Men toshlar qirib, yorib yubormaganmikan deb, hamma g'ildiraklarni diqqat bilan ko'zdan kechirdim. Hammasi joyidadek edi. Ko'rinishdan men bu yerda hammasini nazorat qilib turamanmi, yo'qmi, farqsizga o'xshardi. Men, mashinalarning qanday ahvolda bo'lishi, u yoki bu qismlarni topib keltirish, tog'lardagi tez yordam punktlaridan kasal va yaradorlarni kechiktirmay ko'chirish, ularni tarqatish punktiga keltirish va hujjatlarda ko'rsatilgan gospitalarga joylashtirish ko'p jihatlardan menga bog'liq, deb kekkayib yurarkanman. Lekin, aftidan, mening bu yerda bor-yo'qligimning hech qanday ahamiyati yo'q edi.

– Kerakli qismlarni olishda qiynalmadinglarmi? – so'radim katta mexanikdan.

– Yo'q.

– Yonilg'i ombori hozir qayerda?

– O'sha, o'z joyida.

– Juda soz, – dedim men va uyga qaytib ofitserlar oshxonasida yana bir stakan qahva ichdim. Qahva och binafsha rangli, quyulgan sut qo'shilganidan shirin edi. Tashqarida ko'klamning ertalabki alomat havosi edi. Kun issiq bo'lishidan darak berganday dimoqqa yengil hovur urildi. Shu kuni men tog'lardagi postlarni aylanib, uyga kech kirganda qaytdim.

Men yo'qligimda ishlar birmuncha o'nglanib ketganday ko'rinardi. Qulog'imga tezda hujumga o'tsak ajabmas, degan gaplar chalindi. Biz xizmat ko'rsatadigan diviziya daryoning yuqori tomonlarida hujum qilishi belgilangan edi, shuning uchun mayor menga postlar hujum paytiga tayyor tursin, deb tayinladi. Hujum qiluvchi qismlar daraning yuqorirog'ida daryodan kechib, tog' etaklari bo'ylab yoyilishi kerak edi. Mashinalar turadigan postlar iloji boricha daryoga



yaqin bo'lishi, panada joylashishi shart edi. Joylarni, albatta, piyoda qismlar ko'rsatishi kerak bo'lib, rejani esa biz ishlab chiqishimiz ko'zda tutilardi. Bu biz ham harbiy faoliyat olib borayotganimizni ko'rsatuvchi xo'ja ko'rsinga qilinadigan tadbirlardan edi.

Hamma yog'im chang-chung, loyga botib qaytdim, yuvinib olish uchun xonamga ko'tarildim. Rinaldi Xyugoning ingliz tili grammatikasini qo'lida tutib, karavotda o'tirgan ekan. U boshdan-oyoq kiyingan – oyog'ida qora tuffi, sochi yaltirar edi.

– Tasanno, – dedi u meni ko'rib. – Siz men bilan birga miss Barklining oldiga mehmonga borasiz.

– Yo'q.

– Ha. Siz borasiz, chunki men buni sizdan o'tinyapman, yana bir gap, unga yoqishga harakat qiling.

– Hay, mayli. Sal odambashara bo'lib olay unda.

– Yuvining-da, shundoq boravering.

Men yuvindim, sochimni taradim, yo'lga otlidik.

– Shoshmang, – dedi Rinaldi, – ozgina ichib olsak-mikin deyman, – u sandiqchasini ochib, ichidan shisha oldi.

– Faqat strega ichmaymiz, – dedim men.

– Yo'q. Grappa.

– Mayli.

U ikki stakanga quydi va biz ko'rsatkich barmoqlarimizni chiqarib, urishtirdik. Grappa juda ham o'tkir edi.

– Yana bittadanmi?

– Mayli, – dedim men. Grappaning ikkinchi stakanini ham ichib oldik. Rinaldi shishani olib qo'ydi, biz pastga tushdik. Shahardan keta turib isib ketdik, lekin quyosh botib bormoqda edi, o'zimizni yengil his qilardik. Ingliz gospitali urush arafasida allaqanday bir nemis qurgan kattakon villada joylashgandi. Miss Barkli bog'da ekan. Uning yonida yana bitta hamshira bor edi. Biz daraxtlar orqasidan ularning oq kiyimlari-

ni koʻrdig-u, toʻgʻri oldilariga boraverdik. Rinaldi harbiycha salom berdi. Men ham shunday qildim, lekin oʻzimni bosiqroq tutdim.

– Salom, – dedi miss Barkli. – Siz, italiyalik emassiz, shekilli?

– Ha.

Rinaldi boshqa hamshira bilan gaplashayotgan edi. Ular hihilashdi.

– Italiya armiyasida xizmat qilish – gʻalati-ya.

– Buni armiya demasa ham boʻladi. Bu sanitar otryadi, xolos.

– Baribir gʻalati tuyuladi. Nega bunday qildingiz?

– Bilmadim, – dedim men. – Soʻz bilan anglatib boʻlmaydigan narsalar bor.

– Rostdan-a? Menga boʻlsa, bunaqa narsalar yoʻq, deb oʻrgatishgan.

– Xoʻp qilishgan ekan.

– Albatta, shu yoʻsinda gaplashishimiz kerakmi?

– Yoʻq, – dedim men.

– Xudoga shukr.

– Qoʻlingizdagi qanaqa aso? – soʻradim men.

Miss Barkli sanamarastaday qiz edi. Uning egnidagi men hamshira kiyimi deb oʻylagan narsa oq koʻylak boʻlib chiqdi, sochlari oq sargʻishdan kelgan, badani qizgʻimtir, tilla rang, koʻzlari nim koʻk tus. U menga juda ham chiroyli boʻlib koʻrindi. Uning qoʻlida oʻyinchoq tayoqchaga oʻxshash ingichka rotang aso bor edi.

– Bu – bir ofitserniki, u oʻtgan yili halok boʻldi.

– Kechiring...

– U juda ham ajoyib edi. Men unga turmushga chiqadigan edim, uni Sommda oʻldirishdi.

– Toza qirgʻinbarot boʻlgan unda.

– Siz u yerda boʻlganmisiz?

– Yoʻq.

– Menga aytib berishgandi, – dedi u. – Bu yerda urush unchalik emas, deyishadi. Menga shu tayoq-

chani jo'natishdi. Onasi yuboribdi. Tayoqchani boshqa narsalari bilan birga qaytarishgan ekan.

– Unashganlaringizga ancha bo'lganmidi?

– Sakkiz yil. Birga katta bo'lgandik.

– Nega unga oldinroq tegmadingiz?

– O'zim ham bilmayman, – dedi u. – Ahmoqlik.

Unga oldinroq tegsam bo'laverardi. Lekin men unga jabr qilamanmi, deb qo'rqdim.

– Tushundim.

– Siz hech sevganmisiz?

– Yo'q, – dedim men.

Biz «eshak»ka o'tirdik va men unga qaradim.

– Sochingiz chiroyli ekan, – dedim men.

– Sizga yoqdimi?

– Juda.

– U o'lganda kesib tashlamoqchi bo'luvdim.

– Qo'ying-e.

– Uning xotirasiga shunday qilmoqchiydim. Men bunday narsalarga ahamiyat bermasdim; agar u istasa, men undan hech narsamni ayamasdim. Agar sal fahmiga yetsaydim, u istagan narsasiga erisha olardi. Men unga turmushga chiqqan bo'lardim yoki turmushga chiqmay ham ko'nglini olardim. Endi men bularning barini tushunaman. Lekin o'shanda u urushga ketadigan edi, men esa hech narsani tushunmasdim, farosatim yetmasdi.

Men indamay quloq solib turdim.

– Men u paytda umuman hech narsaga tushunmasdim. Men shunday qilsam, unga yomon bo'ladi, deb o'ylardim. Men u bunga bardosh berib ketolmaydi, derdim. Keyin uni o'ldirishdi, endi hammasi tamom bo'ldi.

– Kim bilsin.

– Ha, ha, – dedi u. – Endi hammasi tugadi.

Biz boshqa hamshira bilan gaplashayotgan Rinaldiga qaradik.

- Uning oti nima?
- Fergyson. Ellen Fergyson. Sizning do‘stingiz, vrach, shundaymi?
- Ha. U juda ham yaxshi vrach.
- Qanday yaxshi. Front yaqinida yaxshi vrachlar kamdan-kam uchraydi. Bu front yaqini-ku axir, shunday emasmi?
- Albatta.
- Ahmoqona front, – dedi u. – Lekin bu yer juda chiroyli ekan. Nima, hujum bo‘larmishmi?
- Ha.
- Rosa ishimiz ko‘payarkan-da. Hozir hech qanday ish yo‘q.
- Siz anchadan beri hamshira bo‘lib ishlaysizmi?
- O‘n beshinchi yilning oxiridan beri. U ketishi bilanoq men ham ketdim. U men ishlaydigan gospitalga tushadi, deb o‘ylaymanmi tentak bo‘lmasam. Qilich zarbidan yarador bo‘lib, boshi doka bilan o‘ralgan bo‘ladi, deb yuribman. Yoki yelkasini o‘q teshib o‘tadi, debman. Shunga o‘xshash romantik xayollarda yurardim.
- Eng romantik front shu yerda, – dedim men.
- Ha, – dedi u. – Odamlar urush Fransiyada qandoq bo‘lishini tasavvur ham qilolmaydilar. Agar tasavvur qilganlarida, bu uzoq davom etmagan bo‘lardi. U qilich zarbidan yaralangani yo‘q. U parcha-parcha bo‘lib ketdi.
- Men indamadim.
- Siz bu uzoq davom etadi, deb o‘ylaysizmi?
- Yo‘q.
- Oxiri nima bo‘ladi?
- Biron yerda chirt uziladi-ketadi.
- Biz uzilamiz. Biz Fransiyada uzilamiz. Sommdagiga o‘xshash qilg‘ilikni qilib qo‘yib ham uzilmay bo‘ladimi?
- Bu yerda uzilmaydi, – dedim men.

- Nahotki?
- Ha. Bultur yoz ishlar yomon bo'lmadi.
- Uzilishi mumkin, – dedi u. – Hamma yoqda uzilishi mumkin.
- Nemislarda ham.
- Yo'q, – dedi u. – Undoq emas.
- Biz Rinaldi bilan missis Fergysonning oldiga bordik.
- Siz Italiyani sevasizmi? – deb so'rardi miss Fergysondan Rinaldi inglizchalab.
- Tuzuk, yomon emas.
- Tushunmadim. – Rinaldi boshini chayqab qo'ydi.
- Abbastanza bene<sup>1</sup>, – tilmochlik qildim men. U boshini chayqadi.
- Bu yaxshi emas. Siz Angliyani sevasizmi?
- Unchamas. Bilasizmi, men shotlandiyalikman. Rinaldi menga savol nazari bilan qaradi.
- U shotlandiyalik, shuning uchun Angliyadan ko'proq Shotlandiyani sevadi, – dedim men italyanchalab.
- Ammo Shotlandiya – axir Angliya-ku.
- Men uning so'zlarini miss Fergyusonga tarjima qilib berdim.
- Pasencore<sup>2</sup>, – dedi miss Fergyson.
- Bo'lganicha yo'q?
- Va hech qachon bo'lmaydi. Biz inglizlarni yoqtirmaymiz.
- Inglizlarni yomon ko'rasiz? Miss Barklini yomon ko'rasizmi?
- E, bu butunlay boshqa gap. Bunday yalang'och tushunish yaramaydi.
- Biroz o'tgach, biz xayrlashdik. Yo'l-yo'lakay Rinaldi dedi:
- Siz miss Barkliga mendan ko'ra ko'proq yoqib qoldingiz. Bu kunday ravshan. Lekin anov shotlandiyalik qiz ham yoqimtoygina ekan.

<sup>1</sup> Yomon emas (*ital.*).

<sup>2</sup> Bo'lganicha yo'q (*frans.*).

– Juda ham, – dedim men. – Men unga tuzukroq qaramagan ekanman. U sizga yoqdimi?

– Yo‘q, – dedi Rinaldi.

### **Beshinchi bob**

Ertasi kuni men yana miss Barklining oldiga bordim. Bog‘da u ko‘rinmadi, shuning uchun men sanitar mashinalar kelib-ketib turgan villa yonidagi eshikka yaqinlashdim. Ichkariga kirib, gospitalning katta hamshirasini ko‘rib qoldim. U menga, miss Barkli navbatchilik qilyapti, dedi.

– Urush, bilasiz-ku.

Men, bilaman, dedim.

– Siz italyan armiyasida xizmat qilib yurgan o‘sha amerikalikmisiz? – deb so‘radi u.

– Ha, mem.

– Nega unday qildingiz? Nega o‘zimizga o‘tmadingiz?

– O‘zim ham bilmayman, – dedim men. – Endi sizlarga o‘tsam bo‘larmikin?

– Endi o‘tib bo‘lmas deyman. Ayting-chi, nega italyan armiyasiga kirdingiz?

– Men Italiyada yashaganman, – dedim men, – men italyanacha gaplashaman.

– O! – dedi u. – Men italyanchani o‘rganyapman. Juda chiroyli til.

– Uni ikki haftada o‘rganib olsa bo‘ladi, deyishadi.

– Yo‘g‘-e, men ikki haftada o‘rganolmasman. Men bir necha oylardan beri shug‘ullanaman. Agar uni ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, soat yettidan keyin kela qoling. Ungacha ishini topshirib bo‘ladi. Lekin o‘zingiz bilan qalang‘i-qasang‘i italyanlarni sudrab yurmang.

– Tili chiroyli bo‘lishiga qaramasdan-a?

– Ha. Hatto chiroyli mundirlariga ham qaramasdan...

– Ko‘rishguncha, – dedim men.

– Arivederci, tenente<sup>1</sup>.

– Arivederci. – Men harbiycha qo‘l silkib, chiqib ketdim. Chet elliklarga italyanchasiga harbiy salom berib, odam o‘zini g‘oyat o‘ng‘aysiz sezadi. Italyancha harbiy salom chetga chiqarishga mo‘ljallanmagan ekan, shekilli.

Kun issiq edi. Men ertalab Plava tomondagi ko‘prik oldi istehkomiga borib keldim. Hujum shu yerdan boshlanishi kerak edi. O‘tgan yili narigi qirg‘oqdan deyarli yurib bo‘lmasdi, chunki dovondan ponton ko‘prik-kacha yolg‘iz birgina yo‘l bo‘lib, u ham bir chaqirim masofada pulemyotlar va to‘plardan o‘qqa tutilib turardi. Bundan tashqari hujumni ta‘minlab beruvchi barcha transport vositalari uchun torlik qilganidan, avstrislar bizning toza abjag‘imizni chiqarishlari mumkin edi. Ammo italyanlar daryodan o‘tib, qirg‘oq bo‘ylab ikkala tomoniga shunchalik siljib borishgan ediki, endi ular daryoning Avstriyaga tegishli qirg‘og‘ida bir yarim chaqirimcha maydonni egallab olishgandi. Ular qo‘lga kiritgan eng katta ustunlik shu edi, avstrislar esa endi ularning bu yerda mustahkamlanib olishlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak edi. O‘ylaymanki, ikkala tomon ham o‘zaro dilozorlik qilishdan tiyilganday, daryoning quyi tomonidagi boshqa bir ko‘prik oldi istehkomi esa hamon avstrislar qo‘lida edi. Avstriya xandaqlari quyiyoqda – tog‘ning etagida, italyanlar turgan joydan bir necha qadam narida edi. Avval qirg‘oqda shaharcha bor edi, lekin undan nom-nishon qolmadi. Bular-dan nariyoqda temir yo‘l satansiyasining vayronalari hamda ochiq yalanglikda bo‘lganligidan tuzatib-netib bo‘lmaydigan buzilgan ko‘prik bor edi.

Men tor yo‘ldan daryoga tomon tushib bordim-da, mashinani tepalik etagidagi tez yordam punktida qoldirib, tog‘ pana qilib turgan ponton ko‘prikdan o‘tdim va vayron bo‘lgan shahar o‘rnida hamda tog‘

---

<sup>1</sup> Ko‘rishguncha, leytenant (*ital.*).

yonbag'rida joylashgan xandaqlarni aylanib chiqdim. Hamma blindajlarga kirib olgan edi. Men artilleriyadan o't ochib yordam so'rashga yoki aloqa uzilib qolganligini ma'lum qilishga tayyorlab qo'yilgan raketalarni ko'rdim. Hamma yoq jimjit, hamma yoq iflos, kun esa issiq edi. Men sim to'siqlardan avstriya pozitsiyalariga qaradim. Jon asari ko'rinmasdi. Men tanish kapitan bilan blindajlardan birida ichdim-da, ko'prikdan o'tib orqaga qaytdim.

Tog'ning beli osha yangi keng yo'l buralib-buralib ko'prikka borib tushardi. Mana shu yo'l bitishi bilanoq hujum boshlanishi kerak edi. U o'rmon ichidan buralib o'tardi. Reja quyidagicha edi: oldingi qatorga hamma narsalar yangi yo'ldan olib kelinadi; qolgan bo'sh yuk mashinalari, aravalar, yaradorlarni tashuvchi sanitar mashinalari, xullas, orqaga ketadigan barcha transport eski tor yo'ldan qaytishi kerak edi. Tez yordam punkti Avstriya tomonidagi tepalik tagida joylashgan bo'lib, yaradorlarni zambillarda ponton ko'prik orqali olib o'tilardi. Hujum paytida ham shu tartibni saqlash ko'zda tutilmoqda edi. Nazarimda, yo'lning oxirgi qismidan bir chaqirimdan oshiqroq masofa qiyaalik tugagan joydan boshlab avstriyaliklar artilleriyasi tomonidan o'qqa tutilishi mumkin edi. Buning oqibati juda xunuk bo'lardi. Lekin men yo'lning mana shu so'nggi xatarli qismidan o'tilgach, yaradorlarni ponton ko'prikdan bu tomonga olib o'tilguncha mashinalarni qo'yib turgani pana joy topdim. Men yangi yo'ldan yurmoqchi ham bo'ldim-u, lekin hali u tugallanmagan edi. Yo'l keng bo'lib, tarxi va ko'rinishi yaxshi hisobga olingan, o'rmon bilan qoplangan tog' yonbag'rining ochiq joylarida uning qayrilib ketgan joylari juda ham chiroyli ko'rinardi. Tormozlari kuchli bo'lgan mashinalar pastga qiynalmay tushishadi, bundan tashqari har holda axir ular pastga bo'sh ketishadi-ku. Men tor yo'l bilan orqaga qaytdim.



Ikki karabiner mashinani to'xtatishdi. Yo'ning old tomonida snaryad portladi, biz to'xtab turgan vaqt ichida yana uchasi portladi. Bular 77 millimetrlilik snaryadlar bo'lib, ular uchib borayotganda shuvul-lab hushtak chalib o'tar, keyin birdan qisqa portlash eshitilar, alanga ko'tarilib, yo'l ko'kimtir dud bilan qoplanardi. Karabinerlar yo'lga tushishga ishora qilishdi. Snaryad portlagan joylarga yaqinlashganda, men o'yiqli chuqurchalarni aylanib o'tdim, dimog'im-ga portlovchi moddaning isi va ontarib tashlangan tuproq, shag'al va kukun bo'lib ketgan chaqmoqtosh-ning hidi urildi. Men Goritsiyaga, o'zimizning villaga qaytib keldim va boya aytganimday, miss Barklining oldiga jo'nadim, u esa navbatchilik qilayotgan ekan.

Tushlik ovqatni apil-tapil yeb bo'lib, yana to'g'ri ingliz gospitali joylashgan villaga qarab ketdim. Villa juda ham katta va ko'rkam edi, uning oldida go'zal daraxtlar o'sib turardi. Miss Barkli bog'dagi o'rindi-qda o'tirgan ekan. Yonida miss Fergyson bor edi. Ular meni quvonib qarshi olishdi, ko'p o'tmay miss Fergy-son uzr aytib, o'rnidan turdi.

– Sizlarni yolg'iz qoldiraman, – dedi u. – Men ortiq-chaga o'xshayman.

– Ketmang, Ellen, – dedi miss Barkli.

– Yo'q, endi keta qolay. Men xat yozishim kerak edi.

– Xayrli tun, – dedim men.

– Xayrli tun, mister Genri.

– Senzorga ozor beradigan gaplarni yozib o'tirmang yana.

– Xotirjam bo'ling. Men faqat qanday chiroyli yerda turganligimiz, italyanlarning hammasi nechog'lik botir ekanliklari haqidagina yozaman.

– Shundoq yozishda davom eting, orden olma-sangiz, men kafil.

– Xursand bo'lardim. Xayrli tun, Ketrin.

– Men tezda oldingizga boraman, – dedi miss Barkli.

- Miss Fergyson qorong'ilikka singib ketdi.
- Yaxshi qiz ekan, - dedim men.
  - O, albatta. Juda ham yaxshi. U hamshira.
  - Nima, siz hamshiramasmimiz?
  - O, yo'q, men VAD<sup>1</sup> lardanman. Biz tinim bilmay ishlaganimiz-ishlagan, lekin bizga ishonishmaydi.
  - Nega endi?
  - Ish yo'g'ida ishonishmaydi, ish ko'paysa, ishonishadi.
  - Nima farqi bor?
  - Hamshira doktorday odam. Uzoq o'qish kerak. VAD lar esa qisqa muddatli kurslarni tamomlab chiqadilar.
  - Tushundim.
  - Italyanlar ayollarni frontga bunchalar yaqinlashtirishga qarshilar. Shu sababdan biz alohida tartibga bo'ysunamiz. Biz hech qayoqqa chiqmaymiz.
  - Lekin men kelib tursam bo'ladimi?
  - Ha, albatta. Bu yer monastir emas.
  - Qo'ying, urushni o'ylamaylik.
  - Bu oson emas. Bunday joyda urushni o'ylamasdan turish qiyin.
  - Baribir, unutaylik.
  - Yaxshi.

Biz qorong'ida bir-birimizga qarab turardik. U menga juda ham chiroyli bo'lib ko'rindi va men uning qo'lidan ushladim. U qo'lini tortib olmadi va men intilib, uning belidan quchdim.

- Kerakmas, - dedi u. Men qo'yib yubormadim.
- Nimaga?
- Kerakmas.
- Kerak, - dedim men. - Shunday yaxshi.

Men qorong'ilikda uni o'pay deb engashdim, shunda yuzimga qamchi tegib, kuydirib o'tganday bo'ldi.

---

<sup>1</sup> Voluntary Aid Department (*ingl.*) - harakatdagi armiyaga xizmat ko'rsatuvchi ayollarning ko'ngilli korpusi.

U yuzimga qattiq urgandi. Qo'li ko'zim aralash qan-sharimga tushdi. Ko'zim achishib, yoshlandi.

– Meni kechiring, – dedi u.

– O'zimni bir qadar ustunlikka ega bo'lganday sezdim. Siz to'g'ri qildingiz.

– Yo'q, siz meni, iltimos, kechiring, – dedi u. – Dam olish kuni kechqurun hamshira ofitser bilan shunday qilib o'tirsa-ya, deb xafa bo'lib ketdim. Qattiq tegadi, deb o'ylamovdim. Og'riyaptimi?

U qorong'ida menga qarab turardi. Men ach-chiqlangan bo'lsam ham, lekin shaxmat o'yinidagidek, hammasini aniq oldindan ko'rib turganimdan o'zim-ga-o'zim ishonardim.

– Siz juda ham to'g'ri qildingiz, – dedim men. – Sizdan sirayam xafa emasman.

– Bechora!

– Bilasizmi, men juda ham bema'ni turmush ke-chiryapman. Hatto inglizcha gaplashishga ham im-koniyat yo'q. Buning ustiga siz judayam chiroylisiz.

Men unga tikilib turardim.

– Nimaga bularni gapirib o'tiribsiz. Men axir ke-chirim so'radim-ku. Biz yarashdik.

– Ha, – dedim. – Biz urushni ham unutdik.

U kulib yubordi. Uning kulgisini birinchi marta eshitib turibman. Ko'zimni uning yuzidan uzmasdim.

– Siz yaxshisiz, – dedi u.

– Undaymas.

– Ha. Siz mehribonsiz. Istasangiz, sizni o'zim o'pib qo'yaman?

Men uning ko'zlariga tikilib, yana belidan quch-dimda, o'pdim. Men uni qattiq o'pib, azot bag'ringa tortdim; lablarini ochishga harakat qildim; u lablarini qattiq qimtib olgandi. Men hamon achchiqdan tush-magandim, uni bag'ringa kuch bilan tortganimda, u to'sindan titrab ketdi. Men uni qo'yib yubormay, mah-kam qisib turardim, uning yuragi qanday urayotgani-

ni eshitdim, shunda uning lablari ochildi va boshini qo'linga tashladi, u yelkamga bosh qo'yib yig'lab yubordi.

– Jonim! – dedi. – Siz meni hech qachon xafa qilmaysiz, to'g'rimi?

«Nima deyapti o'zi», deb o'yladim. Men uning sochlarini silab, yelkasiga qoqib qo'ydim. U yig'lardi.

– Xafa qilmaysiz-a? – u ko'zlarini menga ko'tardi. – Chunki bizning hayotimiz juda ham g'alati bo'ladi.

Sal o'tgach, men uni villaning eshigigacha kuzatdim, u kirib ketdi, men uyga jo'nadim. Uyga kelib, yuqoriga ko'tarildim. Rinaldi o'rinda yotgan ekan. U menga qaradi.

– Shunday qilib, miss Barkli bilan ishlaringiz olg'a jilyaptimi?

– Biz u bilan do'stmiz.

– Siz hozir ovdagi itga o'xshaysiz.

Tushunmadim.

– Kimga?

U tushuntirdi.

– O'zingiz, – dedim men, – itga o'xshab, xuddi...

– To'xtang, – dedi u. – Sal bo'lmasa bir-birimizni xo'p haqorat qiladiganga o'xshaymiz. – U kulib yubordi.

– Xayrli tun, – dedim.

– Xayrli tun, ishratparast.

Men yostiqlik bilan uning shamini urib tushirdim-da, qorong'ida o'ringa yotdim. Rinaldi shamni olib yoqdi va o'qishda davom etdi.

## **Oltinchi bob**

Ikki kungacha postlarni aylanib yurdim. Uyga qaytganimda vaqt allamahol bo'lib qolgandi, miss Barkli bilan faqat ertasi kunigina uchrashdim. U bog'da ko'rinmadi, shuning uchun ham men gospitalning idorasida o'tirib, qachon pastga tusharkin deb, kut-

dim. Idora joylashgan xonaning devori bo'ylab rangdor yog'och postamentlarda juda ko'p marmar byustlar turardi. Idora oldidagi peshayvon ham byustlarga to'la edi. Marmar haykalchalarning umumiy xususiyatlariga ko'ra ular go'yo bir odamga ishlanganday ko'rinardi. Men haykal ko'rsam, yuragim siqiladi; bronzadan ishlangan bo'lsa harnov-a, lekin marmar byustlar doimo mozoristonni eslatadi. Aytganday, bitta chiroyli qabriston bor – Piza shahrida. Bo'lmag'ur marmar haykallar hammadan ham Genuyada ko'p. Bu villaning sobiq xo'jayini qandaydir nemis boylaridan ekan, byustlarga uning xiylagina puli ketgandir. Qiziq, bularni kim ishlagan-u, ularga qancha haq to'langan. Men bular nasab shajarasiga tegishli odamlarni yoki boshqa bir kishilarni ekanligini aniqlashga urindim; lekin ularning hammasining ko'rinishi qadimiy bir xil tusda edi. Ularga qarab turib, hech narsa anglab bo'lmadi.

Men stulda kepkamni ushlab o'tirgan edim. Biz hatto Goritsiyada ham po'lat kaskalar kiyib yurishimiz kerak edi, lekin aholisi hali evakuatsiya qilinmagan shaharda kaska kiyib yurish o'ng'aysiz va farosatsiz odamning qalbaki bezagiday bo'lib ko'rinardi. Men o'zimnikini postlarga borganimda kiyib yurardim, bundan tashqari mening ingliz protivogazim ham bo'lib, u paytda buni protivogaz niqobi, deb yuritishardi. Biz endi-endi ola boshlagan edik. Ular chindan ham niqobga o'xshashib ketardi. Vrachlar va sanitar qismlarning ofitserlaridan tortib, hammamiz avtomat pistolet taqib yurishimiz zarur edi. Men stul suyanchig'iga suyansam, pistolet g'ashimni keltirib turardi. Pistoletsiz yurgan odam qamoqqa olinishi kerak edi. Rinaldi pistolet o'rniga g'ilofni hojatxona qog'oz bilan to'ldirib yurardi. Men o'zimnikini rostakam taqib yurar, to undan otishga to'g'ri kelguncha, o'zimni xuddi qurollanganday his qilardim. Bu «astra» tizimidagi 7,65 kalibrlik, tepkisi bosilganda, kalta stvoli dirillab

turganidan azbaroyi otib nishonga teggizib bo'lmaydigan to'pponcha edi. Otishni mashq qilganlarimda men nishondan pastroqni mo'ljalga olardim-da, yaramas stvolning qaltillashini to'xtatishga urinardim, nihoyat, men yigirma qadamdan turib, nishonga sal yaqin uradigan bo'ldim, shunda yonda pistolet ko'tarib yurish umuman bo'lmag'ur bir narsa ekanligini angladim va men unga butunlay e'tibor bermay qo'ydim, endi uning orqamda lopillab turishi bilan ishim yo'q edi, faqat inglizlar yoki amerikaliklar bilan uchrashib qolingan kezlarda biroz o'ng'aysizlanar edim, xolos. Mana hozir bo'lsa, men kursida o'tirar, navbatchi idora xizmatchisi esa kontora orqasidan menga o'qrayib qarab qo'yar, men esam miss Barkli qachon chiqarkin deb, marmar polni, marmar haykallarni va devorlarga ishlangan suratlarini tomosha qilib o'tirardim. Devordagi suratlar did bilan ishlangandi. Bunday suratlar bo'yoqlari yorilib, ko'chib tusha boshlaganda, ayniqsa, chiroyliroq bo'lib ko'rinadi.

Men Ketrin Barkli peshayvonga kirganini ko'rib, o'rnimdan turdim. Qarshimda yurib kelayotganda unchalik bo'ydor bo'lib ko'rinmadi, lekin g'oyat dilbar edi.

– Xayrli oqshom, mister Genri, – dedi u.

– Xayrli oqshom, – dedim men. Kontora ortidagi idora xizmatchisi qulog'ini ding qilib turardi.

– Shu yerda o'tiramizmi yo bog'ga chiqamizmi?

– Yuring chiqaylik. Bog' salqinroq.

Men uning izidan eshikka yurdim, idora xizmatchisi ko'zi bilan ta'qib etib turardi. Qumtosh yotqizilgan yo'lkadan ketayotganimizda, qiz so'radi:

– Qayerlarda qolib ketdingiz?

– Postlarni tekshirib chiqdim.

– Loaqal ikki enli xat yozib, aytib qo'ysangiz bo'lmasmidi?

– Yo'q, – dedim men. – O'ng kelmadi. Men shu kuniyoq qaytaman devdim.

– Baribir menga bir og‘iz aytib qo‘yish kerak edi, jonim.

Biz xiyobondan burilib, daraxtlar ostidagi yo‘lkadan yurdik. Men uning qo‘lidan tutdim-da, to‘xtab uni o‘pdim.

– Biron yerga borsak bo‘lmaydimi?

– Yo‘q, – dedi u. – Biz faqat sayr qilishimiz mumkin. Siz juda uzoq yo‘q bo‘lib ketdingiz.

– Bugun uchinchi kun. Lekin mana, keldim-ku. U menga qaradi.

– Siz meni yaxshi ko‘rasiz-a?

– Ha.

– Rostdan ham axir siz meni yaxshi ko‘raman, degan edingiz, a?

– Ha, – yolg‘onladim men. – Men sizni sevaman. Men unga bunday deb aytmagandim.

– Meni Ketrin deb chaqirasiz-a?

– Ketrin.

Biz yana ozroq yurib, yana daraxt tagida to‘xtadik.

– Bunday deng-chi: kechasi men Ketrin oldiga qaytdim.

– Kechasi men Ketrin oldiga qaytdim.

– Jonim, siz axir qaytib keldingiz, to‘g‘rimi?

– Ha.

– Sizni shunday sevamanki, men shunday yomon ahvolga tushdimki... Endi boshqa ketmaysiz-a?

– Yo‘q. Men har doim qaytib kelaman.

– Sizni shunchalar sevaman. Qo‘lingizni mana bu yerga qo‘ying.

– U doim shu yerda turibdi.

Men uni o‘zinga qaratib oldim, o‘pganimda yuzi menga ko‘rinib turardi, ko‘zlarini yumub olgandi. Uning yumuq ko‘zlaridan o‘pdim. Men uning tabiatida biroz devonazorlik bordir, deb o‘yladim. Ammo baribir emasmi? Men buning oqibati qanday bo‘lishini o‘ylab o‘tirmasdim. Bu har kuni kechqurun ofitserlar xarobatxonasi-

ga borishdan ko'ra ma'qulroq edi, u yerda oyimtilalar bo'yingizga osilib olishadi-da, ko'ngillari sizda ekanligini ko'rsatish uchun. Boshqa ofitserlar bilan yuqoriga chiqib-tushib turisharkan, sizning shapkangizni oldini orqaga qilib kiyib olishadi. Men Ketrin Barklini yaxshi ko'rmaganimni, yaxshi ko'rib qolish niyatim ham yo'qligini bilardim. Bu xuddi yolg'ondakam qimorday gap, faqat bunda qarta o'rnini gap bosardi. O'sha o'yinda o'zingni xuddi kulgilik uchun yoki boshqa biron narsaga o'ynayotganday qilib ko'rsatasan. Bunda ham shunday. O'yin nima badaliga o'ynalayotgani haqida bir og'iz ham gap bo'lmadi. Lekin menga baribir edi.

– Qayoqqa borsak ekan, – dedim men. Boshqa erkaklar kabi men ham uzoq tik oyoqda turib ishqibozlik qilishni yoqtirmasdim.

– Hech qayga, – dedi u. U xayolidagi olamdan yerga qaytdi.

– Shu yerda birpas o'tiraylik.

Biz yapasqi tosh o'rindiqqa o'tirdik, men Ketrin Barklining qo'lini tutdim. U o'zini quchog'imdan olib qochdi.

– Siz judayam charchadingizmi?

– Yo'q.

U yerga, maysalarga qarab turardi.

– Siz bilan noma'qul o'yin boshlab qo'ydim.

– Qanaqa o'yin?

– O'zingizni go'llikka solmang.

– Bu xayolimda ham yo'q.

– Siz ajoyibsiz, – dedi u, – shuning uchun siz iloji boricha yaxshiroq o'ynashga urinyapsiz. Lekin bu o'yin chindan ham juda yaramas o'yin.

– Siz doimo birovning fikrini o'qiysizmi?

– Doim emas. Lekin siz nima o'ylashingizni bilaman. Siz o'zingizni meni yaxshi ko'rganday qilib ko'rsatishingizning hojati yo'q. Bugunga shunchasi yetib ortadi. Endi nima haqda gaplashmoqchi edingiz?



– Lekin men sizni rostdanam sevaman.

– Qo‘ying, bekordan-bekorga bir-birimizni aldab nima qilamiz. Siz o‘z rolingizni g‘oyat do‘ndirib ado qildingiz, mana endi hammasi o‘z o‘rniga tushdi. Men axir unchalar devona emasman. Ba‘zan-ba‘zan xayolim opqochadi, lekin uzoqqa emas.

Men uning qo‘lini qisdim.

– Ketrin, azizim...

– Qanday kulgili eshityapti-ya: «Ketrin». Siz buni doimo bir xil aytmaysiz. Lekin siz juda ajoyibsiz. Siz juda oq ko‘ngilsiz, juda.

– Ruhoniy ham shunday deydi.

– Ha, siz oq ko‘ngilsiz. Siz oldimga kelib turasiz-a?

– Albatta.

– Menga sevaman deb aytishingizning hojati yo‘q. Bu hozircha tamom bo‘ldi. – U o‘rnidan turib, menga qo‘lini uzatdi. – Xayrli tun.

Uni o‘pgim keldi.

– Yo‘q, – dedi u. – Qattiq charchadim.

– Baribir meni o‘pib qo‘ying, – dedim.

– Qattiq charchadim, jonim.

– O‘pib qo‘ying meni.

– Juda ham kerakmi?

– Juda.

Biz o‘pishdik, lekin u to‘satdan yulqinib chiqdi.

– Qo‘ying. Xayrli tun, jonim.

Biz eshikkacha bordik va men uning ostona hatlab peshayvondan yurib borayotganini ko‘rib turdim. Uning harakatlarini kuzatib zavqlanardim. U dahlizga o‘tib ko‘zdan yo‘qoldi. Men uyga ketdim. Juda dim kecha edi, yuqorida, tog‘larda hamon to‘plar otilmoqdaydi. San-Gabriyele tomonda yolqinlar ko‘rinardi.

«Villa-Rossa» oldida to‘xtadim. Derazalar to‘sib qo‘yilgan, lekin ichkaridan hali shovqin eshilib turardi. Kimdir ashula aytardi. Yotoqqa ko‘tarildim. Yechinib turganimda, Rinaldi kirib keldi.

– E-ha, – dedi u. – Ish chatoqqa o‘xshaydi-ku. Bebi noxush ko‘rinadi.

– Qayerda edingiz?

– «Villa-Rossa»da. Yurakka malham-da, bu, bebi. Biz xor bo‘lib ashula aytdik. O‘zingiz qayoqda edingiz?

– Inglizlarning oldiga boruvdim.

– Xudoga shukrki, men inglizlardan qutulganman.

## Yettinchi bob

Ertasiga tog‘dagi birinchi postdan qayta turib, men mashinani imsstemento<sup>1</sup> oldida to‘xtatdim, bu yerda yarador va kasallar hujjatlariga ko‘ra joylarga tarqatilar va hujjatga qaysi gospitalga yuborilgani haqida yozib qo‘yilardi. Men mashinani o‘zim haydab borgan edim, ruldani tushib o‘tirmadim, hujjatlarni shofyor ko‘rsatgani olib ketdi. Kun issiq edi, osmon artib qo‘yilganday tiniq va ko‘m-ko‘k, yo‘l esa tuprog‘i o‘ynagan, oppoq edi. Men «fiat»ning baland o‘rindig‘ida o‘ysiz holda o‘tirardim. Yonimda yo‘ldan polk o‘tib borardi, men saflar qanday qadam tashlayotganiga qarab turardim. Odamlar holdan toygan, terga pishgan edilar. Ba‘zi birovlar po‘lat qalpoqlar kiyib olishgan, lekin ko‘pchilik ularni xaltalariga osib olgandi. Qalpoqlar ko‘plarning boshiga katta bo‘lib, deyarli quloqlarini ham bostirib tushgandi. Ofitserlarning hammasi qalpoq kiygan, lekin ularniki boshlarida o‘rnashib turardi. Bu Bazilikat brigadasining bir qismi edi. Men ularni oq-qizil yo‘l-yo‘l petlitsalaridan tanidim. Polk allaqachon o‘tib bo‘lganiga qaramasdan, yo‘ldan hamon orqada qolganlar o‘tib borishardi, bular o‘z bo‘linmalari bilan barobar borishga qurlari yetmay qolganlar edi. Ularning hammalari abgor, hammalarini ter va chang bosgandi. Ba‘zi birlari butunlay kasalga o‘xshardilar. Orqada qolganlarning oxirgisi o‘tib ketgach, yo‘lda yana bir soldat ko‘rindi. U

---

<sup>1</sup> Ko‘chirish punkti (*ital.*).

oqsoqlanib borardi. U to'xtab, yo'l chekkasiga o'tirdi. Men mashinadan tushib, uning oldiga bordim.

– Nima qildi?

U menga qarab qo'yib, o'rnidan turdi.

– Bo'ldi, ketdim.

– Nima qildi o'zi?

– Urush-da, padariga...

– Oyog'immas. Churram tushgan.

– Nega bo'lmasa yayov ketyapsiz? – so'radim men.

– Nega gospitalga yotmadingiz?

– Qo'yishmaydi. Leytenant, sen belbog'ingni atay yechib tashlagansan, deydi.

– Menga ko'rsating.

– Ko'tarilib chiqqan.

– Qaysi tomondan?

– Mana bu yerda.

Men uning qornini ushlab ko'rdim.

– Yo'taling, – dedim men.

– Yana battar bo'lmasin deyman. Hozirning o'zida ertalabgisidan ikki marta katta bo'lib ketdi.

– Mashinaga o'tiring, – dedim men. – Mening yaradorlarimning qog'ozlari tayyor bo'lgach, sizni o'zim sanitar qisimingizga eltib qo'yaman.

– U jo'rttaga qilding, deydi.

– Ular bunga tirg'ilisholmaydi, – dedim men. – Bu jarohat emas. Avval ham shunday bo'lgansiz-ku, to'g'rimi?

– Lekin men bog'ichni yo'qotib qo'ydim.

– Sizni gospitalga yotqizishadi.

– Siz bilan qolsam bo'lmaydimi, a tenente?

– Yo'q, menda sizning hujjatingiz yo'q.

Eshikda biz olib borayotgan yaradorlarning hujjatlarini ko'targan shofyor ko'rindi.

– To'rttasini bir yuz beshinchiga. Ikkitasini bir yuz o'ttiz ikkinchiga, – dedi u. – Bular narigi qirg'oqdagi gospitallar edi.

– Rulga o‘tiring, – dedim men.

Men churrasi tushgan soldat yonimizga chiqib olishiga yordam berdim.

– Siz inglizcha so‘zlay olasizmi?

– Ha.

– Bu la‘nati urush haqida nima deysiz?

– Rasvo narsa.

– Rasvo deb sekinroq aytasizmi, jin ursin. Rasvo bo‘lmasinmi yana.

– Siz Shtatlarda bo‘lganmisiz?

– Bo‘lganman. Pittsburgda. Men sizni amerikalik bo‘lsa kerak, deb o‘ylovdim.

– Nahotki, italyanchani buzib gapirayotgan bo‘lsam?

– Sizni ko‘rishim bilan amerikalik, deb o‘yladim.

– Yana bir amerikalik, – dedi shofyor churrasi tushgan soldatga qarab italyanchalab.

– Menga qarang, leytenant. Siz meni, albatta, polkka eltib tashlashingiz kerakmi?

– Ha.

– Gap shundaki, bosh vrach churram tushganligini biladi. Men yana jangga kirmaslik uchun kasalim zo‘raysin, deb bog‘ichimni yo‘qotgan edim.

– Tushundim.

– Balki siz meni boshqa biron joyga olib borib qo‘yarsiz?

– Biz frontga yaqin bo‘lganimizda, sizni birinchi tez yordam punktiga topshirgan bo‘lardim. Lekin bu yerda, front orqasida hujjatsiz yurish mumkin emas.

– Men qaytib borsam, meni operatsiya qilib, so‘ng doim jangga tashlashadi.

– Men o‘ylanib qoldim.

– Siz doim oldingi safda bo‘lishni istarmidingiz?

– Yo‘q.

– O, la‘nati! – dedi u. – Qandoq yaramas narsa bu urush.

– Quloq soling, – dedim men. – Mashinadan tushib, yiqiling-da, boshingizni momataloq qiling, men orqaga

qaytishda sizni olaman-da, gospitalga eltib tashlayman. Mashinani to'xtatib yuboring-chi, Aldo.

Biz yo'l chekkasiga o'tib, to'xtadik. Men unga tushishga yordamlashib yubordim.

– Meni mana shu yerda topasiz, leytenant, – dedi u.

– Xayr bo'lmasa, – dedim men. Biz yo'limizga ketdik va bir chaqirimcha yurgach polkni quvib o'tdik. So'ng qorlar erib, bo'tana bo'lib qolgan, ko'prikning tagidan shitob bilan oqayotgan daryodan o'tib, vodiyni kesib o'tgan yo'ldan gospitallargacha bordik va yaradorlarni topshirdik. Qaytishda rulga o'zim o'tirdim va pittsburglik soldat kutib o'tirgan joyga qichab haydadim. Biz yanada holdan toygan, harakati yanada susayib ketgan polk oldidan o'tib ketdik; keyin orqada qolganlarga duch keldik. So'ng yo'l o'rtasida sanitar aravasini ko'rdik. Ikkita sanitar churrasi tushgan soldatni ko'tarishayotgan edi. Uni qidirib kelishgandi. Meni ko'rib, u boshini chayqadi. Uning kaskasi tushib ketgan, peshanasi qonga belangan edi. Burnining usti shilinib tushgan, momataloq bo'lib yotgan yaralariga tuproq yopishgandi. Sochlari ham changga belangandi.

– Qarang, qandaqa shish-a, leytenant, – qichqirdi u. – Ammo nima ham qilib bo'lardi. Meni olib ketgani kelishibdi.

Men villaga qaytib kelganimda, soat besh bo'lgan edi, men mashinalarni yuvadigan yerda dushga tushgani bordim. Keyin yotoqda – ochiq deraza oldida yolg'iz ko'ylak-shimda o'tirib, raport tuzib chiqdim. Hujum erta o'tib indinga boshlanadigan bo'lib, men o'z mashinalarim bilan Plavaga borishim kerak edi. Men Shtatlarga allavaqtlardan beri xat yozmasdim, men yozmasa bo'lmasligini bilardim, lekin bu ishni shuncha zamonlardan beri orqaga surib kelganimdan, endi deyarli mutlaqo yozib bo'lmasdi. Yozadigan

narsaning o'zi yo'q. Men Zona di Gurerra<sup>1</sup> degan bir qancha xabarnomalar yubordim, matndan «sog'-salomat yuribman» degan so'zlardan boshqa hammasini o'chirib chiqdim. Shunday qilsa, tezroq boradi. Amerikadagilarga bunaqangi g'alati va sirli xabarnomalar juda ham yoqib tushadi, albatta. Urush bu zonada g'alati va sirli edi, lekin avstrislarga qarshi olib borilgan boshqa urushlar ichida bu eng puxta o'ylangan va yovuzroq bo'lib tuyulardi menga. Avstriya armiyasi Napoleonning va umuman o'zini Napoleon deb his qiluvchi har qanday kishining g'alaba qozonishi uchun yaratilgandi. Bizning ham Napoleonimiz bo'lganda yomon bo'lmasdi, lekin bizda faqat semiz va boqi beg'am Le Generale Cadorna bilan dutor bo'yin, echki soqol odamcha Vittorio-Emmanuele bor edi, xolos. O'ng sohildagi qo'shinlarga gersog Aosta boshliq edi. Har nechuk, ulug' sarkarda da'vosi uchun u haddan tashqari xushro'y edi, lekin tashqi ko'rinishdan u chinakam erkaklarga o'xshardi. Ko'plar uning qirol bo'lishini istardi. Uning qirol bo'ladigan savlati bor edi. U qirolning amakisi bo'lib, uchinchi armiyaga qo'mondonlik qilardi. Biz ikkinchi armiyada edik. Uchinchi armiyada bir qancha ingliz batareyalari bor edi. Milanda men shu batareyalarda xizmat qilgan ikkita to'pchi bilan tanishgandim. Ular juda ham odamshavanda yigitlar ekan, o'sha kuni vaqtixushlik bilan o'tdi. Ular davangirday-davangirday yigit bo'lishlariga qaramay, ko'p narsalarda tortinchoqlik qilar, ayni zamonada tortingan narsalarini yoqtirar ham edilar. Aslida ingliz armiyasida xizmat qilsam bo'larkan. Unda hammasi jo'ngina o'tardi. Biroq tirik qolishim dargumon edi. Sanitar qismlarda esa unday emas. To'g'ri, ingliz sanitar mashinalarining shofyorlari ham halok bo'lishardi. Lekin men halok bo'lmasligimni bilardim.

---

<sup>1</sup> Harbiy zona (*ital.*).

Bu urushda emas. Uning menga hech qanday aloqasi yo'q edi. U menga kinodagi urushdan farqsizday tuyulardi. Shunga qaramasdan men chin yurakdan uning tezroq tugashini istardim. Balki, shu bu yilning yozida tamom bo'lar. Balki, avstrislarni savalashar. Oldingi urushlarda ularni har doim savalashgan. Bu urushning nimasi bor o'zi? Hammaning og'zida fransuzlarning holi-qudrati ketib qoldi, degan gap. Rinaldi, fransuz soldatlari bosh ko'tarishibdi, qo'shinlar Parijga qarab yurayotgan emish, deb aytuvdi. Men undan keyin nima bo'ldi, deb so'rasam, «ularni to'xtatishgan-da», deb javob berdi. Men urush bo'lmasa-yu, Avstriyani bir ko'rib kelsam, deb yurardim. Men Shvartsvaldga borishni istardim. Gartsni ko'rgim kelardi. Aytmoqchi, Gartsning o'zi qayerda? Urush hozir Karpat tog'larida ketayotgan edi. U yoqlarga borgim yo'q edi. Garchi borilsa, albatta, yomon bo'lmasdi. Urush bo'lmaganda men Ispaniyaga borishim mumkin edi. Quyosh botib bormoqda, salqin tushib kelmoqda edi. Kechki ovqatdan so'ng Ketrin Barklining oldiga boraman. Men, qani endi u hozir yonimda bo'lsaydi, derdim. Men u bilan birga Milanga borishni istardim. U bilan «Kova»da ovqatlanib olsang-da, keyin kechki dim havoda Via-Mantsoni bo'ylab ketsang, ko'prikdan o'tib, kanal yoqalab burilsang-da, Ketrin Barkli bilan otelga kirsang. Ehtimol, u ham kirgan bo'larmidi. Ehtimolki, u meni Sommda o'ldirilgan ofitser deb tasavvur qilarmidi, unda biz katta eshikdan ichkariga kirib borgan bo'lardik, shveytsar shapkasini olib kutib olgan, men kalitni olish uchun borgan, qiz esa meni lift oldida kutib turgan bo'lardi, keyin biz lift ichiga kirib, lift ham har qavatda ohista jiringlab, yuqoriga ko'tarilgan va nihoyat, bizning qavatga ham chiqardi, liftchi bola eshikni ochadi, shunda u chiqadi, men chiqaman, biz dahlizdan yurib boramiz, men kalit bilan eshikni ochaman, ichkariga kiramiz va men telefon qulog'ini

ko'tarib, bir shisha muz to'la kumush paqirchaga solingan kapri byanka keltirishlarini so'rayman, sal o'tmay koridordan chelakchadagi muzning shirqillashi eshitila boshlaydi, keyin bola eshikni taqillatadi, men eshikning oldiga qo'yib keta qoling, deyman. Chunki biz egnimizdagi bor narsani yechib tashlagan bo'lamiz, chunki kun judayam issiq, derazalar lang ochilgan, qaldirg'ochlar uylarning tomlari uzra uchib yurishgan bo'ladi, keyin qorong'i tusha boshlaydi, deraza oldiga kelsangiz, uylarning va daraxtlarning tepasida endi ko'rshapalaklar uchib yurganini ko'rasiz, shunda biz kapri ichamiz, eshik berk, xona issiq, choyshab va tundan bo'lak hamma narsa unutiladi va biz Millanning shu otashin kechasida o'zimizni muhabbatning og'ushiga batamom topshiramiz. Hammasi mana shundoq bo'lishi kerak. Men tezgina ovqatlanib olib, Ketrin Barklining oldiga boraman.

Ovqat ustida g'ovur-g'uvur gap ko'p bo'ladi, men vino ichdim, chunki agar bugun kechqurun ozgina ichmasam, oshna-og'aynigarchilikdan chiqib qolardim, men yana kashish bilan arxiyepiskop Ayrlend haqida suhbatlashib o'tirdim. Gap anchayin hurmat-e'tiborga loyiq bo'lgan bir odamning taqdiridagi adolatsizlik, unga nisbatan qilinayotgan nohaqliklar haqida ketdi, bu nohaqliklarga men ham amerikalik sifatida qisman sababchi ekanman, men aybim nimadan iborat ekanligini bilmasam ham o'zimni go'yo rostdanam aybi borday qilib ko'rsatardim. Bu ishning butun mohiyatiga to'la yetmasdan turib, u menga shunchalar tushuntirib ketdiki, oxirida yo'q hech narsa bilmayman, xabarim yo'q, deb turish odobdan bo'lmay qoladigan-ga o'xshaydi. Menga uning nomi juda ham chiroyli tuyuldi, buning ustiga u minnesotalik edi, shuning uchun oti ham chindan ajoyib jaranglar edi: Ayrlend Minnesotiy, Ayrlend Viskonsiniy, Ayrlend Michigoni. Yo'q, gap bundamas. Masala bundan ko'ra chuqur-



roq. Ha, otaxon. To'g'ri, otaxon. Ehtimol, otaxon. Yo'q, otaxon. Balki, ehtimol, shunday bo'lsa bordir, otaxon. Bular sizga ko'proq ma'lum, otaxon. Kashish yaxshi odam edi, lekin odamni zeriktirib yuborardi. Ofitserlar bo'lmag'ur odamlar edi, ularga qarab odamning esnog'i kelardi. Qirol yaxshi, lekin zerikarli edi. Vino yomon, lekin zerikarli emasdi. U tishlarimizning sirini ko'chirib, tanglayimizga yopishtirib qo'yimoqda edi.

– Shunday qilib, o'sha kashishni qamab qo'yishibdi, – derdi Rokka, – chunki uning yonidan uch protsentli qog'ozlardan chiqibdi. Bu Fransiyadagi gap, albat. Bu yerda uni hech qachon qamab-pamab o'tirishmasdi. U bo'lsa, besh foizli qog'ozlardan mutlaqo bexabarman, debdi. Bular hammasi Beze shahrida bo'lgan gaplar. Men o'shanda u yerda edim, bu to'g'rida gazetalardan o'qib qolib, qamoqqa bordim va meni kashishning oldiga kiritishlarini so'radim. Qog'ozlarni u o'g'irlab olgani tayin edi.

– G'irt yolg'on gaplar, – dedi Rinaldi.

– Sizga shundoq tuyulgandir, – dedi Rokka. – Lekin men buni o'zimizning kashishga aytyapman. Bu juda ibratli voqea. U ruhoniylar bo'lgani uchun buning ma'nosini tuzukroq chaqadi.

Ruhoniylar jilmaydi:

– Davom eting, – dedi u. – Qulog'im sizda.

– Albatta, qog'ozlarning bir qismini baribir topisholmagan, biroq uch foizlilarning bari ruhoniylarning yonida ekan, yana, qanaqaligi aniq esimda yo'g'u, allaqanday mahalliy zayomlarning obligatsiyalari ham chiqqan. Shunday qilib, men turmaga bordim, – eng qizig'i ham shu yerda, – u turgan kameraning oldiga kelib, xuddi tavba qilayotganday bo'lib: «Menga oq fотиha bering, padari buzrukvorim, zotan siz gunohkor bandasiz», dedim.

Hamma xaxolab kulib yubordi.

– U nima dedi? – so'radi kashish.

Rokka unga e'tibor qilmasdan menga hazilining ma'nosini tushuntira ketdi: – Ana endi tushundirgizmi ma'nisiga? – agar uni to'g'ri tushunilsa, aftidan, juda o'tkir hazilga o'xshaydi. Menga yana vino quyishdi va men dushga tushirilgan ingliz soldati haqidagi latifani aytib berdim. Keyin mayor o'n bir chexoslovak bilan bir venger kaprali haqidagisini aytdi. Yana vinodan ichib, men bir tiyin topgan uloqchi haqidagi latifani boshladim. Mayor, kechalari uxlolmay chiqadigan gersoginya haqida g'alati bir italyan latifasi bor, dedi. Shunda kashish o'rnidan turib chiqib ketdi va men Marselga ertalab soat beshda mistral esib turgan paytda kelgan kommivoyajer haqidagi latifani aytib berdim. Mayor, eshitishimga qaraganda, siz ichib mast bo'lmas ekansiz, dedi. Men, undaymas, dedim. U, men to'g'risini aytyapman, Baxus guvoh, men buni tekshirib ko'raman, dedi. Faqat Baxus emas, dedim. Baxus emas. Ha, Baxus, dedi u. Men Bassi Flippo Vinchentsa bilan kim ko'p icharga o'ynashim kerak ekan. Bassi, bu adolatdan emas, chunki men hozirning o'zida undan ikki hissa ko'p ichib qo'ydim, dedi. Men, bu g'irt yolg'on, Baxusmi, Baxusmasmi, Filippo Vinchensa Bassimi yoki Bassi Filippo Vinchensami, hali og'ziga bir tomchi ichkilik olgani yo'q, umuman olganda, uning nomi nima o'zi? U, sizni nima deb chaqirishadi – Enriko Federiko debmi, yoki Federiko Enriko debmi? – deb so'radi. Men, yo'qolsin Baxus, kim kuchli bo'lsa, o'sha yutadi, dedim va mayor bizga boshlamasiga bir krujkadan qizil vino berdi. Krujkaning yarmini ichib, qolganini ichgim kelmay qoldi. Qayoqqa ketayotganim esimga tushdi.

– Bassi yutdi, – dedim men. – U baquvvatroq. Men borishim kerak.

– To'g'ri, borishi kerak, – dedi Rinaldi. – Uchrashuvga boradi. Men bilaman-ku.

– Men borishim kerak.

– Kelasi safargacha, – dedi Bassi. – Kelasi safargacha kuch yig'ib keling.

U yelkanga qoqib qo'ydi. Stol ustida shamlar yonib turardi. Hamma ofitserlarning kayflari joyida edi.

– Xayrli tun, janoblar, – dedim men.

Rinaldi men bilan birga chiqdi. Biz hovliga kiraverishdagi eshik oldida to'xtadik, u dedi:

– Siz u yerga ichib bormaganingiz tuzuk edi.

– Mast emasman, Rinin. Chin so'zim.

– Juda bo'lmasa, qahva donidan chaynab yuboring.

– Bekor gap.

– Hozir sizga keltirib beraman, bebi. Shu yerda aylanib turing. – U bir hovuch qovurilgan qahva donidan ko'tarib keldi. – Chaynab yuboring, bebi, xudo sizni yorlaqasin.

– Baxus, – dedim men.

– Sizni kuzatib qo'yaman.

– Hojati yo'q. Mast emasman.

Ikkovlon shahar bo'ylab ketdik, men qahva donini chaynab bordim. Inglizlarning bog' uyiga eltadigan xiyobon oldida Rinaldi menga xayrli tun tilab qoldi.

– Xayrli tun, – dedim men. – Yuring, o'zingiz ham.

U bosh chayqadi.

– Yo'q, – dedi u. – Men bosh og'rig'i ishlarga tobim yo'q.

– Qahva uchun rahmat.

– Arzimaydi, bebi. Arzimaydi.

Xiyobondan yurib ketdim. Ikki chekkadagi sarv og'ochlarining gavdasi yaqqol ko'zga tashlanardi. Men orqamga o'girildim-da, Rinaldi izimdan qarab turganini ko'rdim, unga qo'l silkib, xayrlashdim.

Men bog' uy qabulxonasida Ketrin Barklini kutib o'tirardim. Kimdir peshayvonga kirdi. O'rnimdan turdim, biroq bu Ketrin emasdi. Kirgan miss Fergyson edi.

– Hello, – dedi u. – Ketrin bugun, afsuski, siz bilan ko'risholmas ekan. Mendan shuni aytib qo'yishni so'radi.

- Afsus. Hoynahoy betob emasmi?
- Sal tobi qochib turibdi.
- Uning ko'nglini so'rab qo'ying.
- Xo'p.
- Balki, ertaga ertalab kelaymikan?
- Keling.
- Katta rahmat, – dedim men. – Tuningiz xayrli bo'lsin.

Qabulxonadan chiqdim, birdan olam bo'm-bo'sh bo'lib qoldi, yuragim siqildi. Men Ketrin bilan uchrashuvga mensimay, nazar-pisand qilmay qaradim, ko'p ichib qo'ydim, sal bo'lmasa kelish esimdan chiqay dedi, endi esa uni ko'rolmaganimdan so'ng yuraginga qil sig'masdi, dunyoda o'zimni yolg'iz, tashlandiq sezdim.

### **Sakkizinchi bob**

Ertasiga biz daryoning yuqori tomonida kechasi hujum bo'ladi, deb eshitdik, biz u yerga to'rt mashina bilan borishimiz kerak ekan. Hech kimdan tayinli bir gap chiqmas, lekin hamma o'zining harbiy bilimini namoyish qilib, donolik qilardi. Men birinchi mashinada o'tirgan edim. Ingliz gospitalining oldidan o'tib ketayotganimizda mashinani to'xtatishni buyurdim. Boshqa mashinalar ham to'xtashdi. Men mashinadan tushib, boshqa shofyorlarga agar biz yetib olmasak, Kormon yo'lining kesishgan joyida kutib turishni aytdim. Men xiyobondan shosha-pisha o'tib, qabulxonaga kirdim-da, miss Barklini chaqirishlarini so'radim.

- U navbatchilik qilyapti.
- Uni bir daqiqaga ko'ra olamanmi?

Sanitarni bilib kelgani yuborishdi, u qiz bilan birga qaytib keldi.

– Sog'salomatligingizni bilgani kiruvdim. Sizni navbatchilikda deyishdi va men chaqirib berishlarini so'radim.

– Sog'lig'im durust, – dedi u. – Kecha issiqdan biroz lohas bo'ldim, shekilli.

– Men ketishim kerak.

– Bir daqiqaga siz bilan chiqaman.

– O'zingiz tuzukmisiz, hech qayeringiz og'rimayaptimi? – so'radim men tashqariga chiqqanimizdan so'ng.

– Tuzukman, jonim. Siz bugun kelasizmi?

– Yo'q. Men hozir ketyapman – bugun Plavada masxarabozlik bo'ladi.

– Masxarabozlik?

– Shunga yaqin.

– O'zingiz qachon qaytasiz?

– Ertaga.

U nimanidir yechib, bo'ynidan oldi. Mening qo'limga berdi.

– Bu avliyo Antoniy, – dedi u. – Ertaga kechqurun keling, xo'pmi?

– Siz katolikmisiz?

– Yo'q. Lekin aytishlariga ko'ra avliyo Antoniy balo-qazolardan saqlarmish...

– Sizni deb uni ehtiyot qilaman. Xayr endi.

– Yo'q, – dedi u. – Xayr emas.

– Xo'p.

– Aqlli bo'ling-da, o'zingizni ehtiyot qiling. Yo'q, bu yerda o'pishish mumkin emas. Kerakmas.

– Xo'p.

Men orqamga qarab, uning zinada turganini ko'rdim. U menga qo'l silkib qo'ydi, men unga g'oyibona o'pich taqdim qildim. U yana qo'lini silkidi, keyin xiyobon tugadi, men mashinaga o'tirdim, yo'lga tushdik. Avliyo Antoniy oq metallardan ishlangan kichkina medalyonga joylangan edi. Men medalyonni ochib, qo'limga qoqdim.

– Avliyo Antoniyimi? – so'radi shofyor.

– Ha.

– Menda ham bor. – U o'ng qo'lini ruldanda olib, tugmachasini yechib, ko'ylagi ichidan mendagiga o'xshash medalyon chiqardi. – Ko'rdingizmi?

Men avliyo Antoniyni yana medalyon ichiga joylab, ingichka tilla zanjirini yig'dim-da, hammasini yon cho'ntagimga solib qo'ydim.

– Siz uni bo'yningizga osmaysizmi?

– Yo'q.

– Yaxshisi osish kerak. Bo'lmasa nima hojati bor?

– Yaxshi, – dedim. Tilla zanjirchani yozdim-da, bo'ynimga osib, zanjirini qulflab qo'ydim. Avliyo harbiy frenchim ustida turib qoldi, men yoqamni ochib, ko'ylagimning yoqasini bo'shatdim-da, avliyo Antoniyni ichimga solib qo'ydim. Mashinada o'tirarkanman, ko'kraginga uning metall g'ilofi suykalib borardi. Ko'p o'tmay u esimdan chiqdi. Yaralanganimdan so'ng uni qaytib ko'rmadim. Kimdir uni bog'lash punktida yechib olgan bo'lsa, ajabmas.

Ko'prikdan o'tgach, biz mashinani tezroq haydadik va ko'p o'tmay oldinda boshqa mashinalar ko'tarayotgan changni ko'rdik. Buriilishdan o'tganimizdan so'ng uchala mashina ham ko'rindi; ular qo'ng'izday bo'lib ko'rinmoqda edi, chang g'ildiraklar ostidan ko'tarilib, daraxtlar ortiga singardi. Biz ularga yetib oldik, quvib o'tib, tog'ga tomon ketgan boshqa yo'lga burildik. Agar oldingi mashinada ketayotgan bo'lsang, kolonnada yurish yomon narsa emas, shuning uchun men o'rnashibroq o'tirib olib, atrofni tomosha qila boshladim. Biz daryo tomondan tog' etagi bilan ketmoqda edik, yo'l yuqorilagach, shimol tomonda baland qorli cho'qqilar ko'rindi. Orqamga nazar tashlab, qolgan uchta mashinaning balandlikka qanday chiqib kelishini kuzatdim, mashinalar chang-to'zon ichida elas-elas ko'zga chalinardi. Biz yuk ortilgan xachirlar karvonini quvib o'tdik, xachirlarning yonida qizil feska kiygan haydovchilar borishardi. Bular bersalerlar edi.

Xachirlar karvonidan keyin yo'limizda hech narsa uchramadi va biz adirma-adir oshib, so'ng uzun tog' yonbag'ri bo'ylab daryo etagiga tushdik. Bu yerda yo'l

bo'yiga daraxtlar ekilgan ekan, o'ng yoqdagi qator daraxtlar orqasida men sayoz, tiniq, shoshqin daryoni ko'rdim. Daryoning suvi pasayib, toshlar va qumlar oralab arna-arna bo'lib oqardi, ba'zan esa tagi toshloq o'zanidan tong shafag'iday yoyilib ketardi. Qirg'oqqa chiqaverishda cho'nqir o'rlarni ko'rdim, ularga to'lib turgan suv osmon kabi moviy edi. Daryo uzra yoysimon g'isht ko'prikchalar tashlangandi, ularga tomon yo'ldan tarmoq otib so'qmoqlar tushib borardi. Men yana janubiy devori yoqalab nokzorlar qad ko'targan dehqonlarning g'ishtin imoratlarini va dalalardagi pastaktosh to'siqlarni ko'rdim. Yo'l ancha vaqtgacha vodiy bo'ylab bordi, keyin biz burildik-da, yana tog'ga ko'tarila boshladik. Yo'l yuqoriga tik ko'tarilib chiqar, kashtanzor ichidan ilon izi bo'lib o'tib, nihoyat, tog' tizmalari yoqalab ketardi. Daraxtlar siyrak joylardan vodiy ko'rinib turardi, huv olisda, pastda ikki armiyani ajratib, quyoshda yarqirab ilang-bilang daryo oqardi. Biz adirlarning naq belidan tushgan yangi harbiy tosh yo'ldan ketdik, shimolda ikki tog' tizmasi cho'zilib yotardi, tog'lar asriy qorliklargacha archa bilan qoplanganidan to'q ko'kimtir bo'lib qorong'ilikda chulg'anib ko'rinar, qorli cho'qqilar esa quyosh nurida yarqirab oppoq bo'lib yotardi. Keyin yana yuqorilaganimizda, men uchinchi tog' tizmasini, xuddi bo'r singari oppoq yuksak qorli tog'larni, tog'larning g'aroyib ajinlarini ko'rdim, bulardan ham narida yana tog'lar yuksalib borar, lekin ularni ko'rayotganingni ham, ko'rmayotganingni ham bilib bo'lmasdi. Bularning bari Avstriya tog'lari edi, bizda bunday tog'lar yo'q. Oldinda yo'l o'ng tomonga doira yasab o'tgandi, men daraxtlar orasidan yo'l pastga qarab qanchalar tik tushganini ko'rdim. Bu yo'ldan qo'shinlar, yuk mashinalari, tog' to'plarini ortgan xachirlar o'tib borardi, biz shu yo'lning naq chekasidan pastga tushib borarkanmiz, huv quyida, olisda oqayotgan daryo, uning yonidan o'tgan temir yo'l izlari,

temir yo'l ko'prigini ko'rdim, daryoning narigi yog'ida, tog' yonbag'rida biz ishg'ol qilishimiz kerak bo'lgan shaharchaning vayron bo'lgan uylari ko'rinardi.

Biz pastga tushib, daryo qirg'og'i yoqalab solingan katta yo'lga chiqqanimizda qorong'i cho'ka boshlagan edi.

### **To'qqizinchi bob**

Yo'l odamlar va transportga tiqilib ketgandi; yo'lning ikkala beti bo'ylab chipta va poxoldan qilingan bo'yralar cho'zilib ketgan, hatto yo'lning tepasi ham bo'yralar bilan qoplanganidan, u xuddi sirkning yo'lkasiga yoki yovvoyilarning qishlog'iga o'xshardi. Shu chaylaga o'xshagan yo'ldan imillab o'tib, nihoyat toza, tekis sayhonlikka chiqdik, avval bunda temir yo'l bekati bo'lgan edi. Yo'lning bu tomoni qirg'oq bo'yi ko'tarmasini kesib tushgan edi. Butun yo'l davomida ko'tarmada pana joylar qilingan bo'lib, ularga piyodalar joylashgandi. Kun botib borardi, men ko'tarma osha qarab, daryoning narigi yuzidagi tog'larda qora-yib ko'ringan Avstriyaning kuzatuv ayerostatlarini ko'rdim. Biz mashinalarni g'isht zavodining xarobalari panasiga qo'ydik. G'isht kuydiriladigan o'choqlar va bir qancha chuqur o'ralarda yaradorlar uchun punktlar qilingandi. Vrachlar ichida mening uchta tanishim bor edi. Bosh vrach menga jang boshlanishi bilan bizning mashinalar yaradorlarni olib, qirg'oq bo'ylab pana yo'ldan borib, keyin yuqoriga, dovonga tomon yuradi, dovonda hamshiralar posti bor, bu yerda yaradorlarni boshqa mashinalar kutib turadi. Yo'l to'silib qolmasa bo'lgani, dedi u. Boshqa yo'l yo'q edi. Yo'l avstrislarga ko'rinib turgani uchun uni ko'zdan yashirish choralari ko'rilgandi. Bu yerda – g'isht zavodida qirg'oq ko'tarmasi bizni miltiq va pulemyotlarning o'qidan saqlab turardi. Daryoning u betidan bu tomonga faqat bitta buzilay



deb qolgan ko'prik bor edi. To'plar otishmasi boshlangach, yana bitta ko'prik solinadi, qo'shinning bir qismi esa daryo qayrilishidagi kechuvdan o'tadi. Bosh vrach bo'yi pastakkina, shop mo'ylov kishi edi. U mayor unvonida bo'lib, Liviya urushida qatnashgan, ikki marta yaralangan edi. U, agar hammasi ko'ngildagidek o'tsa, meni mukofotga tavsiya etajagini aytdi. Men, hammasi joyida bo'ladi, dedim va unga mehribonchiligi uchun rahmat aytdim. Men shofyorlarni joylashtiradigan kattaroq blindaj bor-yo'qligini so'radim, u bir soldatni chaqirib, menga joy ko'rsatishni tayinladi. Soldat bilan sal yurmasimizdan shinamgina blindaj ustidan chiqdik. Shofyorlar undan mamnun bo'lishdi, ularni shu yerda qoldirdim. Bosh vrach meni va yana ikki ofitserni ichkilikka taklif qildi. Biz rom ichdik va men o'zimni do'stlar o'rtasida o'tirganday sezdim. Qosh qoraya boshladi. Men, hujum qachon boshlanadi, deb so'radim, butunlay qorong'i tushganda, deb javob berishdi. Men shofyorlar oldiga qaytdim. Ular blindajda gaplashib o'tirishardi, men kirishim bilanoq jim bo'lib qolishdi. Men ularga bir qutidan «Makedoniya» sigaretasi berdim, bu sigareta bo'sh joylangan bo'lib, chekishdan oldin uchini burab qo'yish kerak edi. Manera zajigalkasini yoqib, hammaga chekib olgani tutdi. Zajigalkasi «fiat»ning radiatoriga o'xshatib ishlangan ekan. Men ularga bor bilgan gaplarimni aytib berdim.

– Bu yoqqa kelayotganimizda yo'lda post yo'q ediku? – dedi Passini.

– Biz burilgan joyning orqasida qolib ketgan edi.

– Bu yo'lda toza onamizni ko'ramiz hali, – dedi Manera.

– Avstrislar kunimizni ko'rsatishadi, faloniga falon ularni.

– Bo'lmasa-chi.

– Ovqat-povqat ham bo'ladimi, leytenant? Boshlanib qolsa, bosh qashigani vaqt bo'lmaydi.

– Hozir bilib kelaman, – dedim men.

– Shu yerda o'tiraylikmi yo tashqariga chiqish ham **mumkinmi?**

– O'tira turganlaringiz ma'qul.

Men bosh vrach oldiga bordim, u sayyor oshxona **hozir** yetib kelajagini, shofyorlar ovqatni olib ketishlari **mumkinligini** aytdi. Idishlari bo'lmasa, idish **beraman**, dedi. Men idishlari bo'lsa kerak, dedim. Men **izimga** qaytib, shofyorlarga ovqat keltirishlari bilan **xabar** berishimni aytdim. Manera, otishma boshlanmasdan **burun** olib kelishsa, soz bo'lardi, dedi. Men **ketgunimcha** ular miq etishmadi. Ularning to'rtovlari **ham** mexanik bo'lib, urushni ko'rarga ko'zlari yo'q edi.

Men atrofda nimalar bo'layotganini ko'rgani bordim, **so'ng** blindajga, shofyorlar oldiga qaytdim. Hammamiz **yerga** o'tirib, devorga suyangancha sigaret tutatdik. **G'ira-shira** qorong'i tushdi. Blindajning sahni quruq **va** iliq edi, men devorga suyanib, hordiq chiqardim.

– Jangga kim boradi?

– Bersalerlar.

– Bersalerlarning o'zimi?

– Shundayga o'xshaydi.

– Rosmana jang qilish uchun bu yerdagi odamlar **kamlik** qiladi.

– Chamasi bu shunchaki yo'liga bir jang bo'ladi, **chinakam** urush boshqa yerda bo'ladi.

– Hujumga boradigan soldatlar buni bilishadimi?

– Bilishmasa kerak.

– Albatta, bilishmaydi, – dedi Manera. – Bilishsa, **jangga** kirib o'tirisharmidi.

– Shunday ham kirishardiki, – dedi Passini. – **Bersalerlar** ahmoq.

– Ular mard soldatlar, intizomga rioya qilishadi, – **dedim** men.

– Baquvvat yigitlar, hammasi ham yag'rindor. Lekin **baribir**, hammasi ahmoq bolalar.

– Mana grenaderlar zo‘r, – dedi Manera.

Bu hazil edi. To‘rtovlari xaxolab kulishdi.

– Ular jangdan bosh tortishganda siz bormidingiz, tenente, keyin har o‘n kishidan bittasini otishuvdi, esingizdami?

– Yo‘q.

– Shunday bo‘lgan edi. Ularni qator qilib turg‘izishdi-da, o‘ninchi bo‘lib turgan odamni ajratib otaverishdi. Karabinerlar ularni otib tashlashdi.

– Karabinerlar, – dedi Passini va yerga tupurdi. – Grenaderlarni qarang-a: bo‘ylari ikki metrdan oshig‘u, bormaymiz deb turishsa-ya.

– Agar hamma baravar bosh tortganda edi, urush tugagan bo‘lardi, – dedi Manera.

– Be, grenaderlar buni xayolga ham keltirishmagan. Qo‘rqishgan, xolos. Ofitserlarning bari asilzodalardan edi-da.

– Ba‘zi bir ofitserlar bir o‘zlari jangga kirishdi.

– Serjant ikkita ofitserni bosh tortganliklari uchun otib tashladi.

– Ba‘zi oddiy soldatlar ham jangga kirishuvdi.

– Bularni otishga o‘ninchi odam ajratiladigan safga kiritishmagan.

– U yerda mening hamshaharimni otib tashlashdi, – dedi Passini. – Baland bo‘yli, kelishgan yigit edi, quyib qo‘ygan grenader deysiz. Rimdan beri kelmasdi. Yonidan oyimchalar arimasdi. Doim karabinerlar bilan birga yurardi. – U kuldi. – Endi bo‘lsa uyining eshigiga miltiq ko‘targan soqchi qo‘yib qo‘yishibdi, hech kim uning onasi, otasi, opa-singillarini borib ko‘rishi mumkin emas, otasini bo‘lsa, barcha fuqarolik huquqlaridan mahrum qilishdi, hatto saylovda ham qatnasholmaydi. Qonun ham endi ularni himoya qilmaydi. Istagan odam kelib, ko‘ngli tusagan narsasini olib keta oladi.

– Oilasining boshi mana shunday malomatga qolishidan qo‘rqmaganda, hech kim jangga kirib o‘tirmasdi.

– Albatta-da. Alp o'qchilari esa jangga kirishaver-  
gan bo'lardi. Viktor-Emmanuilning polki ham. Ber-  
salerlar ham.

– Bersalerlar ham dumini ko'rsatgan paytlar  
bo'lgan. Hozir buni eslagilari kelmaydi.

– Siz bekor bizni valaqlashimizga yo'l qo'yyapsiz, te-  
nente. Evviva l'esercito!<sup>1</sup> – istehzoli qo'shib qo'ydi Pas-  
sini.

– Men bunday gaplarni eshitganman, – dedim men.  
– Biroq hamonki, siz rulda o'tirib, o'z ishingizni baja-  
rayotgan ekansiz...

– ...va boshqa ofitserlar eshitmaydigan qilib sekin  
gaplashayotgan ekansiz, – deb tugatdi Manera.

– Urushni oxiriga yetkazish kerak deb hisoblayman,  
– dedim men. – Bir tomon jangdan voz kechgani bilan  
urush tamom bo'lib qolmaydi. Urushmay qo'ysak, ho-  
limiz bundan beshbattar bo'ladi.

– Bundan beshbattar bo'lmaydi, – dedi odob bilan  
Passini. – Urushdan beshbattarroq narsa yo'q.

– Mag'lubiyat beshbattar.

– Undaymasdir, – dedi Passini hamon hurmat  
saqlab. – Mag'lubiyat nima o'zi? Xo'sh, uyga qaytamiz.

– Dushman orqangizdan boradi. Uyingizni oladi.  
Opa-singillaringizni oladi.

– Unchalikmasdir, – dedi Passini. – O'libdi-da, har  
kimning ortidan borsa. Har kim o'z xonadonini himoya  
qilsin. Opa-singillarini eshikka chiqarmasin.

– Sizni osishadi. Sizni qo'lga olib, yana urush qil-  
gani jo'natishadi. Sanitar transportiga emas, piyoda-  
lar safiga.

– O'ldimi, hammani osishsa.

– Begona davlat o'zi uchun urushishga majbur  
qilolmaydi, – dedi Manera. – Birinchi jangning o'zi-  
dayoq hamma qochib ketadi.

---

<sup>1</sup> Yashasin armiya! (*ital.*).

– Chexlarga o‘xshab.

– Siz mag‘lub bo‘lish nimaligini hali yaxshi bilmaysiz, shuning uchun ham bu sizga unchalik yomon emasga o‘xshab tuyuladi.

– Tenente, – dedi Passini, – siz bizga gapiraverishga izn berganday bo‘ldingiz. Mana, eshiting bo‘lmasa. Urushdan ko‘ra dahshatliroq narsa yo‘q. Biz sanitar bo‘limlarda o‘tirib urush qanchalar dahshatli narsa ekanligini tushunib yetmaymiz. Buning dahshatini fahmlab ulgurganlar esa, unga qarshilik qilishga ulgur olmaydilar, chunki aqldan ozadilar. Hech qachon hech narsani tushunmaydigan odamlar bo‘ladi. O‘z ofitserlaridan qo‘rqadigan odamlar bor. Mana shundaylar bilan urushni davom ettirishadi.

– Men urush dahshatli narsa ekanligini bilaman, lekin biz uni oxiriga yetkazishimiz kerak.

– Oxiri yo‘q. Urushning oxiri bo‘lmaydi.

– Yo‘q, oxiri bo‘ladi.

Passini boshini chayqadi.

– Urushni g‘alabalar bilan yutib bo‘lmaydi. Xo‘sh, boringki, San-Gabrieleni oldik. Xo‘sh, Karso, Monfalkone va Triyestni oldik. Keyin-chi? Bugun anovi uzoq tog‘larni ko‘rdingizmi? Xo‘sh, siz o‘shalarning barini biz ololamiz deysizmi? Agar avstrislar urushmay qo‘ysa, boshqa gap. Bir tomon urushni bas qilishi kerak. Nega biz qilishimiz mumkin emas? Agar ular Italiyagacha borishsa, horib-charchab, orqaga qaytib ketishadi. Ularning o‘z yurtlari bor. Shundoq ekan, hayronman, urush qilmasa, kuni o‘tmaydimi bularning.

– Gapni qotirar ekansiz.

– O‘ylayapmiz. O‘qiyapmiz. Dehqon emasmiz. Biz mexaniklarmiz. Biroq dehqonlar ham urushga ishonadigan ahmoqlardan emas. Bu urush hamma-ning joniga tekkan.

– Mamlakatni kaltafahm, hech nimani tushunmaydigan sinf boshqarmoqda. Shuning uchun ham biz urushib yuribmiz.

- Ular urushdan yana davlat orttirmoqdalar.
  - Ko'plari hatto boyiy olmayapti, - dedi Passini. - **Shunchalar befarosat ular, qo'llaridan boshqa ish kelmagani uchun shunday qilishmoqda. Tentaklikdan.**
  - Bo'ldi, bas, - dedi Manera. - Tilimizga juda erk berib yubordik, tenente ham xafa bo'lishi mumkin.
  - Gapimiz unga yoqyapti, - dedi Passini. - Biz uni **o'z tomonimizga tortamiz.**
  - Lekin hozirchalik yetadi, - dedi Manera.
  - Nima bo'ldi endi, ovqat berisharmikan, tenente? - **so'radi Gavutssi.**
  - Hozir bilib kelaman, - dedim men. Gordini o'rnidan turib, men bilan chiqdi.
  - Balki, biron narsa qilish kerakdir, tenente? Sizga yordam berolmaymanmi? - U to'rtovlari ichida eng yuvosh, indamas odam edi.
  - Istasangiz, men bilan yuring, - dedim men, - nima gapligini bilib kelamiz.
- Qorong'i tushib qolgandi, projektorlarning uzun tillari tog'lar uzra kezardi. Bizning frontda yuk mashinalariga o'rnatilgan kattakon projektorlar bor edi, goho tunda front chizig'i yaqinidan o'tilganda, yo'ldan chekkada turgan mana shunday yuk mashinasini, projektorni boshqarayotgan ofitserni, qo'rqib o'takasi yorilgan guruhni ko'rish mumkin edi. Biz zavod hovlisidan o'tib asosiy bog'lash punktiga keldik. Kira-verishda tepaga shox-shabbalardan chog'roq chayla yasab qo'yilgan edi, tungi shamol quyoshda qurigan barglarni shitirlatardi. Ichkari yorug' edi. Bosh vrach yashikda o'tirib telefonda gaplashmoqda. Vrachlardan biri menga hujum bir soatga kechiktirilganini aytdi. U meni konyak ichishga taklif qildi. Men uzunchoq stollarni, yorug'da yaltillab turgan asboblarni, toslar va probkalari mahkamlangan shisha idishlarni ko'zdan kechirdim. Gordini orqamda turgan edi. Bosh vrach telefondan bo'shadi.

– Hozir boshlanadi, – dedi u. – Kechiktirmaydigan bo‘lishibdi.

Men tashqariga qaradim, qorong‘i edi, avstris projektorlarining nurlari bizning ortimizdagi tog‘larda izg‘irdi. Bir soniya jimlik cho‘kdi, so‘ng orqamizda turgan barcha to‘p-zambaraklardan o‘t ochildi.

– Savoyya, – dedi bosh vrach.

– Ovqat qani? – so‘radim men. U eshitmadi. Men qaytardim.

– Hali opkelishgani yo‘q.

Katta snaryad uchib o‘tib zavod hovlisida portladi. Yana bittasi yorildi, portlash shovqinida g‘isht parchalari va mayda-chuyda narsalar pastga yomg‘irday yog‘ilgani eshitildi.

– Yeb olishga biron narsa topiladimi?

– Birozgina pasta asiutta<sup>1</sup> bor, – dedi bosh vrach.

– Yeydigan bo‘lsa bering.

Bosh vrach sanitarga nimadir deb aytdi, u uyning ichkari tomoniga kirib ketdi-da, u yerdan sovib qolgan makaron ovqat solingan metall idish ko‘tarib chiqdi. Men uni Gordiniga berdim.

– Pishloq yo‘qmikan?

Bosh vrach sanitarga to‘ng‘illab bir nima dedi, u yana ichkariga sho‘ng‘ib, chorak doira oq pishloq olib chiqdi.

– Rahmat, – dedim men.

– Hozir tashqariga chiqmay qo‘ya qolinglar. Tashqarida eshik oldiga nimanidir qo‘yishdi. Uni olib kelgan sanitarlardan biri ichkariga qaradi.

– Olib kiring bu yoqqa, – dedi bosh vrach. – Qani, nima bo‘ldi? Nima, o‘zimiz chiqib bu yerga olib kiraylikmi, a?

Sanitarlar yaradorni qo‘ltig‘i va oyog‘idan ko‘tarib ichkariga olib kirishdi.

– Yengini kesinglar, – dedi bosh vrach.

---

<sup>1</sup> Makaron ovqat (*ital.*).

U qo'lda bir parcha doka hamda pintset ushlab turgan edi. Boshqa ikki vrach shinellarini yechishdi.

– Boringlar, – dedi bosh vrach sanitarlarga.

– Yuring, tenente, – dedi Gordini.

– O't ochish to'xtamaguncha chiqmasanglar bo'lar-di, – dedi bizga qaramasdan bosh vrach.

– Odamlar ochqashgan, – dedim men.

– Xo'p, o'zlaring bilasizlar.

Zavodning hovlisiga chiqa solib, chopa ketdik. Shundoq qirg'oqda snaryad portladi. Boshqasining uchib kelayotganligini yonimizda yorilmaguncha payqamay qoldik.

Ikkovimiz ham o'zimizni yerga otdik va to'polonqasirg'a ichida oskolkalarning chiyillashini, g'ishtlarni shatirlab tushishini eshitdik. Gordini oyoqqa qalqib blindaj tomon chopib ketdi. Men sarg'ish changga belangan pishloqni ko'tarib uning orqasidan chopdim. Blindajda uchala shofyor hamon chekib o'tirishardi.

– Mana sizga, vatanparvarlar, – dedim men.

– Mashinalar qalay? – so'radi Manera.

– Joyida, – dedim men.

– Qo'rqdingizmi, tenente?

– Shundan bo'ldi, – dedim.

Men pichog'imni chiqarib, ochdim-da, tig'ini artib, pishloqning ust qavatini qirib tashladim. Gavutssi menga makaron solingan tog'orani uzatdi.

– Siz boshlab bering.

– Yo'q, – dedim men. – Yerga qo'ying. Birgalashib yeymiz.

– Sanchqimiz yo'q.

– Yo'q bo'lsa bo'lar, – dedim inglizchalab.

Men pishloqni bo'lak-bo'lak qilib kesib makaronning ustiga tashlab qo'ydim.

– Olinglar, – dedim. Ular yaqinroq surilishib, kutib turishdi. Men makaronga qo'limni tiqib ko'tardim. Qo'limga yelimga o'xshab ilashib chiqdi.



– Yuqoriroq ko‘taring.

Men qo‘limni yelkamga dovur ko‘targanimdagina makaron tog‘oradan uzildi. Men uni og‘zimga soldim, keyingi uchini labim bilan ushlab, ichimga tortdimda, chaynay boshladim, keyin bir bo‘lak pishloq olib, og‘zimga soldim, orqasidan vino ho‘pladim. Vinodan zang hidi kelardi. Men flyagani Passiniga berdim.

– Rasvo, – dedim men. – Flyagada uzoq turib qolibdi. Men uni mashinada yonimda olib yuruvdim...

To‘rtovlari ham tog‘oraga engashgancha, makaronlarni so‘rib yeyishardi. Men yana og‘zimni to‘ldirib oldimda, pishloqdan tishlab, vino ho‘pladim. Tashqarida nimadir gupillab quladi, yer zirillab ketdi.

– To‘rt yuz yigirma millimetrl yoki minomyot, – dedi Gavutssi.

– Tog‘larda bunday kalibrli to‘plar bo‘lmaydi, – dedim.

– Ularda Shkoda zambaraklari bor. Men snaryadning cho‘nqirini ko‘rdim.

– U uch yuz besh millimetrligi.

Ovqatni davom ettirdik. Yo‘tal ovozi eshitildi, parovoz yurib ketganday vishillagan tovush chiqdi, keyin yerni larzaga solib portlash bo‘ldi.

– Blindaj yuzagina ekan, – dedi Passini.

– Ana manovisi endi minomyot.

– Rost.

Men pishloqdan bir luqma tishlab, vino ichdim. Shovqin-suron ichida qulog‘imga yo‘tal ovozi chalindi, keyin chux-chux-chux-chux, degan ovoz eshitildi, so‘ng xuddi domna eshigi ochilgan kabi nimadir yaraqlab ketdi, keyin avval oppoq, so‘ng borgan sari qizil tushga kirib, qip-qizil, qip-qizil quyunday bo‘lib g‘uvullash, gumburlash sadosi keldi. Men nafas olib ko‘ray desam, nafas ololmadim, nazarimda, o‘zligimdan chiqib, quyun ichra uchib ketayotganday, uchib ketayotganday, uchib ketayotganday edim. Bir zumda borlig‘im parday uchib, yo‘q bo‘lib ketdi dedim, o‘likday bo‘ldim,

o'lganingdan keyin hech gap bo'lmaydi deganlar xato qiladilar, deb o'yladim. Keyin havoda suza boshladim, biroq oldinga emas, nuqul orqaga ketib qolardim. So'lish oldim, shunda men o'zligimga qaytganligimni angladim. Yer titilib ketgandi, shundoq boshimning oldida majaqlangan yog'och to'sin yotardi. Boshim qaltirab turardi, shunda kimningdir yig'layotganini eshitdim. Keyin allakim go'yo qichqirganday bo'ldi. Men qimirlay desam, qimir etolmadim. Men daryoning narigi tomonida, butun daryo bo'ylab miltiq va pulemyotlarning otishmasini eshitdim. Bir narsa qattiq shalopladi va men yorituvchi snaryadlarning osmonga uchganini ko'rdim, ular yorilib, hamma yoq sutday yorib ketdi, raketalar uchdi, minalar portladi, men bularni bir zum ichida ko'rdim. Keyin naq yonginamda kimdir: «Mamma mia! O, mamma mia!»<sup>1</sup> – dedi. Men o'zimni har tomonga urib, nihoyat, oyog'imni bo'shatdim, ikkinchi tomonga ag'darilib, ingragan kishini paypaslab ko'rdim. Bu Passini ekan, qo'lim tegishi hamonoq u chinqirib yubordi. U oyog'ini men tomonga uzatgan holda yotardi, o'qtin-o'qtin lip etib tushgan yorug'da uning tizzadan yuqorisi majaqlangan oyoqlari ko'rinar edi. Bir oyog'i cho'rt uzilgan edi, ikkinchisi esa paylariga va shimining uvadalariga ilinib turar, dam-badam go'yo o'zidan-o'zi liqir-liqir qilib qo'yardi. U o'z qo'lini tishlab turib, ingrardi: «O, mamma mia, mama mia!» – Keyin: «Dto te Salve, Maria Dio Te Salve Maria»<sup>2</sup>

– Yo Iso, tezroq jonimni ol! Xristos, jonimni ol, Mamma mia, mama mia. Yo bokira bibi Maryam, jonimni ol. Chidolmayman. Chidolmayman. Chidolmayman. Yo Iso, yo bibi Maryam, chiday olmayman. O-o-o-o! So'ng: «Mamma mia, mama mia!» deb xirqiradi. So'ng qo'lini tishlaganicha jim bo'lib qoldi, ilinib turgan oyog'i esa hamon qimirlab turardi.

<sup>1</sup> Onajon! (*ital.*).

<sup>2</sup> Xudo panoh bo'lsin, Maryam! (*ital.*).

– Portaferti! – deb qichqirdim hovuchimni og‘zimga qilib. – Portaferti!<sup>1</sup> – Men Passiniga yordam beray deb, urinib, o‘rnimdan jilolmadim. Men yana harakat qilib ko‘rdim, bu safar oyog‘im biroz surilganday bo‘ldi. Endi men tirsagim bilan surila olardim. Passini jim edi. Uning yoniga o‘tirib, frenchimning tugmalari-ni yechdim-da, ko‘ylagimning baridan yirtib olishga urindim. Hadeganda yirtilavermadi, shunda ko‘ylak chetini tishim bilan yirtdim. Shunda men uning obmotkasi bor edi-yu, deb esladim. Men jun paypoq kiygan edim, lekin Passini obmotka o‘rab yurardi. Hamma shofyorlar shunday qilishardi. Biroq Passinining bir oyog‘i qolgandi. Men obmotkaning uchini topib, bo‘shatayotganimda, uning oyog‘ini bog‘lab o‘tirishga hojat qolmaganligini, Passini o‘lganligini ko‘rdim. Men o‘zimga ishonmay yana qaradim, u chindan ham o‘lgan edi. Boshqa uch kishiga nima bo‘lganligini aniqlash lozim edi. Turib o‘tirdim, shunda miyamda xuddi qo‘g‘irchoqning ko‘zi qimirlagandek, bir narsa chayqalib ketdi, ko‘zimdan o‘t chiqdi, deb o‘yladim. Oyoqlarim issiq va ho‘l bo‘lib qoldi, oyoq kiyimimning ichi ham issiq va ho‘l bo‘ldi. Men yarador bo‘lganimni payqadam, engashib, qo‘limni tizzamga qo‘ydim. Tizzam yo‘q edi. Qo‘lim bilan pastroqni paypasladim, tizzam shu yerda edi, aylanib ketgandi. Men qo‘limni ko‘ylagimga artdim, allaqayoqdan yana oppoq yorug‘ quyilib kela boshladi, shunda oyog‘imga qaradim, etim jimirlab ketdi. «Xudoyo, – dedim, – omon-eson bu yerdan qutqar!» Lekin men yana uch kishi ham bo‘lishi kerakligini bilardim. Shofyorlar to‘rt kishi edi. Passini o‘ldi. Uch kishi qoladi. Allakim qo‘ltig‘imdan oldi, yana kimdir oyog‘imdan ko‘tara boshladi.

– Yana uch kishi bor edi, – dedim men. – Bittasi o‘ldi.

– Men Maneraman. Biz zambilga borgandik, topmadik. Tuzukmisiz, tenente?

---

<sup>1</sup> Zambil (*ital.*).

- Gordini bilan Gavutssi qani?
- Gordini punktda, yarasini bog'lashyapti. Gavutssi oyog'ingizdan ko'tarib turibdi. Bo'ynimdan ushlab oling, tenente. Og'ir yaralandingizmi?
- Oyog'imdandan. Gordiniga nima bo'ldi?
- Arzimagan gap. Mina tushibdi. Minomyot snaryadi.
- Passini halok bo'ldi.
- Ha, halok bo'ldi.
- Yonginamizda snaryad portlab, ikkovlari ham o'zlarini yerga otishdi, men yiqilib tushdim.
- Kechiring, tenente, - dedi Manera. - Bo'ynimdan ushlab oling.
- Siz meni yana tashlab yuborasiz.
- Qo'rqib ketdik.
- Sizlar yaralanmadinglarmi?
- Ikkovimiz ham yaralandik, lekin yengil.
- Gordini mashina hayday oladimi?
- Qiyin-ov.

Punktga borguncha ular meni yana bir marta tashlab yuborishdi.

- Ablahlar! - dedim.
- Kechiring, tenente, - dedi Manera. - Boshqa qilmaymiz.

Bog'lash punktida qorong'i yerda ancha yaradorlar yotishardi. Zambil ko'targan sanitarlar kirib-chiqib turishardi. Ular o'tib keta turib, darpardani ko'targanlarida, menga ichkaridagi yorug' ko'rinardi. O'liklar bir chekkaga qo'yilgandi. Vrachlar yeng shimarib ishlashar, qassobga o'xshab qonga belanishgan edi. Zambil yetishmasdi. Ba'zi yaradorlar ingrashar, lekin ko'pchilik jim yotmoqda edi.

Shamol kiraverishda eshik soyaboni ustiga tashlangan shoxlardagi yaproqlarni shitirlatar, sovuq tun yopirilmoqda edi. Sanitarlar tinimsiz kelib turishar, zambillarni yerga qo'yib bo'shatishardi-da, yana ketishardi. Punktga kelishimiz bilanoq Mane-

ra feldsherni boshlab keldi, u oyog'imni bog'lab qo'ydi. Yarangiz tuproq bilan to'lib ketgandan kam qon yo'qotibsiz, dedi u menga. Imkon bo'lishi bilan meni operatsiyaga yotqizisharkan. U punkt binosiga kirib ketdi. Gordini mashina haydolmaydi, dedi Manera. Uning yelkasi majaqlangan, boshi yorilgan. Yara qizig'ida og'rig'i uncha bilinmay, hozir yelkasi og'riqdan qotib qolibdi. Hozir anov g'isht devorlardan birida o'tiribdi. Manera va Gavutssi o'z mashinalariga yaradorlarni ortib jo'nashdi. Ularga yaralari ozor bermayotgan edi. Ikkitadan sanitari bor uchta ingliz mashinasi keldi. Mening oldimga ingliz shofyorlaridan biri keldi, uni juda mazasi qochib qolgan, rangi oqarib ketgan Gordini boshlab keldi. Shofyor menga tomon engashdi:

– Og'ir yaralandingizmi? – so'radi u. – Bu baland bo'lyi, po'lat ko'zoynak taqqan kishi edi.

– Ikkala oyog'imdan.

– Xavfli emasdir, a? Sigareta chekasizmi?

– Rahmat.

– Ikkita shofyordan ayrilibsiz, deb eshitdim?

– Ha. Bittasi o'ldi, ikkinchisi – sizni boshlab kelgan odam.

– Rasvo bo'libdi. Yoki ularning mashinalarini biz olib turaylikmi?

– Xuddi shuni sizdan so'ramoqchiydim.

– Bizda ular buzilib-netmaydi, keyin qaytarib beramiz. Siz ikki yuz oltinchidansiz-ku, a?

– Ha.

– Ajoyib yerga joylashgansizlar. Sizni shaharda ko'rganman. Menga sizni amerikalik deb aytishdi.

– Shundoq.

– Men inglizman.

– Nahotki?

– Ha, ingliz. Siz italyan deb o'yladingizmi? Bizning bir otryadimizda italyanlar ham bor.

– Agar mashinalarimizni olsangiz, juda soz bo‘lar-  
di, – dedim men.

– Ularni sizga buzmay-netmay, qanday bo‘lsa shun-  
day topshiramiz. – U qaddini ko‘tardi. – Shofyorin-  
giz siz bilan kelishib olishimni juda iltimos qildi. – U  
Gordinining yelkasiga urib qo‘ydi. Gordini seskanib  
tushib, jilmaydi. Ingliz italyan tilida chala-chulpa  
so‘zlay ketdi:

– Bo‘ldi, hammasi joyida. Boshlig‘ing tenente bilan  
kelishdik. Sizning ikkala mashinangizni olamiz. Endi  
tashvish chekmasang ham bo‘ladi. – U so‘zini bo‘ldi. –  
Sizlarni bu yerdan olib ketishning ham yo‘lini topish  
kerak. Hozir vrachlar bilan gaplashaman. Ketayotgan-  
da sizlarni ham olib ketamiz.

U yaradorlar orasidan ohista o‘tib, eshikka tomon  
bordi. Men eshikka tutilgan ko‘rpa ko‘tarilganini, ich-  
karidagi yorug‘ni, uning ichkariga kirganini ko‘rdim.

– U sizni shundoq qoldirmaydi, tenente, – dedi  
Gordini.

– O‘zingiz qalaysiz, Franko?

– Durust.

U yonimga o‘tirdi. Shu payt eshikning yoping‘ichi  
ko‘tarilib, u yerdan ikkita sanitar bilan baland bo‘yli  
ingliz chiqishdi. Oldimga kelishdi.

– Mana amerikalik, tenente, – dedi u italyanchalab.

– Men kutib turishim mumkin, – dedim men. – Bu  
yerda mendan ko‘ra og‘irroq yaradorlar bor. Ahvolim  
unchalik yomonmas.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, – dedi u, – o‘zingizni qahramon qilib  
ko‘rsatmay qo‘ya qoling. – Keyin italyanchalab dedi: –  
Sekin ko‘taringlar, ayniqsa, oyog‘ini. Qattiq og‘riyapti.  
Bu prezident Vilsonning qonuniy o‘g‘li.

Ular meni ko‘tarishib, punkt ichiga olib kirishdi.  
Hamma stollarda jarrohlar ishlamoqda edi. Kichkina  
bosh vrach bizga jahl bilan o‘girilib qaradi. U meni  
tanidi va qo‘lidagi asboblarni silkib qo‘ydi.

– Ga va bien?<sup>1</sup>

– Ga va.<sup>2</sup>

– Uni men olib keldim, – dedi baland boʻyli ingliz italyanchalab. – Amerika elchisining yolgʻiz oʻgʻli. Qoʻlingiz boʻshaguncha shu yerda yota tursin. Keyin men birinchi qatnovdayoq uni olib kelaman. – U men tomonga egildi. – Men hujjatlaringizni toʻgʻrilashga boraman, shunda ish tezroq koʻchadi. – U eshikdan engashib chiqib ketdi. Bosh vrach qisqichlarni boʻshatib, tosga tashladi. Men uning harakatlarini kuzatib yotardim. Endi u bogʻlay boshladi. Keyin sanitarlar yaradorni stoldan olishdi.

– Amerikalik tenenteni menga beringlar, – dedi vrachlardan biri.

Meni koʻtarib stolga oldilar. Stol qattiq va sirgʻanchiq edi. Havo turli-tuman oʻtkir hidlarga toʻla edi, dorilarning achimsiq hidi, chuchuk qon isi kelardi. Shimimni yechib olishdi, vrach qoʻli ishdan boʻshamay, ayni choqda feldsher-assistentga yozdira ketdi:

– Chap va oʻng soni, chap va oʻng tizzasi, oʻng tovonining yuza qismi yaralangan va shilingan. Oʻng tizzasi va tovonining yarasi chuqur. Boshida yirtma yaralar bor (u zond qoʻyib koʻrdi: «Ogʻriyaptimi?» – «O-o-o, yaramas! Ha!»), bosh suyagi darz ketgan boʻlishi, ehtimol. Jangovar vaziyatda yaralangan. Shunday desak, juda boʻlmaganda sizni joʻrttaga oʻzini mayib qilgan, deb dala sudiga berishmaydi-ku, – dedi u. – Bir qultum konyak ichasizmi? Qanday qilib bu ahvolga tushdingiz? Oʻzingizni oʻldirmoqchi boʻldingizmi yo? Menga qoqsholga qarshi dorini bering-da, kartochkasida ikkala oyogʻini belgilab qoʻying. Xoʻp, rahmat. Hozir men sal tozalab yuvaman-da, bogʻlab qoʻyaman. Qoningiz tez qotar ekan.

Assistent qogʻozdan boshini koʻtarib, soʻradi:

– Nimadan yaralangan?

---

<sup>1</sup> Qalay, durustmi? (*frans.*)

<sup>2</sup> Durust (*frans.*)

Vrach:

– Nima qilib yaralandingiz?

Men ko‘zimni yumib yotarkanman, dedim:

– Mina tegdi.

Yaramni azob berib kovlayotgan vrach terimni kesa turib dedi:

– Rostdanmi?

Indamay turib berishga urinib, tig‘ badanimni tilganda qornimda qaltiroq turganini sezgancha, dedim:

– Rostdan, shekilli.

Vrach qiziqarli bir narsa topdi, shekilli, dedi:

– Dushman minalarining parchasi. Xohlasangiz, men zond qo‘yib, bu tomonni ham tekshiraman, lekin buning keragi yo‘q. Endi men bu yerga dori surkab qo‘yaman va... Nima, kuydiryaptimi? Bunisi holva. Hamma hunarini keyin ko‘rsatadi. Hali og‘riq boshlangani yo‘q. Unga konyak bering. Lat yeganda og‘riq o‘lganday bo‘ladi. Ammo baribir qo‘rqinchli hech nima yo‘q. Zaharlanish ro‘y bermasa bo‘lgani, hozir bu ham kam uchraydi. Boshingiz qalay?

– O, xudoyim! – dedim.

– Unda ko‘p konyak ichmaganingiz ma‘qul. Agar darz ketgan bo‘lsa, yallig‘lanib ketishi mumkin, yaxshi bo‘lmaydi. Nima, mana bu yeringiz og‘riyaptimi?

Men qora terga tushdim.

– O, xudoyim! – deb yubordim.

– Aftidan, darz borga o‘xshab qoldi-ku. Men hozir bog‘layman, siz boshingizni qimirlatmang.

U bog‘lashga tushdi. Qo‘llari juda chaqqon harakat qilar, qattiq va mahkam bog‘lardi.

– Ana bo‘ldi, oq yo‘l va Vive la France!<sup>1</sup>

– U amerikalik, – dedi boshqa vrach.

– Men uni fransuzmi deb eshitibman. U fransuzcha so‘zlarkan, – dedi vrach. – Men uni oldin ham bilardim. Men doim uni fransuz deb yurardim. – U

---

<sup>1</sup> Yashasin Fransiya! (*frans.*).



yarim stakan konyak ichdi. – Xo‘p, qani jiddiyroqlaridan beringlar-chi va ko‘kshol dorisidan tayyorlang. – U menga qo‘l silkib qoldi. Meni ko‘tarib olib ketishdi; darparda o‘rniga tutilgan ko‘rpa yuzimdan sirg‘alib o‘tdi. Meni joylashtirishgach, feldsher-assistent, yonimga tiz cho‘kdi.

– Familiyangiz, – ohista so‘radi u. – Ismingiz? Yoshingiz? Unvoningiz? Tug‘ilgan joyingiz? Qaysi qismdan? Qaysi korpusdan? – va hokazo. – Boshingga ham shikast yegani yaxshi bo‘lmabdi, tenente. Lekin endi sal durust sezayotgandirsiz o‘zingizni. Sizni ingliz sanitar mashinasi bilan jo‘nataman.

– Ahvolim yaxshi, – dedim men. – Sizdan g‘oyat minnatdorman.

Vrach aytgan og‘riq boshlandi, atrofimda ro‘y berayotgan hamma narsa o‘z ma‘nosini yo‘qotdi. Ko‘p o‘tmay ingliz mashinasi keldi, meni zambilga solib, zambilni kuzov bilan baravar qilib ko‘tarishdi-da, ichkariga surib kiritishdi. Yon tomonda boshqa zambillar ham bor ekan, shu yerda butun yuzi bog‘lab tashlangan, faqat shamday qotgan burnigina ko‘rinib turgan kishi yotardi. U og‘ir nafas olardi. Yana ikkita zambilni ko‘tarishib tepadagi tasma halqalariga o‘rnatishdi. Baland bo‘yli ingliz shofyor kelib, darchadan qaradi.

– Men ohista yuraman, – dedi u. – Sizni bezovta qilmaslikka harakat qilaman. Men motorning gurullaganini, shofyorning oldingi o‘rindiqqa o‘tirganini, tormozni o‘chirib, tezlik olganini his qilib yotdim. Yo‘lga tushdik. Men qimir etmay, og‘riqqa taslim bo‘lib yotardim.

Yo‘l yuqorilay boshlagach, mashina tezligini kamaytirdi, ba‘zan u to‘xtab qolar, ba‘zan burilishda orqaga tisarilar, nihoyat, tog‘ga tomon tezgina yurib ketdi. Nazarimda, ustimdan nimadir oqib tushayotgan-day bo‘ldi. Avval ora-sira tomchilab turdi, keyin sizilib oqa boshladi. Men shofyorni chaqirdim. U mashinani to‘xtatib, orqa oynadan qaradi.

– Nima bo'ldi?

– Tepamdagi yaradordan qon oqyapti.

– Dovonga ozgina qoldi. Bir o'zim zambilni ololmayman.

Mashina yana yo'lga tushdi. Qon hamon oqardi. Qorong'ida men u brezentning qayeridan o'tayotganligini bilolmadim. Men ustinga tushmasin deb, chetroqqa surilishga urindim. Ko'ylagimning orqasiga oqib tushgan joyim issiq va pilch-pilch bo'lib qoldi. Men junjikdim, oyog'im shu qadar qattiq og'ridiki, azbaroyi ko'nglim ozib qolay derdi. Sal o'tgach, qon kamroq oqa boshladi, keyin yana tomchilashga tushdi, men zambilning brezenti qimirlab qolgani ni ko'rdim, u yerdagi odam qulayroq yotmoqchiga o'xshardi.

– Qalay endi? – so'radi ingliz orqasiga qarab. – Yetay deb qoldik.

– Menimcha, u o'lganga o'xshaydi, – dedim. Tomchilar juda sekin uzilib tushardi, quyosh botgach, sumalakdan tomchi shunday tushadi. Mashina tun qo'ynida tog'ga ko'tarilib borar, sovuq edi. Postda sanitarlar zambillarni chiqarishib, boshqalarini qo'yishdi, biz yo'lga davom etdik.

## **O'ninchi bob**

Dala gospitalining palatasida menga peshindan keyin odam ko'rgani kelishini aytishdi. Kun issiq, xona pashsha bilan to'la edi. Vestovoy qog'ozni uzun-uzun qilib qirqdi-da, yog'och cho'pga bog'lab, pashshalarni haydadi. Men ularning shiftga o'tirishlarini tomosha qilaman. U quvishdan to'xtab, uxlab qolgach, ularning bari pastga g'uvullab tushishdi, men haydab ko'rdim, aloqa bo'lmagach, yuzimni qo'lim bilan berkitib, uxlab qolibman. Kun juda isib ketdi, uyg'onganimda, oyoqlarim qichishardi. Men vestovoyni uyg'otdim va u

yaralarimga mineral suv quydi. Bundan o'rnim nam va salqin bo'lib qoldi. Uyg'oq yotganlar palatani boshlariga ko'tarib gaplashishardi. Tushlikdan keyin vaqt juda osoyishta o'tardi. Ertalab uchta sanitar bilan bir vrach har bir karavot oldiga kelishib, yotgan odamni turg'izib, bog'lash punktiga olib ketishardi, uning yaralarini qayta bog'lab bo'lguncha o'rinlarini ham yig'ishtirib qo'yishardi. Bog'lash xonasiga hech kim jon deb borgisi kelmasdi, albatta, lekin u paytda men kishini yotgan joyidan turg'izmasdan ham o'rnini tuzatib qo'yish mumkinligini bilmasdim. Vestovoy bor suvni quyib bo'lgach, o'rnim muzdek va yoqimli bo'lib qoldi, men qichishni to'xtatish uchun oyog'imning qayerini uqalashni vestovoyga ko'rsatib turganimda, vrachlardan biri palataga Rinaldini olib kirdi. U shitob bilan kirib, karavotga engashdi-da, meni o'pdi. Men u qo'lqop kiyganini payqadim.

– Xo'sh, ishlar qalay, bebi? Tuzukmisiz? Manavi sizga... – Uning qo'lida konyak bor edi. Vestovoy unga stul keltirdi, u o'tirdi. – Yana bir xushxabar ham bor. Sizni mukofotga taqdim qilishdi. Kumush medal bo'ldi deyavering, lekin, balkim, bronzaga aylanib qolishi ham mumkin.

– Nimaga medal?

– Siz axir og'ir yaralandingiz. Agar siz jasorat ko'rsatganligingizga ishontirolsangiz, kumush olasiz, deb aytishmoqda. Bo'lmasa, bronza ekan. Menga boshidan boshlab aytib bering. Jasorat ko'rsatdingizmi?

– Yo'q, – dedim men. – Mina portlagan paytda men pishloq yeb turuvdim.

– Jinni bo'lmang. Siz undan oldinroq yoki keyinroq bir qahramonlik ko'rsatgan bo'lishingiz kerak, albatta. Yaxshilab eslab ko'ring.

– Hech vaqo ko'rsatmadim.

– Yarador bo'la turib, hech kimni yelkangizda olib chiqmadingizmi? Gordini, siz yelkangizda bir nechta

odamni olib chiqdingiz, deyapti, lekin bosh vrach bu aqlga to'g'ri kelmaydi, demoqda. Mukofotga tavsiya qog'oziga u qo'l qo'yishi kerak.

– Men hech kimni olib chiqmadim. Men qimir etolmasdim.

– Buning ahamiyati yo'q, – dedi Rinaldi. U qo'lqopni yechdi.

– Nima bo'lganda ham, biz kumush bo'lishiga harakat qilamiz. Balkim, siz tibbiy yordamni boshqalarga oldinroq ko'rsatinglar degandirsiz?

– Bu gapda unchalar qattiq turganim yo'q.

– Ahamiyati yo'q. Yaralanganingiz-chi? Mardonalik qilib meni oldingi marraga yuboringlar, deb turib olganingiz-chi? Buning ustiga jangda g'olib chiqdik.

– Demak, daryodan kechib o'tibmiz-da?

– Kechib o'tganda qandoq! Mingga yaqin asir olishdi. Axborotda shunday deyilgan. Siz uni o'qimadingizmi?

– Yo'q.

– Sizga olib kelib beraman. Bu ajoyib Coup de main.<sup>1</sup>

– O'zingizning ishlaringiz qanday?

– Zo'r. Hammasi yaxshi. Hammalari sizga qoyil qolishyapti. Nima bo'lganini menga so'ylab bering-chi? Siz kumush olishingizga ishonaman. Qani, boshlang. Bir boshdan aytib bering. – U nimanidir mulohaza qilib, jimidi. – Balkim, siz yana ingliz medali ham olishingiz mumkin. U yerda bir ingliz ham bo'lgan ekan. Men u bilan uchrashib, siz haqingizda kerakli joyda ikki og'iz so'zlab bera olarmikin, so'rab ko'raman. Qilaman desa, qo'ldan keladi. Qattiq og'riyaptimi? Oling, iching. Vestovoy, shisha ochadiganni olib keling. Men bir odamning uch metr ingichka ichagini qanday olib tashlaganimni bir ko'rsangiz edi. Buni «Nishtar»ga yozsa arzirdi. Siz tarjima qilib bersangiz, «Nishtar»ga jo'natgan bo'lardim. Kundan-kunga yangi

---

<sup>1</sup> Zarba, bosqin (*frans.*).

narsa o'rganyapman. Sho'rluk bebi, kayfiyatingiz durustmi o'zi? Shisha ochadigan yo'q bo'lib ketdimi nima balo? Siz sabr qilib, jimgina yotganingiz uchun men yaradorligingizni unutib qo'yyapman. – U qo'lqopini karavot chetiga urdi.

– Mana ochadigan, Signor tenente, – dedi vestovoy.

– Shishani oching. Stakan olib keling. Iching, bebi. Boshingiz tuzukmi? Men kasallik tarixini ko'rdim. Miyangizda darz yo'q. Birinchi postdagi o'sha vrach nima-yu mol doktor nima, baribir. Men shunday qilgan bo'lardimki, siz hatto sezmay qolardingiz. Men juda beozor davolayman. Shunga harakat qilaman. Kundan-kunga qo'lim yengil bo'lib, ishim yaxshi qovushyapti. Meni ma'zur tuting, bebi, ko'p vaysab yubor-yapman. Jiddiy jarohatlanganingizdan ko'nglim buzilib turibdi. Qani, iching. Yaxshi konyak. Bir shishasi o'n besh lir. Yaxshi bo'lsa kerak. Besh yulduzli. Shu yerdan to'g'ri inglizning oldiga boraman, u sizga ingliz medali olib beradi.

– Uni olish oson emas.

– Siz g'oyatda kamtarinsiz. Men aloqa ofitserini yuboraman. U inglizlarning tilini biladi.

– Siz miss Barklini ko'rmadingizmi?

– Uni bu yerga olib kelaman. Men hoziroq borib, uni boshlab kelaman.

– Ketmang, – dedim men. – Menga Goritsiya haqida gapirib bering. Oyimchalar qalay?

– Oyimchalar yo'q. Ikki hafta bo'ldi, ularni almash-tirishmadi. Men u yerga borayotganim yo'q. Qip-qizil rasvolik! Ular endi oyimtilla emas, jangovar o'rtoq bo'lib qolishdi.

– Butunlay bormay qo'ydingizmi?

– Faqat ba'zan biron yangi gap bormikin, deb kirib o'taman. Shunchaki yo'l-yo'lakay! Ular sizni so'rab qo'yishmaydi. Qip-qizil rasvolik. Shunchalik uzoq qolib ketishdiki, do'stlashib qolyapmiz.

– Balkim, frontga boradigan talabgorlar boshqa topilmayotgandir?

– Undaymas. Oyimchalar istagancha topiladi. Tashkiloti yaramaydi. Ularni front ichkarisidagi qahramonlarga saqlab o‘tirishibdi.

– Sho‘rluk Rinaldi! – dedim men. – Urushda yolg‘iz so‘qir boshi bilan qolibdi, unga hatto ermakka yangi oyimchalar ham yo‘q.

Rinaldi o‘ziga ham konyak quydi.

– Bu sizga ziyon qilmaydi, bebi. Iching.

Men konyakni ichib, butun a‘zoyi badanimga issiqlik yugurayotganini his qilib turdim. Rinaldi yana quydi. Uning ko‘ngli biroz o‘rniga tushdi. U o‘zining stakanini ko‘tardi: – Sizning shavkatli jarohatlaringiz uchun! Kumush medal uchun! Ayting-chi, bebi, uzun kun bunaqa issiqda yotish joningizga tegmadimi?

– Tegyapti.

– Men bunaqasini xayolimga ham keltirolmayman. Jinni bo‘lib qolardim.

– Haliyam sog‘massiz.

– Tezroq tuzaling-da, ishqilib. Tungi sarguzashtlardan so‘ng uyga yakka qaytgisi kelmaydi odamning. Hazilvoning yo‘q. Qarz berib turadiganing yo‘q. Hamxonam va tutingan birodarim yo‘q. Shu bosh og‘rig‘i jarohatlarni orttirmasangiz, kamayib qolarmidingiz?

– Ruhoniyning qitig‘iga tegmayapsizmi?

– Qo‘ying shu ruhoniyni! Men unga hech tegajog‘lik qilmayman. Kapitan hazillashadi. Ruhoniy yaxshi odam. Sizga ruhoniy kerak bo‘lsa, biznikini ola qoling. U sizni yo‘qlab kelmoqchiydi. Oldindan tayyorlanib yuribdi.

– Men uni juda yaxshi ko‘raman.

– Bilaman. Menga ba‘zan siz u bilan sal haligindaqa bo‘lib ko‘rinasiz. Bilasiz-ku, o‘zingiz.

– Bekorlarni aytibsiz.

– Rost aytyapman.

– Boʻlmagʻur gap!

U oʻrnidan turib, qoʻlqopini kiydi.

– Sizga azob berishni buncha yaxshi koʻraman-a, bebi. Bundoq qaraganda, ruhoniyya va ingliz qizga boʻlgan munosabatlaringizdan qatʼi nazar, siz dilingizda xuddi menga oʻxshaysiz.

– Unday emas.

– Oʻxshaysiz, dedimmi, oʻxshaysiz. Siz chinakam italyansiz. Turgan-bitganingiz olov bilan tutun, ichingizda esa hech vaqo yoʻq. Siz faqat oʻzingizni amerikalikka olasiz. Biz siz bilan ogʻa-inidekmiz, bir-birimizni yaxshi koʻramiz.

– Men yoʻgʻimda aqlli bola boʻling, – dedim men.

– Sizning oldingizga miss Barklini yuboraman. Men boʻlmasam u bilan yozilibroq gaplashasiz. Siz maʼsumroq va dilbarroqsiz.

– Boʻlmagʻur gap!

– Yuboraman uni. Sizning goʻzal va sovuq ilohangizni. Ingliz ilohasini. Yo rab, bunday ayolga taʼzim qilmoqdan oʻzga ne chorang bor? Ingliz ayoli shundan boshqa yana nimaga ham yarardi?

– Siz nodon, vaysaqi dahosiz.

– Kim?

– Nodon makaronxoʻr.

– Makaronxoʻr. Oʻzingiz makaronxoʻr... yuzini sovuq urgan makaronxoʻrsiz.

– Nodon. Kaltafahm. – Men bu soʻz uni chaqib olganligini koʻrib, davom etdim: – Madaniyatsiz, omi. Oʻqimagan, farosati yoʻq.

– Hali shundaymi? Boʻlmasa, sizga farishta qizlaringiz haqida bir gap aytib-berayki. Ilohalarigiz haqida. Bokira qiz bilan xotin orasidagi farq bitta. Qiz bilan boʻlganingda, u ogʻriq sezadi, xolos. Boshqa gap yoʻq, – U qoʻlqopini karavotga urdi. – Shunisi ham borki, qiz bilan boʻlganingda, bu unga yoqadimi, yoqmaydimi, bilolmaysan.

- Jahlingiz chiqmasin.
- Jahlim chiqayotgani yo‘q. Men buni sizning foydangiz uchun aytyapman, xolos, bebi. Sizni ortiqcha dahmazadan qutqarmoqchiman.
- Hamma farqi shundaginami?
- Ha. Ammo sizga o‘xshagan millionlab ahmoqlar buni bilishmaydi.
- Buni menga aytib qo‘yganligingiz yaxshi bo‘ldi.
- Qo‘ying, urishmaylik, bebi. Men sizni juda yaxshi ko‘raman. Jinnilik qilib yurmang.
- Xo‘p. Men sizga o‘xshab aqlli bo‘laman.
- Jahlingiz chiqmasin, bebi. Qovog‘ingizni oching. Yana iching. Endi men boray.
- Baribir siz ajoyibsiz.
- Ana ko‘rdingizmi. Dilingizda xuddi o‘zimsiz. Biz urush topishtirgan qardoshlarmiz. Xayrlashmay turib, meni o‘pib qo‘ying.
- Suyulib ketdingiz.
- Undaymas. Sal ko‘proq otib qo‘ydim, chog‘i. Yuzimga uning nafasi urildi.
- Ko‘rishguncha, xayr. Men tezda yana kelaman. – Uning nafasi yuzimdan yiroqlashdi. – O‘pishmasangiz, mayli, keragi yo‘q. Oldingizga inglizingizni yuboraman. Xayr, bebi. Konyak karavot tagida. Tezroq tuzalib chiqing.
- U g‘oyib bo‘ldi.

## **O‘n birinchi bob**

Kashish kirganda, shom qorong‘isi tushib qolgandi. Xo‘rda berib, taqsimchalarini yig‘ishtirib olishgandi, men qator qo‘yilgan karavotlarga, deraza ortida daraxtning kechki shabadada chayqalib turgan tepasiga qarab yotardim. Shabada derazadan ichkariga ham o‘tmoqda edi, kech kirishi bilan salqin tushdi. Pashshalar endi uyning shifti va shnurda osilib turgan



elektr chiroqlarga mo'rmalaxdek yopishib olishdi. Chiroqni kechasi biron yarador kelib qolsa yoki palatada ish chiqib qolsagina yoqishardi. Shom kirgach, tezda qorong'i tushganligidan va to ertalabgacha yorug'ni ko'rmaganligimdan, nazarimda, o'zimni yana go'dak bo'lib qolganday his qilardim. Xuddi kechki ovqatni yeb bo'lishing bilanoq seni ko'rpaga yotqizishadigandek edi. Vestovoy karavotlar orasidan o'tib to'xtadi. Uning yonida yana kimdir bor edi. Bu kashish edi. Qorachadan kelgan, o'rta bo'yli bu odam qarshimda tortingansimon bo'lib turardi.

– Qalay, tuzukmisiz? – so'radi u. Shundoq o'rinning oldiga, polga u allaqanday o'rog'lik narsalarni qo'ydi.

– Yaxshi, otaxon.

U boya Rinaldiga olib kelingan stulga o'tirdi va ko'zini derazaga olib qochdi. Basharasidan horg'in ko'rinardi.

– Bir zumga kirdim, – dedi u. – Kech bo'lib qoldi.

– Hali vaqtli. U yoqda ishlar yaxshimi?

U jilmaydi.

– Hamon meni ermak qilishadi. – Uning ovozi ham horg'in eshitilardi. – Xudoga shukr, hamma sog'-salomat. – Dardingiz yengil ko'chganidan xursand bo'ldim, – dedi u. – Qattiq og'rimayaptimi?

U g'oyatda holdan toygan kabi ko'rinardi, men uni bu ahvolda birinchi ko'rib turishim edi.

– Hozir unchalikmas.

– Sizning yo'g'ingiz menga juda bilinyapti.

– O'zim ham tezroq qayta qolsam deyman. Siz bilan suhbatlashishni sog'indim.

– Sizga mayda-chuyda olib keldim, – dedi u. – U poldan o'rog'lik narsalarni oldi. – Manavi chivindan saqlanadigan to'r. Bu vermut. Siz vermutni yaxshi ko'rasizmi? Manavilar ingliz gazetalari.

– Qani ochib ko'rsating-chi.

U xursand bo'lib, o'ramlarni yecha boshladi. Men qo'limga chivindan saqlaydigan to'rni oldim. U menga ko'rsatish uchun shishani ko'tarib, yana o'rin oldidagi stolga qo'ydi. Men o'ram ichidan bitta gazetani oldim. Gazetani derazadan tushayotgan g'ira-shira yoruqqa solib, sarlavhasini o'qiy oldim. Bu «Nyus of uorld» edi.

– Boshqalari – suratli varaqlar, – dedi u.

– Jonim bilan o'qib chiqaman. Qayerdan oldingiz?

– Mesterga odam yuborib oldirib keltirdim. Yana topib beraman.

– Yo'qlab kelganingizdan boshim osmonga yetdi, otaxon. Vermut ichmaysizmi?

– Rahmat, ichmayman. U sizga.

– Yo'q demang, iching.

– Xo'p, mayli. Kelasi safar yana opkelaman.

Vestovoy stakanlar keltirdi va shishaning og'zini ochdi. Po'kagi maydalanib ketib, qolganini shisha ichiga tushirib yuborishga to'g'ri keldi. Ruhoniy bundan xafa bo'lganini ko'rdim, lekin u:

– Mayli, hechqisi yo'q, – dedi.

– Sizning salomatligingizga, otaxon.

– Sizning sog'ligingiz uchun.

Keyin u stakanni qo'lida ushlab turdi va biz bir-birimizga tikilib qoldik. Do'stona suhbat qurish uchun xo'b urinib ko'rdim, lekin nima uchundir bugun gap qovushmasdi.

– Tinchlikmi o'zi, otaxon. Juda charchagan ko'rinasiz.

– Men charchadim, lekin charchashga haqim yo'q.

– Bu issiqdan.

– Yo'q. Hali bahor-ku. Ichimga chiroq yoqsa yorimaydi.

– Urush joningizga tegdimi?

– Yo'q. Lekin uni ko'rarga ko'zim yo'q.

– U menga ham yoqinqiramaydi, – dedim men. U boshini chayqab derazaga qaradi.

– U sizga xalal bermaydi. U sizga ko‘rinmaydi. Ma‘zur tuting. Bilaman, siz yaralangansiz.

– Tasodifan.

– Baribir siz yaralanib ham urushni ko‘rmaysiz. Men bunga aminman. O‘zim ham uni ko‘rmayman, lekin men uni biroz his qilaman.

– Men yaralangan maholimda, biz urush haqida gaplashib turgan edik. Passini gapirib turgan edi.

Kashish stakanni qo‘ydi. U allaqanday boshqa bir narsani o‘ylamoqda edi.

– Men ularni tushunaman, chunki o‘zim ham ularning biriman, – dedi u.

– Ammo siz butunlay boshqachasiz.

– Lekin aslida xuddi ularga o‘xshayman.

– Ofitserlar hech nimani ko‘rishmaydi.

– Hammasimas. Juda zukkolari bor, ularga bizga qaraganda ham og‘irroq.

– Unaqalari ko‘p emas.

– Bunda gap tahsil ko‘rganligi yoki pulda ham emas. Bu yerda boshqa gap bor. Passiniga o‘xshagan odamlar o‘qimishli bo‘lib, puldor bo‘lgan chog‘ida ham ofitser bo‘lishga rozilik bermasdi. Men ofitser bo‘lishni istamasdim.

– Unvoningiz bo‘yicha siz ofitsersiz. Men ham ofitserman.

– Yo‘q, buning farqi bor. Siz hatto italyan emas-siz-ku. Siz chet mamlakatning fuqarosisiz. Ammo siz oddiy askarlardan ko‘ra ofitserlarga yaqinroqsiz.

– Buning farqi nimada?

– Tushuntirib berishim qiyin. Urushga talabgor bo‘lib turgan odamlar bor. Bizning mamlakatimizda bundaylar ko‘p topiladi. Urushni istamaydigan odamlar bor.

– Biroq oldingilari bularni majbur qiladi.

– Ha.

– Men esa bunga yordam beryapman.

- Siz chet el odamisiz. Ko'ngillisiz.
- Boyagi urushni istamaydiganlar-chi? Ular urushning oldini ololadilarmi?
- Bilmayman.
- U yana derazaga qaradi. Men uning yuzi o'zgaradimi, yo'qmi – qarab turardim.
- Axir ular biron marta urushga to'sqinlik qilolganmilar?
- Ular birlashishmagan, shuning uchun hech narsaga to'siq bo'lisholmagan, birlashgan chog'larida esa, yo'lboshchilari ularni sotib qo'ymoqda.
- Demak, umid yo'q?
- Umidsiz shayton. Lekin, aytaylik, men umid qilolmasligim mumkin. Men doim umid qilgim keladi, biroq ba'zan umidim uziladi.
- Lekin urush axir bir kun tugaydi-ku?
- Umidim bor.
- O'shanda nima qilasiz?
- Mumkin bo'lsa Abrutstsiga qaytaman.
- Shunda uning qoracha yuzi quvonchdan yorishib ketdi.
- Siz Abrutstsini yaxshi ko'rasizmi?
- Ha, juda sevaman.
- Ana o'sha yerga boring.
- Jon-jon deb borardim-a. U yerda yashab, xudoga sig'inib, unga xizmat qilishning o'zi baxt-ku.
- Hurmat-e'tibor qozonish ham, – dedim men.
- Ha, hurmatga sazovor bo'lish ham. Nima bo'пти?
- Hech nima. Siz bunga to'la sazovorsiz.
- Gap undamas. U yerda, men tug'ilgan yerlarda, o'zini xudoga bag'ishlashni tabiiy bir narsa deb bilishadi. Bu yaramas masxarabozlik emas.
- Tushunaman.
- U menga qarab kulimsiradi.
- Tushunib turasiz-u, lekin xudoni suymaysiz.
- Yo'q.
- Sira suymaysizmi? – so'radi u.

- Baʼzan kechalari undan qoʻrqaman.
- Siz uni suysangiz boʻlardi.
- Men aytarli hech kimni suymayman.
- Yoʻq, – dedi u. – Yolgʻon. Siz menga soʻzlab bergan tunlar-chi. Bu muhabbat emas. U hirs va shahvatning oʻzi, xolos. Agar suysang, muhabbating haqi, biron narsa qilging keladi. Fido boʻlsam deysan. Koʻyida yursam deysan.
- Men hech kimni suymayman.
- Siz sevib qolasiz. Men bilaman, siz sevib qolasiz. Oʻshanda siz baxtiyor boʻlasiz.
- Hozir ham baxtiyorman. Doim baxtiyorman.
- Bu boshqa narsa. Siz boshingizga tushguncha buning nimaligini anglamaysiz.
- Yaxshi, – dedim men, – agar biron bir kun kelib, men buni boshdan kechirsam, sizga aytaman.
- Men siz bilan uzoq oʻtirib qoldim, koʻp gapirib yubordim, – u tipirchilab qoldi.
- Yoʻq. Ketmang. Xotin kishini sevish-chi? Agar men ayol kishini sevib qolsam ham, shunday boʻlarmidi?
- Men buni bilmayman. Men bironta ham ayolni sevgan emasman.
- Onangizni-chi?
- Ha, onamni sevganman, ehtimol.
- Siz doimo xudoni sevganmisiz?
- Bolaligimdan beri.
- Xoʻsh, – dedim men. Nima deyishni bilmay qoldim.
- Siz hali juda yoshsiz.
- Men yoshman, – dedi u. – Biroq siz meni otaxon deb chaqirasiz.
- Odob yuzasidan.
- U kulimsiradi.
- Rostdan ham men borishim kerak, – dedi u. – Sizga biron narsa kerak emasmi? – soʻradi u bir umid bilan.
- Yoʻq. Gaplashib tursak, kifoya.
- Biznikilarning bariga sizdan salom aytaman.

- Sovg'alaringiz uchun rahmat.
- Arzimaydi.
- Yana keling.
- Kelaman. Ko'rishguncha. – U qo'limga urib qo'ydi.
- Xayr, – dedim men lahjada.
- Siao, – qaytardi u.

Xona qop-qorong'i edi, boyatdan beri karavotning oyoq tomonida o'tirgan vestovoy o'rnidan turib, uni kuzatgani chiqdi. Kashish menga juda yoqardi, shuning uchun uning Abrutstsiga qaytish tilagi yuzaga chiqishini istardim. Ofitserlar yemakxonasida uni hol-joniga qo'yishmas, u buni ko'ngliga og'ir olmaslikka tirishardi, biroq men u o'z yurtida o'zini qanday tutishi ustida o'ylardim. Kaprakottada, deb hikoya qilib bergandi u, shaharning shundoq yaqinidagi soyda xonbaliq bor. Kechalari nay chalish man etilgan. Yosh yigitlar ishqiy qo'shiqlar aytishadi, faqat nay chalish mumkin emas. Men nimaga, deb so'radim. Chunki nay ovozi qizlarga kechasi yomon ta'sir qilar ekan. Dehqonlar siz bilan uchrashganda, «don» deb chaqirishadi va shlyapalarini boshdan olishadi. Uning otasi har kuni ov qilib, dehqon kulbalariga tamaddi qilgani kirar ekan. Bu ularda hurmat belgisi sanalar ekan. Chet elning odamlari ovga ruxsat olishlari uchun hech qachon qamoqda yotmaganligi haqida guvohnoma ko'rsatishlari kerak ekan. Gran-Sasso d'Italia tomonda ayiqlar bo'larkan, lekin juda olis ekan. Akvila – chiroyli shahar. Yoz kezlari kechqurunlari salqin tusharkan, ko'klamda esa Abrutstsidan go'zalroq yerni Italiyadan topib bo'lmas ekan. Ammo eng yaxshi fasl kuz ekan, bu paytda kashtanzorlarda ov qilish mumkin bo'larkan. Qushlar uzum yegani uchun juda mazali emish. Ovqatning g'amini yeyishning hojati yo'q. Chunki dehqonlar bilan birga ovqatlansang, bundan ularning boshlari osmonga yetarkan.

Ko'p o'tmay uxlab qolibman.

## O'n ikkinchi bob

Palata uzunchoq bo'lib, o'ng tomondagi devorida derazalari va burchakda bog'lash xonasiga olib chiqadigan eshigi bor edi. Bir qator karavotlar, jumladan, meniki ham deraza ro'parasidagi devor bo'ylab joylashtirilgan bo'lib, ikkinchi qator esa devor ro'parasida derazalar tagiga joylashtirilgan edi. Chap tomonimda yotganimda, menga bog'lash xonasining eshigi ko'rinib turardi. Ichkariroqda yana bir eshik bo'lib, undan ba'zan odamlar kirib turishardi. Bitta-yarimta yarador holati razm bo'lib qolsa, hech kim uning o'layotgani ni ko'rmasin deb, atrofni to'siq bilan berkitib olishar, shunda to'siq tagidan vrachlar va sanitarlarning oyoq kiyimlarigina ko'rinib turar, ba'zan esa oxirida shivir-shivir eshitilib qolardi. So'ng to'siq ortidan ruhoniy chiqib kelar, shunda sanitarlar yana to'siq orqasiga o'tib, u yerdan ustiga boshdan-oyoq ko'rpa tortilgan murdani olib chiqishar va karavotlar o'rtasidagi yo'ldan olib o'tishardi, kimdir to'siqni yig'ib, olib chiqib ketardi.

Shu kuni ertalab palata vrachi mendan, ertaga javob bersak, quvvatingiz keladimi, deb so'rab qoldi. Men, ha, dedim. U holda, dedi u, sizni ertalab barvaqt jo'natamiz. Kunlar isib ketmasdan burun ko'chib o'tsangiz, o'zingizga yaxshi bo'ladi, dedi u.

Bog'lash xonasiga olib borish uchun meni karavotdan turg'izishganda, derazaga qarab, bog'dagi yangi qablarni ko'rish mumkin edi. Bog'ga chiqiladigan eshikda bir soldat but yasab o'tirar va ularga bog'ga ko'milganlarning nomini, unvonini, polkini yozib qo'yardi. U yaradorlar aytgan narsalarni ham qilib berardi, menga u avstris miltig'ining bo'sh patronidan zajigalka yasab berdi. Vrachlar juda xushmuomala, g'oyat tajribali ko'rindilar. Ular meni qo'yarda-qo'ymay Milanga yuborishmoqchi bo'lishdi. Bizlar-

ni hammamizni tezroq chiqarib, ichkariga jo'natishga, hujum boshlanguncha barcha karavotlarni bo'shatishga shoshilishmoqda edilar.

Dala gospitalidan ketish arafasida kechga tomon Rinaldi bosh vrach bilan birga kelib qoldi. Ular meni Milanga, yangi ochilgan Amerika gospitaliga jo'natishayotganini aytishdi. Amerikadan bir qancha sanitar otryadlarining kelishi kutilayotgan ekan, shu gospital ularga va italyan qo'shinidagi boshqa barcha amerikaliklarga xizmat ko'rsatishi kerak ekan. Qizil Xochda ular ko'pchilik edi. Qo'shma Shtatlar Avstriyaga emas, Germaniyaga urush e'lon qilgan edi.

Italyanlar Amerika Avstriyaga ham urush e'lon qiladi, deb ishonishar, shuning uchun ham garchi Qizil Xoch xizmatchilaridan bo'lsa-da, lekin amerikaliklarning kelganiga juda xursand bo'lishdi. Mendan prezident Vilson Avstriyaga urush e'lon qilarmikin, yo'qmi, deb so'rashdi, men bu yaqin kunlar ichida ro'y beradi, deb javob berdim. Men bizning Avstriyaga qarshi qanday da'vomiz borligini bilmasdim, lekin mantiqan o'ylab qaraganda, Germaniyaga urush e'lon qilgach, o'z-o'zidan Avstriyaga ham e'lon qilinishi kerakka o'xshardi. Mendan, bizning Turkiyaga qarshi urush e'lon qilish-qilmasligimizni so'rashdi. Men: ha, biz, ehtimol, Turkiyaga urush e'lon qilsak kerak, dedim.

– Bolgariyaga-chi?

Biz bir qancha qadahdan konyak ichib qo'ygandik va men: ha, jin ursin, Bolgariyaga ham, Yaponiyaga ham, dedim. Bunisi qandoq bo'ldi, deyishdi ular, axir Yaponiya Angliyaning ittifoqchisi-ku. Baribir, bu iflos inglizlarga ishonib bo'lmaydi, Yaponlarga Gavay orollari yoqib qolgan, dedim men.

– Bu Gavay orollarining o'zi qayerda?

– Tinch okeanda. Nega u yaponlarga yoqib qolar-kan? Ularga bu orollar umuman kerak emas, – dedim men.



– Bularning bari quruq gap. Yaponlar ajoyib bir kichkina xalq, raqsni, yengil vinoni yaxshi ko'rishadi. Xuddi fransuzlarga o'xshaydi, – dedi mayor.

– Biz fransuzlardan Nitstsa va Savoyyani tortib olamiz. Korsikaniyam, Adriatika qirg'oqlarini ham, – dedi Rinaldi.

– Italiyaga Rimning ulug'vorligi qaytib keladi, – dedi mayor.

– Menga Rim yoqmaydi, – dedim. – Juda ham issiq joy, burgasi ko'p. Sizga Rim yoqmaydimi?

– Yo'q, men Rimni yaxshi ko'raman. Rim – xalqlarning validasi. Hech qachon Romulning Tibrni qanday emganligini unutilmayman.

– Nima?

– Hech nima. Yuringlar, hammamiz Rimga boramiz. Bugun kechqurun hammamiz Rimga borib, qaytib kelmaymiz. Rim – ajoyib shahar, – dedi mayor.

– Xalqlarning otasi va onasi, – dedim men.

– Roma jinsi muannas-ku, – dedi Rinaldi. – Kota ota bo'lishi mumkin emas.

– Unda otasi kim? Muqaddas ruhmi?

– Shakkoklik qilmang.

– Men shakkoklik qilayotganim yo'q, men tushuntirib berishlarini so'rayapman.

– Siz mastsiz, bebi.

– Kim meni ichirdi?

– Men ichirdim, – dedi mayor. – Men sizni ichirdim, chunki sizni yaxshi ko'raman, chunki Amerika urushga kirdi.

– Boshqa chora yo'q, – dedim.

– Siz ertalab jo'naysiz, bebi, – dedi Rinaldi.

– Rimga, – dedim men.

– Yo'q, Milanga, – dedi mayor, – «Kristal-Palas»ga, «Kova»ga, Kampariga, Biffiga, Galleriaraga. Sizni xudo yorlaqadi.

– «Gran-Italia»ga, – dedim men, – u yerda men Jorjdan qarz olaman.

- «La Skala»ga, – dedi Rinaldi.
- Siz «La Skala»ga borasiz.
- Har oqshom, – dedim men.
- Har oqshom borishga qurbingiz yetmaydi, – dedi mayor. – Biletlar juda qimmat.
- Men bobomning nomiga yozilgan chekni ko'rsataman, – dedim.
- Qanday chek?
- Bobomning cheklari. Yo bobom to'laydi, meni qamashadi. Bankda mister Keningxem buni to'g'rilab beradi. Men bobomning cheklari bilan yashayman. Nahotki, bobom Italiyani xalos qilish uchun qurbon bo'layotgan o'z fidokor nabirasini qamoqqa jo'natsa?
- Yashasin, Amerika Garibaldisi, – dedi Rinaldi.
- Yashasin, bobolarning cheklari, – dedim men.
- Shovqin solmanglar, – dedi mayor.
- Bizdan shovqin solmanglar, deb bir necha bor so'rashdi. Siz ertaga rostdanam ketasizmi, Federiko?
- Sizga aytdim-ku, amerika gospitaliga ketyapti deb, – dedi Rinaldi. – Go'zal hamshiralar oldiga. Har holda dala gospitalining sersoqol kasal boquvchilari oldiga emas.
- Ha, ha, – dedi mayor, – uning Amerika gospitaliga ketayotganini bilaman.
- Menga soqollari xalaqit bermaydi, – dedim men. – Kimda-kim soqol qo'ygisi kelar ekan, qo'yaversin. Nega siz soqol qo'ymadingiz, Signor maggiorre? Soqol protivogazga sig'maydimi? Sig'adi. Protivogazga hamma narsa sig'adi. Bir marta protivogazga tupurganman.
- Sekinroq, bebi, dedi Rinaldi. – Biz hammamiz sizning frontda bo'lganligingizni bilamiz. Oh, azizim bebi, siz ketgach, men qandoq qilaman?
- Endi ketaylik, – dedi mayor. – Bu yog'i yig'loqlik bo'ladiganga o'xshaydi. Quloq soling, sizga ajoyib xushxabarim bor. Ingliz qizingiz. Bilasizku? Har kuni kechqurun ingliz gospitaliga borib yuradiganin-

giz-chi? U ham Milanga ketyapti. U yana bir hamshira bilan Amerika gospitaliga xizmat qilgani ketishyapti. Amerikadan hali hamshiralar kelmabdi. Men bugun ularning riparto<sup>1</sup> boshlig'i bilan gaplashdim. Frontda ayol xizmatchilar ko'p ekan. Bir qismini ichkari-ga jo'natishga qaror qilishibdi. Qalay, sizga yoqadimi, bebi?

– Yomonmas.

– A? Katta shaharda yashab, o'z inglizingiz bilan shakarguftorlik qilasiz. Nega men yaralanmadim-a?

– Hali ulgurasiz, – dedim men.

– Ketaylik endi, – dedi mayor. – Biz ichib, to'polon qilib, Federikoni bezovta qilyapmiz.

– Ketmanglar.

– Yo'q, boraylik. Ko'rishguncha.

– Oq yo'l.

– Xayrli bo'lsin.

– Siao. Ciao. Siao. Tezroq qaytib keling, bebi.

Rinaldi meni o'pdi.

– Sizdan lizol hidi kelyapti. Xayr, bebi.

– Xayr.

– Xayrli bo'lsin.

Mayor yelkamga qoqib qo'ydi. Ular oyoq uchida yurib chiqib ketishdi. Men g'irt mast edim, uxlab qolibman.

Ertasiga ertalab biz Milanga jo'nadik va rosa ikki kundan so'ng yetib keldik. Yo'l rasvo edi. Biz Mestrega yetmasdan ehtiyot yo'lda ancha qolib ketdik, bolalar kelib, oynadan qarashardi. Men bir bolani konyakka borib kelishga ko'ndirdim, lekin u qaytib kelib, faqat grappa borligini aytdi. Men grappa bo'lsayam olib kela qol, dedim, u shishani keltirgach, pulning maydasi o'zingda qola qolsin, dedim, shundan keyin qo'shnim ikkovimiz mast bo'lguncha ichib, Vichentsaga yetguncha uxlab qolibmiz, shu yerga kelganda uyg'onib

---

<sup>1</sup> Otryad (*ital.*).

ketdim, ko'nglim ag'darildi, polga qayt qildim. Buning ahamiyati qolmagandi, chunki qo'shnim mendan bu-runroq bir necha bor ko'ngli ag'darilgan ekan. So'ng, tashnalikdan o'lar holatga yetdim, Veronaga yetgan-da, men poyezd oldida u yoqdan-bu yoqqa yurib tur-gan soldatni chaqirdim, u suv keltirib berdi. Men birga ichishgan qo'shnim Jorjettini uyg'otdim, unga suv tut-dim. U, boshiga quyib yuborishimni so'radi-da, yana uxlab qoldi. Soldat xizmati uchun men bergan pulni olmadi, menga go'shtdor apelsin keltirib berdi. Men apelsinni so'rib, po'stini tuflab tashlagan cha narigi izda turgan yuk vagon oldida u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotgan soldatga qarab yotdim, ko'p o'tmay poyezd siltanib, yo'lga tushdi.

## IKKINCHI KITOB

### O'n uchinchi bob

Milanga erta azonda yetib keldik, bizni yuk satansiyasida tushirishdi. Sanitar avtomobili meni Amerikaga gospitaliga olib keldi. Avtomobil ichida zambilda yotarkanman, qaysi ko'chalardan borayotganligimizni aniqlay olmadim, lekin zambilni ko'tarib tushirishganda, men bozor maydonini va yemakxonaning ochiq eshigini, undan axlat supurib chiqayotgan qizni ko'rdim. Ko'chaga suv sepishmoqda edi, tong nafasi anqirdi. Sanitarlar zambilni yerga qo'yib, ichkariga kirib ketishdi. Keyin ular eshik qorovul bilan qaytib kelishdi. Eshik qorovul soqoli oqargan, bosh kiyimiga zarrin jiyak taqqan, lekin uqalari yo'q edi. Zambil liftga sig'madi va ular meni zambildan olib liftga ko'tarilgan ma'qulmi yoki zinadan zambilda olib chiqqan durustmi, hal qilolmay, tortishib qolishdi. Men bahsga quloq solib yotardim. Liftga olib chiqadigan bo'lishdi. Meni zambildan ko'tara boshlashdi.

– Sekinroq, sekinroq, – dedim men. – Ehtiyot bo'linglar. Kabinaning ichi tor edi, oyog'im bukilib, qattiq og'rib ketdi.

– Oyog'imni to'g'rilab qo'yinglar, – dedim.

– Mumkinmas, signor tenente. Joy yetishmaydi.

Bu gapni aytgan odam bir qo'li bilan meni suyab turardi, uning bo'ynidan quchoqlab oldim. Undan sarimsoqning dimoqni yoradigan hidi bilan qizil vinoning isi kelardi.

– Sekinroq, hoy, – dedi boshqa sanitar.

– Nima men, sekin qilmayapmanmi?

– Sekinroq deyapman senga, – dedi yana boyagi oyog'imdan ushlab turgan.

Kabina eshigi yopilib, panjara tushganini va qorovul to'rtinchi qavatning tugmasini bosganligini ko'rdim.

Qorovulning yuzi tashvishli edi. Lift ohista yuqoriga ko'tarila boshladi.

– Og'irmi? – so'radim og'zidan sarimsoq hidi anqiyotgan kishidan.

– Hechqisi yo'q, – dedi u. Uning yuzi terchigan, o'zi inqillab qolgandi. Lift borgan sari yuqorilab, nihoyat to'xtadi. Oyog'imni ushlab turgan odam eshikni ochib, tashqariga yurdi. Biz maydonchaga chiqdik. Maydonchaga bir nechta mis tutqichli eshik qaragan edi. Oyog'imdan tutib turgan odam tugmani bosdi. Biz eshik nariyog'ida qo'ng'iroq jiringlaganini eshitdik. Hech kim javob bermadi. So'ng zinadan qorovul ko'tarildi.

– Bular qayoqda? – so'rashdi sanitarlar.

– Bilmayman, – dedi qorovul. – Ular pastda uxlashyapti.

– Birontasini chaqiring.

Qorovul qo'ng'iroq chaldi, so'ng taqillatdi, keyin eshikni ochib, ichkariga kirdi. U qaytganida orqasida ko'zoynakli keksaroq ayol ham bor edi. Uning sochlari to'zg'igan, turmagi buzilgandi, u shafqat hamshirasi kiyimida edi.

– Men tushunmayman, – derdi u. – Men italyanchani tushunmayman.

– Men inglizchani bilaman, – dedim men. – Meni biron yerga joylashtirish kerak.

– Bironta ham palata tayyor emas. Biz hali yaradorlar keladi, deb o'ylamovdik.

U sochlarini tartibga solishga urinar, menga ko'zi yaxshi o'tmaydigan odamlarga o'xshab ko'rib-ko'rmay qarardi.

– Meni qayerga qo'yishsin, ko'rsating.

– Bilmayman, – dedi u. – Hech kimni kutmovdik. Sizni qayerga to'g'ri kelsa, shu yerga yotqizolmayman.

– Qayerga bo'lsa ham mayli, – dedim men. Keyin qorovulga italyanchalab aytdim: – Bo'sh xona toping.

– Hammasi bo'sh, – dedi eshik qorovul. – Siz bu yerga kelgan birinchi yaradorsiz. – U bosh kiyimini qo'liga olganicha, o'rta yoshlardagi hamshiraga qarab turardi.

– Balo bo'lmaydimi, biron joyga yotqizsanglar-chi, meni! – bukilgan oyoqlarimda og'riq zo'raymoqda, suyak-suyagimdan o'tib bormoqda edi. Qorovul sochlari oqargan hamshira bilan qayergadir g'oyib bo'ldi, so'ng tez qaytib keldi.

– Orqamdan yuringlar, – dedi u. Meni uzun yo'lakdan suyab borishib, darpardalari tushirilgan xonaga olib kirishdi. Xonadan yangi jihozlar hidi kelardi. Devor oldida karavot, burchakda katta toshoyna turardi. Meni karavotga yotqizishdi.

– Choyshab berolmayman, – dedi ayol, – hammasi qulffog'lik.

U bilan adi-badi qilib o'tirmadim.

– Cho'ntagimda pul bor, – dedim qorovulga. – Tugmasi qadalgan cho'ntagimda.

Qorovul pulni oldi. Har ikkala sanitar o'rnim oldida shapkalarini ushlaganicha turishardi.

– Ikkovlariga ham besh lirdan bering, besh lirni o'zingiz oling. Qog'ozlarim boshqa cho'ntakda. Ularni hamshiraga olib bering.

Sanitarlar qo'llarini chakkalariga qo'yib rahmat aytishdi.

– Xayr, – dedim men. – Sizga ham katta rahmat.

Ular yana bir karra qo'llarini chakkalariga qo'yib, ketishdi.

– Mana, – dedim hamshiraga, – bu mening varaqam va kasallik tarixim.

Ayol qog'ozlarni olib, ularga ko'zoynakdan boqdi. Qog'ozlar uchta bo'lib, taxlab qo'yilgandi.

– Nima qilishimni ham bilmayman, – dedi u. – Men italyanicha o'qishni bilmayman. – Men vrach ko'rsatmasi bo'lmasa, hech narsa qilolmayman. – U yig'lab yubordi va qog'ozlarni etagining cho'ntagiga soldi. – Siz amerikalikmisiz? – so'radi u ko'z yoshi aralash.

– Ha. Qog‘ozlarni karavot oldidagi stolcha ustiga qo‘ya qoling.

Xona g‘ira-shira qorong‘i va salqin edi. Karavotdan javonning katta oynasi ko‘zga tashlanar, lekin unda nima aks etayotgani ko‘rinmasdi. Qorovul karavot oyog‘ida turib qoldi. Uning o‘ktam chehrasi oqko‘ngil kishi ekanidan dalolat berardi.

– Ketaversangiz ham bo‘ladi, – dedim unga. – Siz ham, – dedim hamshiraga. – Ismingiz nima?

– Missis Uoker.

– Boravering, missis Uoker. Men uxlab olmoqchiman.

Xonada yolg‘iz qoldim. U salqin edi, kasalxonaning hidi kelmasdi. To‘shak qattiq va yotish uchun qulay edi, men qimir etmay, deyarli nafas ham olmay, og‘riq qolayotganidan suyunib yotardim. Biroz o‘tgach, chanqadim, bosh tomonimda qo‘ng‘iroq tugmasini topib, bosdim, lekin hech kim kelmadi. Uxlab qoldim.

Uyg‘ongach, atrofga nazar soldim. Deraza qanotlari orasidan oftob nuri tushib turardi. Ko‘zim katta garderoibga, quruq devorlar-u ikkita kursiga tushdi. Dokalari kir bo‘lib ketgan oyoqlarim yog‘ochga o‘xshab chiqib turardi. Ularni qimirlatmaslikka harakat qilardim. Tomog‘im quruqshab ketgandi, men qo‘ng‘iroq tugmasini bosdim. Eshik ochilganini eshitdim va kechagi emas, boshqa hamshirani ko‘rdim. U menga yosh va yoqimtoygina bo‘lib ko‘rindi.

– Xayrli tong, – dedim men.

– Xayrli tong, – dedi u va karavotga yaqin keldi. – Doktor chaqirolmadik. U Komoga ketgan ekan. Biz bugun odam keltirishlarini bilmovdik. Sizga nima qilgan?

– Yaralanganman. Ikkala tizzam va tovonlarim, boshimga ham tekkan.

– Ismingiz nima?

– Genri, Frederik Genri.

– Sizni hozir yuvintirib qo‘yaman. Ammo doktor kelmaguncha yarangizni yecholmaymiz.



- Ayting-chi, miss Barkli shu yerdami?
  - Yo‘q. Bizda unaqasi yo‘q.
  - Meni opkelishganda yig‘lagan xotin kim edi?
- Hamshira kulib yubordi:

– U missis Uoker. U kechasi navbatchilik qilib uxlab qolibdi. Hozir hech kim kelmaydi, deb o‘ylabdi.

Gap orasida u ust-boshimni yechib oldi, bog‘lardan boshqa hamma narsani yechib bo‘lgach, meni epchilik bilan yuvintira boshladi. Yuvingach, juda yengil tortdim. Boshim bog‘lab tashlangan edi, lekin u boylog‘liq joylarning chetini gir aylantirib yuvib chiqdi.

- Qayerda yarador bo‘ldingiz?
- Plavadan shimolroqda. Izontsoda.
- Qayerda u?
- Goritsiyadan shimolroqda.

Bu nomlardan u hech nima tushunmayotganligini ko‘rib turardim.

- Qattiq og‘riyaptimi?

U og‘zimga harorat o‘lchagich qo‘ydi.

- Italianlar qo‘ltiqqa qo‘yishadi, – dedim.
- Gaplashmang...

U og‘zimdan asbobni olib, haroratni ko‘rdi-da, shu zahoti silkitib tashladi.

- Harorat qancha?
- Siz bilmasligingiz kerak.
- Ayting, qanday?
- Deyarli o‘rtacha.

– Hech qachon issig‘im ko‘tarilgan emas. Vaholan-ki, oyog‘imda eski temir tiqilib yotibdi.

- U nima deganingiz?

– Oyog‘imda mina parchalari ham, zanglagan mixlar ham, karavotning simlari ham, barcha lash-lushdan bor.

U boshini chayqab, jilmaydi.

– Agar oyog‘ingizda ozgina boshqa narsa bo‘lganida ham, yallig‘lanib ketib, issig‘ingiz ko‘tarilgan bo‘lardi.

– Mana ko‘ramiz, – dedim, – operatsiyada oyog‘imdan nimalar olisharkin.

U xonadan chiqib, kechasi navbatchilik qilgan keksa hamshira bilan qaytib keldi. Ikkovlashib, meni o‘rnimdan turg‘izmasdan, choyshab to‘shab berishdi. Bunaqasini birinchi ko‘rishim edi, juda boplab bajarishdi.

– Gospitalning mudiri kim?

– Miss Van-Kampen.

– Hamshiralar nechta?

– Faqat ikkovimiz.

– Boshqa hech kim yo‘qmi?

– Yana kelishlari kerak.

– Qachon?

– Bilmayman. Bemor hamma narsaga qiziqavermasligi kerak.

– Men bemor emasman, – dedim. – Men yaradorman. Ular o‘rinni to‘g‘rilab bo‘lishdi, endi men chiniday toza choyshabda yotar, ustimga ham xuddi shunday boshqasi yopilgan edi. Missis Uoker chiqib ketdi-da, pijama ko‘tarib, qaytib keldi. Pijamani menga kiydirishdi va men o‘zimni kiyingan, juda ozoda bo‘lgandek his qildim.

– Judayam erkalab yubordinglar, – dedim men. Ismi miss Geyj bo‘lgan hamshira kulimsiradi. – Menga suv berolmaysizlarmi?

– Marhamat. Keyin ovqatlanish ham mumkin.

– Ovqat yegim kelmayapti. Mumkin bo‘lsa, darpardalarni ko‘tarib qo‘yilsa.

Xona g‘ira-shira edi. Darpardasi ochilgach, u oppoq oftob nuri bilan to‘ldi, ko‘zim ayvonga, ayvon osha tomlarning cherepitsalari va mo‘rilariga tushdi. Tomlar uzra qarab parquv bulutlarni, lojuvard osmonni ko‘rdim.

– Boshqa hamshiralar qachon kelishini bilmaysizmi?

– Nima qildi? Biz yaxshi qarolmayapmizmi?

– Judayam iltifotli ekansizlar.

– Balki sizga tirgak kerakdir?

– Mayli.

Ular meni suwab ko‘tarishdi va shu holatda biroz ushlab turishdi, ammo buning nafi tegmadi. Keyin men yotgan ko‘yim ochiq eshikdan ayvonga termilib yotdim.

– Doktor qachon keladi?

– Qaytishi bilan. Biz telefonda Komoga qo‘ng‘iroq qildik, yetib kelsin deb.

– Boshqa vrachlar yo‘qmi?

– U gospitalimizning vrachi.

Miss Geyj suv solingan grafin bilan stakan olib keldi. Men uch stakan ichdim, keyin ular ketishdi, men yana allavaqtgacha derazaga tikilib yotib, so‘ng uxlab qoldim. Ikkinchi nonushtani yedim, nonushtadan so‘ng oldimga mudira miss Van-Kampen kirdi. Men unga yoqmadim, u ham menga yoqmadi.

U pakanadan kelgan, har narsadan shubhalanaveradigan, g‘oyatda kibr-havoli ayol ekan. U menga bir talay savollar berdi, aftidan, italyan qo‘shinida xizmat qilishni uyat sanardi.

– Tushlikka vino olsam ham bo‘ladimi? – so‘radim undan.

– Vrach ijozat bersagina.

– U kelguncha iloji yo‘qmi?

– Mutlaqo.

– Sizningcha, u kelib qolarmikin?

– Unga telefonda aytishgan.

U ketgach, xonaga miss Geyj kirdi.

– Nega miss Van-Kampenga qo‘pol muomala qildingiz? – so‘radi u mening barcha yumushlarimni saranjomlab bo‘lgach.

– Unday qilmoqchi emasdim, biroq u juda burni tanqaygan xotin ekan.

– U sizni har narsa so‘rayveradi, qo‘pol, deb aytdi.

– Hech-da. Biroq, rost-da o‘zi, vrachsiz gospital ham bo‘larmishmi?

- U kelib qoladi. Unga, Komoga telefon qildik.
- U yerda nima qiladi? Ko'lda cho'miladimi?
- Yo'q. U yerda kasalxonasi bor.
- Nega bo'lmasa, boshqa vrach olishmaydi?
- J-jim. Jim. Aqlli bola bo'ling, u hademay kelib qoladi.

Men qorovulni chaqirib berishni so'radim, u kelgan edi, unga italyanchalab vino do'konidan bir shisha chintsano, bir flyaga kyanti bilan oqshomgi gazeta keltirib berishni so'radim. U aytganimdan qilib, shishalarni gazetaga o'rab olib keldi, gazetani ochdi, iltimos qilgan edim, shishalarning og'zini ochdi-da, karavot ostiga qo'ydi. Shundan keyin oldinga hech kim kelavermadi, men o'rinda yotganча gazeta o'qishga tushdim, front xabarlarini, halok bo'lgan ofitserlarning ro'yxatini, ular olgan mukofotlarni ko'rib chiqdim, so'ng qo'limni pastga yuborib, chintsano shishasini topdim-da, muzdek tag tomonini qorninga qo'yib, ho'play-ho'play icha boshladim, har ho'plamdan so'ng shishani yana qorninga qo'yar, har safar qorninga uning izlari tushib qolar, o'zim esa shahar tomlari uzra osmonning tobora qorayib borishiga termilib yotardim. Tomlar ustida qaldirg'ochlar va tungi qirg'iyalar uchib yurishardi, men ularning uchishiga mahliyo bo'lib, chintsano ichardim. Miss Geyj menга stakanda gogol-mogol olib keldi. U kirishi bilanoq, shishani karavot tagiga tiqdim.

- Miss Van-Kampen bunga ozgina xeres qo'shishni buyurdi, - dedi u. - Unga qattiq gapirmang. Ancha yoshga borib qolgan, gospitalga mudirlik qilishning o'zi bo'lmaydi, mas'uliyati katta. Missis Uoker juda qarib qolgan, yordami tegishidan tegmasi ko'proq.

- U ajoyib xotin ekan, - dedim men, - mening nomimdan rahmat deb qo'ying.

- Sizga hozir kechki ovqat opkelaman.

- Kerakmas, - dedim. - Och qolganim yo'q.

U patnis keltirib, o‘rin oldidagi stolchaga qo‘ydi, minnatdorchilik bildirib, totinganday bo‘ldim. Keyin butunlay qorong‘i tushdi, osmonda projektorlarning nuri izg‘ib qoldi. Men birmuncha vaqt ularni kuzatib turdim, so‘ng uxlab qolibman. Tosh qotib uxlabman, lekin bir marta qo‘rquvdan qora terga botib uyg‘onib ketdim, keyin hozirgina ko‘rgan qo‘rqinchli tushni qayta ko‘rmaslikning payida bo‘lib, yana uxlab qoldim. Men yana hali tong otmasdan burun uyg‘ondim, xo‘rozlarning qichqirishlariga quloq solib, tong yorish-guncha uxlolmay yotdim. Uyqum kelmay yotaverib, holdan toydim va sahar payti yana uyquga toldim.

### **O‘n to‘rtinchi bob**

Ko‘zimni ochsam, xona quyosh nuriga to‘lgan edi. O‘zimni frontda turganday his qildim va g‘oz turmoqchi bo‘ldim. Oyoqlarim sirqirab ketdi, shunda ularga qarab, kir dokalarni ko‘rgach, qayerdaligimni esladim. Men qo‘ng‘iroqqa bo‘y cho‘zib, tugmasini bosdim. Dahlizda jaranglagan ovoz eshitildi va tagi rezina poyabzalda al-lakim yumshoq qadam tashlab o‘tdi. Bu miss Geyj edi; oftobning yorqin nurlarida uning yoshi o‘tinquiraganday, o‘zi ham mundayroqday bo‘lib ko‘rindi.

– Xayrli erta, – dedi u. – Yaxshi yotib turdingizmi?

– Yaxshi, rahmat, – dedim. – Sartarosh chaqirish-ning iloji bo‘lmasmikin?

– Men oldingizga kiruvdim, siz qo‘lingizda manovi bilan uxlab yotgan ekansiz.

U javonni ochib menga chintsano shishasini ko‘rsatdi. Shisha deyarli bo‘shab qolgandi.

– Men karavot tagidagi boshqa shishani ham u yer-ga qo‘ydim, – dedi u.

– Nega mendan stakan so‘ray qolmadingiz?

– Men ichishga yo‘l qo‘ymaysiz, deb qo‘rqdim.

– Balki, birga ichishgan bo‘larmidim.

– Ana bu zo‘r gap bo‘ldi.

– Sizga yolgʻiz ichish ziyon qiladi, – dedi u. – Hech qachon bunday qilmang.

– Boshqa qilmayman.

– Siz aytgan miss Barkli keldi, – dedi u.

– Rostdanmi?

– Ha. U menga yoqmadi.

– Keyin yoqib qoladi. U juda ham ajoyib. – U boshini sarak-sarak qilib qoʻydi. – Uning ajoyibligiga shubham yoʻq. Siz sal beriroq surilib turolmaysizmi? Ana, juda soz. Sizni nonushtagacha saranjom-sarishta qilib qoʻyaman. – U meni latta, sovun va iliq suv bilan yuvintira boshladi. – Qoʻlingizni koʻtarib yuboring-chi, – dedi u. – Ana, juda soz.

– Sartarosh nonushtagacha kelib ketolmasmikin-a?

– Hozir qorovulga aytaman. – U chiqib ketib, tezda qaytib keldi. – Qorovul chaqirgani ketdi, – dedi u va lattachasini tosda hoʻllab oldi.

Sartarosh qorovul bilan kirib keldi. Sartarosh elliklarga borgan, shopmoʻylov kishi edi. Miss Geyj oʻz ishini tugatib chiqib ketdi, sartarosh chakkalarimga sovun surtib, soqolimni ola boshladi. U oʻz ishini namoyishkorona suratda, lom-mim demay ado etardi.

– Ogʻzingizga suv olganmisiz? Yangiliklardan soʻylang, – dedim.

– Qanday yangiliklar?

– Qanday boʻlsa ham baribir. Shaharda nima gaplar?

– Urush vaqti, – dedi u. – Dushmanning har yerda qulogʻi bor.

Men unga oʻgirilib qaradim.

– Boshingizni qimirlatmay turing, – dedi u va soqol olishda davom etdi. – Men hech narsa aytmayman.

– E, sizga nima boʻlgan oʻzi? – soʻradim men.

– Men italiyalikman. Men dushman bilan gaplashib oʻtirmayman.

Zoʻrlab oʻtirmadim. Telbakezikroq ekan, ustarasini tezroq boʻynimdan olsa, shuncha yaxshi. Bir safar uni

tuzukroq ko'rib olmoqchi bo'ldim. – Ehtiyot bo'ling, – dedi u. – Ustara o'tkir.

Soqolni olib bo'lgach, haqini to'lab, choychaqa deb yarim lira qo'shib uzatdim. U pulni qaytardi.

– Men olmayman. Men frontda emasman. Lekin men italiyalikman.

– Yo'qoling ko'zimdan!

– Ijzatingiz bilan, – dedi u va ustalarini gazeta-ga o'radi. U besh dona mis tangani stolchada qoldirib ketdi. Qo'ng'iroq chaldim. Miss Geyj kirdi.

– Baraka toping, menga qorovulni chaqirib bering.

– Xo'p bo'ladi.

Qorovul keldi. U o'zini zo'rg'a kulgidan tutib turardi.

– Nima, bu sartarosh jinni bo'lib qolganmi?

– Yo'q, signorino. Anglashilmovchilik. Mening gapim-ni yaxshi eshitmay, sizni avstris ofitseri deb o'ylabdi.

– O, xudo, – dedim men.

– Xo-xo-xo, – xaxoladi eshik qorovul. – Ana hangoma! «Qimir etsin-chi», deydi, «men uning!..» – Eshik qorovul qo'li bilan bo'ynini kesib ko'rsatdi. – Xo-xo-xo! – U o'zini kulgidan to'xtatolmasdi. – Unga sizning avstris emasligingizni aytsam deng? Xo-xo-xo!

– Xo-xo-xo, – dedim jahlim chiqib. – Hiqildog'im-dan shart kesib tashlasa, toza hangoma bo'lardi, a. Xo-xo-xo.

– Undaymas, signorino. Yo'q, yo'q. U sizni avstris deb, o'larday qo'rqib ketibdi. Xo-xo-xo!

– Xo-xo-xo, – dedim men. – Yo'qoling ko'zimdan.

U chiqib ketdi, eshik orqasidan hamon uning xaxolagani eshitalardi. Men yo'lakda kimningdir qadam tovushlarini eshitdim. Eshikka o'girilib qaradim. Bu Ketrin Barkli edi.

U xonaga kirib, o'rin oldiga keldi.

– Salom, azizim! – dedi u. Uning chehrasi gul-gul ochilgan, juda chiroyli edi. Men hech qachon bunday chiroyli chehrani ko'rmaganman, deb o'yladim.

– Salom! – dedim. Uni koʻrganim zamon, oshiq boʻlib qolganimni angladim. Menda hamma narsa agʻdar-toʻntar boʻlib ketdi. U eshikka qarab qoʻyib, hech kim yoʻqligini koʻrdi. Shunda u karavotning chetiga oʻtirib, engashdi va meni oʻpdi. Men uni bagʻrimga tortdim va oʻpdim, uning yuragi gupullab urmoqda edi.

– Jonginam, – dedim. – Kelganingiz qandoq yaxshi boʻldi.

– Kelish qiyin boʻlmadi. Qolish, ehtimolki, qiyinroq boʻlar.

– Siz qolishingiz kerak, – dedim men. – Siz ajoyib-siz. – Men devona boʻlib ketdim. – Uning bu yerdaligiga hamon ishonmasdim, shuning uchun bagʻrimga qattiq bosib olgan edim.

– Kerakmas, – dedi u. – Hali sogʻayib ketganingiz yoʻq.

– Sogʻman. Kel, oldimga.

– Yoʻq. Hali madorga kirmagansiz.

– Shunaqa. Madorim joyida. Ke.

– Siz meni sevasizmi?

– Men seni juda sevaman. Men devona boʻlib qolaman. Kela qolsang-chi.

– Yuragim qanday uryapti, eshityapsizmi?

– Yuragingni qoʻy. Oʻzingni xohlayman. Aqldan ozyapman.

– Siz meni rostdan sevasizmi?

– Bu haqda boshqa gapirma. Kela qol. Eshityapsanmi? Ke, Ketrin.

– Xoʻp, mayli, faqat bir daqiqaga.

– Xoʻp, – dedim. – Eshikni yop.

– Mumkinmas. Hozir mumkinmas.

– Ke. Hech narsa dema. Kela qol.

Ketrin karavot oldidagi kresloda oʻtirardi. Yoʻlakka chiqadigan eshik ochiq edi. Birmuncha oʻzimga keldim, umrimda jonim bunchalar farogʻatda boʻlgan boshqa bir damni eslolmayman. U soʻradi:



- Seni sevishimga endi ishonasanmi?
  - Sen mening azizamsan, – dedim. – Sen shu yerda qolasan. Seni boshqa yerga yuborishmaydi. Seni shunchalar yaxshi ko‘ramanki, telba bo‘lib qolyapman.
  - Biz judayam qattiq ehtiyot bo‘laylik. Biz butunlay boshimizni yo‘qotib qo‘ydik. Bunday mumkinmas.
  - Kechasi mumkin.
  - Biz judayam qattiq ehtiyot bo‘laylik. Begonalar oldida sen ehtiyot bo‘lishing kerak.
  - Ehtiyot bo‘laman.
  - Ehtiyot bo‘lishing shart. Sen yaxshisan. Sen meni yaxshi ko‘rasan, a?
  - Gapirma bu haqda. Bo‘lmasa seni qo‘yib yubor-  
mayman.
  - Xo‘p, boshqa gapirmayman. Sen meni qo‘yib yuborishing kerak. Men borishim kerak, jonim, rost.
  - Darrov qaytib kel.
  - Imkoni bo‘lishi bilan qaytib kelaman.
  - Ko‘rishguncha.
  - Ko‘rishguncha, qo‘zim.
- U chiqdi. Xudo shohid, men uni yaxshi ko‘rmoqchi emasdim. Men hech kimni sevishni istamovdim. Lekin, xudo shohid, men sevib qoldim, men Milan gospitalida karavotda yotibman-u, boshimda ming turli xayol g‘uvullaydi, o‘zimni xursandlikdan ko‘klarda ko‘raman, shunda nihoyat xonaga miss Geyj kiradi.
- Doktor kelarkan, – dedi u. – U Komodan qo‘ng‘i-  
roq qildi.
  - Qachon bu yerda bo‘larkan?
  - U kechqurun keladi.

### **O‘n beshinchi bob**

Kechga dovur hech nima ro‘y bermadi. Doktor yuvoshgina oriqqina odam ekan, xuddi urush uni izdan chiqarganga o‘xshab ko‘rinadi. U nazokatli, inja bir jirkanish bilan sonimdan bir nechta mayda po‘lat par-

chalarini chiqarib oldi. U oyogʻimning ayrim joylarini ogʻriqsizlantirib oʻzining tili bilan aytganda, «muzlatib» qoʻydi, natijada tigʻ yoki nashtar urilgan mahalda qotib, yogʻoch boʻlib qolgan joydan pastroqqa tegmaguncha, ogʻriq sezilmasdi. Jonsizlangan badanning chegarasini aniq bilsa boʻlardi, koʻp oʻtmay doktorning nazokatidan asar ham qolmadi va u yaxshisi, rentgen qildirish kerak, paypaslab bilib boʻlmayapti, dedi.

Rentgen kabineti ospedale magglore<sup>1</sup>da boʻlib, rentgen qiluvchi doktor sershovqin, chaqqon va quvnoq odam ekan. Davolanuvchini yelkasidan tutib turganlaridan, u tanasidagi barcha kattaroq chet jismlarni bemalol koʻrib turardi. Tasvirlarni keyin yuborishar ekan. Doktor oʻzining qoʻyindaftarchasiga ismim, polkim va yana xotira uchun biror narsa yozib berishimni soʻradi. U barcha chet narsalarni yaramas, jirkanch, rasvo deb eʼlon qildi. Avstrislar betamiz bolalar. Qancha odam oʻldirdim? Men bironta ham odam oʻldirmovdim, lekin unga xush yoqadigan biron gap aytish niyatida, men oʻldirgan avstrislarning son-sanogʻi yoʻq, dedim. Men bilan birga miss Geyj borgan edi, doktor uning belidan quchoqladi-da, siz Kleopatradan ham goʻzalroqsiz, dedi. Tushunarlimi? Kleopatra, sobiq Misr malikasi. Ha, u Kleopatradan goʻzalroq. Sanitar mashina bilan yana gospitalimizga olib kelib qoʻydi, biroz muddatdan soʻng, u zambildan olib zambilga solisha-solisha, nihoyat, tepaga, oʻz oʻrnimga olib chiqishdi. Tushlikdan soʻng tasvirlar keldi; doktor, tushdan soʻng tasvirlar tayyor boʻladi, devdi, soʻzining ustidan chiqibdi. Ketrin Barkli menga ularni koʻrsatdi. Tasvirlar qizil xatjildga joylangandi, Ketrin ularni xatjildan oldi, ikkovimiz yoruqqa solib koʻrishdik.

– Bu oʻng oyoq, – dedi u va tasvirni yana joyiga solib qoʻydi. – Manovi chap oyoq.

---

<sup>1</sup> Bosh gospital (*ital.*).

– Ularni biron yerga qo‘yib, – dedim men, – o‘zing yonimga kel.

– Mumkinmas, – dedi u. – Men faqat bir daqiqaga tasvirlarni ko‘rsatgani keldim.

U ketdi va men yolg‘iz qoldim. Kun isib ketdi, to‘shakda yotish jonimga tegdi. Men qorovuldan gazetalar olib kelishni so‘radim.

Uni kutib yotsam, xonaga uchta vrach kirib keldi. Men, tajribasi kam vrachlar bir-birlari bilan maslahatlashish, yordam so‘rashga moyil bo‘lishlarini anchadan beri bilardim. Ko‘richagingizni tuzukroq qilib kesib ololmaydigan vrach sizni boshqasiga, tomoqdagi bezni eplab ololmaydiganga jo‘natadi. Bu uchala vrach ham shundaylardan edi.

– Mana bizning yosh bemorimiz, – dedi harakatlari nazokatli gospital vrachi.

– Salom, – dedi baland bo‘yli, soqol qo‘ygan oriq vrach. Qo‘lida qizil xatjilddagi rentgen suratlarini ushlab turgan uchinchi vrach hech narsa demadi.

– Bog‘larini yechamizmi? – savolomuz dedi soqolli vrach.

– Albatta. Marhamat, hamshira, bog‘larini yeching, – dedi gospital vrachi.

Miss Geyj bog‘larni yechdi. Men oyoqlarimga qaradim. Dala gospitalida yotganimda, ular mog‘orlagan qiymaga o‘xshovdi. Endi ular qotib et bog‘lagan, oqargan edi. Boldirim yumshab, salqib qolgandi, ammo yaralar irimagan edi.

– Top-toza, – dedi gospital vrachi. – Juda ham toza va yaxshi.

– Hm, – dedi soqolli vrach. Uchinchi vrach gospital vrachining yelkasi osha qaradi.

– Marhamat, tizzangizni buking, – dedi soqolli vrach.

– Bukolmayman.

– Bo‘g‘inlarining ishlashini ko‘ramizmi? – savolomuz dedi soqolli vrach. Uning yengida uchta yulduzchadan

**tashqari** hoshiya ham bor edi. Bu uning tibbiyot xizmati kapitani ekanligini ko'rsatardi.

– Shubhasiz, – dedi gospital vrachi.

Ikkovlari o'ng oyog'imdan ohista ushlab, buka boshladilar.

– Og'riyapti, – dedim.

– Shunday, shunday. Yana biroz, doktor.

– Yetar. Boshqa bukilmaydi, – dedim.

– Chala ishlayapti, – dedi soqolli vrach. U qaddini ko'tardi. – Tasvirlarini yana bir ko'rishga ruxsat eting, doktor. – Uchinchi vrach suratlardan birini uzatdi. – Yo'q. Marhamat. Chap oyog'inikini.

– Bu chap oyoq, doktor.

– Ha, to'g'ri. Men boshqa tomondan qarabman. – U tasvirni qaytarib berdi. Boshqa tasvirga u bir necha daqiqa tikilib qoldi.

– Ko'ryapsizmi, doktor? – U yorug'da aniq ko'rinib turgan chet jismlardan birini ko'rsatdi. Ular tasvirga yana bir necha daqiqa qarab turishdi.

– Men faqat bir narsa deyishim mumkin, – dedi kapitan unvonidagi soqolli vrach. – Bu vaqt masalasi. Uch oy yoki, ehtimol, olti oydan keyin.

– Shubhasiz, axir sinovial suyuqlik yig'ilishi kerakku, yana.

– Shubhasiz. Bu vaqt masalasi. Men tizza kosa-sini ochishni temir parchaning atrofi qotmaguncha bo'ynimga olmagan bo'lardim.

– Fikringizga to'la qo'shilaman, doktor.

– Nega yarim yil? – so'radim men.

– Yarim yil oskolkaning atrofi qotishi uchun ketadi, o'shanda tizzangizni bemalol ochib ko'rish mumkin.

– Men bunga ishonmayman, – dedim.

– Oyog'ingizning omon qolishini xohlaysizmi, yigit?

– Yo'q, – dedim.

– Nima?

– Uni kesib tashlashlarini istayman, – dedim, – toki qarmoq qilishga yarasa bo'lgani.

– Nima demoqchisiz? Qarmog‘ingiz nimasi?

– U hazillashyapti, – dedi gospital vrachi va yelkamga nazokat bilan qoqib qo‘ydi. – U oyog‘ini saqlab qolishni istaydi. Bu juda mard yigit. U jasorat ko‘rsatgani uchun kumush medalga tavsiya etilgan.

– Yurakdan tabriklayman, – dedi kapitan unvonidagi vrach. – U qo‘limni qisdi. – Men bunday tizzani ochishda tavakkalchilik qilib o‘tirmaslik uchun yarim yil zarur, deb aytolaman, xolos. Turgan gap, siz boshqacha fikrda bo‘lishingiz mumkin.

– Ko‘pdan-ko‘p tashakkur, – dedim. – Sizning fikringiz men uchun g‘oyat qimmatli.

Kapitan unvonidagi vrach soatiga qaradi.

– Ketadigan vaqtimiz bo‘ldi, – dedi u. – Sizga yaxshi tilaklarimni bildiraman.

– Sizga ham shunday, katta rahmat, – dedim.

Men uchinchi vrachning qo‘lini siqdim: «Capitano Varini – tenente Yenru», – va uchovlari chiqib ketishdi.

– Miss Geyj, – deb chaqirdim. U kirib keldi. – Gospital vrachini yana bir daqiqaga chaqirib bering.

U bosh kiyimini qo‘lida ko‘tarib kirdi va karavot oldida to‘xtadi.

– Meni ko‘rmoqchi edingizmi?

– Ha. Men operatsiyani yarim yil kutolmayman. Yo xudo, doktor, hech yarim yil to‘shakda yotib ko‘rganmisiz?

– Siz har doim yotavermaysiz. Avval yaralaringizni oftobga solishingiz kerak. Keyin qo‘ltiqtayoqda yura boshlaysiz.

– Yarim yil, undan keyin operatsiyami?

– Eng bexatar yo‘l shu. Chet jismlar atrofi qotib, yana sinovial suyuqlik yig‘ishini kutish kerak. O‘shanda tizzangizni bexavotir ochish mumkin.

– Uzoq yotishim kerakligiga o‘zingiz ishonasizmi?

– Eng bexavotir yo‘l.

– Kapitan unvonidagi vrach kim bo‘ladi?

- Milanning eng yaxshi jarrohlaridan.
- Axir, u kapitan unvonida, to'g'rimi?
- Ha, lekin u juda yaxshi jarroh.
- Men oyog'imni allaqanday bir kapitan titkilashi-ni istamayman. Agar qo'ldan biron ish kelganda, u mayor bo'lardi. Men kapitanning nimaligini bilaman, doktor.
- U juda yaxshi jarroh va men kim bo'lishidan qat'i nazar boshqa odamlarniki bilan emas, u kishining fikri bilan ko'proq hisoblashaman.
- Oyog'imni boshqa jarrohga ko'rsatish mumkinmi?
- Shubhasiz, agar shuni istasangiz. Lekin men shaxsan doktor Varellaning aytganini qilgan bo'lardim.
- Siz menga boshqa jarroh chaqirolmaysizmi?
- Men Valentinini chaqiraman.
- Kim u?
- A Ospedal maggioredga ishlaydi, jarroh.
- Mayli. Sizdan juda minnatdor bo'laman. Tushu-ning, doktor, men yarim yil to'shakda yotolmayman.
- To'shakda yotavermaysiz. Avval quyosh nurini qabul qilasiz. Keyin yengil mashqlar qila boshlaysiz, so'ng oskolkaning atrofi bitgach, operatsiya qilamiz.
- Lekin men yarim yil kutolmayman.
- Doktor qo'lidagi bosh kiyimini nazokat bilan siypab qo'ydi-da, tabassum qildi:
- Frontga tez qaytmasangiz, ichingiz ilimaydimi?
- Ilimasa nima bo'пти?
- Qandoq ajoyib! – dedi u. – Oliyjanob yigit. – U en-gashdi-da, nazokat bilan peshonamdan o'pib qo'ydi.
- Valentiniga odam yuboraman. Hayajonlanib, tash-vishlanib o'tirmang. Aqlli bo'ling.
- Vino ichasizmi, doktor? – taklif qildim men.
- Yo'q, rahmat. Men ichmayman.
- Bir stakan hammi. – Men stakan keltirsin deb, qorovulga qo'ng'iroq qildim.
- Yo'q, yo'q, rahmat, meni kutib turishibdi.

- Ko‘rishguncha, – dedim.
- Ko‘rishguncha.

Ikki soatdan so‘ng xonaga doktor Valentini kirdi. U juda shoshib turgan ekan, mo‘ylovlarining uchi tepaga qayrilgan edi. Uning unvoni mayor bo‘lib, yuzi of-tobda pishgan, xandon-xushon odam edi.

– Qayerda orttirdingiz bularni? – dedi u. – Qani su-ratlarni ko‘rsating-chi. Xo‘sh-xo‘sh. Buni qarang-a, ot-day baquvvat ekansiz. Anov yoqimtoygina qiz kim edi? Sevgilingizmi? Shundaydir, deb o‘ylovdim. Shu urush yomon bo‘ldi-da! Bu yer og‘riyaptimi? Azamat ekansiz. Tuzatamiz, ko‘rmaganday bo‘lib ketasiz. Bu yer og‘ri-yaptimi? Og‘rimasinmiyam. Bu doktorlar og‘ritishga ko‘p usta bo‘lishadi-da. Shu paytgacha sizni nima bilan davolashdi? Bu qiz italyancha so‘zlasholadimi? O‘rgatish kerak. Dilbar qiz ekan. Men unga dars be-rişga rozi bo‘lardim. O‘zim shu gospitalga yotaman. Yo‘q, yaxshisi, men ko‘zi yorigan mahallarda tekinga doyalik qilaman. Nima deyotganimni tushunadimi? U sizga ajoyib o‘g‘ilcha tug‘ib beradi. O‘ziga o‘xshash oqpar bo‘ladi. Shunday, yaxshi. Shunday, a‘lo. Dilbar qiz. So‘rab ko‘ring-chi, men bilan kechki ovqatni birga qilasmikin. Yo‘q, uni sizdan tortib olishni istamay-man. Rahmat. Katta rahmat sizga, miss. Ana bo‘ldi. Ana gapim ham tugadi. – U mening yelkamga qoqib qo‘ydi. – O‘ralmasa ham bo‘ladi.

– Biror stakan vino ichasizmi, doktor Valentini?

– Vinomi. Albatta-da... O‘n stakan. Qayerga qo‘y-gansiz?

– Javonda. Miss Barkli shishani olib beradi.

– Sizning sog‘ligingizga. Sizning sog‘ligingizga, miss. Dilbar qiz. Men sizga bundan yaxshiroq vino olib kelaman. – U mo‘ylovini artdi.

– Sizningcha operatsiyani qachon qilsa bo‘ladi?

– Ertaga ertalab. Oldinroq iloji yo‘q. Oshqozonni tozalash kerak. Siz oppoq bo‘p turing. Men past-

dagi kampirga kirib aytaman. Ko'rishguncha. Ertaga ko'rishamiz. Men sizga bundan tuzukroq vino olib kelaman. Juda yaxshi o'rnashibsiz. Ko'rishguncha, ertagacha. To'yib uxlang. Men barvaqt kelaman.

U ostonadan menga qo'lini silkib qo'ydi, mo'ylovlari dikkayib, jigardek yuzi kulimsiradi. Uning yengida yarim doira hoshiya ichida bitta yulduzcha tasviri bor edi, chunki uning unvoni mayor edi.

### **O'n oltinchi bob**

O'sha kecha shahar tomlari uzra cho'kkan tun ko'rinib turgan ayvonning ochiq eshigidan xonaga namozshom qush uchib kirdi. Xona ichi qop-qorong'i edi, faqat shaharning tungi osmoni ayvon eshigidan xonaga nimtatir yorug' sepmoqda edi; ko'rshapalak qo'rqmasdan xonada xuddi ochiq havoda uchgandek, charx ura boshladi. Biz unga tikilib yotardik, u esa aftidan bizni ko'rmasdi, chunki biz ovoz chiqarmasdik. U uchib ketgach, biz proyektor nurini ko'rdik, nurning tolasi osmon bo'ylab qanday kezganiga qarab turdik, so'ng u yo'q bo'ldi va zimiston cho'kdi. Yarim kecha edi, shamol turdi va biz qo'shni tomdagi zenit to'pi oldidagi to'pchilarning ovozlari eshitdik. Salqin tushgan edi, ular plashlarini kiyib olishmoqda edi. Men kechasi birdan birov kirib qolmasmikin deb, xavotirlandim, biroq Ketrin, hamma uxlab yotibdi, dedi. Bir mahal uxlab qolibmiz. Ko'zimni ochganimda, yonimda Ketrin yo'q edi, lekin yo'lakdan uning qadam tovushlarini eshitdim, eshik ochilib, o'zi kirib keldi va to'shak oldiga kelib, hammasi joyida, pastdagilar uxlab yotishibdi, dedi. U miss Van-Kampenning eshigi oldiga borib quloq solib, uning uxlab yotganini eshitibdi. U qotirilgan non olib kelgan ekan, uni vermut bilan ho'plab yedik. Qattiq ochiqqan ekanmiz, biroq u ertalab bularning barini tozalash kerak bo'ladi, dedi. Kallayi saharda, kun g'ira-shira yorishib kelayot-



ganda men yana uygʻonib ketdim va u yana xonada yoʻqligini koʻrdim. U keldi, yal-yal yonib, ochilib keldi, men ogʻzimga harorat naychasini qoʻyib yotdim, u yonimda – toʻshakda oʻtirdi, bu orada oftob chiqdi va dimogʻimizga tomlardan shabnam boʻyi urildi, soʻng qoʻshni tomdagi toʻpchilar qaynatgan qahva isi keldi.

– Qani endi hozir sayr qilsang, – dedi Ketrin. – Kreslo boʻlganida seni olib chiqqan boʻlardim.

– Kresloga qanday qilib oʻtirardim?

– Bir amallab.

– Shahar bogʻiga tushib, ochiq havoda nonushta qilsang. – Men ochiq qoldirilgan eshikka qaradim.

– Yoʻq, biz hozir boshqa ish bilan shugʻullanishimiz kerak, – dedi u. – Seni doʻsting doktor Valentini kelishiga hozirlab qoʻyish kerak.

– Ajoyib doktor, toʻgʻrimi?

– U menga senga yoqqanchalik yoqqani yoʻq. Ammo u yaxshi vrach boʻlsa kerak.

– Bu yoqqa kel, Ketrin. Eshityapsanmi? – dedim.

– Mumkinmas. Kechasi biram yaxshi boʻldiki!

– Bu kechasigayam navbatchilikni olsang boʻlarmikin?

– Ha, ehtimol, oʻzim navbatchilik qilarman. Faqat oʻzing meni xohlamay qolasan.

– Xohlayman.

– Xohlamaysan. Seni hali hech operatsiya qilishmagan. Sen kayfiyating qanday boʻlishini oʻzing bilmaysan.

– Bilaman. Yaxshi boʻladi.

– Koʻngling behuzur boʻladi, men koʻzingga koʻrinmay qolaman.

– Unday boʻlsa hozir oldimga kela qol.

– Yoʻq, – dedi u. – Men harorating qanday oʻzgarib turganini chizib qoʻyishim kerak, jonim, seni tayyorlashim kerak.

– Bundan chiqdi meni sevmas ekansan-da.

– Voy tentag-ey! – U meni oʻpib qoʻydi. – Mana, chizib ham boʻldim. Harorat hamma vaqt oʻrtacha boʻlgan. Sening harorating shunaqa ajoyib.

- Sen butunlay ajoyibsan.
- Yo'q, yo'q. Mana sening harorating ajoyib. Men sening harorating bilan o'lguday faxrlanaman.
- Hamma bolalarimizning harorati juda ajoyib bo'lsa kerak deb o'ylayman.
- Bolalarimizning harorati juda bo'lmag'ur bo'lmasa, deb qo'rqaman.
- Valentiniga meni tayyorlash uchun nima qilish kerak?
- Arzimagan ish, faqat unchalik yoqimlimas.
- Seni ovora qiladigan bo'ldim-da.
- Sirayam. Men boshqa biron odam senga tegishini istamayman. Men tentakman. Senga birov tegadigan bo'lsa jonim halqumimga keladi.
- Fergyuson bo'lsayam-a?
- Ayniqsa, Fergyuson va Geyj, va yana anavi?
- Uokermi?
- O'sha-o'sha. Bu yerda hamshira ko'p. Agar yana yaradorlar kelsa, bizni boshqa yerga o'tkazishadi. Hozir to'rtta hamshira bor.
- Yaradorlar yana kelishsa ajabmas. To'rtta hamshira kamlik qiladi. Gospital katta.
- Ishqilib, kelishsin-da. Meni bu yerdan boshqa yoqqa o'tkazishsa, nima qilaman? Yana yaradorlar kelmasa, shunday bo'lishi turgan gap.
- Unda men ham ketaman.
- Qo'y, unday dema. Sen hali hech yerga ketolmay-san. Lekin tezroq sog'ayib ket, jonim, ana o'shanda sen bilan biron yoqqa ketamiz.
- Keyin-chi?
- Keyin urush ham tugab qolar. Abadiy urush qilib o'tirishmas, axir?
- Tuzalib ketaman, - dedim men. - Valentini meni tuzatadi.
- Tuzatmay ko'rsin-chi, shundoq mo'ylovlari bo'la turib-a? Bilasanmi, faqat senga efir berishganda, o'zing

bilan meni emas, boshqa narsalarni o'ylagin, xo'pmi? Narkoz vaqtida odam har nima deb alahsiraydi.

– Xo'p, nimani o'ylayin, bo'lmasa?

– Nimani istasang, shuni. Nimani o'ylasang o'ylagin-u, faqat o'zing bilan meni xayolingga keltirma. Qarindoshlaringni esla yoki boshqa biron qizni xotirla.

– Yo'q.

– Bo'lmasa, duo o'qi. Boshqalarda yaxshi taassurot qoldiradi.

– Balki men alahlab o'tirmayman.

– Balki. Hamma ham alahlayvermaydi.

– Men ham shu jumladan.

– Maqtanma, jonim. Maqtanma, xo'pmi? O'zing shunday yaxshisanki, senga maqtanchoqlikning keragi yo'q.

– Bir og'iz miq etmayman.

– Yana maqtanyapsan, jonim. Senga bu sirayam yarashmabdi. Faqat, senga chuqurroq nafas oling, deb aytishgandan keyin duo o'qigin, yoki she'r o'qi, yo boshqa biron narsani. O'shanda hammasi juda yaxshi bo'ladi, men sen bilan faxrlanib yuraman. Men shundog'am sen bilan faxrlanaman. Hozir harorating judayam yaxshi, xuddi yosh bolalarday miriqib uxlaysan va yostiqni quchoqlab olib, uni men deb o'ylaysan. Balki men emas, boshqadir, a? Biron italyan nozaninidir?

– Yo'q, sen.

– Albatta, men bo'laman-da. Men seni judayam yaxshi ko'raman, ko'rasan, Valentini oyog'ingni yaxshilab tuzatib qo'yadi. Yaxshiyamki, u davolayotganda men ishtirok etmayman.

– Sen tunda navbatchilik qilasanmi?

– Ha. Lekin senga baribir bo'ladi.

– Ko'ramiz.

– Ana endi bo'ldi, jonim. Onadan tug'ilgandek top-toza bo'lding. Endi menga aytib ber-chi: umring bo'yi nechta ayolni yaxshi ko'rgansan?

- Yaxshi ko'rmaganman.
- Meni hammi?
- Seni yaxshi ko'raman.
- Yana nechtani?
- Boshqa hech kimni.
- Nechtasini - nima desamikin? Nechtasini ko'rgansan?
- Hech kimni?
- Yolg'on.
- Ha.
- Shunday bo'lgani tuzuk. Sen menga hech qachon to'g'risini aytma. Menga shunisi tuzuk. Chiroyli ayollarmidi ular?
- Men hech kim bilan bo'lmaganman.
- To'g'ri. Judayam yoqimli edimi ular?
- Sira xabarim yo'q.
- Sen faqat o'zirnikan. Rost, hech qachon boshqa hech kimniki bo'lmagansan. Lekin bo'lgan taqdiringda ham menga baribir. Men ulardan qo'rqmayman. Faqat menga ular haqida sira og'iz ochma. Ayol kishi erkak kishiga shama qilib gapirganda, bilasanmi, qanday bo'ladi?
- Bilmayman.
- Rost, sen bilmaysan. Ayol kishi unga sevaman deb aytadimi? Ayt menga. Men bilishni istayman.
- Aytadi. Agar erkak buni xohlasa.
- Erkak kishi ham uni sevaman, deydimi? Ayt. Men buni bilishim kerak.
- Istasa, aytadi.
- Biroq sen hech qachon aytmagansan? To'g'rimi?
- Yo'q.
- Yo'q, rostmi? Rostini ayt menga.
- Yo'q, - aldadim men.
- Sen demagansan, - dedi u. - Men buni bilardim, sen demagansan. Sen juda yaxshisan, men seni juda, juda yaxshi ko'raman.

Oftob tikkada, tomlar uzra turar va men ibodatxonaning yuksak nayzalarida quyosh tig'i o'ynayotganini ko'rib yotardim. Men onadan yangi tug'lganday ozoda edim. Vrachning kelishini kutmoqda edim.

– Shunday degin? – dedi Ketrin. – Ayol kishi erkak nimani istasa, shuni gapiraveradimi?

– Har doim emas.

– Men esa doim gapiraman. Men doimo sen nimani istasang, shuni gapiraman, nimani qil desang, shuni qilaman, keyin sen boshqa ayollarga qaramaysan, to'g'rimi? – u menga shodon chehra bilan boqdi. – Men sening deganingni qilaman, sening istaganingni ado etaman, o'shanda, hammasi ajoyib bo'ladi, to'g'rimi?

– Ha.

– Mana endi sen operatsiyaga tayyor bo'lding. Xo'p endi, nima qilay, yana nima xohlaysan.

– Beri kel.

– Xo'p. Keldim.

– Sen mening eng, eng, eng go'zal sevgilimsan, – dedim.

– Ana ko'rdingmi, – dedi u. – Men nima desang, shuni qilyapman.

– Sen mening oqila farishtamsan.

– Men esa hali sening ko'nglingni tuzukroq olol-ganim yo'q.

– Donosan.

– Sen nimani istasang, men ham shuni istayman. Men endi yo'qman. Men sening xohishingdaman.

– Jonim.

– Ko'ngling to'ldimi? Rostdan, ko'ngling to'ldimi? Sen boshqa ayollarni endi istamaysan, a?

– Yo'q.

– Ko'rdingmi, ko'ngling to'ldi. Men sen nima desang shuni qilaman.

## O'n yettinchi bob

Operatsiyadan so'ng uyg'onganimda o'zimni go'yo tubsiz bo'shliq ichra yo'q bo'lib ketayotganday sezdim. Yo'qolib ketayotgan kabi bo'ladi-yu, lekin aslida yo'qolmaysan. Faqat bo'g'zingdan g'ippa bo'g'ilganday bo'lasan. Bu o'limga o'xshamaydi, gaz bilan bo'g'ilganga o'xshaydi, tuyg'ularing o'ladi, bu holat o'tgach, hamma narsa baribir bo'lib qoladi, xuddi qattiq mast bo'lganday sezasan o'zingni, ko'ngling ag'darilganda ham, faqat achchiq zardob tushadi, lekin baribir ahvoling yengil tortmaydi. To'shakning oyoq tomonida qum to'latilgan qoplarni ko'rdim. Oyog'imdagi gipsni qoplar bilan bostirib qo'yishgandi. Saldan so'ng miss Aeyjga ko'zim tushdi, u so'radi.

– Xo'sh, qalay?

– Durust, – dedim men.

– Tizzangizni shunday bopladiki, aql bovar qilmaydi.

– Qancha davom etdi?

– Ikki yarim soat.

– U-bu deb valdiradimmi?

– Yo'q, yo'q, hech narsa. Gapirmang. Jim yoting.

Ko'nglim aynab turardi, Ketrin haq bo'lib chiqdi. Tunda kim navbatchilik qilishi menga baribir bo'lib qoldi.

Gospitalga mendan boshqa yana uch kishi kelibdi. Qizil Xochning xodimi – bezgak bo'lib qolgan jorjiyalik oriq yigit, sariq kasal va bezgak bilan og'rikan nyu-yorklik ko'rinishidan oriq, o'zi ajoyib bir yigit va Avstriya snaryadining portlovchi qismidan temir qalpog'ini esdalik uchun burab olmoqchi bo'lib, portlab ketgan lakalovgina bir yigit. Avstrislar tog'da portlatish uchun maxsus ishlagan bu murakkab shrapnelfugas snaryadning kuchi ikki baravar zo'r bo'lib, portlaganda uzoq joylarga yetib borardi.

Ketrin Barkli tunlari istagancha navbatchilik qilishga doimo rozi bo'lganidan hamma hamshiralarga

juda yoqib qolgandi. Bezgaklar ko'p bezovta qilishmasdi. Snaryadning qalpog'ini buragan bo'lsa, biz bilan do'stlashib qolganidan, tunlari juda zarurligidan-gina qo'ng'iroq qilib chaqirar, ishdan bo'shagan zahoti Ketrin oldimga kirib, men bilan bo'lardi. Men uni qattiq sevardim, u ham meni sevardi. Kunduz kunlari men uyquga yotardim, uyg'ongan chog'larimizda esa, bir-birimizga maktublar yozishib, Fergysondan berib yuborardik. Fergyson juda ajoyib qiz edi. Uning bir akasi ellik ikkinchi diviziyada, ikkinchisi Mesopotamiyada xizmat qilishar, o'zi Ketrin Barkliga juda bog'lanib, unga suyanib qolgandi. Fergyson haqida bilganlarim shu.

– To'yimizga kelasizmi, Ferji? – so'radim bir kuni undan.

– Sizlarning to'ylaringiz bo'lmaydi.

– To'y qilamiz.

– Yo'q, uylanmaysiz.

– Nega?

– To'ygacha urishib qolasizlar.

– Biz hech qachon urishib qolmaymiz.

– Ulgurasizlar hali.

– Biz hech qachon urishib qolmaymiz.

– Bo'lmasa, o'lasiz. Yo urishib qolasiz, yo o'lasiz. Doim shunday bo'ladi. Hech kim uylanmaydi.

Men unga qo'limni cho'zdim.

– Tegmang menga, – dedi u. – Men yig'lamayman. Balki hammasi joyida bo'lar. Faqat ehtiyot bo'ling, unga biron kor-hol bo'lib yurmasin. Agar siz tufayli unga biron narsa bo'lsa, men sizni o'ldiraman.

– Unga hech narsa bo'lmaydi.

– Sizga aytdim-qo'ydim. Shoyad ishingiz yaxshi bo'lib ketsa. Hozir juda totuvsizlar.

– Juda ham.

– Shunday bo'lsin, janjal qilmanglar, uni ko'z qorachig'idek asrang.

- Yaxshi.
- Ko‘zingizga qarang. Men uning qo‘lida urushning chaqalog‘i bilan qolishini istamayman.
- Juda ajoyib qizsiz-da, Ferji.
- Ajoyib-pajoyibi yo‘q. Yaltoqlik qilmang menga. Oyog‘ingiz tuzukmi?
- Zo‘r.
- Boshingiz-chi? – u barmoqlarini boshim ustiga teggizib ko‘rdi. Oyoq uvushganda qo‘l teggizsangiz, shunaqa bo‘ladi.
- Boshim hech og‘rigan emas.
- Bunday shish bilan bir umr kaltafahm bo‘lib o‘tish mumkin. Hech og‘rimaydimi?
- Sira.
- Baxtingiz bor ekan. Xat yozib bo‘ldingizmi? Men pastga ketayapman.
- Mana, oling, – dedim men.
- Siz vaqtincha bo‘lsa ham undan tungi navbatchilikka chiqmaslikni so‘rang. Juda charchab qolyapti.
- Yaxshi, men unga aytaman.
- Kechasi men navbatchilik qilay desam, u qo‘ymaypti. Boshqalar navbati o‘tganga suyunadi. Unga biroz dam bersangiz bo‘lardi.
- Xo‘p.
- Miss Van-Kampen sizni doimo peshingacha uxlab yotadi, deb gapiryapti.
- Shundoq bo‘lar deb o‘ylovdim.
- Agar bir necha kecha navbatchilik qilishdan olib qolsangiz soz bo‘lardi.
- O‘zim ham shuni xohlayman.
- O‘zingizga qolsa, sira xohlamaysiz. Lekin siz uni ko‘ndirsangiz, sizga hurmatim yanada oshgan bo‘lardi.
- Uni ko‘ndiraman.
- Ishongim kelmaydi.
- U xatni olib chiqib ketdi. Men qo‘ng‘iroq chaldim, sal o‘tmay miss Geyj kirib keldi.



- Nima bo'ldi?
- Shunday, siz bilan gaplashib o'tirmoqchi edim. Sizningcha qalay, miss Barkli tungi navbatchilikdan biroz dam olsamikin, a? U juda horg'in ko'rinadi. Nega u tunlari buncha ko'p navbatchilik qiladi?
- Miss Geyj menga tikilib qaradi.
- Men sizning do'stingizman, – dedi u. – Men bilan bunday gaplashmang.
- Nima demoqchisiz?
- O'zingizni jinnilikka solmang. Shunga chaqirgan edingizmi?
- Men bilan vermut ichsangiz.
- Xo'p. Lekin keyin darrov ketaman. – U javondan shisha olib, stolchaga stakan qo'ydi.
- Siz stakanda iching, – dedim men. – Men shisha-ning o'zidan ichaman.
- Sog' bo'ling! – dedi miss Geyj.
- Van-Kampen meni ertalablari uzoq uxlab yotadi, deb aytdimi?
- Sal g'ingshib qo'ydi-da. U sizni «bizning mumtoz bemorimiz», deb ataydi.
- Obbo qurmag'ur-ey!
- U badjahl emas, – dedi miss Geyj. – Qarib qolgan, g'alati qiliqlari bor, xolos. U sizni ko'rgan zahoti yoqtirmay qolibdi.
- Gapingiz rost.
- Menga esa siz yoqasiz. Men sizning do'stingizman. Esingizda bo'lsin.
- Siz topilmaydigan qizsiz.
- Qo'ying. Siz uchun topilmaydigan qiz kim ekanligini yaxshi bilaman. Oyog'ingiz qalay?
- Yaxshi.
- Men sovuq mineral suv olib kelib, oyog'ingizga qo'yaman. Gipslangan joyingiz qichishayotgandir. Bugun kun issiq.
- Juda antiqasiz-da.

- Qattiq qichishyaptimi?
- Yo'q. Hammasi joyida.
- Qum qoplarni to'g'rilab qo'yish kerak, - engashdi.
- Men do'stingizman.
- Bilaman buni.
- Yo'q, bilmaysiz. Lekin bir kun borib bilasiz.

Ketrin Barkli uch kecha navbatchilik qilmadi, keyin u yana keldi. Xuddi har ikkovimiz ham uzoq safarga ketib, endi ko'rishganday bo'ldik.

### **O'n sakkizinchi bob**

O'sha yoz biz uchun soz keldi. Menga o'rindan turishga ijozat berganlaridan so'ng, biz boqqa sayrga bora boshladik. Men aravani, ohista odimlab borayotgan otni, oldinda kucherning yelkasini va bo'yalgan silindrini, yonginamda o'tirgan Ketrin Barklini eslayman. Agar qo'llarimiz bir-biriga tutashsa yoki uning qo'l uchlari mening qo'limga tegib ketsa ham, bundan yuragimiz gupillab urib ketardi. Keyinroq, men qo'ltiqtayozda yuradigan bo'lgach, biz Biffi yoki «Gran-Italia»ga ovqatlangani boradigan, tashqari tomondan, Galleriadan stol tanlab o'tiradigan bo'ldik. Ofitsiantlar kirib-chiqishar, o'tkinchi yo'lovchilar o'tib borishar, dasturxonlar to'shalgan stollarda abajurli shamdonlar turardi, bizga, ayniqsa, «Gran-Italia» yoqib qoldi, bu yerning metrdoteli Jorj bizga doim stol olib qo'yardi. U ajoyib metrdotel edi, biz o'tkinchilarga, xufton qorong'isi qoplab kelayotgan Galleriaga, bir-birovimizning diydorimizga termilib o'tirar ekanmiz, u yemak-ichmakka narsa tanlardi. Biz muz solingan chelakchada keltirilgan oq kapri musallasidan ichardik; shunisi ham borki, biz frez, barber va shirin oq vinolardan ko'pini tatib ko'rdik. Urush tufayli restoranda vinolar bo'yicha maxsus ofitsiant yo'q edi, shuning uchun men frez vinosiga o'xshash vinolarni so'raganida, Jorj xijolat chekib qisib qo'yardi.

– Ta’midan qulupnay mazasi keladigan vinolar ishlab chiqaradigan mamlakatdan nima kutish mumkin, – dedi u.

– Nimasi yomon? – so’radi Ketrin. – Menga, hatto, yoqadi.

– Sizga yoqsa tatib ko’ring, ledi, – dedi Jorj. – Faqat tenente uchun bir shisha margo qo’shib keltirishga ijozat eting.

– Men ham tatib ko’ray devdim, Jorj.

– Ser, unchalik ichadigan emas. Unda, hatto, qulupnayning ham mazasi yo’q.

– Mabodo yaxshi bo’lsa-chi? – dedi Ketrin. – Rosayam zo’r ish bo’lardi-da.

– Men hozir uni keltiraman, – dedi Jorj, – ledining ko’ngli to’lgach, uni olib ketaman.

Juda mazasi yo’q vino ekan. Jorj haq edi, unda, hatto, qulupnayning ta’mi ham yo’q edi. Biz yana kapriga o’tdik. Bir marta pulim yetmay qoldi, o’shanda Jorj menga yuz lir qarz berib turdi.

– Hechqisi yo’q, tenente, – dedi u. – Hammada ham bo’ladi bunaqa hol. Boshimdan o’tkazganman. Agar sizga yoki lediga pul kerak bo’lib qolsa, menda doim topiladi.

Ovqatlangach, biz Galleria yonidan boshqa restoranlar va derazalariga temir shtorlar tushirilgan magazinlarni yoqalab borib sandvichlar sotiladigan do’koncha oldida to’xtardik; go’shtli va momaqaymoq solingan hamda ko’rsatkich barmoqdek kattalikdagi qip-qizil bulkachalarga qo’yilgan mayda baliqli sandvichlar sotib olardik. Ularni kechasi ochqab qolsak yerdik. Keyin biz ibodatxona qarshisidagi Galleriyaga kiraverishda ochiq aravaga o’tirardik-da, gospitalga qaytardik. Qorovul gospital eshigiga chiqib, menga aravadan tushgani yordamlashardi. Men kucherga choychaqa bergach liftda yuqoriga ko’tarildik. Ketrin hamshiralar turadigan qavatda qolar, men yuqori

ko'tarilib, qo'ltiqtayoqda xonamga borib olar edim; ba'zida men yechinib, o'ringa yotardim, ba'zida esa ayvonda oyog'imni stulga qo'yib o'tirib, tomlar uzra qaldirg'ochlar uchishini tomosha qilar, Ketrinni kutardim. U yuqoriga chiqqanda xuddi uzoq safardan qaytib kelganday bo'lar va yo'lakda qo'ltiqtayoqda u bilan birga yurib, toslarini ko'tarishib borar, yo eshikda kutib turar, yo yarador do'stlarimizdan bo'lsa, ichkari-ga birga kirardim. U hamma ishlaridan bo'shagach, mening xonamga kirib ayvonda o'tirardik. Keyin men joyimga yotardim, keyin hamma uyquga ketgach, hech kim chaqirmasligiga ishonch hosil qilgach, u oldimga kelar edi. Men uning sochlari to'zg'itishni sevardim, u esa karavotda qimir etmay o'tirar, ba'zan shartta egilib, meni o'par edi, men soch to'g'nag'ichlari-ni olib, ro'yja ustiga qo'yar, gardanidagi sochlari o'rami bazo'r ilinib turar va men uning qimir etmay o'tirishi-ga tikilib, oxirgi to'g'nag'ichlarni ham olardim, shunda uning sochlari butunlay yoyilib ketardi va u boshini quyi egar, sochlar ikkovimizni ham ko'mib, biz xuddi chodir yoxud shalola tagida yotganday bo'lardik.

Uning sochlari shu qadar chiroyli ediki, men ba'zan ochiq eshikdan tushayotgan shu'lada u sochlari o'rayotganiga termilib yotardim, sochlari, hatto, tunda ham jilolanib ko'rinardi, odatda, suv tong oldida shun-day jiloli ko'rinadi. Uning yuzi ham, vujudi ham ajoyib, badani benihoya silliq, mayin edi. Biz yonma-yon yo-tib, men barmoqlarimning uchi bilan uning yonoqlari, manglayi, ko'zlarining osti, dahani, bo'yinlarini silar va «Xuddi royal klavishlariga o'xshaydi», derdim. O'shan-da u mening engagimni barmoqlari bilan siypab: «Ro-yal klavishlariga jilvir yurgizganday», aytardi.

– Nima, botyaptimi?

– Yo'g'-ey, jonim. Bir hazillashay dedim-da.

Tunlari kunimiz tug'ardi, bir-birimizga salga tegib ket-adigan bo'lsak ham, o'zimizni bundan yettinchi osmon-

da yurganday his qilardik. Biz o'zimizni katta-kichik hamma narsada baxtiyor sezardik, bir-birimizga dildorliklar qilardik, birga bo'lmagan chog'larimizda esa, bir-birimizning fikrimizni o'qishga harakat qilardik. Ba'zan o'qiganday ham bo'lardik, lekin bu, ehtimol, ikkovimiz ham bir narsani o'ylaganimiz uchun shunday tuyulgandir.

Biz bir-birimizga, Ketrin gospitalga kirib kelgan kundan er-xotin bo'lganmiz, deb aytardik-da, to'yimiz o'tgan o'sha kundan oylarni sanab chiqardik. Men chindan ham er-xotin bo'lib yashashimizni istardim, lekin Ketrin bunday qiladigan bo'lsak, men ketishimga to'g'ri keladi, u-bu hujjatlar, rasmiyatchiliklarni to'g'rilash paytida esa, ketimizga odam tushib, bizni ajratib yuborishadi, derdi. Hamma bordi-keldini ital-yan nikoh qonunlari bo'yicha o'tkazish kerak bo'lar, rasmiyatchiliklarni bitirish juda mushkul ko'chardi. Men, biz rostdanam er-xotin bo'lishimizni xohlardim, chunki meni bola tashvishga solmoqda edi. Buni o'ylamasa ham iloj yo'q edi. Lekin biz o'zimizcha er-xotin bo'lganmiz, deb yurar va unchalik qayg'urmasdik, boshqa bir tomondan menga uylanmaganligim yana ma'qulga ham o'xshab ko'rinardi. Esimda, bir marta kechasi shu haqda gaplashib qoldik va Ketrin dedi:

– Lekin, jonim, unda men hoziroq bu yerdan ketishim kerak bo'ladi.

– Balki ketishingning hojati yo'qdir.

– Ketishim kerak bo'ladi. Meni uyga qaytarib yuborishadi va biz urush tugaguncha ko'rishmaymiz.

– Men ta'til olib kelaman.

– Ta'til ichida Shotlandiyaga ham borib, ham kelib bo'lmaydi. Undan keyin sening oldingdan ketmayman. Hozir bizga shu uylanishning nima keragi bor? Shundog'am er-xotindaymiz. Bundan ortiq yana qanday er-xotinchilik bo'lishi mumkin.

– Men faqat seni deb shunday bo'lsin deyapman.

– «Men» degan gap yo‘q. Men – senman. Meni ajratib qarama.

– Men qizlar doim erga tegishni istashadi, deb o‘ylabman.

– Jonim, men turmushga chiqqanman. Senga turmushga chiqqanman. Nima, senga xotinlik qilolmayapmanmi?

– Sen ajoyib xotinsan.

– Bilasanmi, jonim, men bir marta erga chiqishni kutib ko‘rganman.

– Qo‘y, gapirma o‘shani.

– Bilasanmi, men faqat seni sevaman. Meni qachonlardir kimdir sevgani senga baribir emasmi?

– Baribir emas.

– Axir, u halok bo‘ldi, sen esa hammasiga ega bo‘lding, yana nima kerak?

– Mayli-ku, lekin menga u haqda gapirma.

– Bechoraginam! Mana men bo‘lsam, sen hayotingda ko‘p xotinlarga duch kelganligingni bilaman. Bilaman-u, lekin bu bilan ishim yo‘q.

– Bekitiqcha bo‘lsa ham nikoh o‘qitib olsak bo‘lmasmikin? Menga biron narsa bo‘lib qolishi bor, bo‘yingda bo‘lishi bor.

– Faqat cherkov hamda fuqaro nikohi bor. Biz shundog‘am bekitiqcha uylanib bo‘lganmiz. Agar men xudojo‘y bo‘lganimda, bu gaplarga juda qattiq e‘tibor bergan bo‘lardim. Lekin men xudojo‘y emasman.

– Sen menga avliyo Antoniyni berding.

– Seni balolardan saqlasin, dedim. Uni menga ham berishgan edi.

– Demak, hamma yoqdan ko‘nglim tinch, degin?

– Yo‘q, bizni bir-birimizdan judo qilishlari mumkin, deb qo‘rqaman. Sen mening suyanchig‘imsan. Dunyoda sendan boshqa hech kimim yo‘q.

– Xo‘p, xo‘p. Sen rozi bo‘lishing bilanoq men senga uylanaman.

– Sen go‘yo zimmangda mening nomusimni saqlash vazifasi turgani uchun shunday deyotganga o‘xshaysan, jonim. Lekin men o‘zim nomusli xotinman. Odamga g‘urur va baxt beradigan narsa nega endi uyatli bo‘lar ekan. Mana sen baxtli emasmisan?

– Sen mendan boshqaga ketib qolmaysanmi?

– Yo‘q, jonim. Men hech qachon seni tashlab ketmayman. Menga bizning boshimizga ko‘p falokatlar tushadiganday bo‘lib tuyulaveradi. Qo‘y, mayli, buni o‘ylab o‘tirmaylik.

– Men qo‘rqayotganim yo‘q. Lekin men seni shu qadar yaxshi ko‘ramanki, sen bo‘lsang mendan oldin ham birovni yaxshi ko‘rgansan.

– Undan keyin-chi?

– U halok bo‘ldi.

– Shunday bo‘lmaganda men seni uchratmagan bo‘lardim. Meni bevafo deb o‘ylama, jonim. Mening ancha-muncha kamchiliklarim bor, lekin men vafodor xotinman. Hali ko‘rarsan, mening vafodorligim joninga ham tegib ketadi.

– Men hademay frontga jo‘nashim kerak.

– Hozir birgamiz-ku, buni o‘ylamaylik. Bilasanmi, jonim, men baxtliman, ikkimiz birga bo‘lsak, qanday yaxshi. Men ne zamonlardan beri bunday baxtni tuyumagandim. Sen bilan uchrashgan paytimizda jinni bo‘lishimga oz qolgan, talmovsirab yurgan edim. Balki rostakam jinni bo‘lgandirman. Kim bilsin. Lekin mana endi biz baxtlimiz – biz bir-birimizni sevamiz. Kel, shu baxtimizni yo‘qotmaylik. Axir, sen baxtlisan, to‘g‘rimi? Balki senga mening biron yerim yoqinqiramas? Aytchi, senga yaxshi bo‘lishi uchun yana nima qilishim kerak? Istaysanmi, sochlarimni yoyib yuboraman? Istaysanmi?

– Ha, ke yonimga yot.

– Xo‘p. Faqat oldin kasallarni ko‘rib kelay.

## O'n to'qqizinchi bob

Yoz shunday o'tdi. U kunlar ko'p ham esimda yo'q, faqat havo juda issiq bo'lgani-yu gazetalarning g'ala-ba xabarlari bilan to'lganligi yodimda qolgan. Mening mucham juda sog'lom edi, jarohatlarim tez bita boshladi. Qo'ltiqtayoq bilan ikki-uch kun yurmasimdan oq, keragi bo'lmay qoldi va men hassa tutib yura boshladim. O'shanda men Ospedale maggiorega qatnab, tiz-zamni egib-bukishni mashq qila boshladim. Harakat terapiyasi, oyna qutiga, binafsha nurlariga oyoqni solish, uqalash, vanna qabul qilish kabilarni bajara boshladim. Men u yerga peshindan keyin borardim. Qaytishda qahvaxonaga kirib, vino ichib gazeta o'qirdim. Shahar aylanib yurmasdim, qahvaxonadan to'g'ri gospitalga qaytgim kelaverardi. Ketrinni ko'rsam bo'ldi edi. Vaqt tezroq o'ta qolsa derdim. Ko'pincha ertalablari uxlab yotardim, tushdan keyin ba'zida otchoparga borar, keyin mashq qilgani jo'nardim. Ba'zan men ingliz-amerika klubiga kirib, deraza oldiga qo'yilgan chuqur charm kresloga o'tirib, jurnal o'qir edim. Men qo'ltiqtayoqni tashlaganimdan so'ng bizga ikkovlashib ko'chaga chiqishga ijozat bermay qo'ydilar, chunki ko'rinishdan yordamga muhtoj bo'lmagan bemor bilan hamshiraning ko'chada birga yurishi odob doirasiga sig'masdi. Shu sababdan biz kunduz kunlar kam ko'rishar edik. Ba'zan yonimizda Fergyuson ham bo'lgan kezlarda birgalikda shaharning biron yerida ovqatlanardik. Bizni Ketrin bilan do'st deb bilishardi, miss Van-Kampen ham shunday deb qarar, chunki gospitalda unga Ketrin ko'p yordam berar edi. U Ketrinni juda yaxshi oiladan chiqqan deb hisoblardi, xuddi shu narsa uning bizga yon bosishiga sabab bo'ldi. Miss Van-Kampen kishining nasl-nasabiga ko'p ahamiyat berar, o'zi ham yuqori tabaqaga mansub edi. Bundan tashqari gospitalda yumush g'oyat



ko'p bo'lib, uning boshi ishdan chiqmas edi. Yoz juda issiq edi, mening esa Milanda tanishlarim ko'p edi, lekin men shom tushishi bilan gospitalga qaytishga shoshildim. Front Karsoga yaqinlashib qolgandi, narigi qirg'oqda Plava qarshisidagi Kuk ishg'ol qilingandi. Hozir Bainzitssa yoylatog'ida hujum borardi. G'arbiy frontda ishlar aytarli yaxshi emasdi. Urush juda cho'zilib ketganday edi. Biz ham urushga endi kirgandik, lekin men yetarlicha qo'shin jo'natish va ularni jangga hozirlash uchun kamida bir yil kerak bo'ladi, deb o'ylardim. Kelasi yildan ko'p yomon hodisalarni, ehtimol, ko'p yaxshi gaplarni kutish mumkin edi. Italyan qo'shinlari katta talafotlar bermoqda edi. Ish shunday davom etadigan bo'lsa, oqibati nima bo'ladi, hech aqlga sig'masdi. Hatto butun Bainzitssani va Monte-San-Gabriyeleni ishg'ol qilishgan taqdirda ham undan narida avstrislar qo'lida yana ko'p tog'lar bor edi. Men ularni ko'rganman. Narida hammasi yuksak tog'lar. Karsoda olg'a siljidik, lekin pastroqda dengiz bo'ylari hammasi balchiq, botqoqlik yerlar. Napoleon avstrislarni vodiya tor-mor qilgan bo'lardi. U hech qachon ular bilan tog'larda urushib o'ltirmasdi. Ularni pastga tushishlariga qo'yib bergan bo'lardi-da, so'ng Veronada tor-mor qilardi. Biroq g'arbiy frontda hali hech kim hech kimni tor-mor qilganicha yo'q. Balkim, hozirgi urushlar g'alaba bilan tugaydigan urushlar emasdir. Balkim, ular umuman hech qachon tamom bo'lmas. Balkim, bu yangi Yuz yillik urushdir.

Men gazetani joyiga qo'yib klubdan chiqdim. Men zinapoyalardan ohista tushib, Via-Mantsoni bo'ylab ketdim. «Grandotel» oldida ekipajda tushib kelishayotgan Meyers va uning rafiqasini ko'rdim. Ular otchopardan kelishayotgan ekan. Meyersning xotini ko'krakdor, yiltiroq qora ipakka o'rangan edi. Eri esa qari va pakana edi, mo'ylovlari oqargan, oyog'ining tagi yassi bo'lganidan yurganda tayoq bilan yurardi.

- Qalay? Tuzukmisiz? – Xotin menga qoʻlini uzatdi.
- Salom! – dedi Meyers.
- Qalay boʻldi otchopar?
- Zoʻr. Juda zoʻr. Men uch marta yutdim.
- Siz-chi? – soʻradim Meyersdan.
- Yomonmas. Men bir marta yutdim.
- Men uning ishlari qandayligini sira bilolmayman,
- dedi missis Meyers. – U menga hech aytmaydi.
- Mening ishlarni yaxshi, – dedi Meyers. U doʻstona soʻzlashga harakat qilardi. – Siz ham bir otchoparga borsangiz-chi. – U gapirayotganda sizga qarab gapirmayotganga oʻxshar yoki sizni boshqa odam oʻrnida koʻrayotganday tuyulardi.
- Albatta, boraman, – dedim men.
- Men gospitalga sizni koʻrgani kelaman, – dedi missis Meyers. – Qobil yigitlarga atab qoʻygan narsalarim bor. Sizlar hammalaringiz mening qobilgina bolalarimsiz.
- Siz kelsangiz hammalarining boshlari osmonga yetadi.
- Shunday yaxshi bolalarki. Siz ham, siz ham mening bolalarimdansiz.
- Men endi borishim kerak, – dedim men.
- Mendan hamma yoqimtoy bolalarimga salom deb qoʻying. Men ularga koʻp mazali narsalar olib boraman. Ajoyib marsala bilan pechenye olib qoʻyibman.
- Xayr, – dedim men. – Borsangiz hamma juda xursand boʻladi.
- Xayr, – dedi Meyers. – Galleriaga keling. Mening stolimni bilasiz. Biz bu yerda har kuni boʻlamiz.
- Men yoʻlinga ketdim. Men Ketringa «Kova»dan biron narsa olmoqchiydim. «Kova»ga kirib bir quti shokolad tanladim va sotuvchi uni oʻrab boʻlguncha bar oldiga bordim. U yerda ikkita ingliz va bir qancha uchuvchilar oʻtirishardi. Men hech kim bilan gaplashmay martini ichdim-da, pulini toʻlab qandolatchidan

shokoladni olib, gospitalga qarab ketdim. «La Skala»ga olib boradigan ko'chada chog'roq bir bar oldida tanishlarim – vitse-konsul, qo'shiq aytishni o'rgani-shayotgan ikki yosh yigitni va Italiya armiyasida xi-zmat qiluvchi san-fransiskolik italyan Ettore Morettini ko'rdim. Men ular bilan ichishgani ichkariga kirdim. Qo'shiqchi yigitlardan birining nomi Ralf Simmons bo'lib, Enriko del Kredo taxallusi bilan qo'shiq aytar-di. Men uning qanday ashula aytishini bilmayman, lekin u doim ulug' hodisalarning ostonasida yurgan bo'lardi. U semizdan kelgan, og'iz-burni atroflaridagi terisi shamollagan odamniki kabi qipiqqlanib yurardi. U Pyachensada chiqish qilib hozirgina qaytib kelib turgan ekan. U «Toska»da ashula aytibdi, zo'r bo'libdi.

– Aytganday, siz hali men qanday aytishimni sira eshitmagansiz-ku, – dedi u.

– Bu yerda qachon aytasiz?

– Kuzda «La Skala»da chiqaman.

– Garov o'ynayman, unga rosa stul otishadi, – dedi Ettore. – Siz Modenda unga stul otganlarini eshitganmisiz?

– Mish-mishlar.

– Unga stul uloqtirishgan, – dedi Ettore. – O'zim ko'rganman. O'zim oltita stul otganman.

– Siz bemaza makaronxo'rsiz.

– U italyanchani juda rasvo talaffuz qiladi, – dedi Ettore. – Qayerga sahnaga chiqmasin, hamma yerda stul otishadi.

– Butun Shimoliy Italiyada Pyachensadagidan ham yomonroq teatr yo'q, – dedi boshqa ashulachi. – Gapimga ishoning, eng rasvo teatr. – Bu ashulachi-ning nomi Edgar Saunders bo'lib, Eduardo Jovanni laqabi bilan qo'shiq aytardi.

– U yerda bo'lmaganimni qarang, sizga stul otish-ganini tomosha qilgan bo'lardim, – dedi Ettore. – Italyancha ashula aytishni bilmaysiz-ku siz.

– Jinni, – dedi Edgar Saunders. – Shu stuldan boshqa hech vaqoni bilmaydi u.

– Siz ashula aytayotganingizda tinglovchilar stul otishdan boshqa narsani bilmaydilar-da, – dedi Ettore. – Keyin siz Amerikaga qaytib, «La Skala»da topgan shuhratingizni soʻzlab yurasiz. Vaholanki, «La Skala»da siz ogʻzingizni ochmasingizdanoq haydab yuborishadi.

– Men «La Skala»da aytaman, – dedi Simmons. – Oktyabrda esa «Toska»da aytaman.

– Borishga toʻgʻri keladi, Mak, – dedi Ettore vitse-konsulga. – Ularga himoyachilar kerak boʻlib qoladi.

– Ehtimol, Amerika armiyasi ungacha yordamga yetib kelib qolar, – dedi vitse-konsul. – Yana bir stakan quyaymi, Simmons? Saunders, quyaymi?

– Quying, – dedi Saunders.

– Kumush medal olarmishsiz, deb eshitdim, – dedi menga Ettore. – Qaysi xizmatlaringiz uchun berishyapti?

– Bilmadim. Umuman, hali olamanmi, yoʻqmi, bilmayman.

– Olasiz. Eh, «Kova»dagi qizlarning holi nima kechadi unda! Ular bir oʻzingiz ikki yuz nafar avstrisni oʻldirib, butun bir xandaqni qoʻlga tushirgansiz, deb yurishadi. Oʻlay agar, men oʻz nishonlarimni halol qilib olganman.

– Sizda nechta ulardan, Ettore? – soʻradi vitse-konsul.

– Hammasidan bor, – dedi Simmons, – bilmaysizmi, urush uni deb davom ettirilyapti-da.

– Men ikki marta bronza va uch marta kumush medalga taqdim qilinganman, – dedi Ettore. – Lekin faqat bir marta olganman.

– Boshqalari nima boʻldi? – soʻradi Simmons.

– Operatsiya muvaffaqiyatli chiqmadi, – dedi Ettore. – Agar operatsiya muvaffaqiyatsiz chiqsa, medal berishmaydi.

– Necha marta yaralangansiz, Ettore?

– Uch marta og‘ir yaralanganman. Yaralanganim uchun uchta belgim bor. Mana. – U yengini yuqoriga ko‘tardi. Uning yengining yelkasidan pastrog‘ida qora matoga uchta kumush chiziq chizilgandi.

– Sizda ham bittasi bor-ku, – dedi menga Ettore. – O‘lay agar, belgingiz bo‘lsa sira yomon bo‘lmaydi. Men ularni medaldan ma‘qulroq ko‘raman. O‘lay agar, shunaqadan uchta bo‘lsa, oshig‘ingiz olchi. Bittasini olish uchun gospitalda uch oy yotishingiz kerak.

– Qayerdan yaralangansiz, Ettore? – so‘radi vitse-konsul.

Ettore yengini shimardi.

– Bu yerdan. – U uzun silliq qizil chandiqni ko‘rsatdi. – Keyin oyog‘imning mana bu yeridan. Obmotkaning tagida bo‘lgani uchun hozir ko‘rsatolmayman. Tovonimdan ham yaralanganman. Oyog‘imdagi bir parcha et jonsiz bo‘lib qolgan, yomon hid chiqadi. Har kuni ertalab undan oskolkalar olib tashlayman, lekin sassig‘i arimaydi.

– Nimadan yaralanuvdingiz? – so‘radi Simmons.

– Qo‘l granatasidan. Kartoshka maydalaydigan narsaga o‘xshaydi. Oyog‘imning bir tomonini uchirib ket-sa bo‘ladimi. Siz bunaqa narsani bilarsiz? – u menga o‘girildi.

– Albatta.

– Otgan yaramasni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, – dedi Ettore. – Gurs etib yerga quladim. Kunim bitdi, deb o‘ylagan edim. Granatasidan o‘rgildim, sira nafi yo‘q. Yaramasni miltiqdan otib tashladim. Men ofitserligimni bilib qolishmasin deb, doim o‘zim bilan miltiq olib yuraman.

– Tusi qanaqa edi uning? – so‘radi Simmone.

– Bor-yo‘g‘i bitta granatasi bor ekan ablahning. – dedi Ettore. – Bilmadim nima sababdan otdiykin? Rostakam urushni tatimagan, shekilli. Qachon granata otarkinman, deb kutib yurgan-ov hoynahoy. Ablahni yer tishlatdim.

– Uni otganingizda rangi o'zgarib ketdimi? – so'radi Simmons.

– Qayoqdan bilay? – dedi Ettore. – Men uning qorniga qarab otdim. Kallasini poylay desam teggizolmaymanmi, deb qo'rqdim.

– Anchadan beri ofitsermisiz, Ettore? – so'radim men.

– Ikki yil bo'ldi. Yaqinda kapitan bo'laman. Siz leytenant bo'lganingizga ko'p bo'ldimi?

– Uchinchi yili.

– Siz kapitan bo'lolmaysiz, chunki siz italyan tili ni yaxshi bilmaysiz, – dedi Ettore. – Gapirishni bilasiz-ku, ammo yozish va o'qishni bilmaysiz. Kapitan bo'lish uchun ma'lumot kerak. Nega siz Amerika armiyasiga o'tmaysiz?

– Balki o'tarman.

– Men o'tgan bo'lardim. Amerika kapitani qancha oladi, Mak?

– Aniq bilmayman. Ikki yuz ellik dollargacha, shekilli.

– Uh-ho! Ikki yuz ellik dollarga nimalar qilmaysan. Tezroq Amerika armiyasiga o'tsangiz bo'larkan, Fred. Meni ham joylashtirib qo'yarmidingiz.

– Jonim bilan.

– Men rotaga italyanchasiga qo'mondonlik qilolaman. Inglizchani darrov o'rganib olgan bo'lardim.

– Siz general bo'lasiz, – dedi Simmons.

– Yo'q, general bo'lishga ilmim yetmaydi. General ming turli narsalarni bilishi kerak. Bizga o'xshagan azamatlar urushni mensimaydilar. Siz esa kapral bo'lishga ham yaramagan bo'lardingiz.

– Xudoga shukrki, buning menga keragi yo'q, – dedi Simmons.

– Kerak ham bo'lib qolar. Sizdaqa takasaltanglarni chaqirib ham qolishar... Eh, jin ursin, ikkovlaring mening rotamga tushishlaringni xohlardim. Makniyam. Men sizni o'zimga yugurdak qilib olardim, Mak.

– Juda ajoyib yigitsiz-da, Ettore, – dedi Mak. – Lekin siz urishqoq ekansiz.

– Men urush tugamasdan polkovnik boʻlaman, – dedi Ettore.

– Agar ilgariroq oʻldirib qoʻyishmasa.

– Oʻldirishmaydi. – U bosh va koʻrsatkich barmoqlari bilan yoqasidagi yulduzchalariga tegib qoʻydi. – Koʻrdingizmi nima qilganimni? Urushda kimda-kim oʻlim haqida gapirsa, yulduzchalarni ushlab qoʻyish kerak.

– Yur, ketdik, Sim, – dedi Saunders oʻrnidan turarkan.

– Ketdik.

– Xayr, – dedim men. – Men ham ketishim kerak. – Bardagi soat oʻn beshta kam oltini koʻrsatib turardi. – Ctao, Ettore.

– Stao, Fred, – dedi Ettore. – Kumush medal olishingiz soz boʻlibdi-da.

– Olamanmi, bilmayman.

– Olishingiz kerak, Fred. Men olishingizni aniq eshitdim.

– Xoʻp, xayr, – dedim. – Boshni ehtiyot qiling, Ettore.

– Tashvish chekmang. Men ichmayman va sangʻib yurmayman. Ishratparast va xotinboz emasman. Men nima yomon, nima yaxshi – ajrata olaman.

– Xayr, – dedim. – Sizni kapitan qilib koʻtarishlaridan xursandman.

– Men koʻtarishlarini kutib oʻtirmayman. Men jangovar xizmatlarim uchun kapitan boʻlaman. Bilasiz-ku oʻzingiz. Ikki qilich, uch yulduz, tepasida toj bor. Oʻsha menman.

– Xayrli boʻlsin.

– Xayrli boʻlsin. Siz qachon frontga qaytasiz?

– Ozgina qoldi.

– Xoʻp, koʻrishib qolarmiz.

– Xayr.

– Xayr. Kasal boʻlmang.

Men tor koʻchadan ketdim, bu yerdan hovli orqali toʻgʻri gospitalga chiqish mumkin edi.

Ettore yigirma uchga kirgan edi. U San-Fransiskoda amakisining qo'liga o'sib, Turinga qarindoshlarinikiga endi dam olgani kelganida urush boshlanib qolgandi. Amakisining qo'liga uning bir opasi ham tarbiyalanayotgan bo'lib, shu bu yil o'qituvchilar kollejini bitirishi kerak edi. U odamni ensasini qotiradigan quruq qahramonlardan edi. Ketrin uni juda yomon ko'rardi.

– Bizning ham qahramonlarimiz bor, – derdi u, – lekin ular, jonim, juda kamtarin odamlar.

– U menga xalaqit bermaydi.

– Shuni ayt. Lekin judayam shuhratparast, uning aftiga qaragam, zerikib ketaman, zerikib, zerikib...

– Sen buni meni xafa bo'lmasin deb aytyapsan.

– Men ham u bilan gaplashib zerikib ketaman. Keragi yo'q. Uning frontda qandayligini tasavvur qilish mumkin, u yerda o'z xizmatini o'taydi, lekin bunaqa bolalarni yoqtirmayman.

– Unga e'tibor berma.

– Yana boyagi gapingni aytyapsan. Men uni yomon ko'rmaslikka harakat qilaman, lekin baribir, xudo haqqi, u juda, juda yoqimsiz bola.

– U bugun kapitan bo'laman, deb aytdi.

– Juda soz! – dedi Ketrin. – O'zida yo'q xursanddir juda.

– Sen istarmiding mening unvonim yuqoriroq bo'lishini?

– Yo'q, jonim. Men faqat bizni yaxshi restoranlarga kiritishlariga imkon beradigan unvoning bo'lishini istayman.

– Buning uchun mening hozirgi unvonim yetarli.

– Sening unvoning eng yaxshi unvon. Men sening unvoning shundan yuqori bo'lishini istamayman. Sen shuhratparast emasligingdan shu darajada xursandmanki, jonim. Sen shuhratparast bo'lganingda ham seni derdim, ammo ering shuhratparast bo'lmasa, biram tinch bo'lasanki.



Biz ayvonda jimgina gaplashib o'tirardik. Oy chiqadigan vaqt bo'lgan, biroq shahar uzra tuman tushganidan, u hali chiqmagandi. Ko'p o'tmay yomg'ir tomchilay boshladi, biz ichkariga kirdik. Tuman yomg'irga aylandi. Sal vaqtdan so'ng jala quydi, jala tomga sharqirab urilishiga quloq solib o'tirdik. O'rnimdan turib, ayvon eshigidan yomg'ir ichkariga urmayotganmikin, deb qaradim. Yo'q, yomg'ir ichkariga urmabdi. Eshikni ochiq qoldirdim.

– Yana kimni ko'rding? – so'radi Ketrin.

– Mister va missis Meyerslarni.

– Juda g'alati er-xotin ular.

– O'z yurtida qamoqda o'tirib chiqqan deyishadi. Ozodlikni ko'rib o'lsin deb, chaqirishibdi.

– O'shandan beri Milanda baxtli hayot kechirarmishmi?

– Bilmadim, baxtlimikan...

– Qamoqdan keyin har holda baxtliroq bo'lsa kerak-da.

– Xotini bu yerga sovg'a-salomlar olib kelmoqchi.

– U juda ajoyib sovg'alar olib keladi. Sen ham uning, albatta, jonajon bolalaridan bo'lsang kerak?

– Bo'lmasam-chi?

– Hammalaringiz uning jonajon bolalarisiz, – dedi Ketrin. – U, ayniqsa, yoqimtoy bolalarni yaxshi ko'radi.

Yomg'irni qara.

– Qattiq yog'yapti.

– Sen meni har doim yaxshi ko'rasan-a?

– Ha.

– Yomg'ir yog'aversinmi?

– Yog'aversin.

– Qanday yaxshi. Men bo'lsam, yomg'irdan qo'rqaman.

– Nega?

Ko'zimni uyqu torta boshladi. Tashqarida yomg'ir tobora kuchayardi.

- Men yomg'irni yaxshi ko'raman.
- Men yomg'irda sayr etishni yaxshi ko'raman. Lekin muhabbat uchun bu yaxshilik keltirmaydi.
- Men seni bir umr sevaman.
- Men seni sevaman, yomg'irda ham, qorda ham, do'lda ham va... yana nima bor?
- Bilmadim. Nimagadir uyqum kelyapti.
- Uxla, jonim, men esa hech qachon seni sevishdan zerikmayman.
- Sen rostdan ham yomg'irdan qo'rqasanmi?
- Sen bor bo'lsang qo'rqmayman.
- Nega qo'rqasan?
- Bilmayman.
- Ayt.
- Majbur qilma.
- Ayt.
- Yo'q.
- Ayt.
- Xo'p, mayli. Men yomg'irdan shuning uchun qo'rqamanki, ba'zan ajal meni yomg'ir yog'ib turganda oladiganday bo'ladi.
- Nima deyapsan!
- Goho sen... o'ladiganday tuyulasan.
- Buning endi haqiqatga yaqinroq.
- Hech undaymas, jonim. Men seni balolardan saqlay olaman. Ha, bu qo'limdan keladi. Lekin o'z-o'zingga hech nima bilan yordam berolmaysan.
- Qo'y, unday gapirma. Men bugun shotlandcha telba dovdirlashlarni eshitadigan ahvolda emasman. Ayriliq esa ostonada turibdi.
- Men shotland qizi va telba bo'lsam nima qilay, axir. Lekin mayli, boshqa gapirmayman. Devonalik bular hammasi.
- Ha, hammasi devonalik.
- Hammasi devonalik. Faqat devonalik. Men yomg'irdan qo'rqmayman. Men yomg'irdan qo'rqmay-

man. Yo rabbim, yo rabbim, qo'rqmaslikning iloji bo'lsaydi.

U yig'radi. Men uni ovutdim va u yig'ridan to'xtadi. Biroq yomg'ir hamon yog'ardi.

### **Yigirmanchi bob**

Bir kuni tushdan keyin biz otchoparga ketdik. Biz bilan birga Fergyuson, anavi distantsion granata portlaganda ko'zidan yaralangan Krouell Rojers borishdi. Qizlar kiyinguncha biz Rojersning xonasida sport varaqasida so'nggi uloqlar va g'olib chiqishi kutilganlarning nomlari aytilgan hisobotlarni ko'rib o'tirdik. Krouellning butun yuzi bintlab tashlangan, uning uloq bilan ishi yo'q, biroq sport varaqasini qo'ymay o'qib borar va qiladigan ishi bo'lmaganidan, barcha otlarni kuzatib borardi. Hamma otlar rasvo otlar, derdi u, lekin bu yerda yaxshilari yo'q. Qari Meyers uni yaxshi ko'rar va unga maslahatlar berib turardi. Meyers otlarga pul tikib doimo yutib yurar, lekin maslahat berishga hushi yo'q edi, chunki boshqalar yutsa, uning oladigan yutug'i kamayardi. Uloqlarda aldam-qaldam ishlar ko'p bo'lardi. Butun dunyo ippodromlaridan quvilgan ot o'rgatuvchilar Italiyaga kelib o'rnashgan edilar. Meyersning maslahatlari har doim ham foydali bo'lardi, lekin men so'rashni o'zimga ep bilmasdim, chunki u ba'zan javob bermas, javob berganda esa, istar-istamay berayotgani ko'rinib turar, lekin qandaydir sabablarga ko'ra bizga aytib turishga o'zini burchli deb sezar va Krouellga boshqalarga qaraganda ro'yxushlik bilan yo'l ko'rsatardi. Krouellning ko'zlari zararlangan, biri deyarli ko'rmay qolgan. Meyersning ham ko'zlarining mazasi qochgan, shu sababdan u Krouellni yaxshi ko'radi. Meyers qaysi otga pul tikkanini hech qachon xotiniga aytmas, shuning uchun xotini bir yutsa, bir yutqizar, ko'proq yutqizadigan, juda sergap xotin edi.

To'rtovlon ochiq ekipajga tushib, San-Siroga qarab yo'l oldik. Havo juda yaxshi, biz daraxtzorlar ichida, keyin tramvay yo'lidan o'tib borib, nihoyat shahar tashqarisiga chiqdik, changli yo'llar boshlandi. Yo'lning har ikkala tomoni temir panjaralar bilan to'silgan qarovsiz chorbog'lar, villalar bilan o'ralgan, yo'l chetida ariqlar oqib yotar, tomorqalarda yetishtirilgan sabzavotlarni chang bosgan edi. Olisda – vodiya dehqonlarning uylari, ferma atroflaridagi ko'm-ko'k dalalar, kanallar ko'rinardi, shimol tomonda esa tog'lar qad ko'targandi. Ippodromga boradigan yo'lda ekipajlar ko'p edi, darvozada turgan kontrolyor harbiy formada bo'lganligimiz uchun bizni biletsiz o'tkazib yubordi. Biz ekipajdan tushib, ro'yxat sotib oldik-da, aylanani kesib o'tib, tekis qattiq yo'lkadan yurib tomoshabinlar turadigan yerga bordik. Tribunalar yog'ochdan ishlanib, eskirib ketgan, tribunalaridan quyida kassalar joylashgan, yana boshqa qator kassalar otxonalarning oldida edi, to'siq oldida bir to'da soldatlar turishardi. Odam xiylagina edi. Katta tribuna ortidagi daraxtlar tagida chavandozlar otlarni sovutishmoqda. Biz tanishlarimizni ko'rib qoldik va Feryuson bilan Ketringa kursi topib berdik-da, otlarni tomosha qila boshladik.

Chavandozlar otlarni yetaklab sovutishmoqda edi. Otlar kallalarini engashtirib olgandi. Ular ichida biri qoramtir ko'k tusda tovlanar, Krouell, o'lay agar, uni bo'yab qo'yishibdi, deb xunob bo'lardi. Biz tuzukroq qarab uning gapi haqiqatga yaqin deb topdik. Bu otni egarlashga buyruq bo'lmasdan sal ilgariroq bir daqiqagina olib chiqishgan edi. Chavandozning yengidagi raqam bo'yicha ro'yxatga qarab uni topdik. Unda qora axta, laqabi Yapaloq deb yozilgan edi. Bir marta ham ming livrdan oshirib sovrin olmagan otlarning chiqishi kutilardi. Ketrin otning tusi jo'rttaga o'zgartirib qo'yilganligiga amin edi. Fergyuson bunga unchalik ishonmasdi. Men ham otning tusi-

ga ishonmasdim. Hammamiz shu otga qo'yamiz dedik va yuz lir tikdik. Hisob varaqasida bu otga pul qo'yanlar o'ttiz besh karra qilib oladilar deyilgan edi. Krouell chipta olgani ketdi, biz esa chavandozlar daraxtlar tagida yana bir aylanib chiqishganlarini tomosha qilib turdik. Keyin ular otning boshini ohista qo'yib, uloq boshlanadigan yerga ketishdi.

Biz uloqni tomosha qilish uchun tribunaga ko'tarildik. U paytlarda San-Siroda rezina tasmalar yo'q edi. Shuning uchun uloqboshi otlarning hammasini bir safga tizib, otlar uzoqdan juda kichkina bo'lib ko'rinishardi, so'ng uzun qamchinini qarsillatib, chopishga ruxsat berdi. Otlar yonginamizdan o'tib ketishdi. Qora ot hammadan oldinda borar, burilishda esa barcha otlardan qattiq o'zib ketdi. Men ular orqa yo'ldan qanday borayotganlarini durbindan ko'rib turar, chavandoz otning boshini bor kuchi bilan tortishga harakat qilar, lekin ot zo'r kuch bilan surib borar, ular burilishdan oldingi yo'lkaga chiqqanlarida qora ot boshqalardan ancha oldinga o'tib ketgandi. U marraga yetgandan keyin ham anchagacha chopib bordi.

– Qanday yaxshi-ya, – dedi Ketrin. – Biz uch ming lirdan oshiqroq oladigan bo'ldik. Judayam zo'r ot ekan.

– Umid qilamanki, – dedi Krouell, – otning bo'yog'i pulni olgunimizcha tushib ketmas.

– Yo'q, rostdan ham zo'r ot, – dedi Ketrin. – Qiziq, mister Meyers unga tikdimikin?

– Yutdingizmi? – qichqirdim men Meyserga. U bosh silkidi.

– Men esa yutmadim, – dedi missis Meyers. – Sizchi, bolalar, qaysiga qo'yuvdingizlar?

– Yapaloqqa.

– Rostdanmi? Unga o'ttiz besh baravar berishadi.

– Bizga uning tusi yoqib qoldi.

– Menga esa yoqmadi. Juda xarob bo'lib ko'ringan edi. Unga qo'yib ovora bo'lmang deyishuvdi.

- Ko‘p berishmaydi, – dedi Meyers.
- O‘ttiz besh deb ko‘rsatishgan, – dedim.
- Ko‘p berishmaydi, – dedi Meyers. – Uni oxirgi daqiqalarda o‘yinga tushirishdi.
- Kim?
- Kempton o‘z yigitlari bilan. Mana ko‘rasiz. Ikki baravar berishsa ham xo‘p gap.
- Nima, biz uch ming lir olmas ekanmizmi? – dedi Ketrin. – Shu uloqlari menga yoqmaydi. G‘irt aldamchilik.
- Biz ikki yuz lir olamiz.
- Shuyam pulmi? Kimga kerak? Men uch ming olamiz deb o‘ylabman.
- G‘irt muttahamlik, rasvogarchilik, – dedi Fergyson.
- To‘g‘ri, shu aldamchilik bo‘lmaganda biz unga tikmagan bo‘lardik, – dedi Ketrin. – Lekin uch ming lir olamiz deb rosa suyunib yuribman.
- Yuringlar, pastga tushib biron narsa ichamiz, keyin qancha berishlarini bilamiz, – dedi Krouell.
- Biz pastga – g‘oliblarning nomlari yoziladigan lavha oldiga tushdik. Shu payt yutuq berilishiga qo‘ng‘iroq chalindi va Yapaloqning qarshisiga «o‘n sakkiz ellik» ko‘rsatkichini ilib qo‘yishdi. Bu yutuq ikki baravardan ham kam degani edi.
- Biz katta tribuna tagidagi barga tushib, bir stakandan sodali viski ichdik. Bu yerda ikki italyan tanishimiz va vitse-konsul Mak Adamsni uchratib qoldik. Ular ham biz bilan yuqoriga ko‘tarilishdi. Italyanlar o‘zlarini juda sertakalluf tutar edilar. Mak Adams Ketrin bilan gaplashib o‘tirdi, biz esa pul tikish uchun pastga tushib ketdik. Kassalardan birining oldida mister Meyers turardi.
- So‘rang-chi, qaysinga qo‘yarkan, – dedim Krouellga.
- Qaysinga qo‘yasiz, mister Meyers? – so‘radi Krouell.

Meyers o'zining ro'yxatini oldi-da, qalam bilan beshinchi raqamni ko'rsatdi.

– Biz ham o'shanga qo'ysak, qarshi emasmisiz? – so'radi Krouell.

– Bemalol, bemalol. Faqat xotinimga meni aytdi demanglar.

– Keling, biron narsa ichaylik, – dedim.

– Yo'q, rahmat. Men sira ichmayman.

Biz beshinchi raqamga bir marta yuz lir, keyin ikki yuz lir qo'ydik va yana bir stakandan sodali viski ichdik. Mening juda kayfiyatim ko'tarildi, biz yana ikkita italyan tanishimizga duch keldik va ularning har biri bilan ham ichishdik-da, yuqoriga qaytib chiqdik. Bu italyanlar ham juda sertakalluf yigitlar bo'lib, boyagilardan qolishmas ekanlar. Ularning sermulozamatligi dastidan hech kim o'z o'rnida tinch o'tirolmas edi. Men Ketringa chiptalarni berdim.

– Qaysi ot?

– Bilmadim. Mister Meyers aytganiga qo'ydik.

– Siz, hatto, uning nomini ham bilmaysizmi?

– Yo'q. Ro'yxatdan ko'rish mumkin. Beshinchi raqamli, shekilli.

– Birovga chippa-chin ishonishingizni-chi, – dedi Ketrin.

Beshinchi raqamli ot yutdi, lekin yutuq nihoyatda oz edi.

Mister Meyersning jahli chiqdi.

– Yigirma lir olish uchun ikki yuz lir tikish kerak, – dedi u. – O'n lirga o'n ikki lir. Ovora bo'lganga arzi-maydi. Xotinim yigirma lir yutdi.

– Men ham sizlar bilan pastga tushaman, – dedi Ketrin. Italyanlarning hammasi o'rinlaridan turishdi. Biz pastga tushib bordik.

– Bu yer senga yoqadimi? – so'radi Ketrin.

– Yaxshi. Yomonmas.

– Odam zerikmas ekan bu yerda, – dedi u. – Lekin bilasanmi, jonim, hamma yoqni tanish bosib ketsa ham boshim og'riydi.

– Tanishlar unchalik ko'p emas-ku.

– To'g'ri. Lekin anavi Meyerslar, anavi xotini va qizlari bilan chiqqan bankda ishlaydigan...

– U mening cheklarimga haq to'laydi.

– U to'lamasa, boshqasi to'lardi. Anavi to'rtta italyan ham biram bosh og'rig'iki...

– Keyingi chopishni shu yerda qolib ko'rsak ham bo'ladi.

– Qanday yaxshi. Bilasanmi, jonim, o'zimiz hecham bilmaydigan otga qo'yaylik, mister Meyers qo'ymaganiga qo'yaylik.

– Bo'пти.

Biz «Ko'zlarning nuri» degan otga tikdik va u besh-ta otning ichida to'rtinchi bo'lib keldi. Biz panjaraga suyanib, oldimizdan uchib o'tib borayotgan otlarni tomosha qilardik, olisda tog'lar va daraxtlar, dalalar ortida Milan ko'rinardi.

– Men o'zimizni bu yerda pokiza bo'lganday his qil-yapman, – dedi Ketrin.

Ko'pirib ketgan otlar qaytib darvozadan kirib keli-shardi. Chavandozlar daraxt tagida tushishdan oldin ularni tinchlantirishardi.

– Ke, biron narsa ichaylik. Faqat shu yerning o'zida otlarni tomosha qilib ichamiz.

– Hozir olib kelaman, – dedim.

– Bola olib keladi, – dedi Ketrin. U qo'lini ko'tar-gan edi, axtaxonalar yonidagi «Butxona» barining xiz-matchisi yugurib keldi. Biz temirdan yasalgan doira stolga o'tirdik.

– O'zimiz qolsak, yaxshi, to'g'rimi?

– Ha, – dedim.

– Anavi odamlarning oldida o'zimni shunchalar yolg'iz sezdimki.



- Bu yer soz ekan, - dedim.
  - Ha. Yaxshi ippodrom ekan.
  - Yomonmas.
  - Sening rohatingni buzayotgan bo'lsam, aytgin, jonim. Istagan zahoting tepaga qaytib chiqamiz.
  - Yo'q, - dedim. - Shu yerda qolib ichamiz. Keyin stiplchezedagi rovga borib suvni tomosha qilamiz.
  - Menga shunday mehribonsanki, - dedi u.
- Bir qancha muddat ikkovimiz yolg'iz qolib, birga bo'lganimizdan so'ng, boshqalarni ko'rib, yana quvondik.
- Kun juda yaxshi o'tdi.

### **Yigirma birinchi bob**

Sentyabrda kechalari sovuq tusha boshladi, keyin kunlar ham sovidi, parkdagi daraxtlarning barglari sarg'aya boshladi, shunda biz yoz o'tganligini angladik.

Frontda ahvol juda yomon edi, San-Gabriyele hamon ishg'ol qilinmagandi. Bainzitssa tog'ida janglar to'xtagandi, oy o'rtalariga borib janglar San-Gabriyeleda ham to'xtadi. Uni baribir qo'lga kiritolmadilar. Ettore frontga jo'nadi. Otlarni Rimga olib ketishdi va otchoparda uloqlar barham topdi. Krouell ham Rimga ketdi, bu yerdan u Amerikaga jo'natilishi kerak edi. Shaharda ikki marta urushga qarshi g'alayonlar bo'ldi. Turinda xiyla to'polonlar bo'lib o'tibdi. Bir ingliz mayori menga klubda italyanlar Bainzitssa tog'i va San-Gabriyeleda bir yuz ellik ming odam talafot berdilar, deb aytdi.

- Bulardan tashqari italyanlar Karsoda yana qirq ming odam yo'qotishdi, - dedi u. Ichishdik va uning tili yechildi.

- Bu yil boshqa urush bo'lmaydi, - dedi u, - italyanlar o'zlari hazm qilolmaydigan luqmani yutib qo'ydilar. Flandriyadagi hujumning misi chiqdi, - dedi u. - Agar bundan keyin ham shu kuzdagidek odamlarni aya-

maydigan bo'lishsa, unda ittifoqdoshlarning tezda nafasi chiqmay qoladi. Hammamizning tinkamiz quridi. Hamma gap buni tan olmaslikda. Qaysi mamlakat o'zining tinkasi quriganligini hammadan keyin anglasa, o'sha mamlakat urushda yutib chiqadi.

Yana ichdik.

– Siz shtabdan emasmisiz?

– Yo'q.

U esa – shtabdan. Hammasi behuda. Biz ikkovlon klubning katta charm divanida yastanib o'tirardik. Uning etigi xiraroq teridan tikilgan, yalaganday qilib artilgandi. Juda po'rim etik edi.

– Hammasi behuda, – dedi u. Hammaning fikri yodi diviziyalar va ularni to'ldirishda bo'lib qolgan. Diviziya so'rab bir-birlarini g'ajib tashlaguday bo'lishadi, qo'llariga tekkan kuniyoq uni go'rga tiqib kelishadi. Hammaning tinkasi quridi. G'alaba nuqul nemislarniki bo'lib ketmoqda. Ana ularni, padariga la'nat, soldat desa bo'ladi! Qadimgi xunlar – chinakam soldatlar. Lekin ularning ham tinkasi quridi. Hammamizning tinkamiz quridi.

Men ruslarni so'radim. Ularning ham tinkasi quridi, dedi u. Ularning tinkasi quriganligini men o'zim tezda ko'rar ekanman.

– Avstrislarning ham tinkasi quridi. Agar ular xunnlarning bir necha diviziyalarini qo'lga kiritishga muyassar bo'lsalar, unda urushni bir amallab eplash-tirib oladilar.

– Shu kuzakda hujumga o'tarmikinmiz?

– Albatta-da. Italyanlarning tinkasi quridi. Ularning tinkasi quriganligini hamma biladi. Qari xunn Trentinodan o'tib, Vichensada temir yo'lni kesib tashlaydi-yu, italyanlar tutday to'kiladi qoladi.

– Avstrislar o'n oltinchi yilda shunday qilmoqchi bo'lgan edilar, – dedim men.

– Nemislar yo'q edi unda.

– To'g'ri, – dedim.

– Lekin ular bunday qilishmas-ov, – dedi u. – Bu juda oson. Ular murakkabroq bir narsani o‘ylab topishadi-yu, shu bilan tamom, tinka-madorlari quriydi.

– Men ketishim kerak, – dedim. – Gospitalga borishim kerak.

– Xayr, – dedi u. Keyin quvnoqlik bilan qo‘shib qo‘ydi: – Ishingiz o‘ngidan kelsin. – Uning muhokamalaridagi tushkunlik tabiatidagi quvnoqlikka sira uyg‘un emasdi.

Sartaroshxonaga kirib soqolimni oldirdim, keyin gospitalga ketdim. Bu paytga kelib oyog‘im ancha durust bo‘lib qolgan, shunisiga ham shukr qilmoqda edim. Uch kun burun meni qayta ko‘rikdan o‘tkazishdi. Ospedale maggioreda davolanishim tugayozgan, batamom tuzalishim uchun bitta-yarimta dori-darmon olishimgina qolgan edi. Shuning uchun tor ko‘chadan oqsoqlanmasdan yurib borishga harakat qilardim. Ayvoncha tagida bir chol qog‘oz suratlar qirqardi. Ikki-ta qiz uning oldida turishar, chol boshini yon tomonga enkaytirib, qizlarga qaray-qaray chaqqonlik bilan qaychida qog‘oz qirqib borardi. Qizlar hihilashardi. U silu-etlarni oq qog‘ozga qo‘yib, qizlarga yelimlab berishdan oldin menga ko‘rsatdi.

– Qalay, durustmi? – dedi u. – Qalay, sizga ham ishlab beraymi, tenente?

Qizlar o‘z shakllarini tomosha qila-qila kulishgan-cha ketishdi. Ikkalalari ham yoqimtoygina edilar. Ulardan biri gospital qarshisidagi yemakxonada ishlardi.

– Mayli, – dedim.

– Shapkangizni olib qo‘ysangiz.

– Yo‘q, shapka bilan.

– Uncha yaxshi chiqmaydi, – dedi chol. – Shoshmang-chi, – uning yuzi yorishdi, – aytganingizday, bu, hatto, po‘rimroq chiqarkan.

U qaychi bilan qora qog‘ozni qirqa ketdi, keyin qog‘ozni ikkiga ajratib, har ikkala shaklni kartonga yelimlab yopishtirdi-da, menga uzatdi.

– Qancha berishim kerak?

– Kerakmas, kerakmas, – qo‘lini siltadi u. – Men sizga shundoq qilib berdim.

– Marhamat, – men cho‘ntagimdan tanga oldim. – Qo‘limni qaytarmang.

– Yo‘q. Men ularni ko‘ngil hushiga ishladim. Sevgan qizingizga tortiq qiling.

– Rahmat. Xayr.

– Ko‘rishguncha.

Gospitalga qaytdim. I dorada menga xatlar bor ekan, bittasi rasmiy va yana bir qancha xatlar. Menga sog‘ligimni yaxshilash uchun uch haftalik ta‘til berilibdi, undan keyin frontga qaytishim kerak ekan. Men xatni yana bir karra diqqat bilan o‘qib chiqdim. Ha, xuddi o‘zim aytganimday. Ta‘til davolanishim tugaydigan kundan, 4-oktyabrdan boshlanarkan. Uch haftasi yigirma bir kun. Bu 25-oktyabr degani. Men yana biroz aylanib kelaman deb, gospitaldan bir qancha uy naridagi restoranga ovqatlanish, xatlarni ko‘rish va «Korere della sera»ni o‘qish uchun yo‘l oldim. Xatlarning biri bobomdan edi, unda oilaviy yangiliklar yozilgan, vatanparvarlik yo‘sinida bir qancha maslahatlar berilgan, ikki yuz dollarlik chek va bir qancha gazeta qirqimlari yuborilgan edi. Keyin yana bir zerikarli xat kashishimizdan, boshqasi sho‘x ulfatlar ichiga tushib qolgan fransuz havo kuchlarida xizmat qiluvchi tanish uchuvchidan edi. U o‘z sho‘xliklari haqida hikoya qilibdi. Yana biri Rinaldidan edi; u hali Milanda uzoq o‘tirasizmi, qanday yangiliklar bor, deb so‘rabdi. Ro‘yxat yuborib, shu ro‘yxatdagi grammofon plastinkalarini keltirishimni iltimos qilibdi. Men ovqat bilan bir shisha kyanti buyurdim, keyin konyakli qahva ichdim, gazetani o‘qib chiqdim, hamma xatlarni cho‘ntagimga soldim, gazetani stol ustida choy puli bilan qo‘shib qoldirdim-da, chiqib ketdim. Gospitalda, o‘z xonamda formamni yechib, xalat va pijama kiy-

dim, ayvon eshigidagi pardalarni tushirib, o'rnimga yonboshlab yotdim-da, Boston gazetalarini o'qishga kirishdim. Bularni o'z yigitlariga missis Meyers keltirgandi. «Chikago-Uayt-Soks» guruhi Amerika ligasining sovrinini olibdi, Milliy ligada esa «Nyu-York-Jayens» guruhi oldinda ekan. Beyb Rut hozir Bostonda o'ynamoqda ekan. Gazetalar zerikarli, yangiliklar xira va tor, frontdan olingan xabarlar eskirgan edi. Amerika yangiliklaridan bo'lsa faqat o'quv lagerida bo'lmaganim uchun sevindim. Sport xabarlaridan tashqari boshqa hech narsani o'qiy olmadim, o'qiganlarimni ham qiladigan ish bo'lmagani uchungina o'qidim. BIRDAN ko'p gazeta o'qisang, unchalik qiziqmay o'qiysan. Gazetalar yangi emasdi, shunday bo'lsa-da, men ularni o'qir edim. Agar Amerika chinakam urushga kirsas, sport soyuzlari berkilarmikin, deb o'yladim. Bekilmasa kerak. Urush avjida bo'lishiga qaramay, Milanda hamon uloq chopishlar bo'lib turardi. Fransiyada esa endi uloqlar chopilmas edi. Bizning Yapalog'imizni o'sha yerdan keltirishgan. Ketrinning navbatchiligi faqat to'qqizdan boshlanardi. U navbatchilikka kelganida, uning qadam tovushlarini eshitdim, bir marta ochiq eshikdan o'zini ham ko'rdim. U bir qancha palatalarni aylanib chiqdi-da, nihoyat, oldimga kirdi.

– Bugun kech keldim, jonim, – dedi u. – Ish ko'p. Xo'sh, o'zing qalaysan?

Men unga gazetalarini, ta'tilni gapirib berdim.

– Muncha yaxshi, – dedi u. – Qayerga bormoqchisan?

– Hech yoqqa. Shu yerda qolsam, deyman.

– Bo'lmagan gap. Sen bir yaxshi joyni tanlagin, men ham sen bilan boraman.

– Borasanmi, qanday qilib?

– Bilmadim. Amallarmiz.

– Shakarim.

– Unchalikmas. Shundan boshqa chora qolmaganidan keyin hammasini qilasan.

- Nima deganing bu?
- Hech nima. Men faqat o'tib bo'lmaydigan bo'lib ko'ringan to'siqlar endi hech narsaga arzimastligini bildim.
- Menimcha, buni eplash qiyin bo'ladi.
- Sira ham, jonim. Nari borsa, hammasini tashlab ketaman. Lekin bunchalikka bormas deyman.
- Qayoqqa boramiz?
- Baribir. Qayerga xohlasang. Faqat tanishlar yo'q joyni tanla.
- Rostdan ham qayerga borishimiz senga baribirmi?
- Ha. Ketsak bo'lgani.
- U nimadandir bezovta va tashvishli ko'rinardi.
- Nima bo'ldi, Ketrin?
- Hech nima. Hech nima bo'lgani yo'q.
- To'g'rimas.
- To'g'ri. Hech narsa bo'lgani yo'q.
- Unday emas, bilaman. Ayt, jonim. Menga aytmasang kimga aytasan.
- Hech narsa bo'lmadi.
- Ayt.
- Istamayman. Ko'nglingni og'ritishi yoki tashvishga solishi mumkin.
- Qo'ysang-chi.
- Rostmi? Bu meni ranjitmaydi, lekin seni ranjitishi mumkin.
- Seni ranjitmagan narsa nega meni ranjitar ekan.
- Aytgim kelmayapti.
- Ayt.
- Shartmi?
- Ha.
- Mening farzandim bo'ladi, jonim. Uch oycha bo'lib qoldi. Lekin sen ranjimaysan, to'g'rimi? Kerakmas. Ranjima.
- Ranjimayman.
- Rostdanam ranjimaysanmi?
- Albatta.

– Men nimalar qilmadim. Hammasini qilib koʻrdim, lekin sira nafi boʻlmadi.

– Men sira xafa boʻlganim yoʻq.

– Shunday boʻlib turgandan keyin men ham xafa boʻlib oʻtirmadim, jonim. Sen ham xafa boʻlib dilingni xira qilib yurma.

– Menga sen salomat boʻlsang, bas.

– Meni oʻylayverma. Hamma tugʻadi. Boshqalarda hamma vaqt bola tugʻiladi. Hech buning ajablanadigan joyi yoʻq.

– Malagim.

– Erkalab yubording. Lekin sen bu haqda hadeb oʻylayverma, jonim. Men senga tashvish orttirmaslikka harakat qilaman. Bilaman, hozir seni tashvishga qoʻydim. Lekin men shu kungacha hech narsani bildirmadim, toʻgʻrimi? Sen xayolingga ham keltirmagan eding-ku?

– Yoʻq.

– Bundan keyin ham shunday boʻladi. Sen hech qachon tashvish tortmasliging kerak. Koʻrib turibman ranjiganingni. Bas qil. Hoziroq bas qil. Balki biron narsa icharsan, jonim? Bilaman, ozgina ichsang, koʻngling ochiladi.

– Yoʻq. Men shundoq ham xursandman, shakarim.

– Erkalab yubording. Men hammasini toʻgʻrilayman, biz birga boʻlamiz, faqat sen qayerga borishimizni aniqlasang boʻldi. Oktyabr yaxshi oy. Biz vaqtimizni juda ham ajoyib qilib oʻtkazamiz, jonim, sen frontga ketganingda esa, har kuni xat yozaman.

– Oʻzing qayerda boʻlasan?

– Men hali bilmayman. Lekin eng yaxshi joyda boʻlishga harakat qilaman. Hammasi yaxshi boʻladi.

Biz jim boʻlib qoldik, gapdan toʻxtadik. Ketrin toʻshakda oʻtirar, men undan koʻzimni uzmas, lekin bir-birimizga tegmasdik. Xonaga chet kishi kirib qolganda hamma sergak tortib, oʻzi bilan oʻzi boʻlib qol-

ganday, biz ham hozir o'z xayolimiz bilan band edik. U qo'lini cho'zib mening qo'limga qo'ydi.

– Sen xafasmisan, jonim, ayt?

– Yo'q.

– O'zingni xuddi tuzoqqa tushganday his qilma-yapsanmi?

– Ehtimol, biroz shundaydir, lekin bu sen tufayli emas.

– Men ham shunday deb o'ylayapman. Qo'y, shunaqa gaplarni gapirma. Men umuman tuzoqqa demoqchiman.

– Fiziologiya doimo tuzoq.

U qimir etgani, qo'lini tortib olgani ham yo'q, lekin nazarimda bir zumda mendan yiroqlashib ketganday bo'ldi.

– Xunuk so'z. Nega doimo, deysan.

– Kechir.

– Hechqisi yo'q. Lekin bilasanmi, mening birinchi marta bo'yimda bo'lishi, birinchi marta birovni sevishim. Men sen xohlaganday bo'lishga tirishdim, sen bo'lsang, tomdan tarasha tushganday qilib «doimo» deb o'tiribsan.

– Tilimni kesib tashlasam rozi bo'lasanmi? – dedim.

– Jonim! – U uzoqlardan yana yonimga qaytdi. – E'tibor berma. – Biz yana birga edik, oramizdan gina-kudurat ko'tarildi. – Axir, ikkovimiz bir odammiz, shuning uchun mayda-chuyda narsalarga ijikilashib o'tirsak yaxshi bo'lmaydi.

– Keragi ham yo'q.

– Bunaqa gaplar bo'lib turadi. Odamlar bir-birlarini sevishadi-da, mayda-chuyda gaplar bilan bir-birlarining ta'blarini xira qilishadi, janjallashishadi, keyin to'satdan boshqa-boshqa odam bo'lib qolishadi.

– Biz hech qachon urishmaymiz.

– Keragi ham yo'q. Dunyodagi hamma boshqa odamlar oldida biz bir odammiz. Agar bizga biron narsa bo'lsa, biz tamom bo'lamiz, ular bizni tutib olishadi.



ga yomg'ir seli urilar, shamol, hatto, ayvon eshigiga dovur yomg'irni haydab kelardi. Men boshqatdan kiyinib, konyak ichdim, lekin konyakning mazasi yomon edi. Kechasi o'zimni yomon sezdim, ertalabki choydan so'ng qayt qildim.

– Hammasi ravshan, – dedi gospital vrachi. – Ko'zining oqiga qarang, miss.

Miss Geyj qaradi. O'zingiz ham qarang deb, menga ham oyna berishdi. Ko'zimning oqi sarg'ayib ketgan edi, sariq bo'lib qolibman. Ikki hafta to'shakda yotdim. Shuni deb ta'tilim buzildi, vaqtimizni birga o'tkazolmadik. Biz Lago-Majoredagi Pallansaga bormoqchi edik. Kuzda daraxtlar sarg'aya boshlaganda u yer chiroyli bo'ladi. Ko'radigan, tomosha qiladigan joylar ko'p, ko'lda xonbaliq tutish mumkin. U yer Strezadan ham yaxshi edi, chunki Pallansada odam siyrakroq bo'lardi. Strezaga Milandan borish oson edi, tanishlar ham ko'p edi. Pallansa yaqinida esa ko'rkam qishloqlar bor edi, eshkaklik qayiqqa tushib, baliqchilarning orollarigacha borish mumkin edi, orolning o'zida esa restoran bo'lardi. Lekin biz borolmay qoldik.

Bir kuni sariq bo'lib yotsam, miss Van-Kampen xonamga kirib, shkafni ochib shishalarni ko'rib qoldi. Men hozirgina qorovulni chaqirib bir to'da shishalarni berib yuborgan edim, ehtimol, miss Van-Kampen uni ko'rib qolib yana yo'qmikin deb, kirganga o'xshardi. Hammadan ham vermut, marsala, kapri, kyantidan qolgan shishalar ko'p edi, bir nechta konyak shishasi bor edi. Qorovul vermutning kattakon shishalari bilan kyanti-ning poxol savatchalarga o'ralgan baqaloq shishalarini olib ketaman, devdi. Miss Van-Kampen topgan shishalar konyakdan qolgan shishalar bo'lib, bittasi ayiq shaklida ishlangan kyummel flyagasi edi. Miss Van-Kampenni, ayniqsa, ayiq-shisha jonini chiqarib yubordi. U shishani qo'lga oldi. Ayiq oldingi oyoqlarini ko'tarib orqa oyoqlarida o'tirar, uning shisha boshida esa tiqini bor edi, shisha

tagida bir qancha yopishqoq zarrachalar ko'rinib turardi. Men kuldim.

– Kyummel shishasi, – dedim men. – Eng yaxshi kyummelni mana shunday ayiq-shishalarda soti-shadi. Uni Rossiyadan keltirishadi.

– Bular hammasi, yanglishmasam, konyak shishalari bo'lsa kerak? – so'radi miss Van-Kampen.

– Menga bu yerdan ko'rinmayapti, – dedim. – Aytganingiz to'g'ri bo'lsa kerak.

– Bu qachondan beri davom etadi?

– Ularni o'zim sotib olib kelardim, – dedim. – Oldinga tez-tez italyan ofitserlari kelib turishadi, ularni mehmon qilish uchun konyak olib qo'ygan edim.

– O'zingiz ichmas edingiz, shundaymi?

– O'zim ham ichardim.

– Konyak! – dedi u. – O'n bitta bo'shatilgan konyak shishasi va anavi ayiq suyuqligi.

– Kyummel.

– Hozir odam yuboraman, ularni yo'qotsin. Boshqa bo'sh shishalaringiz yo'qdir?

– Hozircha yo'q.

– Men bo'lsam, sizga yana achinib o'tiribman. Sadqayi achinish.

– Tashakkur.

– Bilaman, hech kimning frontga qaytgisi kelmaydi. Lekin siz alkogol ichib, o'zingizni sariq qilishdan ko'ra tuzukroq narsani o'ylab topsangiz, ma'qul bo'lar edi.

– Nima dedingiz?

– Alkogol ichib deyman. Men nima deganimni siz juda yaxshi eshitdingiz. – Men miq etmadim. – Sariqdan boshqa biron narsa o'ylab topmasangiz, qo'rqamanki, tuzalishingiz bilan sizni frontga jo'natishga to'g'ri keldi. O'zingizni ataylab sariq qilganingiz uchun salomatlikni tiklashga berilgan ta'til bekor bo'lsa, ajabmas.

– Nahotki?

– Xuddi shunday.

– Siz sira sariq bilan ogʻrganmisiz, miss Van-Kampen?  
– Yoʻq. Lekin men bu kasalni koʻp kuzatganman.  
– Siz bemorlar bu kasaldan maza qilganlarini koʻrganmisiz?

– Har holda bu frontdan durust boʻlsa kerak-da.  
– Miss Van-Kampen, – dedim men, – siz hech harbiy xizmatdan bosh tortish maqsadida oʻz moyagiga oʻzi tepgan odamni koʻrganmisiz?

Miss Van-Kampen savolni eshitmaganga oldi. U yo oʻzini eshitmaganga olishi, yo xonadan chiqib ketishi kerak edi. Uning ketgisi kelmasdi, chunki anchadan beri meni koʻrgani koʻzi yoʻq, endi oʻch oladigan payt kelib qolgan edi.

– Men frontdan qochish uchun oʻzlariga joʻrttaga zarar yetkazgan odamlarni koʻp koʻrganman.

– Gap unda emas. Joʻrttaga oʻzlarini zararlaganlarni men ham koʻrganman. Men sizdan harbiy xizmatdan qochish uchun oʻz moyagiga oʻzi tepgan odamni koʻrganmisiz, deb soʻrayapman? Shu sariq bilan ogʻriganga yaqin. Buni uncha-muncha xotinlar bilavermaydilar. Mana shuning uchun ham sizdan sariq bilan ogʻrganmisiz deb soʻradim, miss Van-Kampen, chunki...

Miss Van-Kampen xonadan chiqib ketdi. Koʻp oʻtmay miss Geyj kirdi.

– Van-Kampenga nima dedingiz? Jon-poni chiqib ketibdi.

– Biz har xil sharoitda odam oʻzini qanday his qilishi mumkinligini gaplashdik. Men u kishi hech qachon tugʻib koʻrmaganlar, deb aytdim.

– Jinni boʻlibsiz, – dedi Geyj. – U teringizni tiriklay shilib olishga tayyor.

– Shiladiganini shilib boʻldi, – dedim. – U taʼtilimni bekor qilib, endi meni dala sudiga berishdan ham toy-mas. Qoʻlidan har narsa keladi.

– Uning sizni koʻrgani koʻzi yoʻq edi oʻzi, – dedi Geyj.  
– Nima qilib aytishib qoldinglar?

– U frontga qaytib bormaslik uchun joʻrttaga koʻp ichkilik ichgansiz, deydi.

– Uff, – dedi Geyj. – Men ogʻzingizga bir tomchi ham olmagansiz deb qasam ichishim mumkin. Siz ogʻzingizga hech qachon bir tomchi ham ichimlik olmaganligingizni hamma biladi.

U shishalarni topib oldi.

– Yuz marta sizga shu shishalarni olish kerak, deb aytdim. Qani ular?

– Shkafda.

– Jomadoningiz bormi?

– Manavi xaltaga soling.

Miss Geyj shishalarni xaltaga joylashtirdi.

– Ularni qorovulga beraman, – dedi u eshikka yurar ekan.

– Bir daqiqaga, – dedi Van-Kampen. – Bu shishalarni men ola ketaman. – U oʻzi bilan qorovulni ham olib kelgan edi. – Qani, ularni koʻtaring-chi, – dedi u. – Men ularni doktor kelganda koʻrsatmoqchiman.

U yoʻlakka chiqib ketdi. Qorovul orqasidan xaltani koʻtardi. U xaltada nima borligini bilardi.

Hech narsa boʻlmadi, faqat taʼtilimdan ayrildim.

## **Yigirma uchinchi bob**

Frontga joʻnaydigan kunim kechqurun qorovulni poyezd Turindan kelishi bilanoq joy egallashga chiqardim. Poyezd yarim kechasi joʻnar edi. Guruh Turinda tashkil etilib, soat oʻn yarimlarda Milanga kelar va to joʻnatilguncha perronda turar edi. Joy olish uchun vokzalga poyezd kelmasidan chiqib turish kerak edi. Qorovul yoniga taʼtilga kelgan pulemyotchi oʻrtogʻini olib, ikki kishi boʻlsak joy olish oson boʻladi deb vokzalga ketdi. Men ularga perron chiptasiga pul berdim-da, yuklarimni ham olvolishlarini soʻradim. Katta bir ryukzagim va ikkita safar sumkam bor edi.

Soat beshlarda gospitaldagilar bilan xayrlashib chiqdim. Qorovul yuklarimni o'z xonasiga olib borib qo'yan ekan, unga vokzalda yarim kechadan oldinroq bo'laman, dedim. Uning xotini meni «signorino» deb atadi va yig'lab yubordi. Keyin ko'zlarini artib, qo'llarimni silkidi-da, so'ng yana yig'lab yubordi. Men uning yelkasiga qoqib qo'ydim, shunda u yana yig'lab oldi. U past bo'lyli, yumaloqqina, sochlari oqarib ketgan, mehribon yuzli ayol edi. U doim mening paypoqlarimni yamab berardi. U yig'laganda butun yuzi yoyilib ketardi. Men burchakdagi barga bordim-da, derazaga qarab kuta boshladim. Ko'cha qorong'i edi, sovuq edi, tumanli edi. Men grappa qo'shilgan qahvaning haqini to'ladim-da, derazadan tushgan yorug'lik parchasida o'tkinchilarning o'tib borishini kuzata boshladim. Men Ketrinni ko'rib oynani tiqillatdim. U burilib qaradi, meni ko'rib jilmaydi va men unga peshvoz chiqdim. U ustiga qoramtir ko'k yomg'irpo'sh ilgan, boshiga yumshoq shlyapa kiygandi. Biz xiyobondan – vino do'konlari yonidan yurib ketdik, keyin bozor maydonidan o'tib yana ko'chaga chiqdik-da, ark ostidan o'tib, jome maydoniga chiqdik. Maydonni tramvay yo'llari kesib o'tar, jome yo'lining narigi tomonida joylashgan edi. Jome oq va tumanda rutubatli ko'rinardi. Tramvay yo'llarini kesib o'tdik. Chap tomonimizda yorug' vitrinali magazinlar va Galleriaga kiradigan joy bor edi. Maydon ustida tuman quyuqlashib borardi, jome ham yaqindan juda mahobatli ko'rinar, devor toshlari esa nam tortgan edi.

– Kiramizmi?

– Yo'q, – dedi Ketrin.

Yana yurib ketdik. Devordan chiqarilgan tosh tirgamlarning panasida bir soldat qiz bilan turardi, yonlaridan o'tib ketdik. Ular devorga mahkam qisilishib turishar, soldat qizni yomg'irpo'shi bilan o'rab olgandi.

– Ular bizga o'xshaydi, – dedim.

– Hech kim bizga o‘xshamaydi, – dedi Ketrin. Hozir uning ichiga chiroq yoqsa yorimasdi.

– Ularning boradigan joylari ham yo‘q.

– Balki shunday bo‘lgani ularga ma‘qulroqdir.

– Bilmadim. Ishqilib, odamning boradigan joyi bo‘lishi kerak.

– Ularning jomelari bor, – dedi Ketrin.

Biz jomedan o‘tdik. Narigi betga o‘tib unga qaradik. Jome tumanda chiroyli ko‘rinardi. Biz charm mahsulotlar magazini oldida to‘xtadik. Vitrinaga chavandozlarning etiklari, ryukzaklar, chang‘ida uchganda kiyiladigan oyoq kiyimlari qo‘yilgan edi. Ular alohida-alohida qo‘yilgandi: o‘rtada ryukzak, bir tomonda etik, ikkinchi tomonda chang‘i kiyimi turardi. Charm qoramtir, silliq, xuddi eski egarday yiltirardi. Elektr nuri xira yiltillab turgan charmga uzun yiltiroq yo‘llar solgandi.

– Nasib qilsa, sen bilan hali rosa chang‘i uchamiz.

– Ikki oydan keyin Myurrenda chang‘i mavsumi boshlanadi, – dedi Ketrin.

– O‘sha yerga boramiz, xo‘pmi?

– Bo‘pti, – dedi u. Biz boshqa vitrinalar oldidan o‘tib, yon ko‘chaga burildik.

– Men bu yerdan sira yurmaganman.

– Men bu yo‘ldan doim Ospedale Maggiorega qatnar edim, – dedim.

Ko‘cha tor bo‘lib, biz o‘ng tomondan yurib borardik. Quyuq tumanda qarshimizdan ko‘p yo‘lovchilar keldi. Biz o‘tib borayotgan hamma do‘konlarning derazalari yorug‘ edi. Biz bir derazadagi sirdan ishlangan piramidaga tikilib qoldik. Qurol-yarog‘ do‘koni oldida to‘xtadik.

– Birpasga kirib chiqaylik. Men u-bu sotib olishim kerak.

– Nima?

– Pistolet.

Biz ichkariga kirdik, men kamarim bilan to'pponchanning bo'sh g'ilofini yechib peshtaxta ustiga qo'ydim. Peshtaxta ortida ikki xotin turardi. Ular menga bir qancha to'pponchalarni ko'rsatishdi.

– Menga g'ilofga tushadigani kerak, – dedim g'ilofni ocharkanman. G'ilof kulrang, charmdan tayyorlangan bo'lib, uni shaharda taqib yurish uchun olgan edim.

– Bular yaxshi to'pponchalarmi? – so'radi Ketrin.  
– Hammasi deyarli bir xil. Manavinisini otib ko'rish mumkinmi? – so'radim xotindan.

– Hozir otadigan joyimiz yo'q, – dedi u. – Lekin u juda ham yaxshi. Xursand bo'lasiz.

Men tepkini tushirib, lo'kidonni tortdim. Lo'kidon prujinasi qattiq edi, ammo tiqilmay keldi. Men mo'ljalga olib tepkini bosdim.

– U yangi emas, – dedi ayol. – Otishga usta bir ofitser bor edi, o'shaniki.

– Sizdan sotib olganmidi?

– Ha.

– Yana qanday qilib qo'lingizga tushdi?

– O'sha ofitserning xizmatchisi keltirdi.

– Balki meniki ham sizdadir, – dedim men. – Qancha?

– Ellik lir. Judayam arzon.

– Yaxshi. Menga yana ikkita o'qdon bilan bir quti patron bering.

– U peshtaxta tagidan o'qdon bilan o'qlarni oldi.

– Balki sizga qilich ham kerakdir? – so'radi ayol, – menda tutilgan qilich bor, arzonga berardim.

– Men frontga ketyapman.

– Ha, unda sizga qilichning keragi yo'q, – dedi u. Men o'qlar bilan to'pponchanning haqini to'ladim, o'qdonga o'qlarni joylab, o'rniga qo'ydim, to'pponchani g'ilofga soldim, qolgan har ikkala o'qdonga ham o'qlarni joylab qo'ydim-da, ularni g'ilofning charm cho'ntagiga soldim, keyin kamarni taqib qadab oldim. To'pponcha og'irligidan kamarni pastga tortib turardi. Bari-

bir armiyada beriladigan to'pponchaga yetmaydi, deb o'yladim. Ularga har doim patron topish mumkin.

– Mana endi to'la-to'kis qurollanib oldik, – dedim. – Frontga jo'nashdan oldin qilinadigan birdan-bir ishim shu edi. O'zimnikini gospitalga jo'natishayotganda kimdir olib qo'yibdi.

– Ishqilib, yaxshi bo'lsin-da, – dedi Ketrin.

– Balki sizga yana biron narsa kerakdir? – so'radi ayol.

– Kerakka o'xshamayapti.

– Shnurli pistoletchi? – dedi u.

– Ha, ko'rdim.

Ayol yana biron narsa sotgisi kelayotgandi.

– Balki sizga hushtak kerakdir?

– Unchalik kerakmas.

Ayol «xayr» dedi va biz ko'chaga chiqdik. Ketrin derazadan qaradi. Ayol boshini chiqarib bizga ta'zim qildi.

– Yog'och g'ilofga solingan ko'zgu nimaydi?

– Qushlarga tuzoq. Shunaqa ko'zgu bilan dalaga chiqishadi, to'rg'aylar yiltillagan ko'zguna kelishadi, shunda ularni o'ldirishadi.

– Ustomon bo'larkan bu italyanlar, – dedi Ketrin. – Sizlarda, Amerikada to'rg'aylarni otishmaydi, a, jonim?

– Tasodifan otishmasa, otishmaydi.

Biz ko'chani kesib o'tib narigi betdan yurdik.

– Hozir ancha durust bo'lib qoldim, – dedi Ketrin.

– Ko'chaga chiqqanimizda juda mazam qochgan edi.

– Birga bo'lsak doim yaxshi.

– Biz doimo birga bo'lamiz.

– Bugun yarim kechasi jo'nab ketishimni hisobga olmaganda, shunday.

– Bu haqda o'ylama, jonim.

Biz ko'chada yurib borardik. Tumanda chiroqlar sarg'imgir ko'rinardi.

– Charchamadingmi? – so'radi Ketrin.

– Sen-chi?

– Yo'q. Shunday kezib yurish yoqimli.



– Faqat judayam uzoq yurmaslik kerak.

– Yaxshi.

Biz chorrahagacha bordik-da, yon ko'chaga burildik, bu ko'chada chiroqlar yo'q edi. Men to'xtab, Ket-rinni o'pdim. O'payotganimda uning qo'lini yelkamda his qildim. U mening yomg'irpo'shim bilan o'zini ham, meni ham o'radi. Biz baland devor panasida, yo'lkada turardik.

– Biron yoqqa bora qolaylik, – dedim.

– Xo'p, – dedi Ketrin. Biz yon ko'chadan katta ko'chaga chiqquncha yurib bordik, biz chiqqan kattaroq ko'cha kanalga olib borardi. Narigi tomonda g'ishtin uylar bor edi. Ko'chadan chiqaverishda men ko'prikdan o'tib borayotgan tramvayni ko'rdim.

– Ko'prikda ekipaj topamiz, – dedim. Biz ko'prikda, tuman ichida ekipaj kutib turdik. Yonimizdan uylariga shoshayotgan odamlar bilan liq to'lgan tramvaylar o'tib borardi. Keyin ekipaj o'tdi, ammo unda odam bor edi. Yomg'ir imirsilay boshladi.

– Yayov boramizmi yo tramvayga o'tiramizmi? – dedi Ketrin.

– Hozir ekipaj topamiz, bu yerda ko'p bo'ladi, – dedim.

– Ana, o'ziyam kelib qoldi, – dedi u.

Kucher otni to'xtatib, schyotchigining belgisini tushirib qo'ydi. Aravaning usti ko'tarib qo'yilgan, kucherning plashiga yomg'ir tomchilari o'rnashib qolgan edi. Uning loklangan silindri nam tekkanidan yiltirab turardi. Biz birgalikda orqa o'rindiqqa o'tirdik, ekipajning tepasi ko'tarib qo'yilganidan ichi qorong'i edi.

– Qayerga borishimizni unga aytdingmi?

– Ha, vokzalga. Vokzalning qarshisida otel bor, o'shanga boramiz.

– Otelga shunday o'zimizni – yukimizsiz kiritadimi?

– Kiritadi, – dedim.

Yomg'irda tor ko'chalardan vokzalga uzoq yurib bordik.

– Ovqatlanib olmaymizmi? – so‘radi Ketrin. – Men ochqaganday bo‘ldim.

– Biz o‘z xonamizda ovqatlanamiz.

– Men kiyinib oladigan hech narsam yo‘q. Hatto, tungi ko‘ylagim ham yo‘q.

– Bo‘lmasa, sotib olamiz, – dedim va kucherni chaqirdim: – Via-Mantsonidan yuraylik.

U boshini qimirlatdi va chorrahaga kelganda, chapga burildi.

Via-Mantsonida Ketrin magazin qidira boshladi.

– Mana shu yerda, – dedi u. Men kucherni to‘xtatdim, Ketrin tushdi, yo‘lkadan o‘tib ichkariga kirib ketdi. Men o‘rindiqqa suyanib uni kuta boshladim. Yomg‘ir tinmay yog‘ar, ko‘chadan namxush hid anqir, otning sag‘ridan hovur ko‘tarilardi. Ketrin tugunchak ko‘tarib chiqdi va biz yo‘lda davom etdik.

– Judayam sovurmachiman-da, jonim, – dedi u, – lekin ko‘ylak shunaqayam chiroyli ekanki.

Otelga kelganimizdan so‘ng men Ketrinni ekipajda qoldirib, o‘zim boshqaruvchi bilan gaplashgani ichkariga kirib ketdim. Xonalar istalganicha topilar ekan. Men ekipajga qaytdim, kucherga pulini to‘ladim-da, Ketrin bilan birga otelga kirdik. Tugmachalari yiltiroq bola tugunchani ko‘tarib oldi. Boshqaruvchi ta‘zim bilan bizni liftga taklif qildi. Qayoqqa qaramang, ko‘zingiz qizil duxoba bilan bronzaga tushadi. Boshqaruvchi biz bilan birga yuqoriga ko‘tarildi.

– Monsiner va madame o‘zlarida ovqatlanadilarmi?

– Ha. Kartochkani berib yuborsangiz, – dedim.

– Maxsus bir narsalar ham buyuradilarmi, murg‘iy yoki sufle?

Lift har bir qavatda jiringlab, uchinchi qavatga ko‘tarildi. Jiringlab, to‘xtadi.

– Qushlardan qandaylari bor?

– Qirg‘ovul yo bo‘lmasam loyxo‘rak tayyorlab berishimiz mumkin.

– Loyxo‘rak bo‘lsin, – dedim. Dahlizdan yurib bordik. Gilamlar siyqalanib ketgan edi. Chap va o‘ng tomonlarda eshiklar ko‘p edi. Boshqaruvchi to‘xtab, eshiklardan birini ochib, ichkariga taklif qildi.

– Marhamat qilsinlar. Ajoyib xona.

Tugmalari yiltiroq bola tugunchani xona o‘rtasidagi stolga qo‘ydi. Boshqaruvchi deraza darpardalarini surib qo‘ydi.

– Bugun tuman, – dedi u. Xonaga qizil duxoba qoplangan mebellar qo‘yilgan edi. Hamma yoqda ko‘zgu va bulardan tashqari ikki kreslo bilan atlas ko‘rpa to‘shalgan keng karavot qo‘yilgandi. Bir eshik vannaga ochilardi.

– Men hozir kartochkani berib yuboraman, – dedi boshqaruvchi. U ta‘zim qilib chiqib ketdi.

Men derazaga borib ko‘chaga qaradim, keyin chizimchani tortgan edim, darpardalar surildi. Ketrin o‘rinda billur qandilga tikilib o‘tirardi. U shlyapasini boshidan oldi, uning sochlari yorug‘da jilvalanib ketdi. U o‘zini oynalardan birida ko‘rdi-da, qo‘lini sochlariga olib bordi. Men uni boshqa uch oynadan ko‘rib turardim. U noxush edi. Yomg‘irpo‘shni yechib o‘ringa tashladi.

– Senga nima bo‘ldi, jonim?

– Men o‘zimni hech o‘ynash deb his qilib ko‘rmagan edim, – dedi u. Men derazaga borib, darpardalarni chetga surdim-da, ko‘chaga qaradim. – Men bunday bo‘ladi deb o‘ylamagan edim.

– Sen o‘ynash emassan.

– Bilaman, jonim. Lekin o‘zingni shunday deb his qilish xunuk. – Uning ovozi shirasiz va xira edi.

– Bu biz kelishimiz mumkin bo‘lgan eng durust otel, – dedim.

Men derazadan tashqariga qaradim. Maydonning narigi tomonida vokzal chiroqlari yonib turardi. Ko‘chadan ekipajlar o‘tib borar, narida parkdagi daraxtlar ko‘rinardi. Otel chiroqlarining shu‘lasi ko‘cha-

ga tushib turibdi. «Yo, tavba, – o‘yladim men, – nahotki hozir bahslashib o‘tiradigan payt bo‘lsa?»

– Bu yoqqa kel, – dedi Ketrin. Uning ovozigiga yana shira kirdi. – Kel, bu yoqqa. Men gapga kiradigan qizcha bo‘lib qoldim.

Men o‘rin tomonga o‘girildim. Ketrin kulib turardi.

Men borib to‘shakka uning yoniga o‘tirdim va uni o‘pdim.

– Juda qobil qizsan-da.

– Ha, sening ma‘qul qizingman, – dedi u. Tamaddi qilganimizdan so‘ng sal yengil tortdik, keyin esa, juda ham yozilishib ketdik va bu xona xuddi o‘z uyimizday bo‘lib qoldi. Avval gospitaldagi mening xonam bizning uyimiz edi, endi otelning mana shu xonasi o‘z uyimizday bo‘lib qoldi.

Ketrin yelkasiga mening frenchimni tashlab o‘tirdi. Juda qattiq ochqagan ekanmiz, ovqatlar mazali edi va biz bir shisha kapri bilan bir shisha sent-estef ichdik. Ko‘prog‘ini men ichdim, Ketrin ham ozgina ichdi va ancha ochilib o‘tirdi. Bizga kartoshka solingan loyxo‘rak, sufle, qovurilgan kashtan, mevalar, shirin sabayon keltirishdi.

– Yaxshi xona ekan, – dedi Ketrin. – Ajoyib xona ekan. Nega avvalroq bu xonaga kelmagan ekanmiz-a.

– Odamning kulgisi qistaydi bu xonadan, lekin soz ekan.

– Rosa ishratparast bo‘lib ketdik, – dedi Ketrin. – Ishratga berilgan odamlar bu ishni rosa hirslarini qo‘yib qilsalar kerak. Qizil duxobasi ham juda boshqacha ekan. Moslashganini qara. Oynalarni aytmaysanmi, voy-bo‘?

– Sen hammadan go‘zalsan, jonim.

– Bilmadim, ertalab odam bunday xonada qanday uyg‘onarkin. Lekin, umuman, yaxshi xona.

Men yana bir stakan sent-estef quyib berdim.

– Odamning rostakam gunoh qilgisi keladi, – dedi Ketrin. – Biz qilayotgan hamma ishlar ma‘sum va oddiy ishlar. Men yomon ish qilayotibmiz deb o‘ylamayman.

– Loyxo‘rak bo‘lsin, – dedim. Dahlizdan yurib bordik. Gilamlar siyqalanib ketgan edi. Chap va o‘ng tomonlarda eshiklar ko‘p edi. Boshqaruvchi to‘xtab, eshiklardan birini ochib, ichkariga taklif qildi.

– Marhamat qilsinlar. Ajoyib xona.

Tugmalari yiltiroq bola tugunchani xona o‘rtasidagi stolga qo‘ydi. Boshqaruvchi deraza darpardalarini surib qo‘ydi.

– Bugun tuman, – dedi u. Xonaga qizil duxoba qoplangan mebellar qo‘yilgan edi. Hamma yoqda ko‘zgu va bulardan tashqari ikki kreslo bilan atlas ko‘rpa to‘shalgan keng karavot qo‘yilgandi. Bir eshik vannaga ochilardi.

– Men hozir kartochkani berib yuboraman, – dedi boshqaruvchi. U ta‘zim qilib chiqib ketdi.

Men derazaga borib ko‘chaga qaradim, keyin chizimchani tortgan edim, darpardalar surildi. Ketrin o‘rinda billur qandilga tikilib o‘tirardi. U shlyapasini boshidan oldi, uning sochlari yorug‘da jilvalanib ketdi. U o‘zini oynalardan birida ko‘rdi-da, qo‘lini sochlariga olib bordi. Men uni boshqa uch oynadan ko‘rib turardim. U noxush edi. Yomg‘irpo‘shni yechib o‘ringa tashladi.

– Senga nima bo‘ldi, jonim?

– Men o‘zimni hech o‘ynash deb his qilib ko‘rmagan edim, – dedi u. Men derazaga borib, darpardalarni chetga surdim-da, ko‘chaga qaradim. – Men bunday bo‘ladi deb o‘ylamagan edim.

– Sen o‘ynash emassan.

– Bilaman, jonim. Lekin o‘zingni shunday deb his qilish xunuk. – Uning ovozi shirasiz va xira edi.

– Bu biz kelishimiz mumkin bo‘lgan eng durust otel, – dedim.

Men derazadan tashqariga qaradim. Maydonning narigi tomonida vokzal chiroqlari yonib turardi. Ko‘chadan ekipajlar o‘tib borar, narida parkdagi daraxtlar ko‘rinardi. Otel chiroqlarining shu‘lasi ko‘cha-

ga tushib turibdi. «Yo, tavba, – o‘yladim men, – nahotki hozir bahslashib o‘tiradigan payt bo‘lsa?»

– Bu yoqqa kel, – dedi Ketrin. Uning ovoziga yana shira kirdi. – Kel, bu yoqqa. Men gapga kiradigan qizcha bo‘lib qoldim.

Men o‘rin tomonga o‘girildim. Ketrin kulib turardi.

Men borib to‘shakka uning yoniga o‘tirdim va uni o‘pdim.

– Juda qobil qizsan-da.

– Ha, sening ma‘qul qizingman, – dedi u. Tamaddi qilganimizdan so‘ng sal yengil tortdik, keyin esa, juda ham yozilishib ketdik va bu xona xuddi o‘z uyimizday bo‘lib qoldi. Avval gospitaldagi mening xonam bizning uyimiz edi, endi otelning mana shu xonasi o‘z uyimizday bo‘lib qoldi.

Ketrin yelkasiga mening frenchimni tashlab o‘tirdi. Juda qattiq ochqagan ekanmiz, ovqatlar mazali edi va biz bir shisha kapri bilan bir shisha sent-estef ichdik. Ko‘prog‘ini men ichdim, Ketrin ham ozgina ichdi va ancha ochilib o‘tirdi. Bizga kartoshka solingan loyxo‘rak, sufle, qovurilgan kashtan, mevalar, shirin sabayon keltirishdi.

– Yaxshi xona ekan, – dedi Ketrin. – Ajoyib xona ekan. Nega avvalroq bu xonaga kelmagan ekanmiz-a.

– Odamning kulgisi qistaydi bu xonadan, lekin soz ekan.

– Rosa ishratparast bo‘lib ketdik, – dedi Ketrin. – Ishratga berilgan odamlar bu ishni rosa hirslarini qo‘yib qilsalar kerak. Qizil duxobasi ham juda boshqacha ekan. Moslashganini qara. Oynalarni aytmaysanmi, voy-bo‘?

– Sen hammadan go‘zalsan, jonim.

– Bilmadim, ertalab odam bunday xonada qanday uyg‘onarkin. Lekin, umuman, yaxshi xona.

Men yana bir stakan sent-estef quyib berdim.

– Odamning rostakam gunoh qilgisi keladi, – dedi Ketrin. – Biz qilayotgan hamma ishlar ma‘sum va oddiy ishlar. Men yomon ish qilayotibmiz deb o‘ylamayman.

– Sen tengi yo‘q go‘zalsan.  
– Men juda ochman. Men juda-juda ochman.  
– Sen sodda, sen ajoyibsan.  
– Men soddaman. Buni sendan boshqa hech kim tushunmaydi.

– Ho‘, bir kuni sen bilan tanishgan mahalimizda men kun bo‘yi sen bilan «Kavur» oteliga borishimizni va hammasi qanday bo‘lishini o‘ylaganman.

– Betamiz. Lekin bu «Kavur» otelimas, to‘g‘rimi?

– Ha. Bizni u yerga kirgizishmaydi.

– Bir kuni kirgizishadi. Mana ko‘rdingmi, jonim, bizning farqimiz nimada? Men esa hech qachon sen o‘ylagan narsalarni o‘ylagan emasman.

– Sirayam-a?

– Jindakkina, – dedi u.

– Oh, jonginam!

Men yana bir stakan vino quydim.

– Men juda soddaman, – dedi Ketrin.

– Men oldin boshqacharoq o‘ylagan edim. Menga sen telbaroq bo‘lib ko‘ringan eding.

– Ozgina telbaligim ham yo‘q emasdi. Lekin judayam jinni deydigan emasdim. Seni o‘ng‘aysizlantirib qo‘yganmidim, jonim?

– Vino xo‘b ajoyib narsa-da, – dedim. – Barcha yomon narsalarni unutasan.

– Ajoyib narsa, – dedi Ketrin. – Lekin otam undan bod bo‘lib qolgan edi.

– Sening otang bormi?

– Ha, – dedi Ketrin. – Uning bodi bor. Lekin sening u bilan uchrashishing shart emas. Nima, sening otang yo‘qmi?

– Yo‘q, – dedim. – O‘gay otam bor.

– Yaxshi odammi?

– Sen u bilan ko‘rishishing shart emas.

– Ikkovimiz bo‘lsak, biram yaxshiki, – dedi Ketrin.

– Meni shundan boshqa hech narsa qiziqtirmaydi. Shunday baxtiyor xotinmanki.

Ofitsiant kelib idishlarni yig'ishtirib oldi. Ko'p o'tmay biz jimib qoldik. Eshikda yomg'ir yog'ayotgani eshitila boshladi. Pastda, maydonda mashina dudutladi.

– *Shitob bilan ketib boradi,  
Vaqtning oti o'tib boradi.*

– dedim men.

– Men bu she'rni bilaman, – dedi Ketrin. – Marvell-niki. Faqat u erkak bilan yashashni istamagan qiz haqida edi-ku.

Boshim tiniqlashdi, xuddi uyqudan yangi turganday yengil edim, turmushimiz haqida gaplashgim keldi.

– Qayerda tug'moqchisan?

– Bilmadim. Eng yaxshi joyda.

– Hammasini o'zing eplay olarmikinsan?

– Eplamay-chi. Xotirjam bo'l, jonim. Urush tamom bo'lguncha hali yana bir talay bolalarimiz bo'lishi mumkin.

– Vaqtimiz tugay deb qoldi.

– Bilaman. Istasang o'tlanamiz.

– Yo'q.

– Unda qizishma, jonim. Shuncha payt o'zingni biram yaxshi tutdingki, endi bo'lsa, asabiylashyapsan.

– Xo'p, unday qilmayman. Menga tez-tez yozib turasanmi?

– Har kuni. Xatlaringizni tekshirishadimi?

– U yerda ingliz tilini shu qadar yomon bilishadiki, tekshirganlaridan ma'no yo'q.

– Men juda chalkash qilib yozaman, – dedi Ketrin.

– Juda ham chalkashtirib yubormagin-da.

– Yo'q, sal-pal, xolos.

– Ketadigan vaqt bo'lib qoldi.

– Xo'p, jonim.

– Mo'jazgina uychamizdan mening ketgim kelmay qoldi.

– Mening ham.



- Lekin borish kerak.
- Xo‘p. Biz hali uyimizda hecham uzoqroq yashaganimiz yo‘q, axir.
- Nasib qilsa hali ko‘p yashaymiz.
- Sening qaytishingga chiroyli bir uy hozirlab qo‘yaman.
- Balki men tezda qaytarman.
- Balki to‘satdan oyog‘ingdan sal-pal yaralanarsan.
- Yo qulog‘imning uchginasidan, a?
- Yo‘q, quloqlaring bus-butun bo‘lishini istayman.
- Nima, oyoqsiz bo‘lsam, maylimi?
- Oyog‘ingdan bir marta yaralanib bo‘lgansan.
- Boraylik endi, jonim.
- Xo‘p. Sen birinchi bo‘lib yur.

### **Yigirma to‘rtinchi bob**

Lift chaqirib o‘tirmadik, zinadan tushib bordik. Zinadagi gilam siyqalanib ketgan edi. Men ovqatga uni keltirgan mahallaridayoq to‘lagan edim, hozir ovqat keltirgan ofitsiant eshik oldida o‘tirardi. U sakrab turdi-da, ta‘zim qildi, men u bilan kontoraga kirib xonaning haqini to‘ladim. Boshqaruvchi meni qaddon do‘stiday qarshi olgan edi, oldindan haq olishga ko‘nmovdi, endi bo‘lsa to‘lamay qochib qolmasin deb eshikka ofitsiantni o‘tqazib qo‘yibdi. Bunaqa hodisalarni, hatto, do‘stlari bo‘lsa ham ko‘p ko‘rganga o‘xshaydi. Urush paytida do‘sting ko‘payadi, axir.

Men ofitsiantdan ekipaj topishni so‘radim va u Ket-rin qo‘lidan tugunchani oldi-da, zontini ochib tashqariga chiqib ketdi. Derazadan uning yomg‘irda ko‘cha kesib o‘tayotgani ko‘rinardi. Biz kontorada derazaga qarab turardik.

- Qalay, endi tuzukmisan, Ket?
- Uyqum kelyapti.
- Meni esa g‘am bosyapti, qornim ochyapti.
- Yegulik biron narsa olganmisan?

– Safar xaltamda bor.

Men ekipaj kelayotganini koʻrdim. U toʻxtadi, ot yomgʻirdan kallasini quyi solib tek turdi, ofitsiant zontini ochib pastga tushdi va otelga yoʻl oldi. Biz unga eshikda duch keldik va zont panasida shalabbo yoʻlkadan ekipajga bordik. Yoʻlka chekkasidagi ariqdan shaldirab suv oqmoqda edi.

– Tugunchangiz oʻrindiqa, – dedi ofitsiant. Biz oʻtirib boʻlgunimizcha u zont tutib turdi va men unga choy puli berdim.

– Rahmat. Oq yoʻl, – dedi u.

Kucher tizginni koʻtardi, ot yoʻlga tushdi. Ofitsiant zonti bilan orqasiga oʻgirildi-da, otelga qarab ketdi. Biz yoʻlka boʻylab yurdik, keyin chapga burildik-da, vokzalning oʻng tomonidan chiqdik. Ikki karabiner yomgʻirdan qochib fonus tagida turishardi. Fonus yorugʻida ularning shlyapalari yiltirar edi. Vokzal chiroqlarining shuʻlasida yomgʻir tiniq va musaffo koʻrinar edi. Ayvon tagidan yuk tashuvchi chiqdi, u yomgʻirdan boshini yoqasiga tiqib olgan.

– Kerakmas, – dedim. – Rahmat. Hojati yoʻq.

U yana ayvon tagiga kirib ketdi. Ketringa oʻgʻrildim. Uning yuzi qorongʻida koʻrinmadi.

– Xayrlashamizmi, endi?

– Men chiqaman.

– Kerakmas.

– Xayr, Ket.

– Unga gospital manzilini aytsang boʻldi.

– Xoʻp.

Men kucherga qayoqqa borish kerakligini aytdim. U bosh silkidi.

– Koʻrishguncha, – dedim. – Oʻzingni va kichkina Ketrinni ehtiyot qil.

– Koʻrishguncha, jonim.

– Koʻrishguncha, – dedim.

Men yomgʻirga chiqdim va kucher joʻnab ketdi. Ketrin boshini chiqardi, fonus yogʻdusida uning yuzini koʻrdim.

U jilmayib qo'lini silkimoqda edi. Ekipaj ko'chadan yurib ketdi. Ketrin qo'li bilan ayvon tomonni ko'rsatdi. Men o'girilib qaradim: ayvonda karabinerlardan boshqa hech kim yo'q edi. U menga yomg'irdan panaga o't deyyotganligini tushundim. Men ayvon tagiga o'tib, ekipaj chorrahadan burilib ketayotganiga qarab turdim. Keyin vokzal binosidan o'tib, poyezd oldidan chiqdim.

Perronda meni qorovul kutib turardi. Uning ketidan vagonga kirdim, eshik oldidagi odamlarni yorib o'tib, eshikni ochdim-da, odam bilan liq to'lgan kupega tiqildim, burchakda pulemyotchi o'tiribdi. Mening ryukzagim va safar xaltalarim uning bosh tomonida yuk xaltasi ichida turardi. Yo'lakda odam ko'p edi va biz kirganda kupeda o'tirganlarning hammasi o'girilib qaradi. Poyezdda joy tanqis bo'lib, hamma bir-biriga yeb qo'yguday bo'lib qarardi. Menga joy berish uchun pulemyotchi o'rnidan turdi. Kimdir yelkamga kafti bilan urdi. Aylanib qaradim. Qarshimda haddan ortiq daroz va oriq, yonog'iga qizil chandiq tushgan artileriya kapitani turardi. U hammasini eshik oynasidan ko'rib turgan ekan, orqamdan kiribdi.

– Nima gap? – so'radim men. U bilan yuzma-yuz turardim. Uning bo'yi mendan balandroq edi, kozirogi soya solgan yuzi juda ham oriq ko'rinardi, chandig'i ham yangigina edi. Hammaning ko'zi menda edi.

– Yaxshimas, – dedi u. – Oldindan joy olish uchun soldatni yuborish yaxshimas.

– Mana men shunday qildim.

U qult etib yutindi va men uning kekirdagi ko'tarilib tushganini ko'rdim. Pulemyotchi bo'sh joyning oldida turardi. Yo'lakning oyna to'sig'idan odamlar qarab turishardi. Hamma jim bo'lib qoldi.

– Sizning haqingiz yo'q. Men bu yerga sizdan ikki soat oldin kelganman.

– Nima istaysiz?

– O'tirishni istayman.

– Men ham.

Men uning yuziga qarab turar ekanman, atrofda hamma menga qarshi ekanligini sezib turardim. Men ularni ayblay olmayman. U haq edi. Ammo mening o'tirgim kelgan edi. Odamlar hamon jim turishardi. «Qurib ketsin», – dedim ichimda.

– O'tiring, signor capitano, – dedim, pulemyotchi bir chekkaga o'tdi va daroz kapitan o'tirdi. U menga qaradi. Ko'zi negadir bezovta edi. Biroq joy uniki bo'ldi. – Mening narsalarimni oling, – dedim pulemyotchiga. Biz yo'lakka chiqdik. Poyezdda odam tiqilib yotardi, joy topish amrimahol edi. Men qorovul bilan pulemyotchiga o'n lirdan berdim. Ular vagondan tushib butun platforma bo'ylab hamma vagonlarni qarab chiqishdi, lekin joy yo'q edi.

– Balki bitta-yarimtasi Breshiyada tushar, – dedi qorovul.

– Breshiyada yana chiqishadi, – dedi pulemyotchi. Men ular bilan xayrlashdim, qo'l olishdik, so'ng ketishdi. Ularning ta'blari xira bo'lgan edi. Poyezd o'rnidan jilganda biz – hamma joysiz qolganlar yo'lakda turar edik. Men derazadan fonuslarga qarab borardim. Hamon yomg'ir quyur, ko'p o'tmay oynalar xiralashib hech narsani ko'rib bo'lmay qoldi. Keyinroq men pul-larim va hujjatlarim solingan hamyonni belimga yaxshilab joyladim-da, yo'lakda uxlagani yotdim. Tuni bilan uyqudan bosh ko'tarmadim, faqat Breshiya bilan Veronada poyezdga yangi odamlar chiqishganda uyg'ondim va yana shu zahoti uyquga cho'mdim. Sa-far xaltamning bittasini boshimga qo'yib, ikkinchisini ikkala qo'lim bilan quchoqlab oldim. Shuning uchun menga qoqilib yiqilishni istamaganlar ustimdan bema-lol sakrab o'tishlari mumkin edi. Yo'lakning boshidan oyog'igacha odamlar uxlab yotishardi. Boshqalar oyna tutqichlarini ushlab eshiklarga suyanib turishardi. Bu poyezd doimo odamga to'lib borardi.

### Yigirma beshinchi bob

Kuz kelgandi, daraxtlar yalang'och, yo'llarda loygarchilik edi. Udinadan Goritsiyaga yuk mashinasida ketdim. Yo'lda bizga boshqa yuk mashinalari ham uchrab turdi, men atrofni tomosha qilib bordim. Tutlar bargini to'kib bo'lgan, dalalar qo'ng'ir tusga kirgan edi. Ikki qator yalang'och daraxtlar o'rtasidagi yo'l ho'l xazon bilan qoplangan edi, ishchilar yo'l chetidagi daraxtlar tagiga to'kib qo'yilgan shag'aldan olib, yo'lning o'nqir-cho'nqirlarini tuzatishardi. Shahar ko'rindi, lekin uning tepasidagi tog'lar tuman bilan qoplangan edi. Biz daryodan o'tdik, daryoning suvi ancha ko'tarilib qolgandi. Tog'larda yomg'ir quymoqdaydi. Biz fabrikalar, keyin uylar va bog'otlardan o'tib, shaharga kirib bordik, men yo'g'imda yana ham ko'proq uylar snaryadlardan vayron bo'libdi. Tor ko'chada ingliz Qizil Xochining mashinasini uchratdik. Shofyor kepka kiyib olgan, chuvakkina yuzi qattiq qorayib ketgandi. Men uni tanimadim. Men yuk mashinadan meriya oldidagi katta maydonda tushdim, shofyor ryukzagimni olib berdi, uni bo'ynimga ilib oldim, ikkala safar xaltamni ko'tarib o'zimizning uyga qarab ketdim. Bu uyga qaytishga sira ham o'xshamasdi.

Men xiyobonning ho'l toshlaridan yurib borar, ko'zim daraxtlar ortida oqarib ko'ringan uyimizda edi. Hamma derazalar berk, ammo eshik lang ochiq edi. Men ichkariga kirsam, mayor stolda o'tirgan ekan, xonaning yalang devorlariga xaritalar osilgan, mashinkada yozilgan qog'ozlar yopishtirilgandi.

– Salom! – dedi u. – Sog'liqlar qalay? – u qartayibdi, cho'pday bo'lib qolibdi.

– Joyida, – dedim. – O'zingizning ishlaringiz tuzukmi?

– Hammasi tamom bo'ldi, – dedi u. – Narsalaringizni qo'yib, o'tiring.

Men ryukzak bilan ikkala xaltani polga qo'ydim, kepkamni ryukzakka tashladim. Keyin devor yonida turgan kursini oldim-da, stolga yaqin kelib o'tirdim.

– Yoz juda yomon keldi, – dedi mayor. – Siz butunlay tuzuk bo'lib ketdingizmi?

– Ha.

– Mukofotlaringizni oldingizmi?

– Ha. Hammasi joyida. Minnatdorman.

– Qani, ko'rsating-chi?

Men ikki tasma ko'rinsin deb, plashimni ochdim.

– Medalni o'zini ham oldingizmi?

– Yo'q. Faqat hujjatlarini oldim.

– Medali keyin keladi. Unga ko'proq vaqt ketadi.

– Meni endi qayerga yuborasiz?

– Mashinalar hammasi joylarda. Oltitasi shimolda, Kaporettoda. Siz Kaporettoni bilasizmi?

– Bilaman, – dedim. Men vodiydagi jomxonasi bor kichkina shaharchani esladim. Shahar ozodagina bo'lib, maydonda chiroyli favvora bor edi.

– Ular o'sha yerda. Ko'pchilik kasal. Janglar tugadi.

– Boshqalar qayerda?

– Ikkitasi tog'larda, to'rttasi hamon Bainzitssada. Boshqa ikkita sanitar otryadi uchinchi armiya bilan birga Karsoda.

– Meni qayerga jo'natasiz?

– Istasangiz, Bainzitssadagi to'rtta mashinani ola qoling. Jinoning o'rniga borasiz, u yerda ancha qolib ketdi. Bu gaplar siz ketgandan keyin ro'y beruvdi, shekilli?

– Ha.

– Rasvo bo'ldi. Biz uch mashinamizni yo'qotdik.

– Eshitdim.

– Ha, sizga Rinaldi yozgandi.

– Rinaldi qayerda?

– U shu yerda, gospitalda. Yoz bilan kuzda toza kuyib-pishdi bechora.

– Ha, oson boʻlmaganga oʻxshaydi.

– Juda yomon boʻldi, – dedi mayor. – Qanchalar yomon boʻlganligini bilsangiz edi. Boshdayoq yaralanganingiz sizning omadingiz ekan.

– Oʻzim ham shunday deb oʻylayman.

– Yangi yil bundan ham yomon boʻladi, – dedi mayor. – Ular hozirdayoq hujumga oʻtishsa, ajabmas. Shunday gaplar yuribdi, lekin men ishonmayman. Juda kech. Daryoni koʻrdingizmi?

– Ha. Suv koʻtarilibdi.

– Togʻlarda yomgʻir borayotgan bir paytda hujum boshlanishiga ishonmayman. Hademay qor tushadi. Sizning vatandoshlaringiz-chi? Sizdan boshqa amerikaliklarni ham koʻrarmikanmiz?

– Oʻn million kishidan iborat armiya tuzilmoqda.

– Bizga ozginaginasi tegsa ham mayli edi. Biroq fransuzlar hammasini ilib ketishadi. Bu yerga bironta ham odam yetib kelmaydi. Xoʻp, mayli. Siz bugun shu yerda tunab qoling-da, ertaga ertalab kichkina mashinada Jinoning oʻrniga boring. Sizga yoʻlni biladigan biron kishini beraman. Jino sizga barini tushuntiradi. U yerda hozir ham jindak otishmalar boʻlib turibdi, lekin umuman, hammasi tugagan. Bainzntstsani ham bir koʻrib kelasiz bahonada.

– U yerga borishimdan xursandman. Siz bilan yana koʻrishganimdan boshim osmonga yetdi.

– U kulimsiradi.

– Salomat boʻlsinlar. Bu urush jonimga tegdi. Agar bu yerdan ketsam, ikkinchi marta yelkamni chuquri koʻrsin derdim.

– Ahvol shu qadar yomonmi?

– Ha. Yomon ham gapmi? Boring, yuvinib, doʻstingiz Rinaldini qidirib toping.

Men yuklarimni olib, zinadan yuqoriga chiqdim. Rinaldi xonada yoʻq edi, lekin narsalari joyida turardi, men karavotga oʻtirib, obmotkalarini tushirdim-da,

o'ng oyog'imni yechdim. Keyin karavotga cho'zildim. Charchabman, o'ng oyog'im zirqirab turardi. Bir oyog'imni yechmay o'rinda yotish menga g'alati tuyuldi va o'rnimdan turib ikkinchi oyog'imni ham yechdim-da, uni polga tashlab, keyin yana cho'zildim. Deraza yopiq bo'lganidan, xona ichi dim edi, lekin azbaroyi charchaganimdan uni turib ochishga erindim. Mening hamma narsalarim xonaning bir chetiga yig'ib qo'yilgan ekan. Qorong'i tusha boshladi. Men karavotda yotgan ko'yi Ketrinni o'ylar, Rinaldini kutardim. Men Ketrinni faqat kechqurunlari – uyqu oldidagina o'ylayman, deb qo'ygan edim. Lekin charchagan edim, qiladigan ishim yo'q edi va men uni o'ylardim. Rinaldi xonaga kirib kelganda ham uni o'ylab yotardim. U sira ham o'zgarmabdi. Faqat biroz ozibdi.

– Keling, bebi, – dedi u.

Men o'rindan gavdamni ko'tardim. U yonimga kelib o'tirdi-da, meni quchoqladi.

– Qimmatli bebi, azizim bebi, – u yelkamga urib qo'ydi, uning yelkalaridan quchoqladim.

– Qimmatli bebi, – dedi u. – Qani, tizzangizni ko'rsating-chi.

– Shimni yechish kerak-da.

– Shimingizni yeching, bebi. Begona odam yo'q bu yerda. Sizni qanday qiymalashganini ko'rmoqchiman.

Men o'rnimdan turib, shimimni tushirib, tizzamga o'ralgan lattalarni yechdim. Rinaldi polga o'tirib, oyog'imni ohista qimirlatib ko'ra boshladi. U yara zihidan qo'lini yurgizdi, ikkala bosh barmog'ini tizzamning kosasiga qo'ydi-da, boshqa barmoqlari bilan asta silkib ko'rdi.

– Shundan boshqa bukilmaydimi?

– Yo'q.

– Sizni bu ahvolda chiqarganlari jinoyat. Ular oyog'ingizni asliday qilib qo'yishlari kerak edi.



– Tag‘in ham tuzalib qoldi-yu. Oyog‘im yog‘ochga o‘xshab qoluvdi.

Rinaldi yana sinab ko‘rdi. Uning qo‘llariga qarab turardim. Jarrohning barmoqlari ildam. Men uning boshiga, farqi ochib taralgan silliq, yaltirab turgan sochlariga qaradim. U oyog‘imni qattiqroq bukib yubordi.

– Uf! – dedim men.

– Siz yana harakat terapiyasini o‘tishingiz kerak edi, – dedi Rinaldi.

– Hozir ancha yaxshi bo‘lib qoldi.

– Bilaman, bebi. Bunday narsalarni sizdan ko‘proq bilaman. – U turib karavotga o‘tirdi. – Operatsiyaning o‘zi yomon qilinmagan. – Shu bilan tizzam haqidagi gap bitdi. – Qani, endi hammasini bir boshdan gapirib bering-chi.

– Nimani gapiraman, – dedim. – Kunim o‘tib turdi.

– Xuddi oilali odamga o‘xshab qolibsiz, – dedi u. – Nima qildi?

– Hech narsa, – dedim. – O‘zingizga nima qildi?

– Bu urush mening surobimni to‘g‘ri qilib qo‘ydi, – dedi Rinaldi. – Bo‘larimcha bo‘ldim. – U tizzalarini qo‘li bilan quchib oldi.

– O‘h-ho‘! – dedim.

– Nima bo‘pti? Men odam emasmanmi?

– Rost, yozni quvnoq o‘tkazganga o‘xshab qoldingiz.

– Aytib bering.

– Yoz bo‘yi, kuz bo‘yi tinim bilmay jarrohlik qildim. It tinadi, qush tinadi – menda tinim yo‘q. Hamma uchun bir o‘zim ishlayapman. Hamma og‘ir ishlarini menga berishadi. O‘lay agar, bebi, men zo‘r jarroh bo‘lib ketyapman.

– Mana bu boshqa gap.

– O‘ylashga ham vaqt yo‘q. O‘lay agar, sira o‘y o‘ylab o‘tirmayman, operatsiya qilib tashlayveraman.

– To‘g‘ri-da.

– Lekin hozir unday emas, bebi. Hozir operatsiya qiladigan ish yo‘q, dilim juda g‘ash. Juda yomon urush bo‘ldi bu, bebi. Gapimga ishoning. Keling, endi bir dilkashlik qilaylik. Plastinka olib keldingizmi?

– Ha.

Plastinkalar ryukzagimda edi, qutichaga solib, qog‘ozga o‘rab qo‘yilgandi. Ularni olib berishga ham madorim yo‘q edi.

– Nima, sizning kayfiyatingiz chog‘mi, bebi?

– Rasvo.

– Yomon urush, – dedi Rinaldi. – Hay, mayli. Siz bilan bir ichishaylik, shoyad ko‘nglimiz yozilsa. G‘am-larimizni yelga sovuramiz. Shunda hammasi yaxshi bo‘ladi.

– Sariq bo‘lib qolgan edim, – dedim. – Qattiq icholmayman.

– Qandoq edingiz-u, qandoq bo‘lib qaytib keldingiz, bebi. Juda bama‘ni bo‘lib qolibsiz, jigaringizni kasal qilibsiz. Haqiqatda ham juda rasvo narsa urush. Negayam biz bu urushga bosh suqib yuribmiz?

– Keling, baribir ichishaylik. Ozroq ichsam, hech narsa qilmaydi.

Rinaldi ikkita stakan bilan bir shisha konyak olib keldi.

– Bu avstrislarning konyagi, – dedi u. – Yetti yulduzli. San-Gabriyeleda qo‘lga tushirgan narsamiz shugina bo‘ldi.

– Siz u yerda bo‘ldingizmi?

– Yo‘q. Men hech yerda bo‘lmadim. Men shu yerdan qimirlamay operatsiya qildim. Mana, qarang, bebi, siz tish chayib yuradigan eski stakaningiz. Sizni eslatib tursin deb, saqlab yurgan edim.

– Tish chayishni eslatib tursin deb emasmi, ishqilib.

– Yo‘q. O‘zimniki bor. Uni asrab yurdim, ertalablari siz u bilan «Villa-Rossa»dan tozalanmoqchi bo‘lganingiz, so‘kina-so‘kina aspirin yutganlaringiz, yaramas

xotinlarni qarg'aganlaringizni eslatib tursin dedim. Har safar shu stakanga qaraganimda, siz tish cho'tkasi bilan vijdoningizni tozalashga uringaningizni eslayman. – U o'ringa yaqin keldi. – Qani endi bir o'pib qo'ying-da, endi bama'ni yigit bo'lmayman deng.

– O'pishni xayolingga ham keltirmayman. Siz maymunsiz.

– Ana xolos. Men bilaman, siz anglosaksonlardan chiqqan roykeldi yigitsiz. Bilaman. Sizni vijdoningiz kemirib tashlabdi. Men tomirida anglosakson qoni jo'sh urgan yigitcha yana tish cho'tka bilan islovatxonada dog'larini tozalay boshlashini kutaman.

– Konyakdan quying.

Biz urishtirib ichdik. Rinaldi menga hazilkashlik qilardi.

– Sizni yaxshilab ichiraman-da, jigaringizni olib o'rniga baquvvat italyan jigaridan qo'yaman-u, sizni yana odam holiga keltiraman.

Men yana konyak quying deb, unga stakanni uzatdim. Qorong'i tushdi. Men qo'limda stakan bilan derazaga bordim-da, uning tavaqalarini ochdim. Yomg'ir tingan edi. Havoda sovuq kuchayib, novdalar quyuy tumanga chirmandi.

– Konyakni sepib yubormang, – dedi Rinaldi. – Icholmasangiz, menga bering.

– O'lgan buzoqning go'shtini yebsiz, – dedim. Men yana Rinaldini ko'rib turganimdan shod edim. U ikki yildirki, men bilan hazilkashlik qilib jig'imga tegadi. U bilan juda yaqin bo'lib qolganmiz. Bir-birimizni yaxshi tushunamiz.

– Uylandingizmi? – so'radi to'shakda o'tirib. Men deraza oldida devorga suyanib turardim.

– Yo'q hali.

– Sevib qoldingizmi?

– Ha.

– O'sha ingliz qiznimi?

- Ha.
- Sho'rluk bebi! U-chi, u ham sizni sevadimi?
- Ha.
- Sevishini amalda ko'rsatdimi?
- Og'zingizni yuming.
- Jonim bilan. Men sizga o'zimning benihoya nazokatli odam ekanligimni ko'rsataman. Nima, u...
- Rinin! - dedim. - Iltimos, bas qiling. Agar do'stligimiz yo'qolmasin desangiz, bas qiling.
- Bor narsa yo'q bo'lmaydi, bebi. Biz haliyam do'stmiz.
- Shuning uchun bas qiling.
- Xo'p bo'ladi.
- Men karavotga borib Rinaldining yoniga o'tirdim. U stakanini ushlab polga tikilib o'tirardi.
- Endi tushundingizmi, Rinin?
- Ha, ha, xuddi shunday. Butun umr boshim borib sof hislarga tegadi. Shu paytgacha sizda bunday narsa bo'lmagan edi. Lekin hech ajabmas, bunday narsalar sizda ham bo'lsa. - U yerdan ko'zini uzmasdi.
- Nahotki sizda bo'lmasa?
- Yo'q.
- Hecham-a?
- Hecham.
- Men onangiz yo singlingiz haqida nima desam, indamay qo'yib berarmidingiz?
- Hatto, singlingiz ham deng, - jonlandi Rinaldi. Ikkalamiz ham kulib yubordik.
- Obbo odamning zo'ri-e! - dedim men.
- Balki men rashk qilayotgandirman, - dedi Rinaldi.
- Yo'q, bo'lishi mumkin emas.
- U ma'noda emas. Men boshqacha demoqchi edim. Sizning uylangan do'stlaringiz bormi?
- Bor, - dedim.
- Menda esa yo'q, - dedi Rinaldi. - O'z xotinlari bilan baxtiyor bo'lganlari yo'q.

- Nega?
- Ular meni yoqtirishmaydi.
- Nega?
- Men ilonman. Bilag'on ilonman.
- Siz hammasini chalkashtirib yubordingiz. Bilag'on ilon emas, daraxt edi. Bilim daraxti.
- Yo'q, ilon. - Uning sal yuzi yorishdi.
- Sizni dono mulohazalar buzadi, - dedim.
- Sizni suyaman, bebi, - dedi u. - Siz esa men buyuk italyan mutafakkiri bo'lay deytoganimda, yo'l bermayotibsiz. Lekin men o'zim tushuntirib berolmaydigan ko'p narsalarni bilaman. Men sizdan ko'proq bilaman.
- Gapingiz to'g'ri.
- Lekin sizga yashash osonroq bo'ladi. Vijdongingiz qiynalsa ham, osonroq bo'ladi.
- Unday emas.
- Yo'q, yo'q. Shunday. Men esa faqat ishlayotganimda hammasini unutamani. - U yana yerga tikilib qoldi.
- Bu o'tib ketadi.
- O'tmaydi. Men yana ikkita narsani yaxshi ko'raman: biri ishingaga zarar yetkazadi, ikkinchisi yarim soatcha lazzat beradi. Ba'zan shunga ham yetmaydi.
- Ba'zan juda ham kam.
- Balki mening yutuqlarim ham bordir, bebi. Siz bilmaysiz-da. Lekin men boyagi ikkita narsa bilan ishingning o'zinigina bilaman.
- Boshqa narsalarni ham bilib qolarsiz.
- Yo'q. Biz hech qachon hech narsani bilolmaymiz. Biz o'zimizda bor narsa bilan olamga kelamiz-u, boshqa hech narsaga o'rganmaymiz. Biz hech qachon yangi bir narsani o'rganmaymiz. Biz yo'lga tushganimizda yo'l tugagan bo'ladi. Siz lotin emassiz, bu sizning baxtingiz.

– Hech qanaqa lotinlar yo‘q. Bu hammasi lotin-ning fikrlari. Sizlar o‘z kamchiliklaringiz bilan faxrlanasiz.

Rinaldi boshini ko‘tardi, kulib yubordi.

– Bo‘ldi, endi, bebi. Men fikrlayverib toldim. – Uning ko‘rinishida horg‘inlik aks etardi, buni u xonaga kirib kelgandayoq sezgandim. – Hozir ovqat tayyor bo‘ladi. Qaytib kelganligingizdan xursandman. Siz mening eng yaxshi do‘stimsiz, mening quroldosh birodarimsiz.

– Quroldosh do‘stlar qachon ovqatlanishadi? – so‘radim.

– Hozir. Yana bir marta sizning jigaringiz uchun ichib olaylik.

– Nima, bu avliyo Paveldanmi?

– Topmadingiz. U yerda vino va qorin bor edi. Qorinning nafi uchun vino tanovul qiling.

– Nima desangiz, shu, – dedim. – Nima desangiz, shunga ichamiz.

– Sizning azizangiz uchun, – dedi Rinaldi. U o‘z stakanini ko‘tardi.

– Xo‘p.

– Men u haqda boshqa bir og‘iz ham yomon gapirmayman.

– O‘zingizni qiynamang.

U konyakni oxirigacha ichdi.

– Mening yuragim toza, – dedi u. – Men ham sizga o‘xshayman, bebi. Men ham bir ingliz qizni topib olaman. Shunisi ham borki, sizning qizingiz bilan men birinchi bo‘lib tanishgan edim, lekin bo‘yi men- ga balandlik qildi. Va bo‘ydor qiz bo‘lur hamshiram, – deb she‘r o‘qidi u.

– Siz qo‘y og‘zidan cho‘p olmagansiz, – dedim.

– Rost-a? Shuning uchun ham meni ozoda Rinaldi deb atashadi-da.

– Ozoda, sassiq Rinaldi.

– Hay, mayli, bebi, ovqatga ketdik, bemaza boʻlmasdan turib ovqatlanib olaylik.

Men yuvindim, sochlarimni tuzatdim va biz yana pastga tushdik. Rinaldi sarxush edi. Yemaxxonada ovqat hali tayyor emasdi.

– Borib konyak olib kelaman, – dedi Rinaldi. U yuqoriga chiqib ketdi. Men stolga oʻtirdim, u shisha koʻtarib qaytib keldi, menga va oʻziga yarim stakandan konyak quydi.

– Koʻp boʻlib ketdi, – dedim va stakanni koʻtarib, stol oʻrtasida turgan chiroqning yorugʻiga solib koʻrdim.

– Och qoringa uncha koʻp emas. Qurmagʻur topilmas narsa-da. Ichingni butunlay yondirib yuboradi-ya. Sizga bundan yomonrogʻini topib boʻlmaydi.

– Boʻlaricha boʻldi.

– Oʻz-oʻzingni muntazamlik bilan nuratib borish, – dedi Rinaldi. – Qorinni ishdan chiqaradi va qoʻlni qal-tiroq qiladi. Jarroh uchun bundan zoʻrogʻi boʻlishi mumkin emas.

– Shundan ich demoqchimisiz?

– Faqat shundan. Boshqasini oʻzim ham ichmayman. Buni yutib oling-da, bebi, kasal boʻlishga tayyorlaning.

Men yarmini ichdim. Yoʻlakda vestovoyning: «Mastava! Mastava tayyor!» – degan ovozi eshitildi.

Mayor kirdi, bizga bosh silkib, oʻtirdi. Stolga oʻtirganda u judayam kichkina koʻrinib ketdi.

– Boshqa hech kim yoʻqmi? – soʻradi u. Vestovoy uning oldiga idishda mastava qoʻydi va mayor darhol oʻz likopchasini toʻldirib oldi.

– Yoʻq, – dedi Rinaldi. – Balki kashish kelib qolmasa. Federiko qaytganini bilsa, albatta kelgan boʻlard.

– U qayerda? – soʻradim men.

– Uch yuz yettida, – dedi mayor. U mastava ichish bilan band edi. U tepaga qayrilgan oqarib ketgan

mo'ylovlarini yaxshilab tozaladi, og'zini artidi. – Kelsa kerak. Men u yerda bo'lib, sizni keldi deb xat qoldirib kelgan edim.

– Oldin oshxona gavjumroq edi, – dedim.

– Ha endi jimjit bo'lib qoldi, – dedi mayor.

– Hozir men to'polon qilaman, – dedi Rinaldi.

– Vinodan iching, Enriko, – dedi mayor. U mening stakanimni to'ldirib qo'ydi. Spagetti keltirishdi va hammamiz ovqat bilan mashg'ul bo'ldik. Kashish kirib kelganda biz spagettini yeb tamomlayozgan edik. U avvalgidan o'zgarmagan, hamon o'shanday kichkina, o'shanday qoracha va o'shanday bardam edi. Men o'rnimdan turdim va biz bir-birovimizning qo'llarimizni siqdik. U qo'lini yelkamga qo'ydi.

– Men eshitgan zahotim keldim, – dedi u.

– O'tiring, – dedi mayor. – Siz kechikdingiz.

– Xayrli kech, otaxon, – dedi Rinaldi.

– Xayrli kech, Rinaldi, – dedi kashish. Vestovoy unga mastava olib keldi, lekin u spagettidan boshlashini bildirdi.

– Sog'lingiz tuzukmi? – so'radi u mendan.

– Juda yaxshi, – dedim. – Nima yangiliklar bor?

– Vino iching, otaxon, – dedi Rinaldi, – qursoqning nafiga vino tanovul qilingiz. Bu avliyo Paveldan-ku, bilasizmi?

– Ha, bilaman, – dedi kashish odob bilan. Rinaldi uning stakaniga to'ldirib quydi.

– Xo'p qiziq avliyo ekan-da, bu Pavel! – dedi Rinaldi.

– Hamma g'avg'o, to'polonga o'sha sababchi.

Kashish menga qarab iljaydi. Uning maynabozchiliklarga ahamiyat bermay qo'yganligini ko'rdim.

– Xo'p qiziq avliyo ekan-da, Pavel, – dedi Rinaldi.

– O'zi ayg'ir va modaboz bo'laturib, kuchi yetmay qolgandan keyin bularni gunoh deb e'lon qilganini qarang. O'zining qo'lidan hech ish kelmay qolgandan ke-



yin boshqa kuchga to'lgan odamlarni nasihat yo'lga sola boshladi. Shundaymi, Federiko?

Mayor kulimsiradi. Biz bu paytda qovurdoq yemoqda edik.

– Men kun botgandan keyin sira ham avliyolar-ni tanqid qilmayman, – dedim. Kashish ovqatdan boshini ko'tarib, menga jilmaydi.

– Mana endi u ham domlanning yonini olyapti, – dedi Rinaldi. – Qani hamma eski hazilkash qadrdon-lar? Kavalkanti qani? Brundi qani? Chezare qani? Nima men bu sho'ring qurg'ur domlani bir o'zim hech qanday madadsiz jahlni chiqaraveramanmi?

– U yaxshi ruhoniy, – dedi mayor.

– U yaxshi ruhoniy, – dedi Rinaldi. – Lekin baribir ruhoniy. Men oshxonada ilgarigiday gaplar bo'lishi-ni istayman. Men Federiko xursand bo'lsin deyman. Boring-e, bilganingizni qiling, domla!

Men mayor unga qarayotganini, uning mastligi-ni bilganini ko'rdim. Uning ori q yuzi dokaday oqa-rib ketgandi. Sochlari oppoq manglayida qop-qora bo'lib ko'rinardi.

– Mayli, Rinaldi, – dedi kashish. – Mayli.

– Jin ursin sizlarni! – dedi Rinaldi. – Umuman barini jin ursin! – u stul suyanchig'iga yasanib oldi.

– U ko'p ishladi, charchab qoldi, – dedi mayor menga qarata. To'shni yeb bo'lgach, bir burda non bilan likopchadan qaylani sidirib oldi.

– Qani edi hammangizga tupursam, – dedi Rinaldi stolga qarab. – Umuman, hammasini jin ursin! – u atrofga yeb qo'yguday bo'lib bir-bir qarab chiqdi, ko'zlari xira tortgan, yuzi oqarib ketgandi.

– Xo'p, – dedim men. – Hammani jin ursin!

– Yo'q, yo'q, – dedi Rinaldi. – Mumkin emas. Mumkin emas. Mumkin emas, deyapman sizga. Zu-lumot va bo'shliq, shundan boshqa hech narsa yo'q.

Eshityapsizmi, hech narsa yo‘q. Hech vaqo. Men ishlamagan paytimdan buni bilaman.

Kashish boshini chayqab qo‘ydi. Vestovoy qovurdoqni olib ketdi.

– Nega siz go‘sh t tanovul qilyapsiz? – Rinaldi kashishga o‘girildi. – Bugun juma ekanligidan xabaringiz yo‘qmi?

– Bugun payshanba, – dedi kashish.

– Aldamchilar. Bugun juma. Sizlar masihoning etni tanovul qilmoqdasiz. Men bilaman. Bu avstris o‘lakasi. Siz shuni yeb o‘tiribsiz.

– Oq go‘sh t – ofitser go‘sh t, – dedim men eski bir hazilni eslab.

Rinaldi kulib yubordi. U o‘z stakanini to‘ldirdi.

– Menga quloq solmanglar, – dedi u. – Men sal devonaroq bo‘lib turibman.

– Siz ta‘tilga chiqishingiz kerak, – dedi kashish.

Mayor, achchiq bilan boshini chayqadi. Rinaldi kashishga tikildi.

– Sizningcha, men ta‘tilga chiqishim kerakmi?

Mayor kashishga qarab ta‘na qilganday boshini chayqardi. Rinaldi ham kashishga qarab turardi.

– O‘zingiz bilasiz, – dedi kashish. – Istamasangiz, keragi yo‘q.

– Hammangizni jin ursin! – dedi Rinaldi. – Ular mendan qutulishmoqchi. Har kuni kechqurun ular mendan qutulmoqchi bo‘lishadi. Men kuchim yetgan cha qarshi turibman. Nima bo‘libdi mendagi «ushbu» bo‘lsa? «Ushbu» hammada bor. Bu butun olamda bor. «Avvalo, – dedi u lektorlar ohangida, – bu mayda uchuq. Keyin biz ko‘kragimizga qizil toshganini ko‘ramiz. Keyin biz hech narsani ko‘rmaymiz. Bizning butun umidimiz simobdan».

– Yoki salvarsandan, – vazmin uni bo‘ldi mayor.

– Simobdan bo‘lgan dori, – dedi Rinaldi. U endi juda ham ko‘tarinki tovush bilan so‘zlay boshladi. – Men

bulardan ko'ra yaxshiroqlarini bilaman. Qadrdon, muhtaram otaxon, – dedi u, – sizda hech qachon «bu» bo'lmaydi. Bebida esa bo'ladi. Bu korxonadagi avariya.

Vestovoy desert bilan qahva keltirdi. Shirinlikka mayiz, tuxum va yana allanimalar solingan quyuy ichimlik berdi. Chiroq sasir ekan, qurum shishaga o'tirib qolmoqda edi.

– Sham beringlar, manavi chiroqni olib keting, – dedi mayor.

Vestovoy, ikkita yoqilgan sham keltirdi, sham taqsimchalarga yopishtirib qo'yilgan edi. U chiroqni olib yo'lakay puflab o'chirdi. Rinaldi tinchlandi. U butunlay o'ziga kelganday edi. Hammamiz gaplashib o'tirdik, qahvadan so'ng tashqariga chiqdik.

– Xo'p, men shaharga borishim kerak, – dedi Rinaldi. – Tuningiz xayrli bo'lsin, otaxon.

– Xayrli tun, Rinaldi, – dedi kashish.

– Hali ko'rishamiz, Fredi, – dedi Rinaldi.

– Ha, – dedim. – Barvaqtroq keling.

U basharasini bujmaytirdi-da, chiqib ketdi. Mayor biz bilan yonma-yon turardi.

– U qattiq charchab qoldi, asablari juda o'ynab ketgan, – dedi u. – Buning ustiga o'zini so'zakka yo'liqqanman deb o'ylaydi. Bo'lsa bordir, yana bilmadim. U so'zakdan davolanyapti. Xayrli tun, Enriko. Siz azonda jo'naysizmi?

– Ha.

– Undog' bo'lsa xayr, – dedi u. – Oq yo'l! Pedutssi sizni uyg'otadi, u siz bilan birga boradi.

– Ko'rishguncha.

– Ko'rishguncha. Avstrislar hujumga o'tadi degan mish-mishlar yuribdi, yana kim biladi. Bu haqda odamning o'ylagisi ham kelmaydi. Har holda hujum bu yerda bo'lmaydi. Jino sizga hammasini aytib beradi. Telefon hozir ishlab turibdi.

– Men tez-tez qo'ng'iroq qilib turaman.

– Maylingiz. Xayrli tun. Rinaldining ko‘p ichishiga yo‘l qo‘ymang.

– Harakat qilaman.

– Xayrli tun, otaxon.

– Xayrli tun.

U o‘z xonasiga kirib ketdi.

## **Yigirma oltinchi bob**

Men borib eshikdan tashqariga mo‘raladim. Yomg‘ir tingan, lekin quyuk tuman tushgandi.

– Balki mening xonamda birpas gaplashib o‘tirarmiz? – dedim kashishga.

– Faqat men ko‘p o‘tirolmayman, borishim kerak.

– Baribir, yuring.

Zinadan ko‘tarilib mening xonamga chiqdik. Men Rinaldining o‘rniga cho‘zildim. Kashish vestovoy menga hozirlab qo‘ygan karavotga o‘tirdi. Xona ichi qorong‘i edi.

– Umuman, o‘zingiz tuzukmisiz? – so‘radi u. – Yaxshi. Bugun charchadim, shekilli.

– Mana hech ish qilmagan bo‘lsam ham, men ham charchagandayman.

– Urushda nima gaplar?

– Urush endi tez orada tugab qolar. Bilmayman-u, lekin menga shunday tuyuladi.

– Nega unda?

– Siz mayorimizning o‘zgarib ketganligini ko‘rdingizmi? Indamas bo‘lib qolgan, hozir ko‘pchilik shunaqa.

– Men o‘zim ham shunaqaman, – dedim.

– Yozda og‘ir bo‘ldi, – dedi kashish. U o‘ziga ishonch bilan gapirardi, unda avval bunaqa ishonch yo‘q edi.

– Nimalar bo‘lganligini, hatto, xayolingizga ham keltirolmaysiz. Faqat u yerda o‘zi bo‘lgan odamgina buning qandayligini tasavvur qilishi mumkin. Yozda ko‘pchilik

urushning nimaligini bildi. Buni tushunishni istamagan ofitserlar ham endi tushunishdi.

– Endi nima boʻladi? – dedim koʻrpani kaftim bilan siypalay turib.

– Bilmadim. Lekin, meningcha, bu uzoqqa choʻzilmaydi.

– Nima boʻladi?

– Urushmay qoʻyishadi.

– Kim?

– Ularam, bularam.

– Umid qilamiz, – dedim.

– Siz bunga ishonmaysizmi?

– Men har ikkala tomon birdan urushmay qoʻyishiga ishonmayman.

– Ha, albatta. Unda judayam zoʻr boʻlardi-ya. Lekin men odamlar nimalarni boshdan kechirayotganlarini koʻrib, endi bunday davom etmasa kerak, deb yuribman.

– Yozgi urushda kim yutdi?

– Hech kim.

– Avstrislar yutishdi, – dedim. – Ular italyanlarga San-Gabriyeleni berishmadi. Ular yutib chiqishdi. Ular urushni bas qilishmaydi.

– Agar ularning ham kayfiyati biznikiga oʻxshagan boʻlsa, bas qilishlari ham mumkin. Ularning ham boʻladigani boʻlgan.

– Urushda yutib yurgan tomon sira urushishdan voz kechmaydi.

– Meni juda dovdiratib qoʻydingiz.

– Men oʻylab yurgan gaplarimni aytyapman.

– Demak, siz bu shunday davom etadi, hech narsa oʻzgarmaydi deb oʻylaysizmi?

– Bilmadim. Lekin avstrislar hamon yutib chiqishgan ekan, ular bas qilishmaydi deb oʻylayman. Magʻlubiyatlar bizni nasroniy qiladi.

– Lekin avstrislar busiz ham nasroniy-ku, to‘g‘ri, bosniyaliklardan tashqari.

– Men nasroniylik dini haqida gapirayotganim yo‘q, men nasroniylik ruhi haqida gapirayapman.

U jimib qoldi.

– Biz yengilgach, nafasimiz ichimizga tushib ketdi. Agar Gefsiman bog‘ida Petr Isoni qutqarib olganda, kim biladi, keyin Iso qanday zot bo‘lardi?

– Ishonmayman, – dedim.

– Sizning gaplaringiz meni esankiratib qo‘ydi, – dedi yana u. – Men bir gap bo‘lishiga ishonaman va xudodan shuni yolvorib so‘rayman. Men yaqinlashib kelayotgan narsalarni sezib turibman.

– Siz aytgan narsalar yuz ham berar, – dedim. – Lekin faqat bizda yuz beradi. Agar ularning ham kayfiyatları biznikidek bo‘lsa, unda boshqa gap. Lekin ular bizni kaltaklashdi. Ularning kayfiyati boshqacharoq.

– Ko‘p soldatlar bir xilda fikr qilishadi. Ularda bunaqa kayfiyat anchadan beri bor. Gap kaltak yeyishda emas.

– Ular boshdanoq kaltaklangan edilar. Ularni ishlab turgan yerlaridan tortib olib soldat formasini kiygizganlaridayoq tayoq yegan edilar. Mana shuning uchun ham dehqon dono-da – agar boshdanoq yengilmasa, u bunchalar dono bo‘lmasdi. Qani, unga hokimiyatni berib ko‘ring-chi, o‘shanda ko‘rasiz uning chinakam donoligini.

U javob bermadi. U o‘ylanib qolgandi.

– Mening ham hozir ichimga chiroq yoqsa, yorimaydi, – dedim, – shuning uchun ham men bunday narsalar haqida o‘ylamaslikka tirishaman. Men bularni o‘ylab yurmayman, lekin gap ochilishi bilan shu narsalar xayolimdan kechadi.

– Men bo‘lsam bir narsa bo‘ladi-yov, deb ishonib yuribman.

- Nima, mag'lubiyatga ishonibmidingiz?
- Yo'q. Boshqa kattaroq narsa ro'y beradi, deb yurgandim.
- Kattaroq hech vaqo yo'q. G'alaba demasangiz agar. Lekin g'alaba bundan ham battar bo'lishi mumkin.
- Men uzoq vaqt g'alabaga ishonib yuruvdim.
- Men ham.
- Endi bilmay qoldim.
- Bir narsa, albatta, bo'ladi - yo g'alaba va yo mag'lubiyat.
- G'alaba bo'lishiga men endi ishonmayman.
- Men ham ishonmayman. Men mag'lubiyatga ham ishonmayman. Garchi mag'lubiyat ham yomon bo'lmasdi.
- Unda nimaga ishonasiz?
- Uyquga, - dedim. U o'rnidan turdi.
- Shuncha vaqtingizni olganim uchun ma'zur tuting meni. Lekin siz bilan suhbatlashishni yaxshi ko'raman.
- Men ham siz bilan gaplashganimdan xursandman. Uyqu haqida men shunchaki hazillashdim.
- Men o'rnimdan turdim va biz qo'l olishib xayrlashdik.
- Men hozir uch yuz yettida tunayapman, - dedi u.
- Men ertaga ertalabdan postga ketaman.
- Qaytib kelganingizda ko'rishamiz.
- O'shanda yana gaplashib o'tirarmiz. - Men uni eshikkacha kuzatib qo'ydim.
- Pastga tushmang, - dedi u. - Yana ko'rishganimizdan xursandman. Lekin siz qaytib kelganingizdan unchalar xursand bo'lmasangiz kerak. - U qo'lini yelkanga tashladi.
- Hammasi joyida, - dedim. - Xayrli tun.
- Xayrli tun.
- Siao, - dedim. O'lguday uyqum kelgandi.

## Yigirma yettinchi bob

Men Rinaldi kelganda uyg'ondim, lekin u og'iz ochmadi va men yana uxlab qoldim. Tong qorong'isida turib kiyinib jo'nab ketdim. Men uydan chiqayotganimda Rinaldi uyg'onmadi.

Men ilgari Bainzitssani ko'rmagan edim. O'zim yarador bo'lgan qirg'oqdan hamda bahorda avstrislar qo'lida bo'lgan tog' yonbag'ridan borarkanman, bular menga g'alati tuyulardi. Bu yerdan yangi tikkasiga ketgan yo'l o'tkazilgan bo'lib, undan ko'p yuk mashinalari o'tib borardi. Yuqoriroqda qiyalik yanada nishabroq bo'lib borar, men shu yerdan tumanda o'rmon va tik tepalarni ko'rdim. O'rmon juda tez ishgo'l qilinganidan uni qirqib ulgurishmagandi. Yana ham nariroqda yo'l tepalardan yalanglikka chiqib, kaftdek ko'rinib qolganidan uning tepasi va atrofni bardilar bilan chaylaqilib o'ralgan edi. Yo'l xarob qilingan qishloqqacha borardi. Pozitsiyalar shu yerdan boshlanardi. Qayoqqa qaramang, to'plar. Uylar yarim buzilgandi, lekin hamma yoq saranjom-sarishta, hamma yoqqa ko'rsatkich taxtachalar osib qo'yilgandi. Biz Jinoni qidirib topdik, u bizni qahva bilan mehmon qildi, keyin men u bilan birga tashqariga chiqdim, kerakli odamlarni ko'rdik, postlarni aylandik. Ingliz mashinalari narida, Ravnada ishlayapti, dedi Jino. U juda inglizlarga qoyil qolibdi. Onda-sonda otishmalar bo'lib turadi, dedi u, lekin yaradorlar kam ekan. Yog'ingarchilik boshlangandan keyin kasallar ko'payar ekan. Avstrislar hujumga o'tarmish, degan mish-mishlar bor. Lekin uning bunga ishonchi komil emas ekan. Biz hujumga o'tamiz, degan uzunquloq gaplar ham yo'q emas, lekin hech qanday yordamdan darak yo'q, shunday ekan, bu gaplarning ham tagi puch. Ovqat masalasi chatoqroq ekan, Goritsiyada bir maza qilib ovqatlanaman, dedi. U kecha nima ovqat yeganimizga qiziqdi. Men kechagi



ovqatni aytib berdim. Qoyil, dedi u. Ayniqsa, dolche<sup>1</sup> uni qattiq ta'sirlantirdi. Men tafsilotiga berilib o'tirmay, dolche berishdi desam, uning tasavvurida bu tamomila topilmas bir narsalar kabi jonlandi, shekilli.

Meni qayerga yuborishar ekan, bilmaysizmi, dedi. Men xabarim yo'q, dedim, lekin mashinalarning bir qismi Kaporettoda ekanligini aytdim. U yerga jon deb boraman, dedi. Juda ham yaxshi shaharcha, dedi, ayniqsa, uni o'rab turgan baland tog'lar chiroyli. U azamatgina yigit ekan, hamma uni yaxshi ko'rar-kan. Chinakam jahannam San-Gabriyeleda bo'libdi, keyin oqibati ayanchli bo'lgan Lom ortidagi shiddatli jangdan keyin naq do'zaxning o'zi bo'libdi. Butun Ternova tizmasidagi o'rmonlarda, bizning ortimizda va yuqorimizda – hamma yoqni avstrislarning to'plari bosib ketibdi. Kechalari yo'l ulardan qattiq o'qqa tutilar ekan. Ularda bir batareya dengiz zambaraklari ham bor ekan, juda miyani yeb yubordi, dedi u. Ularni snaryadlarining pastlab uchganidan bilish mumkin. To'p otilgan zahoti chiyillash boshlanadi. Ko'pincha ikkita to'pni ketma-ket otishadi, snaryadlar yorilganda so'laqmonday-so'laqmonday parchalari atrofga sochilar ekan. U menga qirra bo'lib ketgan bilakday oskolka parchasini ko'rsatdi. Metali babbitga o'xshardi.

– Bular unchalar ko'p talafot yetkazishmaydi, – dedi Jino, – lekin men ulardan qo'rqaman. Ovozidan xuddi sening ustingga kelayotganday bo'ladi. Avval zarbasini eshitasan, keyin hushtak ovozi chiqadi, keyin portlaydi. Yaralanmaganing bilan baribir qo'rqib o'lib bo'lasan.

U bizning qarshimizda kroat va madyorlarning polklari turibdi, dedi. Qo'shinlarimiz hamon hujum tartibotida turgan ekan. Agar avstrislar hujum qilib qolsalar, chekingani joy yo'q. Yoylotog'dan sal pastda pastqam tog'lar bor, o'sha yerlarda zo'r himoya pozit-

---

<sup>1</sup> Shirinlik (*ital.*).

siyalari qurish mumkin edi, lekin bu hech kimning esiga kelmaydi. Aytmoqchi, Bainzitssa menda qanday taassurot qoldirdi?

Men bu yer adirga oʻxshagan boʻlsa kerak, deb oʻylagan edim. Men bu yerni bunchalar oʻr-togʻ yerlar deb bilmagandim.

– Alto piano<sup>1</sup>, – dedi Jino, – lekin piano<sup>2</sup> emas.

Biz u yashaydigan uyning yertoʻlasiga tushdik. Men agar tizma tepalarning usti yapasqi boʻlib, biroz oʻnqir-choʻnqirliklari ham boʻlsa, bunday yerni himoya qilish past togʻlar tizmasini ushlab turishga qaraganda oson boʻladi, dedim. Togʻlarda hujumga oʻtish tekis yerda hujum qilishdan osonroq emas, deb uqtira boshladim.

– Qanday togʻ ekanligiga qarab, – dedi u. – San Gabriyeleni oling.

– Ha, – dedim. – Tepasi yassi boʻlgan joylarda qiyin boʻldi. Lekin tepasigacha ancha osonlik bilan borilgandi.

– Unchalar oson boʻlmadi, – dedi u.

– Toʻgʻri, – dedim. – Lekin bu boshqacharoq hodisa, chunki bu yer togʻ emas, qalʼaga oʻxshaydi. Avstrislar uni koʻp yillar mustahkamlashgan.

Men harakatdagi harbiy operatsiyalarda togʻ tizmalarini front chizigʻi sifatida ushlab turish taktik jihatidan toʻgʻri emas, chunki togʻlarni aylanib oʻtish oson, demoqchi edim. Bunda qoʻshinlar gʻoyatda harakatchan boʻlishlari kerak, togʻlarda esa qoʻshinlar harakatchanlikdan mahrum boʻladilar. Bundan tashqari tepadan pastga otilganda doimo oʻq moʻljaldan oʻtib ketadi. Qanotdagi qismlar orqaga chekinganlarida ham, qoʻshinlarning asosiy, kuchli qismi eng baland tizmalarda qoladi. Men togʻlardagi urushlarga unchalar ishonmayman. Men bu haqda koʻp oʻylagan-

<sup>1</sup> Yassi togʻlar (ital).

<sup>2</sup> Yassi tekislik (ital).

man, dedim. Biz bir tog'ga, ular esa boshqasiga o'tirib oladilar. Haqiqiy jang qilish uchun esa, har ikki tomon pastga tushishga majbur.

– Chegara tog'lardan o'tgandan keyin shundan boshqa chora yo'q-da, – dedi u.

– Men hali buni o'ylab ko'rmagan ekanman, – dedim va biz kulishdik. – Lekin, – dedim men, – ilgari doimo avstrislarni Veron qal'alarining to'rt burchagida urishgan. Ularni pastga olib tushishardi-da, so'ng boplab urishardi.

– Shunday, – dedi Jino. – Lekin fransuzlar shunday qilgan edilar. Boshqa mamlakat yerlarida jang qilayotganingda strategik masalalarni hal qilish osonroq bo'ladi.

– Shunday, – rozi bo'ldim men. – O'z vataningda turib ularni ilmiy suratda yechish qiyin.

– Ruslar Napoleonnini tuzoqqa tushirish uchun shunday qilishgan.

– Shundayku-ya, lekin ruslarning yerlari ko'p-da. Italiyada Napoleonnini tuzoqqa tushiraman deb, chekinib ko'ring-chi, o'sha zahoti o'zingizni Brindizida ko'rasiz.

– Juda ham rasvo shahar-da, – dedi. – Siz u yerda sira bo'lganmisiz?

– Yo'l-yo'lakay bir ko'rgan edim.

– Men vatanparvarman, – dedi Jino. – Lekin Brindizi yoki Tarantoni sira jinim yoqtirmaydi.

– Bainzitssani-chi, uni yaxshi ko'rasizmi? – so'radim men.

– Bu muborak yer, – dedi u. – Lekin men u ko'proq kartoshka yetishtirib berishini istardim. Bilasizmi, bu yerga kelganimizda biz avstrislar ekan kartoshka dalalarini ko'rdik.

– Nima, bu yerda oziq-ovqatning shunaqa mazasi yo'qmi? – so'radim men.

– Men biron marta ham to'yib ovqat yeganim yo'q, ehtimol, ishtaham yaxshi bo'lganidan shunday tu-

yulgandir, lekin shunda ham och qolgan paytimiz bo'lmadi. Ofitserlarning ovqatlari yaxshi emas. Oldingi pozitsiyalarda ancha durust ovqat berishadi, lekin ta'minlovchi qismlarni yomon boqishadi. Qayerdadir, nimadir xalaqit bermoqda. Oziq-ovqatning o'zi yetarli bo'lsa kerak.

– Olibsotarlarni chetga sotib yuborishadi.

– Oldingi pozitsiyalardagi batalonlarga nima kerak bo'lsa, berishadi, orqaroqda turgan qismlar esa ancha qiynalishmoqda. Hozircha avstrislarning hamma kartoshkalarini yeb bo'ldik, atrof-daraxtzorlardagi barcha kashtanlar ham yeb bo'lindi. Durustroq boqishsa bo'lmasmikin. Bu yerda hammaning ishtahasi karnay. Men oziq-ovqatning yetarli ekanligiga ishonaman. Soldatga ovqat yetishmaganidan yomoni yo'q. Bu odamning fikriga qanday ta'sir etishini bilasizmi?

– Ha, – dedim. – Bu g'alabaga olib bormaydi, lekin mag'lubiyatga olib borishi mumkin.

– Mag'lubiyat haqida gapirishmaymiz. Bu haqdagi gaplar shusiz ham yetib ortadi. Bu yil yozida ro'y bergan narsalar izsiz qolib ketmas, axir.

Men indamadim. Meni «muborak», «shavkatli», «qurbon» degan so'zlar va «ro'y bergan»ga o'xshash iboralar g'alati, o'ng'aysiz ahvolga soladi. Biz ularni ba'zan yomg'irda turib eshitganmiz, eshitganda ham shunday masofadan turib eshitganmizki, bizgacha faqat ayrim so'zlargina yetib kelgan, biz ularni plakatlarda o'qiganmiz, bu plakatlar shunga o'xshash boshqa plakatlar ustiga yopishtirilayotganda o'qiganmiz. Lekin men muqaddas hech narsani ko'rganim yo'q. Shavkatli deb hisoblangan narsalar shavkatli emasdi. Qurbonlar ham Chikago qushxonalarini eslatar, farqi, go'shtni bu yerda tuproqqa ko'mishardi. Odam eshitsa qoni qaynaydigan so'zlar ko'payib borardi, bora-bora faqat joylarning nomlarigina bir narsa anglatadigan bo'lib qoldi. Ba'zi bir raqamlar va ba'zi bir sanalar

ham o'z qimmatlarini saqlab qoldilar, shularni va joylarning nomlarini bema'lol o'z ma'nosida tilga olsa bo'lardi. «Shuhrat», «jasorat», «shavkat» yoki «muqaddas» singari mavhum so'zlar qishloqlarning aniq nomlari, yo'llarning son belgilari, daryolarning atamalari, polklarning raqamlari, kunlarning oldida sharmsiz so'zlar kabi tuyulardi. Jino vatanparvar edi, shuning uchun uning ayrim gaplari oramizga g'ov solardi, lekin o'zi tuzuk yigitga o'xshar va men uning vatanparvarligini tushunardim. U vatanparvarlik bilan birgalikda tug'ilgan. U Goritsiyaga jo'nash uchun Pedutssi bilan mashinaga o'tirdi.

Kuni bilan bo'ron bo'lib turdi. Shamol yomg'ir selini olib kelar, hamma yoq ko'lmak va balchiq edi. Buzilgan devorlarning suvog'i kulrang va namiqqan edi. Kechki payt yomg'ir tindi, ikkinchi postda turib men yomg'ir savalagan yalang'och kuzgi dalani, adirlarda kezib yurgan bulutlarni, yo'ldagi ustidan suv oqib turgan somon chaylalarni ko'rdim. Oftob botmasdan burun bir ko'rindi va tog' tizmalari ortidagi yalang'och o'rmonga yog'du sepaladi. Shu tizmadaagi o'rmonga juda ko'p avstris to'plari joylashgan edi, lekin ulardan ba'zilarigina o't ochmoqda edilar. Men banogoh, front yaqinida joylashgan buzilib ketgan ferma ustida shrapnel snaryadining bir parcha tutuni paydo bo'lishiga qarab turardim, pag'a dud o'rtasida sarg'imtir oq yolqini bor. Oldin yolqin ko'rinar, so'ng qarsillagan ovoz chiqar, keyin dudning dumalog'i shamolda cho'zilar va siyraklashib ketardi. Vayronalar ichida va post turgan uy oldidagi yo'ning hamma yog'ida shrapnel o'qlari sochilib yotar, lekin hozir postni o'qqa tutayotganlari yo'q edi. Biz ikki mashinaga yuk ortib, ustiga chayla qurilgan yo'ldan ketdik, chaylalarning yorug'laridan botayotgan oftobning so'nggi nurlari tushib turardi. Biz ochiq yo'lga

chiqqanimizda quyosh botgan edi. Biz ochiq yo'ldan ketdik, burilishdan o'tib, yo'lning yana xashak chaylalar bilan berkitilgan qismiga kirganimizda, yomg'ir boshlab berdi.

Kechasi shamol kuchaydi, tonggi soat uchda jala urib turgan bir paytda otishma boshlandi va kroatlar tor dalalari va o'rmonzorlaridan to'g'ri bizning ustimizga bostirib kela boshladilar. Ular yomg'irda, qorong'ilik ichida jang qilishar, keyin qo'rqib ketganlaridan dovyuraklik bilan dushman ustiga tashlangan ikkinchi qator xandaqlardagi soldatlarning qarshi hujumi tufayli uloqtirib tashlandilar. Snaryadlar yorilar, yomg'irda raketalar uchib chiqar, butun front bo'ylab pulemyot va miltiq otishmalari davom etardi. Ular hujumga boshqa jur'at qilmadilar, tevarakka jimlik cho'kdi, ba'zan yomg'ir va shamol uzoq shimoldan to'p ovozlari olib kelardi.

Postga yaralanganlar kela boshladi: birovlarini zambarlarda keltirishar, boshqa birlari o'zlari yurib kelishar, uchinchi birlarini maydondan qaytayotgan o'rtoqlari olib kelayotgan edilar. Ular shilti-shalabbo bo'lib ketishgan, qo'rquvdan o'zlarini bilmasdilar. Biz ikkita mashinani postning yerto'lasida yotgan yaradorlar bilan to'ldirdik, men ikkinchi mashinaning eshigini yopib, ilgagini mahkamlaganimda, yuzimga qor zarralari urildi. Yomg'ir aralash og'ir qor yog'ardi.

Tong otganda bo'ron hamon davom etar, lekin qor to'xtagandi. Qor ho'l yerda erir, endi yana yomg'ir yog'ardi. Tongda bizga yana hujum qilishdi, lekin biron natija chiqarisholmadi. Biz yana hujum bo'lishini kuni bilan kutdik, lekin kun botgunga qadar hamma yoq sukunat ichida turdi. Otishma janubdan, avstrislarning artilleriyasi yig'ilgan o'rmon bilan qoplangan uzun tog' tizmasi tomondan boshlandi. Biz ham otishma bo'lib qolar deb kutgan edik, lekin kutganimizcha chiqmadi. Qorong'i quyushib borardi. Bizning to'plarimiz qishloqning narigi tomonidagi dala-

da turardi, ulardan otilgan snaryadlarning hushtagi kishiga tasalli berardi.

Janubdagi hujum muvaffaqiyatsiz chiqqanini eshitdik. O'sha kechasi hujum boshqa qaytarilmadi, lekin biz shimolda front yorib o'tilganligini bilib qoldik. Tunda bizga chekinishga tayyorgarlik ko'rish haqida xabar qilishdi. Menga buni kapitan aytdi. U brigada shtabidan ma'lumot olibdi. Ko'p o'tmay, u telefon-da gaplashib keldi-da, hammasi yolg'on ekan, dedi. Shtabga Bainzitssani nima bo'lganda ham qo'lda ushlab turish haqida buyruq berilibdi. Men frontni yorib o'tishgani haqida so'radim. U shtabda avstrislar yigirma yettinchi armiya korpusining frontini Kaporetto tomonda yorib o'tganlarini aytishdi, dedi. Shimolda kecha kuni bilan shiddatli janglar bo'libdi.

– Agar yaramaslar ularni o'tkazib yuborishsa, tamom bo'lamiz, – dedi u.

– Nemislar hujum qilishayotibdi, – dedi vrachlardan biri. «Nemis» so'zi yurakka qo'rqinch solardi. Biz sira ham nemislarga duch kelishni istamasdik.

– U yerda o'n beshta nemis diviziyasi bor, – dedi vrach. – Ular yorib o'tishgan. Biz qurshovda qolamiz.

– Brigada shtabida biz shu pozitsiyalarni ushlab turishimiz kerakligini aytishyapti. O'pirilish unchalar katta emas ekan, biz endi tog'lar osha Monte-Majoredan boshlab front chizig'ini ushlab turar ekanmiz.

– Ular bu ma'lumotlarni qayerdan olishibdi?

– Diviziya shtabidan.

– Chekinish haqida ham diviziya shtabidan xabar qilishganmidi?

– Diviziya shtabidan.

– Chekinishga hozirlik ko'rish haqida ham diviziya shtabidan xabar berishgandi.

– Bizning boshlig'imiz – armiya shtabi, – dedim men. – Lekin bu yerda meni boshlig'im siz bo'lasiz. Agar menga bor deb buyursangiz, boraman. Lekin buyruq qanday, aniq bilsangiz.

– Buyruq shuki, biz shu yerda qolishimiz kerak. Siz yaradorlarni tarqatish punktiga yetkazib bersangiz boʻlgani.

– Baʼzan tarqatish punktlaridan ham dala gospitalariga yaradorlarni olib kelamiz, – dedi. – Ayting-chi, men hech qachon chekinishda boʻlmaganman, agar chekinish boshlansa, hamma yaradorlarni qay tartibda koʻchirishadi?

– Hammani koʻchirishmabdi. Imkon boricha olib, qolganlarini qoldirib ketishadi.

– Men mashinalarimda nima olib ketaman?

– Gospital asboblarini.

– Tushunarli, – dedim.

Ertasiga kechasi chekinish boshlandi. Nemislar va avstrislar shimolda frontni yorib oʻtganlari va tor daralaridan Chivida hamda Udinaga tomon kelayotganlari maʼlum boʻldi. Yomgʻir yogʻar, tartib bilan noxush va jimgina chekinardik. Kechasi tiqilinch yoʻllardan sekin yurib borar ekanmiz, yomgʻirda chekinayotgan qoʻshinlarni, ot, xachir qoʻshilgan aravalarni, toʻplarni, yuk mashinalarini koʻrib borardik, bularning bari frontdan ketmoqdaydi. Olgʻa borilayotgan tartib qanday boʻlsa, chekinilganda ham tartib deyarli oʻshanday edi.

Oʻsha kechasi biz yoylotogʻda buzilmay qolgan gospitallarga yaradorlarni koʻchirishga koʻmaklashdik, yaradorlarni Plavaga olib bordik, ertasiga esa kuni bilan quyib turgan yomgʻirda Plavaning oʻzidagi gospitallarni va tarqatish punktlarini koʻchirishga yordamlashdik. Yomgʻir tinimsiz chelakdan quyganday yogʻib turar va Bainzitssa armiyasi oktyabrning yomgʻiri ostida togʻlardan tushib kelar va shu yil bahorda ulugʻ gʻalabalarga erishilgan yerdan daryoni kechib oʻtishardi. Ertasiga kun oʻrtalarida biz Goritsiyaga yetib bordik. Yomgʻir tingan, shahar deyarli boʻm-boʻsh edi. Koʻchadan oʻtib keta turib biz soldat



islovatxonasidagi qizlarni yuk mashinalarga chiqarayotganlarini ko'rdik. Qizlar yettita bo'lib, hammalari shlyapa va palto kiygan, qo'llarida kichkina jomadonchalari bor edi. Qizlardan ikkitasi ko'z yoshi qilishardi. Uchinchisi bizga tabassum qildi, tilini chiqarib, u yoqdan-bu yoqqa aylantirdi. Uning lablari do'rdoq, ko'zlari qop-qora edi.

Men mashinani to'xtatib, pastga tushdim-da, beka bilan gaplashdim. Ofitserlar uyidagi qizlar azonda jo'natilgan ekan. Qayoqqa ketyapsizlar, deb so'radim. Kopelyanoga, dedi beka. Yuk mashinasi o'rnidan qo'zg'aldi. Lablari do'rdaygan qiz bizga yana tilini ko'rsatdi. Bekach qo'lini silkidi. Ikkala qiz esa hamon yig'lashardi. Boshqalari shaharni tomosha qilib bori-shardi. Men yana mashinaga o'tirdim.

– Qani endi shular bilan ketsang, – dedi Bonello. – Rosa maza qilardik-da!

– Shoshmang, hamma maza hali oldinda, – dedim.

– Rosa sarson bo'ladigan bo'ldik.

– Men ham shunday demoqchiman, – dedim. Biz villaga olib boradigan xiyobonga chiqdik.

– Bu do'ndiqchalar joylashib olib ishga tushib ketadigan joyda bo'lib qolsang qaniydi.

– Siz ular bora solib darrov ishga tushib ketadilar deb o'ylaysizmi?

– Tushganda qandoq! Ikkinchi armiyada kim ularning bekachini bilmaydi.

Biz villaga yetib kelgandik.

– Uni rohiba ona deb chaqirishadi, – dedi Bonello. – Oyimchalar yangi ekan, lekin bekachni hamma taniydi. Ularni chekinmasdan sal burunroq keltirishgan, shekilli.

– Endi jonlarini ayamay ter to'kishadi.

– Men ham ter to'kishadi deyapman-da. Mut bo'lsayu, ular bilan ko'ngil ochishsang. Juda odamni shilib olishadi-da. Davlat nuqul bizni aldagani-aldagan.

– Mashinani olib boring, mexanik ko‘rib qo‘ysin, – dedim. – Moyini almashtiring, differentsialni tekshiring. Yoqilg‘i quyung, keyin birpas mizg‘ib olsangiz bo‘ladi.

– Xo‘p bo‘ladi.

Villa bo‘m-bo‘sh edi. Rinaldi gospital bilan birga jo‘nabdi. Mayor shtab mashinasida tibbiyot xodimlarini olib ketibdi. Derazada menga xat yozib qoldirilgan ekan, unda eshik oldiga qo‘yilgan asboblarni ortib, Pordenonega borish buyurilgandi. Mexaniklar ketib bo‘lishibdi. Men garajga qaytdim. Villaga borib kelgunimcha qolgan ikki mashina ham yetib kelibdi, shofyorlar hovlida turishgan ekan. Yana yomg‘ir imirsilay boshladi.

– Shunchalar uyqu bosyaptiki, Plavadan kelayotganimizda uch marta ko‘zim uyquga ketib qolibdi, – dedi Piani. – Nima qiladigan bo‘ldik, tenente?

– Moyni almashtiramiz, moylaymiz, yoqilg‘i quyamiz, borib bizga qoldirilgan yukni ortamiz.

– Keyin yo‘lga tushamizmi?

– Yo‘q, ikki-uch soat mizg‘ib olamiz.

– Jin ursin, uxlash maza-da, – dedi Bonello. – Bo‘lmasa, men rulda uxlab qolgan bo‘lardim.

– Mashinangiz qalay, Aymo? – so‘radim.

– Joyida.

– Menga ko‘n paltoni bering, sizga yordamlashaman.

– Hojati yo‘q, tenente, – dedi Aymo. – Ishi uncha ko‘p emas. Siz o‘zingizning narsalaringizni yig‘ishtiravering.

– Narsalarim hammasi yig‘ishtirilgan, – dedim. – Men ular qoldirgan narsalarni bu yoqqa olib chiqaychi. Tuzatib bo‘lishingiz bilan mashinalarni olib boring.

Ular mashinalarni villaning katta darvozasini oldiga olib kelishdi va biz ularga gospitalning asbob-uskunalarini ortdik. Ko‘p o‘tmay ishni bitirdik.

Avtomobillar ikki yoniga daraxt ekilgan xiyobonda qator tizilishdi. Yomg'ir tinmay urib turardi. Biz uyga kirdik.

– Oshxonada o't yoqib, kiyimlaringizni quritib oling, – dedim.

– Padariga la'nat, ho'l bo'lsam nima qilibdi, – dedi Piani. – Uyqum kelyapti.

– Men mayorning karavotiga yotaman, – dedi Bonello. – Chol qanday tushlar ko'rganiykin, bir bilay-chi.

– Menga qayerda yotsam ham baribir, – dedi Piani.

– Mana bu yerda ikkita karavot bor, – dedim eshikni ochib.

– Men bu xonaga sira ham kirmaganman, – dedi Bonello.

– Bu qari qurbaqaning xonasi edi, – dedi Piani.

– Ikkovingiz shu yerda yoting, – dedim. – O'zim uyg'otaman.

– Agar siz ham uxlab qolsangiz, tenente, bizni avtrisslar uyg'otishadi, – dedi Bonello.

– Uxlab qolmayman, – dedim. – Aymo qani?

– Oshxonaga ketdi.

– Yotib uxlanglar, – dedim.

– Men yotaman, – dedi Piani. – Men kuni bilan o'tirib uxlab keldim. Manglayim ko'zimga tushib ketay deyapti.

– Etigingni yech, – dedi Bonello. – Bu qurbaqaning karavoti.

– Tupurdim qurbaqangga!

Piani iflos etiklari bilan karavotga cho'zildi, qo'llarini boshining tagiga qo'ydi. Men oshxonaga ketdim. Aymo plitaga olov yoqib, ustiga kotelokda suv quyibdi.

– Birozgina spagetti qilish kerak, – dedi u. – Uyqudan turganimizda qorin ochadi.

– Siz uxlamaysizmi, Bartolomeo?

– Unchalik uyqum kelmeyapti. Suv qaynashi bilan ketaman. Olov o'zi o'chib qoladi.

– Siz yaxshisi uxlab oling, – dedim. – Pishloq bilan konserva yesak ham boʻlaveradi.

– Shunday qilsak, yaxshi boʻladi, – dedi u. – Bir likopcha issiq ovqat anavi anarxistlarga quvvat boʻladi. Siz yotib uxlayvering.

– Mayorning xonasida oʻrin bor.

– U yerda oʻzingiz yotavering.

– Yoʻq, men oʻzimning eski xonamga boraman. Ozingina ichasizmi, Bartolomeo?

– Yoʻlga tushayotganimizda, tenente. Hozir ichgim yoʻq.

– Agar uch soatdan keyin siz uygʻonsangiz-u, men uxlab yotgan boʻlsam, uygʻotib qoʻyarsiz, xoʻpmi?

– Mening soatim yoʻq.

– Mayorning xonasida devor soat bor.

– Xoʻp.

Men oshxona va vestibuldan oʻtib, marmar zinadan Rinaldi bilan turadigan xonamizga chiqdim. Yomgʻir yogʻib turardi. Men derazadan tashqariga qaradim. Bosib kelayotgan qorongʻilikda, daraxtlar tagida qator turgan uch mashinani koʻrdim. Daraxtlardan suv oqib tushmoqda edi. Havo sovuq boʻlganidan oqib tushayotgan tomchilar novdalarda turib qolardi. Men Rinaldining oʻrniga yotdim-u, shu zahoti uyquga ketdim.

Yoʻlga tushmasdan burun oshxonada tamaddi qilib oldik. Aymo piyoz solib spagetti qilgan ekan, goʻsht konservalarning ustiga solib berdi. Biz stolga oʻtirib villa yertoʻlasida qoldirilgan vinolardan ikki shishasini ichdik. Butunlay qorongʻi tushgan, yomgʻir esa hamon yogʻib turardi. Piani stolda hamon koʻzlari toʻla uyquda oʻtirardi.

– Menga hujum qilgandan koʻra chekingan koʻproq yoqadi, – dedi Bonello. – Chekinayotibmiz-u, barbera ichayotibmiz.

– Hozir ichyapmiz-da. Ertaga yomgʻirning suvini ichamiz, – dedi Aymo.

- Ertaga biz Udinada bo‘lamiz. Shampan ichamiz.
- Hamma takasaltanglar o‘sha yerda yashaydi. Ko‘zingni och Piani! Ertaga Udinada shampan ichamiz.
- Men uxlayotganim yo‘q, – dedi Piani. U o‘z likopchasiga spagetti bilan go‘sht soldi. – Tomat bo‘lgandami, a, Barto?
- Qidirib hech qayerdan topmadim, – dedi Aymo.
- Ertaga Udinada shampan ichamiz, – dedi Bonello. U stakanini tiniq qizil barbera bilan to‘ldirdi.
- Udinaga borguncha p... qimiz boshimizga chiqmasaydi, – dedi Piani.
- Yana solib beraymi, tenente? – so‘radi Aymo.
- Rahmat, bo‘ldim. Menga shishani uzatib yuboring, Bartolomeo.
- Menda o‘zimiz bilan olib ketish uchun kishi boshiga bir shishadan bor, – dedi Aymo.
- Siz hech uxlamadingizmi?
- Ko‘p uxlashni yomon ko‘raman. Ozroq uxladim.
- Ertaga biz qirollarning to‘shagiga yotamiz, – dedi Bonello. Uning kayfi ancha chog‘ edi.
- Ertaga ehtimol biz p... qimizning ustida yotishga majbur bo‘larmiz, – dedi Piani.
- Men qirolicha bilan yotaman, – dedi Bonello. U hazilim qanday ta‘sir qildi ekan deb menga qaradi.
- Sen p... q bilan uxlaysan, – dedi Piani uyquli tovush bilan.
- Bu davlatga xiyonat, tenente, – dedi Bonello. – Davlatning xiyonati, to‘g‘rimi?
- Ovozingizni o‘chiring, – dedim. – Ichingizga jindak kirib, darrov o‘zingizni bilmay qoldingiz.
- Yomg‘ir tobora kuchayardi. Men soatga qaradim. Soat to‘qqiz yarim bo‘lgandi.
- Yo‘lga tushaylik, – dedim va o‘rnimdan turdim.
- Siz kim bilan borasiz, tenente? – so‘radi Bonello.
- Aymo bilan. Keyin siz. Keyin Piani. Kormons yo‘li-dan boramiz.

– Men uxlab qolamanmi, deb qoʻrqib turibman, – dedi Piani.

– Yaxshi. Men siz bilan boraman. Keyin Bonello. Keyin Aymo.

– Shunisi tuzuk, – dedi Piani. – Boʻlmasa, koʻzlarim bir-biriga yopishib ketyapti.

– Mashinani men haydayman, siz biroz mizgʻib olasiz.

– Yoʻq. Uygʻotib qoʻyadigan odam boʻlgandan keyin koʻnglim toʻq, oʻzim haydayveraman.

– Sizni men uygʻotaman. Chiroqni oʻchiring, Barto.

– Qoʻyaving, yonaversin, – dedi Bonello. – Boshqa bu yerda turmaymiz-ku.

– Mening xonamda sandiqcham bor, – dedim. – Siz uni olib chiqishga yordamlashib yuboring, Piani.

– Hozir olib kelamiz, – dedi Piani. – Yur, Aldo.

U Bonello bilan birga chiqib ketdi. Menga ularning zinadan chiqib borayotganlari eshitilib turdi.

– Yaxshi shahar edi, – dedi Bartolomeo Aymo. U oʻzining safar xaltasiga ikki shisha vino bilan yarim boʻlak pishloq soldi. – Bunaqa shaharni boshqa qidirib ham topolmaymiz. Qayerga chekinyapmiz, tenente?

– Talyamentoning naryogʻiga deyishyapti. Gospital bilan shtab Pordenoneda boʻlarkan.

– Pordenoneda shu yer yaxshi edi.

– Men Pordenoneda boʻlmaganman, – dedim. – Yoʻl-yoʻlakay bir koʻrganman.

– Beʻmani shaharcha, – dedi Aymo.

## **Yigirma sakkizinchi bob**

Biz Goritsiyadan chiqayotganimizda yomgʻir yogʻayotgan shahar boʻshab qolgan, katta koʻchadan faqat qoʻshinlarning kolonnalari va toʻplar oʻtib borardi. Bulardan tashqari yana talay yuk mashinalari va aravalar boshqa koʻchalardan chiqib katta

yo'lda asosiy kolonnaga qo'shildirdi. Teri oshlaydigan korxonalaridan o'tib, katta yo'lga chiqdik, bunda qo'shinlar, yuk mashinalari, ot qo'shilgan aravalar va to'plar bir kattakon kolonna bo'lib ohista olg'a jilib borardi. Biz sekin, lekin olg'a yurmoqda edik, radiatorimiz ustiga yuk ortilib, brezent tortilgan oldingi mashinaning orqa kuzoviga tegay-tegay deb ketmoqda edi. Birdan yuk mashinasi to'xtadi. Butun kolonna to'xtadi. Keyin u yana o'rnidan qimirladi, biz yana biroz yurib yana to'xtadik. Mashinadan tushib oldinga yurib ketdim, yuk mashinalar, aravalar va otlarning ho'l tumshuqlari tagidan o'tdim. Tiqilinch oldinda edi. Men yo'ldan chetga chiqdim-da, jar ustiga tashlangan taxtachalardan o'tdim. Jordan o'tilgan zahoti dala boshlanar, men shu dala bo'ylab ketdim. Yo'ldan uzoqlasharkanman, ko'zimni daraxtlar orasida yomg'irda qimirlamay turgan kolonnadan uzmasdim. Men bir chaqirimcha yurib bordim. Kolonna joyida turar, uning orqasidan esa hamon qo'shinlar kelishardi. Men mashinalar oldiga qaytdim. Tiqilinchning boshi Udinada bo'lishi ham mumkin edi. Piani rulda uxlab yotardi. Men ham uning yoniga o'tirib uxlab qolibman. Bir necha soatdan so'ng oldingi mashinaning g'iyqillaganini eshitdim. Men Pianini uyg'otdim va biz to'xtab-to'xtab yura boshladik. Yomg'ir hamon ezardi.

Kechasi kolonna yana to'xtab qoldi va anchagacha o'rnidan qimirlamadi. Men pastga tushib, Bonello bilan Aymoni ko'rgani orqaga bordim. Bonelloning mashinasida injener qismlaridan ikki serjant o'tirishardi. Meni ko'rishlari bilan dik turib qotib qoldilar.

– Ularni qandaydir ko'prikn tuzatgani qoldirishgan ekan, – dedi Bonello. – Ular o'z qismlarini yo'qotib qo'yishibdi, men mashinaga tushishlariga rozi bo'ldim.

– Agar janob leytenant ijozat etsalar.

– Mayli, – dedim.

– Bizning leytenantimiz amerikalik, – dedi Bonello.  
– Kim boʻlmasin oborib qoʻyaveradi.

Serjantlardan biri kulimsiradi. Boshqasi Bonel-  
lodan meni shimoliy amerikalik italyanlardanmi yoki  
janubiy amerikalik italyanlardanmi, deb soʻradi.

– U italyan emas. U shimoliy amerikalik ingliz.

Serjantlar odob bilan eshitishdi-yu, lekin ishonish-  
madi. Men ularning oldidan Aymoni koʻrgani ketdim.  
Aymoning yonida ikkita qiz oʻtirar, oʻzi burchakka qi-  
silib olib chekardi.

– Barto, Barto! – dedim. U kuldi.

– Ular bilan gaplashib koʻring, tenente, – dedi u. –  
Men ularning tilini tushunmayman. Hey! – U qizlar-  
dan birining beliga qoʻlini yuborib, uni doʻstona qisib  
qoʻydi. Qiz shol roʻmoliga qattiqroq oʻralib, uning qoʻli-  
ni itarib tashladi. – Hey! – dedi u, – tenentega ismla-  
ringizni va bu yerda nima qilib yurganlaringizni ayting.

Qiz menga yeb qoʻyguday boʻlib qaradi. Ikkinchi qiz  
yer chizib oʻtirardi. Haligi menga qaragani lahjada bir  
narsa dedi, lekin men bir ogʻiz gapini ham tushun-  
madim. U qorachadan kelgan, koʻrinishdan oʻn olti  
yoshlarda edi.

– Seorlia?<sup>1</sup> – soʻradim men ikkinchi qizni koʻrsatib.

U boshini silkib tasdiqladi va jilmaydi.

– Xoʻsh, – dedim men va uning tizzasiga shappa-  
tilab qoʻydim. Qoʻlim tegishi bilan u qattiq seskanib  
ketdi. Singlisi hamon boshini yerdan koʻtarmasdi. U  
opasidan bir yoshlar chamasi kichikroq edi. Aymo  
yana opasining beliga qoʻlini yuborgan edi, u yana sil-  
tab tashladi. Aymo kuldi.

– Yaxshi odam. – U oʻzini koʻrsatdi. – Yaxshi odam.  
– U meni koʻrsatdi. – Qoʻrqish kerak emas.

Qiz unga yeb qoʻyguday boʻlib qarardi. Ular ikkita  
yovvoyi qushga oʻxshardilar.

---

<sup>1</sup> Singlingmi? (ital.)



– Unga yoqmasam, nega men bilan birga boradi?  
– soʻradi Aymo. – Men imlamasdan oq, jon-jon deb mashinaga chiqib olishdi. – U qizga oʻgirildi. – Qoʻrqma, – dedi u. – Hech kim seni... – U qoʻpol soʻzni ishlatdi. – Joyi emas... – Men qiz soʻzni tushunganligini koʻrdim, lekin u shundan boshqa hech narsani anglamadi. Uning yigitga qarab turgan koʻzlarida dahshatli qoʻrquv aks etardi. U roʻmoliga yanada mahkamroq oʻralib oldi. – Mashina toʻla yuk, – dedi Aymo. – Hech kim seni... Joyi emas...

U har safar shu soʻzni ogʻziga olarkan, qiz junjib ketardi. Keyin qalt-qalt qilib unga qaradi-da, yigʻlab yubordi. Men uning lablari uchganligini, soʻng loʻppidek yuzlaridan yoshlar oqa boshlaganini koʻrdim. Singlisi koʻzini koʻtarmasdan uning qoʻlidan ushlab oldi, ular shu tariqa oʻtirdilar. Boya odamni yeb qoʻyay degan opasi endi oʻkirib yigʻlardi.

– Qoʻrqib ketganga oʻxshaydi, – dedi Aymo. – Men uni qoʻrqitmoqchi emasdim.

U xaltasini oldi-da, ikki boʻlak pishloq kesib uzatdi. – Ma, ol, – dedi u. – Yigʻlama.

Opasi boshini chayqadi, yigʻlashdan toʻxtamadi, lekin kichigi pishloqni olib yeya boshladi. Saldan keyin singlisi opasiga pishloqni berdi va ular indamay ovqat yegani tutindilar. Opasi hamon ora-chora hiqillab qoʻyardi.

– Hechqisi yoʻq, ovunib qoladi, – dedi Aymo. Uning kallasiga bir fikr keldi.

– Qizmisan? – soʻradi u yonida oʻtirganidan. Qiz shosha-pisha boshini qimirlatib tasdiqladi. – Uyam qizmi? – Singlisini koʻrsatdi u. Ikkovlari ham boshlarini silkidilar. Kattasi lahjada nimadir deb qoʻydi.

– Xoʻp, xoʻp, mayli, – dedi Bartolomeo. – Mayli.

Ikkala qizga ham sal rang kirganday boʻldi.

Men ularni kabina burchagiga suqilib oʻtirgan Aymo bilan qoldirdim-da, Piani oldiga qaytdim. Transport

kolonnasi qimirlamay turar, lekin uning yonidan tinimsiz suratda qo'shinlar o'tib borardi. Yomg'ir hamon chelaklab quyar, men ba'zan kolonnaning harakatsizligi mashinalarning provodkasi namiqib qolishidan bo'lishini o'ylardim. Undan ham to'g'rirog'i, otlar yoki odamlarning yo'lda uxlab qolishlaridan ham to'xtab qolish hech gapmas. Lekin yo'lda hech kim uxlab qolmaydigan shaharlarda ham to'xtab qolishlar bo'lib turadi-ku. Hamma balo avtotransport bilan ulovning bir joyda bo'lganligida. Avtomobillar bilan ulov bir bo'ldimi – ish rasvo deyavering. Umuman, dehqonlarning ulovlaridan naf kam. Bartoning oldidagi qizlar g'alati qizlar ekan. Chekinayotgan armiyada mohpora qizlar nima qilib yurishibdi o'zi. Ikkita bokira qiz. Balki xudojo'ydirilar. Urush bo'lmaganda hozir hammamiz to'shakda yotgan bo'lardik. Yana yotaman o'z to'shagimda. Ketrin hozir o'rinda yotibdi, bir choyshab tagida, bir choyshab ustida. Qaysi yoni bilan yotganiykin? Balki u uyquda emasdir? Balki u hozir yotib meni o'ylayotgandir. Uch, mag'rib shamoli, uch. Mana u esib keldi, mayin emas qattiq jalani olib keldi u qora bulut. Tun bo'yi yomg'ir. O'pkasi to'lib ketgan bulut tuni bilan ko'z yoshi to'kib chiqishini sen bilganmiding. Quyishini ko'r. Qaniydi, shu tobda sevgilim yonimda bo'lsa. Mening sevgilim Ketrin. Qaniydi, sevgilim sabo qanotida yetib kelsa. Menga Ketrinimni olib kel, ey sabo. Biz to'rga ilindik. Hammamiz olov seliga tushdik, bu olovni mayin yomg'ir o'chirolmaydi. – Xayrli tun, Ketrin, – dedim baland ovoz bilan. – Tinch uxla. Agar noqulay yotib qolgan bo'lsang, boshqa yoningga o'gril, jonim, – dedim men. – Men senga muzdek suv olib kelaman. Tezda tong otadi va sen ancha yengil tortasan. Chaqalog'ing seni biroz bezovta qiladi, nachora, mayli. Ko'zlaringni yum, jonim, orom ol.

– Men uyquda edim, – dedi u. – Sen uyqungda gapirding. Tobing yo'qmi?

– Sen rostdan ham shu yerdamisan?

– Men keldim, men shu yerdaman. Endi hech qayoqqa ketmayman. Bularning biz uchun sira ahamiyati yo‘q.

– Sen shunday go‘zal va yaxshisanki. Sen kechasi ketib qolmaysanmi? Men doim yoningdaman. Qachon chaqirmagin, men yoningdaman.

– Eh, ana!.. – dedi Piani. – Ketdik!

– Mudroq bosibdi, – dedim. Men soatga qaradim. Ertalabki uch edi. Men barbera shishasini olish uchun suyanchiq osha egildim.

– Siz uyqungizda gapirdingiz, – dedi Piani.

– Inglizcha tush ko‘ribman, – dedim.

Yomg‘ir tinay deb qolibdi, biz yo‘lga tushdik. Tong otmasdan ilgari yana to‘xtab qoldik, hamma yoq yorishib ketgach, qarajak, biz uncha baland bo‘lmagan tepalikda turgan ekanmiz. Tepalikdan butun chekiniladigan yo‘l ko‘rinib turar, yo‘l oldinga nihoyatda cho‘zilib ketgan, unda harakatsiz transport tiqilib yotar, uning orasidan esa piyodalar o‘tib borishardi. Biz yana yo‘lga tushdik, harakatimiz shu qadar sust ediki, agar shu tariqa qimirlaydigan bo‘lsak, Udinaga sira ham yetib bo‘lmasligini, u yerga qachondir yetib borish niyati tug‘ilgudek bo‘lsa, yo‘ldan chiqib to‘g‘ridan ketishimiz kerakligini angladim.

Kechasi bilan kolonnaga qishloq yo‘llaridan ko‘p dehqonlar kelib qo‘shilishibdi, endi kolonnada ko‘chko‘ron ortgan arava-ulovlar ham borardi. Ko‘zgular to‘shaklar orasiga qo‘yilgan, aravalarning orqasiga g‘oz va o‘rdaklar bog‘langan edi. Bizning oldimizda borayotgan aravada tikuv mashinasi shundoq yomg‘irda turardi. Har kim nimayiki qimmatli narsasi bo‘lsa, shuni ortib olgan edi. Ba‘zi aravalarda ayollar yomg‘irdan ro‘mollariga o‘ralib o‘tirishar, boshqa birlari aravalarning biqiniga iloji boricha yaqin turib borishardi. Kolonnada itlar ham yo‘q emasdi, ular aravalarning

tagida pisibgina ketishardi. Yoʻlning balchigʻi chiqib ketgan, oʻralar suvga liq toʻlgan, daraxtlarning narigi yogʻidagi dalalar shu qadar botqoq boʻlib koʻrinardiki, undan toʻgʻri yoʻl solishni oʻylaganda odamning yuragi orqasiga tortib ketardi. Men mashinadan tushib, biroz oldinga yurdim, qishloq yoʻliga chiqish mumkin boʻlgan qulayroq joyni qidira boshladim. Qishloq yoʻllari koʻp, lekin men oxiri berk yoʻlga kirib ketishdan xavfsirardim. Men mashinada shossedan oʻtgan paytimda ularning hammasini koʻrgandim, lekin mashina tez oʻtib ketganidan, ularning baribir-biriga oʻxshash boʻlganidan esimda saqlab qololmagandim. Manzilga yetib borish-bormasligimiz yoʻlning toʻgʻri tanlanishiga bogʻliq edi. Avstrislarning hozir qayerdaligi va ishlar qaysi ahvoldaligi maʼlum emasdi. Lekin men yomgʻir tinib, osmonda avstrislarning samolyotlari paydo boʻlsa, hammasi xarob boʻlishini anglab turardim. Bir qancha mashinami yo uch-toʻrtta otmi qarovsiz qolsa, yoki yoʻlda oʻlsa, harakat tamomila toʻxtagan boʻlardi.

Yomgʻir shiddati sal pasaygan, men osmonga qarab, ochilib ketishi ham mumkin, deb oʻyladim. Yana biroz oldinga yurib bordim. Ikkala yogʻida nihollar oʻsgan, dalani qoq yorib shimolga qarab ketgan yoʻlga yetdim-da, shundan ketsak boʻladi, deb, orqaga, mashinalarga shoshildim. Men Pianiga qayerda burilish kerakligini aytdim-u Aymoni, Bonelloni ham xabardor qilib qoʻygani bordim.

– Agar u yoʻldan hech qayerga chiqib boʻlmasa, qaytib yana kolonnaga qoʻshilib olishimiz mumkin, – dedim.

– Manovlarni nima qilay? – soʻradi Bonello. Serjantlar hamon uning yonida oʻtirishardi. Ularning soqollari oʻsib ketgan, lekin kallai saharda ham ular harbiycha nuqslarini yoʻqotmagandilar.

– Mashina botib qolsa, yordamlari tegib qolar, – dedim va Aymo oldiga borib, yoʻlni toʻgʻridan solishga harakat qilamiz, dedim.

– Bu polapon qizlarni nima qilay? – so‘radi Aymo. Ikkala qiz ham uxlab yotishardi.

– Ulardan foyda yo‘q, – dedim. – Yaxshisi, mashina botib qolsa yordam beradigan odam olsangiz bo‘lardi.

– Ular kuzovga chiqib olsalar ham bo‘ladi, – dedi Aymo. – Kuzovda joy bor.

– Juda ko‘nglingiz bo‘lmayotgan bo‘lsa, mayli, – dedim. – Lekin yordamga biron baquvvat odamni oling. Yag‘rindor bo‘lsin.

– Bersaler olamiz, – jilmaydi Aymo. – Yelkasi ken-glarning zo‘rlari bersalerlarda bo‘ladi. Ularning yelka-larini o‘lchab ko‘rishadi. O‘zingiz tuzukmisiz, tenente?

– Juda yaxshi. O‘zingiz-chi?

– Juda yaxshi. Faqat juda ochqadim.

– Manavi yo‘ldan biron manzilga chiqaylik, keyin to‘xtab, ovqatlanamiz.

– Oyog‘ingiz og‘rimayaptimi, tenente?

– Yo‘q, yaxshi, – dedim.

Mashina zinasida turib oldinga qarar ekanman, Piani-nining mashinasi kolonnadan ajralib chiqib, tor yo‘lga burilganini, yo‘l chetidagi to‘siqlar orasidan lip-lip etib borayotganini ko‘rdim. Bonello uning ketidan shunday qildi, keyin Aymo ham shu yo‘lga burildi va biz ikki mashina ketidan ikki chetida qator nihollar o‘sgan tor yo‘ldan olg‘a bosdik. Yo‘l fermaga olib bordi. Biz Piani bilan Bonello mashinalarining ferma hovlisida turganligini ko‘rdik. Qo‘rg‘on uzunasiga ketgan, pastak-kina qilib qurilgan edi, ichkariga kiraverishda ishkom ko‘tarilgandi. Hovlida quduq bor ekan, Piani radiatorga undan suv olayotgan ekan. Mashinalar ancha vaqtdan beri sekin yurib borganligidan radiatorlardagi suv qay-nab ketgandi. Fermada hech zot yo‘q edi. Men yo‘lga qaradim. Ferma balandroq yerda joylashganligidan, te-varak-atrof kaftda turganday ko‘rinar, men yo‘lni, yo‘l chekkalaridagi daraxtlarni, dalalar va chetanlarni, che-kinib borayotgan qo‘shinlarni ko‘zdan o‘tkazdim. Ser-

jantlar uyni titib yurishardi. Qizlar uygʻonishib, uyni, quduqni, uy oldidagi ikki katta sanitar mashinasini va ularning quduq oldida turgan uchta haydovchisini koʻzdan kechirib turishardi. Serjantlardan biri qoʻlida osma soat koʻtarib uydan chiqib keldi.

– Joyiga oborib qoʻying, – dedim men. U menga bir qarab qoʻydi-da, uyga kirib soatni qoʻyib chiqdi.

– Oʻrtogʻingiz qani? – soʻradim.

– Yozilgani ketdi. – U mashinaning oʻrindigʻiga chiqib oʻtirdi. Bizni tashlab ketadi deb qoʻrqdi.

– Nonushta qalay boʻlarkin, tenente? – soʻradi Bonello. – Balki ozroq tamaddi qilib olarmiz? Keyin darrov turamiz.

– Anavi yoqqa ketgan yoʻl bizni biron yerga olib chiqarmikin, nima deysiz?

– Olib chiqmay qayerga borardi.

– Xoʻp. Kelinglar, ovqatlanaylik. Piani va Bonello uyga kirishdi.

– Yuringlar, – dedi Aymo qizlarga. Ularni tushirib qoʻyish uchun qoʻlini choʻzdi. Opasi boshini chayqadi. Tashlab ketilgan uyga kirishga ularning yuraklari dov bermadi. Ular bizning orqamizdan qarab qolishdi.

– Qaysarlar, – dedi Aymo.

Hammamiz birgalikda uyga kirdik. Uyning ichi qorongʻi, huvillab yotardi, odam yashamaganligi bilinib turardi. Bonello va Piani oshxonada edilar.

– Yeydigan tuzukroq narsa yoʻq ekan, – dedi Piani.

– Hammasini quritib ketishibdi.

Bonello oshxona stolida kattakon pishloqni kesib turardi.

– Pishloqni qayerdan oldinglar?

– Yertoʻladan. Piani vino bilan olma ham topdi.

– Ana, nonushta ham tayyor boʻlibdi hisob. Piani poxol bilan oʻralgan kattakon shishaning ogʻzidan yogʻoch tiqinini oldi. U shishani egib, mis yalogʻini toʻldirdi.

– Isini qarang, isini, – dedi u. – Birona idish top, Barto.

Ikkala serjant kirishdi.

– Pishloqdan olinglar, serjantlar, – dedi Bonello.

– Yoʻlga tushsak boʻlardi-da, – dedi serjantlardan biri pishloqni yeb, vinodan icharkan.

– Hozir ketamiz. Tashvishlanmang, – dedi Bonello.

– Qoʻshinning oyogʻi – qorni, – dedim.

– Nima? – soʻradi serjant.

– Qorinni toʻydirish kerak.

– Shunday. Lekin vaqt ketyapti.

Yaramaslar qorinlarini allaqachon toʻydirib olganga oʻxshaydilar. Serjantlar unga qarashdi. Ularning bizni koʻrgani koʻzlari yoʻq edi.

– Siz yoʻlni bilasizmi? – deb soʻradi mendan ularning biri.

– Yoʻq, – dedim men. Ular bir-birlariga qarashdi.

– Hoziroq yoʻlga tushsak yaxshi boʻlardi, – dedi birinchisi.

– Hozir tushamiz-da, – dedim.

Men yana qizil vinodan ichdim. Olma bilan pishloq ustidan u juda ham yoqimli tuyuldi.

– Pishloqni olvoling, – dedim men va tashqariga chiqdim. Bonello orqamdan kattakon chirpitda vino koʻtarib chiqdi.

– Bu juda ham qoʻpollik qiladi, – dedim. U vinoga achinib qarab qoʻydi.

– Shundayga oʻxshab qoldi, – dedi u. – Menga flyagalarni bering-chi.

U flyagalarni toʻlatib oldi, ozgina vino yerga toʻkildi. Keyin u chirpitni koʻtarib, eshikning tagiga qoʻydi.

– Avstrislar tagʻin vino qidirib eshikni buzib yurmasinlar, – dedi u.

– Qimirlash kerak, – dedim. – Biz Piani bilan oldinda boramiz.

Ikkala serjant Bonelloning oldiga chiqib oʻtirib olishgandi. Qizlar olma bilan pishloq yeb oʻtirishardi.

Aymo chekardi. Biz tor yo'l bo'ylab ketdik. Men boshqa ikki mashinaga va fermerning qo'rg'oniga qaradim. Bu yaxshi, pastak va pishiq qo'rg'on edi, quduq atrofi chiroyli temir panjaralar bilan o'rab qo'yilgandi. Oldinda tor va balchiq yo'l, yo'lning ikkala yog'i avjga kirgan nihollar bilan o'ralgandi. Orqada ketma-ket bo'lib mashinalarimiz kelar edi.

### **Yigirma to'qqizinchi bob**

Peshinga borib, chamamiz bo'yicha Udinaga o'n kilometrlar qolganda, loyga botib qoldik. Yomg'ir ertalaboq tingan, hozirgacha uch marta samolyotlarning yaqin uchayotganlarini eshitgandik, shundoq ustimizdan uchib o'tayotganlarini ko'rgandik, ular so'l tomonga qarab olis sho'ng'iganlarini kuzatgan, katta yo'l bombardimon qilinayotgani qulog'imizga elas-elas chalingandi. Biz qishloq yo'llaridan ancha adashib ham yurdik, adashganda ortga qaytib to'g'ri yo'lni ham topdik va borgan sari Udinaga yaqinlasha bordik. Lekin bir mahal Aymoning mashinasi boshi berk yo'ldan chiqayotganda, burila turib, yo'l chekkasida ko'pchib yotgan loyga botib qoldi. G'ildiraklar aylangan sari yerga chuqurroq kirib borar, nihoyat, differentsiali ham yerga borib tiqildi. Endi oldingi g'ildiraklarning tagini kovlab, u yerga shox-shabba tashlash kerak edi, keyin mashina zanjirlari ishga tushgach, to o'rnidan jilmaguncha orqasidan itarish kerak bo'lardi. Hammamiz yo'lda mashinani o'rab turardik. Ikkala serjant kelib mashina g'ildiraklarini ko'rishdi. Keyin ular shart orqalariga burilib indamay-netmay yo'lga ravona bo'lishdi. Men ularning orqasidan bordim.

– Hoy, bolalar! – chaqirdim men. – Shox sindirib kelinglar.

– Biz borishimiz kerak, – dedi biri.

– Tez bo'linglar, – dedim. – Shox sindiringlar.



– Biz borishimiz kerak, – dedi biri. Ikkinchisi miq etmasdi. Ular tezroq ketishga shoshilib turardilar. Ular menga qarashmasdi.

– Mashinaga qaytib shox sindirishni buyuraman, – dedim. Birinchi serjant orqasiga qaradi.

– Biz borishimiz kerak. Bir soatdan keyin siz qurshovda qolasiz. Bizga buyruq berishga haqqingiz yo‘q. Siz bizga boshliq emassiz.

– Men sizga shox sindirib kelishni buyuraman, – dedim men. Ular orqalariga burilib keta berdilar.

– To‘xta! – dedim men. Ular botqoq yo‘ldan quloq solmay jo‘nab borishardi. – To‘xta, deyapman! – qichqirdim men. Ular qadamlarini tezlatishdi. Men g‘ilofni yechib to‘pponchani oldim-da, boyagi mahmadonalik qilayotganini mo‘ljalga olib, tepkini bosdim. Otgan o‘qim tegmadi, ular qocha boshladilar. Men yana uch marta otdim va birovi yiqildi. Boshqasi to‘siqdan o‘tib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Men unga dala bo‘ylab qochayotganda, to‘siq orqasidan turib bo‘lsa ham yana otdim. To‘pponcha bu safar otilmay qoldi va men unga boshqatdan o‘q joyladim. Ikkinchi serjant juda ham uzoqlashib ketganligini, unga otish behuda ekanligini bildim. U dalaning narigi chetiga borib qolgan, boshini past egib chopib borardi. Men bo‘shagan oboymaga o‘q joylay boshladim. Bonello keldi.

– Menga bering, uni yo‘q qilib kelaman, – dedi u. Men unga pistoletni berdim va u yo‘lda uzala tushib yotgan injener qismlar serjanti tomonga qarab ketdi.

Bonello enkayib, to‘pponchani og‘zini uning kallasiga tiradi-da, tepkini bosdi. Otilmadi.

– Zatvorni orqaga tortish kerak, – dedim. U zatvorni tortib ikki marta otdi. U serjantni oyog‘idan sudrab yo‘l chetiga olib chiqdi. Serjant endi chetanlarning tagida yotardi. U qaytib kelib to‘pponchani menga berdi.

– Voy iflos-ey! – dedi u. U serjantga qarab turardi. – Uni qanday otib tashlaganimni ko‘rdingizmi, tenente?

– Tezroq shox sindirishimiz kerak, – dedim men. – Nima, boshqasiga teggizolmadimmi?

– Tegmagan bo'lsa kerak, – dedi Aymo. – To'pponchadan uzoqqa teggizish qiyin.

– Hayvon! – dedi Piani. Biz shox-shabba sindirayotgan edik. Mashinadan yuklarni bo'shatdik. Bonello oldingi g'ildiraklar tagidan chuqur qazidi. Hammasi tayyor bo'lganda Aymo motorni oldirib, tezlikka qo'ydi. G'ildiraklar yana loy va shoxlarni otib chirchir aylana boshladi. Bonello ikkovimiz suyaklarimiz sirqirab ketguncha orqasidan itardik. Mashina o'rnidan jilmadi.

– Sal jildirib ko'ring, Barto, – dedim.

U mashinani orqaga tortib, keyin oldinga oldi. G'ildiraklar borgan sari yerga chuqurroq kirib borardi. Keyin mashina yana differentsiali bilan tiralib qoldi, endi uning g'ildiraklari o'zi o'yg'an chuqurda aylana boshladi. Men qaddimni ko'tardim.

– Arqon solib tortib ko'ramiz, – dedim.

– Menimcha foydasi bo'lmaydi, tenente. Bu yerda bir qator turib bo'lmaydi.

– Tortib ko'rish kerak, – dedim. – Boshqa iloji yo'q.

Piani bilan Bonelloning mashinalari tor yo'lda faqat orqama-orqa turishlari mumkin edi. Biz bir mashinani ikkinchisiga boylab torta boshladik. G'ildiraklar izidan chiqmasdan aylanardi.

– Bo'lmaydi, – dedim qichqirib. – Bo'ldi, qo'yinglar.

Piani va Bonello o'z mashinalaridan chiqib bizning oldimizga kelishdi. Aymo mashinasidan tushdi. Qizlar bizdan yigirma qadamcha narida, tosh ustida o'tirishardi.

– Endi nima qildik, tenente? – so'radi Bonello.

– Yana bir shox solib ko'ramiz, – dedim.

Men yo'lga qarab turardim, ayb menda edi. Ularni men bu ko'chaga olib kirdim. Oftob bulutlar orasidan chiqdi. Serjantning jasadida chetan oldida yotardi.

– Uning frenchi bilan plashini solamiz, – dedim. Bonello ularni olib kelgani ketdi. Men shox sindirdim. Piani bilan Aymo g'ildiraklar orasidan chuqur qazishdi. Men plashni qirqib ikkiga bo'ldim-da, g'ildirakning tagiga to'shadim, keyin shox-shabbani soldim. Biz tayyorlanib, Aymo yana motorni yurgizdi. G'ildiraklar chirillab aylanar, biz jonimiz boricha itarardik, lekin hech nafi bo'lmadi.

– He, o'sha!.. – dedim. – Qo'yinglar. Biron kerakli narsangiz bormi unda, Barto?

Aymo pishloq, ikki shisha vino bilan plashini olib Bonelloning mashinasiga chiqdi. Bonello rulda o'tirgancha, serjant frenchining cho'ntaklarini kovlardi.

– Tashlab yuboring bu frenchni, – dedim. – Bartoning polaponlari nima bo'ladi?

– Kuzovga o'tirib olishsin, – dedi Piani. – Bu yerdan tez qutulib ketolmasmiz-ov.

Men mashinaning orqa eshigini ochdim.

– Qani, – dedim. – O'tiringlar.

Ikkala qiz mashina ichiga kirib burchakka o'tirib olishdi. Ular o'q ovozi eshitmaganga o'xshardilar. Men orqamga qaradim. Serjant yo'lda yenglari uzun iflos fufaykada yotardi. Men Piani bilan yonma-yon o'tirdim, biz yo'lga tushdik. Biz dalani kesib o'tmoqchi edik. Mashinalar burilib dalaga kirganda men mashinadan tushib oldinda bordim. Shu daladan o'tsak, yo'lga chiqib olgan bo'lardik. Lekin biz chiqolmadik. Yer nihoyatda ivib, botqoqqa aylanib ketgandi. Mashinalar g'ildiraklarining yarmidan loyga botib hech yurolmaydigan bo'lib qolganlaridan keyin biz ularni dala o'rtasiga tashlab, Udinaga piyoda ketdik.

Katta yo'lga olib chiqadigan ko'chaga yetganimizda, men uni qizlarga ko'rsatdim.

– Shu yoqqa boringlar, – dedim ularga. – U yerda odamlar bor.

Ular menga termilib turishardi. Men hamyonimni olib ularning har ikkovlariga o'n lirdan pul berdim.

– Boringlar shu yoqqa, – dedim men qo‘lim bilan yo‘lni ko‘rsatib. – Do‘stlaringiz, qarindoshlaringiz o‘sha yoqda!

Ular tushunishmadi, lekin pulni qo‘llarida mahkam siqimlagan cha yo‘lga qarab ketishdi. Ular xuddi men pulni tortib oladiganday orqalariga qaray-qaray borishardi. Men ular shol ro‘mollariga mahkam o‘ralib olgan cha bizga qo‘rqa-pisa alanglab ketayotganlariga qarab qoldim. Uchala shofyor ham xoxolab kulishardi.

– Agar men ham o‘sha yoqqa ketsam, menga necha pul berasiz, tenente? – so‘radi Bonello.

– Qo‘lga tushsalar ham, odamlar orasida bo‘lishadi-ku, har holda yolg‘iz qolmaslar.

– Menga ikki yuz lir bering, men orqaga qaytib to‘g‘ri Avstriyaga boraman, – dedi Bonello.

– U yerda pullaringni tortib olishadi, – dedi Piani.

– Balki urush tamom bo‘lar, – dedi Aymo. Biz yo‘ldan iloji boricha jadal yurib borardik. Oftob bulutlar tagidan chiqdi. Yo‘l bo‘ylarida tut daraxtlari o‘sib yotardi. Daraxtlar orqasidan xuddi mebel tashiydigan katta furgonlarga o‘xshab dala o‘rtasida qolgan mashinalarimiz qaqqayib turardi. Piani ham orqasiga qaradi.

– Ularni daladan chiqarish uchun maxsus yo‘l qurish kerak bo‘ladi, – dedi u.

– Eh, shayton, velosipedlarimiz bo‘lgandami! – dedi Bonello.

– Amerikada velosipedlarda yurishadimi? – so‘radi Aymo.

– Oldin yurishardi.

– Yaxshi narsa, – dedi Aymo. – Ajoyib narsa velosiped.

– Eh, shayton, velosipedlarimiz bo‘lgandami! – dedi Bonello. – Men piyoda yurishga uncha yo‘qman.

– Nima, otishma bo‘lyaptimi? – so‘radim men. Menga uzoqdan otishma ovozlari eshitilganday bo‘ldi.

– Bilmadim, – dedi Aymo. U quloq sola boshladi.

- Otishayotganga o‘xshaydi, – dedim.
- Hammadan oldin otliqlar ko‘rinadi, – dedi Piani.
- Menimcha, ularning otliq askarlari bo‘lmasa kerak.
- Bo‘lmasa yanayam yaxshi, – dedi Bonello. – Men qalang‘i-qasang‘i bir otliqning nayzasidan o‘lib ketishni istamayman.
- Anavi serjantni bopladingiz-da, tenente, – dedi Piani. Biz jadal qadamlar bilan yurib bormoqda edik.
- Men uni otib tashladim, – dedi Bonello. – Men bu urushda hali hech kimni otmagandim, men bir umr serjantni otib tashlashni orzu qilib yurardim.
- Tuxumda o‘tirgan tovuqni otding sen, – dedi Piani.
- Sen otganingda uncha baland uchmaydigan bo‘lib qolgandi.
- Farqi yo‘q. Men endi bir umr buni eslab yuraman. O‘sha iflos serjantni men o‘ldirdim.
- Gunohlaringni bayon qilayotganingda nima dey-san? – so‘radi Aymo.
- Padarim, duo qiling, men serjantni o‘ldirdim, deyman. Uchovlari kulib yuborishdi.
- U anarxist, – dedi Piani. – U cherkovga bormaydi.
- Piani ham anarxist, – dedi Bonello.
- Chindan ham anarxistlarmisiz? – so‘radim.
- Yo‘q, tenente. Biz sotsialistlarmiz. Hammamiz Imolalikmiz.
- Siz u yerda hech bo‘lganmisiz?
- Yo‘q.
- Eh, chatoq! Juda allambalo joy-da, tenente. Urushdan keyin biz tomonlarga boring, tomosha qilib, qidirib kelasiz.
- U yerdagilarning ham bari sotsialistlarmi?
- Hammasi.
- U yaxshi shaharmi?
- Yaxshi ham gapmi. Siz bunaqasini sira ko‘rmagansiz.

– Qanday qilib sotsialist boʻlib qoldingiz?

– Biz hammamiz sotsialistlarmiz. U yerda kattadan kichik – hamma sotsialist. Biz hamma vaqt sotsialist boʻlganmiz.

– Bir boring, tenente. Sizni ham sotsialist qilib qoʻyamiz.

Yoʻl oldinda chapga burilib tosh devor bilan oʻralgan mevazor bogʻ yonidan oʻtib tepalikka koʻtarildi. Tepalikka koʻtarilayotganimizda ular jim boʻlib qolishdi. Hammamiz bir qator boʻlib, jadallab borardik.

## **Oʻttizinchi bob**

Birozlardan keyin daryoga olib boradigan yoʻlga chiqdik. Tashlab ketilgan yuk mashinalari bilan aravalar to koʻprikkacha choʻzilib yotardi. Odam zoti koʻrinmasdi. Daryoda suv toʻlib oqar, koʻprik qoq belidan portlatilgandi. Koʻprikning tosh qubbasi daryoga qulab tushgan, qoʻngʻir suv uning ustidan oqib oʻtardi. Biz kechib oʻtgani joy axtarib daryo yoqalab ketdik. Men sal nariroqda temir yoʻl koʻprigi borligini bilardim, shoyad oʻsha yerdan narigi qirgʻoqqa oʻtib olsak, deb oʻyladim. Soʻqmoq yoʻl chilp-chilp loy edi. Odamlar koʻrinmas, hamma yoqda faqat tashlab ketilgan narsalar yotardi. Qirgʻoqning oʻzida ham hoʻl butalar-u, botqoq yerdan boshqa hech narsa yoʻq edi. Qirgʻoqni yoqalab borib, nihoyat temir yoʻl koʻprigini koʻrdik.

– Chiroyliligini qarang, – dedi Aymo. Bu odatda, suv tagigacha qurib qoladigan daryo ustiga qurilgan uzun temir koʻprik edi.

– Kelinglar, tezroq narigi tomonga oʻtib olaylik, hali zamon portlatib yuborishlari ham mumkin, – dedim.

– Kim portlatardi, – dedi Piani. – Hamma ketib boʻlibdi-yu.

– U minalangan boʻlishi mumkin, – dedi Bonello. – Siz birinchi boʻlib yuring.

– Voy, manavi anarxistni tomosha qilinglar-a? – dedi Aymo. – O‘zing bor birinchi bo‘lib.

– Men boraman, – dedim. – Minasi bo‘lsayam, bitta odamning qadamidan portlab ketmas, axir.

– Ko‘rdingmi, – dedi Piani. – Aqlli odam degan bundoq bo‘libdi, bu senga anarxist-panarxist emas.

– Men aqlim bo‘lganida bu yerlarda yurmagan bo‘lardim, – dedi Bonello.

– Yomon emas, yomon emas, a, rani, tenente, – dedi.

– Aymo.

– Yomonmas, – dedim. Biz ko‘prik oldiga borib qolgandik. Osmonni yana bulut burkab, yomg‘ir ivirsiray boshlagandi. Ko‘prik juda ham uzun hamda baquvvat bo‘lib ko‘rinardi. Biz temir yo‘l ko‘tarmasiga tirmashib chiqdik.

– Bitta-bittadan bo‘lib o‘tamiz, – dedim va ko‘prikka qadam qo‘ydim. Men temir yo‘l izlarini, shpallarni mina asoratlari yo‘qmikin deb qarab borardim, shubhali biron narsa ko‘rinmadi. Pastda shpallar orasidan bo‘tana bo‘lib oqayotgan sershitob daryo ko‘rinib turardi. Oldinda bo‘kkan dalalarning narigi tomonida elas-elas Udina ko‘zga chalinardi. Ko‘prikdan o‘tib atrofga alangladim. Oqim bo‘ylab sal yuqoriroqda yana ko‘prik bor ekan. Men qarab turgan mahalimda o‘sha ko‘prikdan hamma yog‘iga loy sachragan sariq yengil mashina o‘tib ketdi. Ko‘prik panjarasi juda baland edi, shuning uchun mashina ko‘prikka chiqishi bilanoq ko‘zga ko‘rinmay qoldi. Lekin men shofyorni, uning yonida va orqada o‘tirganlarning boshlarini ko‘rdim. To‘rtovlari ham nemis kaskasida edilar. Mashina qirg‘oqqa chiqdi-da, daraxtlar, tashlab ketilgan transport orqasida ko‘rinmay qoldi. Men orqadan o‘tib kelayotgan Aymoga, keyinda qolganlarga tezroq bo‘linglar, deb ishora qildim. Men pastga tushib temir yo‘l ko‘tarmasining tagida o‘tirdim. Aymo ketimdan tushib keldi.

– Siz mashinani ko‘rdingizmi? – so‘radim.

– Yo‘q. Biz sizga qarab turgandik.  
– Yuqori ko‘prikdan nemislarning shtab mashinasi o‘tib ketdi.

– Shtab mashinasi deysizmi?

– Ha.

– Yo Bibi Maryam!

Boshqalar ham yetib kelishdi, hammamiz ko‘tarma tagida, loyda o‘tirdik, ko‘tarma osha daraxtlar, zovur va yo‘l ko‘rinib turardi.

– Biz qurshovda qolibmizmi, tenente?

– Bilmadim. Men faqat nemis shtab mashinasi yo‘ldan o‘tganini ko‘rdim.

– Sog‘ligingiz joyidami, tenente? Boshingiz aylanmayaptimi?

– Hazilni yig‘ishtiring, Bonello.

– Ichmaymizmi, a? – so‘radi Piani. – Qurshovda qolgan bo‘lsak, o‘lar dunyoda ichib qolaylik. – U flyagasini kamaridan bo‘shatib oldi-da, og‘zini burab ochdi.

– Qaranglar! Qaranglar! – dedi Aymo yo‘lni ko‘rsatib. Ko‘prikning temir panjarasi tepasidan nemis kaskalari o‘tib borardi. Ular biroz oldinga tomon enkaygan, xuddi suzib ketayotganday bir maromda shitob bilan o‘tib bormoqda edilar. Kaskalar qirg‘oqqa yetganda ularning egalarini ham ko‘rdik. Bu velosipedchilar rotasi edi. Men, ayniqsa, oldinda borayotgan ikkitasini yaxshi ko‘rib turardim. Ular chayir, baquvvat yigitlar edi. Kaskalarni bostirib kiyishgan, shuning uchun yuzlarining bir yog‘i ko‘rinmasdi. Karabinlari velosipedlarining ramasiga tirkab qo‘yilgandi. Qo‘l granatalarini dastasini pastga qilib bellariga osib olishgandi. Ularining kaskalari bilan kulrang mundirlari nam bosgan, shoshilmay yurib, tevarak-atrofnı kuzatib borardilar. Oldinda ikki kishi, keyin bir qator bo‘lib to‘rt kishi, undan keyin bir yo‘la o‘n-o‘n ikki kishi, keyin yana, o‘n, keyinda bitta odam alohida borardi. Ular gaplashmasdan ketishardi, lekin gaplashayotgan taqdirlarida ham



baribir daryoning shovqinidan gaplarini eshitmagan bo'ldik. Ular yo'lga chiqib, ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

– Yo Bibi Maryam! – dedi Aymo.

– Bular nemislar, – dedi Piani. – Bular avstris emas.

– Nega ularni bu yerda hech kim to'xtatmaydi? – dedim men. – Nega bu ko'prik portlatilmagan? Nega ko'tarmalarga pulemyotlar o'rnatilmagan?

– Buni siz bizga aytib bering, tenente, – dedi Bonello. Azbaroyi qonim qaynab, g'azabdan yonib ketdim.

– Hammasi jinni bo'lib qolgan. Pastda kichkina ko'prikni portlatib, katta yo'ldagi ko'prikni butun qoldirishadi. Qayerda ular o'zi? Bularni to'xtatadigan azamatlar bormi o'zi?

– Buni sizdan eshitamiz, tenente, – deb takrorladi Bonello.

Men indamadim. Bularning menga aloqasi yo'q. Menga uchta sanitar mashina bilan Pordenonega borish topshirilgandi. Bu qo'limdan kelmadi. Endi men shundoq o'zim Pordenonega yetib olishim kerak: lekin, xudo shohid, men bu ahvolda hatto Udinaga ham yetib borolmaydiganga o'xshayman. Bo'lar ish bo'ldi. Endi og'ir bo'lish kerak, o'qqa uchmaslik, asirga tushmaslikning chorasini topish kerak.

– Siz vinoni ochgandingiz, shekilli? – so'radim men Pianidan. U menga flyagani uzatdi. Men to'yib ichdim. – Ketdik, – dedim men. – Aytganday, shoshadigan joyimiz yo'q. Tamaddi qilib olasizlarmi?

– Bu yer to'xtab turadigan yer emas, – dedi Bonello.

– Mayli, unda yuringlar.

– Ko'tarmaning tagidan yurib boramizmi?

– Yaxshisi tepadan yurish kerak. Ular bu ko'prikdan ham o'tishlari mumkin. Tepamizga kelganlarini ko'rmay qolsak, chatoq bo'ladi.

Biz temir yo'ldan yurib ketdik. Ikkala tomonimiz bo'kkan dala. Dalaning naryog'ida, oldinda tepalik bor, undan narida Udina. Tepalikdagi qal'a atrofida-

gi uylarning tomlari ko'rinardi. Qo'ng'iroqxona bilan minora soati ko'zga tashlanardi. Dalalarda tut daraxtlari ko'p edi. Bir joyda temir yo'lni buzib ketishibdi. Shpallarni kovlab olib ko'tarma tagiga uloqtirishibdi.

– Pastga, pastga! – dedi Aymo.

O'zimizni ko'tarma tagiga otdik. Yo'ldan velosipedchilarning yangi bo'linmasi o'tib borardi. Men ko'tarmaning chetidan qarab, ularning o'tib ketganlarini ko'rdim.

– Ular bizni ko'rsalar ham to'xtaganlari yo'q, – dedi Aymo.

– Hammamizni bu yerda bitta-bittadan otib tashlashadi, tenente, – dedi Aymo.

– Bizning ularga keragimiz yo'q, – dedim men. – Ular boshqa birovning ketidan quvishmoqda. Biz ularning oyoqlari tagidan chiqib qolsak, unda yomon bo'ladi.

– Menga qolsa, shu panaroq yerdan yurgan bo'lardim, – dedi Bonello.

– Yuravering. Biz tepadan boramiz.

– O'tib olishimizga ishonasizmi? – so'radi Aymo.

– Albatta. Ular hali ko'p emas. Qorong'i tushganda o'tib ketamiz.

– Shtab mashinasi bu yerda nima qilib yuribdi?

– Kim biladi deysiz? – dedim men. Biz temir yo'lizidan borardik. Bonello loydan yurib charchadi, shekilli, bizning yonimizga chiqib oldi. Temir yo'l biroz janubga qarab burilgandan keyin biz yo'lda nima bo'layotganligini ko'rmay qoldik. Kanal ko'prigi portlatilgan ekan, biz qolgan-qutgan to'sinlardan bir amalab o'tib oldik. Oldinda otishmalar eshitilmoqda edi.

Kanaldan o'tgach, biz yana temir yo'lga chiqib oldik. Yo'l dalalardan o'tib to'g'ri shaharga olib borardi. Shimol tomonda velosipedchilar o'tib ketgan yo'l, janubroqda uncha katta bo'lmagan yo'l ikkiga ajralib quyuq daraxtlar ichiga kirib ketardi. Men janubroqdan ketganimiz ma'qul, degan qarorga keldim. Shunda biz

shaharni aylanib o'tib, dala yo'ldan Kampoformio va Talyamento yo'lga chiqardik. Biz chekinayotgan asosiy yo'llardan emas, uning biqinidagi yo'llardan borsak bo'lardi. Men vodiyan juda ko'p dala yo'llari o'tganligini bilardim. Ko'tarmadan tusha boshladim.

– Yuringlar, – dedim. Men dala yo'li orqali shaharni janubdan aylanib o'tishga qaror qildim. Qarshi tomondan, dala yo'lidan bizga qarata o'q uzildi. O'q ko'tarmaning loyiga kirib ketdi.

– Orqaga! – qichqirdim men. Men qiyalikdan loyda sirpanib tepaga yugurdim. Shofyorlar mening oldimda chopib borishardi. Ko'tarmaga kuchim yetgancha tez ko'tarildim. Quyuq butazor orasidan yana ikki marta o'q otishdi. Shunda izdan o'tayotgan Aymo gandraklab ketdi, qoqildi va yuz tuban yiqildi. Uni narigi tomonga olib o'tib chalqancha ag'dardik. – Boshini yuqoriroq qilib qo'yinglar, – dedim. Piani uni surib qo'ydi. U qiyalikda oyog'ini pastga osiltirib yotar, nafas olganda xirqirab qon otilib chiqardi. Biz uchovlon uning atrofiga tizzamiz bilan o'tirib olgandik. Yomg'ir yog'ardi. O'q uning ensasiga tegib, yuqoriga o'tib, o'ng ko'zining tagidan chiqib ketgandi. Men o'q izlarini berkitishga harakat qilayotganimda u o'ldi. Piani Aymoning boshini yerga qo'ydi, dala paketidan bir parcha doka olib uning yuzini artdi, keyin o'rnidan turdi.

– Ifloslar! – dedi u.

– Bular nemis emas, – dedim men. – Bu yerda nemislar bo'lishi mumkin emas.

– Italianlar, – dedi Piani xuddi so'kkanday qilib.

Bonello miq etmasdi. U Aymoning yonida unga qaramay o'tirardi. Piani Aymoning pastga tushib ketgan kepkasini oldi va uning yuzini yopib qo'ydi. U o'zining flyagasini chiqardi.

– Ichasizmi? – Piani flyagani uzatdi.

– Yo'q, – dedi Bonello. U menga o'girildi. – Tepada yurganimizda hammamiz ham shu ahvolga tushishimiz mumkin edi.

– Yo‘q, – dedim men. – Biz daladan ketmoqchi bo‘lganligimiz uchun shunday bo‘ldi.

Bonello boshini chayqadi. – Aymo halok bo‘ldi, – dedi u. – Endi kimning navbati, tenente? Endi qayerga bordik?

– Italyanlar otishdi, – dedim men. – Bular nemislar emas.

– Nemislar bu yerda bo‘lganda hammamizni otib tashlagan bo‘lardilar, – dedi Bonello.

– Italyanlar bizga hozir nemislardan ham xavfliroq, – dedim. – Arergard hamma narsadan qo‘rqadi. Nemislar-ku, nima qilayotganlarini bilishadi-ya.

– Gapingiz juda to‘g‘ri, tenente, – dedi Bonello.

– Endi qayoqqa boramiz? – so‘radi Piani.

– Yaxshisi, biron yerda qorong‘i tushguncha kutib yotish kerak. Agar biz janubga o‘tib olsak, hammasi yaxshi bo‘ladi.

– Ular bittamizni bekordan-bekorga o‘ldirmaganlarini isbotlash uchun hammamizni o‘ldirishdan ham toymaydilar, – dedi Bonello. – Men tavakkal qilishni xohlamayman.

– Udinaga yaqinroq biron yerda kutib yotamiz-da, qorong‘i tushgandan keyin o‘tib ketamiz.

– Unda ketdik, – dedi Bonello.

Biz ko‘tarmaning shimoliy qiyaligidan pastga tushdik. Orqamga qaradim. Aymo temir yo‘lga yarim qiya bo‘lib yotardi. U juda ham kichkina edi, qo‘llari yonlariga tushirilgan, loy bo‘lib ketgan oyoqlari birlashtirib qo‘yilgan, yuziga bosh kiyimi yopilgandi. Uning jasaki g‘oyat ayanhli ko‘rinardi. Yomg‘ir quyib turardi. Men hech kimga Aymoga qaraganday yaxshi munosabatda bo‘lgan emasman. Uning qog‘ozlarini cho‘ntagimga solib olgandim, hali uning oilasiga bu haqda xabar berishimni bilardim. Dalalarning etagida ferma ko‘rindi. Ferma atrofini daraxtlar qurshagan. Qo‘rg‘onning gir-atrofiga yordamchi uylar tushgan, boloxonadan

tashqariga to'sinlar chiqarilib, ustiga sinchli ayvon solingandi.

– Bir-birimizdan uzoqroq masofada yurganimiz ma'qul, – dedim ularga. – Oldinda men boraman.

Men fermaga qarab yurdim. Daladan fermaga so'qmoq tushgan edi.

Daladan o'tib borarkanman, qo'rg'on atrofidagi daraxtlardan yoki qo'rg'onning o'zidan turib bizga qarab o't ochishlari mumkinligi ichimda bir bor aniqlab olgandim. Men ro'paramda aniq-taniq ko'rinib turgan uyga tomon bordim. Boloxona ayvoni somonxona bilan tutashgan bo'lib, sinchlar orasiga xashak bostirilgandi. Hovli sahniga tosh terilgan, daraxtlarning shoxlaridan yomg'ir tomchilari oqib tushardi. O'rtada shotisi osmonga ko'tarilgan ikki g'ildirakli kattakon arava bo'm-bo'sh yotardi. Hovlidan o'tib, ayvon tagida birpas turdim. Eshik ochiq edi, ichkariga kirdim. Bonello bilan Piani ketma-ket yetib kelishdi. Uyning ichi qopqorong'i edi. Men oshxonaga o'tdim. Og'zi lang ochiq hayhotday o'choqning kuli olinmagandi. O'choq ustida idishlar turar, lekin hammasi bo'sh edi. Men u yoq bu yoqni timirskilab chiqdim, lekin yegulik biron narsa topmadim.

– Somonxonada qorong'i tushishini kutamiz, – dedim. – Piani, agar yegulik biron narsa topsangiz, shu yerga olib kelarsiz.

– Qidirib ko'ray-chi, – dedi Piani.

– Men ham boraman, – dedi Bonello.

– Mayli, – dedim. – Men somonxonani ko'rib kelay.

Men og'ilxonadan tepaga olib chiqadigan tosh zinani qidirib topdim. Og'ilxonadan quruq xashak hidi anqir, yomg'ir yog'ayotganda bu hid, ayniqsa, yoqimli tuyulmoqda edi. Mollarni ham haydab ketishgan, shekilli, molxona bo'm-bo'sh turibdi. Pichanxonaning yarmiga pichan bostirilgandi. Boloxonada ikkita darcha bor edi, ulardan biri mixlab tashlangan, ikkinchi-

si – shimol tarafda edi. Burchakda xashakni pastga, ogʻilga tashlash uchun qilingan nov bor edi. Yana tom-  
da ogʻzi hovliga qaragan tuynuk ham bor edi, oʻrim  
paytida pichanni shu yerdan boloxonaga uzatishsa  
kerak. Tuynuk ustida sinchlar bir-biriga qoʻshilgan  
edi. Pichanxonada tomga yogʻayotgan yomgʻirning  
shitirlashi eshitilar, pichan hidi anqirdi, pastga tush-  
ganimda ogʻilxonadan qurigan tezakning hidi dimoq-  
qa yoqimli urildi. Janub tomondagi derazadan bitta  
taxtasini olib qoʻyilsa, hovlini bemalol kuzatib yotsa  
boʻladigan. Boshqa darcha shimolga qaragan boʻlib,  
undan dala koʻrinib turardi. Agar zinadan tushishga  
imkoniyat boʻlmay qolsa, istagan darchadan boloxo-  
naga chiqib, u yerdan pastga tushsa boʻlardi, pastga  
nov orqali ham sirpanib tushish hech gap emasdi.  
Pichanxona keng edi, odam sharpasi sezilishi bilanoq,  
gʻaram ichiga urib ketish mumkin edi. Har holda bu  
qoʻrgʻonda yashirinib turish imkoniyati yoʻq emasdi.  
Agar oʻq otib yoʻlimizni toʻsishmaganda, biz janub-  
ga oʻtib olishimizga ishonchim komil edi. Bu yerda  
nemislar boʻlishi mumkin emas. Ular shimoldan va  
Chividale yoʻlidan kelishmoqda. Ularning janub to-  
mondan frontni yorib oʻtishlari aqlga toʻgʻri kelmasdi.  
Italyanlar dushmandan ham yomon. Ular qoʻrqib ket-  
ganlaridan duch kelgan odamni otib tashlayveradi-  
lar. Oʻtgan kecha kolonnada shimolda chekinayotgan  
armiyada italyan mundirini kiyib olgan nemislar koʻp  
ekan, degan mish-mishlarni eshitgandik. Men bunga  
ishonmovdim. Bunaqa gaplar urushda tez-tez boʻlib  
turadi. Dushman hamisha shunday gaplarni tarqa-  
tadi. Siz hech qachon kimdir nemis mundirini kiyib  
german armiyasining toʻpolonini chiqaribdi, degan  
gapni eshitmaysiz. Balki bunday voqealar boʻlib tur-  
sa kerag-u, lekin bu haqda hech kim gapirmaydi.  
Men nemislar bunaqa gaplar bilan shugʻullanib yur-  
maydilar, deb oʻylardim. Buning ularga nima keragi

bor. Chekinayotgan armiyada ola-shovur chiqarishdan ular nima naf ko'radilar. Mish-mishlar chiqishiga qo'shinlarning ko'pligi, yo'llarning yetishmasligi sabab bo'ladi. Bu yerda nemislarsiz ham kalavaning uchini topib bo'lmaydi. Shunga qaramasdan bizni italyancha kiyinib olgan nemis deb otib tashlashlari hech gap emas. Aymoni otib tashlashdi-ku. Pichan yoqimli hid taratadi, pichanxonada yotganingda vaqt tuyg'usini yo'qotasan. Biz bir mahallar pichanxonada gaplashib yotganimiz, boloxona shiftidagi kichkina tuynukka qo'ngan chumchuqlarni paxtavon pilta miltiqdan otganlarimiz xotiramdan lip etib o'tadi. Endi u pichanxonalar yo'q, bir yili qarag'ayzorni kesib tashlashdi, ilgari o'rmon shovillab turgan yerda hozir faqat to'ngaklar, qaqshab yotgan so'xta daraxt tanalarigina qolgan. Orqaga qaytib bo'lmaydi. Agar oldinga yurilmasa, nima bo'ladi? Milanga qaytib bormaysan. Milanga borganingda nima qilasan? Shimolda Udina tomondan o'q ovozlari kelardi. Pulemyotning tarillagani eshitilardi. Nimagadir to'plarning ovozi chiqmasdi. Shu ham katta gap. Aftidan, qo'shinning bir qismini yo'lga tashlashgan, shekilli. Pastda g'ira-shira bo'lib hovlida, Piani ko'rindi. U qo'ltig'iga uzun kolbasa bilan qandaydir ikki shisha vino qistirib olgandi.

– Yuqoriga chiqing, – dedim unga. – Huv anavi yerda zina bor.

Keyin unga yordam berish kerakligini o'ylab pastga tushdim. Pichanda yotaverib, boshim aylanib qolibdi. Men xuddi mudroq bosgan odamga o'xshardim.

– Bonello qani? – so'radim.

– Hozir aytaman, – dedi Piani. Biz zinadan ko'tarildik. G'aramga o'tirib, keltirgan narsalarimizni qo'ydik. Piani parmali pichog'ini oldi-da, shishalardan birini ocha boshladi.

– Mum bilan mahkamlangan ekan, – dedi u. – Bir maza qiladigan bo'ldik. – U jilmayib qo'ydi.

– Bonello qani? – soʻradim undan. Piani menga qaradi.

– U ketdi, tenente, dedi u. – U asir tushaman dedi. Men indamadim.

– Oʻzini oʻldirib qoʻyishlaridan qoʻrqdi.

Men vino shishasini qoʻlimda tutganча indamasdim.

– Bilasizmi, tenente, biz umuman, urushga tarafdor emasmiz.

– Nega siz u bilan birga ketmadingiz? – soʻradim men.

– Sizni tashlab ketgim kelmadi.

– U qayerga ketdi?

– Bilmadim, tenente. Ketdi-qoldi.

– Yaxshi, – dedim. – Kolbasani kesing.

Piani gʻira-shirada menga qaradi.

– Men gaplashib oʻtirib kesib qoʻygan edim, – dedi u. Biz pichanda oʻtirib kolbasa yedik, vino ichdik. Bu vinoni toʻyga saqlab qoʻygan boʻlsalar kerak. U eskiligidan tusini yoʻqotgandi.

– Siz manavi darchaga qarang, Luiji, – dedim. – Men bunisiga qarayman.

Har birimiz bittadan shishani olvoldik, men oʻz shisham bilan yuqoriroq surildim-da, qornim bilan yotib olganча torgina darchadan yomgʻirda boʻkkan dalaga qaray boshladim. Nimani koʻrmoqchi boʻlganimni bilmayman-u, lekin dalalar, yalangʻoch tutlar va yomgʻirdan oʻzga hech narsani koʻrmadim. Vino ruhimni koʻtarmadi. Uni uzoq saqlaganlari tufayli u oʻz rangi bilan mazasini yoʻqotgandi. Qorongʻilik burkab kelmoqda. Juda tez qorongʻi tushmoqda. Zimiston tun boʻladi, chunki yomgʻir yogʻmoqda. Hamma yoq butunlay qorongʻilikka choʻmgach, darchaga qarashning foydasi boʻlmay qoldi. Pianining yoniga oʻtdim. U uxlab yotardi, men uni uygʻotmadim, jimgina yonida oʻtirdim. U azamat yigit edi, uyqusi mardona edi. Biroz turib men uni uygʻotdim va biz yoʻlga tushdik.



Bu juda g'alati tun edi. Bilmadim, nimani kutgan edim – balki o'limimni kutgandirman, otishmalar, qorong'ida quvg'inlar bo'ladi, deb o'ylagandirman, lekin hech narsa bo'lmadi. Biz zovur orqasida nemis bataloni o'tib bo'lguncha qornimizni loyga berib yotdik-da, keyin u ko'zdan nari ketgach, yo'lni kesib o'tib, shimol tomonga qarab ketdik. Yomg'irda ikki marta nemislarga yaqin borib qoldik, lekin ular bizni ko'rmadilar. Biz bironta ham italyanni uchratmay shaharni shimol tomondan aylanib o'tdik, keyin ko'p o'tmay asosiy chekinish yo'liga chiqib oldik-da, tuni bilan Talyamentoni mo'ljalga olib yo'l bosdik. Men avval chekinish bu qadar katta bo'ladi deb o'ylamagan ekanman. Butun mamlakat armiya bilan birga borardi. Kechasi bilan transportlarni quvib o'tib yurdik. Oyog'im zirqirab og'rir, o'zim charchagandim, lekin biz juda tez ketib borardik. Bonelloning asir tushmoqchi bo'lgani bizga endi ahmoqlik bo'lib tuyula boshladi. Hech qanday xavf-xatar yo'q edi. Biz ikki armiya o'rtasidan omon-eson o'tib oldik. Aymoning halok bo'lganligini aytmaganda, go'yo hech qanday xatar bo'lmaganday edi. Biz temir yo'ldan oppa-ochiq borayotganimizda hech kim bizga tegmadi. Halokat kutilmaganda – be-ma'ni suratda oyoq ostidan chiqdi. Men hozir Bonello qayerdaligini o'ylab borardim.

– Ahvolingiz qalay, tenente? – so'radi Piani.

Biz transport va qo'shinlar bilan tirband bo'lib ketgan yo'l chekkasidan ketayotgan edik.

– Yaxshi.

– Men yurib charchadim.

– Bizni endi yurishdan boshqa ishimiz yo'q. Yo'lning yomoni orqada qoldi.

– Bonello bekor qildi-da.

– Ha, bekor qildi.

– Uni endi nima qilmoqchisiz, tenente?

– Bilmadim.

– Uni asir olinganlar qatoriga qo‘shib qo‘ya olmay-sizmi?

– Bilmadim.

– Agar urush davom etadigan bo‘lsa, uning ota-onasini javobgarlikka tortishlari mumkin.

– Urush davom etishi mumkin emas, – dedi qandaydir bir soldat. – Urush tugadi. Biz uyga ketyapmiz.

– Hamma uyga ketyapti.

– Biz hammamiz uyimizga ketyapmiz.

– Tezroq yuring, tenente, – dedi Piani. U tezroq ularning yonlaridan o‘tib ketmoqchi edi.

– Tenente? Kim bu yerda tenente? Abasso gli uffici-ali! Yo‘qolsin ofitserlar!

Piani meni qo‘ltiqlab oldi.

– Men yaxshisi, sizni ismingizni aytib chaqiraman, – dedi u. – Yana bir kor-hol bo‘lib yurmasin. Ofitserlarni jazolashgan paytlari bo‘lgan.

Biz qadamlarimizni tezlatib, ulardan nariga o‘tib ketdik.

– Men uning ota-onalarini javobgarlikka tortishmaydigan bir yo‘lini qilaman, – dedim boyagi gapni davom ettirib.

– Agar urush tugagan bo‘lsa, baribir, – dedi Piani. – Lekin men uning tamom bo‘lganligiga ishonmayman. Urushishdan to‘xtab, bo‘ldi endi bu yog‘iga dorilamon deb yuborishmas sira.

– Bu tezda ma‘lum bo‘ladi, – dedim.

– Men uning tamom bo‘lganligiga ishonmayman. Hamma tamom bo‘ldi, deb yuribdi, lekin men bunga ishonmayman.

– Viva La Rase!<sup>1</sup>, – qichqirdi qandaydir soldat. – Uyga ketyapmiz.

– Qani edi hammamiz uy-uyimizga ketsak, – dedi Piani. – Sizning uyga ketgingiz kelyaptimi?

---

<sup>1</sup> Yashasin tinchlik! (ital.)

– Ha.

– Uyga ketib bo‘pmiz. Men urush tugaganligiga ishonmayman.

– Andiamo a casa!<sup>1</sup> – qichqirdi soldat.

– Ular miltiqlarini uloqtirishyapti, – dedi Piani.  
– Yelkalaridan olib otib yuborishyapti. Keyin qichqirishyapti.

– Miltiqlarini bekor tashlashyapti.

– Miltig‘imizni tashlasak, urushdan ozod qilishadi deb o‘ylashyapti, shekilli.

Yomg‘irda chekkadan yurib o‘zimga yo‘l ochib bo-rarkanman, ko‘p soldatlar miltiqlarini tashlamagan-larini ko‘rdim. Miltiqlar yelkalardan chiqib turardi.

– Qaysi brigadadan? – so‘radi ofitser.

– Brigata di Rase! – qichqirdi kimdir. – Tinchlik brigadasidan.

Ofitser indamadi.

– Nima deyapti? Ofitser nima deyapti?

– Yo‘qolsin ofitser! Viva la Rase!

– Tezroq yuring, – dedi Piani.

Biz boshqa mashinalar qatorida tashlab ketilgan ikkita ingliz sanitar avtomobilini ko‘rdik.

– Goritsiyadan, – dedi Piani. – Men bu mashinalarni bilaman.

– Ular bizdan o‘zib ketishgan ekan-da.

– Ular yo‘lga bizdan oldinroq chiqishgan.

– Qiziq. Shofyorlari qani?

– Oldinroqda bo‘lsa kerak.

– Nemislar Udinada qolishibdi, – dedim. – Hamma-miz daryodan o‘tib olamiz.

– Ha, – dedi Piani. – Shuning uchun ham urush davom etadi deyapman-da.

– Nemislar bundan ham ichkariroqqa kirib kelish-lari mumkin edi, – dedim. – Qiziq, nega ular birdan to‘xtab qolishdi ekan?

---

<sup>1</sup> Hamma uy-uyiga! (ital.)

– Tushunib bo‘lmaydi. Bu urushga sira ham tushunib bo‘lmay qoldi.

– Ular keyingi qismlar kelishini kutishgan, shekilli.

– Hech aqlim yetmaydi, – dedi Piani. U bir o‘zi bo‘lganda ancha bama’ni yigit ekan. Boshqa shofyorlar ichida bo‘lganda boyagiday og‘zi yomon shaloq bo‘lib ketardi.

– Uylanganmisiz, Luiji?

– Uylanganimni bilasiz-ku.

– Shuning uchun asirga tushishni istamadingizmi?

– Qisman shuning uchun ham. O‘zingiz uylanganmisiz, tenente?

– Yo‘q.

– Bonello ham uylanmagan.

– Hamma narsani uylangan, uylanmaganligiga qarab hal qilish mumkin emas. Lekin uylangan odam bola-chaqasining oldiga qaytgisi keladi. – Men oila haqida suhbatlashgim kelib turardi.

– Shunday.

– Oyog‘ingiz tuzukmi?

– Og‘riyapti.

Tong oqarib kelayotganda biz Talyamento qirg‘og‘iga yetdik, to‘lib oqayotgan daryo bo‘ylab yurib, ko‘prikka yaqinlashdik.

– Shu daryoda mustahkamlanib olsalar bo‘lardi, – dedi Piani. G‘ira-shirada daryo juda ko‘tarilib qolgan-ga o‘xshardi. Suv girdob bo‘lib oqar, daryoning o‘zani kengayib ketgandek edi. Taxta ko‘prikning uzunligi bir chaqirim kelar-kelmas bo‘lib, odatda, keng, toshloq o‘zanining tagidagina irmoq-irmoq bo‘lib oqadigan daryoning suvi hozir ko‘prikning tagiga tegay-tegay deb turardi. Qirg‘oqdan borib, to‘daga qo‘shildik-da, ko‘prikdan o‘ta boshladik. Yomg‘irda ohista qadam tashlab borarkanman, odamlar orasida qisilib, oldimdagi zaryadlar yashigiga ag‘darilib ketay deya-deya, bir oyog‘imdan salgina pastda oqayotgan daryoga, bir te-

varak-atrof, tumonatga nazar tashlardim. Qadamim-ni boshqalarning oyoq olishiga qarab qo'yarkan-man, o'zimni juda qattiq holdan toyganday sezdim. Ko'priktan o'tayotganlarning hammasi nimagadir noxush ko'rinardi. Men agar kunduz kuni bu yerga samolyotdan bomba tashlangudek bo'lsa, qanday qi-yomat-qoyim qo'pishi mumkinligini o'ylab borardim.

– Piani! – deb chaqirdim.

– Men bu yerdaman, tenente, – odamlar uni men-dan sal ilgariroqqa surib ketishgandi. Biron kimsa miq etib og'zini ochmasdi. Har kim tezroq o'tib olish-ni o'ylar, shundan boshqasini xayoliga keltirmasdi. Biz o'tay deb qolgandik. Ko'prikning narigi boshida, ikki tomondan fonusli ofitserlar bilan karabinerlar turishardi. Ular yorishib kelayotgan osmon fonida qorayib ko'rinardilar. Men yaqinroq borganimda bir ofitser kolonnadagi qandaydir bir odamni qo'li bi-lan ko'rsatganini ko'rdim. Karabiner o'sha odamni yelkasidan tutib olib chiqdi. Yo'ldan bir chetga olib bordi. Biz ofitserlarga yetay deb qoldik. Ular kolon-nada o'tayotgan har bir kishining basharasiga tikilib qarashar, ba'zan bir-birlari bilan g'ujillashib, oldin-ga o'tishardi-da, kimningdir yuziga fonus tutishar-di. Biz ular bilan baravarlashganda, yana birovni olishdi. Tutilgan odam podpolkovnik edi. Unga fonus tutishganda yelkasidagi yulduzlarini ko'rdim. Uning sochlari oqarib ketgan, miqtidan kelgan odam edi. Karabinerlar uni ko'priktan nariga sudrab ketdilar. Biz ofitserlar bilan baravarlashganda, ular menga qarayatganlarini ko'rdim. Keyin birovi meni ko'rsa-tib, karabinerga nimadir dedi. Karabiner kolonnani yorib o'tib men tomonga kelayotganini ko'rdim, ke-yin u mening yoqamdan ushlab oldi.

– Nima gap? – dedim va basharasiga qarab urdim. Men uning shlyapa bostirilgan yuzini, shopday mo'ylovlari, yuzidan oqib tushayotgan qonni ko'rib

turardim. Yana biri o'zini izdihomga urib biz tomonga kela boshladi.

– Nima gap? – so'radim men. U javob bermasdi. Meni tutib olishga payt mo'ljallardi. Men to'pponchamni olish uchun qo'limni olib bordim. – Nima, sen ofitserga tegish mumkin emasligini bilmaysanmi?

Ikkinchisi kelib orqamdan yopishdi va qo'limni shunday tortdiki, azbaroyi xudo, qo'lim chiqib ketdi, deb o'yladim. Men unga o'grildim, shunda birinchisi bo'yimdan qisib ushlab oldi. Men uni oyoqlarim bilan tepdim, chap tizzam bilan chotiga tushirdim.

– Qarshilik ko'rsatilsa, otib tashlang, – degan kimningdir ovozini eshitdim.

– Nima gap o'zi? – deb qichqirmoqchi bo'ldim, lekin tovushim g'o'ldirab chiqdi. Bu orada ular meni yo'l chekkasiga sudrab chiqarishgandi.

– Qarshilik ko'rsatsa, otib tashlang, – dedi ofitser. – Olib keting uni.

– Kimsizlar o'zi?

– Keyin bilasiz.

– Kimsizlar o'zi?

– Dala jandarmeriyasi, – dedi boshqa ofitser.

– Menga bu samolyotlaringizni qo'yib yubormasdan, chaqirsangiz bo'lmasmidi?

Ular javob berishmadi. Javob berishga majbur emasdilar. Ular – dala jandarmeriyasi edi.

– Uni oborib boshqalarga qo'shib qo'ying, – dedi birinchi ofitser. – Eshityapsizmi, u italyanchani talaffuz bilan gapiryapti.

– Talaffuzim xuddi senikidan farq qilmaydi, iflos, – dedim.

– Uni boshqalarning oldiga oborib qo'ying, – dedi birinchi ofitser. Meni ofitserlarning yonidan olib o'tishib, daryo bo'yida bir to'da odamlar turgan yalanglikka keltirishdi. Biz borayotganda u yerdan o'q ovozlari eshitildi. Men miltiqlarning og'zidan chiqqan o'tni

ko'rdim, o'q tovushini eshitdim. Biz u yerga bordik. To'rtta ofitser yonma-yon turishar, ularning oldilarida ikki karabinerning o'rtasida qandaydir bir odam bor edi. Bulardan sal nariroqda karabinerlar soqchiligida bir qancha odamlar so'roqni kutib turishardi. Yana to'rtta karabiner so'roq qilayotgan ofitserlarning oldida karabinlariga suyanib turishardi. Bular keng ayvonli shlyapa kiygan edilar. Karabinerlar meni so'roq bo'lishini kutayotganlar ichiga itarib yuborishdi. Men so'roq qilinayotgan odamga qaradim. Bu boya kolonnadan tortib chiqarilgan, sochlari oqarib ketgan miqti podpolkovnik edi. Ofitserlar jiddiy turib, sovuqqonlik bilan so'roq olib borishardi, ular miltiqning og'zi o'zlariga qaratilmaganligiga ishonch hosil qilgach, bemalol, qo'rqmay otadigan italyanlardan edilar.

– Qaysi brigadadan?

U aytdi.

– Qaysi polkdan?

U aytdi.

– Nega polkingiz bilan birga emassiz?

U aytdi.

– Ofitser doim o'z qismi bilan birga bo'lishi kerakligi sizga ma'lummi?

Unga ma'lum ekan.

Savollar shu bilan tugadi. Gapni boshqa ofitser oldi.

– Siz va sizga o'xshaganlar tufayli varvarlar vatanimizning muqaddas chegaralarini buzib o'tishdi.

– Bema'ni gap, – dedi podpolkovnik.

– Sizga o'xshagan sotqinlar bizni g'alaba ne'matlaridan mahrum qilishdi.

– Siz o'zingiz hech chekinib ko'rganmisiz umringizda? – so'radi podpolkovnik.

– Italyanlar chekinmasliklari kerak.

Biz yomg'irda turib shu gaplarni eshitdik. Hamma-miz ofitserlar qarshisida turar, so'roq qilinayotgan kishi esa, bizdan oldinda sal chekkaroqda turardi.

– Agar meni otib tashlamoqchi bo'lsangizlar, – dedi podpolkovnik, – o'tinaman, boshqa so'roq qilib o'tirmay otib tashlang. Bu so'roq juda bema'ni. – U cho'qinib oldi. Ofitserlar bir-birlari bilan g'ujillashib olishdi. Bit-tasi yon daftarga allanimalarni yozdi.

– O'z qismini tashlab ketgani uchun otishga hukm qilinadi, – dedi u.

Ikki karabiner podpolkovnikni qirg'oqqa tomon olib ketishdi. Chol boshyalang alfozda yomg'irda ikki karabiner o'rtasida borardi. Men uni qanday otishganiga qaraganim yo'q, lekin miltiq ovozi eshitdim. Ular keyingi odamga o'tishgandi. Bu ham qismidan qolib ketgan ofitser edi. Uning gapini, hatto, eshitib ham o'tirishmadi. U daftar varag'iga yozilgan hukmni o'qiganlarida yig'lab yubordi, uni otishayotganda ular boshqa bir odamni so'roq qila boshlagan edilar. Ular birovni otishayotganda ikkinchi kimsani so'roq qilishga shoshilishardi. Ular bu yerda shundan boshqaga qodir emasliklari ko'rinib turardi. So'roqni kutaymi yoki qochaymi, bilmasdim. Men italyan mundirini kiyib olgan nemis bo'lib chiqishim turgan gap edi. Ularning qanday fikr qilayotganlarini, agar umuman bir fikrlari bo'lsa va fikr qilishga qodir bo'lsalar – bilardim. Bular hammasi yosh yigitlar edi va ular vatanga xaloskorlik qilmoqda edilar. Ikkinchi armiya Talyamentoda yangidan tashkil etilmoqda edi. Ular o'z qismlaridan ajralib qolgan mayor va undan yuqori unvonli ofitserlarni otmoqda edilar. Ayni zamonda ular italyan mundirini kiyib olgan nemis tashviqotchilarini ham otmoqda edilar. Ular po'lat kaskalar kiyib olgandilar. Bir qancha karabinerlar ham shunday kaskada edilar. Boshqalari ayvoni keng shlyapalar kiyishgandi. Samolyotlar, deb atashardi ularni bizda. Biz yomg'irda turar, bizni birin-sirin so'roq qilmoqda, otmoqda edilar. So'roq qilinganlardan birontasi ham hozirgacha otilmasdan omon qolgani yo'q. So'roq qiluvchilarda his degan narsaning



asari ko'rinmasdi, ular o'zlaricha temir qonunga rioya qilmoqda edilar. O'z hayotlari har qanday xavfdan holi bo'lgan bir vaziyatda boshqalarning hayotini jadal hal qilib tashlamoqda edilar. Ular shu tobda muntazam qo'shinlar polkovnigini so'roq qilmoqda edilar. Hozirgina yana uchta ofitserni olib kelishdi.

– Polkingiz qayerda?

Men karabinerlarga qaradim. Ular yangi qo'lga olinganlarga qarab turishardi. Boshqalarining ko'zi polkovnikda edi. Men ikki soqchi o'rtasidan sho'ng'idim, boshim bilan enkaygancha daryo tomonga qochdim. Qirg'oqqa yetay, deganimda qoqilib, shiddat bilan suvga otilib tushdim. Suv juda ham sovuq edi, jonimdan o'tib ketmaguncha suv yuziga chiqmadim. Meni oqim olib ketayotganini sezib turardim, cho'kib ketishga ko'zim yetgandan keyingina suv yuziga chiqdim. Bir zum havo olib turdim-da, so'ng yana suv tagiga sho'ng'idim. Harbiy forma bilan og'ir poyabzal oyog'ingda bo'lsa, suv tagida turish unchalar qiyin bo'lmas ekan. Men ikkinchi marta suv tepasiga suzib chiqqanimda, oldimda g'ola oqib borayotganini ko'rdim, unga yetib oldim-da, bir qo'llab quchoqlab oldim. Men boshimni uning panasiga oldimu mo'ralab qarashga ham botinmay, oqib ketaverdim. Qirg'oqni ko'rmasam, derdim. Men qochib ketayotganimda, birinchi marta suv yuziga ko'tarilganimda o'q ovozlari eshitdim. Bu tovushlarni suv tagiga chuqur tushmay suzayotganimda ham eshitgandim. Endi o'q ovozlari kelmay qo'ydi. G'ola suvda chayqalib borar, uni bir qo'lim bilan mahkam ushlab olgandim. Men qirg'oqqa ko'z tashladim. U juda ham tez orqaga ketayotganga o'xshab ko'rindi. Daryodan oqib borayotgan yog'ochlar ko'p edi. Suv juda ham sovuq edi. Biz butalar o'sib yotgan orolchadan o'tib ketdik. Men g'olaga ikki qo'lim bilan yopishib oldim va oqim meni o'z ko'yiga solib olib ketdi. Qirg'oq endi ko'rinmasdi.

## O'ttiz birinchi bob

Agar oqim zo'r bo'lsa, daryodan qancha suzib bo-rayotganingni bilolmaysan. Juda uzoq vaqtdan beri suzayotganga o'xshaysan, lekin aslida, ehtimol, uncha ko'p vaqt o'tmagan bo'ladi. Suv muzdek bo'lib, juda ham yuqoriga ko'tarilib ketgan, yuzida toshqin paytida qirg'oqdan qo'shilgan turli-tuman narsalar oqib kelmoqda edi. Baxtinga g'ola odam suyansa ko'taradigan darajada og'ir edi, shuning uchun engagimni g'olaning chetiga tirab, qo'llarim bilan uni iloji boricha yengilroq ushlashga harakat qilib, gavdamni muzdek suvga erkin qo'yib berdim. Men tomirlarim chagkak bo'lib qolmasin, deb qo'rqmoqda edim. Shuning uchun tezroq qirg'oqqa chiqishni istardim. Daryo quyi tomonga ilonizi bo'lib oqardi. Tong otmoqda edi, daryo qirg'og'idagi butalar ko'zga chalinadigan bo'lib qoldi. Oldinda butazor orol bo'lib, oqim bu yerda qirg'oqqa yaqinlashib borardi. Men qirg'oqqa suzib yetib olish uchun boshmog'im bilan kiyimlarimni bir ko'nglim yechib tashlamoqchi ham bo'ldim-u, lekin yana bu fikrimdan qaytdim. Men qirg'oqqa bir amallab chiqib olishimga shubha qilmas, agar yalangoyoq qolsam, holim yomon bo'lishini bilardim. Bir amallab Mestrega yetish kerak edi.

Qirg'oq yaqinlashdi, keyin orqaga sapchib ketdi, keyin yana yaqinlashdi. Endi sekinroq yuzib bormoqda edik. Sohil qo'l cho'zsa yetguday yaqin qolgandi. Tolning eng mayda novdalarigacha ko'zga tashlanib turardi. G'ola ohista burildi, sohil orqamda qoldi, men girdobga tushib qolganimizni angladim. Asta bir joyda aylana boshladik. Sohil juda ham yaqindan yana bir marta ko'ringanda, men bir qo'lim bilan suzib, oyoqlarimni ishga solib, qirg'oqqa intildim, lekin harakatim zoye ketdi. Men yana daryoning o'rtasiga ketib qolamizmi, deb cho'chigandim, shuning uchun bir qo'lim

bilan ushlab, oyoqlarimni shunday tortib, g'olaga tirab oldim-da, o'zimni qirg'oq tomonga zarb bilan otdim. Men butalarni ko'rib turar, biroq shuncha kuch, harakat sarf qilishimga qaramay, oqim meni chetga olib ketardi. Men oyoq kiyimim deb cho'kib ketishim mumkinligini o'ylab qo'rqib ketdim, oyoqlarim zilday bo'lib ketganiga qaramasdan jonim boricha harakat qilib, suv bilan olishib, bir mahal qaragam, sohil menga tomon yaqinlashib kelayotir, men yana ham zo'r berdim, nihoyat, qirg'oqqa yetib oldim. Men tolning shoxlariga mahkam yopishdim, tepaga ko'tarilishga kuchim qolmagan, osilib turar, lekin endi cho'kib ketmasligimni bilardim. G'olada suzganimda xayolimga biron marta ham cho'kish fikri kelmagandi. Zo'riqib harakat qilganimdan ko'nglim ozib borardi, tolga osilgan cha kuta boshladim. Ko'nglim behuzur bo'lishdan biroz to'xtagandan so'ng, men salcha oldinga jildim, keyin dam oldim, shoxlarni qo'llarim bilan mahkam ushlab olgandim. Keyin men suvdan chiqdim, tollar orasidan o'tib, sohilga qadam qo'ydim. Tong otay deb qolgan, hech kim ko'rinmasdi. Men yerga muk tushib yotar, daryo va yomg'ir shovqinini tinglardim.

Birozdan keyin o'rnimdan turib, daryo bo'ylab ketdim. Men Latizanagacha bironta ko'prik yo'qligini bilardim. Men hozir San-Vito qarshisida turgan bo'lsam kerak, deb chamaladim. Nima qilishim kerakligini o'ylay boshladim. Oldinda daryoga quyiladigan kanal bor edi. Shu yoqqa qarab yurdim. Atrofdan odam qorasi ko'rinmasdi, men kanal yoqasida butalar tagiga o'tirdim, oyog'imni yechib ichidan suvini to'kib tashladim. Frenchimni yechib, yon cho'ntagimdan ichidagi hujjatlar va pullar ivib ketgan hamyonimni olib, keyin frenchni yaxshilab siqib tashladim. Shimimni ham yechib siqdim, ke-

yin ko'ylagim bilan ichki kiyimlarimni siqib qo'ydim. Badanimni kaftlarim bilan shapatilab, toza ishqadim, yana kiyimlarimni kiyib oldim. Bosh kiyimimni yo'qotib qo'yibman.

Frenchi kiyishdan ilgari yenglaridagi yulduzchalarni qo'porib olib pullar bilan yon cho'ntagimga solib qo'ydim. Pullar ho'l bo'lib ketgan, lekin busbutun edi. Ularni sanab chiqdim. Uch ming lirdan sal ko'proq ekan. Butun kiyimlarim ho'l va badanimga chip-chip yopishib qolardi, qon aylanishini tezlatish uchun qo'llarimni silkib-silkib borardim. Ich kiyimim jun gazlamadan bo'lganligi uchun agar doim harakatda bo'lsam, shamollamayman, deb o'yladim. Pistoletimni yo'lda tortib olishgandi, bo'sh g'ilofni frenchimning tagiga berkitdim. Plashim bo'lmagani-dan yomg'irda sovqota boshladim. Kanal yoqalab ketdim. Tong otgan, hamma yoq ho'l, siyqa va g'arib edi. Dalalar yalang'och, yomg'irdan qorayib ko'rinardi; dalalarning hutta bir chekkasida qo'ng'iroqxona ko'zga tashlanardi. Men yo'lga chiqib oldim. Oldinda, yo'lda men piyodalar bo'linmasini ko'rdim, ular qarshimdan kelishardi. Cho'loqlanib, yo'lning bir chetidan sudralib borardim, soldatlar menga e'tibor bermay yonimdan o'tib ketishdi. Bular daryo tomonga ketayotgan pulemyot qismi edi. Yo'limda davom etdim.

Shu kuni men Venetsiya vodiysini kesib o'tdim. Bu past tekislik yer bo'lib, yomg'irda u yanada yasiroq bo'lib ko'rinardi. Dengiz tomondan qumloqlar va suvlar bilan to'silgani uchun bu yerda yo'llar kam edi. Hamma yo'llar daryoning quyilish joylari bo'ylab dengizga tomon boradi, shu sababdan vodiyni kesib o'tish uchun kanallar yoqalab so'qmoqlardan yurish kerak bo'ladi. Men vodiyni shimoldan janubga qarab kesib o'ta boshladim, ikki temir yo'l va boshqa

yana allaqancha yo'llarni bosib o'tdim va nihoyat, bir so'qmoqdan borib qum bilan o'ralgan ko'rfaz yonidan o'tgan temir yo'l izidan chiqdim. Bu Triyest-Venetsiya magistrali bo'lib, ko'tarmasi baland va mustahkam, keng, qo'sh izli yo'l edi. Biroz nariroqda kichkinagina satansiyacha bor ekan. U yerda, postda soqchilar turganligini ko'rdim. Satansiyaning boshqa tomonida ko'rfazga quyiladigan soy ustidan ko'prik o'tardi. Ko'prikda ham soqchi turgandi. Men hali daladan shimol tomonga o'tayotganimda bu yo'ldan poyezd o'tganligini ko'rgandim. Tekis yerda u uzoqlardan ko'ringandi, men shoyad Portogruarodan kelayotgan poyezdga chiqib olsam, deb umid qilgandim. Soqchilardan ko'zimni uzmay, shundoq izlar oldida biqinib yotdim. Menga bu yerdan ikki yoq yo'l ham kaftday ko'rinib turardi. Ko'prikda turgan soqchi iz bo'ylab men tomonga qarab bir necha qadam tashladi, keyin burilib orqasiga qarab ketdi.

Men och yotib poyezd kutmoqda edim. Hov avval men uzoqdan turib ko'rgan poyezd shunaqa ham uzun ediki, parovoz uni bazo'r tortib o'tgan edi. O'shanda unga yo'l-yo'lakay sakrab chiqib olishimga amin bo'lgan edim. Men yotaverib poyezddan umidimni uzganimda, yaqinlab kelayotgan poyezdni ko'rdim. Parovoz to'g'ri men tomonga kelar, borgan sari kattalashib borardi. Men soqchiga qaradim. U ko'prikning men yotgan tomonida, lekin yo'lning narigi betida yurib turardi. Poyezd men bilan baravarlashganda meni soqchidan to'sib qoladi. Men yaqinlashib kelayotgan parovozdan ko'z uzmasdim. U og'ir hansirab kelardi. Vagonlar juda ko'p edi. Men poyezdda qo'riqchilar borligini bilardim, lekin ular qayerda turganlarini ko'rolmadim, payqab qolmasinlar deb, tuzukroq qaragani cho'chidim. Parovoz men yotgan yerga yaqinlashib keldi. U mening

yonimdan bosinqi nafas olib o'tgach, mashinist meni ko'rmasligiga amin bo'ldim-da, o'rnimdan turib, o'tib borayotgan vagonlarga yaqin bordim. Agar poyezd soqchilari darchalardan qarab turgan bo'lsalar, izlar oldida ochiq tursam, unchalik shubha uyg'otmagan bo'lardim. Bir qancha yopiq tovar vagonlari o'tib ketdi. Keyin men usti ochiq past bir vagon kelayotganini ko'rdim, bunaqa vagonlarni bu yerda gondola deb atashadi, gondolaning ustiga brezent tortib qo'yilgandi. Men uni yonimdan deyarli o'tkazib yubordim-da, keyin bir sakrab vagon biqinidagi tutqichlardan ushlab oldim va yuqoriga ko'tarildim. Keyin orqada kelayotgan yopiq vagon bilan gondolaning o'rtasidagi buferga sirpanib tushdim. Meni hech zot ko'rmaganligiga amin edim. Temir bandlardan ushlab, oyog'imni vagonlar ulangan temirga tirab o'tirdim. Ko'priikka yaqinlashib qoldik. Men soqchini esladim. Biz o'tib ketayotganimizda, u menga qaradi. U hali o'spirin bir bola ekan, boshidagi kaskasi kattalik qilib ko'zini to'sib turardi. Men unga mensimagan kishi bo'lib qaradim, shunda u yuzini teskari burib oldi. U meni poyezd brigadasidan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Biz o'tib ketdik. U hamon o'tayotgan vagonlarga bezovta ko'z bilan qarab turardi. Men brezent qanday mahkamlanganiykin, deb qaradim. Brezentning chetlarida halqachalar bo'lib, shu halqachalardan chizimcha o'tkazib mahkamlangandi. Men pichog'imni olib chizimchani kesdim-da, qo'limni ichkariga tiqdim. Yomg'irdan nam tortgan brezent tagida allaqanday qattiq, g'o'dir narsalar qo'limga urindi. Boshimni ko'tarib, oldimga qaradim. Oldingi vagonning maydonchasida soqchi soldatlardan biri turardi, lekin uning ko'zi boshqa tomonda edi. Men o'zimni brezent tagiga urdim. Shu zahoti peshonam allanimagadir qattiq urildi, ko'z o'ngim qorong'ilashib ketdi, yuzim-

ga qon oqib tushayotganini sezdim, lekin men yana ham ichkariroq kirib, muk tushib yotib oldim. Keyin men orqamga o'girilib, brezentni qayta mahkamlab qo'ydim.

Men brezent tagida zambaraklar ichida yotardim. Ulardan kerosin va moy hidi anqirdi. Men brezentga urilayotgan yomg'ir tomchilarining ovozi, g'ildiraklarning taqa-tuqini eshitib yotardim. Tashqaridan g'ira-shira yorug' kirib turar, men to'plarni ko'zdan kechirdim. Ularga brezent yopqichlar kiydirilgandi. Bular uchinchi armiyadan jo'natilgan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Peshonamdagi g'urra shishib chiqdi, men qon to'xtasin deb, qimirlamay yotdim, qon qotib qolgandan keyin uni ohista ko'chirib tashladim, zarb tekkan joygagina tegmadim. Unchalik og'rimadi. Dastro'molim yo'q edi, shuning uchun qolgan-qutgan qon yuqlarini brezentdan oqib tushgan yomg'ir suvi bilan yuvib tashladim va yengim bilan tozalab artdim. Ko'rinishim hech kimda shubha tug'dirishini istamasdim. Men Mestrega yetmay turib tushib qolishim kerakligini bilardim, bo'lmasa kelib qurollarni tekshirib ketishlari turgan gap edi. Qurollar shunchalik oz ediki, ularni esdan chiqarishlari mumkinligiga odam ishonmasdi. Ich-etimni ochlik kemirib borardi.

### **O'ttiz ikkinchi bob**

Men platforma taxtalarida, brezent tagida, qurol-yarog'lar ichida namiqqan, ochiqqan, titrab-qaltiragan bir alfozda yotardim. Chidab bo'lmagandan keyin qo'llarimni boshimga qo'yib muk tushib yotdim. Tizzam uvishib, jonsiz bo'lib qolgan, lekin undan shikoyat qiladigan joyim yo'q edi. Valentini o'z ishini mohirlik bilan ado etgandi. Men chekinish yo'lining yarmini, Talyamentoning bir qismini

uning tizzasi bilan kechdim. Bu chindan uning tizzasi edi. Boshqa tizza meniki edi. Vrachlar sizning taningizni har ohangga solib ko'rishadi, shundan keyin tana o'zingizniki bo'lmay qoladi. Bosh o'ziminiki, butun qornimdagi narsalar ham o'ziminiki edi. Qornim bo'm-bo'sh edi. U go'yo hozir ag'darilib tushadiganday edi. Bosh o'ziminiki edi, lekin u hozir na ishlaydi, na o'ylaydi, faqat xotirlashga, xotirlaganda ham kamroq xotirlashga qodir edi.

Ketrinni eslagim kelardi, lekin men u haqda o'ylasam, jinni bo'lib qolishimni bilardim, uni ko'rish nasib bo'ladimi-yo'qmi, bilmasdim va men uni o'ylamaslikka tirishardim, faqat jindek u haqda, faqat g'ildiraklarning bir maromdagi taq-tuqi ostida u haqda o'ylayman, shunda yorug'lik brezentni zo'rg'a-zo'rg'a yorib o'tadi va men Ketrin bilan platforma taxtalarida yotganday bo'laman. Taxtalar qattiq botadi, kiyimlar ho'l, fikr yo'q, faqat hissiyotlar hukmron, hijron bunchalik uzoq bo'lmasa, taxtalar zirillab boradi, ichimni alam kemiradi, faqat nam kiyim etimga yopishadi va xotin o'rniga qattiq taxtalarni quchoqlab boraman.

Tovar platformasining taxtalarini yoki metall va moy hidi anqib turgan, brezent jildlarga o'rab qo'yilgan to'p-aslahalarni yoki yomg'ir silqib o'tadigan brezentni sevish mumkin emas, garchi brezent tagida zambaraklar bilan yotish juda yoqimli bo'lsa-da, baribir uni sevib bo'lmaydi, sening butun sevging – kimgadir boshqaga, bu yerda tasavvur ham qilib bo'lmaydigan odamga qaratilgan; endi o'z oldingga juda ham sovuq, juda ham ravshan nazar bilan boqasan. To'g'rirog'i, hatto, sovuq ham emas, ravshan va bo'm-bo'sh nazar bilan boqasan. Muk tushib yotasan-da, bo'm-bo'sh nazar bilan tikilasan; bir armiya chekinganda, ikkinchisi bosib kelayotganda shunday bo'ladi. Sen o'z mashinalaring va odamla-



ringni halokatga giriftor qilding, ehtimol, universal magazinning xizmatchisi yong'in mahalida shunday qilgan bo'lardi. U mollarini yondirib qarab turgan bo'lardi. Lekin mollar sug'urta qildirilmagan ekan. Endi sen bu narsalardan xalos bo'lding. Bo'yingda boshqa hech qanday majburiyating yo'q. Agar yong'indan keyin magazin xizmatchilarini sening taffuzing chatoq deb otib tashlay boshlasalar, yana savdo boshlanganda xizmatchilar qaytib keladilar, deb hech kimsa umid qilmasligi kerak. Agar boshqa biron ish topilsa va agar politsiya qo'liga tushmay omon qolsalar – ular boshqa ish topishga harakat qiladilar. Daryo g'azabni ham burch tuyg'usi bilan birga qo'shib yuvib ketdi. Aytganday, bu tuyg'uni men oldinroq – karabinerning qo'li yoqamdan olgan chog'dayoq yo'qotgandim. Men masalaning tashqi tomoniga e'tibor berib o'tirmasdan, o'zimni mundirdan xalos etmoqchi edim. Men yulduzchalarni sug'urib tashladim, lekin buni faqat qulaylik uchungina qilgandim. Bu nomus masalasiga kirmasdi. Men hech kimga achchiq qilayotganim yo'q. Umuuman, men bo'ldim. Men ularga omad tilab qolaman. Ularning orasida oq ko'ngillari ham, mardlari ham, iroda egalari ham, oqil kishilar ham bor edi, ularga omad tilasang yarashadi. Lekin bularning endilikda menga daxli yo'q va men bu qurib, jin urgur Mestrega tezroq yetib borishni istardim, o'shanda ovqatlanib olaman-u, nurli-nursiz narsalarni o'ylab yurmayman.

Piani, meni otildi, deb aytadi. Ular otilganlarning hamyonlarini kovlab, ularning hujjatlarini olib qo'yishadi. Mening hujjatlarim ularga tegmaydi. Balki meni cho'kib ketgan deb hisoblashar. Qiziq, Shtatlarga nima deb xabar qilisharkin. Yaralandi va boshqa ba'zi sabablarga binoan o'ldi, deyishsa kerak. Shayton, muncha qornim och bo'lmasa.

Qiziq, kashishga nima bo'ldiykin. Rinaldiga-chi. U Pordenoneda bo'lsa kerak. Balki undan ham nariroqqa chekinib ketishgandir. Ha, endi men uni bir umr ko'rmaydigan bo'ldim. Endi men ularning hech qaysilarini hech qachon ko'rmayman. U hayot tugadi. Unda zaxm bo'lmasa kerak, har holda vaqtida oldini olsang, unchalar xavfli emas, deyishadi. Biroq u juda tinchini yo'qotgan. Men ham tinchimni yo'qotgan bo'lardim. Boshqalar ham indamay qarab o'tirmasdilar, albatta.

Men o'ylash uchun yaratilmaganman. Men dunyoga ovqat yegani kelganman. Nima ishingiz bor, shunday. Yeb, ichib, Ketrin bilan yotishga tug'ilganman. Ehtimol, shu bugunoq yotarman. Yo'q, buning iloji yo'q. Bugun bo'lmasa, ertaga. Ertaga yaxshi taom ham, oppoq choyshablar ham bo'ladi, faqat endi hech qachon hech yerga ketmaslik kerak. Birga ket-sang, unda bir boshqa. Tezlikda biron yerga ketish-ga to'g'ri kelsa kerak. U birga boradi. U men bilan ketishini bilaman. Qachon ketamiz? Buni har qan-cha o'ylasang arziydi. Qorong'i tushmoqda. Men qa-yerga jo'nashimizni o'ylab yotibman. Dunyo keng edi.

## TO'RTINCHI KITOB

### O'ttiz uchinchi bob

Milanda poyezddan sakrab tushib qoldim. Poyezd tong qorong'isida stansiyaga yaqinlasha turib yurishini sekinlatdi. Shunda men sakradim. Temir yo'lni kesib o'tib, qandaydir uylardan o'tdim-da, ko'chaga tushdim. Yemakxonalardan biri ochiq ekan, men qahva ichgani kirdim. Bu yerda hamma narsada tongning nuqsi bor edi, supurib-sidirilgan uy sahnidan, qahva stakanlaridagi qoshiqchalardan va kecha vino solingan stakanlarning ko'rinishidan tong nafasi kelardi. Peshtaxta oldida yemakxona xo'jayini turgan ekan. Kichkina stolda ikkita soldat o'tirardi. Men peshtaxta oldiga borib, bir stakan qahva bilan bir burda non yedim. Qahva sut solinganidan rangsizroq edi, men nonning mag'zi bilan uning ustidagi ko'pigini sidirib oldim. Xo'jayin menga qarab qo'ydi.

– Bir stakan grappa beraymi?

– Yo'q, rahmat.

– Mening hisobimdan, – dedi u va kichikroq bir stakanga quyib oldimga surib qo'ydi.– Frontda nima yangiliklar?

– Bilmadim.

– Ular mast, – dedi u o'tirgan soldatlarni ko'rsatib. Bunga ishonsa bo'lardi. Ularning mast ekanligi ko'rinib turardi.

– Gapirib bering, – dedi u. – Frontda qanday yangiliklar bor?

– Frontdan hech xabarim yo'q.

– Men sizning tushayotganingizni ko'rdim. Siz poyezddan sakrab tushdingiz.

– Chekinyapmiz.

– Gazet o'qib turaman. Yangisidan gapiring. Tugay deb qoldimi?

– Unchalikmas.

U qorindor shishadan stakanga yana grappa quydi.

– Agar biron narsangiz chatoq bo'lsa, – dedi u, – men sizni yashirib qo'yishim mumkin.

– Hammasi joyida.

– Biron chatoqlik bo'lsa, shu yerda turavering.

– Qayerda – shu yerda?

– Mening uyimda. Ko'plar shu yerda yashab turishibdi. Biron chatoqligi bo'lganlar ko'pincha shu yerda yashab turishadi.

– Undaylar ko'pmi?

– Qandayligiga qarab. Siz Janubiy Amerikadan-misiz?

– Yo'q.

– Ispancha gaplasha olasizmi?

– Uncha-muncha.

U peshtaxtani artib qo'ydi.

– Hozir chegaradan o'tish qiyin, lekin o'tsa bo'ladi.

– Men o'tmoqchi emasman.

– Siz bu yerda xohlaganingizcha turishingiz mumkin. Mening qanday odamligimni hali bilib olasiz.

– Hozir men ketishim kerak, lekin manzilni eslab qolib qaytib kelaman.

U boshini chayqadi.

– Shunday deysizu, qaytib kelarmidingiz. Men chindan ham biron narsangiz chatoq bo'lsa kerak, deb o'ylabman.

– Hammasi joyida. Lekin doimo do'st kishining turar joyini bilgan yaxshi.

Men qahva haqi deb peshtaxtaga o'n lir qo'ydim.

– O'zingiz ham iching grappadan, – dedim.

– Shart emas.

– Iching.

U ikki stakan quydi.

– Esingizda bo'lsin, – dedi u. – Keling. Boshqa hech kimga ishonmang. Hammasini to'g'rilaymiz.

– Bunga ishonchim komil.

– Ishonchingiz komil?

– Ha.

U menga diqqat bilan qaradi.

– Unda ijozat bersangiz sizga bir narsani aytib qo'ysam. Manavi kiyimingizda ko'p yurmang.

– Nega?

– Yenglarida yulduzchalarning o'rni bilinib turibdi. Men indamadim.

– Agar qog'ozlaringiz bo'lmasa, qog'oz to'g'rilab beraman.

– Qanday qog'oz?

– Ruxsat guvohnomasi.

– Menga qog'ozlar kerakmas. Qog'ozlarim bor.

– Yaxshi, – dedi u. – Agar sizga qog'oz kerak bo'lsa, men istagan narsangizni to'g'rilayman.

– Qancha turadi unday qog'ozlar?

– Qanday qog'ozligiga qaraydi. Unchalik qimmat emas.

– Hozir menga hech narsa kerak emas.

U yelkasini uchirdi.

– Hammasi joyida, – dedim.

Chiqib ketayotsam, u dedi:

– Sizning do'stingizman, unutmang.

– Unutmayman, – dedim.

– Ko'risharmiz yana.

– Albatta, – dedim.

Tashqariga chiqib, harbiy politsiyaga duch kelib o'tirmay deb, vokzalni aylanib o'tdim-da, kichkina parkning panjarasi oldida ekipajga o'tirdim. Kucherga gospital manzilini berdim. Gospitalga kelib, qorovulning hujrasiga kirdim. Uning xotini meni o'pib qarshi oldi. O'zi qo'limni qisdi.

– Qaytib keldingiz! Sog'-salomat!

– Ha. Nonushta qildingizmi?

– Ha.

– Sogʻlingingiz yaxshimi tenente? Sogʻlingingiz yaxshimi? – soʻrab qoʻymasdi xotini.

– Yaxshi.

– Balki biz bilan nonushta qilarsiz?

– Yoʻq, rahmat. Ayting-chi, hozir miss Barkli hospitaldami?

– Miss Barkli?

– Ingliz hamshirasi-chi?

– Uning sevgilisimi, – dedi xotini. U yelkamga shapatilab, jilmayib qoʻydi.

– Yoʻq, – dedi qorovul. – U ketgan.

Yuragim shuv etib ketdi.

– Rostdanmi? Men yosh ingliz qizni aytyapman, baland boʻyli, oppoqqina edi-ku, oʻsha.

– Rost. U Strezaga ketdi.

– Qachon ketdi?

– Ikki kun boʻldi. Boshqa ingliz hamshirasi bilan ketdi.

– Xoʻp, – dedim men. – Men sizdan bir narsani soʻramoqchi edim. Meni koʻrganligingizni hech kimsaga aytmang. Bu juda jiddiy gap.

– Men hech kimga aytmayman, – dedi qorovul. Men unga oʻn lir berdim, lekin u olmadi.

– Men sizga hech kimga aytmayman, deb vaʼda berdim-ku, – dedi u. – Menga pul kerak emas.

– Sizga qoʻlimizdan kelgan yordamni ayamaymiz, tenente, – dedi uning xotini.

– Yordamingiz shu boʻlsin, – dedim.

– Biz sizni koʻrmasdik, – dedi qorovul, – biron narsa kerak boʻlib qolsa bizga xabar bering.

– Yaxshi, – dedim, – yana koʻrishamiz. Xayr. – Ular eshikda orqamdan qaragancha qolishdi.

Men ekipajga oʻtirib ashula aytishni oʻrganayotgan tanishim Simmonsning manzilini berdim.

Simmons shaharning boshqa chekkasida Porta-Majenta yaqinida turardi. Men uning oldiga bor-

ganimda u hali o'rnida yotar, ko'zlaridan uyquasi o'chmagandi.

– Juda erta turasiz-da, Genri, – dedi u.

– Men ertalabki poyezd bilan keldim.

– Chekinishi nimasi bu o'zi? Siz frontda bo'ldingizmi? Sigareta chekasizmi? Hov stolning yashigida turibdi.

Xona kattakon bo'lib, devor tagiga karavot qo'yilgan, qarshi tomondagi burchakda royal, komod va stol turardi. Men karavotning oldiga qo'yilgan stulga o'tirdim. Simmons yelkasidagi yostiqa suyanib o'tirgancha, chekardi.

– Ishlarimning mazasi yo'q, Sim, – dedim men.

– Meniki ham shunaqa, – dedi u. – Mening hech ishlarim yaxshi bo'lgan emas. Chekasizmi?

– Yo'q, – dedim, – Shveysariyaga qanday qilib ket-sa bo'ladi?

– Sizmi? Sizni italyanlar chegaradan o'tkazishmaydi.

– Shunday. Buni bilaman. Shveysarlar-chi? Shveysarlar qanday munosabatda bo'lishadi?

– Ular sizni ushlab, ozodlikdan mahrum etishadi.

– Bilaman. Lekin bu ishlar hammasi qanday qilinadi?

– Juda oson. Sizni qamab – qamashmaydi. Siz istagan joyingizga boraverasiz. Faqat vaqt-vaqti bilan tekshirishdan o'tib turasiz. Nima? Sizni politsiya ta'qib qilyaptimi?

– Hozircha noma'lum.

– Agar aytgingiz kelmasa, aytmang. Odamning eshitgisi kelayotgan bo'lsa ham mayli. Bu yerda hech qanday voqealar bo'lmaydi. Men Pyachensada toza sharmanda bo'ldim.

– Qo'ying-e!

– Rost, rost, rasvoyi ma'raka bo'ldi. Lekin yaxshi aytgan edim-da. Men yana bir karra bu yerda «Liriko»da o'zimni sinab ko'rmoqchiman.

– Men eshitolmasligimdan afsuslanaman.

– Salomat bo'lsinlar. Nima, ishlaringizning rostdan juda mazasi yo'qmi?

– Bilmadim.

– Aytgiz kelmasa, aytmang. Nega siz anavi la'nati frontda emas, bu yerlarda yuribsiz.

– Men urishib bo'ldim.

– Yashang. Men doim sizni bama'ni yigit deb yurardim. Mendan nima xizmat lozim bo'lsa, tayyorman.

– O'zingizning ishlaringiz ko'p.

– Be, ishlar qayoqda, azizim, Genri. Vaqtim bermalol. Biron narsa bilan mashg'ul bo'lsam quvonib yuraman.

– Bo'yimiz deyarli siz bilan baravar. Menga kostyum olib kelib berolmaysizmi? Mening kostyumlarim bor-u, lekin hammasi Rimda.

– Aytganday, siz oldin u yerda turgansiz-ku. Bunaqangi rasvo joyni bilmayman! Qanday qilib turgansiz u yerda?

– Men arxitektor bo'lmoqchidim.

– Bunga eng nobop yer o'sha yer. Hech narsa sotib olmang. Men sizga nima kerak bo'lsa, hammasini beraman. Sizni shunday kiyintirib qo'yayki, ko'rganlarning og'zi ochilib qolsin. Boring, hov anavi yerda kiyimlar turibdi. Didingizga nima yoqsa, baringni olavering. Azizim, hech narsani sotib olishning keragi yo'q.

– Baribir, sotib olsam, yaxshi bo'lardi-da.

– Azizim, borib sotib olib bergandan ko'ra sizga o'zimiznikini berganim menga osonroq. Pasportingiz bormi? Pasportsiz tirikchilik qilib bo'lmaydi.

– Eski pasportim yonimda.

– Unda kiyining, azizim, va ko'hna, asl Gelvetsiyaga tomon olg'a.

– Bular hali hammasi emas. Men hali Strezaga ham borishim kerak.

– Bundan yaxshisi bormi, azizim! U yerdan qayiqqa o'tirasiz-u, to'g'ri narigi tomonga ravona bo'lasiz. Agar



ashulam bo'lmaganda men ham sizlar bilan birga bor-  
gan bo'lardim. Boraman ham.

– Siz u yerda tirolcha faltsetga o'tishingiz mumkin.

– O'tganda qandoq, azizim. Ashula aytishni bilsam  
ham, o'taman. Qizig'i ham o'zi shunda-da.

– Boshim bilan qasam ichamanki, siz ashula aytish-  
ni bilasiz.

U o'zini orqaga tashladi-da, yana bitta sigaret  
chekdi.

– Yaxshisi, boshingizni tikmang. Men ashula aytish-  
ni bilsam ham unday qilmang. Kulgili ko'rinadi-yu,  
lekin men aytishni bilaman. Men ashula aytishni se-  
vaman. Quloq soling. – U «Afrikanka»ni ola boshladi;  
uning bo'yni tarang tortildi, tomirlari bo'rtib chiqdi.

– Men ashula aytishni bilaman, – dedi u. – Qolga-  
niga bilganlarini qilsinlar.

Men derazaga qaradim.

– Ekipajni jo'natib kelay.

– Tezroq qaytib keling, azizim, nonushta qilib olamiz.

U o'rnidan turdi, qaddini tikladi, chuqur nafas ol-  
di-da, gimnastika mashqlarini bajara boshladi. Men  
pastga tushib, kucherning haqini berib yubordim.

## **O'ttiz to'rtinchi bob**

Kishilik kiyimida o'zimni xuddi maskaradda yur-  
ganday seza boshladim. Uzoq harbiy kiyimda yur-  
ganligimdan endi o'zimni juda o'ng'aysiz sezardim;  
egnim, shimim hadeb halpillab ketayotganday tuyu-  
laveradi. Men Milanda Strezagacha bilet oldim. Yangi  
shlyapa sotib oldim. Simning shlyapasini hech ki-  
yolmadim. Lekin kostyumi yaxshi edi. Undan tama-  
ki hidi anqir, shundanmikin, kupeda o'tirganimda,  
nuqul shlyapam juda yangi shlyapa, kostyumim esa  
juda eski kostyum bo'lib ko'rina boshladi. Kayfiyatim  
deraza ortidagi nam bosgan lombard yerlariday no-

xush edi. Kupeda qandaydir uchuvchilar o'tirishar, menga juda past nazar bilan qarashardi. Ularning menga qaragilari kelmas, yosh bo'la turib harbiy xizmatda bo'lmagan odamga nafratlarini yashirmas edilar. Men o'zimni haqoratlangan deb his qilmasdim. Avvalgi paytlarim bo'lsa, ularni haqoratlagan va janjal chiqargan bo'lardim. Ular Gallarateda tushib ketishdi, yolg'iz qolib o'zimni erkin sezdim. Gazeta olgan edim, lekin unga qaragim kelmasdi, urush haqidagi xabarlarni o'qigim yo'q edi. Men urushni unutishga qaror qildim. O'z holimga o'zim sulh tuzdim. O'zimni juda ham yolg'iz sezdim, shuning uchun poyezd Strezaga kelganda yengil nafas oldim.

Vokzalda mehmonxonalarining odamlari bordir, deb o'ylagan edim, lekin birontasi ko'rinmadi. Mavsum allaqachon tugagan, shu sababdan hech kim poyezdni kutgani chiqmagandi. Men vagondan jomadonimni ko'tarib tushdim. U Simniki edi, ichida ikkita ko'ylakdan boshqa narsa bo'lmaganidan qushday yengil edi. Vagondan tushib poyezd jo'naguncha o'rnimdan qimirlamadim. Vokzal xizmatchilaridan biridan, bilmaysizmi, hozir qaysi mehmonxonalar ochiq, deb so'radim. «Grand-otel», «Dez il-Borrorme» va yana yil bo'yi ishlaydigan bir qancha mehmonxonalar ochiq ekan. Yomg'irda qo'lda jomadon bilan «Dez il-Borrorme» ga qarab yo'l oldim. Ko'chadan o'tib borayotgan ekipajga qo'limni ko'tardim. Ekipajda borgan ma'qulroq edi. Biz kattakon mehmonxonaning eshigi oldiga borib to'xtadik, porte soyabon ko'tarib peshvoz chiqdi, yaxshi mulozamat ko'rsatdi.

Yaxshi bir xonani tanladim. Xona kattakon va yorug' edi, derazasi ko'l tomonga ochilardi. Ko'l tepasida bulutlar osilib turar, lekin men quyosh chiqqan mahallarda uning juda ham go'zal bo'lishini bilardim. Men o'z xotinimni kutypman, dedim. Xonada katta

ikki kishilik, lettomatrimoniale<sup>1</sup> atlas ko'rupa to'shalgan holda turardi. Juda ham borib turgan mehmonxona ekan. Men uzun yo'lakdan o'tib, keng zina orqali barga tushdim. Barmen eski tanishim edi, baland kursida o'tirib sho'rdanak bilan qovrilgan kartoshka yedim. Martini muzdek va ta'mi toza edi.

– Bu yerda nima qilib yuribsiz, in borghese?<sup>1</sup>

– Menga ikkinchi martinini aralashtirib berarkan, so'radi barmen.

– Men ta'tildaman. Sog'lig'imni yaxshilash uchun ta'til oldim.

– Bu yerda hozir hech kim yo'q. Bilmadim, nega mehmonxonani berkitishmayapti.

– Baliq ovi qalay?

– Bir nechta zo'r xonbaliq ushladim. Yilning bu faslida xonbaliqlarning zo'rlari uchrab turadi.

– Sizga yuborilgan tamakini oldingizmi?

– Oldim. Siz mening tabrik qog'ozimni olmadingizmi?

Kulib yubordim. Men u aytgan tamakini topolmagandim. Unga Amerikaning o'rama tamakisini va'da qilgandim, lekin uydan menga uni yubormay qo'yishgan, yo bo'lmasa, uni qayerdadir tutib qolmoqda edilar. Har holda kelmay qo'ygandi.

– Men sizga biron yerdan topib beraman, – dedim.

– Ayting-chi, siz bu yerda ikki yosh ingliz qizni uchratmadingizmi? Ular o'tgan kuni kelishgan.

– Mehmonxonamizda bundaylar yo'q.

– Ular harbiy gospitalda hamshira bo'lib ishlashadi.

– Ikkita hamshira qizni ko'rgandim. Birpas to'xtang, men ularning qayerda turganlarini bilib kelaman.

– Bittasi – mening xotinim. Men bu yerga u bilan uchrashgani keldim.

– Boshqasi – mening xotinim.

– Men hazillashayotganim yo'q.

---

<sup>1</sup> Oila to'shagi (*ital.*).

– Ahmoqona hazilim uchun ma'zur tuting, – dedi u. – Fahmlamabman.

U chiqib ketdi va anchagacha qaytmadi. Men maslinlar, shoʻrdanak, quvroq kartoshka yeb oʻtirdim, pesh-taxta ortidagi oynadan oʻzimning k kiyimlarimni tomosha qildim. Nihoyat, barmen qaytib keldi.

– Ular vokzal yonidagi kichkina mehmonxonada joylashgan ekanlar, – dedi u.

– Sizda sandvichlar bormi?

– Hozir qoʻngʻiroq qilaman. Odam yoʻgʻidan bu yerga hech narsa olib kelishmaydi.

– Nima, hech kim yoʻqmi?

– Bitta-yarimta bor, yoʻgʻamas.

Sandvichlarni keltirishdi va men uchtasini yeb oldim, yana martini ichdim. Men hech qachon bunchalar muzdek va sara narsani ichmagan edim. Martinining taʼmi meni madaniy odamlar olamiga qaytardi. Koʻp zamonlardan beri yeganim non, pishloq, ichganim qizil vino, maza-matrasiz qahva boʻlgandi. Baland kursida qizil ogʻochlar, bronzalar va oynalar qurshovida oʻtirib, hech narsani oʻylamasdim. Barmen menga qandaydir bir savol berdi.

– Urush haqida gapirmaylik, – dedim men.

Urush qayerdadir juda uzoqlarda qoldi. Ehtimol, hech qanday urush boʻlmagandir. Bu yerda urush yoʻq. Toʻsindan u men uchun tamom boʻlganini angladim. Lekin menda u chindan ham tamom boʻlganiga komil ishonch hissi yoʻq edi. Darsdan qochgan bola maktabda hozir nima boʻlayotganini oʻylaganiday, men ham qochib kelgan yerlarimni oʻylardim.

Otelga borganimda Ketrin Ellen Fergyson bilan ovqatlanishayotgan ekan. Yoʻlakdayoq ularning stol atrofida oʻtirganlarini koʻrdim. Ketrin men tomonga orqa oʻtirganidan, tolalari tutash sochlarini, bir yonogʻini va oppoq boʻyni bilan yelkalarini koʻrib bordim. Fergyson nimanidir hikoya qilayotgandi. Men kirishim bilan jim boʻlib qoldi.

– Voy, xudo! – dedi u.

– Salom! – dedim men.

– Voy, sizmi? – dedi Ketrin. Uning yuzi yorishib ketdi. U ko‘zlariga ishongisi kelmasdi. Men uni o‘pdim. Ketrin qizarib ketdi, men ularning yoniga o‘tirdim.

– Buni qarang-a! – dedi Fergyson. – Bu yerda nima qilib yuribsiz? Siz ovqatlandingizmi?

– Yo‘q.

Stolga ovqat tashib turgan qiz kirdi, menga ham ovqat olib kelishni aytdim. Ketrin charaqlagan ko‘zlarini mendan uzmasdi.

– Nima munosabat bilan siz mufti<sup>1</sup> kiyib oldingiz? – so‘radi Fergyson.

– Kabinet a‘zosi bo‘lib qoldim.

– Siz biron bo‘lmag‘ur ish qilib qo‘ygansiz.

– Sal qovog‘ingizni oching, Ferji. Sal qovog‘ingizni oching.

– Siz hozir kulib boqadigan ahvolda emassiz. Mana-vi qizni qay yo‘llarga boshlaganingizni bilaman. Xursand bo‘ladigan joyi yo‘q.

Ketrin menga qarab jilmaydi va stol tagidan oyog‘i bilan meni turtib qo‘ydi.

– Hech kim meni hech qanday ko‘yga solmadi, Ferji. Men o‘zimni o‘zim shu ko‘yga soldim.

– Uni ko‘rgani ko‘zim yo‘q, – dedi Fergyson. – U o‘zining italyanча qiliqlari bilan sizni xarob qildi. Amerikaliklar italyanlardan ham bo‘lmag‘urroq xalq.

– Shotlandlar esa – xushxulq odamlar, – dedi Ketrin.

– Men uni aytayotganim yo‘q. Men uning italyanча makkorligini aytyapman.

– Nahotki, men makkor bo‘lsam, Ferji?

– Ha. Siz makkorning ham yomonisiz. Siz chinakam ilonsiz. Italyan mundiri bilan plashini kiyib olgan ilonsiz.

– Men italyan mundirini yechib tashladim.

---

<sup>1</sup> Mufti – Amaldorlar ishdan keyin kiyadigan kiyim (hindu).

– Bu makkorligingizga yana bir dalil bo'la oladi. Yozi bilan qiz ikkingiz ishq-muhabbatga berilib, endi esa, juftakni rostlab qolmoqchisiz.

Men Ketringa qarab jilmaydim, u ham menga tabassum bilan javob berdi.

– Biz ikkovimiz juftakni rostlab qolmoqchimiz! – dedi u.

– Biringizni olib ikkinchingizga uradigan, – dedi Ferji. – Sizning qilg'ingizdan yer yorilmadi-yu, men yerga kirib ketmadim, Ketrin Barkli. Na oriyat, na nomus qoldi sizda, siz ham xuddi unga o'xshagan makkorsiz.

– Qo'ying, Ferji, – dedi Ketrin va uning qo'liga shapatlab qo'ydi. – Meni ko'p urishavermang. Bir-birimizni sevishimizni bilasiz-ku.

– Oling qo'lingizni, – dedi Fergyson. Uning beti qizarib ketgandi. – Agar siz uyatingizni yo'qotmaganingizda boshqa gap edi. Lekin siz, xudo biladi, necha oydan beri homiladorsiz-u, bularning hammasini hazil deb bilasiz, o'zingizni yo'ldan ozdirgan odamni ko'rishingiz bilanoq og'zingizni kulgidan yig'ishtirolmaysiz. Na uyat bor, na nomus.

U yig'lab yubordi. Ketrin borib uni bir qo'li bilan quchoqlab oldi. U Fergysonni yupatish uchun o'rni-dan turganda, uning gavdasida o'zgarish sezmadim.

– Menga baribir, – dedi Fergyson. – Lekin bularning oxiri nima bo'ladi?

– Bo'ldi, bo'ldi, Ferji, – yupatardi uni Ketrin. – Men yaxshi qiz bo'laman. Yig'lamang, Ferji. Yig'lamang, jonim, bo'ldi.

– Men yig'lamayman, – derdi piq-piq qilib Fergyson. – Men yig'lamayman. Lekin sizning ahvolingizni o'ylasam. – U menga o'girildi. – Sizni ko'rishga ko'zim yo'q, – dedi u. – Baribir yomon ko'raman sizni. Siz qabih, makkor amerikalik italyansiz. – Uning burni va ko'zlari yig'idan qizarib ketgandi.

Ketrin menga jilmaydi.

– Meni quchoqlab turganingizda unga sira ham kulib qaramang.

– Siz aqlli qiz edingiz-ku, Ferji.

– Bilaman, – dedi piqillab Ferji. – Menga e'tibor bermang. Juda yuragim yomon bo'lib ketdi. Men no-ma'qul qizman. O'zim ham bilaman. Men har ikkovlaringiz baxtli bo'lishingizni istayman.

– Biz haliyam baxtlimiz, – dedi Ketrin. – Mening azizim, Ferji.

Fergyuson yana yig'lab yubordi.

– Men sizlarning bunaqa betayin baxtli bo'lishingizni istamayman. Nega siz uylanmaysiz? Xudo ko'rsatmasin, u o'zi uylanmagan yigitmikin?

– Uylanmaganman, – dedim men. Ketrin kulib turardi.

– Kuladigan joyi yo'q, – dedi Fergyuson. – Bunaqa voqealar tez-tez bo'lib turadi.

– Biz turmush quramiz, Ferji, – dedi Ketrin, – sizni xursand qilish uchun turmush quramiz.

– Meni xursand qilish uchun emas, albatta. Siz o'zingiz buni o'ylashingiz kerak.

– Biz juda ham band edik.

– Ha. Bilaman. Bola qilish bilan band edinglar.

Men u yana yig'ini boshlab bersa kerak deb turgan edim, kutilmaganda u ginaxonlik qila boshladi.

– Endi siz u bilan ketib qolasiz-da, a?

– Ha, – dedi Ketrin. – Agar u istasa.

– Men-chi?

– Siz bu yerda bir o'zingiz qolishdan qo'rqasizmi?

– Ha, qo'rqaman.

– Unda men siz bilan qolaman.

– Yo'q, u bilan keting. Hoziroq u bilan keting. Sizlarni boshqa ko'rishni istamayman.

– Ovqatlanib olaylik.

– Yo'q, u bilan keting. Hoziroq u bilan keting.

– Ferji, yengiltak bo'lmang.

– Hoziroq bu yerdan ketinglar, deyapman. Ikkoving ham ketinglar.

– Mayli, yur, – dedim men. Ferji jonimga tegib ketgandi.

– Keting desa jon-jon deb ketaveringlar. Ovqatni ham endi bir o‘zim yeyarkanman-da. Men qachonlardan beri italyan ko‘llariga borishni orziqib kutgandim, mana oqibati nima bo‘ldi. O! O! – u piqillab yig‘lay boshladi, keyin Ketringa qaradi-da, qalqib ketdi.

– Biz tushlik tugaguncha qolamiz, – dedi Ketrin. – Agar men bilan qol, deydigan bo‘lsangiz, sizni yolg‘iz qoldirmayman. Men sizni yolg‘iz qoldirmayman, Ferji.

– Yo‘q, yo‘q. Ketaveringlar. Ketaveringlar. – U ko‘z yoshlarini artdi. – Men juda yengiltakman. Qo‘yinglar, menga e‘tibor bermanglar.

Ovqat paytida xizmat qilib turgan qiz bu ko‘z yoshlardan qattiq ta‘sirlandi. Keyingi taomni olib kelib hammasi tinchiganligini ko‘rgach, yengil nafas oldi.

Mehmonxonada o‘z xonamizdamiz. Tun. Eshikning naryog‘i uzun kimsasiz yo‘lak, oyoq kiyimlarimiz eshikning tagida, xonaga qalin gilam to‘shalgan, tashqarida yomg‘ir, xona charog‘on, shinam, ko‘zlar-da esa quvonch, keyin qorong‘ilik, mayin choyshablar hamda to‘shakning farog‘ati, go‘yo uyingga qaytib kelgandaysan, yolg‘iz emassan, tunda uyg‘onib ketsang, yoningda jufti halolingni ko‘rasanu, u hech qayerga ketib qolmagan bo‘ladi. Senga shulardan o‘zga hech narsa kerak emas, sen uchun dunyoda boshqa hech narsa yo‘q hozir. Biz tolib, uxlab qollar, uyg‘onsak, ikkov barobar uyg‘onardik. Shunda odam o‘zini yolg‘iz his qilmasdi. Ba‘zan erkak kishi yolg‘iz qolgisi keladi, xotin kishining ham yolg‘iz qolgisi keladi, agar ular bir-birlarini sevsalar bundan ranjiydilar. Bizda hech qachon bunday bo‘lmagandi. Biz birga bo‘lgan paytimizda, o‘zimizni yolg‘iz, butun olam qarshisida yolg‘iz deb his qila olardik.



Menda birinchi marta birga bo'lganimizda shunday tuyg'u tug'ildi. Men ko'p ayollarni bilardim, lekin ular bilan bo'lganimda o'zimni yolg'iz sezardim, bu yolg'izliklar ichida eng yomonrog'i edi. Lekin biz birga bo'lganimizda hech qachon o'zimni yolg'iz sezmas, birgaligimizda hech narsadan qo'rqmasdik. Men bilan, tunning kundan farqi bor, tunda hamma narsa boshqacha bo'lib ko'rinadi va tunda bo'lgan gaplarni kunduzi tushuntirib berib bo'lmaydi, u onlar o'tadi-ketadi, lekin agar odam o'zini yolg'iz sezgan bo'lsa, unda tundagi yolg'izlik yana ham dahshatliroq bo'ladi. Biroq Ketrin bilan tunimiz kunduzimizdan farq qilmas, ehtimolki, kechalari biroz yaxshiroq ham edi. Odamlar bu dunyoga shuncha jasorat olib kelganlaridan so'ng, dunyo ularni sindirish uchun halok qilishi kerak bo'ladi, shu boisdan ularni o'ldiradi. Dunyo hammani bukib qo'yadi, lekin ko'plar bukilganda yana ham qattiqroq, chidamliroq bo'lib qoladi. Lekin egilishni istamaganlarni u o'ldiradi. U eng shafqatli, eng nozik va eng mard odamlarni surishtirmay o'ldiraveradi. Agar sen unisi ham, bunisi ham, boringki, uchinchisi ham bo'lmasang, amin bo'lginki, seni ham o'ldirajaklar, faqat ko'pam shoshmasdan o'ldiradilar.

Men ertalab uyg'onganimni eslayman. Ketrin hali uxlab yotar, quyosh nuri derazadan tushib turardi. Yomg'ir tingandi, o'rnimdan turib, oyna oldiga keldim. Pastda bog'lar cho'zilib ketgan, ular hozir yalang'och bo'lib qolgan, lekin bog'larning adl shakllari go'zal ko'rinardi, mayda qum-tosh to'shalgan yo'lakalar, daraxtlar, ko'l bo'yidagi tosh panjara va oftob nurida yotgan ko'l, ko'lning narigi tomonidagi tog'lar g'oyatda go'zal edi. Derazadan tomosha qilib turib orqamga o'girildim, o'girilib, Ketrin uyg'onganini, menga tikilib turganini ko'rdim.

– Darrov turdingmi, jonim? – dedi u. – Qanday yaxshi kun!

– Qalay, o'zing tuzukmisan?

- Juda ham yaxshi. Kechasi biram yaxshi bo'ldiki.
- Qorning ochdimi?
- Uning qorni ochibdi. Men ham ochqagandim, de-razadan noyabr quyoshi tushib turardi, biz likopcha-lar terilgan patnisni tizzamizga qo'yib ovqatlandik.
- Sen gazeta o'qishni istamaysanmi? Gospitalda doim gazeta o'qirding.
- Yo'q, – dedim. – Endi istamayman.
- Gazetalardan ham ixlosing qaytib ketdimi?
- Qaragisi ham kelmaydi odamning.
- Sen bilan birga bo'lganimda hammasini o'z ko'zim bilan ko'rgan bo'lardim.
- Bir kuni sal miyam tiniqlashgandan keyin o'zim gapirib beraman.
- Seni harbiy kiyimda emasligingni ko'rib qolishsa, qamab qo'yishmaydimi?
- Meni otib tashlashsa kerak.
- Unda bu yerda turishimiz mumkin emas, chet elga ketaylik.
- Men ham shuni o'ylagandim.
- Ketamiz. Jonim, bekorga joningni xavf ostiga qo'yma. Menga ayt, Mestredan Milanga qanday qilib kelib qolding?
- Poyezd bilan keldim. Unda hali harbiy kiyimimni yechmagandim.
- Bu xavflimidi?
- Unchalikmas. Eski literim bor edi. Mestreda sa-nasini o'zgartirib oldim.
- Jonim, bu yerda seni har bir daqiqada qo'lga olishlari mumkin. Men istamayman. Bu tentaklik. Agar seni qa-moqqa olishsa, bizning holimiz nima kechadi?
- Buni o'ylamaylik. Buni o'ylayverib miyam g'ovlab ketdi.
- Seni qamoqqa olamiz deb kelishsa, nima qilasan?
- Otib tashlayman.

– Koʻrdingmi, qanday tentaksan. Biz bu yerdan ketmagunimizcha, men seni mehmonxonadan chiqarmayman.

– Xoʻp, qayerga boramiz?

– Qoʻy, unaqa boʻlma, jonim. Qayerga desang, oʻsha yerga boramiz. Lekin shunday joyni topginki, hozirning oʻzidayoq joʻnab ketish mumkin boʻlsin.

– Koʻlning naryogʻi Shveysariya, oʻsha yerga borish mumkin.

– Ana – qanday soz.

Yana bulutlar toʻplandi va koʻl yuzi qoraydi.

– Qani endi har doim jinoyatchi boʻlmay yashasang, – dedim men.

– Jonim, unaqa boʻlma. Qachondan beri jinoyatchi boʻlib qolibsang? Biz hech qachon jinoyatchi boʻlmaymiz. Bizning hayotimiz juda ham yaxshi boʻladi.

– Men oʻzimni jinoyat qilib qoʻyganday sezyapman. Men armiyadan qochdim.

– Jonim, qoʻy, aqlli bola boʻl. Sen armiyadan qochganing yoʻq. Bu italyanlarning armiyasi-ku.

Men kulib yubordim.

– Xoʻp donosan-da. Ke, yana birpas yotamiz. Toʻshakda yotsam, dunyo koʻzimga jannat boʻlib koʻrinadi.

Saldan soʻng Ketrin dedi:

– Endi oʻzingni jinoyatchi deb his qilmayapsan, toʻgʻrimi?

– Yoʻq, – dedim men. – Sen bilan birga boʻlganimda – yoʻq.

– Sen juda tentak bolasan, – dedi u. – Lekin men shalvirab qolishingga yoʻl qoʻymayman. Jonim, bir oʻylab koʻrgin-a, hozir ertalablari koʻnglim aynimayapti, qanday yaxshi.

– Zoʻr.

– Qanday zoʻr xotining bor, qadriga ham yetmay-san. Lekin menga baribir. Men seni qamab qoʻyishmaydigan biron yerga olib ketaman. Biz juda ham yaxshi hayot kechira boshlaymiz.

- Hoziroq ketganimiz bo'lsin.
- Bosh ustiga, jonim. Qayerga desang, qachon desang, sening ixtiyoringdaman.
- Kel, hech narsani o'ylamaymiz.
- Kel.

### **O'ttiz beshinchi bob**

Ketrin qirg'oq bilan kichik mehmonxonaga Fergyu-sonni kuzatgani ketdi, men bo'lsam, barda gazeta o'qib o'tirdim. Barda o'tirishga qulay bo'lgan kreslolar qo'yilgan, men to barmen kelguncha ulardan birida gazeta o'qib o'tirdim. Armiya Talyamentoda to'xtamabdi. U yana ham nariroqqa, Pyavaga chekinibdi. Pyava esimda edi. Temiryo'l frontga ketaverishda uni Sandon yaqinida kesib o'tardi. Daryo bu yerda juda ham chuqur hamda tor yerdan tinch oqib o'tardi. Oqimning quyi qismida botqoq yerlar, kanallar bor edi. Bir qancha chiroyli villalar bo'lardi. Bir kuni urushdan ilgari Kortinad, Ampetstsoga bora turib men bir necha soat Pyava ustidagi tog' yo'lidan yurgan edim. Tepadan qaraganda u xonbaliqlar g'ujg'on o'ynagan soyga o'xshab ko'ringandi, qoyalarning soyalarida sayoz va cho'nqir joylari bor edi. Kadorega borganda u chetga burilib ketardi. Men qo'shinlarga Pyavadan tushish oson bo'lmaydi, deb o'yladim. Barmen kirdi.

- Graf Greffi sizni so'radi, – dedi u.
- Kim?
- Graf Greffi. Esingizdami, o'tgan safar kelganingizda bu yerda bo'lgan chol-chi?
- U shu yerdami?
- Ha, jiyani bilan. Men unga sizning shu yerdaligingizni aytdim. U siz bilan bilyard o'ynamoqchi.
- Qayerda u?
- Aylangani ketdi.
- O'zi qalay?

– Borgan sari yasharyapti. Kecha tushlik oldidan shampan bilan uchta kokteyl ichdi.

– Bilyardni qalay o'ynayapti?

– Yaxshi. Meni yutadi. Unga sizning shu yerda ekanligingizni aytsam, u juda suyundi. U bilan o'ynaydigan odam yo'q.

Graf Greffi to'qson to'rtga kirgandi. Soch-soqollari oqarib ketgan, nihoyatda xushfe'l bu chol. Metternixning zamondoshi edi. U ham Avstriya, ham Italiya diplomatiyasining xizmatida bo'lgan, uning tug'ilgan kuni Milan kiborlari hayotida bir voqea kabi o'tkazilgan edi. U yuzga kirishni orzu qilar, bilyardni o'ziga ishonib yengil o'ynar, to'qson to'rtga kirgan odam uchun bu juda g'aroyib ko'rinardi. Men u bilan bir paytlar mavsum tugagan mahalda Strezaga kelib qolganimda tanishgan, u bilan bilyard o'ynab shampan ichgandik. Menga bu juda xush yoqib ketgandi, u o'shanda menga oldindan o'n besh ochko berib yutib olgandi.

– Uning bu yerda ekanligini nega menga aytmadingiz?

– Yodimdan ko'tarilibdi.

– Bu yerda yana kim bor?

– Boshqalarni siz bilmaysiz. Butun mehmonxonada faqat olti kishi bor.

– Hozir nima qilyapsiz?

– Hech narsa.

– Yuring, baliq ovlagani boramiz.

– Biron soatga bo'lsa, mayli.

– Yuring. Qarmoqni oling.

Barmen paltosini kiyib oldi va biz yo'lga tushdik. Qirg'oqqa tushib qayiq oldik-da, men eshkak eshdim, barmen quyruqqa o'tirdi, qarmoqni tashladi. Qarmog'i ko'l xonbalig'ini ovlaydigan uchida og'ir cho'ki va sipineri bo'lgan qarmoq edi. Biz qirg'oq yoqalab keta boshladik, barmen vaqt-vaqti bilan ipni tortib qo'yardi. Ko'lning ichidan Streza juda ham huvillab ko'rinardi. Barg-

lari to'kilib, quruq og'ochi qolgan daraxtlarning cho'zilib ketgan qatorlari, kattakon mehmonxonalar va qulflab ketilgan villalar ko'rinardi. Men Izola-Bella tomonga burildim-da qayiqni qirg'oq bo'ylab olib keta boshladim. Bu yerdan qoyalarning ko'l tagiga chuqur kirib ketgani tiniq suvda ko'rinib turardi. Biroz yurgach, baliqchilar oroliga tomon burildim. Quyosh bulutlar orasiga kirib ketdi, suv qorong'i, tiniq va juda ham sovuq edi. Baliq bir necha bor oldimizda aylanib yurdi-yu, ikki qarmog'imiz biron marta ham qimirlamadi.

Men qirg'og'iga qayiqlar chiqarib qo'yilgan, baliqchilar to'r tuzatishayotgan orolga tomon eshkak eshdim.

– Yuring, biron narsa ichaylik.

– Yuring.

Men qayiqni tosh qirg'oqda to'xtatdim. Barmen qarmoqni suvdan chiqardi, uni qayiq tagida o'radi-da, spinnerni bortning chetiga qistirib qo'ydi. Men tushib qayiqni bog'lab qo'ydim. Biz kichkina bir qahvaxonaga kirib, taxta stolga o'tirdik, vermut so'radik.

– Charchadingizmi?

– Yo'q.

– Qaytishda eshkakni men olaman, – dedi u.

– Men eshkak eshishni yaxshi ko'raman.

– Balki qarmoqni siz tashlasangiz omadimiz kelar.

– Mayli.

– Ayting-chi, urushda ahvol qanday?

– Yomon.

– Men borolmayman. Men xuddi graf Greffiday qarib qolganman.

– Balki hali sizga ham borishga to'g'ri kelib qolar.

– Kelasi yili mendaylarni chaqirishadi. Ammo men bormayman.

– Bormay nima qilasiz?

– Chet elga ketaman. Men urushga borishni istamayman. Men bir marta urushda bo'lganman, Abisiniyada. Yetar. Nega siz bordingiz?

– Bilmayman. Ahmoqlik.

– Yana ichamizmi?

– Mayli.

Qaytishda qayiqni barmen haydadi. Biz koʻldan Strezaning orqasiga aylanib oʻtdik, keyin orqaga qaytdik, qirgʻoq doim koʻz oʻngimizda turdi. Men qarmoqni ushlab, aylanayotgan spinnerning sekin-sekin qimirlashiga quloq solarkanman, noyabr oyining qorayib qolgan suvlariga, kimsasiz sohilga boqardim. Barmen keng quloch otib eshkak eshar, qayiq olgʻa sapchiganda qarmoq tarang tortildi va orqaga siltadi. Men torta boshladim, xonbaliqning ogʻirligini sezib turardim, keyin qarmoq yana tortildi. Xonbaliq tushib ketdi.

– Ogʻirmidi?

– Ancha ogʻir edi.

– Bir marta bir oʻzim ovlayotgan edim, qarmoqni tishim bilan ushlab oʻtirgandim, bittasi shundogʻam tortib qolsa boʻladimi, naq jagʻimni sugʻurib olay dedi.

– Eng yaxshisi, oyoqqa bogʻlab olish kerak, – dedim men. – Unda tortganini ham bilasiz, tishlaringiz ham omon qoladi.

Men qoʻlimni suvga tiqib koʻrdim. Suv juda ham sovuq edi. Biz mehmonxona qarshisiga borib qolgandik.

– Men borishim kerak, – dedi barmen, – men oʻn birda yetib borishim kerak. L'heure du cocktail.<sup>1</sup>

– Yaxshi.

Men qarmoqni chiqarib, uni ikki uchi kertib qoʻyilgan tayoqqa oʻradim. Barmen qayiqni tosh devorning kichkina oʻyigʻiga oʻrnashtirdi-da, zanjir solib qulflab qoʻydi.

– Yana tushgingiz kelsa, – dedi u, – sizga kalitni berib turaman.

– Rahmat.

Mehmonxonaga koʻtarilib barga kirdik. Ertalabdan turib boshqa ichgim kelmadi-da, oʻz xonamga chiqib ketdim. Oqsoch qiz endigina yigʻishtirib boʻlgan ekan,

---

<sup>1</sup> Kokteyl vaqti (*frans.*).

Ketrin esa hali qaytmabdi. Men o'ringa yotdim, kallamdan har xil fikrlarni quvishga harakat qildim.

Ketrin qaytib kelgandan keyin yana hamma narsa o'z o'rniga tushdi. Fergyson pastda turibdi, dedi u. U biz bilan nonushta qilarkan.

– Sen yo'q demasligingni bilardim, – dedi Ketrin.

– Mayli, – dedim.

– Nima qildi, jonim?

– Bilmadim.

– Men bilaman. Nima qilishingni bilmagansan. Sening mendan o'zga hech kiming yo'q, men bo'lsa, ketib qoldim.

– Sen haqsan.

– Kechir meni, jonim. Birdan atrofingda hech kim qolmasa, juda ham yomon bo'ladi, bilaman.

– Doim shovqin-suronda, odamlar ichida yashab kelganman, – dedim. – Endi yonimda sen bo'lmasang, hamma yoq huvillab qoladi.

– Men doim yoningdaman, jonim. Men faqat ikki soatgagina ketgandim. Biron ish bilan mashg'ul bo'lsangmikin?

– Men barmen bilan baliq ovlagani borgandim.

– Yaxshi bo'ldimi?

– Ha.

– Men yo'qligimda meni o'ylama.

– Frontda yurganimda shunday qilardim. Lekin u yerda qiladigan ishing boshingdan oshib yotadi.

– Iste'foga chiqqan Otello, – dedi u hazilomuz.

– Otello habash edi, – dedim men. – Bundan tashqari men rashkchi emasman. Faqat men seni shunday sevamanki, dunyoda sendan boshqa hech narsa ko'zimga ko'rinmaydi.

– Xo'p, endi yaxshi bola bo'lib, Fergyson bilan xushmuomalada bo'lgin.

– Men doim Fergyusonga xushmuomalada bo'lib kelganman, faqat o'zi gapni qarg'ashdan boshlamasa bo'lgani.



– Yaxshi muomala qil. O‘ylab ko‘r, biz ko‘p narsaga egamiz, uning esa hech narsasi yo‘q.

– U bizday bo‘lishiga ishonmayman.

– Sen, jonim, hech narsani bilmaysan, yana aqlli bolasan.

– Unga yomon gapirmayman.

– Shunday bo‘lsin, jonim. Qanday yaxshisan.

– Lekin keyin u qolmaydi, a?

– Yo‘q. Men uni jo‘natib yuboraman.

– Yana shu yerga qaytib kelamiz, a?

– Albatta. Bo‘lmasam-chi?

Biz Fergyson bilan nonushta qilgani pastga tushdik. Unga mehmonxona bilan hashamatli restoran qattiq ta‘sir qildi. Biz yaxshilab nonushta qildik, ikki shisha kapri ichdik. Restoranga graf Greffi kirib keldi, u bizga bosh egib qo‘ydi, yonida jiyani bor edi, ko‘rinishdan mening buvinga o‘xshab ketardi. Men u haqda Ketrin bilan Fergysonga hikoya qilib berdim, Fergyson qattiq ta‘sirlandi. Mehmonxona kattakon, hashamdor, kimsasiz bo‘lsa ham, lekin ovqatlari totli, vinosi yoqimli edi, oxirida hammamizning kayfiyatimiz bir qadar ko‘tarildi. Ketrinning vaqti chog‘ edi. U baxtiyor edi. Fergyson juda ochilib ketdi. O‘zimning ham ruhim ko‘tarildi. Nonushtadan keyin Fergyson o‘z mehmonxonasiga qaytdi. Men nonushtadan keyin biroz dam olmoqchiman, dedi u.

Kechqurun kimdir eshigimizni taqillatdi.

– Kim u?

– Graf Greffi bilyard o‘ynamasmikinlar deb so‘ra-yaptilar.

Men soatga qaradim; uni qo‘limdan olib, yostiqning tagiga tiqib qo‘ygan edi.

– Borish shartmi, jonim? – shivirladi Ketrin.

– Bormasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. – Soat to‘rt-dan o‘n besh daqiqa o‘tgandi. Men baland ovoz bilan dedim: – Graf Greffiga aytingki, men bilyardxonada soat beshda bo‘laman.

O'n beshta kam beshda Ketrinni o'pdim-da, kiyin-gani vannaga o'tdim. Galstugimni taqib oynaga qarar-kanman, o'zimni kishilik kiyimda yana g'alati sezdim. Yana ko'ylak bilan paypoq olmasam bo'lmas ekan deb qo'ydim.

– Qachon kelasan? – so'radi Ketrin. U to'shakda juda ham chiroyli edi. – Menga taroq bilan cho'tkani olib ber-chi.

U boshini bir tomonga qiyshaytirib sochlarini tarar-kan, butun sochlari bir tomonga sochilib tushdi. Tash-qariga qorong'i tushib kelmoqda edi, to'shakning bosh tomonidagi chiroqning nuri uning sochlariga, bo'yniga, yelkalariga to'kildirdi. Men borib uning taroqli qo'lini chetga qayirdim, shunda uning boshi yostiqa tegdi, uni o'pdim. Uning bo'ynilari, yelkalaridan o'pdim. Uni shunday qattiq sevardimki, boshim aylanmoqda edi.

– Borgim kelmayapti.

– Men ham borishingni istamayman.

– Unda bormayman.

– Yo'q. Bor. Uzoq ketmaysan-ku. Keyin qaytib ke-lasan.

– Biz shu yerda ovqatlanamiz.

– Bor, tezroq qaytib kel.

Graf Greffi bilyardxonada ekan. U turli zarblarni sinab ko'rar, bilyard tepasiga tushib turgan chiroq shu'lasida o'zi uvoqqina bo'lib ko'rinardi. Sal nariroq-da, qorong'i burchakdagi stolchada ichiga muz so-lingan kumush paqircha bo'lib, undan ikki shisha shampanning bo'yni chiqib turardi. Kirishim bilan graf Greffi qaddini tikladi va menga peshvoz yurdi. U menga qo'lini uzatdi.

– Sizni bu yerda ko'rganimdan juda xursandman. Iltifot qilib men bilan o'ynagani kelibsiz.

– Meni o'yinga taklif qilib iltifot ko'rsatganingizdan boshim osmonga yetdi.

– Sog'ligingiz qalay? Siz Izontsoda yaralanibsiz deb eshitgandim. Butunlay shifo topib ketdingizmi?

– Sogʻligʻim yaxshi. Oʻzingiz tuzukmisiz?

– O, men doim sogʻman. Lekin qarib qolyapman. Qarilik alomatlarini sezyapman.

– Bunga odamning ishongisi kelmaydi.

– Ha. Mana sizga bir misol. Menga hozir boshqa tilda gapirishdan koʻra italyan tilida soʻzlash osonroq. Men oʻzimni majbur qilaman, lekin toliqqan mahallarimda menga baribir italyanacha gapirish yengilroq koʻrinadi. Shunga qaraganda qarib qolayotibman, shekilli.

– Italiyanacha gaplashaveramiz. Men ham biroz charchaganman.

– O, agar charchagan boʻlsangiz, sizga inglizcha gapirish qulayroq boʻladi.

– Amerika tilida.

– Ha. Amerika tilida. Marhamat, Amerika tilida gapiravering. U shunday bir jozibali tilki...

– Men hozir amerikaliklar bilan deyarli koʻrishmay qoʻyganman.

– Siz, aftidan, ularsiz juda zeriksangiz kerak. Vatandoshlaring boʻlmasa, juda zerikarli boʻladi va ayniqsa, vatandosh qizlar boʻlmasa. Men buni oʻz tajribamdan bilaman. Xoʻp, oʻynaymizmi yoki qattiq charchaganmisiz?

– Men charchaganim yoʻq. Men buni hazillashib aytdim. Menga oldindan qancha ochko berasiz?

– Siz koʻp oʻynab turdingizmi?

– Hech oʻynaganim yoʻq.

– Siz juda yaxshi oʻynaysiz. Oʻn ochko?

– Siz meni maqtab yuboryapsiz.

– Oʻn besh?

– Bu juda ham antiqa boʻlardiyu, lekin siz meni baribir yutasiz.

– Pul tikib oʻynaymizmi? Siz doim pul tikib oʻynashni maʼqul koʻradingiz.

– Maʼqul.

– Balli. Men sizga oʻn sakkiz ochko beraman har ochkoga bir frankdan tikib oʻynaymiz.

U partiyani juda ham chiroyli boshladi, menga oldindan shuncha ochko berganiga qaramasdan o'yin yarimlab qolgandagina to'rt ochkoga oshib ulgurgan edim. Graf Greffi qo'ng'iroq chalib barmenni chaqirdi.

– Marhamat qilib bizga bir shishani ochib bersangiz, – dedi u. Keyin menga dedi: – Ko'ngil hushiga bir stakandan ichaylik.

Vino muzdekkina ekan, juda quruq va yaxshi edi.

– Italyancha gaplashamiz. Siz qarshi emasmisiz? Men unga juda o'rganib qoldim.

Biz soqqalarni haydab vino ichar, italyanchada suhbatlashardik, lekin umuman olganda, o'yinga ko'proq chalg'ib, gapga kamroq ahamiyat berardik. Graf Greffi yuz ochko urdi, men faqat to'qson to'rt ochko ololdim, xolos. U kulimsirab, yelkamga qoqib qo'ydi.

– Endi ikkinchi shishani ochamiz va siz menga urush haqida gapirib berasiz. – U mening o'tirishimni kutdi.

– Boshqa biron narsa haqida gaplashsak bo'lmaydimi? – dedim.

– Siz bu haqda gapirishni istamaysizmi? Yaxshi. Keyingi paytlarda nimalarni o'qidingiz?

– Hech narsa, – dedim. – Keyingi paytlarda o'tmaslashib qoldimmi, deb qo'rqaman.

– Yo'q. Lekin o'qishingiz kerak.

– Urush davrida nimalar chiqdi?

– Bir fransuzning Barbyusning «Lefeu»<sup>1</sup> degan kitobi chiqdi. Yana «Mister Britling hammasini ko'radi» chiqdi.

– Bu yolg'on.

– Nima yolg'on?

– U hammasini ko'rmaydi. Bu kitoblar bizning gos-pitalimizda bor edi.

– O'qigan ekanisiz-ku, o'qimadim, deysiz.

– Yaxshi narsa o'qimadim.

---

<sup>1</sup> O't (*frans.*).

– Menimcha, «Mister Britling»da ingliz burjuaziya-sining qalbi juda yaxshi ko'rsatib berilgan.

– Men qalb nimaligini bilmayman.

– Bechora. Hech kim bilmaydi qalb nima deganini, Siz – croyantmisiz?<sup>1</sup>

– Faqat kechasi.

Graf Greffi kulimsiradi va stakanini qo'lida aylantirdi.

– Men yoshim qaytgach, xudojo'y bo'lib qolaman, deb o'ylagandim, lekin nima uchundir bunday bo'lmadi, – dedi u, – afsus.

– Siz o'lgandan keyin qolishni istarmidingiz? – dedim va shu zahoti o'limdan gapirganim uchun tilimni tishlab qoldim. Lekin u bu so'zdan ranjigani yo'q.

– Gap qanday qolishda. Bu hayot juda shirin. Men asrlarcha yashashni istardim. – U jilmaydi. – Bunga erishay deb qoldim.

Biz chuqur charm kreslolarda o'tirar, o'rtamizda qadahlar va kumush paqirchada shampan qo'yilgan stolcha turardi.

– Agar mening yoshimga yetsangiz, dunyodagi ko'p narsalar sizga g'alati bo'lib ko'rinadi.

– Siz qariganga o'xshamaysiz.

– Tan qariyapti. Ba'zan barmoqlarim bo'rning bir uchi uchib tushganday, uchib ketadiganga o'xshaydi. Ruhim esa qarimaydi, aqlim ham ko'payayotgani yo'q.

– Siz donosiz.

– Qarilar dono bo'ladi degan gap – yanglish gap. Qarilar dono emas. Ular ehtiyotkor bo'lishadi, xolos.

– Ehtimol, shuning o'zi donolik bo'lsa kerak.

– Bu anchayin yoqimsiz donolik. Siz hammadan ko'ra nimani qadrlaysiz?

– Suyukli ayolni.

– Mana men ham shunday. Bu – donolik emas. Hayotni qadrlaysizmi?

---

<sup>1</sup> Dindormisiz? (frans.)

- Ha.
- Men ham. Chunki mening shundan boshqa narsam yo‘q. Yana tug‘ilgan kunlarimni siylayman, – kuldi u. – Siz mendan ko‘ra donoroq bo‘lsangiz kerak. Siz o‘z tug‘ilgan kuningizni bayram qilmaysiz.
- Siz urush haqida aslida qanday fikrdasiz? – so‘radim men.
- U juda behuda narsa, deb o‘ylayman.
- Kim uni yutib chiqadi?
- Italyanlar.
- Nega?
- Ular ancha navqiron millat.
- Urushda navqiron millatlar g‘alaba qilishadimi?
- Ma‘lum bir davrda ular bunga qodir bo‘ladilar.
- Keyin ular qari millatga aylanadilar.
- Siz yana dono emasman, deb o‘tiribsiz.
- Jon bolam, bu – donolik emas. Bu – bepisandlik.
- Menga qolsa, bu zo‘r donolik.
- Unchalik emas. Sizga buning aksini isbotlaydigan misollar keltirishim mumkin edi. Lekin u yomon aytilmagan. Biz hamma shampanni ichib qo‘ydikmi?
- Deyarli.
- Balki yana icharmiz? Keyin men qayta kiyingani boraman.
- Boshqa ichmay qo‘ya qolaylik.
- Siz chindan ham istamaysizmi?
- Ha.
- U turdi.
- Sizga ko‘p baxt, ko‘p omad, ko‘pdan ko‘p sihat-salomatlik tilayman.
- Tashakkur. Men esa, sizga bir asr umr tilayman.
- Tashakkur. Shunga intilyapman. Agar biron sabab bilan bir kuni xudojo‘y bo‘lib qolsangiz, men o‘lganimda ikki og‘iz fотиha o‘qib qo‘ying. Men bir qancha do‘stlarimdan shuni iltimos qildim. O‘zim xudojo‘y bo‘laman devdim, qo‘limdan kelmadi.

Menga u ma'yus jilmayganday tuyuldi, lekin aniq ko'rganim yo'q. U g'oyatda qari edi, yuzlarini ajinlar bosgan, kulganida shunchalik ko'p ajinlar yuzini qoplar ediki, ular ma'nosini anglab yetish qiyin edi.

– Men ehtimol, juda xudojo'y bo'lib qolsam kerak, – dedim men. – Nima bo'lganda ham men siz uchun ibodat qilaman.

– Men har doim xudojo'y bo'lsam kerak, deb kutgandim. Mening oilamda ko'pchilik xudojo'y bo'lib, so'ng o'lardi. Lekin nimagadir bunday bo'lmadi.

– Hali juda ham erta.

– Balki juda kech bo'lgandir. Balki, men dindor bo'lish hissiyotini yo'qotib qo'ygandirman.

– Menda u faqat kechasi paydo bo'ladi.

– Lekin siz yaxshi ko'rasiz. Bu ham diniy tuyg'u ekanligini unutmang.

– Rostdanmi?

– Albatta. – U bilyardga tomon bir qadam tashladi.

– Men bilan o'ynab katta iltifot ko'rsatdingiz.

– Mening ham bundan boshim osmonga yetdi.

– Yuring, tepaga birga chiqamiz.

### **O'ttiz oltinchi bob**

Kechasi momaqaldiroq bo'ldi, men yomg'ir deraza oynalariga shatirlatib urayotganini eshitdim. Ochiq derazadan suv oqib tushmoqda edi. Kimdir eshikni taqillatdi. Men Ketrinni uyg'otib yubormaslik uchun eshikka ohista bordim. Eshikni ochdim. Barmen ekan. U palto kiyib olgan, qo'lida ho'l shlyapasini ushlab turardi.

– Siz bilan gaplashishim kerak, tenente.

– Nima gap?

– Juda jiddiy ish.

Men orqamga qaradim. Xona ichi qorong'i edi. Deraza tagida yomg'ir suvi ko'lmak bo'lib qolganini ko'rdim. – Kiring, – dedim men. Qo'lidan ushlab vannaxonaga

olib kirdim-da, eshikni yopib chiroqni yoqdim. Men vannaning chetiga o'tirdim.

– Nima gap, Emilio? Boshingizga biron ish tushdimi?

– Yo'q. Gap siz haqingizda, tenente.

– Shunday deng?

– Ertalab sizni qamagani kelishadi.

– Shunday deng?

– Men sizga aytgani keldim. Men shaharda bo'lgan edim, qahvaxonada eshitib qoldim.

– Tushunarli.

U qarshimda ho'l paltoda, qo'lida ho'l shlyapasini ushlab turardi. Jim bo'lib qoldi.

– Meni nimaga qamashmoqchi ekan?

– Urush bilan bog'liqqa o'xshaydi.

– Nimaligini bilasizmi?

– Yo'q. Lekin men avval sizni bu yerda ofitser kiyimida ko'rgandim, endi esa, siz kishilik kiyim kiyib keldingiz. Anavi chekinishdan keyin ular duch kelgan odamni qamashga ham tayyorlar.

Bir daqiqa o'ylanib qoldim.

– Soat nechada kelishmoqchi ekan?

– Ertalab. Soatini aniq bilmayman.

– Siz qanday maslahat berasiz?

U shlyapasini rakovina ichiga qo'ydi. Shlyapa ho'l bo'lganidan suvi muttasil polga oqib tushayotgan edi.

– Agar o'zingizga ishonsangiz, qo'rqadigan joyi yo'q. Lekin qamoqqa tushish kimga yoqadi, deysiz. Ayniqsa, hozir.

– Men qamoqqa tushishni istamayman.

– Unda Shveysariyaga keting.

– Qanday qilib?

– Mening qayig'imda.

– Ko'lda bo'ron bo'lyapti, – dedim.

– Bo'ron o'tib ketdi. To'lqin bor, lekin siz eplaysiz.

– Qachon ketishimiz kerak?

– Hozir. Ular erta saharda kelishlari mumkin.

– Narsalarimizni nima qilaman?



– Yigʻishtiring. Xonimingiz ham kiyinsinlar. Yuklarni men toʻgʻrilayman.

– Siz qayerda boʻlasiz?

– Shu yerda kutaman. Meni dahlizda koʻrsalar, boʻlmaydi.

Eshikni ochdim, keyin yopib yotoqqa kirdim. Ketrin uygʻongan edi.

– Nima gap, jonim?

– Hech narsa. Ket, – dedim men. – Hozir kiyinib, qayiqda Shveysariyaga ketishni istaysanmi?

– Sen istaysanmi?

– Yoʻq, – dedim men. – Men yana oʻringa yotishni istayman.

– Nima boʻldi?

– Barmenning aytishicha, ertalab meni qamoqqa olgani kelisharmish.

– Barmenning aqli joyidami?

– Ha.

– Unda tezroq boʻla qol, jonim, kiyin, hoziroq ketamiz. – U toʻshakning chetiga oʻtirdi. Uning hali uyqusi qochmagandi. – Vannadagi oʻsha barmenmi?

– Ha.

– Unda men yuvinib oʻtirmayman. Jonim, menga qaramay tur, darrov kiyinib olaman.

U tungi koʻylagini yechayotganda uning oppoq yelkasini koʻrdim, keyin u qarama degani uchun orqamni oʻgirib turdim. U endi toʻlisha boshlagan, shuning uchun unga qarashimni istamasdi. Men tashqarida yomgʻirning shovqinini eshitib kiyindim. Yuklarimiz deyarli yoʻq edi.

– Agar kerak boʻlsa, mening jomadonimda hali joy koʻp, Ket.

– Hammasini joylab boʻldim, – dedi Ket. – Jonim, men juda ham tentakman, lekin nega barmen vannada oʻtiribdi?

– Chshshsh, u yuklarimizni pastga olib tushgani kutib oʻtiribdi.

– Muncha yaxshi!

– U mening eski og‘aynim, – dedim men. – Bir marta unga o‘ralgan tamaki yuborishimga sal qolgan.

Derazadan zimistonlikka qaradim. Ko‘l ko‘rinmas, zimiston tun va yomg‘ir, lekin shamol to‘xtagandi.

– Men bo‘ldim, jonim, – dedi Ketrin.

– Yaxshi. – Men vannaning eshigi tagiga keldim.

– Mana jomadonlar, Emilio, – dedim. Barmen ikkala jomadonni oldi.

– Bizga yordam bermoqchi bo‘libsiz, himmatli ekansiz, – dedi Ketrin.

– Arzimaydi, – dedi barmen. – Men sizlarga yordam berayotganimdan xursandman, lekin boshimg‘avg‘oga qolmasa, deb qo‘rqaman. Menga qarang, – dedi u menga, men orqa zinadan yuklarni to‘g‘ri qayiq oldiga olib boraman. Sizlar xuddi aylangani chiqqanday bemalol chiqib boringlar.

– Sayr qilsa arziydigan tun, – dedi Ketrin.

– Bevosh kecha, nimasini aytasiz.

– Yaxshiyam soyabonim bor ekan-a, – dedi Ketrin. Biz yo‘lakdan o‘tib, poyandoz to‘shalgan keng zinadan pastga tushdik. Pastda, o‘zining eshik oldidagi hujrasida porte o‘tirgan ekan.

Bizni ko‘rib juda hayron bo‘ldi.

– Siz eshikka chiqmoqchimisiz, ser? – so‘radi u.

– Ha, – dedim. – Biz shamolda ko‘lni ko‘rmoqchimiz.

– Sizning soyaboningiz yo‘qmi, ser?

– Yo‘q, – dedim. – Mening paltomdan suv o‘tmaydi.

U gapimga ishonmay qaradi. – Men sizga soyabon beraman, ser, – dedi u. U borib kattakon soyabon olib keldi. – Biroz kattaroq, ser, – dedi u. Men unga o‘n lir berdim. – O, juda saxiy ekansiz, ser. Ming rahmat, – dedi u.

U bizga eshiklarni ochib berdi va biz yomg‘irga chiqdik. U Ketringa jilmaydi, Ketrin ham unga jilmaydi. – Tashqarida, shamolda uzoq qolib ketmanglar, – dedi u. – Ivib ketasiz, ser va ledi. U kichik porte edi, shuning

uchun inglizcha gapirganda hali maktab bolalariga o'xshab gapirardi.

– Biz tezda qaytamiz, – dedim.

Biz kattakon soyabon ostida yo'lkadan bordik, keyin shalabbo, qop-qorong'i bog' bilan yo'lga chiqdik, yo'ldan chetlariga butalar ekilgan qirg'oq bo'yi xiyobonga o'tdik. Endi shamol qirg'oq tomondan esardi. Bu rutubatli, sovuq shamol edi, men tog'lar-da qor yog'ayotganini bilardim. Biz qirg'oqqa bog'lab qo'yilgan qayiqlar oldidan o'tib, barmenning qayig'i turgan yerga keldik. Suv qoyadan ham qoraroq edi. Barmen daraxtlar orqasidan chiqib keldi.

– Jomadonlar qayiqda, – dedi u.

– Men sizga qayiqning pulini bermoqchi edim, – dedim.

– Qancha pulingiz bor?

– Uncha ko'p emas.

– Pulni menga keyin yuborasiz. Shunday qilsak, yaxshi bo'ladi.

– Qancha?

– O'zingiz bilasiz.

– Menga qanchaligini aniq ayting.

– Agar yaxshi yetib borsangiz, menga besh yuz frank yuboring. Agar omon-eson yetib borsangiz, bu sizga uncha og'ir tushmaydi.

– Yaxshi.

– Manavi sandvichlar. – U menga tuguncha uzatdi. – Barda bori shu ekan. Manavi esa bir shisha konyak bilan bir shisha vino.

Men bularni o'z jomadonimga solib oldim. – Hech bo'lmasa, shularning haqini oling mendan.

– Yaxshi, menga ellik lir bering.

Unga pulni berdim.

– Yaxshi konyak, – dedi u. – Bemalol xonimga ham bersangiz bo'ladi. U kishi qayiqqa o'tirib olsinlar endi.

U tosh qirg'oqda dam ko'tarilib, dam tushib turgan qayiqni ushlab turdi, men Ketrinni qayiqqa o'tqizdim. U quyruqqa o'tirdi-da, plashiga o'ralib oldi.

– Siz qayerga borishni bilasizmi?

– Doim shimolga qarab yurish kerak.

– Qanday borishni-chi?

– Luinoga.

– Luinoga, Konnero, Kannobio, Trantsanoga, Brissagoga borganda Shveysariyada bo'lasiz. Siz Monte-Tamaradan o'tishingiz kerak.

– Hozir soat necha? – so'radi Ketrin.

– Endi o'n bir bo'ldi, – dedim.

– Agar tinmay yursangiz, ertalab soat yettilarda u yerda bo'lasiz.

– Shuncha uzoqmi?

– Qirq ikki chaqirim.

– Adashmasak bo'lgani. Bunaqa havoda kompas kerak.

– Yo'q. Izola-Bellaga yuring. So'ng Izola-Madredan o'tganingizdan keyin shamol esgan tomonga boring.

– Shamol sizni Pallansaga olib boradi. Siz chiroqlarni ko'rasiz. Keyin qirg'oq bo'ylab haydang.

– Shamol o'zgarib qolishi mumkin.

– Yo'q, – dedi u. – Bu shamol uch kun esib tura-di. U to'g'ri Mattaronedan esyapti. Anavi yerda suvni sepib tashlash uchun tunuka bor.

– Qayig'ingizning juda bo'lmasa kamroq haqini oling.

– Yo'q, men tavakkal qilmoqchiman. Agar yetib borsangiz, menga to'la bahosini to'laysiz.

– Mayli unday bo'lsa.

– Shoyad cho'kmasdan yetib borsangiz.

– Shoyad.

– Shamolga qarab boravering.

– Xo'p. – Men qayiqqa sakradim.

– Siz xonaning pulini qoldirdingizmi?

- Ha. Stol ustida, konvertida.
- Yaxshi qilibsiz. Oq yo‘l.
- Xayr endi. Katta rahmat.
- Agar cho‘kib ketsangiz, hammasi arzimaydi.
- Nima deyapti? – so‘radi Ketrin.
- Yaxshi yetib olinglar, deyapti.
- O‘zingiz ham yaxshi qoling, – dedi Ketrin. – Katta, katta rahmat sizga.
- Bo‘ldingizlarmi?
- Ha.

U egilib qayiqni qirg‘oqdan itarib yubordi. Men eshkakni suvga botirdim, keyin unga qo‘limni silkidim. Javob o‘rniga u ehtiyot bo‘linglar, degan ishora-ni qildi. Men mehmonxona chiroqlarini ko‘rdim va u ko‘zdan yo‘qolguncha to‘g‘riga eshkak solib boraverdim. Ko‘l dengizday g‘alayonli edi, lekin biz shamolga qarab borardik.

### **O‘ttiz yettinchi bob**

Men qorong‘ida eshkakni shamol doim yuzimga urilib turadigan qilib eshib bordim. Yomg‘ir tingan, faqat onda-sonda shamol bilan odamning afti-basharasiga bir selpib, sepalab o‘tardi. Men quyruqda o‘tirgan Ketrinni ko‘rib turardim, lekin eshkak tushayotganda suvni ko‘rmasdim. Eshkaklar juda uzun edi, lekin tasma bilan mahkamlab qo‘yilmagandi. Men eshkaklarni suvga botirar, ularni old tomonga olib borar, suvdan chiqarar, yana suvga olib borar, yana botirar, iloji boricha yengil boshqarishga harakat qilardim. Eshkaklarni shamol bizga qarab esayotganidan suvga yotiqroq qilib botirishga intilardim. Qo‘llarim qavarib ketishini bilar, lekin qavarsa ham sal keyinroq borib qavarishini istardim. Qayiq yengil edi, eshkakka yaxshi bo‘ysunardi. Tim qora suvdan uni olg‘a surib ketmoqda edim. Hech narsani ko‘rib bo‘lmas, lekin men tez orada Pallansaga yetib qolarmiz, deb umid qilardim.

Baribir Pallansani ko'rolmadik. Shamol janubdan esar va biz qorong'ida Pallansa burnidan o'tib uning chiroqlarini ko'rmay qolibmiz. Nihoyat, yiroqlarda – deyarli qirg'oqning naq o'zida qandaydir chiroqlar ko'rin-di, bu Intra edi. Ammo biz anchagacha hech qanday chiroqlarni, qirg'oqni ko'rmadik, qorong'ida shitob bilan to'lqinlarda sirpanib olg'a bosaverdik. Ba'zan to'lqin qayig'imizni balandga ko'tarib yuborar, men eshkaklarni havoda silkitardim. Ko'l hamon to'palon qilar, lekin men eshkak urishdan to'xtamasdim. Bir mahal qirg'oqdan turtib chiqqan qoyaga urilib chil-parchin bo'lib ketishimizga oz qoldi; to'lqinlar qoya-ga urilib yuksakka sapchib ko'tarilar, so'ng pastga shaldirab tushardi. Men o'ng qo'limdagi eshkakka qat-tiq zo'r berdim, ayni chog'da chap eshkak bilan orqaga tisarildim va omon-eson sohildan yiroqlashib ketdik; qoya ko'zdan yo'qoldi, biz yana ko'ldan suzib ketdik.

– Biz u tomonga o'tib oldik, – dedim Ketringa.

– Biz hali Pallansani ko'rishimiz kerak edi-ku?

– U Pallansa burnining ortida qoldi.

– O'zing charchamadingmi, jonim?

– Unchamas.

– Birpasga o'rin almasha qolaylik.

– Nega? Kerakmas.

– Bechora Fergyson! – dedi Ketrin. – Ertalab meh-monxonaga kelsa, biz yo'qmiz.

– Buning tashvish qiladigan joyi yo'q, – dedim. – Bojxona qo'riqchilari ko'rmasdan, qorong'ida Shvey-sariyaga yetib olsak, bo'lgani.

– Uzoqmi hali?

– O'ttiz kilometrcha.

Tuni bilan qo'lim eshkakdan bo'shamadi. Kaftla-rim shu qadar shilinib ketdiki, eshkakni bazo'r ushlab borardim. Bir necha marta sohilga urilib ketay dedik. Men adashib ketmay, vaqt o'tmasin deb sohil yaqini-dan ketayotgandim. Ba'zan biz qirg'oqqa shunchalar

yaqin borar edikki, sohil yoqalab ketgan yo'lni, yo'l bo'yidagi daraxtlarni va orqadagi tog'larni ko'rardik. Yomg'ir tindi va shamol bulutlarni haydab yuborgan edi. Oy chiqdi, men aylanib qarab, qorayib turgan uzunchoq Kastanola burnini, oq yolli ko'lni, oy nurida yotgan uzoq qorli tog' cho'qqilarini ko'rdim. Keyin osmonni yana bulut burkab oldi, ko'l ham, tog'lar ham g'oyib bo'ldi, lekin endi ilgarigiga qaraganda ancha yorug'roq edi, qirg'oq ham ko'rinib turardi. Ko'ringanda ham juda ravshan ko'rinar, shuning uchun Pallansa yo'lida agar bojxona soqchilari yurgan bo'lsa, ko'rib qolmasinlar deb, qayiqni nariroqqa olib ketdim. Oy yana bir marta chiqqanda biz sohil tomonda tog' yon-bag'irlaridagi villalarni va daraxtlar oralab cho'zilib ketgan oppoq yo'lni ko'rdik. Men tinmay eshkak eshib bormoqda edim.

Ko'l kengayib ketganday bo'ldi va ko'lning narigi betida chiroqlar ko'rindi, bu, ehtimol, Luino edi. Men tog'lar orasida xanjardek tilingan darani ko'rib, Luino shu bo'lsa kerak, deb o'yladim. Undoq bo'lsa, biz ancha tez yurib borayotgan bo'lamiz. Men eshkaklarni qayiqqa tortib oldim-da, yelkam bilan uzala tushib yotdim. Men juda, juda charchadim. Qo'llarim, kuraklarim, yelkalarim zirqirab og'rir, kaftlarim shilinib ketgandi.

– Soyabonni ochsak, qandoq bo'larkin? – dedi Ket-rin. – Shamol unga tegib, qayiqni tez haydab ketgan bo'lardi.

– Ushlab tura olarmikansan?

– Harakat qilaman.

– Manavi eshkakni qo'ltig'ingga olgin, uni bortga qisib turib boshqarib bor. Men soyabonni ushlab ketaman.

Quyruqqa o'tib eshkakni qanday ushlash kerakligini unga ko'rsatdim. Men qayiqning burniga ro'baru o'tirib, porte bergan kattakon soyabonni olib, ochdim. U sharaqlab ochildi. Men uning bandiga o'tirib olgan-cha, ikki chekkasidan ushlab oldim. Shamol unga

qarab qattiq urila boshladi, uning chetiga mahkam yopishib olgan holda qayiqni uchirib olib ketayotganini sezib turdim. Soyabon qo'limdan chiqib ketay-chiqib ketay derdi. Qayiq g'oyatda tez yelib bormoqdaydi.

– Uchib ketyapmiz, – dedi Ketrin. Men soyabonning simlaridan boshqa narsani ko'rmasdim. Soyabon qattiq tortqilab, yulqinar, men u bilan birga olg'a borayotganimizni his qilib turardim. Oyoqlarimni qattiq tirab unga yanada qattiqroq yopishib oldim, keyin bir narsa charsillab ketdi. Simlardan biri manglayimga kelib urilgandi, men zontning shamolda bukilib ketayotgan tepasini ushlab olmoqchi edim, shu mahal hammasi sharaq etib teskari bo'lib ketgan va hozirgina shamol to'lib turgan yelkan o'rnida shalviragan latta-puttalar-u, men ushlab o'tirgan bandigina qoldi. Bandning ilmog'ini qayiq o'rindig'idan ajratib oldim-da, zontni qayiqning tagiga qo'yib, eshkakni olish uchun Ketrinning yoniga surildim. U xaxolab kulardi. U mening qo'limdan ushlab oldi-da, xaxolashda davom etdi.

– Senga nima bo'ldi? – Uning qo'lidan eshkakni oldim.

– Sen anavi narsa bilan shundog'am kulgili ko'rindinki.

– Qiziq bo'ldimi?

– Jahling chiqmasin, jonim. Biram kulgili bo'ldi. Sen juda ham kengayib ketganday bo'lding, yana soyabon chetlarini shunaqayam joningni berib qisib oldingki...

– Kulaverib uning nafasi ichiga tushib ketdi.

– Qani yo'lga tushaylik bo'lmasa.

– Damingni ol, konyak ichib ol. Shunaqangi ajoyib kecha bo'lyaptiki, ancha yo'lni bosib ham qo'ydik.

– Qayiqni to'lqinga ko'ndalang qilib qo'yish kerak.

– Men shishani olib beraman. Keyin sen biroz damingni ol.

Men eshkakni ko'tardim va biz to'lqinlarda chayqala boshladik. Ketrin jomadonni ochdi. U konyak shishasini uzatdi. Men pakkim bilan tiqinini chiqar-



dim-da, qonib ichdim. Juda o'tkir konyak ekan, butun badanimga o't yugurdi, qizidim va kayfiyatim ko'tarildi.

– Yaxshi konyak, – dedim. Oy yana bulutlar orasiga yashirindi, biroq qirg'oq ko'rinib turardi. Oldinda ko'l ichiga ancha kirib kelgan strelka bor edi.

– Sovqotmadingmi, Ket?

– Yo'q, yaxshiman. Faqat oyoqlarim biroz uvushib qoldi.

– Qayiqning tagidagi suvlarni sepib tashla, keyin oyog'ingni uzatib o'tirasan.

Men yana qayiqni haydab ketdim, eshkakning g'irchillagani, tunuka idishning qayiq tagiga tegib taqirlagani eshitildi.

– Qo'lingdagini menga berib tur, – dedim. – Suv ichgim kelyapti.

– U judayam iflos.

– Hechqisi yo'q. Chayib tashlayman.

Men Ketrin idishni suvda chayqayotganini eshitdim. Keyin u menga suv to'ldirib uzatdi. Konyakdan keyin tomog'im qaqrab ketgandi, suv shu qadar muzday ediki, tishlarim zirqirab ketdi. Men sohilga qaramdim. Biz strelkaga yaqinlashib bormoqda edik. Oldinda, ko'rfaz tomonda chiroqlar ko'rindi.

– Rahmat, – dedim va unga idishni qaytarib berdim.

– Marhamat qilsinlar, – dedi Ketrin. – Ta'blari yana xohlamaydimi?

– Sen biron narsa yeb olsang bo'lardi.

– Yo'q. Hali ochqaganim yo'q. Ovqatni qorin eng ochadigan paytga saqlab qo'yamiz.

– Mayli.

Uzoqdan strelka bo'lib ko'ringan narsa uzunchoq qoyali burun ekan. Men uni aylanib o'tish uchun qayiqni ko'lning o'rtasiga burdim. Ko'l bu yerda ancha tor edi. Yana oy chiqdi, agar, guardia di Finanza<sup>1</sup> sohildan

---

<sup>1</sup> Bojxona soqchilari (*ital.*).

kuzatib turgan bo'lsa, ular suvda qorayib turgan bizning qayig'imizni ko'rgan bo'lardilar.

– Qalaysan, Ket?

– Juda yaxshi. Qayerga keldik?

– Yetishimizga sakkiz chaqirimcha qolgan bo'lsa kerak.

– Bechoraginam. Hali yana shuncha haydaysanmi. Tirikmisan o'zing?

– Tirikday. Durustman faqat kaftlarim shilinib ketdi.

Biz hamma vaqt shimolga qarab yurdik. O'ng sohildagi tog' tizmalari tugadi, nishablik quyiga, past qirg'oq bo'yiga olib tushardi, bu yerda mening hisobimcha Kannobio bo'lishi kerak edi. Men endi qirg'oqdan xiyla uzoqda yurmoqda edim, chunki bu yerlarda guardia bilan uchrashib qolish xavfi ko'proq edi. Oldinda, boshqa qirg'oqda gumbazga o'xshash baland tog' turardi. Men charchadim. Yana ozgina qolgandi, lekin kuching qolmaganda ozgina masofa ham yiroq bo'lib ko'rinadi. Shu tog'dan o'tib, kamida yana besh chaqirim ko'lni bosib o'tsak, Shveysariya suvlariga yetgan bo'lardik. Oy yana bota boshladi, u botmasdan oldin osmonni quyruq bulut o'rab oldi va juda ham qorong'i bo'lib ketdi. Men qirg'oqdan uzoqroqqa ketib vaqt-vaqti bilan eshkakni shamol uradigan qilib ko'tarib nafas rostlardim.

– Menga ber, ozgina haydab boray, – dedi Ketrin.

– Senga mumkin emasdir, deyman.

– Bo'lmagan gap. Bu menga, hatto, foydali ham. Oyoqlarimning chigali ham yoziladi.

– Mumkin emasdir, deyman, Ket.

– Bo'lmagan gap. Homilador yosh xonimlar ozozdan eshkak eshish bilan shug'ullansalar, sog'liqlariga ancha foyda bo'ladi.

– Mayli, bo'ldi, o'tir, kuchanmasdan hayda. Men sening o'rningga o'taman, keyin sen mening o'rnimga o't. O'tayotganingda bortni ushlab ol.

Men quyruqda paltomning yoqasini ko'tarib o'tirar, Ketrinning eshkak eshishiga qarab turardim. U yaxshi eshkak urar, lekin eshkaklar uzun bo'lganlaridan unga biroz noqulay edi. Men jomadonni ochib, ikkita sandvich yeb, konyak ichdim. Ancha yengil tortganday bo'ldim va yana ichdim.

– Charchaganingda menga ayt, – dedim men. Keyin biroz o'tgach: – Ko'zingga qara, yana qorningga eshkakni tiqib olmagin, – dedim.

– Unday bo'lganda hayot ancha osonlashardi, – dedi Ketrin eshkakni suvga tashlarkan.

Men yana konyak ichdim.

– Qalay?

– Yaxshi.

– Joningga tegsa, ayt.

– Xo'p.

Men yana konyak ichib, keyin qayiqning chetini ushlab o'rtasiga bordim.

– Kerakmas. Charchaganim yo'q.

– Yo'q. Joyingga bor. Men yaxshilab dam olvoldim.

Konyakdan keyin allamahalgacha ancha yaxshi boshqarib bordim. Keyin yana eshkak qo'limdan chiqib keta boshladi va men uni suvga qisqa-qisqa ura boshladim, konyak ichgach, qattiq harakat qilganimdan og'zimga achchiq bir narsaning ta'mini his qildim.

– Menga bir qultum suv bersang-chi, – dedim.

– Bir chelak desang ham topiladi.

Tong oldidan yana yomg'ir tomchilay boshladi. Shamol to'xtadi, balki ko'lining burilgan joyidan o'rab olgan tog'lar panohida turganligimiz uchun shunday bo'layotgandir. Tong otayotganini ko'rgach, o'rindiqqa qulayroq o'tirib oldim-da, zo'r berib eshkak esha boshladim. Men qayerda turganligimizni bilmas, tezroq ko'lining Shveysariya qismiga o'tib olishni istardim. Tong yorisha boshlaganda biz sohilga ancha yaqin borib qolgandik. Daraxtlar va ko'l bo'yidagi toshloqlar shundoq ko'rinib turardi.

– Nima bu? – dedi Ketrin. Men eshkaklarni ko‘tarib quloq soldim. Motorli qayiqning ovozi kelmoqda edi. Biz sohilga borib to‘xtab turdik. Motor ovozi yaqinlashdi; keyin qayig‘imizdan sal narida yomg‘irda ketayotgan motorli qayiqni ko‘rdik. Qayiqning quyruig‘ida to‘rtta duardia de Finanza o‘tirishar, boshlariga tog‘ o‘qchilari kiyadigan shlyapa bostirilgan, yoqalari ko‘tarilgan, yelkalarida karabinlari bor edi; to‘rtovlari ham bu azon chog‘ida uyqusiragan ko‘rinardilar. Men ularning yoqalaridagi sariq belgilarni ko‘rdim. Shlyapalarida ham qandaydir sariq ishoralari borga o‘xshadi. Qayiq motorini tirillatib o‘tib ketdi. Yomg‘irda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Men ko‘lning o‘rtasiga yo‘l oldim. Aftidan, chegara juda yaqin edi va men bizni soqchi chaqirib qolishini istamasdim. Qayiq qirg‘oqdan ko‘rinmaydigan masofaga yetgach, yana chorakam bir soatcha qayiqni boshqarib bordim. Bir marta biz yana motor ovozini eshitdik va men ovoz tinguncha narigi qirg‘oqda kutib turdim.

– Biz Shveysariyaga yetib kelganga o‘xshaymiz, Ket.

– Rostdanmi?

– Shveysariya armiyasini ko‘rmaguncha bir narsa deyish qiyin.

– Yoki Shveysariya flotini.

– Sen Shveysariya floti bilan hazillashma. Hozirgina o‘tgan motorli qayiq Shveysariya flotidan bo‘lsa kerak.

– Agarda Shveysariyaga kelgan bo‘lsak, maza qilib nonushta yeb olamiz. Shveysariyaning kulchalari, sariq moylari, murabbolari shundog‘am totli bo‘ladiki.

Kun yorishib ketgan, ivir-shivir yomg‘ir yog‘ardi. Shamol hamon janubdan esar, ko‘l yuzida to‘lqinning oq yollari chopib borardi. Shveysariyada ekanligimizga endi shubha qilmasdim. Sohildan, daraxtlar orasidan uylar ko‘rinar, yana ham nariroqda, qirg‘oqning

naq o'zida tosh uylar, tepaliklarda villalari, cherkovi bilan qishloq joylashgandi. Men qirg'oq yoqalab ketgan yo'l da soqchilar ko'rinib qolarmikin desam, yo'q, hech zog'ning qorasi ko'rinmadi. Keyin yo'l qirg'oqqa juda ham yaqinlashib keldi va yo'l bo'yidagi qahva-xonadan chiqayotgan soldatni ko'rdim. Uning formasi och ko'kimtir, boshida nemislarnikiga o'xshagan kaska bor edi. Uning yuzlari qip-qizil, ingichka mo'ylov qo'ygandi. U bizga qaradi.

– Unga qo'lingni silkitib qo'y, – dedim Ketringa. U qo'lini silkidi va soldat istar-istamay jilmaydi va u ham qo'lini silkib qo'ydi.

– Shveysariyaga kelganimizga ancha bo'lgan, shekilli, – dedim.

– Aniq bilganimiz tuzuk, jonim. Yana chegaraga kelganimizda orqamizga qaytarib yurishmasin.

– Chegara uzoqda qolib ketdi. Bu bojxona punktiga o'xshaydi. Menimcha, bu Brissagoning xuddi o'zi.

– Bu yerda italyanlar yo'qmikin ishqilib? Bojxonalarda doim qo'shni mamlakat odamlari ko'p bo'ladi.

– Urush bo'lmagan paytlarda shunday bo'ladi. Hozir italyanlarni chegaradan o'tkazishmasa kerak.

– Shaharcha ko'rkamgina ekan. Pristanda baliqchilarning juda ko'p qayiqlari turar, yog'och ayri-larga to'rlar ilib qo'yilgandi. Noyabrning erinchoq yomg'iri yog'ib turar, lekin bu yerda yomg'ir ham toza va quvonchli edi.

– Unda kel, to'xtaymiz-da, nonushta qilgani boramiz.

– Kel.

Men chap eshkak bilan ishlab qirg'oqqa bordim, keyin pristanning o'zida qayiqni to'g'rilab, yonim bilan borib to'xtadim. Men eshkaklarni chiqardim, temir halqadan ushlab oldim, oyog'imni ho'l toshga qo'ydim va Shveysariyaga qadam bosdim. Men qayiqni bog'lab, qo'limni Ketringa uzatdim.

– Tush, Ket. Juda ajoyib.

– Jomadonlar-chi?

– Qayiqda turaversin.

Ketrin tushdi va biz birga Shveysariyaga oyoq qo‘ydik.

– Qanday go‘zal mamlakat, – dedi u.

– Rostdanam go‘zal, a?

– Yur tezroq, nonushta qilamiz.

– Yo‘q, rostdanam ajoyib mamlakat, a? Qadam tashlasang, joning rohat qiladi.

– Mening oyoqlarim shu qadar jonsiz bo‘lib qolibdiki, hech narsani sezmaydi. Lekin rohatlikka rohatdir-a! Jonim, tushunsang-chi, biz bu yerdamiz, biz qurib ketkur Italiyasidan omon-eson qutulib chiqdik.

– Ha. Og‘zingga shakar, ha. Men hech qachon hech narsani bu qadar yaxshi tushunmagan edim.

– Manavi uylarga boq. Qanday ajoyib maydon! Hov anavi yerda nonushta qilish mumkin.

– Yomg‘irni ayt, yomg‘irni! Italiyada hech qachon bunaqa yomg‘ir yog‘maydi. Bu gashtli yomg‘ir.

– Dunyoda shundoq yerlar ham bor ekan-ku, jonim. Tushun, biz shu yerdamiz, shu yerdamiz. Bildingmi?

Biz qahvaxonaga kirib ozodagina taxta stolga o‘tirdik. Biz xuddi mast odamlarga o‘xshardik. Oldiga etak tutib olgan bir ajoyib pokiza xotin chiqib keldi va bizdan nima keltirishini so‘radi.

– Kulchalar, murabbo va qahva, – dedi Ketrin.

– Kechiringiz, hozir kulchalar yo‘q, urush vaqti.

– Unda non bering.

– Yo nonni yoqqa qovurib beraymi?

– Mayli.

– Tuxum bering.

– Janobga nechta tuxum pishirsam ma‘qul bo‘ladi?

– Uchta.

– Yaxshisi to‘rtta, jonim.

– Toʻrtta tuxum.

Xotin ketdi. Men Ketrinni oʻpib, qoʻlini qattiq siqib qoʻydim. Biz bir-birimizga termilishar, atrofga nazar solardik.

– Jonim, ayt-chi, ajoyib emasmi, a?

– Beqiyos, – dedim.

– Kulcha non boʻlmasa boʻlmas, – dedi Ketrin. – Men ularni kechasi bilan oʻylab chiqqan edim. Mayli, hech-qisi yoʻq. Hech narsa qilmaydi.

– Bizni aftidan tez orada qoʻlga olishsa kerak.

– Buni oʻylab boshingni qotirma, jonim. Biz oldin nonushta qilib olishimiz kerak. Nonushtadan keyin qamashsa, odamga uncha alam qilmaydi. Bundan tashqari ular bizni nima ham qilolardilar? Men Britaniya fuqarosiman, sen esa Amerikaning. Hamma narsamiz joyida.

– Sening pasporting bormi?

– Albatta. Ah, qoʻy, buni gaplashib oʻtirmaylik. Kel, shodligimizni buzmaylik.

– Haliyam quvonchimdan jonim ichimga sigʻmay turibdi, – dedim. Semiz bir kulrang mushuk dumi-ni burab kelib, xonani aylandi-da, mening oyogʻimga oʻralib olib hur-hur qilib ishqalana boshladi. Men engashib mushukni silab qoʻydim. Ketrin menga shodon jilmaydi. – Ana qahva, – dedi u.

Bizni nonushtadan keyin qoʻlga olishdi. Biz shaharchani birpas aylanib yurdik, keyin jomadonlarimizni olgani pristanga tushdik. Qayiq oldida soldat qorovullik qilib turgan ekan.

– Bu sizning qayigʻingizmi?

– Ha.

– Qayerdan keldingizlar?

– Koʻlning narigi tomonidan.

– Men bilan yurishga toʻgʻri keladi.

– Jomadonlar-chi?

– Olishingiz mumkin.

Men jomadonlarni oldim, Ketrin yonimda bordi, soldat esa orqamizdan. Biz bojxona joylashgan eski bir uyga keldik. Bunda bizni juda oriqlik ko'rinishidan jangari bir leytenant so'roq qila boshladi.

– Millatingiz?

– Amerikalik va ingliz.

– Pasportlaringizni ko'rsating.

Men o'zimga berdim, Ketrin sumkachasidan o'zimga oldi. U uzoq tekshirdi.

– Nega siz Shveysariyaga qayiqda keldingiz?

– Men sportchiman, – dedim. – Qayiqda suzish – mening eng sevikli mashg'ulotim. Imkoniyat tug'ilishi bilan eshkak eshsam deyman.

– Nega bu yerga keldingiz?

– Qishki sport bilan shug'ullangani. Biz turistlar-miz, qishki sportga juda qiziqamiz.

– Bu yer qishki sport bilan shug'ullanadigan joy emas.

– Bilamiz. Biz qishki sport bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan joyga bormoqchimiz.

– Italiyada nima qilib yuruvdingiz?

– Men arxitekturani o'rganayotgandim. Jiyanim san'at tarixini.

– Nega siz u yerdan ketib qoldingiz?

– Biz qishki sport bilan shug'ullanmoqchimiz. Urush paytida arxitekturani o'rganish qiyin.

– Shu yerda o'tirib turinglar, – dedi leytenant. U pasportlarimizni olib ichkari xonaga o'tib ketdi.

– Jonim, biram boplading-e, – dedi Ketrin, – shu gapda turaver. Sen qishki sport bilan shug'ullanmoqchisan.

– San'atdan biroz xabaring bormi?

– Rubens, – dedi Ketrin.

– Go'shti ko'p.

– Titsian, – dedi Ketrin.

– Titsian mo'ylari, – dedim men. – Xo'sh, Mantenya-chi?



– Sen qiyinlarini so‘ramagin-da, – dedi Ketrin. – Lekin men bilaman, u juda ham dahshatli rassom.

– Juda ham, – dedim. – Mix qoqilgan jarohatlarni ko‘rsatadi.

– Ko‘rdingmi, qanday ajoyib xotining bor, – dedi Ketrin. – Men san‘at haqida sening buyurtmachilaring bilan bahslasha olaman.

– Ana, u kelyapti, – dedim.

Oriq leytenant bojxonaning ichkarisidan pasportlarimizni ko‘tarib qaytib keldi.

– Sizlarni Lokarnoga jo‘natishga majburman, – dedi u. – Ekipaj olsangiz, siz bilan birga soldat boradi.

– Mayli, marhamat, – dedim. – Qayiq-chi?

– Qayiq musodara qilinadi. Jomadonlaringizda nima bor?

U har ikkala jomadonni ochib ko‘rdi va konyak shishasini chiqardi.

– Balki birga ulfatchilik qilarmiz, – dedim men.

– Yo‘q, rahmat. – U qaddini rosladi. – Qancha pularingiz bor?

– Ikki yarim ming lir.

– Jiyaningizda-chi?

Ketrinda bir ming ikki yuz lirdan ko‘proq bor ekan. Leytenant mamnun bo‘ldi. Bizga muomalasi ilidi hisob.

– Agar sizni qishki sport qiziqтира, – dedi u, – buning eng zo‘r joyi – Vengen. Vengenda otamning juda yaxshi mehmonxonasi bor. Yil bo‘yi ochiq.

– Ko‘p xursandman, – dedim men. – Manzillarini berolmaysizmi?

– Men sizga kartochkaga yozib beraman. – U menga kartochkasini tavoze bilan uzatdi. – Soldat sizni Lokarnogacha kuzatib qo‘yadi. Pasportlaringiz unda turadi. Afsus, lekin boshqa ilojimiz yo‘q. Men Lokarnoda viza bilan politsiyadan ruxsat olarsiz, deb umid qilaman.

U ikkala pasportni soldatga berdi va biz jomadonlarimizni ko‘tarib, ekipaj yollagani shaharchaga ketdik.

– Hey! – chaqirdi leytenant soldatni. U o‘z lahjasida bir narsalar dedi. Soldat miltig‘ini yelkasidan oshirib oldi-da, jomadonlarimizni ko‘tarib ketdi.

– Ajoyib mamlakat, – dedim men Ketringa.

– O‘z ishiga pishiq mamlakat har holda.

– Sizdan juda minnatdormiz, – dedim men leytenantga. U bizga qo‘lini silkib qoldi.

– Xizimatingizga tayyormiz, – dedi u. Biz o‘z soqchimizning ortidan tepaga ko‘tarila boshladik.

Lokarnoga ekipajda ketdik, soldat oldingi o‘rindiqqa, kucherning yoniga o‘tirib oldi. Lokarnoda ishimiz o‘ngidan keldi. Bizni so‘roq qilishdi, lekin pasportlarimiz, pullarimiz bor bo‘lgani uchun mulozamatdan chetga chiqishmadi. Ular mening bir og‘iz gapimga ham ishonishmagan bo‘lsa kerak, o‘zimcha ham bularni g‘irt ahmoqona gaplar deb o‘ylardim, lekin boshqa iloji yo‘q edi, bu sudga o‘xshash bir narsa edi. Bunda aqlga to‘g‘ri keladigan hech qanday gapning keragi yo‘q edi, uzoq tushuntirib o‘tirilmaydigan biron sabab ko‘rsatilsa, shuning o‘zi yetarli bo‘lardi. Bizning pasportlarimiz bor edi, pul sarflamoqchi bo‘lib turgandik. Shuning uchun bizga muvaqqat viza berishdi. Bu vizalarni istagan paytlarida bekor qilishlari mumkin edi. Biz qayerga bormaylik, albatta, politsiyaga borib uchrashishimiz kerak edi.

– Qayerga borsak ham maylimi?

– Ha. Qayerga bormoqchi ekanmiz?

– Sen qayerga bormoqchisan, Ket?

– Montrega.

– Juda yaxshi shahar, – dedi amaldor. – U shahar sizlarga ma‘qul bo‘ladi, deb o‘ylayman.

– Lokarno ham yaxshi shahar, – dedi boshqa amaldor. – Men Lokarno sizlarga g‘oyatda ma‘qul bo‘ladi, deb o‘ylayman. Bu juda chiroyli shahar.

– Bizga qishki sport bilan shug‘ullanish mumkin bo‘lgan joy yoqadi.

– Montreda qishki sport bilan shugʻullanishmaydi.  
– Maʼzur tutasiz, – dedi birinchi amaldor. – Men oʻzim montreliman. Montre-Oberlend-Bern temir yoʻlida, shubhasiz, qishki sport uchun sharoit bor. Buni inkor qilish sizning tarafingizdan insofdan emas.

– Men inkor qilayotganim yoʻq. Men faqat Montreda qishki sport bilan shugʻullanishmaydi, dedim.

– Men bunga qoʻshilmayman, – dedi birinchi amaldor. – Men bu fikrga qoʻshilmayman.

– Men oʻz fikrimda qolaman.

– Men sizni fikringizga qoʻshilmayman. Montre koʻchalarida oʻzim luge<sup>1</sup>da uchganman. Bir marta emas, koʻplab uchganman. Hech shubhasiz, u qishki sportning turlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi amaldor menga qaradi.

– Siz qishki sport deganda lugeni nazarda tutgan edingizmi, ser? Sizni ishontirib ayta olamanki, Lokarnoda juda orom olib yashaysiz. Sogʻlom iqlim deysizmi, goʻzal joylar deysizmi, hammasi topiladi. Sizga bu yer juda manzur boʻladi.

– Janob oʻzlari Montrega borish ishtiyoqini bildirdilar.

– Luge nima degani? – soʻradim men.

– Koʻryapsizmi, u luge nimaligini ham bilmas ekan.

Bu narsa ikkinchi amaldorga juda xush yoqib ketdi. U gʻolib chiqqandi.

– Luge, – dedi birinchi amaldor, – tobogganning xuddi oʻzi-da.

– Men qoʻshilolmayman, – boshini chayqadi ikkinchi amaldor. – Bunga men sira qoʻshilolmayman. Toboggan lugedan juda katta farq qiladi. Toboggan Kanada-da yupqa taxtalardan qilinadi. Luge – oddiy qoʻshqorakli chana. Hamma narsa aniq boʻlgani maʼqul.

– Biz tobogganda uchsak ham mayli, – dedi birinchi amaldor. – Tobogganda bermalol uchish mumkin.

---

<sup>1</sup> Kichikroh shveysar chanalari (*frans.*).

Montreda sifatli Kanada tobogganlari sotiladi. Aka-uka Okslar toboggan bilan savdo qilishadi. Ular tobogganni o'zlari olib kelishadi.

Ikkinchi amaldor boshini teskari burdi.

– Tobogganda uchish uchun, – dedi u, – maxsus piste<sup>1</sup> kerak. Montre ko'chalarida tobogganda uchib bo'lmaydiku. Siz qayerda to'xtadingiz?

– Hali o'zimiz bilmaymiz, – dedim. – Biz Brissagodan endigina kelib turibmiz. Ekipaj ko'chada kutib turibdi.

– Montrega borsangiz faqat xursand bo'lasiz, – dedi birinchi amaldor. – U yerning iqlimi nihoyatda mayin. Qishki sport bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz ham uzoqlarga borib ovora bo'lib o'tirmaysiz.

– Agar sizni chindan ham qishki sport qiziqтира, – dedi ikkinchi amaldor, – Engadin yoki Myurren-ga boring. Sizga qishki sport uchun Montrega borish kerak, deyilgan maslahatga norozilik bildirishga majburman.

– Montre tepasidagi Lez-Avanda har qanday qishki sport uchun eng yaxshi sharoitlar mavjud. – Montrening muxlisi o'z kasbdoshiga yeb qo'yguday bo'lib o'qraydi.

– Janoblar, – dedim men. – Biz borishimiz kerak. Jiyanim juda ham charchagan. Biz tavakkal qilib Montrega bora qolamiz.

– Mana bu o'g'il bola gap. – Birinchi amaldor qo'limni qisib qo'ydi.

– Siz Lokarnodan ketib afsus qilasiz, deb hisoblayman, – dedi ikkinchi amaldor. – Har holda Montreda politsiyaga uchrashib qo'yishlaringga to'g'ri keladi.

– Politsiya tomonidan hech qanday anglashilmovchiliklar bo'lmaydi, – deb meni ishontirdi birinchi amaldor. – Aholi ham sizni quchoq ochib qarshi oladi.

---

<sup>1</sup> Yo'l (frans.).

– Sizlarga katta rahmat, – dedim. – Sizlarning maslahatlaringiz bizga yordam beradi.

– Xayr, – dedi Ketrin.

– Rahmat sizlarga.

Ular bizni tavoze bilan eshikkacha kuzatib chiqishdi, Lokarnoning muxlisi biroz sovuqroq xayrlashdi. Biz zinadan tushib, ekipajga o'tirdik.

– O, xudoyim, jonim! – dedi Ketrin. – Nahotki, u yerdan oldinroq chiqib ketishning iloji bo'lmadi? – men kucherga amaldorlarning biri aytgan mehmonxonaning manzilini berdim. Kucher jilovni bo'shatdi.

– Sen armiyani esingdan chiqaribsan, – dedi Ketrin. Soldat hamon ekipaj oldida turardi. Men unga o'n lir berdim.

– Menda hali shveytsar pullari yo'q, – dedim. U minnatdorchilik bildirib, qo'lini chakkasiga olib bordi-da, jo'nab ketdi. Ekipaj mehmonxonaga qarab yo'l oldi.

– Montre qayerdan xayolingga kela qoldi? – so'radim men Ketrindan. – Sen chindan ham u yerga borishni istaysanmi?

– Og'zinga kelganini aytdim-qo'ydim-da, – dedi u. – U yer yomon joy emas. Biz biron yerda, tog'larda turishimiz mumkin.

– Uyqung kelyaptimi?

– Ko'zimni ocholmayotibman.

– To'yib uxlab xumordan chiqamiz. Sen sho'rlik-kina qiynalib ketding! Kechasi bo'laringcha bo'lding.

– Vaqtimiz xush o'tdi, – dedi Ketrin. – Ayniqsa, sen soyabonni minib olganingda qiziq bo'ldi.

– Shveysariyaga keldik, a, bilyapsanmi?

– Yo'q, menga haliyam ko'zimni ochsam, boshqa joy bo'lib qoladiganday.

– Mengayam.

– Lekin rostmi, jonim? Men Milan vokzaliga seni kuzatgani ketayotganim yo'g'-a?

– Nafasingni yel uchirsin-e.

- Unday dema. Men qo‘rqaman. Kutilmaganda shunday bo‘lib qolsa-ya.
- Men xuddi mast odamga o‘xshab hech narsani tushunolmayapman, – dedim.
- Qo‘llaringni ko‘rsat.
- Men unga ikkala qo‘limni uzatdim. Kaftlarimning terisi shilinib, qip-qizil go‘shti chiqib qolgandi.
- Faqat yonimdagina yara yo‘q, – dedim.
- Shakkoklik qilma.
- Qattiq charchagandim, boshim aylanib ketmoqda edi. Xushnudligim yo‘qoldi. Ekipaj yo‘ldan ketib borardi.
- Voy-bo‘, bechora qo‘llar-a! – dedi Ketrin.
- Tegma, – dedim. – Nima balo bo‘ldi, qayerdaligimizni hech bilolmayapman. Biz qayerga ketyapmiz, kucher?
- Kucher otni to‘xtatdi.
- Metropolga. O‘zingiz aytmovdingizmi?
- Ha, ha, – dedim. – Hammasi joyida, Ket.
- Hammasi joyida, jonim. Tinchlan. Bir xumordan chiqib uxlab olamiz-u, keyin ertaga sen xuddi mastga o‘xshab yurmaysan.
- Men butunlay boshimni yo‘qotib qo‘ydim, – dedim men. – Bugungi kun bari operettaga o‘xshaydi. Balki ochiqqandirman.
- Sen charchagansan, xolos, jonim. O‘tib ketadi.
- Ekipaj mehmonxonona oldiga borib to‘xtadi. Jomardonlarimizni olgani bir bola chiqdi.
- O‘tib keta boshladi, – dedim men. Biz ko‘chani kesib mehmonxonaga qarab bormoqda edik.
- O‘tib ketishini bilardim. Sen charchading, xolos. To‘yib uxlab olishing kerak.
- Har holda biz Shveysariyadamiz-ku.
- Ha, biz chindanam Shveysariyadamiz. Jomardonlarimizni ko‘tarib olgan bolaning izidan mehmonxonaga kirdik.

## BESHINCHI KITOB

### O'ttiz sakkizinchi bob

O'sha kuzak qor juda kech tushdi. Biz tog' yonbag'rida, qarag'ayzorda joylashgan yog'och kulbada yashardik, tunlari ayozli bo'lar, ertalab ikkita ko'zachada yuvinishga qo'yilgan suvning beti yupqa muzlab qolardi. Madame Guttingen derazalarni yopish uchun kallayi saharlab xonaga kirar, baland koshindor pechga o't qalardi. Qarag'ay o'tinlar charsillab yona ketar, pechda olov guvillay boshlar va madame Guttingen yoqishga palyonlar bilan ko'zada issiq suv ko'tarib ikkinchi marta xonaga kirardi. Uy isigandan keyin, nonushta olib kelardi. O'rinda nonushta qilib yotib biz ko'lni, ko'lning u betidagi, fransuz qirg'og'idagi tog'larni tomosha qilardik. Tog' cho'qqilarida qor yotardi, ko'l po'latday tiniq ko'kimtir tusga kirgandi.

Tashqarida shundoq uyning tagidan yo'l o'tardi. Sovuqdan arava izlari toshday qotib qolgan, yo'l daraxtzordan o'tib borgan sari tik ko'tarilar, keyin tog' beliga kamarday chirmashib, o'tloqlar va saroylarga, naq vodiy uzra osilib turgan o'rmon chekkasidagi o'tloqlardagi kulbalarga chiqib borardi. Soylik juda ham pastda edi, uning o'rtasidan ko'lga quyiladigan anhor oqib o'tardi, shamol soylik tomondan esgan chog'larda toshdan toshga urilib oqayotgan suvning shovillashi eshitilardi.

Ba'zan biz yo'ldan burilib, so'qmoqqa tushib, qarag'ayzordan o'tib borardik. Daraxtzordagi yer yumshoq bo'lardi: u haligi yo'lga o'xshab sovuqday qotib qolmagandi. Lekin biz yo'lning qattiqligidan unchalik ozurda emasdik, chunki etiklarimizning tagiga, tovoniga mix qoqilgan, mixlar qatqaloqqa sanchilib kirar, yurish qandaydir yoqimli va odamni bardam qilardi. Lekin daraxtzor ichidan yurish ham g'oyatda gashtli edi.

Biz turgan uydan koʻl boʻyidagi chogʻroq bir vodiya tik qiyalik tushib borar, quyoshli kunlarda biz ayvonda oʻtirib, togʻ yonbagʻridan buralib ketgan yoʻlni tomosha qilardik, bu yerdan boshqa bir togʻning yonbagʻirlari va qish kelganidan quruq novdalari qolgan poyama-poya tushgan uzumzorlar, toshlar bilan oʻralgan dalalar va uzumzorlardan quyiroqdagi koʻl boʻyida, tor vodiya joylashgan shahar uylari koʻrinib turardi. Koʻlda bir orolcha boʻlib, unda baliqchilar qayigʻining qoʻsh yelkaniga oʻxshash ikkita daraxt oʻsgandi. Koʻlning narigi betidagi togʻlar tik va nayzador togʻlar edi, koʻlning janubiy chekasida ikki togʻ tizmasi orasida Rona vodiysi choʻkib yotar, uning eng orqa tomonida esa, vodiyni togʻlar kesib oʻtgan yerda Dan-dyu-Midi joylashgandi. U juda baland qorli togʻ edi, butun yon-atrofdan undan koʻra zoʻrroq choʻqqi yoʻq, lekin u shunchalar yiroqda ediki, biz tomonlarga soya tashlamasdi.

Oftob charaqlagan kunlarda biz ayvonda oʻtirib ovqatlanar, lekin boshqa paytlarda biz tepada, taxta devorli burchagiga kattakon pech qoʻyilgan moʻʼaz bir xonada tamaddi qilardik. Biz shahardan juda koʻp kitob va jurnallar sotib oldik, ikki kishi oʻynaydigan ancha-muncha qarta oʻyinlarini oʻrgandik. Pechli kichkina uy biz uchun ham mehmonxona, ham yemakxona edi. Bu yerda ikkita qulay kreslo, kitob-jurnal qoʻyiladigan stolcha boʻlib, qartani idish-tovoqlarni yigʻishtirib olishgach, ovqat stolida oʻynardik. Monsieur va madame Guttingen pastki qavatda yashashar, kechalari baʼzan ularning gap-soʻzlarini eshitib qolardik, ular ham bizdek bir-birlari bilan totuv yashardilar. U bir mahallar ober-kelner boʻlib ishlagan, xotin esa oʻsha mehmonxonaning oʻzida xizmatchilik qilgan, keyin pul yigʻib mana shu uyni sotib olishgan ekan. Ularning yolgʻiz bir oʻgʻillari boʻlib, u ober-kelner boʻlishga tayyorgarlik koʻrardi. U Syurixdagi mehmonxonada xizmat qilarkan. Pastda yana bir xona boʻlib, unda



vino va pivo bilan savdo qilishar va goho qosh qoraygan kezlari yoʻlda aravalar kelib toʻxtaganini, odamlar uncha-muncha oʻtgani kirganlarini eshitib qolardik.

Yoʻlakda, xonamizning oldida bir yashikda oʻtinlar turar, men undan palyon olib pechga tashlardim. Lekin biz kechasi uzoq oʻtirmasdik. Bizning xosxonamiz katta edi, biz chiroqni yoqib oʻtirmasdan yotib olardik, men yechingach, derazalarni ochib yuboardim, tunga, sovuq yulduzlarga, deraza taglaridagi qaragʻaylarga bir nafas tikilib turar, keyin oʻringa shoʻngʻirdim. Havo bunday sovuq va sof boʻlgan tunlari koʻrpada yotish maza boʻladi. Biz dong qotib uxlab qolardik, kechasi mabodo uygʻonib ketsam, Ketrinni uygʻotib yubormaslik uchun ohista par toʻshakni chetga surib qoʻyar, keyin ustim yengillashgach, yana osuda uyquga choʻmardim. Urush oʻzga maktabdagi futbol oʻyini kabi yiroqda edi. Lekin gazetalardan togʻlarda hamon urush borayotganligini bilardim, bunga sabab u yerlarda hali qor tushmaganligi edi.

Gohida togʻ yonbagʻridan Montrega tushib borardik. Uyimizning shundoq oʻzidan pastga tushadigan soʻqmoq bor edi, lekin u shu qadar, tikka ediki, odatda, biz yoʻldan yurardik, keng, sovuqda qotib qolgan yoʻldan dalalar, uzumzorlarning tosh devorlari, yoʻl boʻyidagi qishloq uylarini oralab oʻtib borardik. Qishloqlar uchta edi: Sherne, Fontanivan va yana biri, nomi esimda qolmagan. Keyin yana shu yoʻl bilan togʻ tumshugʻidagi mustahkam tosh chateandan oʻtib, uzumzor ishkomlarga kirib borilardi, tok zanglarining bari boʻylab qoʻyilgandi, zanglar quruq, qoʻngʻir tushga kirgandi, pastda esa, chuqurlikda oynaday tekis, poʻlatday koʻkimtir tovlanib koʻl yotardi. Shateandan yoʻl pastga qiyalab tushib ketardi, keyin oʻng tomonga burilib, shu yerdan Montregacha tosh yotqizilgan tik nishab yoʻl boshlanardi.

Montreda hech qanday tanish-bilishlarimiz yoʻq edi. Biz koʻl boʻyidan borayotganimizda oqqushlar-

ni, son-sanoqsiz oq charloqlarni va yaqinroq borgan hamoning ko'kka ko'tarilib, pastga, suvga qarab zorlanib qichqiradigan bo'ron qushlarini tomosha qilardik. Sohildan ichkariroqda jimitgina qoramtir gagara to'dalari suvda iz qoldirib uchib yurishardi. Shaharga borgach, biz katta ko'chadan magazinlarning vitrinalarini tomosha qilib bordik. Bu yerda hozir yopiq katta mehmonxonalar ko'p edi, lekin magazinlarning deyarli hammasi ochiq va hammalari bizni ochiq chehra bilan qarshi olishardi. Yaxshi bir sartaroshxona bor ekan, Ketrin u yerga sochini tuzatgani kirdi. Sartaroshxonaning bekasi uni juda xushnudlik bilan qarshiladi. Montredagi bizning birdan-bir tanishimiz shu kishi edi. Ketrin sochini tuzatar ekan, men pivoxonada o'tirib Myunxenning barqut pivosidan ichib, gazeta ko'rar edim. Men «Kurere della sera»ni hamda Parijdan olib kelingan Amerika va ingliz gazetalarini o'qir edim. Barcha e'lonlar bosmaxona bo'yog'i bilan chaplab tashlangandi, dushman ulardan aloqa sifatida foydalanmasin deyishardi, shekilli. Gazetalarni o'qib odamning dili siyoh bo'lardi. Hamma yerda ishlarning mazasi yo'q. Bir krujka barqut pivo olib, pretzelsning<sup>1</sup> qog'oz qutisini ochardim, pretzelsning ta'mi menga juda yoqar, undan pivoning mazasi o'tkirlashganday tuyulardi va men mag'lubiyat haqidagi xabarlarini o'qirdim. Men Ketrin shu yerga kelsa kerak deb o'tiraveribman, lekin u hadeganda kelavermagach, gazetalarini o'z joyiga qo'yib, pivo pulini to'ladim-da, uni qidirib ketdim. Kun sovuq, badqovoq edi, hatto, devorlardan ham qishning sovuq nafasi kelardi. Ketrin hali, hamon sartaroshxonada o'tirgan ekan. Beka uning sochlarini jingalak qilardi. Men kichkina bir xonachada qarab o'tirdim. Bu meni to'liqinlantirib yubordi, Ketrin mayin tabassum bilan menga gapirib o'tirar, mening ovozim esa, hayajonimdan birmuncha

---

<sup>1</sup> Sho'rtak pechenye (*nem.*).

o'zgarib, xirillab chiqmoqda edi. Qisqichlar yoqimli shiqirlab turar, Ketrinning sochlari uchta oynadan baravar ko'rinar, xona shinam va issiqqina edi. Keyin beka Ketrinning sochlarini yotqizib to'g'riladi va Ketrin oynaga qarab turib to'g'nag'ichlari bilan biroz boshqacha qilib oldi; keyin o'rnidan turdi.

– Judayam ko'p kuttirib qo'ydim-ku.

– Monsieur – zerikkanlari yo'q. Shunday emasmi, monsieur? – jilmaydi beka.

– Ha, – dedim men.

Biz eshikka chiqib ko'chadan yurib ketdik. Havo sovuq, xafagazak edi, shamol esib turardi.

– Seni qanchalar sevganimni bilsang eding, – dedim men.

– Endi yaxshi bo'lyapti-a, to'g'rimi? – dedi Ketrin.

– Bilasanmi nima? Kel, biron yerga kiramiz-da, choy o'rniga pivo ichamiz. Kichkina Ketringa pivo juda ham foydali. Bola qattiq o'sib ketmaydi.

– Kichkina Ketrin, – dedim men. – Voy erinchog'!

– U aqlli, – dedi Ketrin. – Uning tarbiyasi juda ham yaxshi. Doktor menga pivo foydali deb aytdi, tez o'sib ketmas ekan.

– Sen haqiqatan uning o'sib ketishiga yo'l qo'yma, agar u o'g'il bola bo'lsa, chavandoz bo'ladi.

– Agar bola tug'iladigan bo'lsa biz rostdanam nikoh o'qitishimizga to'g'ri keladi, – dedi Ketrin. Biz pivoxonada burchakdagi stolda o'tirgandik. Tashqarida qosh qorayib bormoqda edi. Hali erta bo'lsa ham, havoning turqi buzuq, shuning uchun qorong'ilik tez tushgandi.

– Kel endi uylanamiz, – dedim men.

– Yo'q, – dedi Ketrin. – Endi o'ng'aysiz bo'ladi. Juda ham bilinib qoldi. Men shu ahvolda meriyaga bormayman.

– Oldinroq shu ishni qilmaganimizni qara.

– Unda, har holda, yomon bo'lmasdi-ya. Lekin bunga vaqtimiz bo'ldimi, jonim?

- Bilmadim.
- Men esa bilaman. Meriyaga bunaqa ona xotin bo'lib bormayman.
- Ona xotining nimasi?
- Chinakam ona xotin, jonim. Sartarosh xotin bu birinchisimi, deb so'radi. Men unga ikkita o'g'il, ikkita qiz bolamiz bor dedim.
- Qachon to'yimizni qilamiz?
- Yana ozishim bilanoq to'y qilamiz. To'yimiz juda ham zo'r bo'lishini, hamma ko'rganlar qanday chiroyli, munosib er-xotinlar, deyishini istayman.
- Ko'ngling xijil bo'lmaydimi?
- Nega endi xijil bo'lsin jonim? Ko'nglim bir mar-ta Milandaligimizda xijil bo'lgandi, unda men o'zimni sayoq qiz deb his qilgandim, keyin besh daqiqalardan so'ng o'tib ketgandi. Xonaning ko'rinishi menga yomon ta'sir qilgandi. Nahotki, men yomon xotin bo'lsam!
- Sen topilmas xotinsan.
- Unday bo'lsa, qog'ozbozlikni o'ylab o'tirma, jonim. Men asl holimga qaytishim bilan to'y qilamiz.
- Xo'p.
- Men yana pivo ichsam bo'larmikin, nima dey-san? Doktor mening tosimni torroq deyapti, shuning uchun kichkina Ketrinni qattiq o'stirib yubormagani-miz tuzuk.
- U yana nima dedi? – yuragim hapriqib ketdi.
- Hech nima. Mening qon bosimim juda ham yax-shi ekan. U mening qon bosimimga hayron qoldi.
- Tosingning torligi xususida yana nima dedi?
- Hech nima. Hech nima degani yo'q. U menga chang'ida yurish mumkin emas, dedi.
- To'g'ri.
- Agar shu paytgacha yurmagan bo'lsangiz, endi yurishga kech bo'ldi, dedi. U chang'ida yurish umu-man mumkin-u, lekin yiqilish mumkinmas, dedi.
- Hazilkash odam ekan sening doktoring.

– Yo‘q, u rostdanam yaxshi kishi. Kichkinamiz tug‘iladigan mahalda uni chaqiramiz.

– Sen undan turmush qursak maylimi, deb so‘ramadingmi?

– Yo‘q. Men unga turmush qurganimizga to‘rt yil bo‘ldi, dedim. Bilasanmi, jonim, agar men senga tegsam, men amerikalik bo‘lib qolaman. Amerika qonunlariga ko‘ra esa, qachon tug‘ilganidan qat‘i nazar bola qonuniy hisoblanadi.

– Qayerdan o‘qiy qolding buni?

– Kutubxonada Nyu-Yorkda chiqadigan «Uorld almanak» bor ekan.

– Qandoq yaxshisan.

– Men amerikalik bo‘lishimdan juda xursandman. Biz Amerikaga boramiz-a, jonim? Men Niagara shovvasini ko‘rmoqchiman.

– Yakka-yu yagonam.

– Men yana nimanidir tomosha qilmoqchi bo‘lib yurardim, lekin nimaligi esimdan chiqib qoldi.

– Qushxonalarnimi?

– Yo‘q. Esimdan chiqdi.

– Vulvort minorasinimi?

– Yo‘q.

– Katta Daranimi?

– Yo‘q. Lekin buni ham ko‘rmoqchi edim.

– Unda nima bo‘lmasam?

– Oltin darvoza! Men ana o‘shani ko‘rmoqchiydim. Oltin darvoza qayerda?

– San-Fransiskoda.

– Unda o‘sha yerga boramiz. Men umuman San-Fransiskoni ko‘rmoqchiman.

– Juda soz. O‘sha yerga boramiz.

– Endi kel, tog‘ning tepasiga chiqamiz. Maylimi?

– Soat beshdan necha daqiqa o‘tgandayam poyezd keladi.

– Ana o‘shanda boramiz.

– Xo‘p. Men faqat yana pivo ichib olay.

Biz ko'chaga chiqib, zinalardan stansiyaga ko'tarilayotganimizda juda ham sovuq edi. Sovuq shamol Rona vodiysidan esmoqda edi. Magazinlarning vitrinalarida chiroqlar yoqilgan, yorug' edi, biz tik tosh pillapoyadan yuqori ko'chaga, keyin boshqa pillapoyadan satansiyaga ko'tarildik. Bunda charog'on yoritilgan elektr poyezd turardi. Kattakon siferblatda poyezdning ketadigan vaqti ko'rsatib qo'yilgandi. Poyezd beshdan o'n daqiqa o'tganda yurar ekan. Men stansiya soatiga qaradim. Beshdan besh daqiqa o'tgan. Biz vagonga o'tirayotganimizda men vagon haydovchi bilan konduktor bufetdan chiqqanlarini ko'rdim. Biz o'tirdik, darchani ochdik. Vagonni elektr pechlar isitar, shuning uchun ichi dim, lekin darchadan sovuq toza havo kirmoqda edi.

- Charchadingmi, Ket? - so'radim men.
- Yo'q. O'zimni juda ham yaxshi sezyapman.
- Saldan keyin tushamiz.
- Yaxshi ketyapman, - dedi u. - Ko'p mendan cho'chiverma. O'zimni yaxshi sezyapman.

Hayitga uch kun qolganda qor yog'di. Bir kuni ertalab uyg'onsak, qor yog'ayotgan ekan. Pechkada olov gurillab yonar, biz to'shakda qor yog'ishini tomosha qilib yotardik. Madame Guttingen nonushtadan keyin idish-tovoqlarni yig'ishtirib oldi va pechkaga yana o'tin tashladi. Chinakam qor bo'roni bo'layotgandi. Madame Guttingen qor yarim kechalardan yog'a boshladi, dedi. Derazaga borib qarovdim, oldimizdagi yo'ldan boshqa hech narsa ko'rinmadi. Shamol har tomondan aylanib uchar, qor to'zonini ko'tarardi. Men yana o'ringa kirdim, biz anchagacha gaplashib yotdik.

- Qani endi, chang'ida uchsang, - dedi Ketrin. - Chang'ida ucholmasligim toza hafsalamni pir qildi-da.
- Chana olamiz-da, pastga ketayotganda o'tirib olamiz. Avtomobilda yurganday bo'lasan.

- Silkitib tashlamaydimi?
- Bir uchib ko‘raylik-chi.
- Silkitmasa, yaxshi bo‘lardi-ya.
- Birpasdan keyin qorda aylangani chiqish mumkin.
- Tushlikdan oldin, – dedi Ketrin, – ishtaha uchun.
- Usiz ham doim qornim ochga o‘xshaydi.
- Mening ham.

Biz urib turgan bo‘ronga chiqdik. Lekin hamma yoq-ni qor uyumlari tutib ketganidan olis yurib bo‘lmasdi. Men qorni toptab oldinda ketdim, lekin stansiyagacha uzoq yurib borishga to‘g‘ri keldi. Qor yuzga urib ko‘zni ochirgani qo‘ymasdi. Biz stansiya yaqinidagi kichkina qovoqxonaga kirdik, supurgi bilan qorlarimizni supurib tashladik, yog‘och kursiga o‘tirib, vermut so‘radik.

- Bugun qattiq bo‘ron bo‘lyapti, – dedi kelner xotin.
- Ha.
- Bu yil qor ancha kech yog‘di.
- Ha.

– Men bir plitka shokolad yesam nima qiladi? – so‘radi Ketrin. – Yoki nonushtagacha sabr qilamizmi? Men doim ochman.

- Bir dona yesang bo‘ladi, – dedim men.

– Men yong‘oq solinganidan olaman, – dedi Ketrin.

– Yong‘oq solingani juda ham mazali, – dedi kelner qiz. – Men hammadan ham yong‘oq solinganlarini yaxshi ko‘raman.

- Men yana vermut ichaman, – dedim men.

Uyga ketaylik deb eshikka chiqqanimizda, boyagi izlarimizni qor bosib ketgandi. Faqat oyoq izlari o‘rnida bilinar-bilinmas botiqlik qolgandi. Qor odamning yuziga urar, ko‘z ochirgani qo‘ymasdi. Biz qorlarimizni tozalab nonushta qilgani o‘tirdik. Nonushtamizga Madame Guttingenning o‘zi qarab turdi.

– Ertaga chang‘ida uchsa bo‘ladi, – dedi u. – Chang‘i uchishni bilasizmi, mister Genri?

- Yo‘q. Lekin o‘rganmoqchi edim.

– Siz tez o'rganib olasiz. O'g'lim hayitga kelmoqchi, u sizga o'rgatib qo'yadi.

– Qoyil. Qachon kelishi kerak edi?

– Ertaga kechqurun.

Tushlikdan keyin kichkina xonada, pechka oldida qor yog'ishiga qarab o'tirgan edik, Ketrin gap boshlab qoldi:

– Jonim, bir o'zing biron yerlarga borib kelsang, erkaklar o'rtasida bo'lsang, chang'ilarda uchsang bo'lmasmikin?

– Nima keragi bor?

– Nahotki, boshqalarni sira ko'rging kelmasa?

– Sen boshqalarni ko'rging kelyaptimi?

– Yo'q.

– Men ham.

– Bilaman. Lekin sen boshqa gap. Men homilaliman, shuning uchun men hech narsa qilmasam ham bo'la-veradi. Men juda ham tentak bo'lib ketayotganimni, mahmadona bo'lib qolayotganimni bilaman, shuning uchun sen biron yerga borib kelsang, yaxshi bo'ladi, bo'lmasa judayam joningga tegib ketaman.

– Sen meni ketishimni istaysanmi?

– Yo'q, yonimda bo'lishingni istayman.

– Unda hech yerga ketishimning keragi yo'q.

– Beri kel, – dedi u. – Men boshingdagi g'urrangni ko'rmoqchiman. Kattagina ekan. – U shishni bar-moqlari bilan siypalab ko'rdi. – Jonim, soqol qo'ysang nima qilarkin?

– Soqol qo'yaymi?

– Shunchaki ermakka. Soqol bilan qanday bo'lar-kinsan, ko'rmoqchiydim.

– Mayli, soqol qo'yaman. Hozirning o'zidanoq so-qol qo'ya boshlayman. Buni g'oya desa bo'ladi. Endi mening o'zimga yarasha mashg'ulotim bo'ladi.

– Qiladigan ishing bo'lmaganidan xafamisan?

– Yo'q. Men juda mamnunman. O'zimni yaxshi sezyapman. Sen-chi?



- Juda ham yaxshi. Lekin men bunaqa paytimda seni zeriktirib yuborarmikinman, deb qoʻrqqanim qoʻrqqan.
- Oh, Ket! Seni qanchalar sevishimni bilsayding.
- Hozir hammi?
- Hozir ham, bundan keyin ham. Men oʻzimni baxtli deb bilaman. Nima, biz bu yerda yomon yashayapmizmi?
- Juda ham yaxshi. Lekin menga nuqul sen qandaydir bezovta boʻlib qolganga oʻxshab koʻrinasan.
- Yoʻq. Men baʼzi paytlarda frontni va turli-tuman odamlarni eslab ketaman, lekin buning tashvishlanadigan yeri yoʻq. Men hech narsani uzoq oʻylab oʻtirmayman.
- Kimlarni eslaysan?
- Rinaldini, kashishni va boshqa turli odamlarni. Lekin men bularni uzoq oʻylamayman. Urush haqida oʻylashni istamayman. U bilan hisob-kitoblarimiz bitgan.
- Hozir nimani oʻylayapsan?
- Hech nimani.
- Yoʻq, sen bir narsani oʻylayotgan eding. Ayt.
- Men Rinaldi rostdanam zaxm boʻlib qolganmikan, deb oʻylayotgandim.
- Bor-yoʻgʻi shumi?
- Ha.
- U zaxmga yoʻliqqanmi?
- Bilmayman.
- Men senda boʻlmaganidan xursandman. Senda bunaqa narsalar boʻlmaganmidi?
- Men soʻzak boʻlganman.
- Boʻldi, qoʻy. Joning juda ogʻriغانmidi, jonim?
- Juda.
- Menda ham boʻlishini istardim.
- Bekorlarni aytibsana.
- Yoʻq, rostdan. Men xuddi senday boʻlishni istardim. Men sen bilgan hamma xotinlarni bilishni, soʻng ularni sening oldingda mayna qilishni istardim.

- Mana bu chiroyli gap.
- Nima, senda so‘zak bo‘lganda chiroyli bo‘lganmidi?
- Yo‘q. Qorning yog‘ishini qara.
- Men yaxshisi senga qarab o‘tiraman. Jonim, sochlaringni o‘stirib yuborsang, nima qilarkin?
- U nima deganing?
- Sal uzunroq qilib o‘stirsang deyaipman-da.
- Hozir ham uzun-ku.
- Yo‘q, biroz o‘stirgin, men bo‘lsam, biroz qirqtiraman, keyin ikkovimiz bir xil bo‘lib qolamiz. Faqat bit-tamiz qoraroq, bittamiz oqishroq bo‘lamiz.
- Men sochingni qirqtirishingni istamayman.
- Balki bu juda antiqa bo‘larmidi. Sochim jonimga tegib ketdi. Kechasi yotganda juda ham xalaqit beradi.
- Menga shundoq turgani yoqadi.
- Kalta qildirsam, yoqmasmidi?
- Ehtimol. Menga hozirgisi yoqadi.
- Balki kalta bo‘lsa, ma‘qul bo‘larmidi. Ikkovimiz bir xilda bo‘lardik. Jonim, seni shu qadar yaxshi ko‘ra-manki, senday bo‘lib qolsam deyman.
- O‘zi ham shunday. Bitta odammiz.
- Bilaman. Kechalari.
- Kechalari hamma narsa boshqacha bo‘ladi.
- Men sen qayerda-yu, men qayerda, hecham bilib bo‘lmaydigan bo‘lib qolsa deyman. Sen hech yerga ket-maysan. Men boya jo‘rttaga aytgandim. Agar ketging kelsa, ketaver. Lekin tezroq qaytib kel. Jonim, sensiz menga hayot yo‘q, axir.
- Men hech qachon ketmayman, – dedim men. – Sen bo‘lmasang, men soyaday bo‘lib qolaman. Sensiz men jonsiz jismman.
- Men hayoting yaxshi bo‘lishini istayman. Hayo-ting juda ham yaxshi bo‘lishini istayman. Lekin bu bizning ikkovimizning hayotimiz bo‘ladi, to‘g‘rimi?
- Xo‘sh, qalay, soqol qo‘yishni boshlaymi yoki to‘xta-taymi?

– O'saversin. Soqol qo'y. Bu judayam qiziq bo'ladi. Balki u yangi yilgacha o'sib ketar.

– Istaysanmi, shaxmat o'ynaymiz!

– Yaxshisi, boshqa o'yin o'ynaylik.

– Yo'q. Shaxmat o'ynaymiz.

– Keyin boshqa o'yin qilamiz-a? Ha.

– Xo'p, yaxshi.

Men shaxmat olib kelib donalarni tikdim. Tashqarida hamon qor gupillab yog'moqda edi.

Bir kuni men kechasi uyg'onib ketdim, qarasam, Ketrin ham uyg'oq ekan. Oy derazaga tushib turar, deraza romlarining soyasi o'ringa tushib turgandi.

– Uyqung kelmayaptimi, jonim?

– Yo'q. Sen uxlolmayapsanmi?

– Men hozirgina uyg'onib ketdim, birinchi marta uchrashganimizda qanchalar telba ekanligimni o'ylab yotibman. Esingdami?

– Sen salgina devona eding.

– Endi hech unday bo'lmayapman. Endi hammasi yaxshiga o'xshaydi. Ajoyib. Sen bu so'zni g'alati qilib aytasan. «Ajoyib» degin.

– Ajoyib.

– Sen jonimsan. Men ham endi devona emasman. Faqat men juda, juda baxtliman.

– Mayli, uxla, – dedim.

– Mayli. Kel, ikkalamiz baravar uxlab qolamiz.

– Mayli.

Lekin biz darhol uxlab qolmadik. Men yana har turli narsalarni o'ylab Ketringa, uning bo'yniga tushib turgan oy nuriga qarab anchagina uyg'oq yotdim. So'ng men ham uxlab qolibman.

## **O'ttiz to'qqizinchi bob**

Yanvarning o'rtalariga borib soqolim o'sib qoldi, chinakam qish bo'lib ketdi, kunlar sovuq va ko'z-ni qamashtiradigan, tunlari ayozli, qahraton sovuq

bo'lardi. Yana yo'llarda qatnov boshlandi. Chanalar-ning qo'shqoraklari va tog'dan sudrab kelishadigan yog'ochlardan yo'llardagi qor qotib silliq bo'lib qoldi. To'rt tomon qor, Montregacha qor edi. Ko'ning narigi yog'idagi tog'lar oqarib qolgandi, Rona vodiysini ham qor bosdi. Biz tog'ning boshqa yonbag'ridan Ben-de-l Alyazgacha uzoq sayr qilib yurardik. Ketrin tagiga mix qoqilgan oyoq kiyim, plash kiyib olar, qo'lida uchi po'lat nayzali aso bilan yurardi. Plash kiyganda uning to'laligi bilinmas va biz o'rtacha qadamlar bilan yurib borar, ba'zan to'xtab yo'llarda o'tirib dam olvolardik.

Ben-de-l Alyazda daraxtlar tagida o'rmon kesuvchilarning qovoqxonolari bo'lib, biz ham shu yerga kirib shirinliklar va limonlar bilan qaynoq qizil vino ichardik. Uni Gluhwein deb atashadi, badaningni biroz qizitib olmoqchi bo'lsang yoki birovning sog'lig'iga qadah ko'taring kelsa, undan ham sozrog'i yo'q. Qovoqxonaga nim qorong'i, tutun bosgan bo'lardi, keyin biz eshikka chiqqanimizda odamning o'pkasiga muzdek havo tegar, nafas olganda burningni uchi qotib qolardi. Biz hamma darchalaridan yorug' tushib turgan qovoqxonaga bir zum qarab turardik, chiqaverishda o'rmon kesuvchilarning otlari sovqotib qolmaslik uchun deysinib turishar, boshlarini silkib-silkib tashlashardi. Tumshuqlaridagi mo'ylari qirov bilan qoplangan, nafas olganda og'izlaridan chiqqan par havoda yaxlab qolardi. Qaytayotganimizda yo'l silliq va sirpanchiq bo'lar va to muylashga borguncha ot siydiklaridan sarg'imtir tusga kirardi, burilishga borganda chet tomonga yog'och olib tushiladigan so'qmoq ayrilib ketardi. Yo'lning bu yog'i o'rmon ichidan o'tib borar, uning ustidagi qor toptalaverib qotib qolgandi, kechqurun uyga qaytarkanmiz, ikki marta tulki ko'rdik.

Bu nihoyatda gashtli yurt edi, biz aylangani chiqqanimizda doim quvnoq bo'lardik.

– Soqoling juda ajoyib bo‘ldi, – dedi Ketrin. – Xuddi o‘rmonchilarnikiga o‘xshaydi. Sen haligi oltin uzuk taqqanni ko‘rdingmi?

– U tog‘ kiyiklarini ovlaydi, – dedim men. – Ular yaxshi eshitish uchun uzuk taqishadi.

– Nahotki? Unday emasdir. Hamma bizning tog‘ kiyiklarini ovlovchilar ekanimizni ko‘rsin deb, uzuk taqib yurishadi. Bu yerda tog‘ kiyiklari bormi?

– Ha, Dan-de-Jamanning naryog‘ida.

– Tulkini ko‘rganimiz qiziq bo‘ldi, a?

– Tulki uxlaganda dumini tanasiga o‘rab yotadi, sovqotmaydi.

– Juda maza bo‘lsa kerak, a?

– Men doim qani endi shunaqa dumim bo‘lsa deb yurardim. Tulkiniyaga o‘xshagan dumlarimiz bo‘lsa nima bo‘lardi?

– Unda qanday qilib kiyinardik?

– Maxsus kiyimlar tiktirish mumkin bo‘lardi, yoki bunga ahamiyat berib o‘tirmaydigan mamlakatlarga ketish mumkin edi.

– Biz haliyam hech narsaning ahamiyati bo‘lmagan mamlakatda turibmiz. Hech kimni ko‘rmay shu yerda yashab turganimizning o‘zi ajoyib emasmi? Sen chindan ham hech kimni ko‘rging kelayotgani yo‘q, to‘g‘rimi, jonim?

– Ha.

– Kel, birpas o‘tiramiz. Men sal charchadim.

Xari ustida bir-birimizning pinjimizga suqilib o‘tirdik. Oldinda yo‘l o‘rmonga kirib ketardi.

– Kichkintoy bizga ortiqcha yuk bo‘lmasmikin, nima deysan?

– Yo‘q. Bunga yo‘l qo‘ymaymiz.

– Pulimiz hali bormi?

– Bir dunyo. Men keyingi chekni ham oldim.

– Qarindosh-urug‘laring seni qidirib yurishmasmikin? Ular endi sening Shveysariyada ekanligingni bilishadi-ku.

- Bo'lishi mumkin. Men ularga xat yozib yuboraman.
- Hali yozganing yo'qmi?
- Yo'q. Faqat chekni qo'l qo'yishga yuborgandim.
- Xudoga shukrki, senga qarindosh emasman.
- Men ularga telegramma beraman.
- Nahotki, sen ularni yaxshi ko'rmasang?
- Oldinlari sevardim, keyin shunchalar ko'p janjallashdikki, hozir ko'kragimda hech narsa qolmagan.
- Menimcha, ular menga yoqishgan bo'lardi. Ehtimol, ular menga juda ham yoqib qolishgan bo'lardi.
- Kel, ular haqida gaplashmaylik, bo'lmasa, odam ularning tashvishlarini chekib yuradi, - birozdan so'ng dedim. - Dam olgan bo'lsang, ketaylik.
- Dam olib bo'ldim.

Biz yo'limizda davom etdik. Qosh qorayib qolgan, qadam tashlaganimizda qor g'arch-g'urch qilardi. Osmon tip-tiniq, qora sovuq hokim edi.

- Soqoling menga juda yoqadi, - dedi Ketrin. - Biram chiroyli. Ko'rinishdan qattiq, tikanday, aslida esa mayin va yoqimli.

- Seningcha, soqolsiz yurgandan shu yaxshimi?

- Yaxshiga o'xshaydi. Bilasanmi, jonim, men kichkina Ketrin tug'ilguncha sochimni oldirmayman. Men hozir semirib, katta xotinlarga o'xshab qolganman. Lekin u tug'ilgandan keyin yana ozaman, o'shanda sochimni boshqatdan tuzattiraman, shunda senga yana yangiday bo'lib qolaman. Sen bilan birga borib sochimni oldiraman yoki bitta o'zim borib, keyin kelib seni hayron qoldiraman.

Men indamasdim.

- Sen yo'q demaysan, to'g'rimi?

- Yo'q. Balki menga yoqib ham qolar.

- Qanday yaxshisan! Men yana ozg'in bo'lib qolsam, yana ko'hlikkina bo'lib ko'rinsam, to'satdan yana meni yaxshi ko'rib qolsang-a.

– O, qurmag‘ur! – dedim men. – Haliyam sendan jonimni ayamayman. Yana nima kerak senga? Butunlay majnun bo‘lib yursam, tuzukmi?

– Ha. Men majnun bo‘lib qolishingni istayman.

– Mayli unda, – dedim. – O‘zim ham shuni xohlayman.

## **Qirqinchi bob**

Juda ham baxtiyor yashardik. Yanvar ham, fevral ham o‘tdi, qish soz edi, biz juda baxtiyor edik. O‘q-tin-o‘qtin iliq shamollar esib kela boshladi, shunda qor yumshoq bo‘lib qolar, bahor kelayotganga o‘xshardi, lekin yana havo tiniqlashib, sovuq zo‘rayar, yana qish qaytib kelardi. Mart oyida qish ilk bor chinakam chekindi. Kechasi yomg‘ir yog‘di. Yomg‘ir ertalabgacha tinmadi, qor pilchillab ketdi va tog‘ yonbag‘ri ma‘yuslikka cho‘mdi.

Ko‘l va vodiy uzra bulutlar yig‘ildi. Tog‘larda yomg‘ir yog‘a boshladi. Ketrin chuqur kalish kiyib oldi, men madame Guttingenning rezina etigini oldim va biz muzi eriyotgan yo‘ldan qor, loy kechib stansiyadagi qovoqxonaga nonushta oldidan vermut ichgani bordik. Tashqarida yomg‘ir yog‘ayotgani derazadan eshitilib turardi.

– Shaharga ketsak, nima deysan?

– O‘zing qanday fikrdasan? – so‘radi Ketrin.

– Agar qish tugab, yog‘ingarchilik boshlanib ketgan bo‘lsa, bu yerda yashab bo‘lmaydi. Kichkina Ketringa qancha qoldi?

– Bir oycha. Balki ko‘proqdir.

– Pastga tushib Montreda tursak ham bo‘ladi.

– Lozannaga bormaymizmi? Kasalxona o‘sha yerda-ku.

– Lozannaga borsak ham bo‘ladi. Men faqat u shahar bizga kattalik qilmasmikin devdim.

– Biz katta shaharda ham yolg‘iz o‘zimiz bo‘lamiz. Lozanna yaxshi shahar bo‘lsa kerak.

– Qachon ketamiz?

– Menga baribir. Qachon desang, o‘shanda, jonim. Agar ketishni istamasang, qolaversak ham bo‘ladi.

– Havoni ko‘raylik-chi.

Yomg‘ir uch kungacha yog‘ib turdi. Stansiya pastidagi tog‘ bag‘rida sira ham qor qolmadi. Loygarchilik, eruvgarchilik boshlandi. Uydan tashqariga chiqib bo‘lmay qoldi. Yomg‘irning uchinchi kuni ertalab biz shaharga ketishga qaror qildik.

– Qo‘ying, tashvish chekmang, monsuer Genri, – dedi Guttingen. – Hech qanday ogohlantirishning keragi yo‘q. Havo aynigandan keyin bu yerda qolmasalar kerak, deb yuruvdim o‘zim ham.

– Madame boisidan biz kasalxonaga yaqinroq bo‘lishimiz kerak.

– Albatta, – dedi u. – Balki yana kichkintoylar bilan birga kelarsizlar.

– Agar sizda joy topilsa.

– Bahorda bu yerlar juda ochilib ketadi, kelinglar, sizlarga ma‘qul bo‘ladi. Kichkinani enagasi bilan katta uyga joylashtiramiz, o‘zingiz madame bilan yana oldingi ko‘lga qaragan xonangizni olasiz.

– Men sizga oldindan yozib yuboraman, – dedim men.

Biz yig‘ishtirib, tushdan keyingi birinchi poyezd bilan ketdik. Monsieur va madame Guttingen bizni stansiyaga kuzatib qo‘yishdi, eri narsalarimizni loyda chanada eltib berdi. Ularning ikkovlari ham stansiyada yomg‘irda turib, xayrlashib qo‘llarini silkib qolishdi.

– Juda ham yaxshi odamlar ekan, – dedi Ketrin.

– Ular bizga ko‘p mehribonlik qilishdi.

Montrega borib Lozanna poyezdiga o‘tirdik. Vagon dan biz yashagan joylardagi tog‘lar ko‘rinmas ekan, ularni bulutlar to‘sib olgandi. Poyezd Veveda to‘xtadi-da, keyin yo‘lda davom etdi. Yo‘lning bir tomonida ko‘l, ikkinchi tomonida yomg‘irda bo‘kkan qo‘ng‘ir



dalalar, namiqib ketgan o'rmon va ivigan uylar bor edi. Lozannaga kelgach, kichikroq bir mehmonxonaga joylashdik. Biz ko'chalardan o'tib, mehmonxonaga burilgan paytimizda ham hali yomg'ir tinmagandi. Tugmasining teshigidan mis kalitlar osilgan zanjir o'tkazib olgan porte, lift, polga to'shalgan poyandozlar, yaltirab, oppoq bo'lib turgan umivalniklar, sim karavot va kattakon shinam yotoq – bularning bari Guttingenlardan so'ng ko'zimizga juda hashamatli bo'lib ko'rindi. Xonaning derazalari tepasiga temir to'r tortilgan devor bilan o'rab olingan boqqa ochilardi. Nishab tik ko'chaning boshqa tomonida yana mehmonxonaga, devorlar bor edi. Men bog'dagi hovuzga yomg'ir tomchilarining tushishini tomosha qilardim.

Ketrin barcha chiroqlarni yoqib, narsalarni saranjom qila boshladi. Men sodali viski so'radim, karavotga yotib, vokzalda sotib olgan gazetani qo'limga oldim. 1918-yilning mart oyi edi, nemislar Fransiyaga hujum qilmoqda edilar. Men Ketrin ishlarini bitirib bo'lguncha sodali viski ichib, o'qib yotdim.

– Bilasanmi, jonim, men nimalarni tayyorlab qo'yishim kerak ekan, – dedi u.

– Nimalarni?

– Chaqaloqning narsalarini. Odatda, bunaqa paytgacha hamma mayda-chuydalarni taxt qilib qo'yishadi.

– Sotib olsak ham bo'ladi-ku.

– Bilaman. Ertagayoq olgani boraman. Faqat nima kerakligini bilsam edi.

– Bilishing kerak edi. Hamshira bo'lgansan-ku.

– Shundog'u, lekin gospitalda soldatlar har kuni bola qilib turganlari yo'q edi-da.

– Men-chi?

U menga yostiq otdi, viskim chayqalib to'kildi.

– Men hozir senga boshqasini oldirib kelaman, – dedi u. – Meni kechir.

– O'zi ozginagina qolgandi. Kel, yonimga kel.

- Yo‘q. Men bu xonani sal epaqayga keltirmoqchiman.
- Epaqay nimasi?
- O‘z uyimizga o‘xshab tursin.
- Antantaning bayroqlarini osib qo‘y.
- Bemaza bo‘lma.
- Qani yana bir qaytar-chi.
- Bemaza.
- Buni shundoq muloyim aytdingki, – dedim men, – xuddi birovni xafa qilib qo‘ymay deganday.
- Hech-da.
- Unda kel yonimga.
- Mayli. – U kelib karavotga o‘tirdi. – Seni zeriktirib qo‘yayotganimni bilaman, jonim. Men pivo bochkasiga o‘xshab qoldim.
- Bekor gap. Sen chiroylisan, juda ham yoqimlisan.
- Menga sen ehtiyotsizlik qilib uylanib qo‘ygansan, men shunday bir badbashara odamman.
- Bekor gap. Sen kundan-kunga ochilib boryapsan.
- Lekin, jonim, hali yana asl holimga qaytaman.
- Sen hozir ham chiroylisan.
- Sen ichib olgansan.
- Bir stakan sodali viski ichdim, xolos.
- Hozir yana viski berishadi, – dedi u. – Balki tushlikni ham shu yerga berisha qolsamikin?
- Judayam soz bo‘lardi.
- Unda bugun hech qayerga chiqmaymiz, maylimi? Oqshomni uyda o‘tkaza qolamiz.
- O‘ynaymiz, – dedim men.
- Men vino ichaman, – dedi Ketrin. – Menga hech narsa qilmaydi. Balki bu yerda bizning oq kaprimiz bordir.
- Bo‘lsa kerak, – dedim. – Bunaqa mehmonxonalar-da doim italyan vinolari bo‘ladi.
- Kelner eshikni qoqdi. U muz solingan stakanda viski olib keldi, uning patnisida sodali suvning kichkina shishasi ham bor edi.

– Rahmat, – dedim men. – Bu yerga qo‘ying. Baraka toping, shu yerga ikki kishilik turli ovqat bilan ikki shisha quruq oq kapridan bersangiz.

– Birinchisiga sho‘rva buyuradilarmi?

– Sho‘rva ichasanmi, Ket?

– Ha, bemalol.

– Bitta sho‘rva.

– Bajonidil, ser.

U chiqdi, eshikni yopdi. Men gazetalarimni yana qayta qo‘lga olib gazetadagi urushlarni o‘qishga tushdim, sodali suvni muz solingan viskinging stakaniga asta quyib turdim. Viskiga muz solmanglar, desam bo‘larkan. Muzni alohida olib kelishardi. O‘shanda stakanda qancha viski qolganiga qarab sodali suv qo‘shilardi, bo‘lmasa, viskinging quvvati susayib ketmoqda. Bir shisha viski sotib olib faqat muz bilan sodali suv so‘ralsa tuzuk bo‘larkan. Yaxshi viski – yaxshi narsa-da. Hayotning eng go‘zal narsalaridan biri desa ham bo‘ladi.

– Nimalarni o‘ylab yotibsan, jonim?

– Viskini.

– Viskining nimasini?

– Viskining juda totli narsa ekanligini.

Ketrin aftini burishtirdi.

– Bo‘pti, – dedi u.

Biz bu mehmonxonada uch hafta yashadik. Bu yer unchalik yomon emasdi: restoranda, ko‘pincha, hech kim bo‘lmas va biz ko‘p mahallar ovqatni o‘z xonamizda yerdik. Shaharni aylanardik, tramvay bilan Ushiga borardik, ko‘l tepasida o‘ynab kelardik. Kunlar ilib qolgan, xuddi bahor kelganga o‘xshardi. Biz tog‘lardagi chaylamizdan ketganimizga afsuslanar, lekin iliq kunlar tezda sovuq rutubat bilan almashardi.

Ketrin chaqaloqqa kerakli hamma narsalarni sotib olmoqda edi. Men sal harakatlanay deb gimnastika zaliga boks tushgani borardim. Odatda, u yerga

men ertalab hali Ketrin ko'rpada yotganda ketardim. Erta ko'klam chog'larida boksdan va dushdan so'ng odam o'zini bardam sezar, bahor havosini shimirib ko'chadan yurish, qahvaxonaga kirib o'tirib, odamlarni ko'rish, gazeta o'qish, vermut ichish juda gashtli edi. Keyin mehmonxonaga qaytib Ketrin bilan maza qilib nonushta qilardik. Gimnastika zalidagi boks muallimi mo'ylov qo'ygan odam edi, uning harakatlari aniq va qisqa bo'lardi, unga hujum qila boshlasang, u juda qo'rqib ketardi. Lekin gimnastika zalida mashq qilish odamga huzur bag'ishlardi. Bu yerning ichi yorug', toza bo'lgani uchun men as-toydil mashq qilar, arqondan sakrar, boksning turli usullarini sinab ko'rar, derazadan tushgan quyosh nurlariga yotib olib qorin mushaklarini mustahkamllovchi mashqlarni bajarardim, ba'zan muallim bilan boks tusha turib uni qo'rqitib yuborardim. Avvaliga uzun kambar oyna oldida turib mashq qilishga ko'nikolmadim, chunki sersoqol bokschi oynada juda g'alati ko'rinardi.

Lekin bora-bora bu mening kulgimni qistatadigan bo'ldi. Men boks bilan shug'ullana boshlagach, soqolimni qirdirib tashlamoqchi edim, lekin Ketrin yo'l qo'ymadi.

Ba'zan biz tevarak-atroflarni ekipajga tushib aylanib kelardik. Havo yaxshi kunlarda ekipajda yurish maroqli edi, bundan tashqari biz borib ovqatlansa bo'ladigan ikkita xushmanzara yerni topgandik. Ketrin endi ko'p yurolmaydigan bo'lib qolgandi va u bilan dala yo'llarida ot qo'shilgan aravada sayr qilardim.

Agar havo musaffo bo'lsa, biz vaqtimizni juda maroqli o'tkazardik, umuman esa, bizning yomon o'tgan vaqtimizni eslolmayman. Biz bolaning oy-kunlari to'lib borayotganini bilar va bundan xuddi birov bizni quvib kelayotgandek, bir-birimizdan ajralishni istamas, biron soat ham vaqtimizni zoye ketkizgimiz yo'q edi.

## Qirq birinchi bob

Bir kuni men azon mahali soat uchlarda uygʻonib ketdim, qarasam, Ketrin toʻshakda toʻlgʻanib yotibdi.

– Tobing yoʻqmi, Ket?

– Dard tutayotganga oʻxshaydi, jonim.

– Tez-tezmi?

– Unchalikmas.

– Agar tez-tez boʻlsa, kasalxonaga borish kerak.

Juda ham uyqum kelayotgan edi, yana uxlab qolibman. Koʻp oʻtmay yana uygʻondim.

– Doktorga qoʻngʻiroq qilsangmikin, a, – dedi Ketrin.

– Balki boshlanayotibdimi?

Men telefonga borib doktorga qoʻngʻiroq qildim.

– Tez-tez toʻlgʻoq tutyaptimi? – soʻradi u.

– Tez-tezmi, Ket?

– Deyarli har oʻn besh daqiqada bir marta.

– Unda kasalxonaga kelinglar, – dedi doktor. – Men ham hozir kiyinib u yerga boraman.

Men trubkani qoʻydim, keyin taksi chaqirish uchun vokzal oldidagi garajga qoʻngʻiroq qildim. Telefonga anchagacha hech kim kelmadi. Nihoyat, bir odamga tushdim, u hoziroq mashina yuborishga vaʼda qildi. Ketrin kiyinmoqda edi. Uning jomadoniga kasalxona uchun hamma kerakli narsalar bilan chaqaloqning mayda-chuydalari solingandi. Biz dahlizga chiqdik, men liftchini chaqirdim. Javob boʻlmadi. Pastga tushdim. Pastda tungi qorovuldan boʻlak hech kim yoʻq edi. Liftda oʻzim koʻtarildim, kabinaga jomadonni kiritdim, Ketrin kirdi va biz pastga tushdik. Tungi qorovul bizga eshikni ochib berdi va biz eshik oldidagi tosh ustiga oʻtirib taksi kelishini kuta boshladik. Havo ochiq edi, osmonda yulduzlar bodrab yotardi. Ketrin qattiq hayajonda edi.

– Boshlandi, boshlandi-ya, – dedi u. – Endi hammasi tezda oʻtib ketadi.

– Sen azamat xotin ekansan.

– Men qoʻrqmayman. Faqat taksi kela qolsaydi. Biz koʻchada mashina shovqinini eshitdik, chiroqlar koʻrindi. Taksi oldimizga kelib toʻxtadi, men Ketrinni mashinaga oʻtqazdim, shofyor esa jomadonni old oʻrindiqqa qoʻydi.

– Kasalxonaga, – dedim.

Biz tosh yoʻlga chiqib tepalikka koʻtarila boshladik.

Kasalxonaga kelganimizda jomadonni koʻtarib oldim, ichkariga kirdik. Pastda kontorka orqasida bir xotin oʻtirgan ekan, Ketrinning familiyasini, otini, yoshini, manzilini, ota-onasini, dinini soʻrab yozib oldi. Ketrin dinga aloqam yoʻq, dedi, shunda xotin dini deyilgan joyga chiziq chizib qoʻydi. Ketrin familiyam Genri dedi.

– Sizni palataga olib boraman, – dedi xotin.

Biz liftida koʻtarildik. Xotin liftni toʻxtatdi, biz chiqib dahlizda uning orqasidan ketdik. Ketrin mening qoʻlimdan mahkam ushlab olgandi.

– Mana shu sizning palatangiz, – dedi xotin. – Marhamat qiling, yechinib yoting. Mana sizga tungi koʻylak.

– Mening tungi koʻylagim bor, – dedi Ketrin.

– Sizga mana bunda qulayroq boʻladi, – dedi xotin. Men chiqib ketdim. Yoʻlakdagi stulga oʻtirdim.

– Endi kirsangiz boʻladi, – dedi hamshira eshik oldida turib.

Ketrin xuddi boʻzdan tikilganga oʻxshaydigan, yoqasi chor qirra qilib qiyilgan tungi koʻylak kiyib ensizgina karavotda yotardi. U menga jilmayib qoʻydi.

– Endi rosmana dard tuta boshladi, – dedi u. Hamshira uning qoʻlini ushlab turar, soatiga qarab toʻlgʻoq tutishiga quloq solardi.

– Mana hozir qattiqroq boʻldi, – dedi Ketrin. Qattiqroq boʻlgani uning yuzidan ham koʻrinib turardi.

– Doktor kelmadimi? – soʻradim men uning hamshirasidan.

– Keldi, pastda uxlab yotibdi. Kerak boʻlgan paytda bu yerga chiqadi. Men madamega biroz qarashim

kerak, – dedi hamshira. – Baraka toping, birpas chiqib turing.

Men yo'lakka chiqdim. Yo'lakning atigi ikkita dera-zasi bor edi, ikkala tomondagi qator ketgan eshik-lar berk edi. Yo'lakdan kasalxonaning hidi anqirdi. Men stulda o'tirib, yerga tikilgancha xudodan Ketrin omon-eson qutulishini yolvorib so'radim.

– Kirishingiz mumkin, – dedi hamshira. Men kirdim.

– Senmisan, jonim? – dedi Ketrin.

– Tuzukmisan?

– Endi rosa olyapti.

Uning yuzi o'zgarib ketdi. Keyin u jilmaydi.

– Mana bunisi chinakam bo'ldi. Hamshiraxon, qo'lingizni yana kuragingga qo'yib tursangiz.

– Sizga shunday qulay bo'lyaptimi? – so'radi hamshira.

– Sen endi ketaver, jonim, – dedi Ketrin. – Borib bi-ron narsa yeb ol. Hamshiraxon bu hali anchagacha cho'zilishi mumkin deyapti.

– Birinchi marta ko'zi yoriyotganda biroz cho'ziladi, – dedi hamshira.

– Bor, biron narsa tamaddi qilib ol, – dedi Ketrin.

– Men o'zimni ancha durust his qilyapman, rostdan.

– Men yana birpas bo'laman, – dedim.

To'lg'oq dam-badam tutib turardi, keyin kama-yib qoldi. Ketrin qattiq hayajonda edi. Juda ham joni og'rib ketgan kezlarda u yaxshi deb qo'yardi. Dard tu-tish susayib qolganda u norozi bo'lib xijolat chekardi.

– Sen keta qol, jonim, – dedi u. – Sening oldingda men o'zimni erkin tutolmayapman. – Uning chehra-si yana o'zgarib ketdi. – Ana. Bunisi durustroq bo'ldi. Men yaxshi xotin bo'lishni shu qadar istaymanki, hech bir nayrang-payrang qilmasdan tug'ishni istayman. Baraka top, bor, ovqatlanib kel, jonim. Sensiz zerikib qolmayman. Hamshiraxon biram yaxshi ekanlarki.

– Hali bemalol nonushta qilib olsangiz bo'ladi, – dedi hamshira.

– Yaxshi, men ketdim. Ko‘rishguncha, azizim.

– Ko‘rishguncha, – dedi Ketrin. – Yaxshilab nonush-ta qil, mening o‘rnimga ham.

– Bu yerda qayerda nonushta qilish mumkin? – so‘radim men hamshiradan.

– Bizning ko‘chamizda shundoq maydon oldida qahvaxona bor, – dedi u. – Hozir ochilgan bo‘lsa kerak.

Tong oqarib kelmoqda edi. Men kimsasiz ko‘chadan qahvaxonaga bordim. Oynalar yorug‘ edi. Men ruxlab qo‘yilgan bufet oldiga bordim, bufetchi chol menga bir stakan oq vino bilan briosh berdi. Briosh kechagi ekan. Men uni vinoga botirib yedim, keyin yana qahva ichdim.

– Kallayi saharlab bu yerda nima qilib yuribsiz? – so‘radi chol.

– Xotanim kasalxonada ko‘zi yorimoqda.

– Shunday deng! Xo‘p, omon-eson qutulsin.

– Menga yana bir stakan vino bering.

U shishani azot ko‘tarib quydi, stakan to‘lib birozi to‘kildi. Men ichib, haqini to‘lab tashqariga chiqdim. Ko‘chada, hamma uylarning oldida axlatchini kutib axlat idishlari turardi. Bir chelakni it iskab ko‘rmoq-daydi.

– Senga nima kerak? – so‘radim men va unga bi-ron narsa yo‘qmikin deb engashib chelakni qaradim; chelakning ustida qahva quyqasi, axlat va qurigan gullardan boshqa hech narsa yo‘q edi.

– Hech vaqo yo‘q, it, – dedim men. It ko‘chaning narigi tomoniga o‘tib ketdi. Kasalxonaga kelib Ketrin yotgan qavatga ko‘tarildim va yo‘lakdan uning eshi-gigacha bordim. Taqillatdim. Hech kim javob berma-di. Eshikni ochdim; faqat Ketrinning jomadoni stulda turar, uning xalati ilgakka osib qo‘yilgandi. Yo‘lakka chiqib birov ko‘rinib qolarmikin deb, qaray boshladim. Men boshqa hamshirani ko‘rib qoldim.

– Madame Genri qani?



– Hozirgina bir xonimni tug‘ruqqa olib kirishdi.

– Qayerda?

– Yuring sizga ko‘rsataman.

U meni yo‘lakning narigi boshiga olib bordi. Xonaning eshigi qiya ochiq turardi. Men Ketrinni stolda yotgan, ustiga choyshab yopilgan holda ko‘rdim. Stolning oldida hamshira turar, doktor esa narigi tomonda, qandaydir silindrlar oldida edi. Doktor qo‘lida nay quvurga ulangan rezina niqob ushlab olgandi.

– Men sizga xalat beraman, keyin kirishingiz mumkin, – dedi hamshira. – Marhamat, bu yoqqa keling.

U menga oq xalat kiydirib, orqamdan to‘g‘nag‘ich bilan qadab qo‘ydi. – Endi kirsangiz bo‘ladi, – dedi u. Men xonaga kirdim.

– Keldingmi, jonim? – dedi Ketrin qandaydir o‘zgarib ketgan ovoz bilan. – Ishlarimiz nimagadir yurishmayapti.

– Menisour Genri siz bo‘lasizmi? – so‘radi doktor.

– Ha. O‘zlaringiz qalaysiz, doktor?

– Hammasi yaxshi ketyapti, – dedi doktor. – To‘lg‘oq paytida gaz berish mumkin bo‘lsin deb bu xonaga o‘tdik.

– Bering, – dedi Ketrin.

Doktor uning yuziga rezina niqob kiygizdi va qandaydir diskni buradi. Ketrin tez-tez chuqur nafas ola boshlaganini ko‘rdim. Keyin u niqobni olib tashladi, doktor apparatni o‘chirdi.

– Uncha qattiq bo‘lmadi. Yaqinda juda qattiq bo‘lgandi. Doktor meni xuddi yo‘qday qilib qo‘ydi. To‘g‘rimi, doktor? – Uning ovozi g‘alati edi. «Doktor» so‘zini aytganda biroz balandroq chiqdi. Doktor jilmaydi.

– Bering, – dedi Ketrin. U niqobni yuziga tez tutib, tez nafas ola boshladi.

Uning sekin ingrayotganini eshitdim. Keyin u niqobni surib qo‘ydi-da, jilmaydi.

– Bunisi qattiqroq boʻldi, – dedi u. – Bu juda ham qattiq boʻldi. Sen tashvishlanma, jonim. Bor. Yana bir marta nonushta qilib ol.

– Men shu yerda boʻlaman, – dedim men.

Biz kasalxonaga soat uchlarda kelgandik. Tush boʻldi, lekin hamon Ketrinning koʻzi yorigani yoʻq. Toʻlgʻoq oʻta susayib qoldi. Uning qattiq uringanligi, azob chekkanligi koʻrinib turardi. Lekin u oʻzini tetik tutishga harakat qilardi.

– Qoʻlimdan hech narsa kelmayapti, jonim, – dedi u. – Xoʻrligim kelyapti. Men hammasi oppa-oson oʻtib ketadi, deb oʻylagandim. Endi boʻlsa, mana – yana... – U qoʻlini niqobga choʻzdi, niqobni yuziga bosdi. Doktor diskni burab, Ketringa tikilib turdi. Dard yana darrov bosildi.

– Bir navi, – dedi Ketrin. U jilmayib qoʻydi. – Bu gaz menga judayam yoqib qoldi. Ajoyib narsa.

– Uyga ham ozginasini olib ketamiz, – dedim men.

– Hozir yana tutadi, – dedi Ketrin shosha-pisha. Doktor diskni burib soatiga qaradi.

– Toʻlgʻoq tutishi qanday boryapti? – soʻradim men.

– Orasi bir daqiqa.

– Siz ovqatlanmaysizmi?

– Men hozir tushlik qilgani boraman, – dedi u.

– Siz, albatta, ovqatlanib olishingiz kerak, doktor, – dedi Ketrin. – Muncha imillamasam, odamga biram alam qiladiki. Balki erim ungacha menga gaz berib turar?

– Taʼblari, – dedi doktor. – Ikki raqamigacha burasiz.

– Tushunarli, – dedim men. Diskning tili boʻlib, u aylantirib turilardi.

– Bering, – dedi Ketrin. U niqobni yuziga qattiq bosib oldi. Men diskni ikki raqamigacha burdim. Ketrin niqobni yuzidan olganda orqasiga burab qoʻydim. Doktor menga ish topib berganidan gʻoyatda xursand edim.

– Gazni sen berganmiding, jonim? – so‘radi Ketrin.  
U mening qo‘limni silab qo‘ydi.

– Men.

– Qanday yaxshisan!

Gazdan biroz uning boshi aylanib qolgandi.

– Men qo‘shni xonada ovqatlanaman, – dedi doktor.

– Biror gap bo‘lsa, darrov chaqirarsiz.

Men u qanday ovqatlanayotganiga qarab turardim, keyin biroz o‘tgach, uning yonboshlaganini, chekayotganini ko‘rdim. Vaqt o‘tib borardi. Ketrin tez-tez charchay boshladi.

– Nima deysan, men o‘zi tug‘a olarmikinman?

– so‘radi u.

– Albatta, tug‘a olasan.

– Qo‘limdan kelgancha harakat qilyapman. Men ita-lasam, u yana orqaga ketadi. Hozir tutadi. Ber tezroq.

Soat ikkida men ovqatlangani ketdim. Qahvaxonada bir qancha odamlar bor edi, stolchada qahva bilan kirshvasser solingan qadahlar turardi. Men stolga o‘tirdim.

– Nimangiz bor? – so‘radim men kelnerdan.

– Ikkinchi nonushta tamom bo‘ldi.

– Tuzukroq hech narsa yo‘qmi?

– Shoucroite <sup>51</sup> tayyorlash mumkin.

– Shoucroite bilan pivo bering.

– To‘lami, yarimmi?

– Yarim, ochidan.

Kelner ustiga cho‘chqa go‘shiti qo‘yilgan, vinoga omixta qilingan qaynoqqina karamga sosiska botirilgan Sauerkraut olib keldi. Karam yeb pivoni ichdim. Juda ham ochqagandim. Qahvaxonada o‘tirganlarga bir-bir ko‘z yugurtirib chiqdim. Bir stolda qarta o‘ynamoqda edilar. Yonimdagi stolda ikki kishi gaplashib, chekishib o‘tirardi. Qahvaxona tutun bo‘lib ketgandi. Ertalab nonushta qilgan joyimda endi uch kishi turibdi: chol, kassada o‘tirib stollarga nima be-

rilayotganiga qarab turgan qora ko'ylakli semiz xotin va etak tutgan bola. Men bu xotinning bolalari qanchaykin va ularni qanday qilib tuqqaniykin, deb o'ylab o'tirardim.

Ovqatlanib bo'lib, orqamga, kasalxonaga qaytdim. Ko'cha endi yalab qo'yilganday top-toza edi. Axlal chelaklar olib ketilgandi. Havoda bulutlar kezib yurar, lekin gohi oftob ko'rinay-ko'rinay deb qo'yardi. Liftda yuqoriga chiqib, yo'lakdan Ketrinning xonasiga bordim, xalalim shu yerda edi. Men uni kiyib olib, gardanimga to'g'nag'ich qadab oldim. Oynaga qaradim, ichimda xuddi sersoqol lo'ttibozga o'xshayman, deb qo'ydim. Yo'lakdan Ketrin yotgan joyga bordim. Eshik yopiq edi, taqillatdim. Hech kim javob bermadi; men eshikni ochib ichkariga kirdim. Doktor Ketrinning oldida o'tirardi. Hamshira xonaning bir boshida nimadir qilmoqda edi.

– Ana sizning eringiz, – dedi doktor.

– Oh, jonim, doktor biram ajoyiblarki! – dedi Ketrin juda g'alati tovush bilan. – U menga qiziq bir latifa aytib berdi, juda ham jonim og'rib ketganda shunday qildiki, men yana o'zimni bilmay qoldim. U antiqa. Siz antiqa odamsiz, doktor.

– Mast bo'lib qolibsiz, – dedim men.

– Bilaman, – dedi Ketrin. – Faqat buni gapirib o'tirmaylik, bering tezroq. Tezroq bering.

U niqobga jonholatda yopishib olib, entikib uzuq-yuluq nafas ola boshladi. Keyin chuqur xo'rsinganday nafasini chiqardi. Shunda doktor chap qo'li bilan niqobni oldi.

– Bunisi juda kuchli bo'ldi, – dedi Ketrin. Uning ovozi juda g'alati edi. – Endi men o'lmayman, jonim. Men o'lib qolay dedim, lekin o'tib ketdi. Sen xursandmisan?

– Endi u yoqqa qaytib bormagin.

– Bormayman. Biroq undan qo'rqmayman ham. Men o'lmayman, jonim.

– Siz bunday tentaklikni qilmang, – dedi doktor. – Siz oʻlmaysiz va eringizni yolgʻiz qoldirib ketmaysiz.

– Yoʻq, yoʻq. Men oʻlmayman. Men oʻlishni istamayman. Oʻlim – tentaklik. Mana yana. Bering tezroq.

Birozdan soʻng doktor dedi:

– Siz, mister Genri, birpasga chiqib turing, men xotiningizni tekshirib koʻraman.

– U ishning qanday borayotganini koʻrmoqchi, – dedi Ketrin. – Sen keyin kirasan. Maylimi, doktor?

– Ha, – dedi doktor. – Men oʻzim chaqirtiraman.

Bu yerdan chiqib bola tugʻilgandan keyin Ketrinni olib kelishlari kerak boʻlgan palataga ketdim. Men stulga oʻtirib atrofga qaradim. Choʻntagimda ovqatlangani borganda sotib olgan gazeta bor edi, chiqarib oʻqishga tushdim. Qorongʻi tushib qolgani uchun chiroqni yoqdim. Salcha fursatdan soʻng oʻqishdan toʻxtab, chiroqni oʻchirdim va tashqarida qorongʻi quyuqlashib borayotganini tomosha qilib turdim. Qiziq, nega doktor chaqirtirmayapti. Balki men ketganim yaxshi boʻlgandir. Aftidan, mening u yerda turmasligimni xohlagandir. Soatga qaradim. Yana oʻn daqiqagacha hech kim kelmasa, oʻzim boraman.

Shoʻrlik, shoʻrlik Ket. Birga yotganning oqibati mana shundoq boʻlar ekan-da. Mana endi qopqon otildi. Sevisishganlarga mukofot mana shu. Yaxshiyamki, gaz bor ekan. Ogʻriqni pasaytiradigan narsalar boʻlmagan kezlarda nima qilishgan ekan? Toʻlgʻoq tuta boshlasa, xuddi tegirmonga tushganday boʻlasan. Ketrin butun homiladorlik paytini yaxshi kechirdi. Unchalar yomon boʻlgani yoʻq. Hatto, koʻngli ham deyarli aynigani yoʻq. Oxirgi kunlargacha u voy deb aytmadi. Lekin alohal baribir tutildi. Al-qasos ul-minal haq. Boʻlmagan gap! Biz ellik marta uylangan taqdirimizda ham yana shunday boʻlgan boʻlardir. Agar u oʻlib qolsa-ya? U oʻlmaydi. Hozir hech kim tugʻayotganda oʻlmaydi. Hamma erlar shunday deb oʻylashadi. Shunday, lekin u oʻlib qol-

sa-ya? U o'lmaydi. Faqat u juda qiynalib ketdi. Keyin biz: qanday qiyn bo'lgan edi-ya, deb gaplashib yuramiz, o'shanda Ketrin: uncha emas, deydi. To'satdan u o'lib qolsa-ya? U o'lmasligi kerak. Ha, banogoh, o'lib qolsa-ya? Bunday bo'lishi mumkin emas, deyapman senga. Ahmoq bo'lma. Faqat u qiynalib ketdi, xolos. Faqat tabiatning o'zi shundan qiynaladigan qilib qo'yg'an, xolos. Birinchi tug'ishida qiynalib tug'adi. Ha, lekin u o'lib qolsa-ya? Uning o'lishi mumkin emas. Nega endi u o'lar ekan? O'lishiga qanday sabablar bo'lishi mumkin? Milan kechalarida tug'ilgan meva tug'ilishi kerak, xolos. Barcha qiynchiliklar u tufayli bo'lyapti, keyin u tug'iladi-yu, aylanib, o'rgila boshlaysan, ko'rmasang turolmaydigan bo'lib qolasan. Xatarli hech narsa yo'q. Yana u o'lib qolsa-ya? U o'lishi mumkin emas. To'satdan o'lib qolsa-ya?

Doktor xonaga kirdi.

– Hech.

– Nima demoqchisiz?

– Nima derdim. Men uni hozirgina qarab chiqdim...

– U batafsil tushuntirib berdi. – Keyin men yana kutdim. Lekin ish oldga siljimayapti.

– Nima maslahat berasiz?

– Ikki yo'l bor: qisqich ishlatish mumkin, lekin bu ayol uchun juda xavfli. Bolani bir yoqqa qo'yib tura-  
vering. Qornini kesish ham mumkin.

– Qornini kesish juda ham xavflimi? Yana u o'lib qolsa-ya?

– Tug'ishga qaraganda xavfli emas.

– Buni o'zingiz qilolasizmi?

– Ha. Menga hammasini tayyorlash va kerakli odamlarni olib kelish uchun bir soat vaqt kerak bo'ladi. Balki, bir soatga ham bormas.

– Sizningcha, qaysi osonroq?

– Men kesib olishni aytgan bo'lardim. Agar bu mening xotinim bo'lganda, men uni kesib olardim.

– Oqibati nima boʻladi?  
– Hech qanday oqibati yoʻq. Faqat chandiq qoladi.  
– Hech qanday asorati boʻlmaydimi?  
– Qisqich bilan olganda shunday boʻlishi mumkin.  
– Hech narsa qilmay, kutsak-chi?  
– Ertami-kech biron narsa qilish kerak boʻladi. Madame Genri haliyam koʻp kuch yoʻqotdilar. Qancha tez operatsiya qilsak, shuncha yaxshi.

– Unda tezroq boshlang, – dedim men.

– Hozir borib aytaman.

Ketrinning oldiga bordim. Ketrin stolda ustiga choyshab yopilganча yotar, juda oqarib, boʻzday boʻlib qolgan, horgʻin edi. Hamshira uning yonida turardi.

– Sen rozi boʻldingmi? – soʻradi u.

– Ha.

– Yaxshi boʻlibdi. Endi bir soatdan keyin hammasi tamom boʻladi. Boshqa kuchim qolmadi, jonim. Endi kuchim yetmaydi. Ber, ber tezroq. Foydasi boʻlmadi. Yo xudo, foydasi boʻlmayapti.

– Chuqurroq nafas ol.

– Olyapman. Yo xudo, yordam bermayapti. Yordam bermayapti.

– Boshqa silindr bering, – dedim hamshiraga.

– Shu yangi silindr.

– Jonim, men shunday tentakmanki, – dedi Ketrin. – Lekin rostdanam hech yordam bermayapti. – U birdan yigʻlab yubordi. – Men chaqaloq tugʻishni shunchalik orzu qilgandim, hech kimga ogʻirim tushmasin devdim, mana endi kuchim ham qolmadi, hech narsa qilolmayapman, mana, gaz ham yordam bermay qoʻydi. Jonim, hech yordam bermay qoʻydi. Oʻlsam ham mayli edi, faqat tezroq tamom boʻla qolsa. O, jonim, jonim, biron narsa qil, hammasi tugasin. Ana yana. O-o, o-o, o-o! – u piqillab yigʻlaganча niqob bilan nafas olmoqda edi. – Yordam bermayapti. Yordam bermayapti. Yordam ber-

mayapti. Kechir meni, jonim. Yig'lama. Kechir meni. Boshqa qilolmayman. Sho'rligim! Seni men shunday sevamanki, hali yana bir urinib ko'raman. Mana hozir bir urinib ko'raman. Boshqa hech narsa berishning iloji yo'qmi? Qaniydi, menga yana bir narsa berishsa!

– Men gaz ta'sir etadigan qilaman. Oxirigacha burayman.

– Mana endi ber.

Men diskani oxirigacha burdim, u bosiq va chuqur nafas ola boshlashi bilan niqobni ushlab turgan qo'llari shilq etib tushdi. Men apparatni o'chirib, yuzidan niqobni oldim. U qaytib kelmaydigan yerdan qaytib kelganday bo'ldi.

– Qandoq yaxshi, jonim. Sen qandoq mehribon-san.

– Birpas chida, sen juda yuraklisan-ku. Men ha-deb bunday qilolmayman. Bu seni o'ldirib qo'yishi mumkin.

– Menda endi yurak qoldimi, jonim. Men tamom bo'ldim. Meni tamom qilishdi. Men endi bilaman.

– Hammada bo'ladi bunday.

– Lekin bu juda ham yomon bo'lyapti. Odamni tamom qilmaguncha qiynashadi.

– Yana bir soatdan keyin qutulasan.

– Muncha yaxshi! Jonim, men o'lmayman-a, to'g'rimi?

– To'g'ri. Sen hech qachon o'lmaysan.

– Mening hech o'lgim yo'q, seni yolg'iz tashlab ketolmayman, lekin biram madorim qolmadi-ey, o'lib qolaman, deb qo'rqyapman.

– Bekor gap. Hamma shunday deb o'ylaydi.

– Men shunday bo'lishini sezib turibman.

– Unday bo'lmaydi. Unday bo'lishi mumkin emas.

– Mabodo?

– Men bunga yo'l qo'ymayman.



– Ber menga tezroq. Ber, ber, menga.

Keyin yana:

– Men o'lmayman. Men o'zim bunga yo'l qo'ymayman.

– Albatta, sen o'lmayсан.

– Sen shu yerda bo'lasanmi?

– Ha, faqat qaramasdan turaman.

– Yaxshi. Faqat ketib qolma.

– Yo'q, yo'q. Men hech qayerga ketmayman.

– Biram yaxshisanki. Mana, yana ber. Ber yana.

Yordam bermayapti.

Diskani uch raqamigacha, keyin to'rtgacha burdim. Doktor tezroq kela qolsa-chi, derdim. Men ikkidan so'ng keladigan raqamlardan qo'rqardim.

Nihoyat, boshqa bir doktor bilan ikkita hamshira kelishdi, ular Ketrinni g'ildirakli zambilga solishdi-da, yo'lakdan yurib ketdik. Yo'lakdan zudlik bilan o'tib liftga chiqdik, liftda zambilga joy berish uchun hammamiz devorga qisilishib turdik; keyin tepaga chiqildi, eshik lang ochildi, maydonchaga chiqildi, yo'lakdan rezina g'ildiraklarda operatsiya xonasigacha borildi. Doktor niqob tutib, qalpoqcha kiyib olgan ekan, tanimabman. Bu yerda yana bir doktor bilan yana hamshiralar bor edi.

– Menga biron narsa berishsin, – dedi Ketrin. – Menga biron narsa berishsin. Doktor, menga ta'sir qiladigan qilib bering.

Doktorlardan biri uning yuziga niqob tutdi, men eshikka qarab, yop-yorug' operatsiya sahnini ko'rdim.

– Siz huv anavi eshikdan kirib, o'sha yerda o'tirishingiz mumkin, – dedi hamshira.

To'siqning bu tomonida o'tiradigan joylar bor ekan, bu yerdan oq stol bilan chiroqlar ko'rinib turardi. Men Ketringa qaradim. Uning yuziga niqob tutib qo'yilgan, qimirlamay yotardi. Zambilni oldinga olib o'tishdi. Men yo'lakdan orqamga qarab ketdim. Ikki hamshira galereya tomonga shosha-pisha o'tib borishardi.

– Qornini kesisharmish, – dedi biri. – Hozir qornini kesib olisharmish.

Ikkinchisi kuldi. – Yetib kelganimizni qara. Omadimiz bor ekan! – Ular galereyaga olib boradigan eshikka kirib ketishdi.

Yana bir hamshira keldi. U ham shoshib turardi.

– Nimaga turibsiz, kiring. Kirsangiz-chi, – dedi u.

– Men shu yerda kutaman.

U hovliqqancha kirib ketdi. Men yo‘lakda u yoqdanbu yoqqa yura boshladim. Kirishga qo‘rqardim. Derazaga qaradim. Qorong‘i edi, lekin derazaning shu‘lasida yomg‘ir yog‘ayotgani ko‘rindi. Yo‘lak oxiridagi bir xonaga kirdim-da, oynavand javonda turgan shishalarning yozuvlariga qarab chiqdim. Keyin chiqib bo‘m-bo‘sh yo‘lakda turib operatsiya xonasining eshiklariga qarab qoldim.

Ikkinchi doktor, undan keyin hamshira chiqdi. Doktor ikkala qo‘li bilan terisi hozirgina shilib olingan quyonga o‘xshash bir narsani ko‘tarib olgandi. U yo‘lakdan tez o‘tib boshqa bir eshikka kirib ketdi. Men u kirib ketgan xonaning eshigidan kelib qaradim, ular chaqaloqni nimadir qilayotganlarini ko‘rdim. Doktor menga ko‘rsatish uchun uni ko‘tardi. U chaqaloqning oyog‘idan ko‘tarib shapatilab qo‘ydi.

– Ahvoli durustmi?

– Zo‘r yigitcha. Besh kilolar keladi.

Uni ko‘rganda yuragim jiz etmadi. Xuddi menga uning aloqasi yo‘qday. Yuragimda unga nisbatan otalik mehrini tuymadim.

– Nahotki, siz o‘z o‘g‘lingiz bilan faxrlanmasangiz?

– so‘radi hamshira. Ular chaqaloqni yuvishib, nimalargadir o‘rab qo‘yishmoqda edi. Men uning kichkina qoramtir yuzini, qoramtir qo‘lchalarini ko‘rdim, lekin na qimirlaganini, na «ing» deb ovoz chiqarganini eshitdim. Doktor uni yana allanimalar qila boshladi. U tashvishli ko‘rinardi.

– Yo‘q, – dedim. – U onasini o‘ldirib qo‘yay dedi.

– Bunga bechora chaqaloq gunohkor emas. Siz o'g'il bo'lishini istamovdingizmi?

– Yo'q, – dedim. Doktor hamon u bilan ovora edi. Uni yana oyog'idan ko'tarib shapatiladi. Men bunga qarab o'tirmadim. Yo'lakka chiqdim. Endi kirib ko'rishim mumkin edi. Galereyaga olib chiqadigan eshikdan kirib, bir necha zina pastga tushdim. To'siq oldida o'tirgan hamshiralar menga pastga tushing degan ishorani qilishdi. Men bosh chayqadim. Shu yerdan ham bemalol ko'rinib turardi.

Men, Ketrin o'lgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim. U o'lganga o'xshab yotardi. Uning menga ko'rinib turgan yuzi ko'karib ketgandi. Pastda esa chiroq tagida doktor keng, uzun ochilgan, chetlari bo'rtib turgan pinsetlar bilan tortilgan yarani tikmoqda edi. Boshqa, yuziga niqob tutib olgan doktor narkoz berardi. Ikki yuzlarini boylab olgan hamshira uskunalarni uzatib turishardi. Bu inkvizitsiya payti tasvirlangan suratga o'xshardi. Men u yerda turib hammasini o'z ko'zim bilan ko'rishim mumkin edi, lekin shunday qilmaganimdan hozir xursand edim. Ehtimol, men kesishlariga chidab turolmagan bo'lardim, lekin endi men doktor kosiblarday chaqqonlik bilan chok tikayotganiga bemalol qarab turardim.

U oxirigacha tikib bo'lgandan so'ng yo'lakka chiqib ketdim va yana u yoqdan bu yoqqa yura boshladim. Ko'p o'tmay doktor chiqdi.

– Qalay, u tuzukmi?

– Tuzuk. Siz qarab turuvdingizmi? Uning ko'rinishi horg'in edi.

– Men sizning tikayotganingizni ko'rdim. Juda ham katta kesibsizlarmi deyman?

– Sizga shundoq tuyulgandir.

– Ha. Chandig'i keyin tekis bo'lib ketadimi?

– Albatta.

Saldan keyin zambilni olib chiqishdi-da, yo'lakdan zudlik bilan liftga olib ketishdi. Men yonida bordim. Ketrin ingrab yotardi. Pastda palatada uni o'rniga yotqizishdi. Men karavotning oyog'idagi stulga o'tirdim. Palata qorong'i edi. Ketrin qo'lini uzatdi.

– Shu yerdamisan, jonim? – dedi u. Uning ovozi zaif va horg'in edi.

– Shu yerdaman, azizam.

– Bola qanaqa?

– Sh-sh, gaplashmang, – dedi hamshira.

– O'g'il. Kattakon, semiz, qoracha.

– O'zi tuzukmi?

– Ha, – dedim. – Zo'r bola.

Hamshira menga g'alati qarab qo'rganligini ko'rdim.

– Jonimda jon qolmadi, – dedi Ketrin. – Hamma yog'im og'rib ketyapti. O'zing tuzukmisan, jonim?

– Juda yaxshi. Gapirma.

– Sen biram yaxshisanki. O jonim, bilsayding qanday og'riyotganini! U kimga o'xshaydi?

– U terisi shilingan quyonga o'xshaydi, basharasi qarimsiq.

– Siz yaxshisi chiqib keting, – dedi hamshira. – Madame Genri gapirishlari mumkinmas.

– Men yo'lakda bo'laman, – dedim.

– Bor, biron narsa yeb kel.

– Yo'q. Men yo'lakda bo'laman.

Men Ketrinni o'pib qo'ydim. Uning yuzi pag'a bo'lib ketgan, qattiq azob tortgani ko'rinib turardi.

– Sizni bir daqiqaga mumkinmi, – dedim men hamshiraga. U men bilan yo'lakka chiqdi. Men eshikdan nariroqqa yurdim.

– Bolaga nima bo'lgan?

– Hali o'zingiz bilmaysizmi?

– Yo'q.

– Bola tirik emasdi.

– U o'likmidi?

– Uni nafas oldirolmadik. Kindigi bo‘yniga o‘ralib qolgan ekan.

– Demak, u o‘lganmi?

– Ha. Biram achinarlig-ey. Pahlavonday bola edi-ya. Men siz bilsangiz kerak devdim.

– Yo‘q, – dedim men. – Boring, madame oldilariga kiring.

Men hamshiralarni simga qadalgan hisobotlari turgan stol oldidagi stulga o‘tirdim va derazaga qaradim. Ko‘zimga zimiston tun bilan oyna yorug‘ida yog‘ayotgan yomg‘irdan bo‘lak hech narsa ko‘rinmadi. Mana gap qayerda ekan! Bola o‘lik tug‘ilibdi. Doktor nega muncha horg‘in desam, shunga ekan-da. Nega bo‘lmasa, xonada uning oyoqlaridan ko‘tarib orqalari-ga shapati urib yurishibdi? Aftidan, uni tiriltirishmoq-chi bo‘lgan bo‘lsalar kerak. Men dindor emasdim, lekin uni cho‘qintirish kerakligini anglab turardim. U biron marta ham nafas olmagan bo‘lsa-ya? Shundaylikka shundayku-ya. U bir soniya ham yashamagan. Faqat ona qursog‘idagina tirik bo‘lgan. Men necha martalab uning qimirlaganini sezganman. Keyingi paytlarda esa, bilinmay qolgan edi-ya. Balki u o‘shandayoq bo‘g‘ilib qolgandir. Bechora chaqaloq! Nega ham men unday bo‘lib bo‘g‘ilib o‘lmadim. Afsus. Yo‘q, afsus emas. Ehti-mol, o‘lib ketganimda yana buncha o‘limlarni boshim-dan kechirmagan bo‘lardim. Endi Ketrin o‘ladi. Mana, hammasining oqibati nima bo‘lar ekan. O‘lim. Bular-ning hammasining nima keragi bor, hatto, bilmaysan ham. Bilib ulgurolmaysan.

Bir kuni o‘rmonda hordiq chiqargani o‘tirdim. Gulxanga chumolilar uymalashib yotgan to‘nkani qalab qo‘ydim. To‘nka yona boshlagach, chumolilar tashqariga o‘rmalab chiqishdi va avval olov yonayot-gan o‘rtalikka qarab yurishdi, keyin to‘nkaning tepa-siga qarab qochishdi. Bu yerda chumolilar ko‘payi-shib ketgandan keyin birin-sirin olovga qulab tusha

boshlashdi. Ba'zi birlari amal-taqal qilib o'tdan chiqib olishdi, kuygan, ezilgan holda o'zlari ham qayergaligini bilmay tirqirab qochishdi. Lekin ularning ko'pchiligi olovga yaqinlashib, so'ng yana ortga qaytishar. Bir yerga to'planishib olar va yana o't ichiga qular edilar. Esimda, o'shanda buni dunyoning oxiriga o'xshatgan, to'nkani olib otib yuborib masihoday xaloskorlik qilmoqchi bo'lgandim, unda chumolilar qutulib ketgan bo'lardilar. Lekin buning o'rniga men qalay krujkadagi suvni to'nkaga sepib yubordim, krujkaga viski solib keyin ustidan suv quyib aralastirmoqchi bo'lgan edim. Yonib turgan to'nkaga tushgan suv, ehtimolki, chumolilarni battarroq kuydirgan bo'lsa.

Men yo'lakda o'tirib Ketrinning sog'ligi haqida xabar berishlarini kutar edim. Hamshiradan hamon darak bo'lmagani uchun birozdan so'ng o'rnimdan turib, borib sekin eshikni qiyalab ochib ichkariga nazar tashladim. Yo'lak yop-yorug', palata ichi qorong'i bo'lgani uchun avval hech narsani ko'rolmadim. Keyin karavot oldida o'tirgan hamshirani, yostiqdagi Ketrinning boshini, choyshabdan bilinar-bilinmas ko'tarilib turgan gavdasini ko'rdim. Hamshira qo'lini labiga bosdi-da, keyin o'rnidan turib, eshik oldiga keldi.

– Ahvol qalay? – so'radim men.

– Tuzuk, hammasi joyida, – dedi hamshira. – Siz ovqatlanib kelavering, keyin yana kelarsiz.

Yo'lakdan borib zinadan pastga tushdim, kasalxonaning eshigidan chiqdim-da, yomg'irda qahvaxonaga qarab ketdim. Qahvaxona charog'on, hamma stollar band edi. Joy izlab topolmadim, shunda kelner oldimga kelib, ho'l paltom bilan shlyapamni olib, menga bo'sh stul ko'rsatdi, stolning bir yog'ida qandaydir keksaroq bir odam pivo ichib, kechki gazetani o'qib o'tirardi. Men kelnerdan bugun qanday plat du jour<sup>1</sup> borligini so'radim.

---

<sup>1</sup> Tayyor taom (*frans.*).

- Buzoq go'shti bor edi, lekin tugadi.
- Kechki ovqatga nimalaringiz bor?
- Cho'chqa go'shti bilan tuxum, pishloq solingan quymoq yoki...
- Shoucrouteni ertalab yegan edim, – dedim men.
- Rost, – dedi u. – Rost. Siz butun ertalab ovqat yegan edingiz.

O'rta yoshli bu odam o'zining tepakali ustiga siyrak sochlarini silliq qilib tarab qo'yan edi. Yuziga qaraganda yaxshi odamga o'xshardi.

- Nima keltiray? Go'sht bilan tuxummi yoki quymoqmi?
- Go'sht bilan tuxum, – dedim, – pivo.
- Deml-blonde?
- Ha, – dedim.
- Ko'rdingizmi, esimda turibdi, – dedi u. – Siz ertalab ham deml-blonde buyurgan edingiz.

Men ovqatni yeb, pivoni ichib oldim. Ovqatni ichi cho'nqir idishda berishdi, idishning ichida go'sht, ustiga tuxum qo'yilgandi. U juda ham issiq ekan, bir qoshiq og'zimga olib borgandim, kuydirib yuboray dedi. Pivo bilan qo'shib ichdim, men juda och edim, yana ovqat so'radim. Bir necha stakan pivo ichdim. Men hech narsani o'ylamasdim, qo'shnim o'qiyotgan gazetani o'qiy boshladim. Unda ingliz frontida yuz bergan o'pirilish haqida yozilgandi. Qo'shnim uning gazetini o'qiyotganimni ko'rib boshqa betiga ag'darib oldi. Men kelnerdan gazeta so'ramoqchi edim, lekin sira xayolimni bir yerga yig'olmadim. Qahvaxonaning ichi issiq va havosi bo'g'iqli edi. O'tirganlarning ko'plari bir-birlarini tanir edilar. Bir necha stollarda qarta o'ynashmoqda edi. Kelnerlar stollar orasidan ichimliklar tashib yurishardi. Ikki kishi kirib o'rin topisholmadi. Ular mening qarshimga kelib to'xtashdi. Men yana pivo so'radim. Hozir ketganim bilan qa-

yerga ham boraman, kasalxonaga borishga hali erta edi. Men hech narsani o'ylamaslikka, og'ir bo'lishga harakat qilardim. Kirganlar yana birpas turishdi, lekin hech kimning o'rne bo'shamagach, chiqib ketishdi. Yana pivo ichdim. Oldimda, stol ustida ancha idishlar yig'ilib qolgandi. Qarshimda o'tirgan odam ko'zoynagini oldi, uni g'ilofiga solib qo'ydi, gazetani buklab cho'ntagiga tiqdi-da, qo'lidagi likyor solingan qadahni o'ynab atrofga alanglay boshladi. To'sindan bormasam bo'lmasligini sezdim. Men kelnerni chaqirdim, pulni to'ladim, paltoni kiydim, shlyapani olib ko'chaga chiqdim. Kasalxonaga qaytdim, yomg'ir yog'ib turardi. Tepada, yo'lakda hamshiraga duch keldim.

– Men hozirgina sizga, mehmonxonaga qo'ng'iroq qilgandim, – dedi u.

– Ichimda bir narsa uzilib ketganday bo'ldi.

– Tinchlikmi?

– Madame Genridan qon ketyapti.

– Kirsam bo'ladimi?

– Yo'q, hozir mumkinmas. Doktor bor.

– Xavflimi?

– Juda ham xavfli.

Hamshira ichkariga kirib orqasidan eshikni zichlab yopdi. Men yo'lakda, eshik oldida o'tirdim. Ichim o'pirlib tushganday edi. Men o'ylamasdim. Miyamga hech narsa kirmasdi. Men uning o'lishini bilardim va xudodan uning o'lmasligini iltijo qilardim. Ilohim, u o'lmasin. Yo rab, yo rab, u o'lmasin. Nimani buyursang, shuni ado etaman, faqat u o'lmasin. Yo'q, yo'q, yo'q, jonim xudoyo, u o'lmasin. Jonim xudo, u o'lmasin. Yo'q, yo'q, yo'q, u o'lmasin. Parvardigorim, uni o'z panohingda asra. Nima desang, shuni ado etaman, u o'lmasin. Sen bolani olding, endi uni o'z panohingda asra. Uni olding, mayli, lekin endi buni o'z panohingda asra. Xudo, jonim xudo, uni o'z panohingda asra.



Hamshira eshikni qiya qilib ochdi, menga kirishga ishora qildi. Uning orqasidan palataga kirdim. Kirganimda Ketrin o'girilib qaramadi. Men o'rin oldiga keldim. Doktor to'shakning narigi tomonida turgan edi. Ketrin menga qarab jilmaydi. Men to'shakka engashib yig'lab yubordim.

– Sho'rligim, – dedi Ketrin juda ham xasta ovozda. Uning yuzi pag'a bo'lib ketgandi.

– Hammasi joyida, Ket, – dedim men. – Tezda hammasi yaxshi bo'lib ketadi.

– Men tezda o'laman, – dedi u. Keyin bir zum sukut qilib turdi-da, dedi: – Men esa xohlamayman.

Men uning qo'lini tutdim.

– Ushlama meni, – dedi u. Uning qo'lini qo'yib yubordim. U jilmaydi. – Sho'rlikkinam! Ushlayver istaganingcha.

– Hammasi yaxshi bo'ladi, Ket. Men bilaman, hammasi yaxshi bo'ladi.

– Men bir narsa bo'lib qolsa deb, senga xat yozib qoldirmoqchi edim, yozilmayoq qoldi.

– Men kashishnimi, biron odamni chaqiraymi?

– O'zing borsan, yetadi, – dedi u. Keyin anchadan so'ng: – Men qo'rqmayman. Faqat men xohlamayman.

– Sizga ko'p gapirish mumkin emas, – dedi doktor.

– Yaxshi, gapirmayman, – dedi Ketrin.

– Nima qilay, Ket? Senga biron narsa kerakmi? Ketrin jilmaydi. – Yo'q. – Bir qancha vaqt o'tgach: – Sen boshqa qiz bilan men bilan bo'lganday bo'lmaysanmi? Bizning so'zlarimizni gapirmaysanmi? Ayt.

– Hech qachon.

– Men sening yana qizlaring bo'lishini istayman.

– Ular menga kerakmas.

– Sizga ko'p gapirish mumkin emas, – dedi doktor. Mansieur Genri chiqib turmasa bo'lmaydi. Ke-

yinroq yana kiradi. Siz o'lmaysiz. Bo'lmag'ur gaplar-ni gapirmang.

– Xo'p, – dedi Ketrin. – Men sening oldingga tun-lari kelaman, – dedi u. U zo'r-bazo'r gapirmoqda edi.

– Marhamat, palatadan chiqing, – dedi doktor. – Uning gapirishi mumkinmas.

Ketrin menga imo qilib qo'ydi; uning yuzi ko'karib ketmoqda edi.

– Mayli, men yo'lakda turaman, – dedim.

– Xafa bo'lma, jonim, – dedi Ketrin. – Men zig'ircha ham qo'rqmayman. Faqat bu juda bo'lmag'ur narsa.

– Sen mening jonajonimsan, sen juda yurakli xotinsan.

Men yo'lakda, eshik orqasida turdim. Uzoq turdim. Hamshira palatadan chiqib, yonimga keldi.

– Madame Genrining holi juda yomon, – dedi u. – Men qo'rqyapman.

– U o'ldimi?

– Yo'q, u hushsiz yotibdi.

Aftidan qon to'xtamay ketmoqda edi. Qonni sira to'xtatib bo'lmadi. Men palataga kirdim, to jon berguncha Ketrinning oldida bo'ldim. U boshqa o'ziga kelmasdi, ko'p o'tmay hammasi tugadi.

Yo'lakda men doktorga dedim:

– Bugun yana qilinadigan ishlar bormi?

– Yo'q. Hech narsa qilish kerak emas. Sizni mehmonxonaga kuzatib qo'yaylikmi?

– Yo'q, rahmat. Men yana biroz shu yerda bo'laman.

– Bilaman, nima ham derdim. Ifoda qilolmayman...

– Ha, – dedim, – nima ham deyish mumkin.

– Xayrli tun, – dedi u. – Balki har holda kuzatib qo'ysam bo'larmidi?

– Yo'q, rahmat.

– Boshqa hech narsa qilib bo'lmadi, – dedi u. – Operatsiya ko'rsatdiki...

- Men bu haqda gapirishni istamayman, - dedim.
- Sizni mehmonxonaga kuzatib qo'ysam devdim.
- Yo'q, rahmat.

U yo'lakdan yurib ketdi. Men palataning eshigiga keldim.

- Hozir mumkinmas, - dedi hamshiralardan biri.
- Mumkin, - dedim.
- Yo'q, hali mumkinmas.
- Ketinglar bu yerdan, - dedim men. - U ham ketsin.

Biroq ularni haydab yuborib eshikni yopib chiroqni o'chirganimda, bunga endi hojat qolmaganligini angladim. Bu haykal bilan xayrlashuvday edi. Ko'p o'tmay men chiqib zinadan tushdim-da, yomg'irda mehmonxonaga yo'l oldim. Yomg'ir tinmay yog'ardi.

## MUNDARIJA

CHOL VA DENGIZ ( <i>Qissa</i> ).....	3
ALVIDO, QUROL! ( <i>Roman</i> ).....	100
MUALLIF SO‘Z BOSHISI .....	100
BIRINCHI KITOB.....	105
IKKINCHI KITOB.....	188
UCHINCHI KITOB .....	268
TO‘RTINCHI KITOB.....	346
BESHINCHI KITOB .....	398

*Adabiy-badiiy nashr*

ERNEST XEMINGUEY

**CHOL VA DENGIZ**

Muharrir  
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir  
Uyg'un SOLIHOV

Musahhih  
Madina MAHMUDOVA

Sahifalovchi  
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 11.01.2017-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 13,875. Shartli bosma tobog'i 23,31.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 12000 nusxa. Buyurtma № 7\009.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Kitob matni «Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.

100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 129-09-69; 129-09-72:

Marketing bo'limi – 128-78-43; faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

**«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazi  
«Kamolot kutubxonasi» ruknida quyidagi  
yangi kitoblarni nashrga tayyorladi:**

**Erix Mariya Remark**

**«G'ARBIY FRONTDA O'ZGARISH YO'Q»**

**Bichimi 84x108 1/32, 240 bet**

**Yumshoq muqovada**

Atoqli nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ijodi bilan kitobxonlarimiz uning «Uch og'ayni» romani orqali tanishganlar. Mana endi adibning yana bir mashhur romanini e'tiboringizga havola qilayotirmiz. Mazkur asarda birinchi jahon urushi o'z domiga tortgan o'spirinlar obrazi orqali urush dahshatlarini boshidan kechirgan, ruhan ezilgan, jamiyatdan begonalashgan va bolalik orzu-umidlari chilparchin bo'lgan butun bir avlodning ayancli qismati mahorat bilan aks ettirilgan.

**Alan Aleksandr Miln**

**«VINNI PUX VA UNING SARGUZASHTLARI»**

**Bichimi 84x108 1/32, 112 bet.**

**Yumshoq muqovada**

Jahon adabiyotida bolalar uchun yozilgan kitoblar orasida Alan Aleksandr Miln ijodi, qahramonlari yosh kitobxonlarimiz qalbiga shu qadar yaqinki, u haqda eshitganda, ko'rganda hayajonlarini, quvonchlarini yashirolmaydilar.

«Vinni Pux va uning sarguzashtlari» nomli mo'jazgina kitobchani biz ilk bora o'zbek tilida yosh kitobxon do'st-larimiz e'tiboriga havola qilmoqdamiz.

Ularning sevimli qahramonlari – Vinni Puxning sarguzashtlari chindan-da maroqli, chindan-da hayratlanarli.

Bola qalbimizni to'liqlantiradigan asar mutolaasiga shoshilamiz.

**Kaykovus**

**«QOBUSNOMA»**

**Bichimi 84x108 1/32, 224 bet**

**Yumshoq muqovada**

«Qobusnoma» Sharq xalqlari orasida maʼlum va mashhur. Shul bois, bu durdona asar koʻp marotaba nashr etilgan. Oldingi nashrlarda parvardigori olamni tanimoq, Haq Taoloning shukrguzarligi, neʼmatlarga shukr qilmoq hamda paygʻambarlar xilqatiga bagʻishlangan boblar tushirib qoldirilgan edi.

Aziz kitobxon! «Qobusnoma» (XI) asari tarjimasini tabdilining toʻldirilgan mazkur nashri oʻzbek tilida eʼlon qilingan va biz kitobxonlarimizning talab-istaklarini inobatga olib, uni qaytadan nashrga tayyorladik. Kitob sizni bizni oʻz taqdirimiz ustida jiddiy oʻylashga undaydi.

**Charlz Dikens**

**«OLIVER TVISTNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI»**

**Bichimi 84x108 1/32, 640 bet**

**Qattiq muqovada**

Angliyaning ovloq shaharlaridan biridagi «Mehnat uyi» – «Gʻaribxon»a. Taqdir taqozosi bilan bu yerga kelib qolgan yosh va koʻhlikkina juvonning shu mudhish dargohda koʻzi yoridi. Bola dunyoga keldi-yu, ona esa olamdan oʻtdi.

Shoʻrpehona goʻdak muhtojlik va qiynoqlar ostida oʻn yoshga toʻldi. Uni tobutsozga shogirdlikka berdilar. Bola bu yerdagi azob-uqubatlar, haqoratlariga dosh berolmay, boshi oqqan tomonga qarab qochdi.

Mana katta London yoʻli. Tuguncha koʻtargan, ust-boshi yupun, boshida homiysi, bisotida sariq chaqasi yoʻq soʻqqabosh, qiltiriq bolakay ketib boryapti...

Aziz kitobxon, keling, kitobni birgalikda oʻqib koʻraylik-chi, bolakay qaylarga oshiqyapti-yu, uni oldinda ne savdolar kutyaptiykin?

**Rabindranat Tagor**

**«HALOKAT»**

**Bichimi 84x108 1/32, 352 bet**

**Yumshoq muqovada**

Ikki juftning – Romesh bilan Sushilaning, Nolinakxa bilan Kamolaning toʻylari eski hind odatiga muvofiq oʻtkaziladi, yaʼni bir-birlarini koʻrmay-bilmay, sevishmay, faqat kattalarning xohishlariga boʻysunib nikohlanadilar. Har ikki oila oʻz hayotlarini otalariday eskicha asosda qurishlari lozim edi. Biroq daryoda qoʻzgʻalgan boʻron girdibod natijasida toʻy tantanalarining qatnashchilari halok boʻladi. Tagor tirik qolgan yigit-qizni qovushtiradi, ular esa haqiqiy holdan bexabar oʻzlarini er-xotin hisoblaydilar. Bular ikkisi tamom gʻayritabiiy vaziyatda qoladilar: ularning oʻtmishi yoʻq, u daryoda halok boʻlganlar bilan birga gʻarq boʻlib ketdi; ularda ota-ona ham, qaynata uyi ham yoʻq. Muallif Romesh bilan Kamolaga bir-birlarini yaxshi anglab olmoqlari va oʻz xohishlaricha hayot qurishlari uchun toʻla imkoniyat beradi...

Xoʻsh, ularning taqdiri nima bilan nihoyalanadi? Qoʻlingizdagi kitobni oʻqigach, savollaringizga yechim topasiz.

**Sadriddin Ayniy**

**«SUDXOʻRNING OʻLIMI»**

**Bichimi 84x108 1/32, 240 bet**

**Yumshoq muqovada**

Atrofimizda turlicha tabiat egalari bor. Kimdir ochiqkoʻngil – kimdir gʻazabnok, kimdir shafqatli – kimdir mehrsiz, kimdir samimiy – kimdir xushomadni yaxshi koʻradi. Ammo shunday tabiatli insonlar toifasi borki, ular nafaqat ogʻzaki gurunglarning, balki butun boshli asarlarning qahramonlariga aylanganlar. Shunday qahramonlardan biri, shubhasiz, Sadriddin Ayniyning



xasislikda, sudxo'rlukda dong'i ketgan Qori Ishkamba-sidir.

Boylik, mol-dunyo nafaqat ko'zini, balki butun ong-u shuurini egallab olgan Ishkamba obrazi, uning qarashlari, atrofdagi odamlar va yashayotgan muhitiga munosabati kitobxonning kulgidan ko'ra, g'azabini, ko'pchilik holatlarda esa chin dildan rahm-shafqat tuyg'usini uyg'otadi.

## **Jozef Redyard Kipling**

### **«MAUGLI»**

**Bichimi 84x108 1/32, 240 bet**

**Yumshoq muqovada**

Bolalik dunyomiz bilan bog'liq shirin xotiralarni yodga olganda, beixtiyor qalbimiz sevinchga, yuragimiz haroratga to'ladir. Uning har bir dami, har bir lahzasi shu qadar yodimizga muhrlanganki, o'sha quvonchli fursatlarni farzandimiz yuz-ko'zida ko'rgimiz keladi.

Bizning sevimli ertak qahramonimiz bugun bolamiz quvonchiga sabab. Maugli haqida hikoya qiluvchi mazkur kitobni ham aynan yosh kitobxonlarimiz qalbiga sevinch ulashish, suyumli multqahramonlari bilan satrlar orqali hamsu.hbat bo'lsinlar, degan niyat bilan nashrga tayyorladik.

Unutmang, Maugli – o'zgarmagan, uning boshdan kechirganlari, o'rmondagi hayoti, sarguzashtlari ham o'sha-o'sha. Ammo u qalban sizga qanchalik yaqin? Uning yuragida nimalar pinhon? Bu savollarga aynan kitobdan javob topasiz.



# Ernest Xeminguey

(1899 – 1961)

Amerikalik mashhur yozuvchi. Nobel mukofoti laureati (1954).

1899-yilda tugʻilgan.

1917-yildan Kanzas-Sitida jurnalist-reportyor sifatida ish boshlagan. Dastlabki hikoyalar toʻplami 1924-yilda «Bizning zamonda» nomi bilan nashr etilgan. Shuningdek, adibning «Peshindan keyingi oʻlim» (1932), «Afrikaning yashil tepaliklari» (1935), «Gʻolibga bayroq berilmaydi» (1933), «Hoʻkizning shoxi», «Frensis Makomberning baxti», «Kilimanjaro qorlari» (1936) hikoyalari ham uning yuksak badiiy mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Adibning mashhur «Alvido, qurol!» (1929) romanida inson huquqlari, uning qadr-qimmati va muhabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligi yorqin ifodalangan.

Ispan xalqining milliy ozodlik kurashida harbiy muxbir sifatida qatnashgan adib taassurotlari asosida «Motam qoʻngʻirogʻi» (1940) romanini yozgan.

«Daryoning naryogʻida, daraxtlar soyasida» (1950) romani, «Chol va dengiz» (1952) qissasi Xemingueyga katta shuhrat keltirgan.

Adib 1961-yilda vafot etgan.